

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI  
TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI**

**SUD  
PROTSESSUAL HUJJATLARI**

**YURIDIK TEXNIKUM O'QUVCHILARI  
UCHUN DARSLIK**

**TOSHKENT – 2020**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2019-yil 20-iyuldagи 654-sonli buyrug‘iga ko‘ra nashrga tavsiya etilgan.

**Sud protsessual hujjatlari.** Darslik. – Toshkent.: TDYU, 2020. -262 bet.

**Mualliflar jamoasi:** y.f.n., prof. D.Y.Xabibullayev – 1-3, 7-9-mavzular; y.f.d., prof. Z.N.Esanova – 5, 10-mavzular; y.f.d., prof. M.M.Mamasiddiqov – 4, 6-mavzular; iqtisodiy ishlar bo‘yicha Toshkent viloyati Zangiota tumanlararo sudining sudyasi, Phd Q.S.Avezov – 11-19-mavzular; o‘qituvchi SH.X.Tulyaganova – 20-24-mavzular; katta o‘qituvchi A.R.Matmuratov – 25-30-mavzular.

**Taqrizchilar:**

**O.Ganiyev** – Toshkent davlat yuridik universiteti Fuqarolik protsessual va iqtisodiy protsessual huquqi kafedrasи dotsent v.b., y.f.n.

**S.Maripova** – Yuristlar malakasini oshirish markazi “Fuqarolik huquqiy fanlar” kafedrasи dotsenti

Mazkur darslikda fuqarolik, iqtisodiy, ma’muriy va jinoiy sud ishlarini yuritishga oid protsessual hujjatlар, ularning turlari va rasmiylashtirish tartibi, shuningdek har bir mavzuga oid nazorat uchun savollar, protsessual hujjatlardan namunalar o‘rin olgan.

Darslik yuridik texnikum o‘quvchilari, shuningdek keng kitobxonlar ommasiga mo‘ljallangan.

© Mualliflar jamoasi.

© Toshkent davlat yuridik universiteti, 2020-yil.

## MUNDARIJA

---

<b>Kirish.....</b>	<b>5</b>
1-mavzu. Sud protsessual hujjatlarning umumiy tavsifi.....	6

### **I. FUQAROLIK ISHLARI BO'YICHA SUDDA RASMIYLASHTIRILADIGAN PROTSESSUAL HUJJATLAR**

2-mavzu. Fuqarolik ishlarini qo'zg'atish va tayyorlash bosqichida yuritiladigan protsessual hujjatlar.....	8
3-mavzu. Ishni sudda ko'rish bosqichida yuritiladigan protsessual hujjatlar.....	17
4-мавзу. Birinchi instansiya sudi tomonidan chiqariladigan ajrimlar va hal qiluv qarorlari.....	23
5-mavzu. Sirdan ish ko'rishda yuritiladigan protsessual hujjatlar.....	32
6-мавзу. Buyruq tartibida ish yuritishda rasmiylashtiriladigan protsessual hujjatlar.....	38
7-mavzu. Alohida tartibda ish yuritishdagi protsessual hujjatlar.....	43
8-mavzu. Hakamlik sudining hal qiluv qarori bilan bog'liq ishlarni yuritish jarayonidagi protsessual hujjatlar.....	72
9-mavzu. Fuqarolik ishlari bo'yicha sud hujjatlarini qayta ko'rishdagi protsessual hujjatlar.....	78
10-mavzu. Sud hujjatlarini ijro etish bosqichida yuritiladigan protsessual hujjatlar.....	91

### **II. IQTISODIY SUDDA RASMIYLASHTIRILADIGAN PROTSESSUAL HUJJATLAR**

11-mavzu. Iqtisodiy ishlarni qo'zg'atish va tayyorlash bosqichida yuritiladigan protsessual hujjatlar.....	104
12-mavzu. Ishni sudda ko'rish bosqichida yuritiladigan protsessual hujjatlar..	112
13-mavzu. Buyruq tartibida ish yuritishda rasmiylashtiriladigan protsessual hujjatlar .....	118
14-mavzu. Iqtisodiy sud tomonidan ishni ko'rishda chiqariladigan ajrim va hal qiluv qarorlari .....	123
15-mavzu. Alohida toifadagi ishlar bo'yicha ish yuritishdagi protsessual hujjatlar.....	133

16-mavzu. Iqtisodiy sudda hakamlik sudining hal qiluv qarori bilan bog'liq ishlarni yuritish .....	141
17-mavzu. Huquqiy ta'sir choralarini qo'llash to‘g‘risidagi ishlarni yuritishdagi protsessual hujjatlar.....	152
18-mavzu. Iqtisodiy ishlar bo'yicha sud hujjatlarini qayta ko'rishdagi protsessual hujjatlar .....	160
19-mavzu. Iqtisodiy sud hujjatlarini ijro etish bosqichida yuritiladigan protsessual hujjatlar.....	168
<b>III. MA'MURIY SUD ISHLARINI YURITISHDAGI PROTSESSUAL HUJJATLAR</b>	
20-mavzu. Ma'muriy sud ishlarni qo'zg'atish va tayyorlash bosqichida yuritiladigan protsessual hujjatlar .....	173
21-mavzu. Ma'muriy ishni sudda ko'rishda yuritiladigan protsessual hujjatlar.....	178
22-mavzu. Ma'muriy sud tomonidan ko'rildigani ishlar bo'yicha chiqariladigan ajrim, qaror va hal qiluv qarorlari .....	182
23-mavzu. Ma'muriy sud hujjatlarini qayta ko'rishdagi protsessual hujjatlar ..	188
24-mavzu. Ma'muriy sud hujjatlarini ijro etish bosqichida yuritiladigan protsessual hujjatlar .....	200
<b>IV. JINOYAT ISHLARI BO'YICHA SUDLARDA YURITILADIGAN PROTSESSUAL HUJJATLAR</b>	
25-mavzu. Jinoyat ishini sudda ko'rish uchun tayinlash va sud majlisining tayyorlov qismida rasmiylashtiriladigan protsessual hujjatlar .....	203
26-mavzu. Sud muhokamasida rasmiylashtiriladigan protsessual hujjatlar ....	208
27-mavzu. Sud hukmi .....	216
28-mavzu. Hukm, ajrim va qarorlarning qonuniyligi, asosliligi va adolatlilikini tekshirishda rasmiylashtiriladigan protsessual hujjatlar .....	227
29-mavzu. Hukm, ajrim, qarorlarni ijro etish bosqichida chiqariladigan sud hujjatlar.....	239
30-mavzu. Alovida toifadagi jinoyat ishlarni yuritishda rasmiylashtiriladigan protsessual hujjatlar.....	243
<b>Tavsiya etiladigan adabiyotlar.....</b>	261

## KIRISH

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan sud-huquq islohotlarining muhim bir yo‘nalishi – yuqori malakali, raqobatbardosh, zamonaviy xalqaro standartlarga javob bera oladigan yuridik kadrlarni tayyorlashdan iborat. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 13-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi faoliyatini yanada takomillashitirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3666-son qarorining qabul qilinishi muhim ahamiyat kasb etdi.

Mazkur qarorga asosan Adliya vazirligi tizimida mamlakatimizning har bir hududida bittadan yuridik kollej tashkil etildi. Bu esa o‘z navbatida malakali yuridik kadrlarni tayyorlash, ularni zamonaviy interfaol usullarda o‘qitish, o‘quvchilarining nazariy bilimlarini amaliy jihatdan mustahkamlash, o‘quvchilarda mustaqil protsessual hujjatlar yaratish ko‘nikmasini hosil qilish va shu orqali sohaga oid qonun hujjatlarini o‘zlashtirishga ko‘maklashish uchun yangi avlod uchun mo‘ljallangan o‘quv adabiyotlari tayyorlashni taqozo etadi.

Shunga ko‘ra, yuqoridagi qarorda belgilangan ustuvor vazifalardan kelib chiqib, “Sud protsessual hujjatlar” nomli darslik o‘quvchilarda fuqarolik, iqtisodiy, ma’muriy va jinoiy sud ish-larini yuritishga oid protsessual hujjatlar haqida asosiy tushuncha, ko‘nikma va bilimlar hosil qilish, protsessual hujjatlarni to‘g‘ri rasmiylashtirish uchun yetarli tajriba orttirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, mazkur darslik hozirgi zamon talablaridan kelib chiqib tayyorlanganligi, o‘quvchilar tomonidan mustaqil ishslash ko‘nikmasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Mazkur darslikda fuqarolik, iqtisodiy, ma’muriy va jinoyat ishlari bo‘yicha protsessual hujjatlarning umumiy qoidalari, ularning turlari va mazmuni to‘g‘risida qisqacha ma’lumotlar, mantiqiy (muammoli) savollar, sud protsessual hujjatlarni rasmiylashtirishning tartib-qoidalari va sud protsessual hujjatlaridan namunalar berilgan.

Ushbu darslik huquqshunoslik yo‘nalishida tahsil olayotgan o‘quvchilar uchun muhim manba vazifasini o‘taydi.

Mazkur darslikda namuna sifatida keltirilgan protsessual hujjatlardagi shaxslarga doir barcha ma’lumotlarning hayotda mos kelishi tasodifiydir. Mualliflar mazkur holat bo‘yicha javobgarlikni o‘z zimmalariga olmaydilar.

## **1-MAVZU. SUD PROTSESSUAL HUJJATLARNING UMUMIY TAVSIFI**

### **1-§. Sud protsessual hujjatlari tushunchasi va ularning ahamiyati**

Odil sudlovni amalga oshirishda sud bir-biri bilan bog‘liq bo‘lgan hamda protsessual tizimga asoslangan harakatlarni amalga oshiradi. Bunday protsessual harakatlar tartibi O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual, Iqtisodiy protsessual, Jinoyat-protcessual va Ma’muriy sud ishlarini yuritish kodekslarida belgilangan asosda, ya’ni ariza, da’vo arizasi, shikoyat, e’tiroz, protest, sudning hal qiluv qarorlari, qarorlar va ajrimlari shaklida o‘z ifodasini topadi. Sud protsessual hujjatlari ixcham va belgilangan talablarga muvofiq tuzishni talab etadi. Protsessual qonun talablariga rioya qilinmasdan tuzilgan hujjatlar ish ko‘rishni qiyinlashtiradi, qonunda ko‘zda tutilgan ba’zi hollarda esa yuqori sudlar tomonidan sud qarorlarining o‘zgartirilishiga yoki bekor qilinishiga olib keladi.

“Sud protsessual hujjatlari” fani odil sudlovni amalga oshirish borasida vujudga keladigan huquqiy munosabatlar doirasida protsessual hujjatlarning turlari, mazmuni va shakliga qo‘yilgan talablarni, ularning tuzilishi, qabul qilinishi hamda taqdim etilishini, shuningdek ushbu hujjatlarda amaldagi qonun hujjatlarining tegishli qoidalari to‘g‘ri tatbiq etilishi va boshqa protsessual xususiyatlarining nazariy va amaliy masalalarini o‘rganadi.

### **2-§. Sud protsessual hujjatlarning turlari**

Sud protsessual hujjatlari sud ishlarini yuritish turlari, fuqarolik, iqtisodiy, ma’muriy sud ishlarini yuritish va jinoyat protsessi bosqichlari, protsessual hujjatlarning tuzilishi, mazmuni, ushbu hujjatlarni tuzish yoki qabul qilish vakolatiga ega sub-yektlar doirasiga ko‘ra turlarga bo‘linadi. Masalan, fuqarolik sud ishlarini yuritish turlariga qarab da’vo tartibidagi ishlar (oila, uy-joy, mehnat munosabatlari, yetkazilgan zararni undirish, merosga oid ishlar va b.), buyruq tartibidagi ishlar, alohida tartibda yuri-tiladigan ishlar, hakamlik sudining hal qiluv qarori bilan bog‘liq ishlar va chet davlat sudlarining hamda chet davlat hakamlik sudlarining

(arbitrajlarining) hal qiluv qarorlarini tan olish va ijroga qaratish bilan bog'liq ishlar bo'yicha rasmiylashtiriladigan protsessual hujjatlarni misol sifatida keltirish mumkin.

**Protsessual hujjatlarni tuzish yoki qabul qilish vakolatiga ega subyektlar doirasiga ko'ra, ular quyidagi turlarga bo'linadi:**

**Sud (sudya) tomonidan qabul qilinadigan protsessual hujjatlar.** Masalan, sud buyrug'i, qaror, sud ajrimi, hal qiluv qarori, hukm va boshqa protsessual hujjatlar.

**Sud yordamchisi tomonidan rasmiylashtiriladigan protsessual hujjatlar.** Masalan, sud majlisi bayonnomasini rasmiylashtirish, sud chaqiruv qog'ozini yozish va yuborish va boshqa harakatlar.

### **3-§. Sud protsessual hujjatlarni tuzish va rasmiylashtirish tartibi**

O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual, Iqtisodiy protsessual, Jinoyat-protsessual va Ma'muriy sud ishlarini yuritish kodekslari, Fuqarolik kodeksi, Mehnat kodeksi, Oila kodeksi, Uyjoy kodeksi, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi, Jinoyat kodeksi hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlar, sudlar tomonidan chiqariladigan protsessual hujjatlarni rasmiylashtirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumi qarorlari ham sudlar tomonidan protsessual hujjatlarni rasmiylashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasining 2000-yil 14-dekabrdagi yangi tahrirdagi "Sudlar to'g'risida"gi Qonuning 21-moddasida ko'rsatilishicha, "O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining qarori majlisda ishtiroy etayotgan O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumi a'zolarining ko'pchilik ovozi bilan ochiq ovoz berish orqali qabul qilinadi va qabul qilingan paytdan boshlab kuchga kiradi.

Qonun hujjatlarini qo'llash masalalari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining tushuntirishlari sudlar, ushbu tushuntirishlar berilgan qonun hujjatlarini qo'llayotgan boshqa organlar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va mansabdor shaxslar uchun majburiydir.

## **NAZORAT UCHUN SAVOLLAR**


1. Sud protsessual hujjatlarning turlarini tahlil qiling.
2. Sudya yordamchisi (katta yordamchisi)ning huquqiy məqomini tahlil qiling.
3. Sud devonxonasida ishlarni tashkil etish tartibini tahlil qiling.
4. Sudga kelgan hujjatlar yaroqsiz yoki ilovasida kamchiliklar aniqlanganda qanday harakatlar amalga oshiriladi?

## **I. FUQAROLIK ISHLARI BO‘YICHA SUDDA RASMIYLASHTIRILADIGAN PROTSESSUAL HUJJATLAR**

### **2-MAVZU. FUQAROLIK ISHLARINI QO‘ZG‘ATISH VA TAYYORLASH BOSQICHIDA YURITILADIGAN PROTSESSUAL HUJJATLAR**

#### **1-§. Da’vo arizasi (ariza)ning mazmuni, shakli va uni protsessual rasmiylashtirish tartibi**

Sudda ishlar yozma shaklda, shu jumladan pochta orqali yoki elektron hujjat tarzida ariza shaklida beriladi. Da’vo arizasi (ariza)ning mazmuni FPKning 189-moddasida ko‘rsatilgan talablar asosida rasmiylashtiriladi.



Ariza da'vogar yoki uning vakili tomonidan imzolanadi. Agar ariza vakil tomonidan berilgan bo'lsa, arizaga ishonchnoma yoki uning vakolatini tasdiqlovchi boshqa hujjat ilova qilinishi lozim.

Boshqa shaxslarning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish maqsadida prokuror, davlat boshqaruvi organlari, tashkilotlar yoki ayrim fuqarolar tomonidan beriladigan arizalarda, shu moddada sanab o'tilgan ma'lumotlardan tashqari ariza kimning manfaatini ko'zlab berilgan bo'lsa, o'sha shaxsning nomi (familiyasi, ismi va otasining ismi) va manzili ko'rsatilishi lozim.

Arizada da'vogarning yoki uning vakilining, shuningdek boshqa tarafning telefonlari va fakslari raqamlari, elektron manzili ko'rsatilishi mumkin.

Arizada elektron manzil ko'rsatilganligi arizachining sud chiqiruv qog'ozlarini va boshqa xabarnomalarni, sud hal qiluv qarolaring va ajrimlarining ko'chirma nusxalarini elektron hujjat tarzida olishga bo'lgan roziligidir.

---

#### **Arizaga quyidagilarni tasdiqlovchi hujjatlar ilova qili-nadi:**

- 1) arz qilinayotgan talablarga asos bo'lgan holatlarni;
  - 2) javobgar bilan nizoni sudgacha hal qilish tartibiga rioya etilganligini, basharti bu qonunda yoki shartnomada nazarda tutilgan bo'lsa;
  - 3) davlat boji va pochta xarajatlari belgilangan tartibda va miqdorda to'langanligini;
  - 4) arizani imzolash vakolatini tasdiqlovchi hujjatni, agar ariza vakil tomonidan imzolangan bo'lsa.
- 

#### **Da'vo arizasi namunasi**

Fuqarolik ishlari bo'yicha Toshkent shahar Uchtepa tumanlararo sudiga
---

Da'vogar: (F.I.Sh.), Toshkent shahar Chilonzor tumani, 3-mavze, 9-uy, 15-xona-donda istiqomat qiladi.

Javobgar: (F.I.Sh.), Toshkent shahar Chilonzor tumani, 3-mavze, 9-uy, 15-xona-donda istiqomat qiladi.

## DA‘V O ARIZA

*(Oldi-sotdi shartnomasini haqiqiy emas deb topish haqida)*

Men, javobgar (F.I.Sh.) bilan 2003-yilning mart oyida qonuniy nikohdan o‘tib oila qurbanman, ushbu haqda Sobir Raximov tumani FHDYO bo‘limida 1058-son bilan dalolatnomaga yozuvni qayd etilgan. Birgalikdagi turmushimizdan ikki nafar farzandlarimiz bor.

Javobgar (F.I.Sh.) bilan birgalikdagi turmushimiz davomida, ya’ni 2009-yil 13-mayda javobgar (F.I.Sh.) nizoli Toshkent shahar Chilonzor tumani 3-mavzesi 9-uyning 15-xonadonini sotib oldi. Turmush o‘rto-g‘im, ya’ni javobgar (F.I.Sh.) O‘zbekiston Respublikasi JKning 168-moddasini 3-qismi “a” bandi bilan ayblanib, sud unga nisbatan ozod-likdan mahrum etish jazosini tayinladi. Javobgar (F.I.Sh.) jazoni o‘ta-yotgan vaqtida, mening roziligidan olinmay 2012-yilning 19-aprel kuni berilgan ishonchnomaga asosan harakat qilgan fuqaro (F.I.Sh.) nizoli xonadonni (F.I.Sh.)ga sotgan bo‘lib, ushbu oldi-sotdi shartnomasi Toshkent shahar Chilonzor tumani 8-sonli DNIsi tomonidan 6-2344-reyestr raqami bilan qayd etilgan.

O‘zbekiston Respublikasining Oilal kodeksi 23-moddasida “Er va xotinning nikoh davomida orttigan mol-mulkulari, shuningdek, nikoh qayd etilgunga qadar, bo‘lajak er-xotinning umumiy mablag‘lari hisobiga olingan mol-mulkulari, agar qonun yoki nikoh shartnomasida boshqacha hol ko‘rsatilmagan bo‘lsa, ularning birgalikdagi umumiy mulki hisoblanadi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining Oilal kodeksi 24-moddasida “Er (xotin) o‘zining nomiga rasmiylashtirgan umumiy ko‘chmas mol-mulkni tasarruf etish bo‘yicha bitim tuzishi uchun xotin (er)ning notarial tartibda tasdiqlangan roziligini olishi lozim. Ko‘rsatilgan bitim-ni tuzishga notarial tartibda tasdiqlangan roziligi olinmagan er yoki xotin mazkur bitim amalga oshirilganligini bilgan yoki bilishi lozim bo‘lgan kundan boshlab bir yil davomida bu bitimni sud tartibida haqiqiy emas deb topishni talab qilishga haqlidir.”

Yuqorida keltinganimdek, nizoli xonadon oldi-sotdi shartnomasi imzolanayotganda mening roziligidan olinmagan, men ushbu oldi sotdi shartnomasi haqida faqatgina 2013-yilning 1-fevral kuni xabar topdim.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 113-114-moddalariga binoan bitim ushbu kodeksda belgilab qo‘yilgan asoslarga ko‘ra sud haqiqiy emas deb topganligi sababli nizoli bitim haqiqiy emas deb hisoblanadi, haqiqiy bo‘limgan bitim uning haqiqiy emasligi bilan bog‘liq oqibatlardan tashqari boshqa yuridik oqibatlarga olib kelmaydi va tuzilgan paytidan boshlab haqiqiy emasdir.

**S O‘ R A Y M A N:**

2012-yil 19-aprel kuni javobgar nomidan ishonchnoma asosida harakat qiluvchi (F.I.Sh.) hamda (F.I.Sh.) o‘rtasida tuzilib, Toshkent shahar Chilonzor tumani 8-sonli DNI tomonidan tasdiqlanib, rasmiy ro‘yxat kitobiga 6-2344-raqami bilan qayd qilingan Toshkent shahar Chilonzor tumani 5-mavzesi, 9-uy, 15-xonadonining oldi-sotdi shartno-masini haqiqiy emas deb topishingizni;

Sud xarajatlarini javobgarlardan undirishingizni.

Ilova: Nikoh guvohnomasi va tug‘ilganlik haqidagi guvohnomalar nusxasi; oldi-sotdi shartnomasi nusxasi; ma’lumotnomasi; davlat boji to‘langanligi haqidagi kvitansiya; da’vo arizadan nusxa; pasport nusxasi; boshqa hujjalalar.

Sana

imzo

F.I.O

**2-§. Da’vo arizasi (ariza)ni ish yuritishga qabul qilishni rad etish to‘g‘risidagi ajrimni rasmiylashtirish tartibi**

FPKning 194-moddasiga ko‘ra, sud arizani ish yuritishga qabul qilishni quyidagi hollarda rad etadi, agar:

1) arz qilinayotgan talab sudga taalluqli bo‘lmasa;  
2) fuqarolik ishlari bo‘yicha sudning, iqtisodiy sudning yoki ma’muriy sudning yoxud chet davlat vakolatli sudining ayni bir taraflar o‘rtasidagi, ayni bir predmet to‘g‘risidagi va ayni bir asoslar bo‘yicha nizo yuzasidan qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarori yoki da’vo-garning arz qilingan talablaridan voz kechishini qabul qilish to‘g‘-risidagi yoxud taraflarning kelishuv bitimini tasdiqlash haqidagi ajrimi mavjud bo‘lsa;

3) fuqarolik ishlari bo‘yicha sudning, hakamlik sudining ish yuritishida ayni bir taraflar o‘rtasidagi, ayni bir predmet to‘g‘risidagi va ayni bir asoslar bo‘yicha nizo yuzasidan ish mavjud bo‘lsa;

4) ayni bir shaxslar o‘rtasidagi, ayni bir predmet to‘g‘risidagi va ayni bir asoslar bo‘yicha nizo yuzasidan hakamlik sudining qabul qilingan, qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarorini bo‘lsa, bundan fuqarolik ishlari bo‘yicha sud hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasini berishni rad etgan hollar mus-tasno;

5) ayni bir shaxslar o‘rtasidagi, ayni bir predmet to‘g‘risidagi va ayni bir asoslar bo‘yicha nizo yuzasidan hakamlik muhokamasini tugatish to‘g‘risida chiqarilgan ajrim bo‘lsa, bundan hakamlik sudida

ushbu nizoni ko'rib chiqish vakolati mavjud emasligi sababli hakamlik muhokamasi tugatilganligi holati mustasno.

Sudyaning ushbu moddada nazarda tutilgan asoslar bo'yicha arizani ish yuritishga qabul qilishni rad etishi sudga ikkinchi marta murojaat etishga to'sqinlik qiladi.

Agar talab sudga taalluqli bo'lmasa, ajrimda suda arizachi qaysi organga murojaat qilishi lozimligini ko'rsatishi shart.

Suda arizani qabul qilishni rad etish haqidagi masalani ariza sudga kelib tushgan kundan e'tiboran o'n kundan kechiktirmay hal etadi va bu to'grisida ajrim chiqaradi. Arizani ish yuritishga qabul qilishni rad etish to'g'risidagi ajrimning ko'chirma nusxasi ariza va unga ilova qilingan hujjatlar bilan birga arizachiga ajrim chiqarilgandan keyingi kundan kechiktirmay yuboriladi (FPKning 192-moddasi).

### **Da'vo arizasini ish yuritishga qabul qilishni rad etish to'g'risidagi ajrim namunasi**

#### **A J R I M**

(da'vo arizasini ish yuritishga qabul qilishni rad etish haqida)

2018-yil 27-aprel

Toshkent shahri

Fuqarolik ishlari bo'yicha Yakkasaroy tumanlararo sudining sudyasi (F.I.Sh.) da'vogar "Zarafshon" korxonasing javobgar "Nur"ga nisba-tan qarzni undirish haqidagi da'vo arizasini ko'rib chiqib, quyidagilarni

#### **A n i q l a d i m :**

Da'vogar "Zarafshon" korxonasi javobgar "Nur"ga nisbatan qarzni undirish haqidagi da'vo arizasi bilan sudga murojaat etib, javobgardan 2.345.206 so'm qarz va sud xarajatlarini undirib berishni so'ragan.

FPKning 26-moddasi talablariga muvofiq, taraflardan hech bo'lma-ganda bittasi fuqaro bo'lgan nizolarga doir ishlar sudlarga taalluqlidir.

Ammo, da'vogar "Zarafshon" korxonasi tomonidan taqdim etilgan da'vo arizasida javobgar ham yuridik shaxsdir.

FPKning 194-moddasida sud arz qilinayotgan talab sudga taalluqli bo'lmasa, arizani ish yuritishga qabul qilishni rad etishi ko'rsatilgan.

Bunday holatda, ushbu da'vo arizasini ish yuritishga qabul qilishni rad etish, da'vogarga bu masalada iqtisodiy sudga da'vo arizasi bilan murojaat etish huquqini tushuntirish lozim deb hisoblayman.

Yuqoridagilarga binoan, FPKning 26, 194 va 271-272-moddalarini qo'llab,

**A j r i m   q i l a m a n:**

Da'vogar "Zarafshon" korxonasi javobgar "Nur"ga nisbatan qarzni undirish haqidagi da'vo arizasini ish yuritishga qabul qilish rad etilsin.

Da'vogarga ushbu masalada iqtisodiy sudga murojaat etish huquqi tushuntirilsin.

Ajrimdan norozi tomonlar 10 kun muddat ichida shu sud orqali Fuqarolik ishlari bo'yicha Toshkent shahar sudiga xususiy shikoyat berishi, prokuror xususiy protest keltirishga haqlidir.

Sudya

imzo

F.I.O.

### **3-§. Da'vo ariza (ariza)ni qaytarish to'g'risidagi ajrim va uni rasmiylashtirish tartibi**

FPKning 195-moddasida ko'rsatilgan asoslar bo'yicha sud arizani qaytarish to'g'risida ajrim chiqaradi.

---

**Sud quyidagi hollarda arizani qaytaradi:**

- 1) ariza muomalaga layoqatsiz shaxs tomonidan berilgan bo'lsa;
- 2) manfaatdor shaxs nomidan berilgan ariza ish yuritish vakolatiga ega bo'lмаган shaxs tomonidan berilgan bo'lsa;
- 3) ish mazkur sudning sudloviga tegishli bo'lmasa;
- 4) ariza FPKning 189-moddasida belgilangan talablarga rioya etilmagan holda berilgan bo'lsa;
- 5) bitta arizada bir yoki bir nechta javobgarga nisbatan bir nechta talab birlashtirilgan bo'lsa, basharti bu talablar o'zarob bog'liq bo'lmasa;
- 6) ish yuritishga qabul qilish va ishni qo`zg`atish to'g'risida ajrim chiqarilguniga qadar arizachidan arizani qaytarish haqida ariza kelib tushgan bo'lsa;
- 7) davlat boji va pochta xarajatlari belgilangan tartibda va miqdorda to'langanligini tasdiqlovchi hujjat taqdim etilmagan bo'lsa, davlat bojini to'lashni kechiktirish mumkinligi qonunda nazarda tutilgan hollarda esa bu haqda iltimosnomasi mavjud bo'lmasa yoki iltimosnomasi rad etilgan bo'lsa;
- 8) mol-mulkni (ashyoni) egasiz deb topish to'grisidagi ariza qonunda belgilangan muddatdan oldin yoki qonunda nazarda tutilgan

mol-mulkni (ashyoni) aniqlash va hisobga olish tartibi buzib berilgan bo'lsa;

9) da'vogar nizoni javobgar bilan mediatsiya tartib-taomilini amalga oshirish orqali hal qilish tartibiga rioya etilganligini tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etmagan bo'lsa, basharti bu mazkur toifadagi nizolar uchun qonunda yoki shartnomada nazarda tutilgan bo'lsa.

Yuqoridagi asoslar mavjud bo'lganida, sud arizani qaytarish to'g'risida ajrim chiqaradi. Ushbu ajrim ustidan shikoyat (protest) keltirilishi mumkin. Ajrim bekor qilingan taqdirda, ariza sudga dastlabki murojaat qilingan kunda berilgan hisoblanadi.

Demak arizani qaytarish haqidagi ajrimning xulosa qismida shikoyat va protest keltirish muddati va tartibi yoziladi.

Arizaning qaytarilishi yo'l qo'yilgan kamchiliklar bartaraf etilgandan keyin sudga umumiy tartibda takroran murojaat qilishga to'sqinlik qilmaydi.

### **Arizani qaytarish haqidagi ajrimdan namuna**

#### **AJRIM**

(da'vo arizasini qaytarish haqida)

Fuqarolik ishlari bo'yicha Shayhontohur tumanlararo sudining sudyasi (F.I.Sh.) 2018-yil 15-aprel kuni da'vogar (F.I.Sh.)ning javobgar (F.I.Sh.)ga nisbatan uydan ko'chirish haqidagi da'vo arizasini qabul qilish masalasini ko'rib chiqib, quyidagilarni

#### **Aniqladim:**

Da'vogar (F.I.Sh.) javobgar (F.I.Sh.)ga nisbatan uydan ko'chirish haqidagi da'vo arizasi bilan sudga murojaat qilgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 3-noyabrdagi 533-sonli "Davlat boji stavkalari haqida"gi qarorining bandiga asosan uydan ko'chirish haqidagi da'vo arizalaridan eng kam oylik ish haqining 50 foizi miqdorida davlat boji to'lanadi.

Sud tomonidan aniqlanishicha, da'vogar tomonidan sudga da'vo ariza taqdim qilishda yuqoridagi qonun hujjatlari bilan belgilangan miqdorda davlat boji to'lanmagan. Shu bilan birga, da'vo arizasiga asos qilib ko'rsatgan holatlarni isbotlovchi hujjatlar taqdim qilinmagan.

FPKning 195-moddasiga muvofiq suda, davlat boji belgilangan tartibda va miqdorda to'langanligini tasdiqlovchi hujjat taqdim etilmagan bo'lsa, davlat bojini to'lashni kechiktirish mumkinligi qonunda nazarda tutilgan hollarda esa bu haqda iltimosnoma mavjud bo'lmasa yoki

iltimosnomalar rad etilgan bo'lsa, arizani va unga ilova qilingan hujjatlarni qaytaradi.

Yuqoridagilarga asosan va FPK ning 195, 271-272-moddalarini qo'llab,

### **Ajrim qilaman:**

Da'vogar (F.I.Sh.)ning javobgar (F.I.Sh.)ga nisbatan uydan ko'chirish haqidagi da'vo arizasi da'vogarga qaytarilsin.

Da'vogar (F.I.Sh.)ga yo'l qo'yilgan kamchiliklar bartaraf etilganidan keyin sudga umumiyl tartibda takroran murojaat qilish huquqi tushuntirilsin.

Ajrimdan norozi tomonlar 10 kun muddat ichida shu sud orqali Fuqarolik ishlari bo'yicha Toshkent shahar sudiga xususiy shikoyat berishi, prokuror xususiy protest keltirishga haqlidir.

Sudya:

imzo

F.I.O.

### **4-§. Da'vo ariza (ariza)ni ish yuritishga qabul qilish va fuqarolik ishini qo'zg'atish to'g'risidagi ajrim hamda uni protsessual rasmiylashtirish tartibi**

Fuqarolik ishini qo'zg'atish fuqarolik protsessining birinchi va asosiy bosqichlaridan biri sanaladi.

Sudya FPKda nazarda tutilgan talablarga rioxaga etgan holda berilgan arizani ish yuritishga qabul qilishi va ish qo'zg'atishi shart.

Sudya FPKda nazarda tutilgan talablarni buzgan holda berilgan arizani, agar arizaga tegishli iltimosnomalar ilova qilingan, bunday iltimosnomalarni hal qilish qonun bilan sudyaning vakolatlariga berilgan hamda bu iltimosnomalar qanoatlantirilgan bo'lsa, ish yuritishga qabul qilishga va ish qo'zg'atishga haqli.

Sudyaning FPKda nazarda tutilgan talablarni buzgan holda berilgan arizani ish yuritishga qabul qilish to'g'risidagi iltimosnomani qanoatlantirish haqidagi xulosasi arizani ish yuritishga qabul qilish to'g'risidagi ajrimda asoslantirilgan bo'lisi kerak.

Arizani ish yuritishga qabul qilish va fuqarolik ishini qo'zg'atish to'g'risidagi ajrim ham FPKning 271-272-moddalariga mos ravishda rasmiylashtiriladi.

### **Arizani ish yuritishga qabul qilish va ish qo'zg'atish haqidagi ajrimdan namuna**

## AJRIM

(da'vo arizasini ish yuritishga qabul qilish va ish qo'zg'atish haqida)

2018-yil may oyining 12-kuni fuqarolik ishlari bo'yicha Toshkent shahar Shayxontohur tumanlararo sudining sudyasi (F.I.Sh.) da'vogar (F.I.Sh.)ning javobgar (F.I.Sh.)ga nisbatan yetkazilgan zararni undirish haqidagi da'vo arizasi bilan tanishib chiqib, quyidagilarni

### Aniqladim:

Da'vo ariza FPKning 26, 33, 189, 190, 191, 150-moddalarini talab-lariga javob beradi. Da'vo arizasini ish yuritishga qabul qilishni rad etish yoki qaytarish uchun FPKning 194 va 195-moddalarida ko'rsatilgan asoslar mavjud emas. Yuqoridagilardan kelib chiqib, da'vo arizasini ish yuritishga qabul qilib, fuqarolik ishini qo'zg'atishni lozim deb topib, FPKning 151, 271-272-moddalarini qo'llab

### Ajrim qilaman:

Da'vogar (F.I.Sh.)ning javobgar (F.I.Sh.)ga nisbatan yetkazilgan zararni undirish haqidagi da'vo arizasi ish yuritishga qabul qilinsin.

Mazkur da'vo ariza yuzasidan 1-34/18-sonli fuqarolik ishi qo'zg'atilsin.

Sudya:

imzo

F.I.O.

## 5-§. Ishni sudda ko'rishga tayyorlash to'g'risida ajrim va uni protsessual rasmiylashtirish tartibi

Fuqarolik ishini sudda ko'rishga tayyorlash bosqichi fuqarolik sud ishlarini yuritishning oldiga qo'yilgan vazifalarni amalga oshirishdagi muhim bosqich hisoblanadi. Ushbu bosqichdagi protsessual harakatlarni amalga oshirishning samaradorligi ish yuritishni to'g'ri tashkil etish, fuqarolik ishlarini protsessual muddatlarga rioya qilgan holda ko'rib chiqish imkonini beradi.

### Ishni sudda ko'rishga tayyorlash to'g'risidagi ajrimdan namuna

## AJRIM

(fuqarolik ishini sud muhokamasiga tayyorlash to'g'risida)

Men, fuqarolik ishlari bo'yicha Yakkasaroy tumanlararo sudining sudyasi (F.I.Sh.) 2018-yil aprel oyining 20-kuni da'vogar (F.I.Sh.)ning javobgar (F.I.Sh.)ga nisbatan nikohdan ajratish haqidagi da'vo arizasi bilan tanishib chiqib, quyidagilarni

### **Aniqladim:**

Sudga da'vogar (F.I.Sh.)ning javobgar (F.I.Sh.)ga nisbatan nikohdan ajratish haqidagi da'vo ariza bilan murojaat qilgan.

Da'vo ariza FPKning 189–191-moddalarini talablariga javob berishligini inobatga olib, Fuqarolik protsessual kodeksining 204, 271–272-moddalarini qo'llab,

### **Ajrim qilaman:**

Ishni sud majlisiga tayyorlashda quyidagi harakatlar amalga oshirilsin:

---

---

---

Ishni ko'rish vaqt va joyi haqida quyidagilar xabar-dor etilsin.

a) ishda ishtirok etuvchi shaxslar (FPKning 39-moddasi);

---

b) vakillar va boshqalar;

---

v) Toshkent shahar \_\_\_\_\_ tuman prokurori.

Sud majlisiga quyidagi guvohlar chaqirtirilsin:

---

---

---

(*Sud fuqarolik ishi holatidan kelib chiqib FPKning 204-moddasida ko'rsatilgan harakatlarni bir yoki bir nechtasini amalga oshiradi*)

Sudya:

imzo

F.I.O.

### **6-§. Ishni sudda ko'rishga tayinlash to'g'risidagi ajrim va uni rasmiylashtirish tartibi**

Sudya ish yetarli darajada tayyorlangan deb topgach, uni sud majlisida muhokama qilishga tayinlash to'g'risida ajrim chiqaradi hamda taraflar va sud protsessining boshqa ishtirokchilarini ishni ko'rish vaqt va joyi haqida xabardor qilish yuzasidan choralar ko'radi.

## Ishni sudda ko‘rishga tayinlash to‘g‘risidagi ajrimdan namuna

### AJRIM

(fuqarolik ishini sud muhokamasiga tayinlash to‘g‘risida)

Men, fuqarolik ishlari bo‘yicha Yakkasaroy tumanlararo sudining sudyasi (F.I.Sh.) 2018-yil aprel oyining 20-kuni da’vogar (F.I.Sh.) ning javobgar (F.I.Sh.) ga nisbatan nikohdan ajratish haqidagi da’vo arizasi bilan tanishib chiqib, quyidagilarni

### Aniqladim:

Sudga da’vogar (F.I.Sh.) ning javobgar (F.I.Sh.) ga nisbatan nikohdan ajratish haqidagi da’vo arizasi bilan murojaat qilgan.

Fuqarolik ishi yuzasidan ishni sudda ko‘rishga tayyorlash harakatlari to‘liq amalga oshirilganligini inobatga olib, FPKning 205, 271-272-moddalarini qo‘llab,

### Ajrim qilaman:

Ishni sud majlisida mazmunan ko‘rib chiqish, fuqarolik ishlari bo‘yicha Toshkent shahar Yakkasaroy tumanlararo sudi binosining 2-sud majlislar zalida 2018-yil 1-iyun kuni soat 15<sup>00</sup>ga tayinlansin.

Ishni ko‘rish vaqt va joyi haqida quyidagilar xabardor etilsin.

a) ishda ishtirok etuvchi shaxslar (FPKning 39-moddasi)

---

---

---

---

---

---

---

---

b) vakillar va boshqalar:

---

---

---

---

---

---

v) Toshkent shahar \_\_\_\_\_ tuman prokurori.

Sud majlisiga quyidagi guvohlar chaqirtirilsin:

---

---

---

---

---

---

Sudya

imzo

F.I.O.

## **NAZORAT UCHUN SAVOLLAR**

1. Fuqarolik ishini qo‘zg‘atish bosqichida qanday protsessual hujjatlar chiqariladi? Fikringizni huquqiy asoslantiring.
2. Arizani qaytarish asoslarini aytинг.
3. Arizaga ilova qilinadigan hujjatlarni tushuntiring.
4. Fuqarolik ishini sudda ko‘rishga tayyorlash bosqichida sudyaning protsessual harakatlarini aytинг.
5. Sudya yordamchisining (katta yordamchisining) ishni sud muhokamasiga tayyorlash bo‘yicha harakatlarini tushuntiring.
6. Ishni sudda ko‘rishga tayyorlash haqidagi ajrim mazmunini aytинг.

### **3- MAVZU. ISHNI SUDDA KO'RISH BOSQICHIDA YURITILADIGAN PROTSESSUAL HUJJATLAR**

#### **1-§. Ishni ko'rishni keyinga qoldirish to'g'risidagi ajrim va uni rasmiylashtirish tartibi**

**FPKning 223-moddasiga asosan sud ish muhokamasini  
quyidagi hollarda keyinga qoldirishi mumkin:**

- 1) tartib fuqarolar tomonidan ommaviy tarzda buzilganda;
- 2) raislik qiluvchi tomonidan ogohlantirilganidan so'ng prokuror yoki advokat uning farmoyishlariga bo'ysunmaganida;
- 3) taraflar (uchinchi shaxslar) tomonidan sud majlisidagi tartib buzilganda;
- 4) o'ziga sud chaqiruv qog'ozi yoki boshqa xabarnomalar topshirilganligi to'g'risida ma'lumotlar mavjud bo'limgan ishda ishtirok etuvchi shaxslardan biror-biri sud majlisiga kelmaganda;
- 5) tegishli tarzda xabardor qilingan ishda ishtirok etuvchi shaxslardan biror-biri sud tomonidan uzrli deb topilgan sabablarga ko'ra sud majlisiga kelmaganda;
- 6) tegishli tarzda xabardor qilingan taraflar sud majlisiga uzrli sabablarsiz kelmaganda, agar ulardan birortasidan ham sud muhoka-masi ularning ishtirokisiz o'tkazilishi to'g'risida ariza kelib tushmagan bo'lsa;
- 7) sud majlisiga guvoh, tarjimon, ekspert yoki mutaxassis kelmaganda, agar ularning ishtirokisiz ishni ko'rish imkonи bo'lmasa;
- 8) da'vogar ishni javobgarning ishtirokisiz ko'rishga rozi bo'lma-ganda;
- 9) qarshi da'vo taqdim etilganda;
- 10) sud majlisi yuritishda texnik vositalaridan, shu jumladan, vid-eokonferensaloqa tizimidan foydalanilganda texnik nosozliklar kelib chiqqanda;
- 11) qo'shimcha dalillar taqdim etish yoki talab qilib olish zarur bo'lгanda;
- 12) ishda ishtirok etish uchun boshqa shaxslar jalb qilinganda yoki boshqa protsessual harakatlar amalga oshirilganda.

Sud ishni sud majlisida ko'rish imkonи bo'limgan boshqa hollarda ham muhokamani keyinga qoldirishi mumkin.

Sud muhokamasi uni keyinga qoldirish uchun asos bo‘lgan holatlarni bartaraf etish uchun zarur bo‘lgan muddatga, sud muhokamasining FPKda nazarda tutilgan muddati doirasida keyinga qoldirilishi mumkin.

**Ishni ko‘rishni keyinga qoldirish to‘g‘risidagi ajrim namunasi  
(bayonnomma asosida)**

**SUD MAJLISI BAYONNOMASI**

2017-yil sentabr oyining 16-kuni Fuqarolik ishlari bo‘yicha Toshkent shahar Shayxontohur tumanlararo sudi o‘z binosida, ochiq sud majlisida,  
Raislik etuvchi: (F.I.Sh.)

(F.I.Sh.) ning kotibligida da’vogar (F.I.Sh.)ning javobgar (F.I.Sh.)ga  
nisbatan uyga kiritish xaqidagi da’vo arizasi bo‘yicha yuritilgan 1-  
4863/14-sonli fuqarolik ishi ko‘rilmoxqda.

Sud majlisi soat 14:00da boshlanib, 14:05da tamom bo‘ldi.

Raislik etuvchi FPKning 210-moddasi tartibida, sud majlisini olib,  
qanday ish ko‘rilishini e’lon qildi.

Sud majlisi kotibi sud majlisiga taraflar kelmaganligini ma’lum qildi.

Sud o‘z o‘rnida ajrim qildi:

Sud majlisiga taraflar kelmaganligi sababli sud majlisi 2017-yil 23-sentabr kuni soat 17-45 ga qoldirilsin.

Raislik etuvchi: (F.I.Sh.)

Kotib: (F.I.Sh.)

**2-§. Prokurorning fikri va uni rasmiylashtirish tartibi**

FPKning 245-moddasiga asosan, ishda ishtirok etuvchi prokuror sud muzokaralaridan keyin nizoning mohiyati bo‘yicha o‘z fikrini bayon etadi, bundan prokurorning boshqa shaxslarning huquqlarini, erkinliklarini va qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish maqsadida bergen arizasi bo‘yicha qo‘zg‘atilgan ishlar mustasno.

Prokurorning fikri sud majlisi bayonnommasida, hal qiluv qarorida hamda appellatsiya, kassatsiya va nazorat instansiyalari ajrimining (qarorining) mazmunida aks etishi lozim.

**Prokuror fikri namunasi**

2017-yil 21-oktabr

№ 319

Fuqarolik ishlari bo`yicha Toshkent  
shahar Shayxontohur tumanlararo sudiga

**PROKUROR FIKRI**

(FPKning 245-moddasiga asosan)

Fuqarolik ishlari bo`yicha Toshkent shahar Shayxontohur tumanlararo sudi da`vogar (F.I.Sh.)ning javobgar Malaka oshirish markaziga nisbatan buyruqni g`ayriqonuniy deb topish, ishga tiklash, majburiy progul vaqt uchun ish haqi undirish haqidagi da`vo arizasi bo`yicha yuritilgan 1-4123/17-sonli fuqarolik ishini ko`rib chiqmoqda.

Mazkur fuqarolik ishi bo`yicha FPKning 245-moddasiga asosan quyidagi fikrlarni bildiraman:

O`zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 182-moddasi 2-bandiga binoan, intizomiy jazo qo`llanilishidan avval xodimdan yozma ravishda tushuntirish xati talab qilinishi lozim. Xodimning tushuntirish xati berishdan bosh tortishi uning ilgari sodir qilgan nojo`ya xatti-harakati uchun jazo qo`llashga to`sinq bo`la olmaydi. Shuningdek, mazkur moddaning 5-bandida intizomiy jazo bevosita nojo`ya xatti-harakat aniqlanganidan keyin, ammo bu xatti-harakat aniqlangandan boshlab, xodimning kasal yoki ta`tilda bo`lgan vaqtini hisobga olmasdan, uzog`i bilan bir oy ichida qo`llaniladi deb belgilangan bo`lib, (F.I.Sh.)ga nisbatan intizomiy jazo qo`llanilishida ushbu qonun talablari qo`pol ravishda buzilgan.

O`zbekiston Respublikasi MKning 111-moddasiga asosan mehnat shartnomasi g`ayriqonuniy ravishda bekor qilingan yoki xodim g`ayriqonuniy ravishda boshqa ishga o`tkazilgan hollarda u ish beruvchining o`zi, sud yoki boshqa vakolatlari organ tomonidan avvalgi ishiga tiklanishi lozim.

Nizoni ko`rish vaqtida ish beruvchiga mehnat shartnomasini bekor qilish yoki xodimni boshqa ishga o`tkazishning asosliligini isbotlab berish mas`uliyati yuklatiladi.

Mazkur holatlardan ko`rinishicha, Malaka oshirish markazi direktorining 2017-yil 25-iyundagi 374-K sonli buyrug`i berilgan paytda (F.I.Sh.) mehnatga qobiliyatsizlik davrida bo`lganligi sababli da`vogar bilan mehnat shartnomasi mehnat qonunchiligi talablariga zid ravishda bekor qilingan.

Ko`rsatilgan qonun talablari va aniqlangan holatlardan kelib chiq-qan holda da`vogar (F.I.Sh.) ning mehnat shartnomasini bekor qilish haqidagi buyruqni g`ayriqonuniy deb topish va bekor qilish, ishga tiklash to`g`risidagi da`vo talablarini qanoatlantirishni, Malaka oshi-

rish markazi direktorining 25-iyun 2017-yildagi 374-K-sonli buyruq‘ini g‘ayriqonuniy deb topishni va bekor qilishni, (F.I.O.)ni ishga tiklashni lozim deb hisoblayman.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 112-moddasiga ko‘ra, ishga tiklanganida ish beruvchiga xodimga yetkazilgan zararni qoplash majburiyati yuklatiladi. Zararni qoplash: majburiy prokul vaqt uchun haq to‘lash shartligidan, mehnat shartnomasi bekor qilinganligi yoki xodim boshqa ishga o‘tkazilganligi ustidan shikoyat qilish bilan bog‘liq qo‘srimcha xarajatlar, ma’naviy zarar uchun kompensatsiya to‘lashdan iboratdir.

Da’vogar (F.I.Sh.)ning ishga tiklash to‘g‘risidagi da’vo talablarini qanoatlantirilsa, uning majburiy prokul uchun ish haqi undirish haqidagi da’vo talablarini ham qanoatlantirishni lozim deb hisoblayman.

Olmazor tumani prokurori

imzo

(F.I.Sh.)

### **3-§. Davlat boshqaruvi organlarining xulosasi va uni rasmiylashtirish tartibi**

FPKning 52-moddasiga asosan davlat boshqaruvi organlari, tashkilotlar va ayrim fuqarolar qonunda nazarda utilgan hollarda boshqa shaxslarning huquqlarini va qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish uchun sudga ariza bilan murojaat etish huquqiga egadirlar.

Davlat boshqaruvi organlari o‘z zimmalariga yuklatilgan vazifalarini bajarish, fuqarolar va davlatning huquqlari hamda qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish maqsadida ish yuzasidan xulosalar berish uchun sud tomonidan protsessda ishtirok etishga jalb qilinishlari yoki o‘z tashabbuslari bilan protsessga kirishishlari mumkin.

#### **Davlat boshqaruvi organlarining xulosasi namunasi**

Toshkent shahar Shayhontohur tumani Xalq ta’limi muassasalarini faoliyati metodik ta’minlash va tashkil etish bo‘limi

2014-yil 25-avgust  
10/600-sonli

Toshkent shahar

Toshkent shahar Shayxontohur tumani Tinchlik ko‘chasi 12-uyda vaqtincha yashovchi (F.I.Sh.) hamda Shayxontohur tumani Navro‘z

ko‘chasi 14-uyda vaqtincha yashovchi fuqaro (F.I.O.)larning yashash sharoitlarini o‘rganish yuzasidan tuzilgan dalolatnoma va xulosa

Toshkent shahar Shayhontohur tumani Xalq ta’limi muassasalarini faoliyati metodik ta’minalash va tashkil etish bo‘limi Bolalarni ijtimoiy himoya qilish bo‘yicha mutaxassis (F.I.Sh.) tomonidan Fuqarolik ishlari bo‘yicha Shayxontohur tumanlararo sudining ajrimiga asosan Shayxon- tohur tumani, Tinchlik ko‘chasi, 12-uyda vaqtincha yashovchi (F.I.Sh.) hamda Shayxontohur tumani, Navro‘z ko‘chasi, 14-uyda vaqtincha ya- shovchi fuqaro (F.I.O.)larning yashash sharoitlari o‘rganildi va quyida- gilar aniqlandi:

(F.I.Sh.) kelinoyisining nomiga rasmiylashtirilgan 3 sotixli, 5 xonali xonadonda kelinoyisi va uning turmush o‘rtog‘i va bir nafar voyaga yetmagan farzandi (F.I.Sh.) bilan birgalikda istiqomat qiladi. Turmush o‘rtog‘i bilan nikohdan ajrashmoqchi bo‘lib sudga da’vo ariza bergenligini, uning da’vo arizasi rad etilganligini, o‘rtalarida ikki nafar farzandi borligini katta farzandi voyaga yetmagan (F.I.O.)ni oxirgi bir yil ichida umuman ko‘rsatishmaganligini, shu sababli sudga bolalarini o‘zining yashash joyi bo‘yicha belgilashini suddan so‘raganligini ma’lum qildi. Hozirda u restoranda idish yuvuvchi bo‘lib ishlab kelayotganligini, uyda bolalar uchun barcha shart-sharoitlar mavjudligini ta’kidladi. Xonadon issiq suv, elektr energiyasi va gaz bilan ta’minlangan.

(F.I.Sh.) tanishi (F.I.Sh.) nomiga rasmiylashtirilgan bir xonalik xona- donda o‘zi, singlisi va bir nafar voyaga yetmagan farzandi (F.I.Sh.) bilan birga yashab kelmoqda. Xonadonda DVD apparati,sovutgich, televizor mavjud bo‘lib, boshqa bolalar uchun shart sharoitlar yaratilgan. Xonadon issiq suv, elektr energiyasi va gaz bilan ta’minlangan.

O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 75-moddasiga asosan “Ota-onalik huquqi bolalar manfaatlariga zid tarzda amalga oshirilishi mumkin emas. Bolalar manfaatlarini ta’minalash ota-ona g‘amxo‘rligining asosini tashkil qilishi lozim.

Ota-onalik huquqini amalga oshirishda ota-ona bolalarining jismoniy va ruhiy sog‘lig‘iga, axloqiy kamolotiga zarar yetkazishga haqli emas. Bolalarni tarbiyalash usullari mensimaslik, shafqatsizlik, qo‘pollikdan, insoniy qadr-qimmatni kansituvchi muomaladan, bolalarni haqoratlash yoki ekspluatatsiya qilishdan xoli bo‘lishi kerak.

O‘z ota-onalik huquqini bolalarining huquq va manfaatlariga zid tarzda amalga oshirayotgan ota-ona qonunda belgilangan tartibda ja-vobgar bo‘ladi.

Bolalarning ta’lim-tarbiyasiga taalluqli barcha masalalar bolalar man- faatidan kelib chiqqan va ularning fikrini hisobga olgan holda ota-ona tomonidan o‘zaro kelishuv asosida hal etiladi. Agar ota-ona o‘rtasida

kelishmovchiliklar mavjud bo'lsa, ular (ulardan biri) bu kelishmovchiliklarni hal qilish uchun vasiylik va homiylik organiga yoki sudga mu-rojaat qilishga haqlidir.

Ota-onsa alohida yashaganda bolalarning qayerda yashashi ota-onaning kelishuviga binoan belgilanadi. Ota-onsa o'rtasida kelishuv bo'l-masa, nizo sud tomonidan bolalar manfaatlaridan kelib chiqib, ularning fikrini hisobga olgan holda hal etiladi. Bunda sud, bolaning ota-onadan, aka-uka, opa-singillaridan qaysi biriga bog'lanib qolganligini, bolaning yoshini, ota-onasining axloqiy va boshqa shaxsiy fazilatlarini, ota-onaning har biri bilan bola o'rtasidagi munosabatlarni, bolani tarbiyalash va uning kamoloti uchun shart-sharoitlar (ota-onasining mashg'ulot turi, ish tartibi, moddiy hamda oilaviy ahvoli va boshqalar) yaratish imkoniyatini hisobga olishi" belgilangan.

Yuqoridagi ma'lumotlarga asoslangan holda 2008-yil 15-yanvarda tug'ilgan voyaga yetmagan farzandlari (F.I.Sh.) va 2010-yil 15-fevralda tug'ilgan voyaga yetmagan farzandlari (F.I.O.)larning yashash joyini belgilash to'g'risidagi da'vo arizasini hal etishda ota-onalarning o'rtasida o'zaro nizo borligi sababli ularning yashash joyini belgilash masalasini sudga havola etish maqsadga muvofiq.

Shayxontohur tumani XTMFMTTE  
bo‘limi mudiri imzo (F.I.Sh.)

Bolalarni ijtimoiy himoya qilish bo'yicha mutaxassi imzo (F.I.Sh.)

#### **4-§. Sud majlisi bayonnomasi va uni rasmiylashtirish tartibi**

FPKning 277-moddasiga binoan sud majlisi bayonnomasida ish muhokamasining yoki alohida protsessual harakatlarni amalga oshirishning barcha muhim jihatlari aks ettililishi kerak. **Sud majlisi bayonnomasida quyidagilar ko‘rsatiladi:**

- 1) sud majlisi bo‘lib o‘tgan yil, oy, kun va joy;
  - 2) sud majlisi boshlangan va tamomlangan vaqt;
  - 3) ishni ko‘rayotgan sudning nomi, sudyaning familiyasi, ismi va otasining ismi, hamda sud majlisining kotibi;
  - 4) ishning nomi va raqami;
  - 5) ishda ishtirok etuvchi shaxslarning va odil sudlovga ko‘makhayotgan shaxslarning kelgan-kelmaganligi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar;

6) sudning taraflar va protsessning boshqa ishtirokchilariga ularning protsessual huquq va majburiyatlarini tushuntirganligi;

7) mazkur moddaning 5-bandida ko'rsatilgan shaxslarga sud chaqiruv qog'ozlari va boshqa xabarnomalar topshirilganligi to'g'-risidagi hamda ular sud majlisiga kelmaganligining sabablari haqidagi ma'lumotlar;

8) raislik qiluvchining barcha farmoyishlari va sudning alohida xonaga (maslahatxonaga) chiqmasdan chiqargan ajrimlari;

9) ishda ishtirok etuvchi shaxslarning arizalari;

10) sudga taqdim etilgan barcha yozma va ashyoviy dalillar, ekspertlarning yozma xulosalari, mutaxassislarning maslahatlari to'g'risidagi ma'lumotlar;

11) ishda ishtirok etuvchi shaxslarning tushuntirishlari, guvohlarning ko'rsatuvlari, ekspertlarning o'z xulosalarini og'zaki tu-shuntirishlari, mutaxassislarning tushuntirishlari, ashyoviy va yozma dalillarni ko'zdan kechirishga taalluqli ma'lumotlar;

12) sud muzokaralarining mazmuni va prokurorning fikri;

13) sudning hal qiluv qarori, ajrimi yoki qarori o'qib eshittirilganligi to'g'risidagi ma'lumotlar.

Sud majlisi bayonnomasida boshqa ma'lumotlar ham ko'rsatilishi mumkin.

Sud majlisi audio yoki videoyozuvga olingan taqdirda, sud majlisi bayonnomasiga sud majlisida yozib olish texnika vo-sitalaridan foydalilanilganligi to'g'risida belgi qo'yiladi.

Sud majlisining bayonnomasi audio va videoyozuv vositalaridan foydalangan holda to'xtovsiz yozib boriladi.

Audio va videoyozuv saqlanayotgan elektron yoki boshqa manbalar sud majlisi bayonnomasiga yoki alohida protsessual ha-rakatlarni bajarish haqidagi bayonnomaga qo'shib qo'yiladi, unga tegishli yozuv kiritiladi.

**Sud majlisi videokonferensaloqa rejimida o'tkazilgan taqdirda, sud majlisi bayonnomasida 277-moddaning birinchi qismida nazarda tutilganlardan tashqari:**

sud majlisi videokonferensaloqa rejimida o'tkazilganligi to'g'-risidagi;

sud majlisini videokonferensaloqa rejimida o'tkazishda ko'maklashayotgan sudning nomi haqidagi;

ishda ishtirok etuvchi shaxslar va sud majlisini videokonferensaloqa rejimida o'tkazishga ko'maklashayotgan, sudga kelgan sud protsessining boshqa ishtirokchilari to'g'risidagi;

sud majlisini videokonferensaloqa rejimida o'tkazilishiga ko'-maklashayotgan sudning va ishni ko'rayotgan sudning axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bo'yicha xodimlari haqidagi ma'lumotlar ham ko'rsatilishi kerak.

### **Sud majlisi bayonnomasidan namuna**

#### **SUD MAJLISI BAYONNOMASI**

2018-yil iyul oyining 4-kunida Fuqarolik ishlari bo'yicha Toshkent shahar Shayxontohur tumanlararo sudi, o'z binosida ochiq sud majlisida, quyidagi tarkibda, raislik etuvchi (F.I.Sh.), (F.I.Sh.)ning kotibligida, da'vogar (F.I.Sh.)ning javobgar (F.I.Sh.)ga nisbatan nikohdan ajratish haqidagi da'vo arizasi bo'yicha yuritilgan 1-3846/18-sonli fuqarolik ishi ko'rilmoxda.

Sud majlisi soat 14.00 da boshlanib, 14.30da tamom bo'ldi.

Kotib sudga taraflar kelganini bildirdi.

Taraflarning shaxsi aniqlanmoqda:

Da'vogar: (F.I.Sh.) 1986 yilda tug'ilgan, millati o'zbek, malumoti o'rta, ish joyi vaqtincha ishsiz, yashash joyi Toshkent shahar, Olmazor tumani, Niyazova ko'chasi 1-45-uy. Pasporti AA 2942344.

Da'vogarning shaxsi bo'yicha savollar bo'lmadi.

Javobgar: (F.I.Sh.) 1982 yilda tug'ilgan, millati: o'zbek, malumoti o'rta, ish joyi Zangiota tumani, Olmazor mahallasi, "Mehnat" agrofirmasida ishchi, yashash joyi Toshkent shahar, Yunusobod tumani, 13-58-107. Pasporti AA0800009.

Javobgarning shaxsi bo'yicha savollar bo'lmadi.

Sud tarkibi e'lon qilindi.

Raislik etuvchi sud tarkibiga raddiya berish tartibini tushuntirdi.

Sud tarkibiga raddiyalar bo'lmadi.

Raislik etuvchi FPKning 40-44-moddalariga asosan tomonlarning protsessual huquq va majburiyatlarini tushuntirdi.

Da'vogar: protsessual huquq va majburiyatlarim tushunarli.

Javobgar: protsessual huquq va majburiyatlarim tushunarli.

Javobgar (F.I.Sh.)ning iltimosnomasi:

Hurmatali sud, da'vo arizasida mening yashash manzilim sifatida ko'rsatilgan Shayxontohur tumani Labzak mahallasi Xurshid ko'chasi

50-xonodon buzilishi munosabati bilan bugungi kundagi onam nomidagi Yunusobod tumani 13-dahasi 58-uy 107-xonadonda yashab kelyapman. Shu sababli ishni o‘zim yashab turgan hududdagi sudga o‘tkazishingizni so‘rayman.

Da’vogar (F.I.Sh.) :

Da’vo arizasi berishda javobgarning aniq yashash manzilini bilmas edim. Shu sababli doimiy ro‘yxat bo‘yicha manzilini ko‘rsatganman. Iltimosnama bo‘yicha e’tirozim yo‘q.

Iltimosnomalar va savollar bo‘lmadi.

Sudya ish hujjatlарини тафтish qilishга o‘tади:

davlat boji chiptasi;

da’vo arizasi;

nikoh guvohnomasining asl nusxasi;

tug‘ilganlik haqida guvohnoma nusxasi;

pasport nusxasi;

malumotnomalar;

Qo‘srimchalar bo‘lmadi.

Raislik etuvchi alohida xonaga maslahatga kirdi va u yerdan chiq-qach ajrimni o‘qib eshittirdi. Ajrimdan norozi tomonlarga shikoyat qilish, sud majlisi bayonnomasi bilan tanishish tartibi va muddatlarini tushuntirdi.

Sud majlisi yopiq deb e’lon qilindi.

Raislik etuvchi:

(F.I.Sh.)

Kotib:

(F.I.Sh.)

## NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. Ish ko‘rishni keyinga qoldirish asoslarini aytинг.
2. Hal qiluv qarorini tushintiring?
3. Sud majlisi bayonnomasida nimalar aks etishi lozim?
4. Prokuror fikrini tushuntiring.
5. Ishni ko‘rishda sudya chiqaradigan hujjatlarni aytинг.

## **4- MAVZU. BIRINCHI INSTANSIYA SUDI TOMONIDAN CHIQARILADIGAN AJRIMLAR VA HAL QILUV QARORLARI**

### **1-§. Birinchi instansiya sudi ajrimlari tushunchasi va turlari**

Sud ajrimlari hal qiluv qarorlaridan farqli o‘laroq, sud muhokamasi davrida, qaror chiqarilganidan keyin hatto ijro bosqichi-dagi turli protsessual masalalarni hal qilish bo‘yicha chiqarilishi mumkin.


FPKning 271-272-moddalari mazmunidan kelib chiqib, birinchi instansiya sudining ajrimlarini quyidagi turlarga ajratish mumkin:

- sud tomonidan alohida xonada (maslahatxonada) chiqariladigan ajrimlar;
- sud tomonidan murakkab bo‘lmagan masalalar hal etilganda o‘z joyida chiqariladigan ajrimlar.

Mazkur ajrimlarning turlari bir-biridan mazmuni, shakli, chiqarish tartibi va shikoyat qilish usullari bilan farqlanadi.

### **2-§. Ishni yuritishni to‘xtatish, tugatish, arizani ko‘rmasdan qoldirish to‘g‘risidagi ajrimlar va ularni rasmiylashtirish tartibi**

Fuqarolik ishlari bo‘yicha sud tomonidan ishni ko‘rish vaqtida Fuqarolik protsessual qonunchilikda belgilangan asoslarga ko‘ra ish yuritish to‘xtatib turiladi.



## Ish yuritishni to‘xtatib turishga oid sud ajrimdan namuna

### AJRIM

(ish yuritishni to‘xtatish to‘g‘risida)

2018-yil aprel oyining 24-kuni Fuqarolik ishlari bo‘yicha Yakkasaroy tumanlararo sudi, o‘z binosida ochiq sud majlisida sudyta (F.I.Sh.) ning raisligida, (F.I.Sh.) ning kotibligida, advokat (F.I.Sh.)ning ishtirokida da’vogar (F.I.Sh.)ning javobgarlar (F.I.Sh.), (F.I.O.)lar oilasiga nisbatan uya kiritish haqidagi da’vo arizasi yuzasidan yuritilgan 1-7685/18-sonli fuqarolik ishini ko‘rib chiqib, quyidagilarni

#### Aniqladi:

Sudga da’vogar (F.I.Sh.) javobgarlar (F.I.Sh.), (F.I.O.)lar oilasiga nisbatan da’vo arizasi bilan murojaat qilib, unda 2008-yil 1-noyabrda tug‘ilgan farzandi (F.I.Sh.) bilan Toshkent shahar, Yakkasaroy tuman, A.Qaxxon 5-tor ko‘chasi 3-uya kiritishni so‘ragan.

Sudga javobgar (F.I.Sh.) ariza bilan murojaat qilib, betobligi sababli sudga kela olmasligini, shuning uchun mazkur fuqarolik ishi bo‘yicha ish yuritishni sog‘aygunga qadar to‘xtatib turishni so‘ragan.

FPKning 117-118-moddalarida, taraf da’volash muassasasida bo‘lsa, shuningdek taraflardan birida sudga kelishga to‘sqinlik qiladigan, tibbiyot muassasasining ma’lumotnomasi bilan tasdiqlangan kasallik mavjud bo‘lsa sud ishda ishtirok etuvchi shaxslarning iltimosi bo‘yicha yoki uz tashabbusi bilan ish yuritishni to‘xtatib turishi mumkinligi, ish yuritish taraf davolash muassasidan chiqquniga qadar yoki tarafning sudga kelishiga to‘sqinlik qiladigan kasallik tuzalguniga qadar to‘xtatib turilishi ko‘rsatilgan.

Bunday holatda, sud javobgarning kasalligini inobatga olgan holda, iltimosnomani qanoatlantirish va mazkur fuqarolik ishi bo‘yicha ish yuritishni javobgar (F.I.Sh.) sog‘ayguniga qadar to‘xtatib turish lozim deb hisoblaydi.

Yuqoridaqilarga binoan va FPKning 117-118, 271-272-moddalarini qo‘llab, sud

#### Ajrim qiladi:

Javobgar (F.I.Sh.)ning iltimosnomasi qanoatlantirilsin.

Mazkur fuqarolik ishi bo‘yicha ish yuritish javobgar kasalligi sababli u sog‘ayguniga qadar to‘xtatilsin.

Mazkur ajrim ustidan 10 kun muddat ichida shu sud orqali Fuqarolik ishlari bo‘yicha Toshkent shahar sudi sudlov hay’atiga xususiy shikoyat berilishi yoki xususiy protest keltirilishi mumkin.

Sudya:

imzo

(F.I.Sh.)

**Arizani ko‘rmasdan qoldirish to‘g‘risidagi ajrim va uni rasmiylashtirish tartibi.**

**Sud FPKning 122-moddasiga ko‘ra, quyidagi hollarda arizani ko‘rmasdan qoldiradi:**

- 1) ariza muomalaga layoqatsiz shaxs tomonidan berilgan bo‘lsa;
- 2) manfaatdor shaxs nomidan ariza ish yuritishga vakolati bo‘lma-gan shaxs tomonidan berilgan bo‘lsa;
- 3) fuqarolik ishlari bo‘yicha sudning, iqtisodiy sudning yoki ha-kamlik sudining ish yurituvida ayni bir taraflar o‘rtasidagi, ayni bir predmet to‘g‘risidagi va ayni bir asoslar bo‘yicha nizo yuzasidan ish mavjud bo‘lsa;
- 4) taraflar o‘rtasida ushbu nizoni hal qilish uchun hakamlik sudiga topshirish to‘g‘risida hakamlik bitimi tuzilgan bo‘lsa;
- 5) ishni o‘zining ishtirokisiz muhokama qilishni iltimos qilmagan taraflar ikkinchi chaqiruv bo‘yicha ham uzrli sabablarsiz sudga kelmasa, sud esa ishga oid mavjud materiallar asosida ishni hal qilish mumkin emas, deb hisoblasa;
- 6) ishni o‘zining ishtirokisiz muhokama qilishni iltimos qilmagan da‘vogar ikkinchi chaqiruv bo‘yicha sudga kelmasa, javobgar esa ishni mazmunan ko‘rishi talab qilmasa;
- 7) alohida tartibda yuritiladigan ishni muhokama qilish vaqtida sudga taalluqli huquq to‘g‘risida nizo kelib chiqsa;
- 8) xotini homilador bo‘lgan vaqtida yoki bola tug‘ilganidan keyin bir yil davomida er xotinining roziligesiz nikohni bekor qilish to‘g‘risida da‘vo taqdim etgan bo‘lsa;
- 9) da‘vogar tomonidan arizani ko‘rmasdan qoldirish to‘g‘risida ariza berilgan bo‘lsa;
- 10) da‘vogar tomonidan nizoni javobgar bilan sudsiga hal qilish tartibiga rioya qilinmagan, basharti bu qonunda yoki shartnomada nazarda tutilgan bo‘lsa;
- 10<sup>1</sup>) da‘vogar nizoni javobgar bilan mediatsiya tartib-taomilini amalga oshirish orqali hal qilish tartibiga rioya etmagan bo‘lsa, basharti bu mazkur toifadagi nizolar uchun qonunda yoki shartnomada nazarda tutilgan bo‘lsa;
- 10<sup>2</sup>) mediatsiya tartib-taomilini amalga oshirish haqida iltimosnoma bilan arz qilgan taraflar uni amalga oshirish muddati tugaganidan so‘ng sud majlisiga uzrli sabablarsiz kelmasa;
- 10<sup>3</sup>) taraflar o‘rtasida mediativ kelishuv tuzilgan bo‘lsa; 11) mol-mulkni (ashyon) egasiz deb topish to‘g‘risidagi ariza qonunda belgilangan muddatdan oldin yoki egasiz mol-mulkni (ashyon) aniqlash va hisobga olishning qonunda nazarda tutilgan tartibi buzilgan holda berilgan bo‘lsa.

11) mol-mulkni (ashyoni) egasiz deb topish to‘g‘risidagi ariza qonunda belgilangan muddatdan oldin yoki egasiz mol-mulkni (ashyoni) aniqlash va hisobga olishning qonunda nazarda tutilgan tartibi buzilgan holda berilgan bo‘lsa.

### **Arizani ko‘rmasdan qoldirish to‘g‘risidagi sud ajrimidan namuna**

#### **AJRIM**

(arizani ko‘rmasdan qoldirish to‘g‘risida)

2018-yil aprel oyining 27-kumi Fuqarolik ishlari bo‘yicha Toshkent shahar Yakkasaroy tumanlararo sudi o‘z binosida ochiq sud majlisida, sudya (F.I.Sh.)ning raisligida, (F.I.Sh.)ning kotibligida, da‘vogar (F.I.Sh.)ning javobgar (F.I.Sh.)ga nisbatan mulkni ro‘yxatdan chiqarish haqidagi da‘vo arizasi bo‘yicha yuritilgan 1-8907/18-sonli fuqarolik ishini ko‘rib chiqib, quyidagilarni

#### **Aniqladi:**

Sudga da‘vogar (F.I.Sh.) javobgar (F.I.Sh.)ga nisbatan mulkni ro‘yxatdan chiqarish haqidagi da‘vo arizasi bilan murojaat etgan.

FPKning 122-moddasi birinchi qismi 5-bandida ishni o‘zlarining ishtirokisiz ko‘rishni iltimos qilmagan taraflar sudning ikkinchi chaqiruv qog‘ozi bo‘yicha ham uzrli sabablarsiz sudga kelmasa, sud esa ishga oid mavjud materiallar asosida ishni hal qilish mumkin emas deb hisoblasa, ariza ko‘rmasdan qoldirilishi ko‘rsatilgan.

Taraflar 2018-yil 29-mart, 10 va 17-aprel kunlaridagi sud majlislariga tegishli tarzda chaqirtirilgan bo‘lsalar-da, noma‘lum sabablarga ko‘ra sudga kelmadilar va kelmaslik sabablarini ma’lum qilmadilar.

Ishga oid mavjud materiallar bilan ishni mazmunan hal qilish imkoniy yo‘q.

Bunday holda, sud arizani ko‘rmasdan qoldirish, taraflarga arizani ko‘rmasdan qoldirishning oqibatlarini tushuntirishni lozim deb hisoblaydi.

Yuqoridagilarga asosan, FPKning 122-123, 271-272-moddalarini qo‘llab, sud

#### **Ajrim qiladi :**

Da‘vogar (F.I.Sh.)ning javobgar (F.I.Sh.)ga nisbatan mulkni ro‘yxatdan chiqarish haqidagi da‘vo arizasi ko‘rmasdan qoldirilsin.

Arizani ko‘rmasdan qoldirishga asos bo‘lgan holatlar bartaraf etilganidan keyin manfaatdor shaxs sudga ariza bilan yana umumiy tartibda yangidan murojaat qilishga haqli.

Agar taraflar sud majlisiga uzrli sabablarga ko‘ra kela olmaganliklarini tasdiqlovchi dalillarni taqdim etsalar, da‘vogar yoki javobgarning iltimosnomasiga binoan sud ushbu ajrimini bekor qiladi.

Ajrim ustidan Fuqarolik ishlari bo‘yicha Toshkent shahar sudiga ushbu sud orqali 10 kun muddat ichida xususiy shikoyat berilishi yoki xususiy protest keltirilishi mumkin.

Sudya:

Imzo

(F.I.Sh.)

### **Ishni yuritishni tugatish to‘g‘risidagi ajrim va uni rasmiy-lashtirish tartibi.**

FPKning 124-moddasiga binoan, sud quyidagi hollarda ish yuritishni tugatadi:

- 1) ish sudga taalluqli bo‘lmasa;
- 2) fuqarolik ishlari bo‘yicha sudning, iqtisodiy sudning yoki ma‘muriy sudning yoxud chet davlat vakolatli sudining ayni bir taraflar o‘rtasidagi, ayni bir predmet to‘g‘risidagi va ayni bir asoslar bo‘yicha nizo yuzasidan qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarori yoki da‘vogarning arz qilingan talablaridan voz kechishini qabul qilish to‘g‘risidagi yoxud taraflarning kelishuv bitimini tasdiqlash haqidagi ajrimi mavjud bo‘lsa;
- 3) da‘vogar arz qilingan talablaridan voz kechgan va sud bu voz ke-chishni qabul qilgan bo‘lsa;
- 4) taraflar kelishuv bitimi tuzgan va u sud tomonidan tasdiqlangan bo‘lsa;
- 5) hakamlik sudining ayni bir taraflar o‘rtasidagi, ayni bir predmet to‘g‘risidagi va ayni bir asoslar bo‘yicha nizo yuzasidan hal qiluv qarori mavjud bo‘lsa, bundan sud hakamlik sudining hal qiluv qarorini maj-buriy ijro etish uchun ijro varaqasini berishni rad etgan hollar mus-tasno;
- 6) ish bo‘yicha taraflardan biri bo‘lgan fuqaroning vafotidan so‘ng nizoli huquqiy munosabat huquqiy vorislikka yo‘l qo‘ymasa;
- 7) ish bo‘yicha taraf bo‘lib qatnashayotgan tashkilot tugatilgan bo‘lsa.

Ish yuritish sudning ajrimiga binoan tugatiladi. Agar ish yuritish ishning sudga taalluqli bo‘lмаганлиги sababli tugatilsa, sud ushbu ajrimning xulosa qismida arizachi qaysi organga murojaat qilishi kerakligini ko‘rsatishi shart.

Ish yuritish tugatilgan taqdirda, ayni bir taraflar o‘rtasidagi, ayni bir predmet to‘g‘risidagi va ayni bir asoslar bo‘yicha nizo yuzasidan

sudga ikkinchi marta murojaat qilishga yo‘l qo‘yil-maydi. Mazkur ajrim ustidan xususiy shikoyat yoki xususiy pro-test keltiriladi.

### **Ish yuritishni tugatishga oid sud ajrimidan namuna**

#### **AJRIM**

(Ish yuritishni tugatish to‘g‘risida)

2018-yil aprel oyining 9-kuni fuqarolik ishlari bo‘yicha Zangiota tumanlararo sudining ochiq sud majlisida, o‘z binosida sudya (F.I.Sh.) raisligida, (F.I.Sh.)ning kotibligida, Zangiota tuman prokurorining katta yordamchisi (F.I.Sh.)ning ishtirokida, da‘vogar Zangiota tumani Davlat soliq inspeksiyasining javobgar (F.I.Sh.)ga nisbatan soliq qarzlarini undirish haqidagi da‘vo arizasi yuzasidan 1-4567/18сонли fuqarolik ishi ko‘rib chiqilib, quyidagilar

#### **Aniqlandi:**

Da‘vogar Zangiota tuman Davlat soliq inspeksiyasini da‘vo arizasi bilan sudga murojaat qilib, da‘vo arizasida va sud majlisida qonuniy vakili (F.I.Sh.)ning bergan tushuntirishida da‘vo talabini quvvatlab, javobgar (F.I.Sh.)ning 2017-yil 19-avgustga qadar soliq va boshqa maj-buriy to‘lovlardan qarzi 597.112 so‘mni tashkil qilishini, bu qarzlarini 10 kun muddat ichida to‘lash haqida talabnama kiritilganligini, lekin javobgar shu kunga qadar soliq qarzlarini to‘lamasdan kelayotganligini ko‘rsatib, javobgar (F.I.O.)dan soliq va boshqa majburiy to‘lovlardan 597.112 so‘m qarzini Davlat soliq inspeksiysi - foydasiga undirishni so‘radi.

Sud majlisi haqida tegishli tartibda xabardor etilgan (F.I.Sh.) sud chaqiruv xatini olib, ogohlantirish qismiga imzo qo‘yan bo‘lsa-da, atayin sud majlisini cho‘zish maqsadida sudga kelmaganligi sababli sud fuqarolik ishini unga nisbatan FPKning 220-moddasida belgilangan tartibida ko‘rishni lozim topdi.

Sud da‘vogarning tushuntirishini eshitib, prokurorning fikrini tinglab, ishda to‘plangan hujjatlar bilan tanishib chiqib, quyidagi asoslarga ko‘ra fuqarolik ishini ish yuritishdan tugatishni lozim topdi.

Sudga taqdim etilgan hujjatlarga ko‘ra, javobgar (F.I.Sh.) yakka tartibdagagi tadbirkorlik bilan shug‘ullanib kelganligi va soliq to‘lovlardan qarzdorlik yakka tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishi davomida kelib chiqqanligi aniqlandi.

FPKning 26-moddasiga ko‘ra, taraflardan hech bo‘lmaganda bittasi fuqaro bo‘lgan nizolarga doir ishlar sudga taalluqlidir.

Bu holatda ikkala taraf yuridik shaxs bo‘lganligi sababli bu da‘volar iqtisodiy sudida ko‘rilishi lozim.

FPKning 124-moddasi birinchi qismi 1-bandiga ko‘ra, ish sudga taal-luqli bo‘lmasa, sud ish yuritishni tugatadi.

Ushbu qonun talabidan kelib chiqib, sud ushbu fuqarolik ishini ish yuritishdan tugatishni, da‘vogarga kelgusida viloyat iqtisodiy sudiga murojaat qilish huquqi borligini tushuntirishni lozim topdi.

Yuqoridagilarga ko‘ra va FPKning 26, 124-moddasi birinchi qismi 1-bandisi, 271-272-moddalariga asosan, sud

#### **Ajrim qiladi:**

Da‘vogar Zangiota tumani Davlat soliq inspeksiyasining javobgar (F.I.Sh.)ga nisbatan soliq qarzlarimi undirish haqidagi da‘vo arizasi yuzasidan 1-4567/18-sonli fuqarolik ishi ish yuritishdan tugatilsin.

Da‘vogarga ushbu da‘vo bilan Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudiga murojaat qilish huquqi borligi tushuntirilsin.

Ajrimdan norozi tomonlar ajrim topshirilgan kundan boshlab 10 kun muddat ichida shu sud orqali Fuqarolik ishlari bo‘yicha Toshkent viloyati sudiga xususiy shikoyat, prokuror esa xususiy protest keltirishga haqlisi.

Sudya

imzo

(F.I.Sh.)

### **3-§. Xususiy ajrimning mazmuni va uni rasmiylashtirish tartibi**

Xususiy ajrimlar sudning boshqa ajrimlaridan o‘zining maqsadi bilan alohida ajralib turadi. Sud fuqarolik ishini ko‘rayotganida ayrim mansabdar shaxslar yoki fuqarolar tomonidan qonuniylik va huquq-tartibot buzilganligini aniqlasa, FPKning 275-moddasiga ko‘ra, xususiy ajrim (qaror) chiqarib, uni tegishli organlar va mansabdar shaxslarga yuboradi. Ushbu shaxslar xususiy ajrimning (qarorning) nusxasini olgan kundan e’tiboran bir oylik muddat ichida o‘zлari ko‘rgan choralar to‘g‘risida sudga xabar qilishlari talab etiladi.

#### **Xususiy ajrimdan namuna**

##### **XUSUSIY AJRIM**

2018-yil aprel oyining 4-kuni fuqarolik ishlari bo‘yicha Zangiota tumanlararo sudining ochiq sud majlisida, o‘z binosida, sudya (F.I.Sh.) raisligida, (F.I.Sh.)ning kotibligida, tuman prokurori (F.I.Sh.)ning ishtirokida, da‘vogar (F.I.Sh.)ning javobgar Zangiota tuman xalq bankiga nisbatan ishga tiklash va majburiy progul vaqtiga uchun ish haqi undirish haqidagi da‘vosi bo‘yicha fuqarolik ishi ko‘rilib, quydigilar

### **Aniqlandi:**

Da'vogar (F.I.Sh.) Zangiota tuman xalq bankida kassir bo'lib ishlab kelgan. 2018-yil 10-martda ishga 2 soat 30 daqiqa kechikib kelganligi sababli xalq banki boshqaruvchisi (F.I.Sh.)ning buyrug'iga ko'ra lavozimidan bo'shatilgan. Sud ishdan bo'shatish sabablarini atroflicha tekshirib, (F.I.Sh.)ni o'z lavozimiga tiklash va majburiy progul vaqt uchun ish haqi undirish haqida hal qiluv qarori chiqargan.

FPKning 275-moddasi birinchi qismida sud fuqarolik ishini ko'-rayotganida ayrim mansabdar shaxslar yoki fuqarolar tomonidan qonuniylik va huquq-tartibot buzilganligini aniqlasa, xususiy ajrim (qaror) chiqarib, uni tegishli organlar va mansabdar shaxslarga yuboradi deb ko'rsatilgan.

Sud majlisida (F.I.Sh.)ni lavozimidan bo'shatishda xalq bankining boshqaruvchisi (F.I.Sh.)ning mehnat qonunchiligini qo'pol ravishda buzganligi, (F.I.Sh.)ning ishga uzrli sabablarga ko'ra kechikkanligi e'tiborga olinmaganligi, mehnat shartnomasini bekor qilishda kasaba uyushmasining roziligi olinmaganligi va (F.I.Sh.) muqaddam mehnat qoidalarini buzmaganligi aniqlandi.

Yuqoridagilarga ko'ra, sud FPKning 275, 271–272-moddalarini qo'llab,

### **Ajrim qiladi:**

O'zbekistan Respublikasi mehnat qonunchiligining Zangiota tuman xalq bankida buzilishi holatlarini oldini olish va aybdor shaxslarga nisbatan tegishli choralarни ko'rish uchun Zangiota tuman hokimiysi va Toshkent viloyati xalq banki rahbariyati xabardor qilinsin.

Ko'rilgan chora-tadbirlar haqida bir oylik muddat ichida shu sudga yozma ravishda ma'lum qilinsin.

Xususiy ajrimdan norozi tomonlar, shu sud orqali sudning ajrimi topshirilgan kundan 10 kunlik muddatda fuqarolik ishlari bo'yicha Toshkent viloyat sudiga xususiy shikoyat yoki xususiy protest keltirilishi mumkin.

Sudya

imzo

(F.I.Sh.)

### **4-§. Sudning hal qiluv qarori**

Birinchi instansiya sudining ishni mazmunan hal qiladigan qarori hal qiluv qarori shaklida chiqariladi. Sud hal qiluv qarorini O'zbekiston Respublikasi nomidan chiqaradi.

FPKning 253-moddasiga asosan, hal qiluv qarori kirish, bayon, asoslantiruvchi va xulosa qismlaridan iborat bo‘ladi.

Hal qiluv qarorining **kirish** qismida ish raqami, hal qiluv qarori qabul qilingan vaqt va joy, hal qiluv qarorini qabul qilgan sudning nomi, sudyaning familiyasi, ismi va otasining ismi, sud majli-sining kotibi, taraflar, ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslar ko‘r-satiladi.

Hal qiluv qarorining **bayon** qismi o‘zida da’vogarning talabi, javobgarning e’tirozlari va ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarning tushuntirishlarini aks ettirishi kerak.

Hal qiluv qarorining **asoslantiruvchi** qismida ishning sud tomonidan aniqlangan holatlari, sudning ish holatlari to‘g‘risidagi xulosalari asoslangan dalillar, sudning u yoki bu dalillarni rad qilganligi haqidagi xulosalari, sud amal qilgan moddiy va protses-sual huquq normalari ko‘rsatilishi kerak. Arz qilingan talab javobgar tomonidan tan olingen taqdirda, asoslantiruvchi qismda faqat arz qilingan talabning tan olingenligi va uning sud tomo-nidan qabul qilinganligi ko‘rsatilishi mumkin.

Hal qiluv qarorining **xulosa** qismida sudning arz qilingan talablardan har birini to‘liq yoki qisman qanoatlantirish to‘g‘risidagi yoxud qanoatlantirishni rad etish haqidagi xulosasi bo‘lishi, sud xarajatlarini taqsimlash, hal qiluv qarori ustidan shikoyat qilish muddati va tartibi ko‘rsatilishi kerak.

### **Hal qiluv qarori namunasi**

#### **HAL QILUV QARORI O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI NOMIDAN**

2018-yil 23-may kunida Fuqarolik ishlari bo‘yicha Toshkent shahar Mirobod tumanlararo sudining binosida, raislik etuvchi sudya (F.I.Sh.), (F.I.Sh.) ning kotibligida, advokat (F.I.Sh.) ning ishtirokida, da’vogar Toshkent shahar Mirobod tuman prokurorining (F.I.Sh.), (F.I.Sh.) larning manfaatini ko‘zlab, javobgar (F.I.Sh.) ga nisbatan yetkazilgan moddiy zararni undirish to‘g‘risidagi da’vo arizasi, da’vogar (F.I.Sh.) ning javobgar (F.I.Sh.)ga nisbatan jinoyat natijasida yetkazilgan moddiy va ma’naviy zararni undirish to‘g‘risidagi da’vo arizasi bo‘yicha birlash-tirilgan 1-1501/18-sonli fuqarolik ishini ochiq sud majlisida ko‘rib, quyidagilarni

**Aniqladi:**

Da'vogar Mirobod tuman prokurori fuqarolar (F.I.Sh.), (F.I.Sh.) larning manfaatini ko'zlab, javobgar (F.I.Sh.)ga nisbatan yetkazilgan moddiy zararni undirish to'g'risidagi da'vo arizasi bilan murojaat qilgan.

Shuningdek, sudga da'vogar (F.I.Sh.) javobgar (F.I.Sh.)ga nisbatan jinoyat natijasida yetkazilgan moddiy va ma'naviy zararni undirish to'g'risidagi da'vo arizasi bilan murojaat qilgan.

Fuqarolik ishlari bo'yicha Mirobod tumanlararo sudining 2018-yil 3-may kunidagi ajrimi bilan har ikkala fuqarolik ishi bitta ishga bir-lashtirilgan.

Sud majlisida Mirobod tuman prokurori yordamchisi (F.I.Sh.) da'-voni quvvatlab, javobgar (F.I.Sh.) 2012-yilning yanvar oylari boshida (F.I.Sh.)ning ishchonchiga kirib, aldar unga tegishli 12.825.000 so'mlik mulkini sotib berishni va'da qilib, moddiy boyliklarni qo'lga kiritib, bergen va'dasini bajarmasdan pullarni o'z ehtiyojlariga ishlatib yuborib hamda (F.I.Sh.)ga tegishli 350.000 so'mlik mulkini qo'lga kiritib, sotib berishni va'da qilib, va'dasini bajarmasdan pullarni o'z ehtiyojlariga uchun ishlatib yuborib, O'zbekiston Respublikasi JKning 168-moddasi 2-qismi "a" bandida ko'rsatilgan jinoyatni sodir qilganligini, Jinoyat ishlari bo'yicha Mirobod tumani sudining 2012-yil 3-yanvardagi ajrimiga asosan (F.I.Sh.)ga nisbatan qo'zg'atilgan jinoyat ishi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senatining 5-dekabr 2012-yildagi Amnistiya to'g'risidagi qarorining 6-bandiga asosan tugatilganligi va taraflarga yetkazilgan zararni undirish bo'yicha fuqarolik ishlari bo'yicha sudiga murojaat qilish huquqi tushuntirilganligini, ajrim qonuniy kuchda ekan-ligini bildirib, javobgar (F.I.O.)dan (F.I.Sh.)ning foydasiga 12.825.000 so'm va (F.I.Sh.)ning foydasiga 350.000 so'm miqdordagi moddiy zararni undirishni so'radi.

Sud majlisida da'vogar (F.I.Sh.) da'vo talablarini quvvatlab, (F.I.Sh.) uni aldar unga tegishli bo'lgan jami 12.825.000 so'mlik mulkini sotib berishga va'da qilib olganligini, va'dasini bajarmasdan pullarini ham mulkini ham qaytarib bermaganligini, umumiy zarardan 2.000.000 so'mini qaytarib olganligini, qolgan 10.825.000 so'mlik zarar qoplanmaganligini ko'rsatib, ushbu summani undirib berishni so'radi.

Sudga mustaqil talab bilan arz qiluvchi 3-shaxs (F.I.Sh.) yozma ariza bilan murojaat qilib, unda sog'lig'i sabablari sud majlisida ishtirok eta olmasligini, fuqarolik ishlari o'zining ishtirokisiz ko'rishni so'rangan. Ushbu holatda sud FPKning 174-moddasi asosan fuqarolik ishlari 3-shaxs (F.I.Sh.)ning ishtirokisiz ko'rib chiqishni lozim topadi.

Oldingi sud majlislarida javobgar (F.I.Sh.) da'vo arizasini tan olmasdan, da'vogar (F.I.Sh.) uning uyiga bir tanishi bilan fol ochirish uchun kelganini, shunda Turkiya davlatiga borib narsa olib kelaman, deb aytganini, shundan keyin unga "narsalaringiz bo'lsa sotib beraman", deb

aytganini, da'vogar (F.I.Sh.) uning uyiga taqinchoq va kiyim-kechaklarlarni keltirib tashlaganini, kasalxonada yotgan paytida ham uyiga narsalarni keltirib tashlaganini, lekin, olgan narsalarning aksariyatini qaytarganini, qarzini qaytarganini, qancha pulni qaytarganini bilmasligini, qarzlarini qaytarganini ko'rsatib, suddan da'voni rad qilishni so'rangan.

Oxirgi sud majlisining joyi vaqtি to'g'risida tegishli tartibda ogohlantirilgan bo'lishiga qaramasdan sudga kelmadи, kelmaslik sabablari haqida ma'lumot bermadi, bu sabablarning uzrliligiga dalillar taqdim etmadi. Bunday holatda sud javobgarning kelmaganlik sabablari haqida ma'lumot yo'qligi sababli sud uning kelmaganlik sabablarini uzsiz deb topadi va javobgar ish yuritishini qasddan cho'zayotgan deb hisoblaydi. Shu sababli sud ishni javobgarga nisbatan FPKning 220-moddasi talabiga binoan ko'rib chiqishni lozim deb topadi.

Sud, da'vogarlarning da'vo yuzasidan bayonotlarini eshitib, fuqarolik ishi hujjatlari bilan tanishib va ish materiallarini tahlil qilib quyidagi asoslarga ko'ra da'vogarning da'vo talablarini qanoatlantirishni lozim deb topadi.

FKning 985-moddasiga asosan, g'ayriqonuniy harakat (harakatsizlik) tufayli fuqaroning shaxsiga yoki mol-mulkiga yetkazilgan zarar, shuningdek yuridik shaxsga yetkazilgan zarar, shu jumladan boy berilgan foyda zararni yetkazgan shaxs tomonidan to'liq hajmda qoplanishi lozim.

Aniqlanishicha, Jinoyat ishlari bo'yicha Mirobod tuman sudining 2015-yil 3-yanvardagi ajrimiga asosan (F.I.Sh.)ga nisbatan O'zbekiston Respublikasi JKning 168-moddasi 2-qismi "a" bandi bilan qo'zg'atilgan jinoyat ishi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senatining 2015-yil 5-dekabrdagi Amnistiya to'g'risidagi qarorining 6-bandiga asosan tugatilgan va taraflarga yetkazilgan zararni undirish haqida fuqarolik ishlari bo'yicha sudiga murojaat qilish huquqi tushuntirilgan.

FPKning 75-moddasi 2-qismiga asosan bir fuqarolik ishi bo'yicha sudning qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarori bilan aniqlangan faktlar xuddi shu ishtirot etayotgan boshqa fuqarolik ishlari muhokamasida yangidan isbot qilinmaydi.

Jinoyat ishi bo'yicha qonuniy kuchga kirgan sud hukmi sud tomonidan hukm etilgan shaxs harakatlarining fuqarolik-huquqiy oqibatlari to'g'risidagi ishni ko'rib chiqayotgan sud uchun faqat shu harakatlar sodir etilgan yoki sodir etilmaganligi va ular mazkur shaxs tomonidan sodir etilgan yoki etilmaganligi masalalari yuzasidangina majburiydir.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining 2007-yil 2-oktabrdagi "Fuqarolik ishlarini ko'rishda sudlar tomonidan dalillarga oid qonun normalarini qo'llashning ayrim masalalari to'g'-risida"gi Qarorining 4-bandiga ko'ra, ma'muriy huquqbazarlik ishi bo'yicha

sudning qonuniy kuchga kirgan qarori hamda jinoyat ishini reabilitatsiya asoslarisiz tugatish haqidagi tergov organi va sud ajrimida qayd etilgan holatlar shu bilan bog'liq fuqarolik ishi ko'rib chiqilishida qayta isbotlashni talab qilmaydi.

Ish hujjatlari ko'ra (F.I.Sh.) 2012-yilning yanvar oylari boshida (F.I.Sh.)ning ishonchiga kirib, aldab unga tegishli 12.825.000 so'mlik mulkini sotib berishni va'da qilib, moddiy boyliklarni qo'lga kiritib, bergen va'dasini bajarmasdan pullarni o'z ehtiyojlariga ishlatib yuborib, hamda (F.I.Sh.) ga tegishli 350.000 so'mlik mulkini qo'lga kiritib, sotib berishni va'da qilib, va'dasini bajarmasdan pullarni o'z ehtiyojlar uchun ishlatib yuborib, O'zbekiston Respublikasi JKnning 168-moddasi 2-qismi "a" bandida ko'rsatilgan jinoyatni sodir qilgan.

Sud majlisi jarayonida aniqlanishicha, javobgar tergov va sud jarayonida (F.I.Sh.)ga yetkazilgan moddiy zararning 2.000.000 so'mini qoplagan va bugungi kunda 10.825.000 so'm miqdordagi zarar qoplanmagan.

Sud yuqoridagi qonun talablari va aniqlangan holatlardan kelib chiqib, moddiy zararni undirish haqidagi Mirobod tuman prokurorining da'vo talablarini qisman va da'vogar (F.I.Sh.)ning da'vo talabini qanoatlantirishni va javobgar (F.I.O.)dan da'vogar (F.I.Sh.)ning foydasiga 10.825.000 so'm, O.M.ning foydasiga 350.000 so'm undirishni lozim topadi.

O'zbekiston Respublikasi FKning 1021-moddasi 1-qismi talabiga muvofiq, ma'naviy zarar uni yetkazuvchining aybi bo'lgan taqdirda zarar yetkazuvchi tomonidan qoplanadi.

Mazkur moddaning 2-qismi 1-bandiga asosan, zarar fuqaroning hayoti va sog'lig'iga ortiqcha xavf manbai tomonidan yetkazilgan bo'lsa, ma'naviy zarar uni yetkazuvchining aybida qat'iy nazar, qoplanadi.

Ushbu Kodeksning 1022-moddasining 2-qismiga ko'ra, ma'naviy zararni qoplash miqdori jabrlanuvchiga yetkazilgan jismoniy va ma'-naviy azoblarining xususiyatiga, shuningdek ayb tovon to'lashga asos bo'lgan hollarda zarar yetkazuvchining aybi darajasiga qarab sud to-monidan aniqlanadi. Zararni qoplash miqdorini aniqlashda oqilonalik va adolatlilik talablari e'tiborga olinishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining 2000-yil 28-apreldagi "Ma'naviy zararni qoplash haqidagi qonunlarni qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida"gi 17-sonli qarori 2-bandining 1-qismida tushuntirilishicha, ma'naviy zarar deganda jabrlanuvchiga qarshi sodir etilgan huquqbuzarlik harakati (harakatsizlik) oqibatida u boshidan kechirgan (o'tkazgan) ma'naviy va jismoniy (kamsitish, jismoniy og'riq, zarar ko'rish, noqulaylik va boshqa) azoblar tushuniladi.

Sud, yuqoridagi qonun talabi va Oliy Sud Plenumining tushuntirishlaridan kelib chiqib, oqilonalik va adolatlilik tamoyillariga amal qilib, jismoniy va ma'naviy azoblarning xususiyati, ma'naviy zarar yetkazilgan haqiqiy holatlar va jabrlanuvchining shaxsiy xususiyatlarini, javobgar (F.I.Sh.) ning jinoyat sodir qilgani sud hukmi bilan o'z tas-dig'ini topganligi sababli, sud ma'naviy zararni 300.000 so'm deb baholab, uni javobgar (F.I.O.)dan da'vogar (F.I.Sh.)ning foydasiga undi-rishni lozim topadi.

Sud da'vo talablarini qanoatlantirish bilan bir qatorda sud FPKning 120-moddasi talablari asosida, javobgar (F.I.O.)dan davlat foydasiga moddiy zararni undirish haqidagi talab yuzasidan 2.165.000 so'm, ma'naviy zararni undirish haqidagi talab yuzasidan 39800 so'm, jami 2.204.800 so'm davlat bojini undirishni lozim deb topadi.

Yuqoridagilarni inobatga olib, FKning 985, 1021-1022-moddalariga va FPKning 75, 220, 249-253-moddalariga asosan sud

#### **Qaror qiladi:**

Da'vogar Toshkent shahar Mirobod tuman prokurorining (F.I.Sh.), (F.I.Sh.)ning manfaatini ko'zlab, javobgar (F.I.Sh.)ga nisbatan yetkazilgan moddiy zararni undirish to'g'risidagi da'vo arizasi qisman qanoatlantirilsin.

Da'vogar (F.I.Sh.)ning javobgar (F.I.Sh.)ga nisbatan jinoyat natisida yetkazilgan moddiy va ma'naviy zararni undirish to'g'risidagi da'vo arizasi qanoatlantirilsin.

Javobgar (F.I.O.)dan da'vogar (F.I.Sh.) foydasiga yetkazilgan moddiy zararni qoplash uchun 10.825.000 (o'n million sakkiz yuz yigirma besh ming) so'm, (F.I.Sh.) foydasiga 350.000 (uch yuz ellik ming) so'm undirilsin.

Javobgar (F.I.O.)dan davlat foydasiga 2.204.800 (ikki million ikki yuz to'rt ming sakkiz yuz) so'm davlat boji undirilsin.

Hal qiluv qaroridan norozi tomon 20 kunlik muddat ichida shu tumanlararo sudi orqali Fuqarolik ishlari bo'yicha Toshkent shahar su'diga appellatsiya tartibida shikoyat yoki protest keltirishi huquqiga ega.

Raislik etuvchi:

imzo

(F.I.Sh.)

### **NAZORAT UCHUN SAVOLLAR**

1. Birinchi instansiya sudi ajrimlari turlarini aytинг.
2. Xususiy ajrimni rasmiylashтиring.
3. Sud hal qiluv qarori mazmunini tushuntiring.
4. Fuqarolik ishi bo'yicha sud hal qiluv qarori yozing?

## **5-MAVZU. SIRTDAN ISH KO'RISHDA YURITILADIGAN PROTSESSUAL HUJJATLAR**

### **1-§. Sirtdan ish ko'rishda yuritiladigan protsessual hujjatlar va ularning tasnifi**

FPKning 26-bobi sirtdan hal qiluv qarori chiqarish institutiga oid bo'lib, ushbu bob FPKning 280–292-moddalarini o'z ichiga oladi.

Sirtdan ish yuritish deganda sud majlisining vaqtি va joyi to'g'risida tegishli tarzda xabardor qilingan javobgar sud majlisiga kelmagan, kelmaganligining uzrli sabablari borligi haqida xabar bermagan va ishni uning ishtirokisiz ko'rish to'g'risida so'rama-gan taqdirda, agar da'vogar bunga e'tiroz bildirmasa, ish sirtdan ish yuritish tartibida ko'rib hal qilish tushuniladi.

---

Sirtdan ish yuritish jarayonida quyidagi protsessual hujjatlar chiqarilishi mumkin:

- 1) sirtdan ish yuritish haqidagi ajrim;
- 2) sirtdan hal qiluv qarori;
- 3) sirtdan chiqarilgan hal qiluv qarorini qayta ko'rish haqidagi ariza;
- 4) sirtdan chiqarilgan hal qiluv qarorini qayta ko'rish haqidagi arizani qanoatlantirmay qoldirish to'g'risidagi ajrim;
- 5) sirtdan chiqarilgan hal qiluv qarorini bekor qilish va ishni avvalgi tarkibdagi sud tomonidan ishni mazmunan ko'rishni tiklash to'g'risidagi ajrim;
- 6) sirtdan chiqarilgan hal qiluv qarorini bekor qilish va ishni boshqa tarkibdagi sud tomonidan ishni mazmunan ko'rishni tiklash to'g'risidagi ajrim;
- 7) sirtdan chiqarilgan hal qiluv qarorini qayta ko'rish haqidagi appellatsiya shikoyati;
- 8) sirtdan chiqarilgan hal qiluv qarorini qayta ko'rish haqidagi appellatsiya protesti;
- 9) sirtdan chiqarilgan hal qiluv qarorini qayta ko'rish haqidagi kassatsiya shikoyati;
- 10) sirtdan chiqarilgan hal qiluv qarorini qayta ko'rish haqidagi kassatsiya protesti;
- 11) sirtdan chiqarilgan hal qiluv qarorini qayta ko'rish haqidagi nazorat protest.

Shuningdek, sud sirtdan ish ko‘rish jarayonida ishda ishtirok etmayotgan javobgar manfaatlariga ta’sir ko‘rsatmaydigan, ammo ish uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan protsessual harakatlarni amalgalashirib, bu haqda ajrim chiqarishi mumkin.

## **2-§. Sirtdan chiqarilgan hal qiluv qarorining mazmuni va uni rasmiylashtirish tartibi**

FPKning 253-moddasida hal qiluv qarorining mazmuni ko‘rsatilib, unga ko‘ra, hal qiluv qarori kirish, bayon, asoslantiruvchi va xulosa qismlaridan iborat bo‘ladi.

---

Sirtdan chiqarilgan hal qiluv qarorining **kirish qismida** hal qiluv qarorining chiqarilgan vaqt va joyi, hal qiluv qarorini chiqargan suding nomi, sudyaning familiyasi (sud tarkibi), sud majlisining kotibi, taraflar, ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslar, hamda nizo predmeti ko‘rsatiladi. Shuningdek, hal qiluv qarorining boshida “sirtdan” degan jumla ishlataladi.

Sirtdan chiqarilgan hal qiluv qarorining **bayon qismida** javobgarning e’tirozlar mavjud bo‘lmaydi.

Sirtdan chiqarilgan hal qiluv qarorining **asoslantiruvchi qismida**, umumiylashtirilgan hal qiluv qarorlaridan farqli ravishda javobgarning tushuntirish va e’tirozlarini aks ettiruvchi holatlar va ushbu holatlarni tasdiqllovchi dalillar berilmaydi, chunki sud bunday ma’lu-motga ega bo‘lmaydi, jumladan hal qiluv qarorining ushbu qismida ishning sud tomonidan aniqlangan holatlari, ishning holatlari to‘g‘-risidagi sud xulosalariga asos bo‘lgan dalillar, sud u yoki bu dalilni rad qilishda asoslangan xulosalar, shuningdek nizoli munosabatni tartibga soluvchi moddiy huquq me’yorlari (fuqarolik, oila, yer, mehnat, uy-joy to‘g‘-risidagi va boshqa qonunlar) keltirilmog‘i, qonunning nomi, mod-dasi, bandi hamda protsessual huquq me’yorlari ko‘rsatilmog‘i lozim. Zarur holatlarda, sud O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining tegishli qarorlarini ham qo‘llashi lozim bo‘ladi.

Hal qiluv qarorining **xulosa qismida** taraflarning familiyasi, ismi, otasining ismi yoki yuridik shaxsning nomi to‘liq keltirilishi, da’vo talablarini qanoatlantirilganligi (to‘liq yoki qisman) haqidagi sudning qisqa va aniq xulosasi aks ettirilishi lozim. Shuningdek, sud xarajatlarining taqsimlanishi, sirtdan hal qiluv qarorini qayta ko‘rish haqida

---

javobgarning ariza berish natnibi va muddati, appellatsiya shikoyat va protest keltirish muddati va tartibi aniq ko'rsatilishi lozim.

### *Sirtdan chiqarilgan hal qiluv qarori namunasi*

#### **SIRTDAN HAL QILUV QARORI O'ZBEKİSTON RESPUBLİKASI NOMİDAN**

2018-yil aprel oyining 28-kunida Fuqarolik ishlari bo'yicha Toshkent shahar Shayxontohur tumanlararo sudi o'z binosida ochiq sud majlisida, raislik etuvchi, suda (F.I.Sh.), (F.I.Sh.) ning kotibligida, Olmazor tuman prokurorining yordamchisi (F.I.Sh.)ning ishtirokida, da'vogar Mirzo Ulug'bek tuman prokurorining fuqaro (F.I.Sh.)ning manfaatida javobgar (F.I.Sh.) ga nisbatan jinoyat oqibatida yetkazilgan moddiy zararni undirish haqidagi da'vo arizasi bo'yicha yuritilgan 1-4098/18-sonli fuqarolik ishini ko'rib chiqib, sud quyidagilarni

#### **Aniqladi:**

Sudga da'vogar Mirzo Ulug'bek tuman prokurori fuqaro (F.I.Sh.)ning manfaatida javobgar (F.I.Sh.)ga nisbatan jinoyat oqibatida yetkazilgan moddiy zararni undirish haqidagi da'vo arizasi bilan murojaat qilgan.

Sud majlisida Olmazor tuman prokurorining yordamchisi (F.I.Sh.) da'vo talablarini quvvatlab, 2008-yil 8-sentabrda (F.I.Sh.) o'zining tanishi (F.I.Sh.)ga birga biznes qilishni taklif qilib, uni aldab, unga tegishli bo'lgan Yunusobod tumani, 6-mavze, 41-uy, 59-xonadonni garov sifa-tida oldi-sotdi shartnomasi orqali fuqaro (F.I.Sh.)ga rasmiylashtirib yu-borib, (F.I.Sh.) dan garovga qo'yilgan uy hisobidan 15.000 AQSH dollarini olib, pullarni o'z ehtiyoji uchun ishlatib yuborganini, Jinoyat ishlari bo'yicha Mirzo Ulug'bek tuman sudining 2012-yil 12-aprel kunidagi ajrimi bilan O'zbekiston Respublikasi JKning 168-moddasi 3-qismi "a" bandida nazarda tutilgan jinoyatni sodir qilganlikda gumon qilinuvchi (F.I.Sh.) ga O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2011-yil 5-dekabr kunidagi "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 19 yilligi munosabati bilan amnistiya to'g'-risida"gi Qarorining 7-bandiga asosan uning ayblilik masalasini hal qilmasdan turib harakatdan tugatilganini bayon qilib, suddan da'vo arizani qanoatlantirishni va javobgar (F.I.Sh.) dan jinoyat oqibatida yetkazilgan 15.000 AQSH dollari miqdoridagi moddiy zararni O'zbe-kiston so'miga nisbatan qiymatida fuqaro (F.I.Sh.)ning foydasiga undirishni hamda javobgardan davlat foydasiga davlat boji undirishni so'radi.

Javobgar (F.I.Sh.) sud majlisi kuni va vaqtin aniq ko'rsatilgan holda tegishli tartibda chiqartirilishiga qaramasdan, sud majlisiga kelmadı. Sud FPKning 280-moddasiga ko'ra fuqarolik ishini javobgarning ishtirotkisiz sirtidan ko'rishni lozim topadi.

Sud majlisida mustaqil talab bilan arz qiluvchi uchinchi shaxs (F.I.Sh.)ning ishonchli vakili (F.I.Sh.) da'vo arizani quvvatlab uni to'liq qanoatlantirishni so'radi.

Sud, da'vogar vakili va 3-shaxs vakilining ko'rgazmalarini tinglab, ish hujjatlarini muhokama qilib va to'plangan dalillarga huquqiy baho berib, quyidagi asoslarga ko'ra da'vo talablarini qanoatlantirishni maqsadga muvofiq deb hisoblaydi.

FKning 985-moddasiga asosan, g'ayriqonuniy harakat (harakatsizlik) tufayli fuqaroning shaxsiga yoki mol-mulkiga yetkazilgan zarar, shu-ningdek yuridik shaxsga yetkazilgan zarar, shu jumladan, boy berilgan foyda zararni yetkazgan shaxs tomonidan to'liq hajmda qoplanishi lozim.

Aniqlanishicha, 2008-yilning 8-sentabr kuni 1949-yilda tug'ilgan (F.I.Sh.) firibgarlik yo'li bilan o'zganing mulkini qo'lga kiritish maqsadida, o'zining tanishi (F.I.Sh.) birga biznes qilishni taklif qilib, aldab, unga tegishli bo'lgan Yunusobod tumani, 6-mavze, 41-uy, 59-xo-nadonni garov sifatida oldi-sotdi shartnomasi orqali fuqaro (F.I.Sh.)ga Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani, Oqqo'rg'on ko'chasi, 25-uyda joylashgan (F.I.Sh.) notarial idorasini orqali rasmiylashtirib yuborib, (F.I.Sh.)dan garovga qo'yilgan uy hisobidan 15.000 AQSH dollarini olib, pullarni o'z ehtiyoji uchun ishlatib yuborgan.

Ushbu holat bo'yicha dastlabki tergov organi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Jkning 168-moddasi, 3-qismi, "a" bandi bilan jinoyat ishi qo'zg'atilgan.

Mazkur jinoyat ishi Jinoyat ishlari bo'yicha Mirzo Ulug'bek tuman sudining 2012-yil 2-apreldagi ajrimi bilan O'zbekiston Respublikasi JKning 168-moddasi 3-qismi "a" bandida nazarda tutilgan jinoyatni sodir qilganlikda gumon qilinuvchi (F.I.Sh.)ga O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2011-yil 5-dekabr kunidagi "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 19 yilligi munosabati bilan amnistiya to'g'risida"gi Qarorining 7-bandiga asosan uning ayblilik ma-salasini hal qilmasdan turib, harakatdan tugatilgan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining 2007-yil 2-oktabrdagi "Fuqarolik ishlarini ko'rishda sudlar tomonidan dalillarga oid qonun normalarini qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida"gi Qarorining 4-bandiga ko'ra, ma'muriy huquqbazarlik ishi bo'yicha sudning

qonuniy kuchga kirgan qarori hamda jinoyat ishini reabilitatsiya asoslarisiz tugatish haqidagi tergov organi va sud ajrimida qayd etilgan holatlar shu bilan bog'liq fuqarolik ishi ko'rib chiqilishida qayta isbotlashni talab qilmaydi.

Aniqlanishicha, hal qiluv qarori qabul qilingan kundagi 1 AQSH dollarining so'mga nisbatan O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki tomonidan belgilangan qiymati 2348,02 so'mni tashkil etadi.

Ushbu holatda 15.000 AQSH dollarining bugungi kundagi so'mga nisbatan qiymati 35220300 so'mni tashkil etadi.

Qayd etilganlardan kelib chiqib, sud FPKning 282-moddasiga asosan sud ishdagi mayjud dalillarni tekshirish bilan kifoyalanib, da'vogar vakilining vaj va iltimoslarini inobatga olib, da'voni qanoatlantirishni va javobgar (F.I.Sh.) fuqaro (F.I.Sh.)ning foydasiga jinoyat oqibatida yet-kazilgan 35220300 so'm miqdorida moddiy zarar va 7044060 (35220300 X 20%) so'm miqdorida davlat bojini undirishni lozim deb topadi.

Yuqoridagilarga ko'ra va FKNing 60, 985-moddasi hamda FPKning 280-283, 249-253-moddalarini qo'llab, sud

#### **Qaror qiladi:**

Da'vogar Mirzo Ulug'bek tuman prokurorining fuqaro (F.I.Sh.)ning manfaatida javobgar (F.I.Sh.)ga nisbatan jinoyat oqibatida yetkazilgan moddiy zararni undirish haqidagi da'vo arizasi qanoatlantirilsin.

Javobgar (F.I.Sh.)dan fuqaro (F.I.Sh.) ning foydasiga 35.220.300 (o'ttiz besh million ikki yuz yigirma ming uch yuz) so'm moddiy zarar undirilsin.

Javobgar (F.I.Sh.)dan davlat foydasiga 7.044.060 (etti million qirq to'rt ming oltmis) so'm davlat boji undirilsin.

Sud majlisida ishtirok etmagan javobgar 15 kun muddat ichida sirtdan chiqarilgan qarorni qayta ko'rish haqida shu tumanlararo sudiga ariza, qarordan norozi tomon 20 kun muddat ichida Fuqarolik ishlari bo'yicha Toshkent shahar sudiga shu sud orqali appellatsiya tartibida shikoyat, prokuror protest keltirishi mumkin.

Raislik etuvchi

imzo

(F.I.Sh.)

#### **4-§. Sirtdan chiqarilgan hal qiluv qarorini qayta ko'rish haqidagi arizaning mazmuni va uni rasmiylashtirish tartibi**

FPKning 285-moddasi asosan, javobgar hal qiluv qarorini sirtdan chiqargan sudga shu hal qiluv qarori chiqarilganidan keyin 15 kun ichida uni qayta ko'rish haqida ariza berishga haqli.

Sirtdan qabul qilingan hal qiluv qarorini qayta ko‘rib chiqish to‘g‘risidagi ariza javobgar yoki uning vakili tomonidan imzoladisi.

Sirtdan qabul qilingan hal qiluv qarorini qayta ko‘rib chiqish to‘g‘risidagi ariza ishtirok etuvchi shaxslarning soniga mutanosib miqdordagi ko‘chirma nusxalari bilan birga sudga beriladi, bundan elektron hujjat tarzida yuboriladigan ariza mustasno. Ariza uchun davlat boji to‘lanmaydi (FPKning 286-moddasi).

Sud ishtirok etuvchi shaxslarni sirdan qabul qilingan hal qiluv qarorini qayta ko‘rib chiqish to‘g‘risidagi arizani ko‘rib chiqish vaqt va joyi haqida xabardor qiladi, ularga ushbu ariza va unga ilova qilingan materiallarning ko‘chirma nusxalarini yubo-radi (FPKning 287-moddasi).

***Sirtdan chiqarilgan hal qiluv qarorini qayta  
ko‘rish haqidagi ariza namunasi***

Fuqarolik ishlari bo‘yicha Toshkent  
shahar Yakkasaroy tumanlararo sudiga  
Arizachi (F.I.Sh.) tomonidan  
Manzil: Sirg‘ali tumani, 5 mavze, 2uy.

**ARIZA**

(Fuqarolik ishlari bo‘yicha Yakkasaroy tumanlararo sudining 2018-yil  
8-apreldagi sirdan chiqarilgan hal qiluv qarorini qayta ko‘rish  
to‘g‘risida)

Da’vogar Sirg‘ali tuman hokimiyyati javobgar (F.I.Sh.)ga nisbatan  
noqonuniy qurilmani buzish haqidagi da’vo arizasi bilan sudga  
murojaat qilgan.

Sudning 2018-yil 8-apreldagi sirdan chiqarilgan hal qiluv qarori bilan  
da’vogarning da’vo talablari qanoatlantirilgan.

Yuqorida ko‘rsatilgan sirdan chiqarilgan sudning hal qiluv  
qaroridan noroziman, fuqarolik ishi meningishtirokimsiz sirdan ko‘rib  
chiqilgan, uyimga ham sud chaqiruv qog‘ozи kelmagan. Hattoki menda  
ushbu hal qiluv qarori ham yo‘q.

Bundan tashqari, menda hokimiyatning uy qurilishiga arxivdan  
olgan tasdiqlovchi hujjatlarim hokimiyatning da’vosini rad etish uchun  
asos bo‘ladi deb hisoblayman. Bundan tashqari, menga sud chaqiruv  
qog‘ozи doimiy ro‘yxatda turgan yashash manzilimga kelmagan.

FPKning 285-moddasiga ko‘ra, sud majlisida ishtirok etmagan taraf hal qiluv qarorini sirtdan chiqargan sudga shu hal qiluv qarori chiqarilganidan keyin o‘n besh kun ichida uni qayta ko‘rish haqida ariza berishga haqlidir. Yuqorida ko‘rsatilgan qonun talabidan kelib chiqib,

### **SO‘RAYMAN:**

Sirg‘ali tuman hokimiyatining javobgar (F.I.Sh.) ga nisbatan noqonuniy qurilmani buzish haqidagi da‘vo arizasi bo‘yicha fuqarolik ishlari bo‘yicha Yakkasaroy tumanlararo sudining 2018-yil 8-maydagi sirtdan chiqarilgan hal qiluv qarorini qayta ko‘rish to‘g‘risida arizani qanoatlantirishingizni va sirtdan qabul qilingan hal qiluv qarorini bekor qilib, mazkur ishni qayta ko‘rishingizni so‘rayman.

Ilova:

- 1) uy-joy bo‘yicha hujjatlar nusxalari;
- 2) pasport nusxasi;
- 3) ushbu arizaning nusxasi.

2018-yil 15 aprel

imzo

(F.I.Sh.)

### **5-§. Sirtdan chiqarilgan hal qiluv qarorini qayta ko‘rish to‘g‘risidagi ajrim va uni rasmiylashtirish tartibi**

**Sud sirtdan chiqarilgan hal qiluv qarorini qayta ko‘rish haqidagi arizani ko‘rib, o‘zining ajrimi bilan:**

arizani qanoatlantirmay qoldirishga

sirtdan chiqarilgan hal qiluv qarorini bekor qilish va avvalgi tarkibdagi yoki boshqa tarkibdagi sud tomonidan ishni mazmunan ko‘rishni tiklashga haqli (FPKning 289-moddasi)

**Sirtdan chiqarilgan hal qiluv qarorini qayta ko‘rish to‘g‘risidagi ajrim namunasi**

### **AJRIM**

(Sirtdan chiqarilgan hal qiluv qarorini qayta ko‘rish to‘g‘risida)

2018-yil 9-aprel kuni Fuqarolik ishlari bo'yicha Toshkent shahar Yakkasaroy tumanlararo sudi binosida, ochiq sud majlisida, sudya (F.I.Sh.)ning raisligida, (F.I.Sh.)ning kotibaligida, javobgar (F.I.Sh.)ning sudning sirtdan chiqarilgan hal qiluv qarorini bekor qilish va fuqarolik ishini qayta ko'rib chiqish haqidagi arizasini ko'rib chiqib,

#### **Aniqladi:**

Da'vogar Yakkasaroy tuman prokurori fuqaro (F.I.Sh.), (F.I.Sh.), (F.I.Sh.), (F.I.Sh.), (F.I.Sh.) larning manfaatida javobgarlar (F.I.Sh.) va (F.I.Sh.) larga nisbatan zarar undirish haqidagi da'vo arizasi bilan murojaat qilgan.

Sudning 2018-yil 8-apreldagi sirtdan chiqarilgan hal qiluv qarori bilan da'vogarning da'vo talablari qanoatlantirilgan.

Javobgar (F.I.Sh.) mazkur hal qiluv qaroridan norozi bo'lib, sudga ariza bilan murojaat qilgan va unda yuqorida ko'rsatilgan fuqarolik ishi uning ishtirokisiz sirtdan ko'rib chiqilganligini ko'rsatib, hal qiluv qarorini bekor qilish va fuqarolik ishini uning ishtirokida ko'rib chiqishni so'ragan.

FPKning 285-moddasiga ko'ra, sud majlisida ishtirok etmagan taraf hal qiluv qarorini sirtdan chiqargan sudga shu hal qiluv qarori chiqarilganidan keyin o'n besh kun ichida uni qayta ko'rish haqida ariza berishga haqli.

Yuqoridagi qonun talabiga asosan va FPK ning 155, 285, 271–272-moddalarini qo'llab, sud

#### **Ajrim qiladi:**

Sirtdan chiqarilgan hal qiluv qarorini bekor qilish haqida ariza keltirish muddati tiklansin.

Arizachi (F.I.Sh.)ning sirtdan chiqarilgan hal qiluv qarorini bekor qilish haqidagi arizasi qanoatlantirilsin.

Da'vogar Yakkasaroy tuman prokurorining fuqaro (F.I.Sh.), (F.I.Sh.), (F.I.Sh.), (F.I.Sh.), (F.I.Sh.) larning manfaatida javobgarlar (F.I.Sh.) va (F.I.Sh.) larga nisbatan zarar undirish haqidagi da'vo arizasi bo'yicha yuritilgan fuqarolik ishi yuzasidan sudning 2018-yil 8-maydagi sirtdan chiqarilgan hal qiluv qarorini bekor qilinsin.

Mazkur fuqarolik ishi yuzasidan rasmiylashtirilgan ijro varaqlari bekor qilinsin va sudga ijrosiz qaytarilsin.

Raislik etuvchi

imzo

(F.I.Sh.)

## **NAZORAT UCHUN SAVOLLAR**

1. Qachon sirdan hal qiluv qarori chiqariladi?
2. Sirdan chiqarilgan hal qiluv qarorini qayta ko‘rish haqidagi arizada nimalar ko‘rsatiladi.
3. Sirdan chiqarilgan hal qiluv qarorini tushuntiring.
4. Sirdan chiqarilgan hal qiluv qarorining umumiy tartibda chiqarilgan hal qiluv qaroridan farqli va o‘xshash jihatlarini ayting.

## **6-MAVZU. BUYRUQ TARTIBIDA ISH YURITISHDA RASMIYLASHTIRILADIGAN PROTSESSUAL HUJJATLAR**

### **1-§. Sud buyrug‘ini chiqarish bo‘yicha talablar**

---

**Sud buyrug‘i** – nizosiz talablar bo‘yicha sud muhokamasi o‘tkazmasdan berilgan sud hujjatidir.

---

**Fuqarolik protsessual qonunchiligidagi, sud buyruqlarini chiqarishning quyidagi talablari o‘z ifodasini topgan:**

- 1) talab notarial tasdiqlangan bitimga asoslangan bo‘lsa;
  - 2) talab yozma bitimga asoslangan va qarzdor tomonidan tan olin-gan bo‘lsa;
  - 3) kommunal xizmatlar yoki aloqa xizmatlari to‘lovi bo‘yicha qazr-dorlikni tasdiqlovchi hujjatlarga asoslangan undirish to‘g‘risida talab arz qilingan bo‘lsa;
  - 4) voyaga yetmagan bolalar uchun alimentlar undirish to‘g‘risi-dagi, otalikni belgilash bilan yoki uchinchi shaxslarni jalb etish zaru-rati bilan bog‘liq bo‘lmagan talab arz qilingan bo‘lsa;
  - 5) hisoblangan, lekin xodimga to‘lanmagan ish haqini va unga tenglashtirilgan to‘lovlarni undirish haqida talab arz qilingan bo‘lsa;
  - 6) fuqaroldardan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlari bo‘yicha qarzdorlikni undirish to‘g‘risida talab arz qilingan bo‘lsa;
  - 7) ijara shartnomasida belgilangan ijara to‘lovlari muddatida to‘lanmaganligi sababli ushbu to‘lovlarni undirish to‘g‘risida talab arz qilingan bo‘lsa;
  - 8) ko‘p kvartirali uyning joylari mulkdorlaridan majburiy badallar va to‘lovlarni undirish to‘g‘risida talab arz qilingan bo‘lsa;
  - 9) yozma bitim mavjud bo‘lgan taqdirda, undiruvni qarzdorning majburiyatları bajarilishining ta‘minoti bo‘lgan ko‘char mol-mulkka qaratish to‘g‘risida talab arz qilingan bo‘lsa (FPKning 171-moddasi).
- 

### **2-§. Sud buyrug‘ini chiqarish to‘g‘risidagi arizaning shakli, mazmuni va uni rasmiylashtirish tartibi**

Sud buyrug‘ini chiqarish to‘g‘risidagi ariza sudga yozma shaklda, shu jumladan, axborot tizimi orqali elektron shaklda beriladi.

---

Sud buyrug‘ini berish to‘g‘risidagi arizada quyidagilar ko‘rsatilishi kerak:

- 1) ariza berilayotgan sudning nomi;
  - 2) undiruvchining familiyasi, ismi, otasining ismi (nomi), uning yashash joyi yoki joylashgan yeri (pochta manzili) hamda yuridik shaxsnинг rekvizitlari;
  - 3) qarzdorning familiyasi, ismi, otasining ismi (nomi), uning yashash joyi yoki joylashgan yeri (pochta manzili) hamda yuridik shaxsnинг rekvizitlari;
  - 4) undiruvchining talabi va talabga asos bo‘lgan holatlar;
  - 5) undirilayotgan qarzdorlik vujudga kelgan davr;
- 5<sup>1</sup>)to‘lanmagan to‘lovlar summasining hisob-kitobi va undiruv qaratilayotgan, qarzdorning majburiyatları bajarilishining ta’moti sifatida turgan ko‘char mol-mulkning tavsifi;
- 6) arz qilingan talabni tasdiqlovchi, ilova qilinayotgan hujjatlarning ro‘yxati.

Sud buyrug‘ini berish to‘g‘risidagi arizada undiruvchi yoki uning vakilining telefonlari, fakslari raqamlari, elektron pochta manzili ko‘rsatilishi mumkin.

Ko‘char mol-mulk talab qilingan taqdirda, arizada ushbu mol-mulkning qiymati ko‘rsatilishi lozim.

---

Sud buyrug‘ini chiqarish to‘g‘risidagi ariza undiruvchi yoki uning vakili tomonidan imzolanadi. Vakil tomonidan berilayotgan arizaga uning vakolatlarini tasdiqlovchi hujjat ilova etilishi lozim.

---

#### **Sud buyrug‘ini berish to‘g‘risidagi arizaga:**

- 1) davlat boji va pochta xarajatlari belgilangan tartibda va miqdorda to‘langanligini;
  - 2) huquqiy munosabatni sudgacha hal qilish tartibiga rioya qiliniganligi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni, agar bu qonunda yoki shartnomada nazarda tutilgan bo‘lsa;
  - 3) talablarga asos bo‘lgan holatlarni;
  - 4) arz qilingan talabni tasdiqlovchi hujjatlar ilova qilinadi
- 

#### ***Sud buyrug‘i chiqarish haqidagi arizadan namuna***

Fuqarolik ishlari bo‘yicha Toshkent shahar Shayxontohur tumanlararo sudiga
--

Undiruvchi: (F.I.Sh.) 1980-yilda tug‘ilgan, Olmazor tumani, Guruchariq ko‘chasi, 38-uy, tel.: 220-62-16.
--

Qarzdor: (F.I.Sh.) 1974-yilda  
tug‘ilgan, Uchtepa tumani, Juzjoniy  
ko‘chasi, 45-uy, tel.: 275-63-05.

### **ARIZA**

(Voyaga yetmagan bolalalar uchun aliment undirish haqida)

Men qarzdor (F.I.Sh.) bilan 2015-yil 8-avgustda shar’iy nikohdan o‘tib turmush qurbanman.

Birgalikdagi turmushimizdan ikki nafar:

1. (F.I.Sh.) (2016-yil 9-mayda tug‘ilgan),
2. (F.I.Sh.) (2017-yil 21-avgustda tug‘ilgan) ismli farzandlarimiz bor.

Qarzdor bilan 2010-yildan buyon birga yashamaymiz, u farzandlarining ta’minoti uchun yordam bermaydi, farzandlarim mening qaramog‘imda.

Yuqoridaqilarga asosan, suddan O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 96–99–moddalariga asosan,

### **SO‘RAYMAN:**

Toshkent shahar Uchtepa tumani, Juzjoniy ko‘chasi, 45-uyda yashovchi 1976-yilda tug‘ilgan (F.I.Sh.) dan mening foydamga voyaga yetmagan ikki nafar (F.I.Sh.) (2016-yil 9-mayda tug‘ilgan) va (F.I.Sh.) (2017-yil 21-avgustda tug‘ilgan) ismli farzandlarimizning ta’minoti uchun qarzdorning ish haqi va boshqa daromadlarining 1/3 qismi miqdorida aliment undirish haqida sud buyrug‘i chiqarib berishingizni.

Ilova:ariza nusxasi; bolalarning tug‘ilganlik to‘g‘risidagi guvohnoma nusxasi; yashash joyidan ma’lumotnomasi; pasport nusxalari; turmush o‘rtog‘imning oylik maoshi haqida ma’lumot.

Sana

imzo

(F.I.Sh.)

### **3-§. Sud buyrug‘ining mazmuni va uni protsessual rasmiylashtirish tartibi**

Fuqarolik protsessual qonunchilikda sud buyrug‘ini chiqarish uchun protsessual muddat belgilangan bo‘lib, unga ko‘ra sud buyrug‘i ariza kelib tushgan kundan e’tiboran uch kun ichida suda tomonidan chiqariladi.

---

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining 2006-yil 3-fevraldag‘i “Buyruq tartibida ish yuritishni tartibga soluvchi qonun normalarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida”gi qarorining 19-bandida sud buyrug‘i hal qiluv qaroridan farq qilib, unda **bavon va asoslantiruvchi** qismalar mavjud bo‘lmasdan, talablarni qanoatlantirishga asos bo‘lgan moddiy qonun normasini ko‘rsatish bilan chegaralanishiga sudsarning e’tibori qaratilishi yuzasidan tushuntirishlar beriladi.

---

### **Sud buyrug‘ining kirish qismida quyidagilar ko‘rsatiladi:**

- ◆ ish yuritishning tartib raqami va buyruq berilgan sana;
- ◆ sudning nomi, buyruq bergan sudyaning familiyasi, ismi va otasining ismi;
- ◆ undiruvchining familiyasi, ismi, otasining ismi (nomi), yashash joyi yoki joylashgan yeri (pochta manzili);
- ◆ qarzdorning familiyasi, ismi, otasining ismi (nomi), yashash joyi yoki joylashgan yeri (pochta manzili).

Sudya o‘z buyrug‘ida undiruvchining talabini qondirish uchun asos bo‘lgan qonunni ko‘rsatishi lozim bo‘ladi. Bir qarashda bu sud buyrug‘ining asoslantiruvchi qismiga o‘xshasa-da, lekin ushbu qismda hujjatlar, boshqa faktik holatlar tekshirilmaydi va huquqiy tahlil etilmaydi.

---

### **Sud buyrug‘ining xulosa qismida quyidagilar ko‘rsatilishi lozim:**

- ◆ talabni qanoalantirish uchun asos bo‘lgan qonun;
  - ◆ undirilishi kerak bo‘lgan pul summalarining miqdori yoki talab qilib olinishi kerak bo‘lgan ko‘char mol-mulkning qiymati ham ko‘rsatilgan holdagi belgisi;
  - ◆ undirilayotgan qarzdorlik vujudga kelgan davr;
  - ◆ neustoyka miqdori, agar uning undirilishi qonunda yoki shartnomada nazarda tutilgan bo‘lsa;
  - ◆ qarzdordan undirilishi kerak bo‘lgan davlat bojining summasi;
  - ◆ arz qilingan talabga qarshi qarzdor tomonidan e’tiroz taqdim etish muddati va tartibi.
- 

Voyaga yetmagan bolalar uchun alimentlar undirish to‘g‘risidagi sud buyrug‘ida ushbu moddaning 1–5, 9, 10-bandlarida nazarda tutilgan ma’lumotlardan tashqari quyidagilar ko‘rsatiladi: qarzdorning tug‘ilgan sanasi va joyi, ta’minoti uchun aliment un-

dirilishi lozim bo‘lgan har bir bolaning ismi va tug‘ilgan sanasi, qarzdordan har oyda undiriladigan to‘lovlar miqdori hamda ularni undirish muddati.

### **Sud buyrug‘idan namuna**

#### **SUD BUYRUG‘I**

22-aprel 2018-yil

SB-1-467/18 sonli ish yurituv

Fuqarolik ishlari bo‘yicha Toshkent shahar Mirobod tumanlararo sudi sudyasi (F.I.Sh.), Toshkent shahar, Mirobod tumani, Bahor ko‘chasi, 18/20-1-uy, 10-xonadonda yashovchi 1985-yilda tug‘ilgan undiruvchi (F.I.Sh.) ning Toshkent shahar, Mirobod tumani, Bahor ko‘chasi, 144-uy, 10-xonadonda yashovchi 1982-yilda tug‘ilgan qarzdor (F.I.Sh.)ga nisbatan farzand ta’motni uchun aliment undirish haqida sud buyrug‘ini berish to‘g‘risidagi arizasini ko‘rib,

FPKning 171-moddasi 4-bandiga asosan, 178-moddasini qo‘llab,

#### **BUYURAMAN:**

Toshkent shahar, Mirobod tumani, Bahor ko‘chasi, 144-uy, 10-xonadonda yashovchi 1982-yilda tug‘ilgan qarzdor (F.I.Sh.) dan Toshkent shahar, Mirobod tumani, Bahor ko‘chasi, 18/20-1-uy, 10-xonadonda yashovchi 1985-yilda tug‘ilgan undiruvchi (F.I.Sh.)ning foydasiga, voyaga yetmagan 2004 yil 15 iyulda tug‘ilgan (F.I.Sh.) va 2006-yil 18-noyabrda tug‘ilgan (F.I.Sh.) ismli farzandlarining moddiy ta’motni uchun, qarzdorning har oydagisi oylik ish haqi va boshqa daromadining 1/3 qismi miqdorida 2018-yil 22-aprel kunidan boshlab to farzandlari voyaga yetguniga qadar aliment undirilsin.

Qarzdor (F.I.Sh.)dan davlat foydasiga 39.795 (o‘ttiz to‘qqiz ming yetti yuz to‘qson besh) so‘m davlat boji undirilsin.

Qarzdor buyruq nusxasini olgan kundan e’tiboran talab qilingan ariza yuzasidan e’tirozini o‘n kunlik muddatda sudga yuborishga haqli.

Sudya

imzo

(F.I.Sh.)

#### **5-§. Sud buyrug‘ini bekor qilish to‘g‘risidagi e’tiroz va uni rasmiylashtirish tartibi**

Fuqarolik protsessual qonunchilik sudyaga sud buyrug‘i chiqarilganidan keyin uning ko‘chirma nusxasini darhol qarzdorga

yuborish majburiyatini yuklaydi. Qarzdor sud buyrug‘ining ko‘chirma nusxasini olgan kundan e’tiboran o‘n kunlik muddat ichida arz qilingan talabga qarshi o‘z e’tirozlarini buyruqni chiqargan sudga yuborishga haqli bo‘ladi. Ta’kidlash joizki, FPKning 179-moddasida nazarda tutilgan sud buyrug‘ining nusxasini qarzdorga darhol yuborish tartibi, shuningdek FPKning 181-moddasida ko‘rsatilgan sud buyrug‘ini bekor qilish asoslari qarzdor huquqlarining kafolati hisoblanadi. E’tiroz sudga yozma shaklda beriladi. Ushbu e’tiroz uchun davlat boji undirilmaydi.

Agar belgilangan muddatda qarzdordan sudga e’tiroz tush-masa, sudya sudning muhri bilan tasdiqlangan sud buyrug‘ini ijro etishga taqdim qilish uchun undiruvchiga beradi. Undiruvchining iltimosiga ko‘ra sud buyrug‘i ijro etish uchun bevosita sud tomonidan yuborilishi ham mumkin.

Sud buyrug‘iga nisbatan e’tiroz bildirish uchun qonunda belgilangan o‘n kunlik muddatning qarzdor tomonidan o‘tkazib yuborilganligi sud tomonidan uzrli deb topilgan taqdirda sud uning arizasiga asosan ushbu muddatni tiklashi mumkin.

### **Sud buyrug‘ini bekor qilish to‘g‘risidagi e’tiroz namunasi**

Fuqarolik ishlari bo‘yicha Toshkent shahar Shayxontohur tumanlararo sudiga

Qarzdor: (F.I.Sh.) 1982-yilda tug‘ilgan, Mirobod tumani Bahor ko‘chasi 144-uy, 10-xonadonda istiqomat qiladi.

#### **E’ T I R O Z**

(sud buyrug‘ini bekor qilish haqida)

Fuqarolik ishlari bo‘yicha Toshkent shahar Mirobod tumanlararo sudi tomonidan 2018-yil 22-aprelda Toshkent shahar, Mirobod tumani Elektr energiya tarmoqlari bo‘limiga 100 000 (yuz ming) so‘m qarz-dorlik to‘lovlarini undirish haqida (F.I.Sh.)ga nisbatan SB-467/18-sonli sud buyrug‘i chiqarilgan.

Mirobod tumani, Bahor ko‘chasi 144-uy, 10-xonadonning hech qanday elektr energiyadan qarzdorligi mavjud emas. Chunki oxirgi marta 2018-yil 20-martda elektr energiya uchun 200 000 (ikki yuz ming) ming so‘m pul to‘langan. Shuning uchun ushbu sud buyrug‘ini bekor qilishingizni so‘rayman.

Ilova:

Sud buyrug‘i nusxasi;

Elektr energiya uchun pul to‘langanlik haqidagi kvitansiya.

Sana

imzo

(F.I.Sh.)

## **NAZORAT UCHUN SAVOLLAR**

1. Sud buyrug‘i chiqarish to‘g‘risidagi ariza qanday rasmiy-lashtiriladi? Fikringizni qonun hujjatlari bilan asoslantirib, ushbu ariza namunasini yozing.
2. Sud buyrug‘i chiqarish to‘g‘risidagi arizani qabul qilishni rad etish asoslari va bu haqidagi ajrimda nimalar ko‘rsatiladi? Mazkur ajrim loyihasini tayyorlang.
3. Sud buyrug‘ini bekor qilish to‘g‘risidagi e’tiroz qanday rasmiylashtiriladi?
4. Sud buyrug‘ining sud hal qiluv qaroridan farqlarini ayting.

## **7- MAVZU. ALOHIDA TARTIBDA ISH YURITISHDAGI PROTSESSUAL HUJJATLAR**

### **1-§. Sud tomonidan alohida ish yuritish tartibida ko‘riladigan ishlar hamda ular bo‘yicha rasmiylashtiriladigan protsessual hujjatlar haqida umumiy qoidalar**

---

**Alohida tartibda ish yuritish** – bu fuqarolik sud ishlarini yuritishning bir turi sifatida huquq to‘g‘risida nizo bo‘lмаган va manfaatdor shaxslarning arizasi bo‘yicha ish yuritish hisoblanadi.

---

Alohida tartibda ko‘riladigan ishlar bo‘yicha sudga murojaat qilish vositasi arizadan iboratdir. Ushbu ishlarda huquq to‘g‘risidagi nizo bo‘lмаганligi sababli sudga da‘vo ariza bilan emas, balki ariza orgali murojaat qilinadi. Mazkur ishlar yuzasidan ariza arizachi yoki uning vakili, prokuror, davlat boshqaruv organlari yoxud ish yakunidan manfaatdor shaxslar tomonidan berilishi mumkin. Agar ariza vakil tomonidan berilgan bo‘lsa, arizaga ishonchnoma yoki uning vakolatini tasdiqlovchi boshqa hujjat ilova qilinishi lozim.

Ushbu ariza ham sudga yozma shaklda beriladi. Alohida tartibda ko‘riladigan ishlar bo‘yicha arizaning mazmuni FPKning 189-moddasida ko‘rsatilgan umumiy talablardan tashqari, FPK ning 3-kichik bo‘limida belgilangan qoidalar asosida rasmiylash-tiriladi. Mazkur ishlar bo‘yicha arizalarda ishtirokchilar da‘vogar va javobgar emas, balki arizachi yoki manfaatdor shaxs deb rasmiylashtiriladi. Shuningdek, ushbu arizalar uchun agar davlat boji to‘lashdan ozod etilmagan bo‘lsa, normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan tartibda va miqdorda davlat boji to‘langanligi haqida kvitansiya, ishga oid tegishli hujjatlar ilova qilinadi.

---

Alohida tartibda ko‘riladigan ishlarning turlari FPKning 293-moddasida ko‘rsatilgan. Unga ko‘ra sud tomonidan alohida ish yuritish tartibida ko‘riladigan ishlarga quyidagilar kiradi:

- 1) yuridik ahamiyatiga ega bo‘lgan faktlarni aniqlash to‘g‘risidagi;
  - 2) bolani farzandlikka olish haqidagi;
  - 3) fuqaroni bedarak yo‘qolgan deb topish va fuqaroni o‘lgan deb e’lon qilish to‘g‘risidagi;
-

- 
- 4) fuqaroni muomala layoqati cheklangan yoki muomalaga layoqat-siz deb topish haqidagi;
  - 5) shaxsni g‘ayriixtiyoriy tartibda psixiatriya statsionariga yotqizish to‘g‘risidagi yoki uning ushbu muassasada yotishi muddatini uzaytirish haqidagi;
  - 6) shaxsni sil kasalligiga qarshi kurash muassasasining ixtisoslash-tirilgan bo‘limiga g‘ayriixtiyoriy tartibda yotqizish to‘g‘risidagi yoki uning ushbu muassasada yotishi muddatini uzaytirish haqidagi;
  - 7) voyaga yetmagan shaxsni to`liq muomalaga layoqatli deb e`lon qilish (emansipatsiya) to‘g‘risidagi;
  - 8) mol-mulkni (ashyoni) egasiz deb topish haqidagi;
  - 9) taqdim etuvchiga deb berilgan hujjatlar yo‘qolgan taqdirda, ular bo‘yicha huquqlarni tiklash to‘g‘risidagi (chaqirib ish yuritish);
  - 10) yo‘qolgan sud ishini yuritishni tiklash to‘g‘risidagi.
- 

## **2-§. Yuridik ahamiyatga ega bo‘lgan faktlarni belgilash to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha beriladigan ariza, sud hal qiluv qarori va ularni rasmiylashtirish tartibi**

Yuridik ahamiyatga ega bo‘lgan faktlarni sud tartibida belgilashning o‘zi bir necha turlarga bo‘linadi. Fuqarolik protsessual qonunchiligidagi fuqarolar yoki tashkilotlarning shaxsiy, mulkiy huquqlari vujudga ke-lishi, o‘zgarishi yoki tugashiga sabab bo‘ladigan quyidagi faktlarni sud tartibida belgilash ko‘rsatilgan:

- 1) shaxslarning qarindoshlik aloqalari;
- 2) shaxs birovning qaramog‘ida ekanligi;
- 3) otalikni tan olish (belgilash), bolaning u yoki bu onadan tug‘ilganligi, shuningdek tug‘ilgan vaqt;
- 4) farzandlikka olishni, nikohni, nikohdan ajratishni va o‘limni qayd etilganligi;
- 5) er-xotindan biri vafot etganligi oqibatida fuqarolik holati dalolat-nomalarini qayd etish organlarida nikohni ro‘yxatdan o‘tkazish mumkin bo‘lmay qolsa, qonunda belgilangan hollarda ularning haqiqatda nikoh munosabatlarda bo‘lganligi;
- 6) shaxsning huquqini belgilovchi hujjatlarda (jamoat birlashmala-riga a’zolik biletlari, harbiy hujjatlar, pasportlar, fuqarolik holati dalo-latnomalarini qayd etish organlari beradigan guvohnomalar bundan mustasno) ko‘rsatilgan familiyasi, ismi yoki otasining ismi uning pas-portidagi yoki tug‘ilganlik to‘g‘risidagi

guvohnomasidagi familiyasi, ismi yoki otasining ismi bilan mos kelmagan taqdirda, mazkur hujjat-larning unga tegishliligi yoxud tegishli emasligi;

- 7) baxtsiz hodisa;
- 8) imoratga xususiy mulk huquqi asosida egalik qilish;
- 9) merosni qabul qilish va merosning ochilish joyi faktlarini aniq-lash to‘g‘risidagi ishlarni ko‘radi.

Agar qonun hujjatlarida ularni belgilashning boshqacha tartibi nazarida tutilmagan bo‘lsa, sud yuridik ahamiyatga ega bo‘lgan boshqa faktlarni ham belgilashi mumkin (FPKning 295-moddasi).

Yuqoridagilardan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Ple-numining “Yuridik ahamiyatga ega bo‘lgan faktlarni belgilash haqidagi ishlar bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi qarorida ham quyidagi yuridik ahamiyatga ega bo‘lgan faktlar ham sud tartibida belgilanadi:

- ♦ otalik faktlarini, otalikni qayd qilish faktlarini, 1968-yil 1-oktabrgacha tug‘ilgan bolalarga nisbatan otalikni tan olganlik (belgilanganlik) faktlarini;
- ♦ ixtironi joriy etish faktlarini, taklifning ratsionalizatorlik sifatida tavsiflanganlik faktlarini;
- ♦ binoga, payga, avtomobilga va boshqa maxsus ro‘yxatdan o‘tkaziladigan mulkka egalik qilish faktlarini;
- ♦ nikohdan ajralishmasdan, lekin oilaviy munosabatlar tugatilganidan so‘ng, imoratni er-xotindan birining mablag‘lariga qurilganlik faktlarini, sug‘urta guvohnomasining qarashliligi faktlarini;
- ♦ fuqaroni yoki uning ota-onasini Ikkinchı jahon urushi davrida evakuatsiya qilinganlik faktlarini.

Ushbu turkumdagи arizalar uchun eng kam ish haqining 1 baravari miqdorida davlat boji to‘lanadi.

### **Yuridik ahamiyatga ega bo‘lgan fakt bo‘yicha ariza, sud hal qiluv qaroridan namunalar**

Fuqarolik ishlari bo‘yicha Toshkent shahar Mirobod tumanlararo sudiga

Arizachi: (F.I.Sh.), y/j. Yangi Qo‘yliq MFY, 13-uy, 23-xonodon

## **A R I Z A**

(qaramog‘ida bo‘lganlik faktini belgilash haqida)

Men turmush o‘rtog‘im (F.I.Sh.) bilan 1991-yil may oyidan boshlab turmush qurib birga yashab kelaman. Turmush o‘rtog‘im (F.I.Sh.) ning birinchi xotini (F.I.Sh.) 1990-yilda vafot etgan. Ularning 4 nafar farzandi bo‘lgan. Shundan 1988-yil 23-oktabrda tug‘ilgan (F.I.Sh.) va (F.I.Sh.) ismli egizak farzandlar 1991-yil maydan mening qaramog‘imda bo‘lgan. 1992-yil 8-yanvarda men ushbu bolalarning otasi bilan qonuniy nikohdan o‘tganman. Ushbu holatlardan kelib chiqib, imtiyozli nafaqa rasmiylashtirish uchun hujjatlarni Mirobod tuman budjetdan tashqari pensiya jamg‘armasiga olib borganimda, ular menga ushbu egizak farzandlarni mening qaramog‘imda bo‘lganligi sud tomonidan belgilangan taqdirda inobatga olinishini ayтиb huj-jatlarimni qaytardi.

Bundan tashqari, imtiyozli pensiyaga chiqish maqsadida Budjetdan tashqari pensiya jamg‘armasi Mirobod tuman bo‘limi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi “Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida”gi Qonuning 12-moddasi “z” bandiga asosan besh va undan ortiq farzand tuqqan va ularni sakkiz yoshgacha tarbiyalagan ayollar, ish staji kamida 15 yil bo‘lganda imtiyozli tarzda nafaqaga chiqishlari mumkinligini, agar ayol o‘gay o‘g‘il yoki o‘gay qizni ular sakkiz yoshga to‘lgunga qadar kamida 5 yil tarbiyalagan bo‘lsa, pensiya tayinlashda ular haqiqiy farzandlar bilan teng ravishda hisobga olinishi tushuntirilib, qaramog‘ida bo‘lganlik faktini belgilash uchun fuqarolik ishlari bo‘yicha sudga murojaat qilish huquqi tushuntirildi. Yuqoridagilarga hamda FPKning 295-moddasiga asosan

### **SO‘RAYMAN:**

1988-yil 23-oktabrda tug‘ilgan (F.I.Sh.), 1988-yil 23-oktabrda tug‘ilgan (F.I.Sh.)larning 1991-yil may oyidan boshlab mening qaramog‘imda bo‘lganlik faktini belgilab berishingizni.

Sud majlisiga guvoh sifatida (F.I.Sh.)ni chaqirishni.

Ilova: nikoh guvohnomasi, mahalladan ma’lumotnomasi, davlat boji to‘langanligi haqida kvitantsiya, farzandlarning tug‘ilganlik guvohnomalaridan nusxa.

Sana

imzo

(F.I.Sh.)

**HALQILUV QARORI**  
**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI NOMIDAN**

Fuqarolik ishlari bo'yicha Mirobod tumanlararo sudi o'z binosida 2018-yil aprel oyining 1-kunida sudya (F.I.Sh.) raisligida, (F.I.Sh.)ning kotibaligida, ochiq sud majlisida arizachi (F.I.Sh.)ning yuridik ahamiyatga ega faktini belgilash haqidagi arizasi yuzasidan 1-1016/18-sonli fuqarolik ishini ko'rib chiqib, quyidagilarni

#### **Aniqladi :**

Fuqaro (F.I.Sh.) sudga ariza bilan murojaat qilib, 1960-yil 1-mayda tug'ilganini, turmush o'rtog'i (F.I.Sh.) bilan 1991-yil may oyidan boshlab turmush qurib birga yashab kelayotganini, turmush o'rtog'i (F.I.Sh.)ning birinchi xotini (F.I.Sh.) 1990-yilda vafot etganini, ularning 4 nafar farzandi bo'lganini, shundan 1988-yil 23-oktabrda tug'ilgan (F.I.Sh.) va (F.I.Sh.) ismli egizak farzandlar uch yoshda bo'lib, ular 1991-yil may oyidan uning tarbiyasida va qaramog'ida bo'lganini, 1992-yil 8-yanvarda u ushbu bolalalarining otasi bilan qonuniy nikohdan o'tganlarini, chunki o'sha payt u birinchi farzandiga homilador bo'l-ganini, uning birgalikdagi turmushlaridan 3 nafar farzandlari tug'ilga-nimi, hozirgi kunga kelib imtiyozli nafaqa rasmiylashtirish vaqtida hujjatlarini Mirobod tuman byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasiga topshirolmay qiynalayotganligini, 5 nafar farzandi bor ayollarga berila-digan imtiyozdan foydalanishi uchun unga fuqarolik sudiga murojaat qilish tushuntirilganligini, ularning (F.I.Sh.) bilan 1991-yil may oyidan birga turmush qurbanlari hamda egizak farzandlari shu paytdan boshlab uning qaramog'ida bo'lganligini guvohlar tasdiqlashini bildirib, 1988-yil 23-oktabrda tug'ilgan (F.I.Sh.) va (F.I.Sh.)larning 1991-yil may oyidan boshlab uning qaramog'ida bo'lganlik faktini belgilab berishni so'ragan.

Sud majlisida arizachi (F.I.Sh.) arizani quvvatlab, haqiqatan ham 1960-yil 1-mayda tug'ilganini, turmush o'rtog'i (F.I.Sh.) bilan 1991-yil may oyidan boshlab turmush qurib birga yashab kelayotganini, turmush o'rtog'i (F.I.Sh.)ning birinchi xotini (F.I.Sh.) 1990-yilda vafot etganini, ularning 4 nafar farzandi bo'lganini, shundan 1988-yil 23-oktabrda tug'ilgan (F.I.Sh.) va (F.I.Sh.) ismli egizak farzandlar uch yoshda bo'lib, ular 1991-yil may oyidan uning tarbiyasida va qaramog'ida bo'lganini, 1992-yil 8-yanvarda u (F.I.Sh.) bilan qonuniy nikohdan o'tganlarini, chunki o'sha payt u birinchi farzandiga homilador bo'lganini, uning (F.I.Sh.) bilan birgalikdagi turmushlaridan 3 nafar farzandlari tug'ilga-nimi, hozirgi kunga kelib imtiyozli nafaqa rasmiylashtirish vaqtida hujjatlarini Mirobod tuman byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasiga topshirolmay qiynalayotganligini, 5 nafar farzandi bor ayollarga berila-digan imtiyozdan foydalanishi uchun unga fuqarolik sudiga murojaat qilish tushuntirilganligini, ularning (F.I.Sh.) bilan 1991-yil may oyidan

birga turmush qurbanlari hamda (F.I.Sh.) va (F.I.Sh.)lar shu paytdan boshlab uning qaramog‘ida bo‘lganligini guvohlar tasdiqlashini bildirib, 1988-yil 23-oktabrda tug‘ilgan (F.I.Sh.) va (F.I.Sh.)larning 1991-yil may oyidan boshlab uning qaramog‘ida bo‘lganlik faktini belgilab berishni so‘radi.

Sud majlisida manfaatdor shaxs Budgetdan tashqari pensiya jami‘armasi Mirobod tuman bo‘limi vakili (F.I.Sh.) o‘zining bayonotida (F.I.Sh.) tuman ijtimoiy ta’minot bo‘limiga nafaqa tayinlash borasida murojaat qilganini, O‘zbekiston Respublikasi “Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida”gi Qonunining 12-moddasi “z” bandiga asosan besh va undan ortiq farzand tuqqan va ularni sakkiz yoshgacha tarbiyalagan ayollar, ish stoji kamida 15 yil bo‘lganda imtiyozli tarzda nafaqaga chiqishlari mumkinligini, agar ayol o‘gay o‘g‘il yoki o‘gay qizni ular sakkiz yoshga to‘lgunga qadar kamida 5 yil tarbiyalagan bo‘lsa, pensiya tayinlashda ular haqiqiy farzandlar bilan teng ravishda hisobga olinishini, arizachi (F.I.Sh.) fuqaro (F.I.Sh.) bilan 1991-yilda turmush qurbanini, 1988-yilda tug‘ilgan egizak farzandlari arizachining qaramog‘ida bo‘lganini, (F.I.Sh.) va (F.I.Sh.)larning birgalikdagi turmushidan 3 nafar farzandi tug‘ilganini, biroq (F.I.Sh.) va arizachi (F.I.Sh.) lar 1992-yilda qonuniy nikohdan o‘tishganini, shu sababli arizachiga imtiyozli nafaqaga chiqish uchun 1988-yilda tug‘ilgan (F.I.Sh.) va (F.I.Sh.)larni 1991-yil maydan arizachining qaramog‘ida bo‘lganlik faktini belgilash uchun fuqarolik ishlari bo‘yicha sudga murojaat qilish huquqi tushuntirilganligini, chunki hozirgi kunda mazkur fakt faqat sud tartibida belgilanishi mumkinligini bayon qildi.

Sud majlisida so‘ralgan guvoh (F.I.Sh.) arizachi (F.I.Sh.) ni uzoq yillardan buyon tanishligini, ular bir qishloqda qo‘shti bo‘lib istiqomat qilishimi, (F.I.Sh.) ning biringchi turmush o‘rtog‘i 1990-yilda vafot etganini, shu payt (F.I.Sh.) ning to‘rt nafar voyaga yetmagan farzandi bo‘lganini, 1991-yil may oyida (F.I.Sh.) va (F.I.Sh.) lar o‘zaro oila qurishganini, arizachi (F.I.Sh.) ning farzandlarini o‘z bolasiday tarbiyalab voyaga yetkazganini, birgalikdagi turmushlari davomida ularning uch nafar farzandi tug‘ilganini, 1991-yil maydan arizachi turmush o‘rtog‘ining to‘rt nafar farzandini tarbiyalab kelganini bayon qildi.

FPKning 295-moddasiga binoan fuqarolar yoki tashkilotlarning shaxsiy, mulkiy huquqlari vujudga kelishi, o‘zgarishi yoki tugashiga sabab bo‘ladigan faktlarni sud aniqlaydi. Chunonchi, sud shaxs birovning qaramog‘ida ekanligi faktini aniqlaydi.

Fuqarolik ishi hujjatlaridan aniqlanishicha, fuqarolar (F.I.Sh.) va (F.I.Sh.) larning birgalikdagi turmushidan to‘rt nafar - 1985 yilda (F.I.Sh.), 1987-yilda (F.I.Sh.), 1988-yilda (F.I.Sh.) va (F.I.Sh.) ismli farzandlari tug‘ilgan. (F.I.Sh.) 1990-yil 4-noyabrda vafot etgan.

Arizachi (F.I.Sh.) 1960-yil 1-may kunida tug‘ilgan, u fuqaro (F.I.Sh.) bilan 1991-yil may oyida qonuniy nikohdan o‘tmagan holda turmush qurib bir oila asosida yashab kelgan. Ularning birqalikdagi turmushidan uch nafar – 1992-yilda (F.I.Sh.), 1993-yilda (F.I.Sh.) va 1998-yilda (F.I.Sh.) ismli farzandlari tug‘ilgan. 1992-yil 8-yanvar kuni-da arizachi (F.I.Sh.) va (F.I.Sh.)lar Mirobod tuman FHDY bo‘limida 342-son bilan ro‘yxatga olingan qonuniy nikohdan o‘tganlar.

Mirobod tuman Yangi Qo‘yliq MFY faollari ishtirokida 2012-yil 7-aprelda tuzilgan dalolatnomada haqiqatan ham arizachining 1991-yil may oyida fuqaro (F.I.Sh.) bilan o‘zaro turmush qurib, bir oila sifatida yashab kelishgani, 1991-yil may oyidan beri (F.I.Sh.) ning 4 nafar far-zandini tarbiyalab kelayotgani, Yangi Qo‘yliq MFYning 2012-yil 6-ap-reldagi 580-sonli ma’lumotnomasida hozirgi kunda yetti nafar farzand-lari borligi qayd etilgan. Hozirda arizachi imtiyozli nafaqaga chiqmoq-chi bo‘lib Budjetdan tashqari pensiya jamg‘armasi Mirobod tuman bo‘limiga murojaat qilganida unga sudga murojaat qilish tushuntirilgan.

Haqiqatan ham arizachi (F.I.Sh.)ning 1991-yil may oyida (F.I.Sh.) bilan o‘zaro oila qurishgani yuqorida ko‘rsatilgan dalillar bilan, chunonchi, Mirobod tuman Yangi Qo‘yliq MFY dalolatnomasi va ma’lumotnomasi, farzandlarning tug‘ilish guvohnomalari hamda guvoh-larning ko‘rsatmasi bilan tasdiqlanadi. Binobarin, 1988-yil 23-oktabrda tug‘ilgan (F.I.Sh.) va (F.I.Sh.)lar 1991-yilda hali uch yoshda bo‘lgani, arizachi (F.I.Sh.) ularni uch yasharligidan o‘z farzandi kabi qaramog‘iga olib tarbiyalab kelgani sababli (F.I.Sh.) va (F.I.Sh.)larning 1991-yil may oyidan boshlab arizachining qaramog‘ida bo‘lganlik fakti belgilab berilishi lozim, zero bu hol huquqiy oqibat keltirib chiqaradi va ushbu faktni boshqacha yo‘l bilan belgilashning imkoniyati mavjud emas.

Yuqorida bayon qilinganlarga ko‘ra, FPKning 295–297, 249–253-moddalariga asosan sud

### **Qaror qildi :**

Fuqaro (F.I.Sh.) ning yuridik ahamiyatga ega faktini belgilash to‘g‘risidagi arizasi qanoatlanitirilsin.

1988-yil 23-oktabrda tug‘ilgan (F.I.Sh.) va 1988-yil 23-oktabrda tug‘ilgan (F.I.Sh.)larning 1991-yil may oyidan boshlab (F.I.Sh.)ning qaramog‘ida bo‘lganlik fakti belgilansin.

Hal qiluv qarori ustidan 20 kunlik muddat ichida arizachi va ishda ishtirok etishga jalb qilingan boshqa shaxslar, shuningdek ishda ishtirok etishga jalb qilinmagan, ammo huquq va majburiyatlari haqidagi masala sud tomonidan hal etilgan shaxslar fuqarolik ishlari bo‘yicha Toshkent

shahar sudiga shu sud orqali appellatsiya tartibida shikoyat yoki prokuror protest keltirishi mumkin.

Sudya

imzo

(F.I.Sh.)

### **3-§. Farzandlikka olish to‘g‘risidagi ariza, sud hal qiluv qarori va ularni rasmiylashtirish tartibi**

Farzandlikka olish to‘g‘risidagi ariza bolani farzandlikka olishni istagan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari tomonidan farzandlikka olinayotgan bolaning yashash (turgan) joyidagi fuqarolik ishlari bo‘yicha tumanlararo, tuman (shahar) sudiga beriladi.

O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi bo‘lgan bolani farzandlikka olishni istagan O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida doimiy yashovchi O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet el fuqarolari yoki fuqaroligi bo‘lмаган shaxslar farzandlikka olish to‘g‘risidagi arizani farzandlikka olinayotgan bolaning yashash (turgan) joyidagi tegishincha Qoraqalpog‘iston Respublikasi fuqarolik ishlari bo‘yicha sudiga, fuqarolik ishlari bo‘yicha viloyat yoki Toshkent shahar sudiga beradi (FPKning 298-moddasi).

Farzandlikka olish to‘g‘risidagi arizada quyidagilar ko‘rsatilgan bo‘lishi kerak:

◆ farzandlikka oluvchilarning (oluvchining) familiyasi, ismi, otasining ismi, ularning (uning) yashash joyi;

◆ farzandlikka olinayotgan bolaning familiyasi, ismi, otasining ismi va tug‘ilgan sanasi, uning yashash (turgan) joyi, farzandlikka olinayotgan bolaning ota-onasi to‘g‘risidagi, aka-uka va opa-sin-gillari bor-yo‘qligi haqidagi ma’lumotlar;

◆ farzandlikka oluvchilarning (oluvchining) farzandlikka olish haqidagi iltimosini asoslovchi holatlar va mazkur holatlarni tasdiqlovchi da’llilar;

◆ farzandlikka oluvchilar (oluvchi) bolaning tug‘ilganlik to‘g‘risidagi dalolatnama yozuviga tegishli o‘zgartirishlar kiritishni istagan taqdirda farzandlikka olinayotgan bolaning familiyasini, ismini, otasining ismini, tug‘ilgan sanasini (ko‘pi bilan bir yilga), farzandlikka olinayotgan bolaning tug‘ilgan joyini (agar bola ko‘pi bilan o‘n yosh bo‘lsa) o‘zgartirish haqidা, bolaning tug‘ilganlik to‘g‘risidagi dalolatnama yozuviga farzandlikka oluvchilarni (oluvchini) ota-ona (ota yoki ona) sifatida qayd etish haqidagi iltimos.

Farzandlikka olish to‘g‘risidagi ariza farzandlikka oluvchilar (oluvchi) tomonidan imzolanadi (FPKning **299-moddasi**).

---

**Esda saqlang!** Farzandlikka olish to‘g‘risidagi arizaga quyidagilar ilova qilingan bo‘lishi kerak:

- ◆ nikohda turgan shaxslar (shaxs) tomonidan farzandlikka olinganda – farzandlikka oluvchilarning (oluvchining) nikoh tuzilganligi to‘g‘risidagi guvohnomasining ko‘chirma nusxasi;
  - ◆ er-xotindan biri tomonidan farzandlikka olinganda – boshqasining roziligi. Agar er-xotin oilaviy munosabatlarni tugatgan, bir yildan ortiq birga yashamayotgan bo‘lsa va arning (xotinning) yashash (turgan) joyi noma‘lum bo‘lsa, shuningdek bu holatlarni tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo‘lsa, farzandlikka olishda uning roziligi talab qilinmaydi;
  - ◆ nikohda turmagan shaxs tomonidan farzandlikka olinganda – farzandlikka oluvchi pasportining ko‘chirma nusxasi va nikohda turmasligi haqidagi ma’lumotnoma;
  - ◆ farzandlikka oluvchilarning (oluvchining) sog‘lig‘i holati haqida tibbiy xulosa (psixiatriya, sil kasalligiga qarshi kurash va narkologiya muassasalari, shuningdek OITSga qarshi kurash markazlarining ma’lu-motnomalari);
  - ◆ fuqaro farzandlikka olishga nomzod sifatida hisobga qo‘ylganligi to‘g‘risida hujjat, bundan O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksi 154-moddasining ikkinchi-beshinchi xatboshillarida nazarda tutilgan hollar mustasno;
  - ◆ farzandlikka oluvchilarning (oluvchining) ish joyidan egallab turgan lavozimi va ish haqi to‘g‘risida ma’lumotnoma yoki boshqa daromad manbalari to‘g‘risidagi ma’lumotnoma;
  - ◆ turar joyga bo‘lgan mulk huquqini yoki turar joydan foydalanish huquqini tasdiqlovchi hujjat (FPKning 300-moddasi birinchi qismi).
- 

Sud farzandlikka olish to‘g‘risidagi ishni mazmunan ko‘rib chiqib, farzandlikka olish haqidagi arizani qanoatlantirish to‘g‘-risida yoxud uni qanoatlantirishni butunlay yoki qisman rad etish haqida hal qiluv qarori chiqaradi.

**Farzandlikka olish haqidagi ariza,  
sud hal qiluv qaroridan namunalar**

Fuqarolik ishlari bo‘yicha Toshkent shahar Mirobod tumanlararo sudiga
---

Arizachilar: (F.I.Sh.) va (F.I.Sh.) Mirobod tumani, Qo‘yliq 4-daha, 1-uy, 15-
--

**ARIZA**  
(farzandlikka olish haqida)

Biz (F.I.Sh.) va (F.I.Sh.) 2007-yil 8-fevralda qonuniy nikohdan o'tib turmush qurganmiz. Bu haqda Mirobod tuman FHDY bo'limida 87-sonli dalolatnama yozuvi qayd qilingan.

2014-yil 13-sentabrda farzandli bo'ldik, lekin bola bir necha soatdan so'ng vafot etdi. Vrachlar turmush o'rtog'imning farzand ko'rishi mumkin emasligini aytganligi sababli biz bola boqib olishni niyat qildik.

Mirobod tumani Qo'yliq 4-daha, 1-uy, 15-xonadonda yashovchi 1991-yilda tug'ilgan qo'shnim (F.I.Sh.) 2014-yil 20-sentabr kuni o'g'il farzandli bo'ldi. (F.I.Sh.) yolg'iz onaligi, hech kim bilan qonuniy nikohda emasligi, bolaning otasi noma'lumligi sababli tug'ilgan bolaga bobosining familiyasi, ismi, otasining ismini bergen. Bu haqida Mirobod tuman FHDYo bo'limida 2014-yil 20-sentabr kuni 4358-sonli dalolatnama yozuvi qayd etilgan. Oilaviy sharoitlarga ko'ra va o'z xohishi bilan bolaning onasi (F.I.Sh.) oilasidan bu sirni yashirish uchun bolani ularning oilasiga farzandlikka berishga notarial tartibda rozilik arizasini bergen.

Shu sababli qo'shnim (F.I.Sh.)ning 2014-yil 20-sentabr kuni tug'ilgan o'g'il farzandini olib, hozirda turmush o'rtog'im ko'krak suti bilan boqmoqda. Ushbu bolani qonuniylashtirgan holda farzandlikka olmoqchimiz. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 152-moddasiga asosan, voyaga yetgan erkak yoki ayol fuqarolar farzandlikka oluvchilar bo'lishi mumkin. Qolaversa, Oila kodeksining moddasiga binoan farzandlikka olish sud tartibida hal etiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, suddan

**SO'RAYMAN:**

2014-yil 20-sentabrda tug'ilgan (F.I.Sh.)ni farzandlikka olib berishingizni;

Toshkent shahar Mirobod tumani FHDY bo'limi tomonidan 2014-yil 20-sentabrda 4358-sonli dalolatnama yozuvi bilan qayd etilgan 2014-yil 20-sentabrda tug'ilgan (F.I.Sh.)ning tug'ilganlik haqidagi dalolatnama yozuvining familiyasi, ismi va otasining ismi grafasiga "(F.I.O.)", otasi grafasiga (F.I.Sh.) 1976-yil 8-dekabrda tug'ilgan, millati o'zbek, manzili Toshkent shahar, Mirobod tumani, Qo'yliq 4-daha, 1-uy, 5-xonadon deb va onasi grafasiga (F.I.Sh.) 1979-yil 24-martda tug'ilgan, millati o'zbek, manzili Toshkent shahar, Mirobod tumani, Qo'yliq 4-daha, 1-uy, 5-xonadon deb o'zgartirish kiritishni

hamda voyaga yetmaganning tug'ilgan vaqtini o'zgarishsiz qoldirishingizni so'rayman.

*Ilova: nikoh guvohnomasidan ko'chirma; psixiatriya, sil kasal-ligiga qarshi kurash, narkologiya muassasalari va OITSga qarshi kurash markazlarining ma'lumotnomalari; ish joyidan egallab turgan lavozimi va ish haqi to'g'risida ma'lumotnoma; turar joyga bo'lgan mulk huquqini yoki turar joydan foydalanish huquqini tasdiqlovchi hujjat; farzandlikka olishga nomzod sifatida hisobga qo'yilganligi haqidagi hujjat, davlat boji to'langanligi haqida kvitansiya.*

Arizachilar

imzo

(F.I.Sh.), (F.I.Sh.).

Sana\_\_\_\_\_

## **HAL QILUV QARORI O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI NOMIDAN**

2018-yil aprel oyining 8-kuni fuqarolik ishlari bo'yicha Toshkent shahar Mirobod tumanlararo sudi, o'z binosida yopiq sud majlisida raislik etuvchi, sudya (F.I.Sh.), (F.I.Sh.)ning kotibligida, Uchtepa tumani prokurori yordamchisi (F.I.Sh.) ning ishtirokida, arizachilar (F.I.Sh.) va (F.I.Sh.)larning farzandlikka olish haqidagi arizasi bo'yicha yuritilgan 1-725/18-sonli fuqarolik ishini ko'rib chiqib, quyidagilarni

### **Aniqladi:**

Sudga arizachilar (F.I.Sh.) va (F.I.Sh.) lar farzandlikka olish haqidagi ariza bilan murojaat etganlar.

Sud majlisida arizachi (F.I.Sh.) arizasini quvvatlab, Toshkent sha-har, Mirobod tumani, Qo'yqliq 4-daha, 1-uy, 15-xonadonda yashovchi 1991-yilda tug'ilgan (F.I.Sh.) 2014-yil 20-sentabr kuni o'g'il farzandni dunyoga keltirganligini (F.I.Sh.)ning arizasiga ko'ra, u yolg'iz ona ekanligi, hech kim bilan qonuniy nikohda emasligi, bolaning otasi nom'a'lumligi sababli tug'ilgan bolaga bobosining familyasi, ismi, otasining ismi berilganligi va bu haqda Mirobod tuman FHDY bo'limida 2014-yil 20-sentabr kuni 4358-sonli dalolatnomaga yozuvi qayd etilganligi ma'lum qildi. Bolaning onasi (F.I.Sh.) oilaviy sharoitlarga ko'ra va o'z xohishi bilan oilasidan bu sirmi yashirish uchun bolani ularning oilasiga farzandlikka berishga notarial tartibda rozilik ariza bergenligi, uning oilasi ushbu bolani asrab olishga asosiy sabab turmush o'rtog'i (F.I.Sh.) 2014-yil 13-sentabrda farzandini dunyoga keltirganligi, lekin bola bir necha soatdan so'ng vafot etganligi, shu sababli hozirda bola uning oilasida, turmush o'rtog'ining ko'krak suti bilan parvarishlanayotganligi,

bolani qonuniylashtirgan holda farzandlikka olmoqchiligi haqida ko'rsatuv berib, suddan farzandlikka olish arizasini qanoatlantirishni va Toshkent shahar Mirobod tumani FHDY bo'limi tomonidan 2014-yil 20-sentabrda 4358-sonli dalolatnama yozuvi bilan qayd etilgan 2014-yil 20-sentabrda tug'ilgan (F.I.Sh.)ning tug'ilganlik haqidagi dalolatnama yozuvining familiyasi, ismi va otasining ismi grafasiga "(F.I.O.)", otasi grafasiga (F.I.Sh.) 1976-yil 8-dekabrda tug'ilgan, millati o'zbek, manzili Toshkent shahar, Mirobod tumani, Qo'yliq 4-daha, 1-uy, 5-xonodon deb va onasi grafasiga (F.I.Sh.) 1979-yil 24-martda tug'ilgan, millati o'zbek, manzili Toshkent shahar, Mirobod tumani, Qo'yliq 4-daha, 1-uy, 5-xonodon deb o'zgartirish kiritishni hamda voyaga yetmaganning tug'ilgan vaqtini o'zgarishsiz qoldirishni so'radi.

Arizachi (F.I.Sh.) sud majlislariga kelmasdan, sudning nomiga ariza bilan murojaat qilib, unda farzandlikka olish haqidagi arizasini va turmush o'rtog'i (F.I.Sh.)ning ko'rsatmalarini quvvatlashini bildirib, suddan farzandlikka olish arizasini qanoatlantirishni va sud majlislarini uning ishtirokisiz ko'rib chiqishni so'ragan.

Bunday holatda sud, mazkur fuqarolik ishini FPKning 174-moddasiga asosan (F.I.Sh.)ning ishtirokisiz ko'rib chiqishni lozim deb to-padi.

Sud majlisida uchinchi shaxs sifatida jalb qilingan (F.I.Sh.) arizachilarning farzandlikka olish haqidagi arizasini quvvatlab, haqiqatdan ham 2014-yil 20-sentabr kuni o'g'il farzandni dunyoga keltirganligi, uning arizasiga ko'ra, u yolg'iz ona ekanligi, hech kim bilan qonuniy nikohda bo'limganligi, bolaning otasi noma'lumligi sababli tug'ilgan bolaga bobosining familiyasi, ismi, otasining ismi berilganligi va bu haqda Mirobod tuman FXDY bo'limida 2014-yil 20-sentabr kuni 4358-sonli dalolatnama yozuvi qayd etilganligi, oilaviy sharoitlarga ko'ra va xohishi bilan u oilasidan bu sirni yashirish uchun bolani arizachilar oilasiga farzandlikka berishga notarial tartibda rozilik ariza bergenligi, kelajakda bolaga nisbatan hech qanday e'tiroz bildirmasligi haqida ko'rsatma berib, arizani qanoatlantirishni so'radi.

Sudga manfaatdor shaxs Mirobod tumani XTB vakili (F.I.Sh.) sudning so'rvonomasiga asosan dalolatnama tuzib, ariza bilan murojaat qilib, o'z arizasida sud majlislarini o'zining ishtirokisiz ko'rib chiqishni so'raganligi bois sud mazkur fuqarolik ishini FPKning 174-moddasi talablariga asosan Uchtepa tumani XTB vakili (F.I.Sh.)ning ishtirokisiz ko'rib chiqishni lozim deb topadi.

Sud, arizachilarning ko'rsatmalarini, Uchtepa tumani prokurorining yordamchisi (F.I.Sh.) fikrini tinglab, Mirobod tumanı Vasiylik va xomiyilik organining xulosasi bilan tanishib chiqib, fuqarolik ishi materiallarni tahlil qilib, quyidagi asoslarga ko'ra arizani qanoatlantirishni lozim deb topadi.

Aniqlangan holatlarga ko‘ra, (F.I.Sh.) va (F.I.Sh.)lar 2007-yil 8-fevralda qonuniy nikohdan o‘tib turmush qurbanlar, bu haqda Mirobod tuman FHDY bo‘limida 87-sonli dalolatnoma yozushi qayd qilingan.

Toshkent shahar, Mirobod tumani, Qo‘yliq 4-daha, 1-uy 15-xonadonda yashovchi 1991-yilda tug‘ilgan (F.I.Sh.) 2014-yil 20-sentabr kuni o‘g‘il farzandni dunyoga keltirgan, fuqaro (F.I.Sh.) arizasiga ko‘ra, (F.I.Sh.) yolg‘iz ona ekanligi, hech kim bilan qonuniy nikohda emasligi, bolaning otasi noma’lumligi sababli tug‘ilgan bolaga bobosining familiyasi, ismi, otasining ismi berilgan va bu haqda Mirobod tuman FHDY bo‘limida 2014-yil 20-sentabr kuni 4358-sonli dalolatnoma yozushi qayd etilgan.

Oilaviy sharoitlarga ko‘ra va xohishi bilan bolaning onasi (F.I.Sh.) oilasidan bu sirni yashirish uchun bolani (F.I.Sh.) lar oilasiga fa-zandlikka berishga notarial tartibda rozilik ariza bergen.

Alar oilasi ushbu bolani asrab olishiga asosiy sabab arizachi (F.I.Sh.) 2014-yil 20-sentabrdan farzand dunyoga keltirgan, lekin farzandi bir necha soatdan so‘ng vafot etgan, shu sababli hozirda bola (F.I.Sh.)lar oilasida, (F.I.Sh.) tomonidan ko‘krak suti bilan parvarishlanib kelin-moqda.

Fuqarolik ishi materiallari va taraflarning ko‘rsatmalari-dan ko‘rinishicha, farzandlikka olinuvchi 2014- yil 20-sentabrdan tug‘ilgan (F.I.Sh.) hozirda arizachi (F.I.Sh.) va (F.I.Sh.)lar bilan birqalikda Toshkent shahar, Mirobod tumani, Qo‘yliq 4-daha, 1-uy, 5-xonadonda yashab, (F.I.Sh.)lar oilasi qaramog‘ida, tarbiyasida tarbiyalanib kelin-moqda.

Bundan tashqari, sud majlisi jarayonida ham (F.I.Sh.) farzandi 2014-yil 20-sentabrdan tug‘ilgan (F.I.Sh.)ni arizachilar, ya’ni (F.I.Sh.) va (F.I.Sh.)larning farzandligiga olishlariga e’tirozi yo‘qligini bayon qilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 152-moddasiga asosan, voyaga yetgan erkak yoki ayol fuqarolar farzandlikka oluvchilar bo‘lishi mumkin, quyidagi shaxslar bundan mustasno: ota- onalik huquqidан mahrum qilingan yoki ota-onalik huquqi cheklanganlar; qonun bilan belgilangan tartibda muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topilganlar; asab kasalliklari yoki narkologiya muassa-salarida ro‘yxatda turuvchilar; ushbu kodeks 169-moddasasi birinchi qis-mida ko‘rsatilgan asoslar bo‘yicha farzandlikka olinganligi bekor qi-lingen sobiq farzandlikka oluvchilar; qasddan sodir qilgan jinoyatlari uchun ilgari hukum qilinganlar.

Tashkent shahar Mirobod tumani Vasiylirk va homiylik organining xulosasi va fuqarolik ishi bo‘yicha to‘plangan ma’lumotlarga ko‘ra, arizachilar (F.I.Sh.) va (F.I.Sh.)lar silga qarshi kurash, narkologiya, ruhiy asab kasalliklari va teri-tanosil kasalliklari dispanserlarida hisobda turmaydilar, muqaddam sudlanmagانlar.

Vasiylirk va homiylik organining xulosasiga ko‘ra, (F.I.Sh.) va (F.I.Sh.) lar tomonidan voyaga yetmagan 2014-yil 20-sentabrdan tug‘il-

gan (F.I.Sh.)ni farzandlikka olishda hech qanday to'sqinlik aniqlanmagan.

Bunday holatda sud arizani qanoatlantirishni va Toshkent shahar Mirobod tumani FHDY bo'limi tomonidan 2014-yil 20-sentabrda 4358-sonli dalolatnama yozuvi bilan qayd etilgan 2014-yil 20-sentabrda tug'ilgan (F.I.Sh.)ning tug'ilganlik haqidagi dalolatnama yozuvining familiyasi, ismi va otasining ismi grafasiga "(F.I.O.)", otasi grafasiga (F.I.Sh.) 1976-yil 8-dekabrda tug'ilgan, millati o'zbek, manzili Toshkent shahar, Mirobod tumani, Qo'yliq 4-daha, 1-uy, 5-xonadon deb va onasi grafasiga (F.I.Sh.) 1979-yil 24-martda tug'ilgan, millati o'zbek, manzili Toshkent shahar, Mirobod tumani, Qo'yliq 4-daha, 1-uy, 5-xonadon deb o'zgartirish kiritishni hamda voyaga yetmaganning tug'ilgan vaqtini o'zgarishsiz qoldirishni lozim deb topadi.

Yuqorida gilarga ko'ra va O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi-ning 152-moddasi, FPKning 220, 298–300, 249–253-moddalarini qo'l-lab, sud

### **Qaror qiladi:**

Arizachilar (F.I.Sh.) va (F.I.Sh.)larning farzandlikka olish haqidagi arizasi – qanoatlantirilsin.

Arizachilar 1976-yil 8-dekabrda tug'ilgan (F.I.Sh.) va 1979-yil 24-martda tug'ilgan (F.I.Sh.) larga voyaga yetmagan 2014-yil 20-sentabrda tug'ilgan (F.I.Sh.) farzandlikka olib berilsin.

Toshkent shahar Mirobod tumani FHDY bo'limi tomonidan 2014-yil 20-sentabrda 4358-sonli dalolatnama yozuvi bilan qayd etilgan 2014-yil 20-sentabrda tug'ilgan (F.I.Sh.)ning tug'ilganlik haqidagi dalolatnama yozuvining familiyasi, ismi va otasining ismi grafasiga "(F.I.O.)", otasi grafasiga (F.I.Sh.) 1976-yil 8-dekabrda tug'ilgan, millati o'zbek, manzili: Toshkent shahar, Mirobod tumani, Qo'yliq 4-daha, 1-uy, 5-xonadon deb va onasi grafasiga (F.I.Sh.) 1979-yil 24-martda tug'ilgan, millati o'zbek, manzili Toshkent shahar, Mirobod tumani, Qo'yliq 4-daha, 1-uy, 5-xonadon deb o'zgartirish kiritilsin hamda voyaga yetmaganning tug'ilgan vaqtini o'zgarishsiz qoldirilsin.

Hal qiluv qarori ijro qilish uchun Toshkent shahar Mirobod tumani FHDY bo'limiga yuborilsin.

Hal qiluv qarori ustidan 20 kunlik muddat ichida arizachi va ishda ishtirok etishga jalb qilingan boshqa shaxslar, shuningdek ishda ishtirok etishga jalb qilinmagan, ammo huquq va majburiyatlari haqidagi masala sud tomonidan hal etilgan shaxslar Fuqarolik ishlari bo'yicha Farg'ona shahar sudiga shu sud orqali appellatsiya tartibida shikoyat yoki prokuror protest keltirishi mumkin.

**4-§. Shaxsni sil kasalligiga qarshi kurash  
muassasasining ixtisoslashtirilgan bo‘limiga  
g‘ayriixtiyoriy tartibda yotqizish to‘g‘risidagi  
ariza, sud hal qiluv qarori va ularni  
rasmiylashtirish tartibi**

Mazkur turdag'i fuqarolik ishlari bo'yicha nizo bo'limganligi sababli alohida tartibda ko'riliishi belgilab qo'yildi. Sil kasalligining yuqumli shakliga chalingan shaxsni sil kasalligiga qarshi kurash muassasasining ixtisoslashtirilgan bo‘limiga g‘ayriixtiyoriy tartibda yotqizish to‘g‘risidagi yoki uning ushbu muassasada yotishi muddatini uzaytirish haqidagi ariza sudga mazkur shaxs dispanser hisobida turgan yoxud davolanayotgan yoki uning yashash (turgan) joyidagi sil kasalligiga qarshi kurash muassasasi tomonidan beriladi (FPKning 320-moddasi).

Sil kasalligining yuqumli shakliga chalingan shaxsni sil kasalligiga qarshi kurash muassasasining ixtisoslashtirilgan bo‘limiga g‘ayriixtiyoriy tartibda yotqizish to‘g‘risidagi ariza ushbu muassasa tibbiy komissiyasining tibbiy tekshiruvdan va (yoki) davolanishdan bo‘yin tovlayotgan mazkur shaxsni g‘ayriixtiyoriy tar-tibda yotqizish zarurligi haqidagi xulosasi qabul qilingan kundan e'tiboran bir sutka ichida beriladi. Xulosada davolash o‘tkaziladigan muddat bo‘lgan muassasada yotishi muddatini uzaytirish zarurligi haqi-dagi xulosasi asosida beriladi. Xulosada davolash o‘tkaziladigan muddat ko‘rsatiladi.

Sil kasalligining yuqumli shakliga chalingan shaxsni sil kasalligiga qarshi kurash muassasasining ixtisoslashtirilgan bo‘limida g‘ayriixtiyoriy tartibda yotishi muddatini uzaytirish to‘g‘risidagi ariza ushbu muassasa tibbiy komissiyasining shaxs davolanishda bo‘lgan muassasada yotishi muddatini uzaytirish zarurligi haqi-dagi xulosasi asosida beriladi. Xulosada davolash o‘tkaziladigan muddat ko‘rsatiladi (FPKning 321-moddasi).

Sudning arizani qanoatlantirish to‘g‘risidagi hal qiluv qarori sil kasalligining yuqumli shakliga chalingan shaxsni tegishinchaligiga qarshi kurash muassasasining ixtisoslashtirilgan bo‘limiga g‘ayriixtiyoriy tartibda yotqizish yoki uning ushbu muassasada yotishi muddatini uzaytirish uchun asos bo‘ladi (FPKning 323-moddasi).

**Sil kasalligining yuqumli shakliga chalingan shaxsni sil kasalligiga  
qarshi kurash muassasasining ixtisoslashtirilgan bo‘limiga  
g‘ayriixtiyoriy tartibda yotqizish to‘g‘risida ariza namunasi**

Fuqarolik ishlari bo‘yicha Toshkent  
sha-har Uchtepa tumanlararo sudiga

Toshkent shahar, Uchtepa tuman sil  
kasalligiga qarshi kurash muassasasi  
rahbari (F.I.O.)

**A R I Z A**

(Sil kasalligining yuqumli shakliga chalingan shaxsni sil kasalligiga  
qarshi kurash muassasasining ixtisoslashtirilgan bo‘limiga  
g‘ayriixtiyoriy tartibda yotqizish to‘g‘risida)

Toshkent shahar Uchtepa tumani Qani maxallasidagi 100-xonadonida doimiy ro‘yxatida qayd qilingan 1968-yil 8-aprelda tug‘ilgan fuqaro (F.I.Sh.) Toshkent shahar Uchtepa tuman sil kasalligiga qarshi kurash muassasasida 2017-yildan buyon bemor sifatida shifokor nazoratida turadi.

Keyingi vaqtida fuqaro (F.I.Sh.) kasalligi kuchayib, kasallikning yuqumli shakli kuzatildi. Fuqaro (F.I.Sh.) tibbiy komissiyasining tibbiy tekshiruvdan va (yoki) davolanishdan bo‘yin tovladi.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 320-moddasiga kora sil kasalligining yuqumli shakliga chalingan shaxsni sil kasalligiga qarshi kurash muassasasining ixtisoslashtirilgan bo‘limiga g‘ayriixtiyoriy tartibda yotqizish to‘g‘risidagi yoki uning ushbu muassasada yotishi muddatini uzaytirish haqidagi ariza sudga mazkur shaxs dispanser hisobida turgan yoxud davolanayotgan yoki uning yashash (turgan) joyidagi sil kasalligiga qarshi kurash muassasasi tomonidan beriladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib suddan

**SO‘RAYMAN:**

Sil kasalligining yuqumli shakliga chalingan fuqaro (F.I.O.)ni sil kasalligiga qarshi kurash muassasasining ixtisoslashtirilgan bo‘limiga g‘ayriixtiyoriy tartibda yotqizishni.

Ilova: sil kasalligiga qarshi kurash muassasasi xulosasi.

**5-§. Fuqaroni bedarak yo‘qolgan deb topish va fuqaroni  
o‘lgan deb e’lon qilish to‘g‘risidagi ariza, sud hal qiluv qarori  
va ularni rasmiylashtirish tartibi**

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 33-moddasiga ko‘ra, agar fuqaroning qayerdaligi haqida uning yashash joyida bir yil davomida ma’lumotlar bo‘lmasa, manfaatdor shaxslarning arizasiga muvofiq sud bu fuqaroni bedarak yo‘qolgan deb topishi mumkin.

**Esda saqlang!** Fuqaroni bedarak yo‘qolgan deb topish yoki uni o‘lgan deb e’lon qilish to‘g‘risidagi arizada FPKning 189-moddasida ko‘rsatilgan talablardan tashqari FPKning 305-moddasida ko‘rsatilgan holatlar, ya’ni fuqaroni bedarak yo‘qolgan deb topish yoki uni o‘lgan deb e’lon qilish arizachiga qanday maqsadlar uchun zarur ekanligi ko‘rsatilishi, shuningdek fuqaroning bedarak yo‘qolganligini tasdiq-laydigan yoxud bedarak yo‘q bo‘lgan shaxsga o‘lim xavfini solgan yoki u muayyan baxtsiz voqeа tufayli halok bo‘lgan deb taxmin qilishga asos bo‘ladigan holatlar bayon qilinishi lozim.

Agar bedarak yo‘qolgan deb topilgan fuqaro qaytib kelgan yoki uning turar joyi aniqlangan taqdirda bedarak yo‘qolgan fuqaroning o‘zi yoki manfaatdor shaxslar sudga chiqarilgan hal qiluv qarorini bekor qilish to‘g‘risida ariza bilan murojaat qilishi mumkin. Ushbu ariza sud tomonidan ko‘rib chiqilib, hal qiluv qarori bekor qilinadi.

Shuningdek, vafot etgan deb e’lon qilingan fuqaro qaytib kelganida Fuqarolik kodeksining 37-moddasida nazarda tutilgan huquqiy oqibatlar kelib chiqadi. Ya’ni vafot etgan deb e’lon qilingan fuqaro qaytib kelgan yoki uning qayerda turganligi ma’lum bo‘lgan taqdirda uni vafot etgan deb e’lon qilish haqidagi qaror sud tomonidan bekor qilinadi.

Sudning fuqaroni bedarak yo‘qolgan deb topish yoki o‘lgan deb e’lon qilish haqidagi hal qiluv qarori ham umumiyl qoidalar asosida rasmiylashtiriladi. Mazkur hal qiluv qarorining kirish qis-mida, albatta, prokuror, vasiylik va homiylik organlari ham ko‘r-satilishi kerak. Chunki ushbu ishlarda mazkur shaxslar ishtirot etishi shart. Mazkur hal qiluv qarori bedarak yo‘qolgan shaxsning mol-mulki

turgan joydagi vasiylik va homiylik organining bu mulkka nisbatan boshqaruvchi tayinlashi uchun asos bo‘ladi.

Sudning fuqaroni o‘lgan deb e’lon qilish haqidagi hal qiluv qarori fuqarolik holati aktlarini qayd etish organining fuqarolik holati aktlarini qayd etish daftariga mazkur fuqaroni o‘lgan deb yozib qo‘yishi uchun asos bo‘ladi (FPKning 308-moddasi).

### **Fuqaroni o‘lgan deb e’lon qilish to‘g‘risidagi ariza, sud hal qiluv qarorlaridan namunalar**

Fuqarolik ishlari bo‘yicha bo‘yicha  
Buxoro tumanlararo sudiga

Arizachi: (F.I.Sh.), Buxoro shahar  
Yangiyer ko‘chasi, 13-uyda istiqomat  
qiluvchi fuqarodan

#### **A R I Z A**

(fuqaroni vafot etgan deb topish to‘g‘risida)

Men, (F.I.Sh.) 1954-yilda tug‘ilganman, Buxoro shahar, Yangiyer ko‘chasi, 13-uyda istiqomat qilmoqdamon, undan tashqari oilamizda mening singlim (F.I.Sh.) ham bor. Bugungi kunda yashab turgan hovli joylarimiz bobom (F.I.Sh.)ga tegishli bo‘lib, bobom 1975-yil 19-oktabrda vafot etgan, otam esa 1966-yil 27-avgustdan buyon bedarak yo‘qolgan, hozirgi kunda men va singlim uy-joyning qonuniy merosxo‘ri sifatida Buxoro shahar 1-son davlat notarial idorasiga mu-rojaat qilganimizda meros guvohnomasini berishni rad qildi, otamiz (F.I.Sh.)ning bedarak yo‘qolganligi sababli o‘lim guvohnomasi yoki sudning qarori yo‘q, otam ruhiy kasal bo‘lgan edi, oxirgi marta otamizni biz 10-12 yoshligimizda Toshkent shahar ruhiy kasalliklar kasalxonasida ko‘rganmiz. 1966-yilda esa otam noma’lum sabablarga ko‘ra chiqib ketganlar, shu bilan qaytib kelmadi, bu haqda bobom Toshkent shahar ruhiy kasalliklar kasalxonasi ma’muriyatiga, Sog‘liqni saqlash vazirligiga, ichki ishlar bo‘limlariga o‘g‘illarini axtarib topish to‘g‘risida tegishli ariza va shikoyatlar bilan murojaat qilgan edilar, lekin biror - bir natija chiqmadi, bugungi kunga qadar oradan 48 yil vaqt o‘tgan bo‘lsada, biror-bir xat-xabar yo‘q, otam ruhiy kasal bo‘lganligi uchun baxtsiz (avtohalokatga uchragan, suvgaga tushib ketgan, biror shaxsga zarar yetkazgan holda va h.k.) hodisadan o‘lgan deb hisoblash mumkin.

Otam (F.I.Sh.) ning haqiqatda 1966-yil 27-avgustdan buyon domdaraksiz yo‘qolganligini qo‘shnilar va qarindoshlari tasdiqlashi mumkinligini, FIB Buxoro shahar sudining 2010-yil 29-iyuldagagi hal qiluv qaroriga asosan otam (F.I.Sh.) bedarak yo‘qolgan deb topilganligini bildirib, yuqoridagilarni inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 36-37-moddasiga binoan

**SO‘RAYMAN:**

Otam (F.I.Sh.)ni vafot etgan deb topishingizni.

Ilova: turar joydan ma‘lumotnomasi; tug‘ilish guvohnomasi; pasport nusxalari; kasallik varaqalari; davlat boji kvitansiyasi; IIB bo‘limidan xat; bedarak yo‘qolganligi to‘g‘risidagi hal qiluv qarori nusxasi.

Arizachi

imzo

(F.I.Sh.)

**HAL QILUV QARORI  
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI NOMIDAN**

2018-yil 24-aprel kuni Fuqarolik ishlari bo‘yicha Buxoro tumanlararo sudining binosida, ochiq sud majlisida sudya (F.I.Sh.) raisligida, (F.I.Sh.)ning kotibaligida, Buxoro shahar prokurorining yordamchisi (F.I.Sh.) ishtirokida, arizachi (F.I.Sh.)ning fuqaroni vafot etgan deb topish to‘g‘risidagi arizasi bo‘yicha 1-423/18-sonli fuqarolik ishini ko‘rib chiqib, quyidagilarni

**Aniqladi :**

Arizachi (F.I.Sh.) sudga ariza bilan murojaat qilib, 1954-yilda tu‘g‘ilganligini, Buxoro shahar Yangiyer ko‘chasi 13-uyda istiqomat qilishini, undan tashqari oilasida uning singlisi (F.I.Sh.) ham borligini, bugungi kunda yashab turgan hovli joylari bobosi (F.I.Sh.)ga tegishli ekanligini, bobosi 1995-yil 19-oktabrda vafot etganligini, otasi 2006-yil 27-avgustdan buyon bedarak yo‘qolganligini, hozirgi kunda u va singlisi uy-joyning qonuniy merosxo‘ri sifatida Buxoro shahar 1-ton davlat notarial idorasiga murojaat qilishganida meros guvohnomasini berishni rad qilishganligini, otasi (F.I.Sh.)ning bedarak yo‘qolganligi sababli o‘lim guvohnomasi yoki sudning qarori yo‘qligini, otalari ruhiy kasal bo‘lganligini, oxirgi marta otasi ular 10-12 yoshliklarida Toshkent shahar ruhiy kasalliklar kasalxonasidan 2006-yilda noma‘lum sabablarga ko‘ra chiqib ketganligini, shu bilan qaytib kelmaganligini, bu haqida bobosi Toshkent shahar ruhiy kasalliklar kasalxonasi ma‘muriyatiga, Sog‘liqni saqlash vazirligiga, ichki ishlar bo‘limlariga

o‘g‘lini axtarib topish to‘g‘risida tegishli ariza va shikoyatlar bilan murojaat qilganliklarini, lekin biror- bir natija chiqmaganligini, bugungi kunga qadar oradan 48 yil vaqt o‘tgan bo‘lsada, biror- bir xat-xabar yo‘qligini, otalari ruhiy kasal bo‘lganligi uchun baxtsiz (avtohalokatga uchragan, suvga tushib ketgan, biror shaxsga zarar yetkazganni holda va h.k.) hodisadan o‘lgan deb hisoblash mumkinligini, otasi (F.I.Sh.)ning haqiqatda 2006-yil 27-avgustdan buyon dom-daraksiz yo‘qolganliklarini qo‘shnilar va qa-rindoshlari tasdiqlashi mumkinligini, FIB Buxoro tumanlararo sudining 2014-yil 29-iyuldagagi hal qiluv qaroriga asosan otasi (F.I.Sh.) bedarak yo‘qolgan deb topilganligini bildirib, otalari (F.I.Sh.)ni o‘lgan deb to-pishni so‘ragan.

Sud majlisida arizachi (F.I.Sh.) arizani quvvatlab, haqiqatdan ham 1974-yilda tug‘ilganligini, Buxoro shahar Yangiyer ko‘chasi, 13-uya istiqomat qilishini, undan tashqari oilasida uning singlisi (F.I.Sh.) ham borligini, bugungi kunda yashab turgan hovli-joylari bobosi (F.I.Sh.)ga tegishli ekanligini, bobosi 1995-yil 19- oktabrda vafot etganligini, otasi 2006-yil 27-avgustdan buyon bedarak yo‘qolganligini, hozirgi kunda u va singlisi uy-joyning qonuniy merosxo‘ri ekanligini, Buxoro shahar 1-son davlat notarial idorasiga murojaat qilishganida meros guvohnomasini berishni rad qilishganligini, otalari (F.I.Sh.) ning bedarak yo‘-qolganligi sababli o‘lim guvohnomasi yoki sudning qarori yo‘qligini, otalari ruhiy kasal bo‘lganligini, oxirgi marta otalari ular 10-12 yoshligida Toshkent shahar ruhiy kasalliklar kasalxonasidan 2006-yilda noma’lum sabablarga ko‘ra chiqib ketganlikgini, shu bilan qaytib kel-maganligini, bu haqida bobosi Toshkent shahar ruhiy kasalliklar kasalxonasi ma’muriyatiga, Sog‘liqni saqlash vazirligiga, ichki ishlar bo‘limlariga o‘g‘lini axtarib topish to‘g‘risida tegishli ariza va shikoyatlar bilan murojaat qilganliklarini, lekin biror bir natija chiqmaganliklarini, bugungi kunga qadar ham biror ma’lumot yo‘qligini, oradan 48 yil vaqt o‘tgan bo‘lsada, biror bir xat-xabar yo‘qligini, otasi ruhiy kasal bo‘lganligi uchun baxtsiz (avtohalokatga uchragan, suvga tushib ketgan, biror shaxsga zarar yetkazganni holda va h.k.) hodisadan o‘lgan deb hisoblash mumkinligini, otalari (F.I.Sh.)ning haqiqatda 2006-yil 27-avgustdan buyon dom-daraksiz yo‘qolganliklarini qo‘shnilar va qa-rindoshlari tasdiqlashi mumkinligini, FIB Buxoro tumanlararo sudining 2014-yil 29-iyuldagagi hal qiluv qaroriga asosan otalari (F.I.Sh.) bedarak yo‘qolgan deb topilganligini bildirib, otasi (F.I.Sh.)ni o‘lgan deb topishni so‘radi.

Sud majlisida so‘ralgan guvoh (F.I.Sh.) o‘zining ko‘rsatmasida (F.I.Sh.) bilan yaqindan do‘sit ekanligini, birga katta bo‘lishganini, uni juda yaxshi tanishini, (F.I.Sh.) Toshkent shahar ruhiy kasalliklar kasal-

xonasidan 2006-yilda noma'lum sabablarga ko'ra chiqib ketganligini, shu bilan qaytib kelmaganligini, biroq o'sha vaqtidan buyon undan umuman xabar yo'qligini, do'sti uni qidirmagan joyi qolmaganligi haqida bayonet berdi.

Sud arizachi va guvohning bayonotlarini, prokurorning arizachining arizasini qanoatlantirish to'g'risidagi fikrini tinglab, ish hujjatlarini o'r-ganib chiqib, arizaning quyidagi asoslarga ko'ra qanoatlantirilishini lo-zim topdi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 36-moddasiga ko'ra agar fuqaroning qayerda turganligi haqida uning yashash joyida uch yil mobaynida ma'lumot bo'lmasa, basharti u o'lim xavf solib turgan yoki muayyan baxtsiz hodisadan halok bo'lgan deb taxmin qilish uchun asos bo'ladigan vaziyatlarda bedarak yo'qolgan bo'lib, uning qayerdaligi haqida olti oy mobaynida ma'lumotlar bo'lmasa, manfaatdor shaxs-larning arizasiga muvofiq sud uni vafot etgan deb e'lon qilishi mumkin.

Ish holatlaridan aniqlanishicha, (F.I.O.) 1974-yilda tug'ilgan. Buxoro shahar, Yangiyer ko'chasi, 13-uyda istiqomat qiladi. Undan tashqari oilasida uning singlisi (F.I.Sh.) ham bor, ularning bugungi kunda yashab turgan hovli joylari bobosi (F.I.Sh.)ga tegishli. Bobosi 1995-yil 19-oktabrda vafot etgan, otasi 2006-yil 27-avgustdan buyon bedarak yo'-qolgan. Hozirgi kunda u va singlisi uy-joyning qonuniy merosxo'ri sifa-tida Buxoro shahar 1-son davlat notarial idorasiga murojaat qilishgan. Ularga meros guvohnomasini berish rad qilingan, sababi otalari (F.I.Sh.) ning bedarak yo'qolganligi sababli o'lim guvohnomasi yoki sudning qarori yo'qligi qayd etilgan. Arizachining otasi ruhiy kasal bo'lgan, oxirgi marta otalari ular 10-12 yoshligida Toshkent shahar ruhiy ka-salliklar kasalxonasidan 2006-yilda noma'lum sabablarga ko'ra chiqib, shu bilan qaytib kelmagan. Bu haqida bobosi Toshkent shahar ruhiy kasalliklar kasalxonasi ma'muriyatiga, Sog'liqni saqlash vazirligiga, Ichki ishlari bo'limlariga o'g'lini axtarib topish to'g'risida tegishli ariza va shikoyatlar bilan murojaat qilgan. Lekin biror bir natija chiqmagan. Bugungi kunga qadar ham oradan 12 yil o'tgan bo'lsada, biror ma'lumot yo'q. Otasi ruhiy kasal bo'lganligi uchun baxtsiz (avtohalokatga uch-ragan, suvgaga tushib ketgan, biror shaxsga zarar yetkazgan holda va h.k.) hodisadan o'lgan deb hisoblash mumkin. Otalari (F.I.Sh.)ning haqiqatda 2006-yil 27-avgustdan buyon dom-daraksiz yo'qolganliklarini qo'shnilar va qarindoshlari tasdiqlashadi. FIB Buxoro tumanlararo sudining 2014-yil 29-iyuldagi hal qiluv qaroriga asosan (F.I.Sh.) bedarak yo'qolgan deb topilgan.

Yuqoridagilarga ko'ra sud arizachining arizasini qanoatlantirishni, arizachi tomonidan davlat boji to'langanligini inobatga olishni lozim topdi.

Yuqorida bayon qilinganlarga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Fuqa-rolik kodeksining 36-moddasi, FPKning 308, 249–253-moddalarini qo'l-lab, sud

**Qaror qiladi :**

Fuqaro (F.I.Sh.)ning vafot etgan deb topish to'g'risidagi arizasi qanoatlantirilsin.

1954-yil 2-iyunda tug'ilgan fuqaro (F.I.Sh.) 2018-yil 24-iyun kuni vafot egan deb topilsin.

Mazkur hal qiluv qarori ijro etish uchun Buxoro shahar FHDY bo'limiga yuborilsin.

Hal qiluv qarori ustidan 20 kunlik muddat ichida arizachi va ishda ishtirok etishga jalb qilingan boshqa shaxslar, shuningdek ishda ishtirok etishga jalb qilinmagan, ammo huquq va majburiyatlar haqidagi masala sud tomonidan hal etilgan shaxslar Fuqarolik ishlari bo'yicha Toshkent shahar sudiga shu sud orqali appellatsiya tartibida shikoyat yoki prokurator protest keltirishi mumkin.

Sudya:

imzo

(F.I.O.)

**6-§. Fuqaroni muomala layoqati cheklangan yoki muomalaga layoqatsiz deb topish to'g'risidagi ariza, sudning hal qiluv qarori va ularni rasmiylashtirish tartibi**

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 30-moddasiga ko'ra, ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi oqibatida o'z harakatlarining ahamiyatini tushuna olmaydigan yoki ularni boshqara olmaydigan fuqaroni sud qonun hujjatlarida belgilab qo'yilgan tartibda muomalaga layoqatsiz deb topishi mumkin va bunday fuqaroga vasiylik belgilanadi.

Agar spirthli ichimliklarni yoki giyohvandlik vositalarini suisiste'mol qilish natijasida o'z oilasini og'ir moddiy ahvolga solib qo'yayotgan fuqaroning muomala layoqati sud tomonidan fuqarolik protsessual qonun hujjatlarida belgilangan tartibda cheklab qo'yilishi mumkin. Unga homiylik belgilanadi (FKning 31-moddasi).

Spiritli ichimliklar, giyohvandlik moddalari va psixotrop moddalarni suiiste'mol qilishi natijasida fuqaroni muomala layoqati cheklangan deb topish to‘g‘risidagi yoki fuqaroning ruhiy holati buzilganligi (ruhiy kasalligi yoxud aqli zaifligi) tufayli muomalaga layoqatsiz deb topish haqidagi ish uning oila a’zolari, vasiylik va homiylik organlari, prokuror, davolash muassasalari va boshqa davlat organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari hamda jamoat birlashmalarri bergan arizalar bo‘yicha qo‘zg‘atilishi mumkin.

Fuqaroni muomala layoqati cheklangan yoki muomalaga layoqatsiz deb topish to‘g‘risidagi ariza mazkur fuqaro yashab turgan joydagi, agar bu shaxs davolash muassasiga joylashtirilgan bo‘lsa, mazkur muassasa joylashgan hududdagi sudga beriladi.

---

*Fuqaroni muomala layoqati cheklangan deb topish to‘g‘risidagi arizada FPKning 189-moddasida ko‘rsatilgan umumiy talablardan tashqari, FPKning 311-moddasida ko‘rsatilgan, ya’ni spiritli ichimliklar, giyohvandlik moddalari va psixotrop moddalarni suiiste’mol qi-luvchi shaxs o‘z oilasini moddiy jihatdan og‘ir ahvolga solib qo‘yayotganligidan dalolat beruvchi holatlar bayon etilishi kepak.*

*Fuqaroni muomalaga layoqatsiz deb topish to‘g‘risidagi arizada FPKning 149-moddasida ko‘rsatilgan umumiy talablardan tashqari, FPKning 311-moddasida ko‘rsatilgan, ya’ni shaxsning ruhiy holati buzilganligi, shuning ogibatida u o‘z xatti-hapakatlarini anglay olmasligidan yoki boshqara olmasligidan dalolat beruvchi holatlar bayon qilinishi lozim.*

---

### **Fuqaroni muomalaga layoqatini cheklash yoki muomlagaga layoqatsiz deb topish to‘g‘risidagi ariza, ajrim, sud hal qiluv qarorlaridan namunalar**

Fuqarolik ishlari Toshkent shahar Mirobod tumanlararo sudiga
--

Arizachi: MFY raisi (F.I.Sh.), Mirobod tumani Qo‘yliq 4-daha, Yangi qo‘yliq ko‘chasi, 10-uy.

Manfaatdor shaxs: (F.I.Sh.), Mirobod tumani Qo‘yliq 4-daha, Yangi qo‘yliq ko‘chasi, 15-uy, 4-xonadonda yashaydi.

## A R I Z A

(Muomala layoqatini cheklash to‘g‘risida)

Mirobod tumani Qo‘yliq 4-daha Yangi qo‘yliq ko‘chasi, 15-uy, 4-xonadonda yashovchi (F.I.Sh.) oxirgi paytlarda ishga ham bormasdan, ko‘p vaqtlardan beri spirtli ichimlik ichib, oilasini bezovta qilib, oylik maoshini uyg‘a olib kelmasdan ichib yuborib, uyidagi bor narsalarni olib chiqib sotib yubormoqda. Turmush o‘rtog‘i bir necha bor mahllaga murojaat qilib, oylik maoshini uyg‘a olib kelmasdan spirtli ichimlik ichib yuborayotganligini, ushbu holatlarning oldini olish uchun (F.I.O.)ni to‘g‘ri yo‘lga solish bo‘yicha majlis o‘tkazib tegishli choralarни ko‘-rishni iltimos qilgan. (F.I.Sh.) surunkasiga spirtli ichimlik ichib yurishi natijasida nafaqat oila a‘zolarini, hatto mahalla ahlini ham tashvishga solganligi sababli uning bu xatti-harakati mahalla yig‘ilishida bir necha marotaba muhokama qilindi. U bilan ichki ishlar xodimlari ham suh-batlashishgan. (F.I.Sh.) o‘zining harakatlarini nojo‘ya ekanligiga hisob berib, har safar boshqa takrorlamaslikka va’da bersa-da, uni bajar-mayapti. Vaholanki, u tuman kasalxonasida haydovchi bo‘lib ishlaydi.

Mahalla ahli (F.I.Sh.)ga nisbatan hamma tarbiyaviy ta’sir choralarini qo‘llaganiga qaramay, qayta tarbiyalash uchun ko‘rilgan choralar hech qanday ijobjiy natija bermasdan kelmoqda.

(F.I.Sh.)ning bu xulq-atvori oilasini moddiy og‘ir ahvolga solibgina qolmay, balki uch nafar farzandlarining tarbiyasiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 31-moddasiga ko‘-ra, spirtli ichimliklarni yoki giyohvandlik vositalarini suiiste mol qilish natijasida o‘z oilasini og‘ir moddiy ahvolga solib qo‘yayotgan fuqa-roning muomala layoqati sud tomonidan fuqarolik protsessual qonun hujjatlarda belgilangan tartibda cheklab qo‘yilishi mumkin. Unga ho-miylik belgilanadi. Bunday fuqaro mayda maishiy bitimlarni mustaqil tuzish huquqiga ega. U boshqa bitimlarni homiyning roziligi bilangina tuzishi, shuningdek ish haqi, pensiya va boshqa daromadlar olishi hamda ularni tasarruf etishi mumkin. Biroq bunday fuqaro o‘zi tuzgan bitimlar bo‘yicha va yetkazgan zarari uchun mustaqil ravishda mulkiy javobgar bo‘ladi.

Yuqoridagilarga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi FKning 31-moddasiga hamda FPKning 311-moddasiga asosan,

### **SO‘RAYMAN:**

(F.I.O.)ni muomala layoqati cheklangan deb topilishini.

Sud majlisiga quyidagilarni:

(F.I.Sh.) va uning rafiqasi (F.I.O.);

vasiy va homiy idoralarining vakili;

“Madaniyat” mahallasi qo‘mitasi raisining muovini (F.I.Sh.) (manzil yuqorida ko‘rsatilgan);

guvohlar: Mirobod tumani, Qo‘yliq 4-daha, Yangi qo‘yliq ko‘chasi 15-uy, 3-xonadonda yashovchi (F.I.Sh.), (F.I.O.)larni chaqirishni.

Ilova:

(F.I.Sh.)ning nojo‘ya xatti-harakatlarini “Madaniyat” mahallasida muhokama qilinganligi haqidagi bayonnomadan ko‘chirma; (F.I.O.)ni oilaviy turmushini tekshirilganligi haqida dalolatnoma; “Madaniyat” mahallasi qo‘mitasining bergan tavsiyanomasi; (F.I.Sh.)ning oila a’zolari haqidagi ma’lumotnoma; “Madaniyat” mahallasi qo‘mitasining (F.I.O.) ning muomala layoqatini cheklash haqidagi iltimosnomasi; tibbiyot hushyoxxonasidan olingan ma’lumotnoma.

“Madaniyat” MFY raisi: imzo (F.I.O.)

2018-yil 5-aprel

### **HAL QILUV QARORI O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI NOMIDAN**

2018-yil 11-aprelda Fuqarolik ishlari bo‘yicha Mirobod tumanlararo sudining ochiq sud majlisida sudya (F.I.Sh.) raisligida, (F.I.Sh.) ko‘tibligida, prokuror yordamchisi (F.I.Sh.) ishtirokida manfaatdor shaxs (F.I.Sh.)ning ishi bo‘yicha arizachi Mirobod tumani, Qo‘yliq 4-daha, “Madaniyat” mahalla fuqarolar yig‘ini raisi (F.I.Sh.), (F.I.O.)ni muo-malaga layoqati cheklangan deb topish to‘g‘risidagi 1-6790/18-sonli fuqarolik ishi ko‘rilib, quyidagilar

#### **Aniqlandi:**

(F.I.Sh.) turmush o‘rtog‘i (F.I.Sh.) bilan qonuniy nikohdan o‘tgan holda oilaviy turmush qurbanlar, o‘rtalarida 3 nafar maktab yoshidagi farzandlari bo‘lib, u tuman kasalxonasida haydovchi bo‘lib ishlab keladi.

“Madaniyat” mahalla qo‘mitasining sudga bergan arizasida (F.I.Sh.) bir qancha vaqtдан buyon spirtli ichimliklar suiste’mol qilib kelganligi tufayli oilasini moddiy tomondan og‘ir ahvolga solib

qo‘yganligi, uning xatti-harakatlari farzandlarining tarbiyasi uchun salbiy ta’sir ko‘rsata-yotganligi bayon qilingan.

(F.I.Sh.)ga nisbatan barcha tarbiyaviy ta’sir choralar qo‘llanilgan bo‘lsa-da, ijobjiy natija bermaganligi sababli Mirobod tuman “Madaniyat” mahalla qo‘mitasi uning oilasi manfaatini ko‘zlab, muomala layoqatini cheklash haqidagi iltimos qilgan.

(F.I.Sh.) “Madaniyat” mahalla aholsining arizasida aytilganlarni tasdiqlab, turmush o‘rtog‘i (F.I.O.)ni spirtli ichimlik ichishni suiste’mol qilganligi sababli muomala layoqatini cheklashni so‘raydi. “Madaniyat” mahalla fuqarolar yig‘inining arizasi to‘g‘riligini tasdiqlash bilan bir qatorda (F.I.Sh.) agar tez-tez spirtli ichimlik ichib turmasa, iloji yo‘q-ligini aytib, shunday kasalga mubtalo bo‘lganligiga afsuslanayotganini bayon qiladi.

Mahalla qo‘mitasining raisi (F.I.Sh.), (F.I.Sh.)ning harakatlarini noto‘g‘ri deb hisoblab, uning muomala layoqatini cheklashni so‘raydi, bunga asos qilib u maoshimi spirtli ichimlik ichishga xarajat qilib, bundan tashqari oilasidagi bor narsalarni olib chiqib sotib yuborayotganligini, oilasiga moddiy yordam bermayotganligini bayon qildi.

Prokuror yordamchisining arizani qanoatlantirish lozimligi haqidagi fikrini eshitib, sud (F.I.Sh.)ning muomala layoqatini quyidagi asoslarga ko‘ra cheklashni zarur deb hisoblaydi.

O‘zbekiston Respublikasi FKning 31-moddasiga ko‘ra, spirtli ichim-liklarni suiste’mol qilib, o‘z oilasini og‘ir moddiy ahvolda qoldiradigan bo‘lsa, uning muomala layoqati sud tomonidan cheklab qo‘yilishi mum-kinligi aytilgan.

Guvoh sifatida so‘roq qilingan (F.I.Sh.), (F.I.O.)lar haqiqatan ham (F.I.Sh.) bilan qo‘shni ekanliklarini, u kuniga mast holda uyiga kelishini va oilasining notinchligini, moddiy tomonidan qiynganligi sababli, qo‘shni sifatida ulardan qarzga tez-tez pul va oziq-ovqat so‘rab yurishini aytildilar. (F.I.Sh.) spirtli ichimlik ichishni suiste’mol qilganligi tufayli hushyoxxonada 3 marta bo‘lganligi haqidagi ma‘lumotnomaga ham bu holatlarni tasdiqlaydi.

Ishdagagi 2 ta bayon nomma shulardan dalolat beradiki, (F.I.Sh.)ning xulqi mahallada bir necha marotaba muhokama qilingani va tarbiyaga qaratilgan bu harakatlardan tegishli xulosa chiqarmasdan, oila va jamoatchilik oldidagi vazifalarini bajarmay kelgan. Sud tekshiruvi jarayonida (F.I.Sh.)ning ruhiy kasalligi haqidagi hech qanday dalillar yo‘qligi aniqlandi.

Sud yuqoridaqilarga asoslanib, O‘zbekiston Respublikasi FKning 31-moddasi hamda FPKning 249-253, 313-314-moddalarini qo‘llab

### **Qaror qiladi:**

Mirobod tumani Qo‘yliq 4-daha “Madaniyat” mahalla fuqarolar yig‘ini raisining (F.I.O.)ni muomalaga layoqati cheklangan deb topish to‘g‘risidagi arizasi qanoatlantirilsin.

(F.I.Sh.)ning muomala layoqati cheklangan deb hisoblansin hamda u mustaqil ravishda oylik maoshimi tasarruf qilish huquqidan mahrum etilsin.

(F.I.Sh.)ga nisbatan homiy etib turmush o‘rtog‘i (F.I.Sh.) belgilansin.

(F.I.Sh.)ning tomonidan ayrim mulkiy xarakterdagi muammolar homiyning roziligi bilan amalga oshirilsin.

Hal qiluv qarori ustidan 20 kunlik muddat ichida arizachi va ishda ishtirok etishga jalb qilingan boshqa shaxslar, shuningdek, ishda ishtirok etishga jalb qilinmagan, ammo huquq va majburiyatlari haqidagi masala sud tomonidan hal etilgan shaxslar Fuqarolik ishlari bo‘yicha Toshkent shahar sudiga shu sud orqali appellatsiya tartibida shikoyat yoki prokuror protest keltirishi mumkin.

Sudya:

imzo

(F.I.O.)

Fuqarolik ishlari bo‘yicha Toshkent shahar Uchtepa tumanlararo sudiga

Toshkent shahar, Uchtepa tuman prokurori (F.I.O.)

Manfaatdor shaxs: (F.I.Sh.), Uchtepa tumani, Qani mahallasi 98-xonadonda yashaydi.

## A R I Z A

(Muomalaga layoqatsiz deb topish haqida)

Fuqaro (F.I.Sh.) Toshkent shahar Uchtepa tumani Qani maxallasidagi 98-xonadonida doimiy ro‘yxatida qayd qilingan 1956-yil 8-aprelda tug‘ilgan fuqaro (F.I.Sh.) Toshkent shahar 1-sonli ruhiy asab kasalliklari dispanserida 1997-yildan buyon bemor sifatida shifokor nazoratida turishini, hozirgi kunda u uy-joysiz bo‘lib, begona shaxslarning uyida yashab kelayotganligini, doimiy ravishda o‘zgalar qaroviga muhtojligini bayon qilib, tuman prokururasiga murojaat qilgan.

Uchtepa tuman prokururasi tomonidan berilgan ariza o‘rganib chiqilganida haqiqatan ham Uchtepa tumani Qani maxallasidagi 98-xo-

nadonida doimiy ro'yxatida qayd qilingan 1956-yil 8-aprelda Qozog'iston Respublikasining Semipalatinsk shahrida tug'ilgan fuqaro (F.I.Sh.) o'z xatti-harakatlarining mohiyatini anglamasligi va o'zini idora qila olmasligi, u 1992-yildan buyon ruhiy xastalikka chalingani va ilk marta 1993-yilda Toshkent shahar, 1-sonli ruhiy-asab kasalliklari dispanserining kunduzgi statsionarida bir necha marta "nevrosteniya" tashhisi bilan davolangani, 1997-yildan buyon 2-guruh nogironi, ruhiy asab kasalliklari dispanserida "shizofreniya" tashxisi bilan hisobda turishi aniqlandi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 30-moddasida ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi oqibatida o'z harakatlarining ahamiyatini tushuna olmaydigan yoki ularni boshqara olmaydigan fuqaroni sud qonun hujjatlarida belgilab qo'yilgan tartibda muomalaga layoqatsiz deb topishi mumkinligi ko'rsatilgan.

FPKning 291-moddasiga binoan fuqaroni ruhiy holati buzilganligi (ruhiy kasalligi yoxud aqli zaifligi) tufayli muomalaga layoqatsiz deb topish haqidagi ish pokuror bergen ariza bo'yicha ham qo'zg'atilishi mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqib suddan

#### **SO'RAYMAN:**

Fuqaro (F.I.O.)ning muomalaga layoqatsiz deb topilishini.

Ilova: Toshkent shahar, 1-sonli ruhiy-asab kasalliklari dispanseri tomonidan berilgan ma'lumotnoma; tuman vasiylik va homiylik bo'limi tomonidan berilgan ma'lumotnoma, mahalladan ma'lumotnoma.

Uchtepa tuman prokurori

imzo

(F.I.O.)

#### **AJRIM**

2018-yil aprel oyining 15-kuni Fuqarolik ishlari bo'yicha Uchtepa tumanlararo sudi o'z binosida ochiq sud majlisida sudya (F.I.Sh.) ning raisligida, (F.I.Sh.)ning kotibligida, Uchtepa tuman prokurorining yordamchisi (F.I.Sh.) va vakil (F.I.Sh.)larning ishtirokida Uchtepa tuman prokurorining fuqaro (F.I.Sh.) manfaatlarini ko'zlab fuqaro (F.I.O.)ni muomalaga layoqatsiz deb topish haqidagi arizasi bo'yicha yuritilgan 1-1486/18-sonli fuqarolik ishini ko'rib chiqib, quydagilar

#### **Aniqlandi:**

Sudga Uchtepa tuman prokurori fuqaro (F.I.Sh.) manfaatlarini ko'zlab Toshkent shahar Uchtepa tumani Qani maxallasidagi 3-uyning 98-xonadonida yashovchi fuqaro (F.I.O.)ni muomalaga layoqatsiz deb topish haqidagi ariza bilan murojaat etgan.

Sud majlisida Uchtepa tuman prokurorining yordamchisi (F.I.Sh.) arizani quvvatlab, Toshkent shahar Uchtepa tumani Qani maxallasidagi 98-xonadonida doimiy ro'yxatida qayd qilingan 1956-yilda tug'ilgan fuqaro (F.I.Sh.) Toshkent shahar 1-sonli ruhiy asab kasalliklari dispanserida 1997-yildan buyon bemon sifatida shifokor nazoratida turishligini, hozirgi kunda u uy-joysiz bo'lib, begona shaxslarning uyida yashab kelayotganligini, doimiy ravishda o'zgalar qaroviga muhtojligini bayon qilib, arizani qanoatlantirishni so'radi.

Sud, fuqarolik ishi hujjatlarini o'rganib chiqib, Toshkent shahar, Uchtepa tumani Qani mahallasidagi 98-xonadonida doimiy ro'yxatida qayd qilingan 1956-yilda tug'ilgan fuqaro (F.I.Sh.)ga nisbatan sud-psixiatriya ekspertizasi tayinlash masalasini muhokamaga qo'ydi.

Sud majlisida Uchtepa tuman prokurorining yordamchisi (F.I.Sh.) ish yuzasidan sud-psixiatriya ekspertizasi tayinlanishiga e'tirozi yo'qligini bildirdilar.

Sud arizachi vakili, manfaatdor shaxsning bayonotlarini, Uchtepa tumani homiylik va vasiylik bo'limi vakili tushuntirishini tinglab, ish hujjatlarini muhokama etib, ish bo'yicha nizoni to'g'ri hal qilish va arizada ko'rsatilgan vajlarga oydinlik kiritish borasida maxsus sohadagi mutaxassislarining bilimi talab qilinishligini inobatga olib, sud-psixiatriya ekspertizasi o'tkazish zarur deb hisoblaydi va uni tayinlab, ishni ko'rishni ekspertiza xulosasi olingunga qadar to'xtatib turishni lozim topdi.

Yuqoridagilarga asosan FPKning 95, 117-118, 271-272-moddalarini qo'llab, sud

### **Ajrim qiladi:**

Mazkur fuqarolik ishi bo'yicha sud-psixiatriya ekspertizasi tayinlasin va uni o'tkazish Toshkent shahar, 1-sonli ruhiy-asab kasalliklari dispanseri mutaxassislari zimmasiga yuklatilsin.

Ekspertlar oldiga hal qilish uchun quyidagi savollar qo'yilsin:

Toshkent shahar, Uchtepa tumani Qani mahallasidagi 3-uyning 98-xonadonida yashovchi 1956-yil 13-aprelda tug'ilgan fuqaro (F.I.Sh.) ruhiy kasalmi? Agarda ruhiy kasal bo'lsa, u qachondan buyon ushbu xastalik bilan og'riyi?

Ayni vaqtida (F.I.Sh.) o'z xatti-harakatlarining mohiyatini anglashga va ularni idrok qilish qobiliyatiga egami?

(F.I.Sh.) muomalaga layoqatlimi yoki layoqatsizmi? (F.I.Sh.) o'zi-ning sog'lig'i holatiga ko'ra vasiyga muhtojmi?

Ekspertlar bila turib yolg'on xulosa bergenlik uchun O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 238-moddasida ko'rsatilgan jinoiy javobgarlik to'g'risida ogohlantirilsin.

Ekspertiza xulosasi olinguniga qadar mazkur fuqarolik ishi bo'yicha ish yuritish to'xtatilsin.

Mazkur ajrimning ish yuritishni to'xtatib turish haqidagi qismi us-tidan 10 kun muddat ichida xususiy shikoyat berilishi yoki xususiy protest keltirilishi mumkin.

Sudya:

imzo

(F.I.Sh.)

## **7-§. Mol-mulkni (ashyoni) egasiz deb topish to'g'risidagi ariza, sudning hal qiluv qarori va ularni rasmiylashtirish tartibi**

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 191-moddasiga ko'ra, egasi bo'lmagan yoki egasi noma'lum bo'lgan ashyo egasiz ashyo hisoblanadi. Egasiz ko'chmas ashylar tegishli davlat organining yoki fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organining ariza-siga muvofiq ko'chmas mol-mulkni davlat ro'yxatiga oluvchi organ tomonidan hisobga olinadi. Egasiz ko'chmas ashyo, hisobga olingandan keyin uch yil muddat o'tgach, davlat mol-mulkini boshqarishga vakolati bo'lgan organ yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi bu ashyni davlat mulkiga yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi mulkiga kirgan deb hisoblash to'g'-risidagi talab bilan sudga murojaat etishi mumkin.

Sudning hal qiluv qaroriga binoan davlat mulkiga o'tmagan deb hisoblangan egasiz ko'chmas ashyo uni tashlab ketgan mulkdorning egaligiga, foydalanishiga va tasarrufiga yana qabul qilinishi yoki egalik qilish huquqini vujudga keltiruvchi muddat asosida qo'liga kiritilishi mumkin.

Egasiz ashylarni aniqlash va hisobga olish tartibi O'zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan belgilanadi.

Yuqoridagi qoidadan kelib chiqib, shuni aytish mumkinki, mulkni (ashyoni) egasiz deb topish sud orqali hal etiladi. Demak, FPKning 327-moddasiga ko'ra, mol-mulkni (ashyoni) egasiz deb topish to'g'risidagi ariza davlat mol-mulkini boshqarish vakolatiga ega organ yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi tomonidan mol-mulk (ashyo) turgan joydagi sudga beriladi.

Arizada qaysi mol-mulkni (ashyoni) egasiz deb topish kerakligi ko'rsatilgan bo'lishi, shuningdek mol-mulk (ashyo) egasini aniqlashning imkoniy yo'qligini yoxud mol-mulk (ashyo) mulkdor tomonidan unga nisbatan mulk huquqini saqlab qolish niyatjisiz qoldirganligini tasdiqlovchi dalillar keltirilgan bo'lishi kerak.

Mol-mulkni egasiz deb topish to‘g‘risidagi hal qiluv qarori ham umumiylar qoidalar asosida rasmiylashtiriladi hamda sud mol-mulkni (ashyoni) mulkdori yo‘q yoki mulkdori noma’lum yoxud mol-mulk (ashyo) mulkdor tomonidan unga nisbatan mulk hu-quqini saqlab qolish niyatjisiz qoldirilgan deb topsa, mol-mulkni (ashyoni) egasiz deb topish va uni davlat mulkiga yoki fuqa-rolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi mulkiga o‘tkazish to‘g‘-risida hal qiluv qarori qabul qiladi.

**Mol-mulkni (ashyoni) egasiz deb topish to‘g‘risidagi ariza, sud hal qiluv qaroridan namumalar**

Fuqarolik ishlari bo‘yicha Toshkent  
shahar Uchtepa tumanlararo sudiga  
Arizachi: Toshkent shahar, Uchtepa  
tuman hokimiyati. Manzili: Toshkent shahar,  
Uchtepa tumani, Mevazor ko‘chasi, 54-uy.

**ARIZA**  
(Mol-mulkni egasiz deb topish haqida)

Toshkent shahar, Uchtepa tumani, 22-mavze, 19-uy, 15-xonadon 1993-yil 26-fevraldaggi 01-01/9999-sonli mulk huquqini tasdiqlovchi Davlat orderiga asosan (F.I.Sh.) nomiga xususiylashtirilgan. (F.I.Sh.) 2002-yil 24-may kuni vafot etgan. Nizoli xonadonda (F.I.Sh.)ning bir o‘zi doimiy ro‘yxatda bo‘lib, bir o‘zi yashagan bo‘lib, xonadonni xususiylashtirish davrida ham bir o‘zi qatnashgan. Toshkent shahar, Yakkasaroy tumani, 1-sonli Davlat notarial idorasining 2011-yil 19-sentabrdagi ma’lumotida (F.I.Sh.) vafotidan keyin meros ishi ochilmagan.

Toshkent shahar Uchtepa tuman xokimining 2003-yil 20-iyundagi 675-sonli qaroriga asosan nizoli Toshkent shahar, Uchtepa tumani, 22-mavze, 19-uy, 15-xonadon qonunan egasi yo‘q deb rasmiylashti-rilgunga qadar (F.I.Sh.)ga yashab turishga ruxsat berilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 191-moddasiga muvofiq, egasi bo‘lmasa yoki egasi noma’lum bo‘lgan ashyo egasiz ashyo hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 1157-moddasiga ko‘ra, agar qonun bo‘yicha ham, vasiyatnomalar bo‘yicha ham merosxo‘rlar bo‘lmasa yoxud merosxo‘rlardan hech qaysisi vorislik huquqiga ega bo‘lmasa yoxud ularning hammasi merosdan voz kechgan bo‘lsa, meros mol-mulk egasiz deb hisoblanadi.

Meros mol-mulk meros ochilgan joydagi mahalliy davlat organi yoki fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organining arizasi bo‘yicha meros ochilgan kundan e’tiboran bir yil o‘tganidan keyin sudning qarori aso-sida egasiz deb topiladi. Meros mol-mulk agar uni qo‘riqlash va bosh-qarish bilan bog‘liq xarajatlar uning qiymatidan oshib ketsa, ko‘rsa-tilgan muddat o‘tishidan oldin egasiz deb topilishi mumkin.

Egasiz mol-mulk u turgan joydagi fuqarolarning o‘zini o‘zi bosh-qarish organi mulkiga o‘tadi, bu organ mol-mulkdan voz kechgan taqdirda, davlat mulkiga o‘tadi.

Yuqorida bayon etilgan holatlar va ish bo‘yicha to‘plangan barcha dalillar asosida sud arizani qanoatlantirishni, nizoli xonadonni egasiz qolgan mol-mulk deb topib, uni davlat tasarrufiga o‘tkazishni lozim deb hisoblaydi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, suddan

### **SO‘RAYMAN:**

Toshkent shahar, Uchtepa tumani, 22-mavze, 19-uy, 15-xonadonni egasiz deb topib, hokimiyat tasarrufiga o‘tkazishingizni.

Sud majlisiga uchinchi shaxs sifatida Toshkent shahar “Nayman” mahalla fuqarolar yig‘ini raisi (F.I.Sh.)ni jalb etishingizni, guvoh sifatida Uchtepa tumani, 22-mavze, 19-uy, 9-xonadonda istiqomat qiluvchi (F.I.Sh.) , Toshkent shahar, Uchtepa tumani, 22-mavze, 19-uy, 4-xonadonda istiqomat qiluvchi (F.I.Sh.) larni chiqarishingizni.

*Ilova: Toshkent shahar, Uchtepa tumani, 22-mavze, 19-uy, 15-xonadon hujjatlari; Toshkent shahar, Yakkasaroy tumani, 1-sonli Davlat notarial idorasining 19-avgustdaggi 2011-yildagi ma’lumoti, ishonch-noma.*

Uchtepa tuman hokimiyati

ishonchli vakili

imzo

(F.I.Sh.)

## **HAL QILUV QARORI O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI NOMIDAN**

2018-yil aprel oyining 25-kuni Fuqarolik ishlari bo‘yicha Uchtepa tumanlararo sudi o‘z binosida ochiq sud majlisida sudyta (F.I.Sh.)ning raisligida, (F.I.Sh.)ning kotibligida, Uchtepa tuman prokurorining yordamchisi (F.I.Sh.) ishtirokida, Uchtepa tuman hokimiyatining mol-mulkni egasiz deb topish to‘g‘risidagi arizasi bo‘yicha yuritilgan 1-1598/18-sonli fuqarolik ishini ko‘rib chiqib, quyidagilarni

**Aniqladi:**

Arizachi Uchtepa tuman hokimiyati Uchtepa tuman 22-mavze, 19-uy, 15-xonadonni egasiz qolgan mulk deb topish va davlat tasarrufiga o'tkazish haqidagi ariza bilan murojaat etgan.

Sud majlisida Uchtepa tuman hokimiyati ishonchli vakili (F.I.Sh.) arizani to'liq quvvatlab, nizoli Toshkent shahar, Uchtepa tumani, 22-mavze, 19-uy, 15-xonadon 1993-yil 26-fevraldag'i 01-01/9999-sonli mulk huquqini tasdiqlovchi Davlat orderiga asosan (F.I.Sh.) nomiga xususiyashtirilganligi, (F.I.Sh.) 2002-yil 24-may kuni vafot etganligi, nizoli xonadonda (F.I.Sh.) ning bir o'zi doimiy ro'yxatda bo'lib, bir o'zi yashaganligi, xonadonni xususiyashtirish davrida ham bir o'zi qatnashganligi, Toshkent shahar, Yakkasaroy tumani, 1-sonli Davlat notarial idorasining 2011-yil 19-sentabrdagi ma'lumotida (F.I.Sh.) vafotidan keyin meros ishi ochilmaganligi ko'rsatilganligi, hozirda nizoli xonadon qarovsiz, egasiz qolganligi haqida ko'rsatuv berib, Toshkent shahar, Uchtepa tumani, 22-mavze, 19-uy, 15-xonadonni egasiz qolgan mol-mulk deb topib, hokimiyat tasarrufiga o'tkazishni so'radi.

Sud majlisida uchinchi shaxs sifatida so'ralsan Toshkent shahar "Nayman" mahalla fuqarolar yig'ini raisi (F.I.Sh.) arizachining da'vo talablarini quvvatlab, 2007-yil 2-yanvardan buyon mahalla raisi ekanligi, nizoli Toshkent shahar, Uchtepa tumani, 22-mavze, 19-uy, 15-xona-don marhum (F.I.Sh.) ga tegishli bo'lganligi, nizoli xonadonda (F.I.Sh.) ning bir o'zi istiqomat qilganligi, fuqaro (F.I.Sh.) 2002-yil 24-may kuni vafot etganligi, nizoli xonadon egalarining qarindoshlari bo'lmaganligi, 2003-yilda nizoli xonadon fuqaro (F.I.Sh.)ga hokim qaroriga asosan xiz-mat uyi qilib berilganligi, 2003-yildan buyon nizoli xonadonda (F.I.Sh.) turmush o'rtog'i (F.I.Sh.) va ikki nafar voyaga yetmagan farzandlari bilan istiqomat qilishi, ushbu nizoli xonadon egasiz qolgan mulk deb topilishiga va davlat tasarrufiga o'tkazilishiga qarshiligi yo'qligi haqida ko'rgazma berib, arizani qanoatlantirishni so'radi.

Sud majlisida uchinchi shaxs sifatida jalb qilingan (F.I.Sh.) va (F.I.Sh.)lar da'vogarning da'vo talablarini quvvatlab, 2003 yildan buyon nizoli Toshkent shahar, Uchtepa tumani, 22-mavze, 19-uy, 15-xonadonda istiqomat qilishi, Uchtepa tuman xokimining 675-sonli qaroriga asosan nizoli xonadon ularga xizmat uyi qilib ajratilganligi, xonadon egasi (F.I.Sh.) 2002-yil 24-may kuni vafot etganligi, ular istiqomat qilish davrida hech kim nizoli xonadon yuzasidan kelmaganligi, (F.I.Sh.) ning qarindoshlari bo'lmaganligi, ushbu nizoli xonadon egasiz qolgan mulk deb topilishiga va davlat tasarrufiga o'tkazilishiga qarshiligi yo'qligi haqida ko'rgazma berib, arizani qanoatlantirishni so'radilar.

Sud majlisida guvoh sifatida so'ralsan (F.I.Sh.) 2005-yildan buyon Toshkent shahar, Uchtepa tumani, 22-mavze, 19-uy, 4-xonadonda istiqomat qilishi, nizoli xonadon egasi (F.I.Sh.)ni tanimasligi, nizoli xonadonda u ko'chib kelganidan buyon (F.I.Sh.) lar oilasi istiqomat qilishi,

nizoli xonadon yuzasidan biror bir shaxs kelib, uy unga tegishliligi yoki nizoli xonadonning sobiq egasini qarindoshi ekanligi to‘g‘risida eshitmaganligi, xonadon yuzasidan biror bir nizo eshitmaganligini bildirdi.

Sud majlisida guvoh sifatida so‘ralgan (F.I.Sh.) tug‘ilganidan buyon Toshkent shahar, Uchtepa tumani, 22-mavze, 19-uy, 9-xonadonda istiqomat qilishi, nizoli xonadonning egasi (F.I.Sh.)ni yaxshi taniganligi, (F.I.Sh.) nizoli xonadonda bir o‘zi yashaganligi, qarindoshlari bo‘lmaganligi, (F.I.Sh.) vafotidan so‘ng xonadon yuzasidan hech kim kelib qiziqmaganligi, 2003-yildan buyon nizoli xonadonda (F.I.Sh.)lar oilasi istiqomat qilib kelayotganligini bildirdi.

Sud taraflarning hamda guvohlarning ko‘rsatmalarini eshitib, Uchtepa prokurori yordamchisi fikrini tinglab, fuqarolik ishi hujjatlarini o‘rganib chiqib, quyidagi xulosaga keladi.

Sud tomonidan aniqlangan holatlarga ko‘ra, Toshkent shahar, Uchtepa tumani 22-mavze, 19-uy, 15-xonadon 1993-yil 26-fevraldagi 01-01/9999-sonli mulk huquqini tasdiqlovchi Davlat orderiga asosan (F.I.Sh.) nomiga xususiylashtirilgan. (F.I.Sh.) 2002-yil 24-may kuni vafot etgan.

Nizoli xonadonda (F.I.Sh.) ning bir o‘zi doimiy ro‘yxatda bo‘lib, bir o‘zi yashagan, xonadonni xususiylashtirish davrida ham bir o‘zi qatnashgan.

Toshkent shahar, Yakkasaroy tumani, 1-sonli Davlat notarial idorasining 2011-yil 19-sentabrdagi ma’lumotida (F.I.Sh.) vafotidan keyin meros ishi ochilmaganligi ko‘rsatilgan.

Nizoli xonadon egasining vafotidan keyin xonadonga nisbatan nizo chiqmagan va hech kim da‘vo qilib sudga yoki notarial idoraga mu-rojaat etmagan.

Toshkent shahar Uchtepa tuman xokimining 2003-yil 20-iyundagi 675-sonli qaroriga asosan nizoli Toshkent shahar, Uchtepa tumani, 22-mavze, 19-uy, 15-xonadon qonunan egasi yo‘q deb rasmiylashtiril-gunga qadar (F.I.Sh.) ga yashab turishga ruxsat berilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 191-moddasiga muvofiq, egasi bo‘lмаган yoki egasi noma‘lum bo‘lgan ashyo egasiz ashyo hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 1157-moddasiga ko‘ra, agar qonun bo‘yicha ham, vasiyatnomha bo‘yicha ham meros-xo‘rlar bo‘lmasa yoki merosxo‘rlardan hech qaysisi vorislilik huquqiga ega bo‘lmasa yoxud ularning hammasi merosdan voz kechgan bo‘lsa, meros mol-mulk egasiz deb hisoblanadi.

Meros mol-mulk meros ochilgan joydagи mahalliy davlat organi yoki fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organining arizasi bo‘yicha meros ochilgan kundan e’tiboran bir yil o‘tganidan keyin sudning qarori aso-sida egasiz deb topiladi. Meros mol-mulk, agar uni qo‘riqlash va bosh-qarish

bilan bog‘liq xarajatlar uning qiymatidan oshib ketsa, ko‘rsatilgan muddat o‘tishidan oldin egasiz deb topilishi mumkin.

Egasiz mol-mulk u turgan joydagi fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organi mulkiga o‘tadi, bu organ mol-mulkdan voz kechgan taqdirda, davlat mulkiga o‘tadi.

Yuqorida bayon etilgan holatlar va ish bo‘yicha to‘plangan barcha dalillar asosida sud arizani qanoatlantirishni, nizoli xonadonni egasiz qolgan mol-mulk deb topib, uni davlat tasarrufiga o‘tkazishni lozim deb hisoblaydi.

Binobarin, O‘zbekiston Respublikasi FKnning 191, 1157-moddasi va FPKning 249–253-moddalariga ko‘ra, sud

#### **Qaror qiladi:**

Arizachi Uchtepa tuman hokimiyatining Uchtepa tumani, 22-mavze, 19-uy, 15-xonadonni egasiz qolgan mol-mulk deb topish haqidagi arizasi qanoatlantirilsin.

Toshkent shahar, Uchtepa tumani, 22-mavze, 19-uyning 15-xonadoni egasiz qolgan mulk deb topilsin va davlat tasarrufiga o‘tkazilsin.

Hal qiluv qaroridan norozi taraflar 20 kunlik muddat ichida shu sud orqali fuqarolik ishlari bo‘yicha Toshkent shahar sudiga appellatsiya tartibida shikoyat keltirishiga, prokuror shu muddat ichida appellatsiya protesti kiritishga haqlidirlar.

Sudya:

imzo

(F.I.Sh.)

#### **8-§. Taqdim etuvchiga deb berilgan hujjatlar yo‘qolgan taqdirda ular bo‘yicha huquqlarni tiklash (chaqirib ish yuritish) to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha protsessual hujjatlar**

O‘zbekiston Respublikasi FPKning 331-moddasiga ko‘ra, shaxs pul mablag‘lari qo‘yilganligi haqida yoki qimmatli narsalar yoxud davlat zayomi obligatsiyalari saqlash uchun topshirilganligi to‘g‘risida bank tomonidan taqdim etuvchiga berilgan qiymatli hujjatni yo‘qotgan taqdirda, shuningdek qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda, suddan yo‘qolgan hujjatni haqiqiy emas deb topish va yo‘qolgan hujjat bo‘yicha huquqlarini tiklash to‘g‘risida iltimos qilishi mumkin.

---

*Ushbu ariza ham FPKning 189-moddasida ko'rsatilgan umumiylar ablarga javob berishi kerak. Undan tashqari FPKning 331-moddasida belgilangan ma'lumotlar, ya'ni hujjat qanday vaziyatda yo'qolganligi, taqdim etuvchiga deb hujjat bergen muassasaning, hujjatning nomi ko'rsatilishi, hujjatning alohida belgilari va yo'qolgan hujjatni haqiqiy emas deb topish haqidagi iltimos bayon qilinishi va arizaga ilova qilinadigan hujjatlar ro'yxati ko'rsatilishi kerak.*

---

Mazkur ishlar bo'yicha ham sudning hal qiluv qarori FPKning umumiylar qoidalari bo'yicha rasmiylashtiriladi. Biroq ushbu ishlar bo'yicha sudning hal qiluv qarorining xulosa qismida arizachining familiyasi, ismi, otasining ismi va yuridik shaxsning nomi to'liq keltirilishi, da'vo talablarining qanoatlantirilganligi (to'liq yoki qisman) yoki butunlay yoxud qisman rad etish haqidagi sudning xulosasi aniq aks ettirilgan bo'lishi lozim. Shuningdek, sud xarajatlarining taqsimlanishi, hal qiluv qarori ustidan shikoyat berish muddati va tartibi ko'rsatilishi shart. Taqdim etuvchiga deb berilgan hujjatlar yo'qolgan taqdirda ularga bo'lgan huquqni tiklash to'g'risidagi ishlar bo'yicha ham sud ishni ko'rgach, sud hal qiluv qarori chiqaradi. Agar sud arizani qanoatlantirsa, o'zining hal qiluv qarorida yo'qolgan hujjat haqiqiy emasligini ko'rsatadi. Bu hal qiluv qarori arz qiluvchiga omonatni yoki haqiqiy emas deb topilgan hujjat o'rni yangisini berish uchun asos bo'ladi.

Fuqarolik ishlari bo'yicha Toshkent shahar Mirobod tumanlararo sudiga

Mirobod tumani, Farg'ona yo'li ko'chasi  
14-uy, 78-xonadonda yashovchi (F.I.Sh.)dan

## A R I Z A

(Taqdim etuvchiga deb berilgan hujjat yo'qolgan  
taqdirda ularga bo'lgan huquqni tiklash haqida)

Men Mirobod tumanidagi Ipoteka bankiga omonat qo'ydim. Bank tomonidan taqdim etuvchiga deb berilgan 3457-raqamli jamg'arma daftarchasi berildi. Omonat daftarchasini ishga ketayotgan vaqtida yo'-qotib qo'ydim. Bu haqida Mirobod tumanidagi Ipoteka bankiga muro-jaat qilganimda ular tomonidan omonat daftachasi berish rad qilindi.

FPKning 301-moddasiga ko'ra, shaxs pul mablag'lapi qo'yilganligi haqida yoki qimmatli narsalar yoxud davlat zayomi obligatsiyalarini saqlash uchun topshirilganligi to'g'risida bank tomonidan taqdim etuvchiga berilgan qiyatli hujjatni yo'qotgan taqdirda, shuningdek qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda, suddan yo'qolgan hujjatni haqiqiy emas deb topish va yo'qolgan hujjat bo'yicha huquqlarini tiklash to'g'risida iltimos qilishi mumkin.

FPKning 331-moddasiga asosan

### **SO'RAYMAN:**

Mirobod tuman Ipoteka bankining 34/780-raqamli omonat banki tomonidan taqdim etuvchiga deb berilgan 3457-raqamli jamg'arma daftarchasi yo'qolganligi sababli uni haqiqiy emas deb topishni va yuqoridagi jamg'arma bankining 20370-hisobidagi pul jamg'armasiga mening huquqimni tiklashingizni.

Ilova:

1. Jamg'arma daftarchasining nazorat varaqasi;
2. 11 800 so'm davlat boji to'langanligi haqida chipta.

2018-yil 13-aprel

imzo

(F.I.Sh.)

### **Matbuotda chiqariladigan e'lonning namunasi**

Toshkent shahar, Fuqarolik ishlari bo'yicha Mirobod tumanlararo sudiga, Mirobod tumani, Farg'ona yo'li ko'chasi 14-uy 78-xonadonda yashovchi (F.I.Sh.) tomonidan ariza berilib, unda Mirobod tuman Ipoteka bankining 34/780-raqamli omonat banki tomonidan taqdim etuvchiga deb berilgan 3457-raqamli jamg'arma daftarchasini haqiqiy emas deb topish haqida ko'rsatilgan.

Yuqoridagi jamg'arma daftarchasini egallab turuvchiga shu hujjatga nisbatan qanchalik huquqqa egaligi haqida ushbu e'lon qilingan kundan e'tiboran 3 oy muddat ichida sudga ariza bilan murojaat etish tavsiya qilinadi.

### **AJRIM**

(arizani ko'rmasdan qoldirish haqida)

2018-yil 13-aprelda Fuqarolik ishlari bo'yicha Toshkent shahar, Mirobod tumanlararo sudining binosida ochiq sud majlisida sudyu (F.I.Sh.) raisligida, (F.I.Sh.) kotibligida (F.I.Sh.)ning taqdim etuvchiga deb berilgan jamg'arma daftarchasini haqiqiy emas deb topish haqidagi fuqarolik ishi ko'rilib, quyidagilar

### **Aniqlandi:**

(F.I.Sh.) ning arizasida Mirobod tumanidagi Ipoteka bankiga omonat qo‘yanligi uchun 3457-raqamli jamg‘arma daftarchasi berilganligi, bu daftarchani 2017-yil 25-mart kuni shahar avtotransportida ketayotganida yo‘qotib qo‘yanligi bayon qilingan.

Arizachi o‘z arizasida va sud majlisida suddan bu daftarchani haqiqiy emas deb topishni va pul jamg‘armasiga bo‘lgan huquqini tiklashni so‘raydi.

Sud majlisida arizachining o‘rtog‘i (F.I.Sh.) jamg‘arma daftarchani topib olganligini va jamg‘arma pulda uning ham hissasi borligini, arizachining 2 yil muqaddam qarz olib qaytarib bermayotganligini aytib ushbu puldan qarzni undirib berishni so‘radi.

Ish yuzasidan har ikki taraf o‘rtasida huquq haqida fuqarolik nizosi chiqqanligi sababli bu ish da’vo qo‘zg‘atish yo‘li bilan sudda ko‘rilishi lozim. Shuning uchun sud arizachi (F.I.Sh.)ning bergan arizasini ko‘rmasdan qoldirishni lozim topadi.

Sud yuqoridagilarga ko‘ra va FPKning 122, 271-272-moddalariga asosan

### **Ajrim qiladi:**

(F.I.Sh.)ni Mirobod tumanidagi Ipoteka banki tomonidan taqdim etuvchiga deb berilgan 3457-raqamli jamg‘arma daftarchasini haqiqiy emas deb topish haqidagi arizasi ko‘rmasdan qoldirilsin.

(F.I.Sh.)ning (F.I.Sh.)ga nisbatan da’vo qo‘zg‘atish yo‘li bilan jamg‘arma daftarchasini talab qilish haqidagi huquqi tushuntirilsin.

Sudyaning 2017-yil 15-noyabrdagi ajrimi bilan man etish haqidagi choralarini bekor qilinsin.

Ajrimdan norozi tomon 10 kun muddat ichida shu sud orqali Fuqarolik ishlari bo‘yicha Toshkent viloyati sudiga shikoyat qilishga prokuror protest keltirishga haqlisi.

Sudya:

imzo

(F.I.Sh.)

### **9-§. Shaxsni g‘ayriixtiyoriy tartibda psixiatriya statsionariga yotqizish yoki uning ushbu muassasada yotishi muddatini uzaytirish to‘g‘risidagi ariza, hal qiluv qarori va ularni rasmiylashtirish tartibi**

Shaxsni g‘ayriixtiyoriy tartibda psixiatriya statsionariga yotqizish to‘g‘risidagi yoki uning statsionarda yotishi muddatini uzay-

tirish to‘g‘risidagi ariza sudga shaxs yotgan psixiatriya muassasasi tomonidan beriladi. Mazkur ariza fuqarolik ishlarining sudlovlik qoidalaridan kelib chiqib, psixiatriya muassasasi joylashgan yerdagi sudga beriladi. Ariza FPKning 189-moddasi talablaridan kelib chiqib rasmiylashtiriladi va unda g‘ayriixtiyoriy tartibda psixiatriya statsionariga yotqizish uchun qonunda nazarda tutilgan asoslar hamda shifokor psixiatrlardan iborat komissiyaning shaxs-ning psixiatriya statsionarida bundan keyin bo‘lishi zarurligi to‘g‘-risidagi asoslantirilgan xulosasi arizaga ilova qilinadi.

Shaxsni psixiatriya statsionariga g‘ayriixtiyoriy tartibda yotqizish yoki uning statsionarda yotishi muddatini uzaytirish to‘g‘-risidagi hal qiluv qarori ham kirish, bayon, asoslantiruvchi va xulosa qismlaridan iborat bo‘lib, FPKning tegishli moddalari talablarasi rasmiylashtiriladi va arizani qanoatlantirish to‘g‘risidagi hal qiluv qarori tegishlicha shaxsni psixiatriya statsionariga g‘ayriixtiyoriy tartibda yotqizish yoki uning statsionarda yotishi muddatini uzaytirish uchun asos hisoblanadi.

Fuqarolik ishlari bo‘yicha Toshkent shahar Uchtepa tumانlararo sudiga  
Toshkent shahar, Uchtepa tuman psixiatriya muassasasi rahbari (F.I.O.)

Manfaatdor shaxs: (F.I.Sh.), Uchtepa tumani, Qani mahallasi 98-xonadonda yashaydi.

### A R I Z A

(Shaxsni g‘ayriixtiyoriy tartibda psixiatriya statsionariga yotqizish haqida)

Toshkent shahar Uchtepa tumani Qani maxallasidagi 98-xonadonida doimiy ro‘yxatida qayd qilingan 1956-yil 8-aprelda tug‘ilgan fuqaro (F.I.Sh.) Toshkent shahar 1-sonli psixiatriya statsionarida 2017-yildan buyon bemor sifatida shifokor nazoratida turadi.

Keyingi vaqtida fuqaro (F.I.Sh.) kasalligi kuchayib ketganligi, g‘ayriixtiyoriy tartibda psixiatriya statsionariga yotqizish uchun qonunda nazarda tutilgan asoslar hamda shifokor psixiatrlardan iborat komissiyaning shaxsning psixiatriya statsionarida bundan keyin bo‘lishi zarurligi to‘g‘risidagi asoslantirilgan xulosasi tuzildi.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 317-moddasiga kora shaxsni g‘ayriixtiyoriy tartibda psixiatriya statsionariga yotqizish to‘g‘risidagi yoki uning statsionarda yotishi muddatini uzay-tirish to‘g‘risidagi ariza sudga shaxs yotgan psixiatriya muassasasi tomo-nidan beriladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib suddan

**SO‘RAYMAN:**

Fuqaro (F.I.O.)ni g‘ayriixtiyoriy tartibda psixiatriya statsionariga yotqizishni.

Ilova: shifokor psixiatrlardan iborat komissiyaning shaxsning psixiya-triya statsionarida bundan keyin bo‘lishi zarurligi to‘g‘risidagi asoslan-tirilgan xulosasi, mahalladan ma’lumotnomasi.

Uchtepa tuman psixiatriya  
muassasasi rahbari                      imzo

(F.I.O.)

**10-§. Voyaga yetmagan shaxsni to‘liq muomalaga layoqatli deb e’lon qilish (emansipatsiya) haqidagi ariza, sudning hal qiluv qarori va ularni rasmiylashtirish tartibi**

O‘n olti yoshga to‘lgan voyaga yetmagan shaxs qonun huj-jatlarida nazarda tutilgan hollarda o‘zi yashab turgan joydagi sudga o‘zini to‘liq muomalaga layoqatli deb e’lon qilish to‘g‘risidagi ariza bilan murojaat qilishi mumkin.

Vasiylik va homiylik organlari voyaga yetmagan shaxsni to‘liq muomalaga layoqatli deb e’lon qilishni rad etganligini tasdiq-lovchi dalillar mavjud bo‘lganda voyaga yetmagan shaxsni to‘liq muomalaga layoqatli deb e’lon qilish to‘g‘risidagi ariza sud tomo-nidan qabul qilinadi. Ariza FPKning 189-moddasi talablaridan kelib chiqib rasmiylashtiriladi.

Mazkur ishlar bo‘yicha ham sudning hal qiluv qarori FPKning umumiyligi qoidalari bo‘yicha rasmiylashtiriladi. Sud voyaga yetmagan shaxsni to‘liq muomalaga layoqatli deb e’lon qilish to‘g‘risidagi arizani mazmunan ko‘rib chiqib, uni qanoatlantirish yoki rad etish haqida hal qiluv qarori qabul qiladi. Ushbu ishlar bo‘yicha ariza qanoatlantirilgan taqdirda, o‘n olti yoshga to‘lgan voyaga yetmagan shaxs sudning hal qiluv qarori qonuniy kuchga kir-gan kundan e’tiboran to‘liq muomalaga layoqatli (emansipatsiya qilingan) deb e’lon qilinadi.

## **Voyaga yetmagan shaxsni to‘liq muomalaga layoqatli deb e’lon qilish (emansipatsiya) to‘g‘risida arizadan namuna**

Fuqarolik ishlari Toshkent shahar  
Mirobod tumanlararo sudiga

Arizachi: (F.I.Sh.), Mirobod tumani  
Qo‘yliq 4-daha, Yangi qo‘yliq ko‘chasi,  
10-uy.

### **A R I Z A**

(Voyaga yetmagan shaxsni to‘liq muomalaga layoqatli deb  
e’lon qilish (emansipatsiya) to‘g‘risida)

Men (F.I.Sh.) Mirobod tumani Qo‘yliq 4-daha Yangi qo‘yliq ko‘chasi, 15-uy, 4-xonadonda yashayman. Hozirda Mirobod tumani Qo‘yliq 4-dahasida joylashgan “Non va non mahsulotlar” nomli firmada mehnat shartnomasi asosida ishchi bo‘lib ishlayman.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 28-moddasiga ko‘ra, o’n olti yoshga to‘lgan voyaga etmagan shaxs mehnat shartnomasi bo‘yicha ishlayotgan bo‘lsa yoki ota-onasi, farzandlikka oluvchilar yoxud homiyisining roziligidagi binoan tadbirkorlik faoliyati bilan shu-g‘ullanayotgan bo‘lsa, u to‘la muomalaga layoqatli deb e’lon qilinishi mumkin. Voyaga etmagan shaxsni to‘la muomalaga layoqatli deb e’lon qilish (emansipatsiya) ota-onaning, farzandlikka oluvchilarning yoki homiyining roziligi bilan vasiylik va homiyilik organining qaroriga mu-vofiq yoxud, bunday rozilik bo‘lмаган taqdirda, sudning qarori bilan amalga oshiriladi.

Men ota-onamning roziligi bilan vasiylik va homiyilik organiga mu-rojaat qildim. Lekin ular arizamga rad javobi berdi. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 324-moddasiga ko‘ra, Vasiylik va homiyilik organlari voyaga yetmagan shaxsni to‘liq muomalaga layoqatli deb e’lon qilishni rad etganligini tasdiqlovchi dalillar mavjud bo‘lganda voyaga yetmagan shaxsni to‘liq muomalaga layoqatli deb e’lon qilish to‘g‘risidagi ariza sud tomonidan qabul qilinadi.

Yuqoridagilarga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi FKning 28-moddasiga hamda FPKning 324-moddasiga asosan,

**SO‘RAYMAN:**

(F.I.O.)ni to‘liq muomalaga layoqatli deb e’lon qilishni.

*Ilova: Vasiylik va homiylik organining voyaga yetmagan shaxsni to‘liq muomalaga layoqatli deb e’lon qilishni rad etganligini tasdiqlovchi dalillar; mahalla qo‘mitasining bergan tavsiyanomasi; (F.I.Sh.) ning oila a’zolari haqidagi ma’lumotnomasi; davlat boji to‘langanligi haqida chipta .*

(F.I.O.)

imzo

2018-yil 5-aprel

## **11-§. Yo‘qolgan sud ishini yuritishni tiklash haqidagi ariza, sudning hal qiluv qarori va ularni rasmiylashtirish tartibi**

Yo‘qolgan sud ishini yuritish sud tomonidan ishda ishtirot etuvchi shaxslarning, prokurorning arizasiga binoan, shuningdek sudning tashabbusiga ko‘ra tiklanishi mumkin. Yo‘qolgan sud ishini yuritish to‘liq yoki uning sud fikriga ko‘ra tiklanishi zarur bo‘lgan qismi tiklanadi. Sudning hal qiluv qarori yoki ish yuri-tishni tugatish to‘g‘risidagi ajrimi, agar ular ish yuzasidan chiqqa-rilgan bo‘lsa, tiklanishi shart. Arizachi yo‘qolgan sud ishini yuritishni tiklash to‘g‘risidagi ishni ko‘rib chiqishda sud tomonidan qilingan sud xarajatlarini to‘lashdan ozod etiladi. Bila turib yol-g‘on ariza berilganda sud xarajatlari arizachidan undirib olinadi.

*Yo‘qolgan sud ishini yuritishni tiklash to‘g‘risidagi ariza ishni ko‘rib chiqqan sudga beriladi.*

*Arizada ishga doir batafsil ma’lumotlar bo‘lishi kerak.*

*Arizachida saqlanib qolgan va ishga daxldor bo‘lgan hujjatlар yoki ularning ko‘chirma nusxalari, basharti ular belgilangan tartibda tas-diglanmagan bo‘lsa ham, arizaga ilova qilinadi.*

*Ushbu ariza ham FPKning 189-moddasida ko‘rsatilgan umumiy talablarga javob berishi kerak*

---

Sud yo‘qolgan sud ishini yuritishni tiklash to‘g‘risidagi arizani ko‘rib chiqishda ishning saqlanib qolgan qismlaridan, sud ishini yuritish yo‘qolguniga qadar ushbu ishdan fuqarolar va tashkilot-larga olib berilgan hujjatlardan, bu hujjatlarning ko‘chirma nusxalaridan, shuningdek ishga daxldor bo‘lgan boshqa hujjatlardan foydalanadi.

Sud protsessual harakatlarni bajarish chog‘ida hozir bo‘lgan shaxslarni, zarur hollarda esa yo‘qolgan sud ishini ko‘rib chiqqan

sud tarkibiga kirgan shaxslarni ham guvoh sifatida so‘roq qilishi mumkin.

Sudning yo‘qolgan hal qiluv qarorini yoki ish yuritishni tugatish to‘g‘risidagi ajrimni tiklash haqidagi hal qiluv qarorida sud tiklanayotgan sud hujjatining mazmuni sudga taqdim etilgan va yo‘qolgan ish bo‘yicha sud protsessining barcha ishtirokchilari ishtirokida sud majlisida tekshirilgan qanday aniq ma‘lumotlar asosida aniqlangan deb hisoblashi ko‘rsatiladi.

Yo‘qolgan sud ishini yuritishni tiklash to‘g‘risidagi hal qiluv qarorining asoslantiruvchi qismida, shuningdek qanday dalillar sud tomonidan tekshirilganligi va yo‘qolgan sud ishini yuritish bo‘yicha qanday protsessual harakatlar sodir etilganligi isbotlan-ganligi haqidagi sudning xulosalari ko‘rsatiladi. To‘plangan mate-riallar yo‘qolgan sud ishini yuritishni aniq tiklash uchun yetarli bo‘lmasa, sud ajrim chiqarib, ish yuritishni tugatadi. Bu holda arizachi umumiyl tartibda da’vo taqdim etishga haqli.

Yo‘qolgan sud ishini yuritishni tiklash to‘g‘risidagi arizani ko‘rib chiqish uning saqlanish muddati bilan chegaralanmaydi. Biroq yo‘qolgan sud ishini yuritishni tiklash to‘g‘risidagi ariza bilan uni ijro etish maqsadida murojaat qilingan, bu vaqtga kelib ijro varaqasini ijroga qaratish muddati o‘tgan va u sud tomonidan tiklanmaydigan bo‘lsa ham sud ish yuritishni tugatadi.

Yo‘qolgan sud ishini yuritishni tiklash to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha sud hujjatlari ustidan shikoyat qilish (protest keltirish) mumkin.

## **NAZORAT UCHUN SAVOLLAR**

1. Alovida tartibda ko‘riladigan ishlar va ularning turlarini ayting.
2. Yuridik ahamiyatga ega bo‘lgan faktlarni belgilash bo‘yicha ariza yozing.
3. Fuqaroni bedarak yo‘qolgan deb topish yoki fuqaroni o‘lgan deb e’lon qilish to‘g‘risidagi arizada FPKning 189-moddasida ko‘rsatilgan talablardan tashqari nimalar ko‘rsatilishi shart?
4. Bolani farzandlikka olish bo‘yicha ariza yozing.
5. Fuqaroni muomala layoqati cheklangan yoki muomalaga layoqatsiz deb topish asoslarini ayting va sudga taqdim etiladigan ariza loyihasini yozing.

6. Voyaga yetmagan shaxsni to‘liq muomalaga layoqatli deb e’lon qilish (emansipatsiya) tartibini ayting.

## **8-MAVZU. HAKAMLIK SUDINING HAL QILUV QARORI BILAN BOG‘LIQ ISHLARNI YURITISH JARAYONIDAGI PROTSESSUAL HUJJATLAR**

### **1-§. Fuqarolik sudiga hakamlik sudining hal qiluv qarorini bekor qilish haqida beriladigan ariza va uni rasmiylashtirish tartibi**

Hakamlik muhokamasi tarafi hakamlik sudining sudga taalluqli nizoga doir hal qiluv qarori yuzasidan ushbu qarorni olgan kundan e’tiboran **o’ttiz kun** ichida sudga hakamlik sudining hal qiluv qarorini bekor qilish to‘g‘risida ariza berish yo‘li bilan nizo-lashishi mumkin.

Hakamlik sudining hal qiluv qarorini bekor qilish to‘g‘risidagi ariza hakamlik sudining hal qiluv qarori qabul qilingan joydagи sudga beriladi.

#### **Ariza namunasi**

Fuqarolik	ishlari	bo‘yicha
Shayxontohur tumanlararo sudiga		

Arizachi: (F.I.Sh.), Toshkent shahar,  
Shayxontohur tumani, Tinchlik ko‘chasi,  
2-uyda yashaydi.

Javobgar: (F.I.Sh.), Toshkent shahar,  
Shayxontohur tumani, Gulzor ko‘chasi, 15-  
uyda yashaydi.

#### **A R I Z A**

(Hakamlik sudining hal qiluv qarorini bekor qilish to‘g‘risida)

Toshkent shahar Shayxontohur tumanida joylashgan “New Century” MChJ huzuridagi doimiy faoliyat ko‘rsatuvchi hakamlik su-dining 2018-yil 15-sentabrda 405-sonli hal qiluv qarori bilan (F.I.Sh.)ning da’vo talablari qanoatlanadirilib, mendan, ya’ni (F.I.Sh.) dan 5.457.445 so‘m asosiy qarz va 10 % qo‘srimcha bilan jami 6.003.189 so‘m pul mablag‘i, 209.236 so‘m hakamlik yig‘imi undi-rilgan.

Mazkur qabul qilingan hal qiluv qaroridan noroziman. “New Cen-

tury” MChJ huzuridagi doimiy faoliyat ko‘rsatuvchi hakamlik sudi-ning 2018-yil 15-sentabrdagi 405-sonli ish bo‘yicha chiqqargan hal qiluv qarorini bekor qilishni so‘rayman.

Tuzilgan hakamlik bitimi sobiq turmush o‘rtog‘im tomonidan imzolangan, ushbu bitimni imzolash vaqtida u bilan nikohda bo‘lma-gannmiz, hakamlik sudyalarini saylashda ishtirok etmaganman, ishni ko‘rish vaqt va joyi to‘g‘risida xabardor bo‘lmanaganman.

Yuqoridagilarga asosan, javobgar (F.I.Sh.)dan mening foydamga sudga hakamlik sudining hal qiluv qarorini bekor qilish haqidagi ariza bilan murojaat qilish to‘langan 215.270 so‘m miqdoridagi davlat boji undirilishini va “New Century” MChJ huzuridagi doimiy faoliyat ko‘rsatuvchi hakamlik sudi tomonidan 2018-yil 15-sentabrdagi 405-sonli hakamlik ishi bo‘yicha chiqarilgan hal qiluv qarori bekor qilishingizni so‘rayman.

*Ilova: hakamlik sudi hal qiluv qarorining tasdiqlangan nusxasi; hakamlik bitimining tegishli tarzda tasdiqlangan nusxasi; belgilangan tartibda va miqdorda davlat boji to‘langanligini tasdiqlovchi hujjat; hakamlik sudining hal qiluv qarorini bekor qilish to‘g‘risidagi talabni asoslash uchun boshqa hujjatlar.*

2018-yil 20-sentabr

imzo

(F.I.Sh.)

## **2-§. Fuqarolik sudining hakamlik sudi hal qiluv qarorini bekor qilish yoki bekor qilishni rad etish haqidagi ajrimi va uni yozish tartibi**

Hakamlik sudining hal qiluv qarorini bekor qilish to‘g‘risidagi ariza suda tomonidan yakka tartibda ko‘rib chiqiladi.

Fuqarolik ishlari bo‘yicha sud hakamlik muhokamasi tarafla-rini sud majlisining vaqt va joyi to‘g‘risida xabardor qiladi. Sud majlisining vaqt va joyi haqida belgilangan tartibda xabardor qilingan mazkur shaxslarning kelmaganligi ishni ko‘rib chiqish uchun to‘sinqinlik qilmaydi.

**Sudning hakamlik sudi hal qiluv qarorini bekor qilish to‘g‘-risidagi yoki hakamlik sudi hal qiluv qarorini bekor qilishni rad etish haqidagi ajrimida quyidagi lar ham bo‘lishi kerak:**

1) hakamlik sudining nizolashilayotgan hal qiluv qarori to‘g‘risidagi va mazkur qaror qabul qilingan joy haqidagi ma’lumotlar;

2) nizolashilayotgan hal qiluv qarorini qabul qilgan hakamlik sudining nomi va tarkibi to‘g‘risidagi ma’lumotlar;

3) hakamlik muhokamasi taraflarining familiyasi, ismi, otasining ismi (nomi);

4) hakamlik sudining hal qiluv qarorini to‘liq yoki qisman bekor qilishga yoxud arizachining talabini to‘liq yoki qisman qanoatlantirishni rad etishga doir ko‘rsatma.

### Ajrim numunasi

#### AJRIM

2018-yil aprel oyining 15-kunida Fuqarolik ishlari bo‘yicha Toshkent shahar Shayxontohur tumanlararo sudi o‘z binosida, ochiq sud majlisida raislik etuvchi sudya (F.I.Sh.), (F.I.Sh.)ning kotibligida, arizachi (F.I.Sh.) ning javobgar (F.I.Sh.)ga nisbatan hakamlik sudining hal qiluv qarorini bekor qilish haqidagi arizasini ko‘rib chiqib, sud quyidagilarni

#### Aniqladi:

Toshkent shahar Shayxontohur tumanida joylashgan “New Century” MChJ huzuridagi doimiy faoliyat ko‘rsatuvchi hakamlik sudining 2018-yil 15-martdagi 405-sonli hal qiluv qarori bilan (F.I.Sh.)ning da‘vo talablari qanoatlantirilib, (F.I.Sh.)dan 5.457.445 so‘m asosiy qarz va 10% qo‘sishma bilan jami 6.003.189 so‘m pul mablag‘i, 209.236 so‘m hakamlik yig‘imi undirilgan.

Mazkur qabul qilingan hal qiluv qaroridan norozi bo‘lib, (F.I.Sh.) sudga ariza bilan murojaat qilib, “New Century” MChJ huzuridagi doimiy faoliyat ko‘rsatuvchi hakamlik sudining 2018-yil 15-martdagi 405-sonli ish bo‘yicha chiqgargan hal qiluv qarorini bekor qilishni so‘-ragan.

Sud majlisida arizachi hakamlik bitimi sobiq turmush o‘rtog‘i tomonidan imzolanganligini, ushbu bitimni imzolash vaqtida u nikohda bo‘l-maganligini, hakamlik sudyalarini saylashda arizachi ishtirok etmaganliklarini, ishni ko‘rish vaqtida xabardor bo‘Imaganliklarini bildirib, arizani to‘liq qanoatlantirib berishni so‘radi.

Javobgar arizachi talablariga e’tiroz bildirib, arizani rad etishni so‘radi.

Sud, taraf vakillarining tushuntirishlarini tinglab, ish materiallarini o‘rganib chiqib, quyidagi asoslarga ko‘ra ariza talablarini to‘liq qanoatlantirishni lozim topdi:

Ish hujjatlaridan aniqlanishicha, 2017-yil 13-iyun kuni (F.I.Sh.) va (F.I.Sh.)ning sobiq turmush o‘rtog‘i (F.I.Sh.) o‘rtasida nizoni “New Century” MChJ huzuridagi doimiy faoliyat ko‘rsatuvchi hakamlik sudida ko‘rishga topshirish to‘g‘risida bitim tuzilgan. Bundan ko‘rinadiki, hakamlik bitimi tuzilgan vaqtida (F.I.Sh.) xabardor bo‘Imagan va u ushbu bitimni (F.I.Sh.) imzolash huquqiga ega bo‘Imagan.

Bundan tashqari, hakamlik sudining hal qiluv qaroridan ko‘rinishi-cha, sud majlisida javobgar (F.I.Sh.) ishtirok etib, qarzdorlikni qisman tan

olgan.

O'zbekiston Respublikasi "Hakamlik sudlari to'g'risida"gi Qonuning 11-moddasiga ko'ra, hakamlik bitimi mavjud bo'lgan taqdirda nizo hakamlik sudining hal qiluviga topshirilishi mumkin.

Ushbu qonunning 12-moddasiga ko'ra, hakamlik bitimi yozma shaklda tuziladi. Hakamlik bitimi shartnomaning tarkibiy qismi bo'lgan shart-noma sharti yoki alohida bitim tarzida rasmiylashtirilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 107-moddasiga asosan, yozma shaklda tuzilgan bitimi, agar ish muomalasi odatlaridan boshqacha tartib kelib chiqmasa, taraflar yoki ularning vakillari imzo-lashi kerak.

FPKning 352-moddasiga muvofiq, hakamlik sudining qarori quyidagi asoslarga ko'ra bekor qilinishi mumkin: hakamlik sudining hal qiluv qarori, hakamlik bitimi qonunda nazarda tutilgan asoslarga ko'ra haqiqiy emasligini; hakamlik sudi hal qiluv qarorining hakamlik bitimida nazarda tutilmagan yoki uning shartlariga to'g'ri kelmaydigan nizo bo'yicha chiqarilganligini yoxud unda hakamlik bitimi doirasidan chetga chiquvchi masalalar bo'yicha xulosalar mavjudligini. Agar hakamlik sudining hakamlik bitimi bilan qamrab olinadigan masalalar bo'yicha xulosalarini bunday bitim bilan qamrab olinmaydigan masalalar bo'yicha xulosalaridan ajratib olish mumkin bo'lsa, hakamlik sudi hal qiluv qarorining faqat hakamlik bitimi bilan qamrab olinmaydigan masalalar bo'yicha xulosalar bo'lgan qismi bekor qilinishi mumkin; hakamlik sudi tarkibi yoki hakamlik muhokamasi "Hakamlik sudlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuning 14, 15, 16 va 25-moddalari qoidalariiga muvofiq emasligini; hakamlik sudining hal qiluv qarori "Hakamlik sudlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni 10-moddasi tabablari buzilgan holda chiqarilganligini; hakamlik sudining hal qiluv qarori hakamlik muhokamasi taraflaridan qaysi biriga qarshi qabul qi-lingan bo'lsa, o'sha taraf hakamlik sudyalarini saylash (tayinlash) to'g'-risida yoki hakamlik sudi majlisining vaqt va joyi haqida tegishli tarzda xabardor qilinmaganligini hamda shu sababli u hakamlik sudiga o'z tushuntirishlarini taqdim eta olmaganligini.

Sud hakamlik sudining hal qiluv qarorini bekor qilish to'g'risidagi ishni ko'rib chiqish natijalari bo'yicha FPKda hal qiluv qarori qabul qilish uchun nazarda tutilgan qoidalarga binoan ajrim chiqaradi.

Sud (F.I.Sh.)ning tegishli vakolatga ega bo'lmasdan hakamlik bitimi imzolaganligini, hakamlik sudida javobgar sifatida ishtirot etganligini, (F.I.Sh.)ning sudda ishtirot etmaganligini e'tiborga olib, arizachi (F.I.Sh.)ning arizasini qanoatlantirishni va "New Century" MChJ huzuridagi doimiy faoliyat ko'rsatuvchi hakamlik sudining 2014-yil 15-sentabrdagi hal qiluv qarorini bekor qilishni lozim deb topadi.

FPKning 271-272, 351-353-moddalarini, O‘zbekiston Respublikasi “Hakamlik sudlari to‘g‘risida”gi Qonunining 11, 12, 14–16, 25-moddalarini qo‘llab sud,

**Ajrim qiladi:**

Arizachi (F.I.Sh.)ning hakamlik sudining hal qiluv qarorini bekor qilish to‘g‘risidagi arizasi qanoatlantirilsin.

“New Century” MChJ huzuridagi doimiy faoliyat ko‘rsatuvchi hakamlik sudi tomonidan 2018-yil 15- aprelda 405-sonli hakamlik ishi bo‘yicha chiqarilgan hal qiluv qarori bekor qilinsin.

Javobgar (F.I.Sh.)dan arizachi (F.I.Sh.) foydasiga sudga hakamlik sudining hal qiluv qarorini bekor qilish haqidagi ariza bo‘yicha to‘langan 348.800 so‘m miqdoridagi davlat boji undirilsin.

Ajrimdan norozi tomonlar hakamlik sudining hal qiluv qarorini bekor qilish to‘g‘risidagi ushbu ajrim ustidan shu sud orqali Toshkent shahar sudiga xususiy shikoyat berishi yoki prokuror tomonidan xususiy protest keltirilishi mumkin.

Raislik etuvchi sudya

imzo

(F.I.Sh.)

**3-§. Hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqalari berish to‘g‘risidagi ariza va uni rasmiylashtirish tartibi**

Hakamlik sudining qarori mazkur hal qiluv qarorda belgilan-gan tartibda va muddatlarda ixtiyoriy ijro etiladi. Agar hakamlik sudining qarorida ijro etish muddati belgilanmagan bo‘lsa u darhol ijro etilishi kerak.

Agar hakamlik sudining hal qiluv qarori mazkur hal qiluv qarorida belgilangan muddatda ixtiyoriy ijro etilmagan bo‘lsa, u majburiy ijro etilishi kerak. Hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish “Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuniga muvofiq, davlat sudi bergen ijro varaqasi asosida amalga oshiriladi.

Hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to‘g‘risidagi masala hakamlik sudining hal qiluv qarori hakamlik muhokamasi taraflaridan qaysi birining foydasiga chiqarilgan bo‘lsa, o‘sha tarafning arizasiga binoan fuqarolik ishlari bo‘yicha sud tomonidan ko‘rib chiqiladi.

Hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to‘g‘risidagi ariza qarzdor yashaydigan joy-dagi yoki turgan joydagi yoxud agar qarzdor yashaydigan joy yoki turgan joy noma‘lum bo‘lsa, uning mol-mulki turgan yerdagi fuqarolik ishlari bo‘yicha sudga beriladi.

Hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to‘g‘risidagi ariza hakamlik sudining hal qiluv qarorini ixtiyoriy ijro etish muddati tugagan kundan e’tiboran **olti oydan** kechiktirmay berilishi mumkin. Mazkur muddat fuqarolik ishlari bo‘yicha sud tomonidan uzrli deb topilgan sabablarga ko‘ra, o‘tkazib yuborilgan taqdirda o‘tkazib yuborilgan muddat tiklanishi mumkin.

### Ariza namunasi

Fuqarolik ishlari bo‘yicha Toshkent shahar Shayxontohur tumanlararo sudiga
--

Arizachi: (F.I.Sh.), Toshkent shahar,  
Shayxontohur tumani Tinchlik ko‘chasi 2-uyda yashaydi.

Javobgar: (F.I.Sh.), Toshkent shahar,  
Shayxontohur tumani Gulzor ko‘chasi 15-uyda yashaydi.

### A R I Z A

(Hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to‘g‘risida)

O‘zbekiston Savdo-sanoat palatasi huzuridagi doimiy faoliyat ko‘r-satuvchi hakamlik sudi tomonidan javobgar (F.I.Sh.)dan mening foy-damga 3.000.000 so‘m asosiy qarz, 300.000 so‘m hakamlik yig‘imi va 5.000 so‘m pochta harajatlari undirish to‘g‘risidagi da‘vo arizasi yuzasidan 10-7/10-07-0087-sonli hakamlik ishi bo‘yicha 2017-yil 29-mart kuni bilan hal qiluv qarori qabul qilindi. Hakamlik sudining hal qiluv qarorini javobgar ham olgan. Javobgar ko‘rsatilgan muddatda va men tomonidan bir necha bor qilgan murojaatlarimni ham inobatga olmay paysalga solib kelayapti.

Sizdan “Hakamlik sndlari to‘g‘risida”gi Qonuning 50-moddasiga asosan hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varqa berishni va javobgar (F.I.Sh.)dan hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish haqidagi ariza bilan murojaat qilinganda to‘lagan 348.800 so‘m miqdoridagi davlat bojini undirib berishingizni so‘rayman.

Ilova:

- 1) hakamlik sudi hal qiluv qarorining tasdiqlangan nusxasi;
- 2) hakamlik bitimining tegishli tarzda tasdiqlangan nusxasi;
- 3) belgilangan tartibda va miqdorda davlat boji to‘langanligini tasdiqlovchi hujjat.

2017-yil 12-may

imzo

(F.I.Sh.)

#### **4-§. Fuqarolik sudining hakamlik sudi hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to‘g‘risidagi ish bo‘yicha ajrimi va uni protsessual rasmiylashtirish tartibi**

Sudning hakamlik sudi hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to‘g‘risidagi yoki hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berishni rad etish to‘g‘risidagi ajrimida quyidagilar ham bo‘lishi kerak:

- 1) hal qiluv qarorini qabul qilgan hakamlik sudining nomi va tarkibi;
- 2) hakamlik muhokamasi taraflarining familiyasi, ismi, ota-sining ismi (nomi);
- 3) hakamlik sudining hal qiluv qarori to‘g‘risidagi ma’lu-motlar;
- 4) hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasini berish yoki ijro varaqasi berishni rad etish uchun ko‘rsatma.

#### **Ajrim namunasi**

##### **AJRIM**

2018-yil aprel oyining 15-kunida Fuqarolik ishlari bo‘yicha Toshkent shahar Mirobod tumanlararo sudi o‘z binosida, ochiq sud majlisida raislik etuvchi sudya (F.I.Sh.), (F.I.Sh.)ning kotibligida, arizachi (F.I.Sh.) ning hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish haqidagi arizasini ko‘rib chiqib, sud quyidagilarni

### **Aniqladi:**

Sudga (F.I.Sh.) hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish haqidagi arizasi bilan sudga murojaat qilgan.

Sud majlisida (F.I.Sh.) arizasini qo'llab quvvatlab, O'zbekiston Savdo-sanoat palatasi huzuridagi doimiy faoliyat ko'rsatuvchi sudi tomonidan javobgar (F.I.Sh.) dan o'zining foydasiga 3.000.000 so'm asosiy qarz, 300.000 so'm hakamlik yig'imi va 5.000 so'm pochta harajatlari undirish to'g'risidagi da'vo arizasi yuzasidan 10-7/10-07-0087-sonli hakamlik ishi bo'yicha 2017-yil 29-mart kuni bilan hal qiluv qarori qabul qilinganligini, hakamlik sudining hal qiluv qarorini javobgar ham olganligini, javobgar ko'rsatilgan muddatda va uning tomonidan bir necha bor qilgan murojaatlarini inobatga olinmay paysalga solib kelayotganini bayon qilib, arizasini qanoatlantrishni hamda "Hakamlik sudsleri to'g'-risida"gi Qonuning 50-moddasiga asosan Hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqha berishni so'radi.

Sudga javobgar (F.I.Sh.) tegishli tartibda ogohlantirilgan bo'lishiga qaramasdan noma'lum sabablarga ko'ra kelmaganligi va kelmaslik sabablarini sudga ma'lum qilmaganligi sud mazkur ishni javobgar (F.I.Sh.) ning ishtirokisiz ko'rib chiqishni lozim deb topadi.

Sud arizachi (F.I.Sh.)ning ko'rsatmalarini tinglab, ish hujjatlari bilan tanishib chiqib va ularga huquqiy baho bergan holda quyidagi xulosaga keladi.

Aniqlanishicha, O'zbekiston Savdo-sanoat palatasi huzuridagi doimiy faoliyat ko'rsatuvchi hakamlik sudi tomonidan ko'rilgan 2017-yil 29-mart kungi hal qiluv qaroriga asosan, javobgar (F.I.Sh.)dan da'vogar (F.I.Sh.) ning foydasiga jami 3.305.000 so'm undirilgan.

FPKning 354-moddasiga asosan, hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqha berish to'g'risidagi masala hakamlik sudining hal qiluv qarori hakamlik muhokamasi taraflaridan qaysi birining foydasiga chiqarilgan bo'lsa, o'sha tarafning arizasiga binoan sud tomonidan ko'rib chiqiladi.

Hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqha berish to'g'risidagi ariza qarzdor yashaydigan joydagi yoki joylashgan yerdagi yoxud, agar qarzdor yashaydigan joy yoki joylashgan yer noma'lum bo'lsa, uning mol-mulki turgan joydagi sudga beriladi.

FPKning 356-moddasiga muvofiq, hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to'g'risidagi ariza FPKda nazarda tutilgan qoidalarga binoan suda tomonidan yakka tar-tibda ko'rib chiqiladi.

Sud hakamlik muhokamasi taraflarini sud majlisining vaqt va joyi to'g'risida xabardor qiladi. Sud majlisining vaqt va joyi haqida tegishli

tarzda xabardor qilingan mazkur shaxslarning kelmaganligi ishni ko'rib chiqish uchun to'sqinlik qilmaydi.

Sud, da'vogarning arizasi va taqdim etilgan materiallarni o'rganib chiqib, shuningdek, hakamlik sudining qarori amaldagi fuqarolik protses-sual qonunchilik talablariga muvofiq chiqarilganligini inobatga olib, arizani qanoatlantirib, hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berishni lozim deb hisoblaydi.

Shuningdek, FPKning 138-moddasiga ko'ra, hal qiluv qarori qaysi taraflning foydasiga chiqarilgan bo'lsa, sud shu tarafga ikkinchi tarafdan, garchi bu taraf davlat daromadiga tushadigan sud xarajatlarini to'lashdan ozod etilgan bo'lsa-da, ish bo'yicha qilingan hamma xarajatlarni undirib beradi.

Bunday holatda sud, javobgar (F.I.Sh.)dan da'vogar (F.I.Sh.)ning foydasiga sudga hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish haqidagi ariza bilan murojaat qilganligi uchun to'langan 348.800 so'm miqdoridagi davlat bojini undirishni lozim deb topadi.

Yuqoridagilarga binoan FPKning 138, 271-272, 356, 358-moddalarini qo'llab, sud

### **Ajrim qiladi:**

(F.I.Sh.)ning hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish haqidagi arizasi - qanoatlantirilsin.

O'zbekiston Savdo-sanoat palatasi huzuridagi doimiy faoliyat ko'rsatuvchi hakamlik sudining da'vogar (F.I.Sh.)ning javobgar (F.I.Sh.)ga nisbatan qarz undirish haqidagi 2017-yil 29-martdagi 10-7/10-0087-sonli hal qiluv qaroriga asosan ijro varaqasi berilsin.

Javobgar (F.I.Sh.)dan da'vogar (F.I.Sh.)ning foydasiga sudga hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish haqidagi ariza bilan murojaat qilganlik uchun to'langan 348.800 so'm miqdoridagi davlat boji undirilsin.

Ajrimdan norozi tomonlar hakamlik sudining hal qiluv qarorini bekor qilish to'g'risidagi ushbu ajrim ustidan shu sud orqali Toshkent shahar sudiga xususiy shikoyat berishi yoki prokuror tomonidan xususiy protest keltirilishi mumkin.

Raislik etuvchi sudyasi:

imzo

(F.I.Sh.)

## **NAZORAT UCHUN SAVOLLAR**

1. Hakamlik sudining hal qiluv qarorini bekor qilish to‘g‘risidagi arizani ko‘rib chiqishning protsessual tartibi haqida nimalarni bilasiz? Fikringizni asoslanlantiring?
2. Hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to‘g‘risidagi ariza va unga qanday hujjatlar ilova qilinadi?
3. Hakamlik sndlari tomonidan qanday hujjatlar qabul qilinadi?
4. Hakamlik sudining hal qiluv qarori nechta tarkibiy qismlarga ajratiladi?

## **9-MAVZU. FUQAROLIK ISHLARI BO‘YICHA SUD HUJJATLARINI QAYTA KO‘RISHDAGI PROTSESSUAL HUJJATLAR**

### **1-§. Apellatsiya instansiyasi sudida ish yuritishdagi protsessual hujjatlar**

Apellatsiya instansiyasi sudida ish yuritish uchun asos apellatsiya shikoyati (protesti) hisoblanadi. Apellatsiya shikoyati (protesti) apellatsiya instansiyasi sudi nomiga yo‘llanadi, lekin hal qiluv qarorini, ajrimni, qarorni chiqqargan sudga beriladi.

Apellatsiya shikoyati (protesti) sudga ishda ishtirok etuvchi shaxslarning soniga qarab ko‘chirma nusxalari bilan birga taqdim etiladi, bundan elektron hujjat tarzida yuboriladigan apellatsiya shikoyati (protesti) mustasno.

Zarur hollarda, suda apellatsiya shikoyati bergan shaxsning yoki apellatsiya protesti keltirgan prokurorning zimmasiga apellatsiya shikoyatiga yoxud protestiga ilova qilingan yozma materiallarning ko‘chirma nusxalarini ishda ishtirok etuvchi shaxslarning soniga qarab taqdim etish majburiyatini yuklatishi mumkin.

FPKning 386-moddasida protsessual hujjat sifatida apellatsiya shikoyatining (protestining) mazmuniga qo‘yilgan talablar aks etgan bo‘lishi kerak.

Apellatsiya shikoyatini shikoyat berayotgan shaxs yoki uning vakili imzolaydi. Apellatsiya protestini mazkur ishda ishtirok etgan-etmaganligidan qat’i nazar, prokuror yoki uning o‘rnbosari keltiradi va imzolaydi.

Apellatsiya shikoyatida (protestida) shikoyatni (protestni) berган shaxsning yoxud uning vakilining telefonlari va fakslari raqamlari, elektron pochta manzili ko‘rsatilishi mumkin.

---

#### **FPKning 387-moddasiga ko‘ra, apellatsiya shikoyatiga quyidagilar ilova qilinadi:**

davlat boji to‘langanligini tasdiqlovchi hujjat;

apellatsiya shikoyati vakil tomonidan imzolangan taqdirda – uni imzolashga vakinning vakolatlarini tasdiqlovchi hujjat.

Sudning arizani qaytarish haqidagi yoki arizani qabul qilishni rad etish to‘g‘risidagi ajrimi ustidan apellatsiya shikoyatiga (protestiga) qaytarilgan ariza va unga qo‘sib berilgan hujjatlar ham ilova qilinishi kerak.

## Apellatsiya shikoyati namunasi

Fuqarolik ishlari bo'yicha Toshkent  
shahar sudiga

Shikoyatchi: (F.I.Sh.) Manzil:  
Toshkent shahar, Shayxontohur tumani,  
Tinchlik ko'chasi, 23-uy.

### **APELLATSIYA SHIKOYATI**

(Fuqarolik ishlari bo'yicha Uchtepa tumanlararo sudi 2019-yil  
15-oktabrdagi hal qiluv qaroriga nisbatan)

Fuqarolik ishlari bo'yicha Uchtepa tumanlararo sudi 2019-yil 15-oktabrda mening javobgar Chilonzor tuman davlat soliq inspeksiyasidan ishga tiklash va majburiy prokul uchun yetkazilgan moddiy zararlarni undirishni so'rab yozgan da'vo talablarimni rad qilish to'g'-risida hal qiluv qarori qabul qildi.

Ushbu qaror quyidagilarga ko'ra asossiz va noqonuniydir:

Sud bir tomonlama ya'ni javobgarning manfaatlarini hisobga olib ish olib bordi, sud ishni ko'rib chiqishda uning foydasiga hal bo'l-maydigan va mening e'tirozlarimni inkor etadigan holatlarni hisobga oldi va oqibatda asossiz ravishda da'vo arizani rad etish to'g'-risida hal qiluv qarori chiqardi.

Ma'muriyat tomonidan ishdan bo'shatish buyrug'ini chiqarish vaq-tida mening mehnat ta'tilim va kasallik varaqam bor edi, sud ishni ko'rishda O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 100-moddasi ikkinchi qismi 4-bandi talablariga zid holatda ishdan bo'shatishga baho bermadi, ishdan bo'shatishda kasaba uyushmasining roziligi olinmagan, sudning hal qiluv qarori FPKning bir qator moddalari talabi buzilgan holda chiqarilgan.

Yuqoridagilarga ko'ra, Fuqarolik ishlari bo'yicha Uchtepa tumanlararo sudining 2019-yil 15-oktabrdagi hal qiluv qarorini bekor qilib, yangi hal qiluv qarori chiqarishingizni so'rayman.

Ilova: apellatsiya shikoyatining nusxasi; davlat boji to'langanligi to'g'-risidagi kvitansiya; 2019-yil 15-oktabrdagi sudning hal qiluv qarori nusxasi.

2019-yil 20-oktabr

imzo

(F.I.Sh.)

Apellatsiya instansiysi sudida apellyatsiya shikoyatini (pro-testini) harakatsiz qoldirish, ish yuritishni to'xtatib turish, tugatish kabi ajrimlar ham chiqarilishi mumkin.

## **Apellatsiya instansiysi sudining ajrim nusxasi**

Ma'ruzachi: sudya (F.I.Sh.)

### **AJRIM № 3-989/18**

2018-yil aprel oyining 2-kuni fuqarolik ishlari bo'yicha Toshkent shahar sudi appellatsiya instansiysi, ochiq sud majlisida raislik etuvchi (F.I.Sh.), hay'at a'zolari (F.I.Sh.), (F.I.Sh.)lardan iborat tarkibda, (F.I.Sh.)ning kotibligida, Toshkent shahar prokurori yordamchisi (F.I.Sh.) va advokat (F.I.Sh.) ishtirokida da'vogar (F.I.Sh.)ning javobgar (F.I.Sh.)ga nisbatan nikohdan ajratish haqidagi da'vo arizasi yuzasidan fuqarolik ishlari bo'yicha Mirobod tumanlararo sudining 2018-yil 2-martdag'i hal qiluv qaroriga nisbatan da'vogar tomonidan keltirilgan appellatsiya shikoyatini ko'rib, sudlov hay'ati

#### **Aniqladi:**

Da'vogar (F.I.Sh.) javobgar (F.I.Sh.)ga nisbatan nikohdan ajratish haqidagi da'vo arizasi bilan sudga murojaat qilgan.

Fuqarolik ishlari bo'yicha Mirobod tumanlararo sudining 2018-yil 2-martdag'i hal qiluv qaroriga asosan da'vo arizani qanoatlantirish rad qilingan.

Mazkur hal qiluv qaroriga nisbatan da'vogar (F.I.Sh.) tomonidan appellatsiya shikoyati keltirilib, unda hal qiluv qarorini bekor qilish talabi qo'yilgan.

Appellatsiya instansiya sudi ish bo'yicha ma'ruzani, prokurorning hal qiluv qarorini o'zgarishsiz qoldirish haqidagi fikrini va taraflar bayonotini tinglab, shikoyatda keltirilgan vajlarni ish materiallari asosida ko'rib chiqib, quyidagi to'xtamga keladi.

FPKning 396-moddasiga ko'ra, sud ishni appellatsiya tartibida ko'rayotganida birinchi instansiya sudining hal qiluv qarori qay darajada qonuniy, asosli vaadolatli ekanligini tekshiradi. U yangi dalillarni o'rganib chiqishi va yangi faktlarni aniqlashi mumkin.

Birinchi instansiya sudi tomonidan aniqlanishicha, (F.I.Sh.) va (F.I.Sh.)lar 2010-yil 13-avgustda qonuniy nikohdan o'tib turmush quraganlar.

O'zaro turmushlaridan ikki nafar: 2010-yilning 16-martida tug'ilgan (F.I.Sh.) va 2011-yilning 24-mayida tug'ilgan (F.I.Sh.) ismli farzandlari bor. Oiladagi kelishmovchiliklar natijasida taraflar 2017-yil mart oyidan boshlab birga yashamaydilar.

O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 41-moddasiga ko'ra, agar sud er va xotinning bundan buyon bиргаликда yashashiga va oilani saqlab qolishga imkoniyat yo'q deb topsa, ularni nikohdan ajratadi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining 2011-yil 20-iyul-dagi “Sudlar tomonidan nikohdan ajratishga oid ishlar bo‘yicha qonunchilikni qo‘llash amaliyoti to‘g‘risida”gi 6-sonli qarorining 16-bandи 2-qismida tushuntirilishicha, turmushda kechadigan vaqtinchalik kelishmovchiliklar va tasodifiy sabablarga ko‘ra er-xotin o‘rtasida kelib chiqqan ixtiloflar, shuningdek er-xotindan biri yoki har ikkalasining jiddiy vajlar keltirmagan holda nikoh munosabatlarini davom ettirishni xohlamasligi nikohdan ajratish uchun yetarli asos bo‘la olmaydi. Nikohdan ajratishga asoslar bo‘limganda, sud da‘voni rad etadi.

Birinchi instansiya sudi taraflarning 2017-yil mart oyiga qadar birga yashaganlarini, munosabatlari yaxshi bo‘lganligini, oilaning barbod bo‘lganligini tasdiqlovchi holatlar mavjud emasligini, ikki nafar farzandlari borligini, oilani saqlab qolishning imkoniyati bor ekanligiga huquqiy baho bergen holda da‘vo arizani rad qilishni lozim topgan.

Apellatsiya shikoyati vajlarini muhokama qilgan sudlov hay’ati ularni asossiz deb hisoblaydi va hal qiluv qarorini o‘zgarishsiz qoldirishni lozim topadi.

FPKning 399-moddasining 1-bandiga ko‘ra, sud ishmi apellatsiya tartibida ko‘rib chiqqach, o‘z ajrimi bilan hal qiluv qarorini o‘zgarishsiz qoldirishga shikoyat yoki protestni esa qanoatlantirmaslikka haqlidir.

Binobarin, FPKning 399-moddasi 1-bandini qo‘llab, sudlov hay’ati

#### **Ajrim qiladi:**

Fuqarolik ishlari bo‘yicha Mirobod tumanlararo sudining 2018-yil 2-martdagи mazkur fuqarolik ishi yuzasidan chiqarilgan hal qiluv qarori o‘zgarishsiz, apellatsiya shikoyati qanoatlantirilmasdan qoldirilsin.

Raislik etuvchi: imzo (F.I.Sh.)

Hay’at a’zolari: imzo (F.I.Sh.)

imzo (F.I.Sh.)

### **2-§. Kassatsiya instansiyasi sudida ish yuritishdagi protsessual hujjatlar**

Taraflar va ishda ishtirok etishga jalb qilingan boshqa shaxslar, shuningdek ishda ishtirok etishga jalb qilinmagan, ammo huquq va majburiyatlar haqidagi masala sud tomonidan hal etilgan shaxslar sudning qonuniy kuchga kirgan, apellatsiya tartibida ko‘rilmagan hal qiluv qarori ustidan u qonuniy kuchga kirgan kundan e’tiboran

**olti oy ichida** kassatsiya tartibida shikoyat qilishi va prokuror protest keltirishi mumkin.

Kassatsiya shikoyatini shikoyat berayotgan shaxs yoki uning vakili imzolaydi. Kassatsiya protestini mazkur ishda ishtirok etgan-etmaganligidan qat'i nazar, prokuror yoki uning o'rnibosari keltiradi va imzolaydi.

Kassatsiya shikoyatida (protestida) shikoyatni (protestni) bergen shaxsning yoxud uning vakilining telefonlari va fakslari raqamlari, elektron pochta manzili ko'rsatilishi mumkin.

---

***FPKning 407-moddasiga ko'ra kassatsiya shikoyatiga quyidagi hujjatlar ilova qilinadi:***

davlat boji to'langanligini tasdiqlovchi hujjat;

kassatsiya shikoyati vakil tomonidan imzolangan hollarda, uni imzolashga vakilning vakolatlarini tasdiqlovchi hujjat.

Sudning arizani qaytarish haqidagi yoki arizani qabul qilishni rad etish to'g'risidagi ajrimi ustidan kassatsiya shikoyatiga (protestiga) qaytarilgan ariza va unga qo'shib berilgan hujjatlar ham ilova qilinishi kerak.

---

### **Kassatsiya shikoyati namunasi**

Fuqarolik ishlari bo'yicha Toshkent shahar sudiga

Shikoyatchi: (F.I.Sh.)

Manzil: Toshkent shahar ,Yunusobod Tumani, 10- mavze, 2-uy

#### **KASSATSIYA SHIKOYATI**

(Fuqarolik ishlari bo'yicha Toshkent shahar Mirzo Ulug'bek tumanlararo sudining 2018-yil 4-yanvar kunidagi hal qiluv qaroriga nisbatan)

Men sudga ariza bilan murojaat qilib, yuridik ahamiyatga ega bo'lgan qarindoshlik faktini belgilashni so'raganman.

Fuqarolik ishlari bo'yicha Toshkent shahar Mirzo Ulug'bek tumanlararo sudining 2018-yil 4-yanvar kunidagi hal qiluv qaroriga asosan ari-zam qanoatlantirilmadi.

1983-yil 21-sentabr kuni vafot etgan marhuma (F.I.Sh.) 1931-yil tug‘ilgan (F.I.Sh.)ning opasi ekanligi haqidagi qarindoshlik fakti belgilangan.

Aniqlangan holatlarga ko‘ra, Toshkent shahar, Yunusobod tumani, 4-Magnitagorsk ko‘chasi, 23-uy 1947-yil 7-iyuldagi 1411-sonli qurilish shartnomasiga asosan fuqaro (F.I.Sh.)ga qurilish uchun ajratilgan.

Turar joy mulkdori (F.I.Sh.) 1983-yilda vafot etgan. (F.I.Sh.) ning turmush o‘rtog‘i (F.I.Sh.) ning o‘lim guvohnomasini topish imkonibο‘l-madi.

1956-yil 13-iyun kunida 74-son bilan qayd qilingan dalolatnama yozuviga asosan (F.I.Sh.) va men (F.I.Sh.) qonuniy nikohdan o‘tib oila qurganmiz.

Turar joy mulkdori (F.I.Sh.)ning farzandlari bo‘lmagan, umrining oxiriga qadar mening oilam qaramog‘ida bo‘lganligi haqida mahalla qo‘mitasidan dalillar taqdim qilingan.

Birinchi instansiya sudi mening meros mulkini rasmiylashtirish imkonibο‘l-maganligi, chunki turmush o‘rtog‘im (F.I.Sh.) va mulkdori (F.I.Sh.)larning tug‘ilganlik guvohnomalarini topilmaganligini inobatga olmadи.

Birinchi instansiya sudi “Meros olish maqsadida qarindoshlik muno-sabatlarini belgilashda sudlar vorislik huquqi qonun-qoidalari bilan o‘r-natiladigan qarindoshlik doirasidan kelib chiqishlari kerak. Qonun bo‘yicha yoki vasiyat bo‘yicha voris bo‘lmagan shaxslarning qarindoshlik munosabatlari yuridik ahamiyatga ega emas va ularning qarindoshlik munosabatlari fakti sud tomonidan belgilanishi mumkin emas” deb arizamni rad etdi.

Yuqoridagilarga asosan, sizlardan

### **SO‘RAYMAN**

Birinchi instansiya sudining mazkur fuqarolik ishi bo‘yicha qabul qilgan hal qiluv qarorini bekor qilishni va fuqarolik ishini boshqa tar-kibda qayta ko‘rish uchun birinchi instansiya sudiga yuborishni.

2018-yil 4-mart

imzo

(F.I.Sh.)

### **Kassatsiya instansiyasi sudining ajrimi namunasi**

Ma’ruzachi: sudya (F.I.Sh.)

**AJRIM 4-61/14**

2018-yil aprel oyining 7-kuni fuqarolik ishlari bo'yicha Toshkent shahar sudi kassatsiya instansiysi, ochiq sud majlisida raislik etuvchi (F.I.Sh.), hay'at a'zolari (F.I.Sh.), (F.I.Sh.)lardan iborat tarkibda, (F.I.Sh.)ning kotibligida, tomonlardan Toshkent shahar prokurori yordamchisi (F.I.Sh.), advokat (F.I.Sh.), (F.I.Sh.), (F.I.Sh.)lar ishtirokida da'vogar (F.I.Sh.), (F.I.Sh.), (F.I.Sh.)ning javobgar (F.I.Sh.)ga nisbatan uyga kiritish va foydalanish tartibini belgilash haqidagi da'vo arizasi, da'vogar (F.I.Sh.) ning javobgar (F.I.Sh.)ga nisbatan umumiy mol-mulkning  $\frac{1}{2}$  qismiga egalik huquqini va foydalanish tartibini belgilash haqidagi qo'shimcha da'vo arizasi, da'vogar (F.I.Sh.)ning ja-vobgar (F.I.Sh.)ga nisbatan umumiy mol-mulkni bo'lish haqidagi hamda javobgarlar (F.I.Sh.), (F.I.Sh.), (F.I.Sh.) nisbatan uy-joydan foydalanish huquqini yo'qtotgan deb topish haqidagi qarshi da'vo arizalari bo'yicha yuritilgan fuqarolik ishi yuzasidan fuqarolik ishlari bo'yicha Shayxontohur tumanlararo sudining 2018-yil 21-yanvar kunidagi hal qiluv qaroriga nisbatan javobgar (F.I.Sh.) tomonidan keltirilgan kassatsiya shikoyatini ko'rib chiqib, quyidagilarni

#### **Aniqladi:**

Da'vogar (F.I.Sh.), (F.I.Sh.), (F.I.Sh.), (F.I.Sh.)lar javobgar (F.I.Sh.) ga nisbatan uyga kiritish va foydalanish tartibini belgilash haqidagi da'vo arizasi bilan sudga murojaat qilganlar.

Da'vogar (F.I.Sh.) javobgar (F.I.Sh.) ga nisbatan umumiy mol-mulkning  $\frac{1}{2}$  qismiga egalik huquqini va foydalanish tartibini belgilash haqidagi qo'shimcha da'vo arizasi bilan sudga murojaat qilgan.

Da'vogar (F.I.Sh.) javobgar (F.I.Sh.)ga nisbatan umumiy mol-mulkni bo'lish haqidagi, javobgarlar (F.I.Sh.), (F.I.Sh.), (F.I.Sh.)ga nisbatan uy-joydan foydalanish huquqini yo'qtotgan deb topish haqidagi qarshi da'vo arizasi bilan sudga murojaat qilgan.

Fuqarolik ishlari bo'yicha Shayxontohur tumanlararo sudining 2018-yil 21-yanvardagi hal qiluv qaroriga asosan da'vogarlar (F.I.Sh.), (F.I.Sh.), (F.I.Sh.), (F.I.Sh.)ning uyga kiritish va foydalanish tartibini belgilash haqidagi da'vo arizasi qisman qanoatlantirilgan.

Da'vogarlar (F.I.Sh.) olti nafar farzandlari – (F.I.Sh.), (F.I.Sh.), (F.I.Sh.), (F.I.Sh.), (F.I.Sh.)lar bilan birligida Toshkent shahar, Olmazor tumani, Tansiqboyeva-1 dahasi, 5-uy, 4-xonadonga kiritib qo'yilganlar va uy-joydan umumiy foydalanish tartibi belgilangan.

Da'vo arizaning kamida uchta xonasini foydalanish uchun biriktirish qismi rad qilingan.

Da'vogar (F.I.Sh.)ning javobgarlar (F.I.Sh.), (F.I.Sh.), (F.I.Sh.), (F.I.Sh.)ga nisbatan uy-joydan foydalanish huquqini yo'qtotgan deb topish haqidagi qarshi da'vo arizasi qanoatlantirishdan rad qilingan.

Mazkur hal qiluv qaroriga nisbatan javobgar (F.I.Sh.) tomonidan cassatsiya shikoyati keltirilib, shikoyatda hal qiluv qarorini bekor qilish va ishni yangitdan ko‘rish uchun qaytarishni so‘ragan.

Kassatsiya sudlov hay’ati majlisida da’vogar (F.I.Sh.), (F.I.Sh.) va (F.I.Sh.)larning ishonchli vakili (F.I.Sh.) kassatsiya shikoyatini tan olmasdan, uni rad qilishni so‘radi.

Kassatsiya sudlov hay’ati majlisida javobgar (F.I.Sh.) kassatsiya shikoyatini quvvatlab, uni qanoatlantirishni so‘radi.

Sudlov hay’ati mazkur fuqarolik ishi bo‘yicha ma’ruzachi suda (F.I.Sh.)ning ma’ruzasini, Toshkent shahar prokurori yordamchisi (F.I.Sh.)ning kassatsiya protestini quvvatlab bergen fikrini va advokatlar fikrini tinglab, ish hujjatlarini tahlil qilib quyidagi xulosaga keladi.

FPKning 416-moddasiga asosan sud ishni kassatsiya tartibida ko‘rayotganida sud hujjatlarining qonuniyligi, asoslantirilganligi va adolatlilikini tekshiradi. Sud yangi dalillarni o‘rganib chiqishi va yangi fakt-larni aniqlashi mumkin.

Aniqlangan holatlarga ko‘ra, da’vogar (F.I.Sh.) javobgar (F.I.Sh.) bilan 1989-yil 10-iyunda qonuniy nikohdan o‘tib turmush qurishgan. Ularning birgalikdagi turmushlaridan olti nafar farzandlari bor: 1990-y.t. (F.I.Sh.), 1992-y.t. (F.I.Sh.), 1993-y.t. (F.I.Sh.), 1996-y.t. (F.I.Sh.), 2006-y.t. (F.I.Sh.) va 2008-y.t. (F.I.O.).

Taraflar turmushlari davomida Toshkent shahar, Olmazor tumani, Tansiqboyev 1-mavze, 5-uy, 4-xonadonda yashaganlar. Mazkur turar joy 2002-yil 7-martda tasdiqlangan vasiyatnomaga bo‘yicha vorislik haqidagi guvohnomaga asosan javobgar (F.I.Sh.) ga tegishli.

Oilada kelib chiqqan kelishmovchiliklar natijasida da’vogar (F.I.Sh.) farzandlari bilan 2010-yilning iyun oyida nizoli uydan chiqib ketishga majbur bo‘lgan. O‘zbekiston Respublikasi Uy-joy kodeksining 32-moddasiga asosan uy, kvartira mulkdorining oila a’zolari, shuningdek, u bilan doimiy yashayotgan fuqarolar, agar ularni ko‘chirib kelgan paytda yozma ravishda boshqa hol qayd etilgan bo‘lmasa, uydagi, kvartiradagi xonalardan mulkdor bilan teng foydalanishga haqlidirlar.

Turar joy mulkdorining oila a’zolari deb u bilan doimiy birga yashayotgan xotini (eri) va ularning farzandlari tan olinadi. Er-xotinning ota-onasi, shuningdek, mulkdor bilan doimiy yashayotgan oilali farzandlari, agar ilgari bu huquqqa ega bo‘lмаган bo‘lsalar, faqat o‘zar kelishuvga binoan mulkdorning oila a’zosi deb tan olinishlari mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining 2001-yil 14-sentabrdagi “Uy-joy nizolari bo‘yicha sud amaliyoti haqida”gi 22-sonli qarorining 5-bandи uchinchi va to‘rtinchi qismilariga ko‘ra, uyga yashash uchun kiritish hamda turar-joydan foydalanishga bo‘lgan huquqini

yo‘qotgan deb topish to‘g‘risidagi da’volarni hal etishda sud turar-joyga da’vo qiluvchi shaxs O‘zbekiston Respublikasi Uy-joy kodeksining 32-moddasi 2 va 3-qismlarida qayd etilgan shaxslar safiga kirishi yoki boshqa asos bo‘yicha uyda yashashga bo‘lgan huquqiy holatlarini, qan-day sabablarga ko‘ra yashamayotganligini va da’voni to‘g‘ri hal qilish uchun ahamiyatga ega bo‘lgan boshqa holatlarni aniqlashlari lozim.

Da’vogar (F.I.Sh.) ushbu turar joyda 1990-yildan 10-apreldan beri doimiy ravishda farzandlari bilan ro‘yxatdan o‘tgan holda mulkdor (F.I.Sh.) ning oila a’zosi sifatida yashab, foydalanib kelgan.

Birinchi instansiya sudi mazkur holatlarga huquqiy baho bergan holda da’vogarlar (F.I.Sh.), (F.I.Sh.), (F.I.Sh.)larning uyga kiritish haqidagi talablarini asosli degan xulosaga kelib, uni qanoatlan-tirishni lozim topgan va turar joyni umumiy foydalanishga qoldirgan. Apellatsiya instansiyasi ushbu xulosalar bilan kelishadi.

Da’vogarlarning uy-joyning kamida uchta xonasini biriktirish haqidagi da’vo talablarini muhokama qilgan birinchi instansiya sudi bu talablar bilan kelishmagan va uni rad qilgan. Apellatsiya sudlov hay’ati ushbu xulosalar bilan kelishgan holda turar joy ulushli mulk bo‘lma-ganligi sababli uchta xonasini biriktirib foydalanish tartibi belgilanishi mulkdorning huquq va manfaatlariga zid bo‘lishini ta’kidlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Uy-joy kodeksining 52-moddasiga muvoifiq, munitsipal, idoraviy uy-joy fondi va aniq maqsadli kommunal uy-joy fondining uylaridagi turar joyni ijaraga oluvchi, uning oila a’zolari yoki ijaraga oluvchi bilan doimiy yashayotgan fuqarolar vaqtincha bo‘lmaganida turar joy olti oy muddat davomida ularning hisobida saqlanib turadi. Javobgar (F.I.Sh.) farzandlari bilan nizoli turar joy ro‘yxatiga mulkdorining roziligi bilan kiritilgan. Mulkdorning oila a’zosi hisoblanadilar. Mazkur holatlardan kelib chiqqan birinchi instansiya sudi da’vogar (F.I.Sh.) ning uy-joydan foydalanish huquqini yo‘qotgan deb topish haqidagi qarshi da’vo talablarini rad qilishini lozim topgan.

Kassatsiya sudlov hay’ati tomonidan nizoli turar joyning xususiyashtirish hujjatlari olib o‘rganilganda, turar joyni xususiyashtirishda da’vogar (F.I.Sh.) ishtirot etganligi, uning farzandi (F.I.Sh.) esa doimiy ro‘yxatda turganligi aniqlandi. Garchi turar joyga nisbatan vorislik guvohnomasi rasmiyashtirilgan bo‘lsa-da, kadastr xizmati ma’lumotiga qaraganda ushbu guvohnoma davlat ro‘yxatidan o‘tkazilmagan. Ya’ni turar joyga to‘liq mulk huquqi vujudga kelmagan.

Mazkur holatni ham inobatga olgan sudlov hay’ati birinchi instansiya sudining xulosalari bilan kelishadi.

FPKning 419-moddasiga asosan, sud ishni kassatsiya tartibida ko‘rib chiqqach, o‘z ajrimi bilan hal qiluv qarorini o‘zgarishsiz qoldirishga, shi-

koyat yoki protestni esa qanoatlantirmaslikka haqlı.

Yuqoridagilarga asosan va FPKning 378, 419-moddasiga amal qilib sudlov hay'ati

**Ajrim qiladi:**

Mazkur fuqarolik ishi bo'yicha Toshkent shahar Shayxontohur tumanlararo sudining 2018-yil 21-yanvar kunidagi hal qiluv qarori o'zgarishsiz, cassatsiya shikoyati qanoatlantirilmasdan qoldirilsin.

Raislik etuvchi: imzo (F.I.Sh.)

Hay'at a'zolari: imzo (F.I.Sh.)

imzo (F.I.Sh.)

### **3-§. Nazorat instansiysi sudida ish yuritishdagi protsessual hujjatlar**

Apellatsiya yoki cassatsiya tartibida ko'rilgan ishlar bo'yicha sud hujjatlari ustidan FPKning 373-moddasida ko'rsatilgan shaxslar nazorat tartibida shikoyat qilishi mumkin.

Apellatsiya yoki cassatsiya tartibida ko'rilgan ishlar bo'yicha sud ajrimlari ustidan FPKda ularning ustidan shikoyat berish nazarida tutilgan hollarda, hal qiluv qaroridan alohida tarzda nazorat tartibida shikoyat qilinishi va ular qayta ko'riliishi mumkin.

Nazorat tartibidagi shikoyat birinchi instansiya sudining hal qiluv qarori, ajimi, qarori qonuniy kuchga kirgan kundan e'tiboran **bir yil ichida** bevosita O'zbekiston Respublikasi Oliy sudiga beriladi.

---

#### **Nazorat tartibidagi shikoyatda (protestda) quyidagilar ko'rsatilishi kerak:**

1) shikoyat (protest) berilayotgan nazorat instansiysi sudning nomi;

2) shikoyat (protest) berayotgan shaxsning familiyasi, ismi, otasining ismi (nomi), uning yashash joyi yoki joylashgan yeri (pochta manzili) va ishdagi protsessual holati;

3) ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarning familiyasi, ismi, otasining ismi (nomlari), ularning yashash joyi yoki joylashgan yeri (pochta manzili);

---

4) ishni birinchi, apellyatsiya yoki cassatsiya instansiysi bo'yicha ko'rgan sudlar va ular tomonidan qabul qilingan sud hujjatlarining mazmuni;

5) ustidan shikoyat qilinayotgan (protest keltirayotgan) sud hujjati;

6) sud hujjati nazorat tartibida qayta ko'rlishi uchun asoslar, bunday asoslar mavjudligidan dalolat beruvchi vajlar keltirilgan holda;

7) shikoyat (protest) berayotgan shaxsnинг iltimosi.

Ishda ishtirok etmagan shaxsnинг nazorat tartibidagi shikoyatida ustidan shikoyat qilinayotgan sud hujjati bilan uning qaysi huquqlari, erkinliklari yoki qonuniy manfaatlari buzilganligi ko'rsatilishi kerak.

Nazorat tartibidagi shikoyat uni bergen shaxs yoki uning vakili tomonidan imzolanishi kerak. Vakil tomonidan berilgan shikoyatga ishonchnoma yoki uning vakolatini tasdiqlovchi boshqa hujjat ilova qilinadi. Protest protest keltirgan mansabtor shaxs tomonidan imzolangan bo'lishi kerak.

Nazorat tartibidagi shikoyatga (protestga) ish bo'yicha qabul qilinigan sud hujjatlarining ko'chirma nusxalari ilova qilinadi.

Nazorat tartibidagi shikoyatga davlat boji to'langanligini tasdiqlovchi hujjat ham ilova qilinishi kerak.

### **Nazorat tartibida shikoyat namunasasi**

O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi  
raisiga

Shikoyatchi: (F.I.Sh.) Manzil: Toshkent  
shahar Mirobod tumani, 5-mavze, 2-uy

#### **NAZORAT TARTIBIDA SHIKOYAT**

(Toshkent shahar fuqarolik ishlari bo'yicha appellatsiya instansiyasining  
2018-yil 24-mayda chiqqargan ajrimiga nisbatan)

Fuqarolik ishlari bo'yicha Mirobod tumanlararo sudining ish yurituvida mening da'vo arizamga asosan erim (F.I.Sh.) bilan tuzilgan nikohni bekor qilish to'g'risidagi fuqarolik ishi bo'lib, bu ish bizga nomalum sabablarga ko'ra 2017-yil sentabr oyidan buyyon ko'rilmasdan keldi. Keyinchalik, ya'ni 2017-yil 10-noyabrda xabar olsam, suda yenga suda kelmag'anlik sababli hal qiluv qarori chiqarilganligini aytди.

Mazkur sudning hal qiluv qarori appellatsiya instansiyasida qayta ko'rilib, hal qiluv qarori o'zgarishsiz qoldirildi.

Sudning hal qiluv qarorini quyidagi asoslarga ko'ra bekor qilishin-gizni lozim deb hisoblayman:

Ish materiallariga ko'ra, sud javobgar (F.I.Sh.)ga bir necha marotaba chaqiruv xatlari jo'natilgan deyilgan bo'lsada, ammo chaqiruv xatlarini javobgar (F.I.Sh.)ning olganligi haqida biror-bir ma'lumot ko'rsatil-magan.

Sud esa fuqarolik ishini javobgar (F.I.Sh.)ning ishtirokisiz ko'rib, FPKning 40-moddasida ko'rsatilgan huquq va majburiyatlarini qo'pol ravishda buzganligi aniqlandi.

Shuning uchun ham, fuqarolik ishlari bo'yicha Mirobod tumanlararo sudining 2017-yil 24-maydagi arizani ko'rmasdan qoldirish to'g'risidagi ajrimi bilan kelishmasdan, FPKning 422, 426, 430-moddalariga asosan

#### **SO'RAYMAN:**

Ushbu fuqarolik ishi yuzasidan chiqarilgan hal qiluv qarori ustidan keltirilgan nazorat tartibidagi shikoyatni ko'rish uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining fuqarolik ishlari bo'yicha sudlov hay'atiga o't-kazish to'g'risidagi ajrim chiqarishingizni.

Hal qiluv qarorini bekor qilish va ishni yangidan ko'rish uchun biringchi instansiya sudiga yuborishingizni.

Ilova: sudining hal qiluv qaroridan nusxa; appellatsiya instansiyasi ajrimi; ish hujjatlaridan nuxxalar.

2019-yil 5 aprel

imzo

(F.I.Sh.)

Asosiy ish: № 1-1406/17

Sudya: (F.I.Sh.)

Nazorat ishi: № 5-165/18

Ma'ruzachi sudya: (F.I.Sh.)

#### **O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY SUDI RAYOSATINING QARORI № 5-165-18**

2018-yil 10-aprelda O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Rayosati majlisida raislik qiluvchi (F.I.Sh.), Rayosat a'zolari (F.I.Sh.), (F.I.Sh.), (F.I.Sh.) larning hay'atida O'zbekiston Respublikasi Bosh Prokuraturasi boshqarma prokurori (F.I.Sh.) ning ishtirokida ish yuzasidan Rayosat a'zosi (F.I.Sh.)ning ma'rzasini tinglab, da'vogar (F.I.Sh.) ning javobgar (F.I.Sh.)ga nisbatan sha'ni, qadr-qimmatini himoya qilish haqidagi fuqarolik ishi bo'yicha 2017-yil 15-avgustda Toshkent viloyati, fuqarolik ishlari bo'yicha Chirchiq tumanlararo sudi chiqargan ajrimiga O'zbekiston Respublikasi Bosh Prokurori o'rinbosari F.I.Shning keltirgan protesti ko'rilib, quyidagilar

#### **Aniqlandi:**

(F.I.Sh.) sudga da'vo arizasi bilan murojaat qilib, "Xumo" ro'znomasida javobgar (F.I.Sh.)ning maqolasi chop etilib, unda keltirilgan faktlarning asossiz ekanligini va bu uning sha'ni, qadr-qimmatini kamsitishga sababchi bo'lganligini ko'rsatib, O'zbekiston Respublikasi FKning 99-100-moddalariga ko'ra, o'z sha'ni, qadr-qimmatini himoya qilishini so'ragan.

Toshkent viloyati fuqarolik ishlari bo'yicha Chirchiq tumanlararo su-dining 2017-yil 15-avgustda chiqargan ajrimiga ko'ra, ushbu fuqarolik ishi ko'rmasdan qoldirilgan.

Ish appellatsiya tartibida ko'rilgan va o'zgarishsiz qoldirolgan.

Ish bo'yicha keltirilgan protestda sudning ajrimini bekor qilish to'g'-risidagi masala qo'yilgan bo'lib, bunga asos qilib da>vogarni sudga kelmaganlik sabablari aniqlanmaganligi ko'rsatilgan.

Oliy sud Rayosati majlisida ish materiallari atroflicha tekshirilib, protestda keltirilgan vajlar tahlil qilinib, prokuorning bayon qilingan fikri eshitilib, birinchi instansiya sudining chiqargan ajrimi bekor qili-nishi va ishni qayta ko'rishga yuborilib, protest qanoatlantirilishi lozim deb hisoblaydi.

Sudning fuqarolik ishini ko'rmasdan qoldirish to'g'risidagi ajrimida da>vogarning sudga kelmaganligi asos qilib ko'rsatilgan.

Ish materiallariga ko'ra da>vogar (F.I.Sh.) sudga 2017 yil 16-mayda murojaat qilgan bo'lishiga qaramay, sud FPKning 131-moddasiga xilof ravishda ishni 2017-yil 14-iyulda ko'rgan. Sud majlisida javobgar advokat yordamiga muhtojligini bildirgani uchun ish ko'rishni 2017-yil avgust oyining 15-kuniga qoldirgan.

Ishni sudda ko'rish asossiz ravishda kechiktirilib, 2017-yil 15-avgustga tayinlangan. Sud da>vogarni sud majlisiga kelmagan deb, ishni ko'rmasdan qoldirish to'g'risida ajrim chiqaradi. Lekin da>vogar (F.I.Sh.)ning 2017-yil 15-avgustda sudga chaqirilganligi biror-bir hujjat bilan tasdiqlanmagan.

Sud bu harakatlari bilan FPKning 156–165-moddalariga xilof ish tutgan, bundan tashqari, FPKning 220-moddasida ko'rsatilganidek, ishda ishtirok etuvchi shaxslardan birortasi sud majlisiga kelmagan taqdirda ularga sudning chaqiruv qog'ozni yoki boshqa xabarnomalar topshirilganligi (yetkazib berilganligi) to'g'risidagi ma'lumot mavjud bo'lmasa, sud ish muhokamasini keyinga qoldirishi lozimligi to'g'risidagi qoidaga rioya qilmagan va da>vogarning 2017-yil 15-avgustda sudga nima sababdan kelmaganligi to'liq aniqlanmay, ushbu fuqarolik ishini asossiz ravishda ko'rmasdan qoldirgan deb hisoblab, Oliy sud Rayosati ajrimni bekor qilishni lozim deb topadi.

Kelgusida ishni qayta mazmunan ko‘rishda, taraflarni ishga jalgilgan holda, ularning vajlarini qonun talablariga ko‘ra tekshirib, ishda to‘plangan dalillar va hujjatlarga tayanib, nizoli ish hal etilmog‘i lozim.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Rayosati yuqoridagilarga ko‘ra va FPKning 436-moddasiga asosan

**Qaror qiladi:**

O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori o‘rinbosari keltirgan protesti qanoatlanТИrlisin.

Toshkent viloyati fuqarolik ishlari bo‘yicha Chirchiq tumanlararo sudining 2017-yil 15-avgustda da’vogar (F.I.Sh.)ning javobgar (F.I.Sh.) ga nisbatan shani, qadr-qimmatini himoya qilish haqidagi fuqarolik ishi bo‘yicha chiqargan ajrimi bekor qilinsin va ishni boshqa tarkibda qayta ko‘rish uchun ushbu tumanlararo sudiga yuborilsin.

Raislik qiluvchi:

imzo

(F.I.Sh.)

#### **4. Qonuniy kuchga kirgan sud hujjatlarini yangi ochilgan holatlar bo‘yicha qayta ko‘rish jarayonidagi protsessual hujjatlar**

**O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 437-moddasi talabiga binoan quyidagi asoslardan biri mavjud bo‘lgan taqdirdagina qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarorlari, ajrim-lar va qarorlar yangi ochilgan holatlar bo‘yicha qayta ko‘riliши mumkin:**

1) arizachiga noma'lum bo‘lgan va ma'lum bo‘lishi mumkin bo‘lmagan, lekin ish uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan holatlar, agar ular ishni to‘g‘ri hal qilish uchun ahamiyatga ega bo‘lsa;

2) sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi bilan aniqlangan, qonunga xilof, asossiz yokiadolatsiz qaror chiqarilishiga sabab bo‘lgan holatlar, ya’ni guvohning bila turib bergen yolg‘on ko‘rsatuvi, ekspertning bila turib bergen yolg‘on xulosasi, atayin noto‘g‘ri qilingan tarjima, qalbaki hujjatlar yoki ashovyiy dalillar;

3) taraflarning, ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarning yoki sudyalarning mazkur ish bo‘yicha qonunga xilof, asoslantirilmagan yoxud adolatsiz sud hujjati qabul qilinishiga sabab bo‘lgan, sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi bilan aniqlangan jinoiy qilmishlari;

4) sud hal qiluv qarorining, hukmining, ajrimining yoki qarorining yoxud shu hal qiluv qarori, ajrim va qaror chiqarilishiga sabab bo‘lgan boshqa organ qarorining bekor qilinishi.

Yangi ochilgan holatlar bo‘yicha hal qiluv qarori, ajrim yoki qarorni qayta ko‘rish haqidagi ariza hal qiluv qarorini, ajrimni yoxud qarorni chiqargan sudga ishda ishtirok etgan shaxslar yoki prokuror tomonidan beriladi. Ishda ishtirok etuvchi shaxslar bunday arizani hal qiluv qarorini, ajrimni yoki qarorni qayta ko‘rish uchun asos bo‘ladigan holatlar ma‘lum bo‘lgan kundan e’tiboran **uch oy muddat** ichida berishi mumkin.

Ariza bilan murojaat etgan shaxsnинг iltimosnomasiga ko‘ra, o‘tkazib yuborilgan arizani berish muddati agar iltimosnoma qayta ko‘rish uchun asos bo‘ladigan holatlar ochilgan kundan e’tiboran **olti oydan** kechiktirmay berilgan bo‘lsa va sud muddatni o‘tkazib yuborish sabablarini uzrli deb topsa, sud tomonidan tiklanishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksining 329-moddasiga asosan yangi ochilgan holatlar bo‘yicha ariza berganlik uchun arizachi davlat boji to‘lashdan ozod qilingan.

Hal qiluv qarorni, ajrimni yoki qarorni yangi ochilgan holatlar bo‘yicha qayta ko‘rish haqidagi ariza sudga yozma shaklda yoxud elektron hujjat tarzida beriladi. Ariza uni berayotgan shaxs yoki uning vakili tomonidan imzolanadi.

Sud qarorni yangi ochilgan holatlar bo‘yicha qayta ko‘rish to‘g‘risidagi arizada quyidagilar ko‘rsatilishi kerak:

- 1) *ariza berilayotgan sudning nomi;*
- 2) *ishda ishtirok etuvchi shaxslarning familiyasi, ismi va otasining ismi (nomi), ularning yashash joyi (joylashgan yeri) va pochta manzili;*
- 3) *arizachi yangi ochilgan holatlar bo‘yicha qayta ko‘rishni talab qilayotgan sud hujjatini qabul qilgan sudning nomi, ishning raqami, sud hujjati qabul qilingan sana;*
- 4) *arizachining fikriga ko‘ra, sud hujjatini qayta ko‘rish uchun asos bo‘layotgan yangi ochilgan holatlar, ularni tasdiqlovchi hujjatlar;*
- 5) *ariza berayotgan shaxsning talabi;*
- 6) *ilova qilinayotgan hujjatlarning ro‘yxati.*

#### **Ariza namunasi**

Fuqarolik ishlari bo‘yicha Shayxontohur tumanlararo sudiga
--

Arizachi: (F.I.Sh.) Shayxontohur tumani  
Lolazor ko'chasi, 10-uyda yashaydi.

Fuqarolik ishlari bo'yicha Shayxontohur tumanlararo sudining 2017-yil 21-sentabrdagi turar-joydan ko'chirish, uyga kiritish, uydan foydalanish huquqini yo'qotgan deb topish haqidagi hal qiluv qaroriga nisbatan

### **A R I Z A**

*(Yangi ochilgan holatlar bo'yicha hal qiluv qarorini qayta ko'rish  
to 'g'risida)*

Fuqarolik ishlari bo'yicha Shayxontohur tumanlararo sudida da'vogar (F.I.Sh.) ning arizasi bilan men (F.I.Sh.) va singlim (F.I.Sh.)ga nisbatan Toshkent shahar, Hamza tumani, G'alabaning 40-yilligi massivi, 2-mavze, 7-uy, 82-xonadondan turar-joydan ko'chirish, uyga kiritish, foydalanish huquqini yo'qotgan deb topish to'g'risidagi fuqarolik ishi qo'zg'atilgan.

Fuqarolik ishlari bo'yicha Shayxontohur tumanlararo sudining 2017-yil 21-sentabrdagi hal qiluv qarori bilan da'vogar (F.I.Sh.)ning javobgarlar (F.I.Sh.) va (F.I.Sh.)larga nisbatan turar-joydan ko'chirish, uyga kiritish, uydan foydalanish huquqini yo'qotgan deb topish haqidagi da'vo arizasi qanoatlantirilgan.

(F.I.Sh.) va (F.I.Sh.)ning (F.I.Sh.) ga nisbatan oldi-sotdi shartnomasini haqiqiy emas deb topish haqidagi qarshi da'vo arizasi rad etilgan.

Sudga shuni ma'lum qilamizki, (F.I.Sh.)ga nisbatan O'zbekiston Respublikasi JKning 168-moddasi 3-qismi "a" bandi bilan jinoyat sudi hukmi kuchga kirgan, bunda (F.I.Sh.) hozirda unga tegishli bo'lgan Toshkent shahar, Hamza tumani, G'alabaning 40-yilligi massivi, 2-mavze, 7-uy, 82-xonadonning egasini ishonchiga kirib, aldab, firibgarlik yo'li bilan o'zining nomiga notarial shartnomaga tuzdirishga erishgan. Ushbu fuqarolik ishi yangi ochilgan holatlar bo'yicha qaytadan ko'rishi lozim deb hisoblayman.

Yuqoridagilarga ko'ra hamda FPKning 437-438-moddalariga asosan

### **SO'RAYMAN:**

Fuqarolik ishlari bo'yicha Shayxontohur tumanlararo sudining 2017-yil 21-sentabrdagi (F.I.Sh.) va (F.I.Sh.)ga nisbatan Toshkent shahar, Hamza tumani, G'alabaning 40-yilligi massivi, 2-mavze, 7-uy, 82-xonadondan turar-joydan ko'chirish, uyga kiritish, uydan foydalanish

huquqini yo‘qotgan deb topish to‘g‘risidagi hal qiluv qarorini yangi ochilgan holatlar bo‘yicha qayta ko‘rib bekor qilishingizni.

Ilova:

1. Fuqarolik ishlari bo‘yicha Shayxontohur tumanlararo sudining 2017-yil 21-sentabrdagi hal qiluv qarori.
2. Shayxontohur tuman jinoyat sudi hukmi nusxasi
3. Arizaning nusxasi.

Arizachi:

imzo

(F.I.Sh.)

Sud yangi ochilgan holatlar bo‘yicha arizani qanoatlantirganlik yoki qanoatlantirmaslik to‘g‘risida ajrim chiqaradi.

### Ajrim namunasi

#### AJRIM

*(hal qiluv qarorini yangi ochilgan holat bo‘yicha qayta ko‘rish  
to‘g‘risidagi arizani qanoatlantirish to‘g‘risida)*

2018-yil aprel oyining 7-kuni Fuqarolik ishlari bo‘yicha Yakkasaroy tumanlararo sudi o‘z binosida ochiq sud majlisida suda (F.I.Sh.)ning raisligida, (F.I.Sh.)ning kotibligida, da‘vogar - (F.I.Sh.)ning javobgarlar – (F.I.Sh.)lar oilasiga nisbatan uyga kiritish, uydan foydalanish huquqini belgilash, uydan ko‘chirish haqidagi da‘vo arizasi hamda turar joydan foydalanish tartibini belgilash, doimiy ro‘yxatni haqiqiy emas deb topish haqidagi qo‘s Shimcha da‘vo arizalari yuzasidan yuritilan 1-2573/18-sonli fuqarolik ishiga nisbatan Sirg’ali tuman prokurori (F.I.Sh.)ning hal qiluv qarorini yangi ochilgan holat bo‘yicha qayta ko‘rish haqidagi arizasini ko‘rib, quyidagilarni

#### Aniqladi:

Fuqarolik ishlari bo‘yicha Yakkasaroy tumanlararo sudining 2017-yil 25-iyundagi hal qiluv qaroriga ko‘ra, da‘vogar (F.I.Sh.)ning javobgarlar (F.I.Sh.), (F.I.Sh.), (F.I.Sh.)ga, qo‘s Shimcha javobgarlar (F.I.Sh.) va (F.I.Sh.)larga nisbatan uyga kiritish, uydan foydalanish huquqini va tartibini belgilash haqidagi da‘vo talablari qanoatlantirilib, da‘vogar (F.I.Sh.)ning javobgarlar (F.I.Sh.) va (F.I.Sh.) qo‘s Shimcha javobgarlar (F.I.Sh.) va (F.I.Sh.)larga nisbatan uydan ko‘chirish haqidagi da‘vo talablarini qanoatlantirish rad etilgan.

Da'vogar (F.I.Sh.) bir nafar voyaga yetmagan farzandi – 2004-yil 20-iyulda tug'ilgan (F.I.Sh.) bilan birgalikdagi nizoli Toshkent shahar Sirg'ali tumani, Sirg'ali 5-mavzesi 49-uyning 19-xonadoniga kiritilgan. Nizoli Toshkent shahar Sirg'ali tumani, Sirg'ali 5-mavze, 49-uyning 19-xonadonidan quyidagicha foydalanish tartibi belgilangan: Da'vogar (F.I.Sh.) Toshkent shahar, Sirg'ali tumani Sirg'ali 5-mavze, 49-uy 19-xonadonining lit. 2 shartli belgili yashash xonasidan, javobgarlar (F.I.Sh.) va (F.I.Sh.), qo'shimcha javobgarlar (F.I.Sh.) va (F.I.Sh.)lar lit. 6 shartli belgili yashash xonasidan foydalanishi, nizoli xonadonning yordamchi xonalaridan umumiy tartibda foydalanilishi belgilangan.

Sudning mazkur hal qiluv qarori 2017-yil 15-iyulda qonuniy kuchga kirgan.

Sudga Sirg'ali tuman prokurori (F.I.Sh.) ariza bilan murojaat etib, hal qiluv qarorini qabul qilishga nizoli uy-joy da'vogar (F.I.Sh.) va javobgar (F.I.Sh.)larning birgalikdagi mulki ekanligi asos bo'lganligini, ammo, Fuqarolik ishlari bo'yicha Yakkasaroy tumanlararo sudining 2017-yil 23-martdag'i hal qiluv qaroriga ko'ra, da'vogar (F.I.Sh.)ning javobgarlar (F.I.Sh.), (F.I.Sh.)larga nisbatan nizoli xonadonning oldi-sotdi shartnomasini haqiqiy deb topish haqidagi da'vosi bo'yicha fuqarolik ishi ko'rilib, da'vo qanoatlantrilganligini, nizoli xonadonning mulkdori (F.I.Sh.) hisoblanishini, biroq (F.I.Sh.) ushbu shartnomani davlat ro'y-xatidan o'tkazmaganligi hamda bu shartnoma mavjudligini javobgarlar yashirganligi sababli bu holat da'vogarga, prokuratura vakiliga va sudga ma'lum bo'lmasligini ko'rsatib, sudning hal qiluv qarorini yangi ochilgan holatlar bo'yicha bekor qilishni so'ragan.

FPKning 437-moddasi 1-bandi talabiga muvofiq, arizachiga noma'lum bo'lgan va ma'lum bo'lishi mumkin bo'lmasligi, lekin ish uchun ahamiyatga ega bo'lgan holatlar qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarorini yangi ochilgan holatlar bo'yicha qayta ko'rish uchun asos bo'ladi.

Bunday holatda, sud Fuqarolik ishlari bo'yicha Yakkasaroy tumanlararo sudining 2017-yil 25-iyundagi da'vogar (F.I.Sh.)ning javobgarlar (F.I.Sh.), (F.I.Sh.), (F.I.Sh.)ga, qo'shimcha javobgarlar (F.I.Sh.) va (F.I.Sh.) larga nisbatan uya kiritish, uydan foydalanish huquqini va tartibini belgilash haqidagi fuqarolik ishi yuzasidan chiqargan hal qiluv qarorini yangi ochilgan holatlar bo'yicha bekor qilib, ishni qaytadan ko'rishni lozim topdi.

Yuqoridagilarga binoan, FPKning 437, 271-272-moddalarini qo'llab, sud

### Ajrim qiladi:

Fuqarolik ishlari bo'yicha Yakkasaroy tumanlararo sudining 2007-yil 25-iyundagi da'vogar (F.I.Sh.)ning javobgarlar (F.I.Sh.), (F.I.Sh.),

(F.I.Sh.)ga, qo'shimcha javobgarlar (F.I.Sh.) va (F.I.Sh.)larga nisbatan uyga kiritish, uydan foydalanish huquqini va tartibini belgilash haqidagi fuqarolik ishi yuzasidan chiqargan hal qiluv qarori yangi ochilgan ho-latlar bo'yicha bekor qilinsin va ish qaytadan ko'rib chiqilsin.

Ishni ko'rish 2018-yil 15 aprel kuni soat 11.00 ga belgilanib, bu haqda ishda ishtirok etuvchi shaxslarga xabar berilsin.

Ajrimdan norozi tomon 10 kunlik muddat ichida Fuqarolik ishlari bo'yicha Toshkent shahar sudiga shu sud orqali xususiy shikoyat yoki xususiy protest keltirishi mumkin.

Sudya:

imzo

(F.I.Sh.)

## NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. Apellatsiya va kassatsiya shikoyat berish muddati va tartibini aytинг.
2. Apellatsiya shikoyati loyihasini tayyorlang.
3. Kassatsiya protesti loyihasini tayyorlang.
4. Nazorat tartibida shikoyat berish muddati va tartibini aytинг va nazorat shikoyati yozing.
5. Qonuniy kuchga kirgan sud hujjatlarini yangi ochilgan holatlar bo'yicha qayta ko'rish to'g'risida ariza yozing.
6. Apellatsiya, kassatsiya va nazorat instansiyasi sudining farqlarini tushuntiring.

## **10- MAVZU. SUD HUJJATLARINI IJRO ETISH BOSQICHIDA YURITILADIGAN PROTSESSUAL HUJJATLAR**

### **1-§. Ijro hujjatlarining turlari va ularning huquqiy ahamiyati**

*Ijro hujjatlari deganda vakolatli organlar tomonidan chiqariladigan hamda qonunda belgilangan tartibda ijro etilishi majburiy bo‘lgan hujjatlar tushuniladi.*

O‘zbekiston Respublikasining “Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to‘g‘risida”gi Qonunining (bundan keyin matnda Qonun deb yuritiladi) 7-moddasida ijro hujjatlari ko‘rsatilgan bo‘lib, unga ko‘ra quyidagilar ijro hujjatlari hisoblanadi.

<b>Ijro hujjatlari:</b>	
→	1) sudlar o‘zları qabul qiladigan sud hujjatlari asosida beradigan ijro varaqlari;
→	2) hakamlik sudining qarorlarini majburiy ijro etish yuzasidan sudlar beradigan ijro varaqlari;
→	3) chet el sudlari va arbitrajlari qarorlari asosida O‘zbekiston Respublikasi sudlari beradigan ijro varaqlari;
→	4) sud buyruqlari;
→	5) alimentlar to‘lash to‘g‘risidagi notarial tarzda tasdiqlangankelishuvlar;
→	6) notariuslarning ijro xatlari;
→	7) mehnat nizolari komissiyalari o‘z qarorlari asosida beradigan guvohnomalar;
→	8) ma‘muriy huquqbazarliklar to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rib chiqish vakolatiga ega organlar (mansabdar shaxslar) chiqargan qarorlar;
→	9) o‘zboshimchalik bilan turar joyni egallab olgan yoki avariya holatida deb topilgan uylarda yashayotgan shaxslarni ma‘muriy tartibda ko‘chirish to‘g‘risidagi prokurrlarning qarorlari;
→	10) davlat ijrochilarining qarorlari;
→	11) qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda boshqa organlarning hujjatlari.

Qonunda ijro hujjatining asl nusxasi yo‘qolgan taqdirda, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda beriladigan uning dublikati undiruv uchun asos bo‘lishi mustahkamlab qo‘yilgan.

---

*O‘zbekiston Respublikasining “Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to‘g‘risida”gi Qonuning 8-moddasida ijro huj-jatlarining mazmuni berilgan bo‘lib, ijro hujjatida quyidagilar ko‘r-satilishi lozim:*

- 1) ijro hujjatini bergen sud yoki boshqa organning nomi;*
  - 2) ijro hujjatining qaysi ish bo‘yicha berilganligi va uning tartib raqami;*
  - 3) ijro etilishi shart bo‘lgan sud hujjati yoki boshqa organ hujjati qabul qilingan sana;*
  - 4) undiruvchi va qarzdorning nomi, ularning manzillari; jismoniy shaxslar uchun qarzdorning tug‘ilgan sanasi va joyi, ish joyi;*
  - 5) sud hujjati yoki boshqa organ hujjatining qaror qismi;*
  - 6) sud hujjati yoki boshqa organ hujjati kuchga kirgan sana;*
  - 7) ijro hujjati berilgan sana va uni ijroga topshirish muddati.*
- 

Sud hujjati asosida berilgan ijro hujjati sudya tomonidan imzolanadi va sudning gerbli muhri bilan tasdiqlanadi.

Boshqa organning hujjati asosida berilgan ijro hujjati mazkur hujjatni qabul qilgan organning vakolatli mansabdor shaxsi tomonidan imzolanadi va tegishli organning muhri bilan tasdiqlanadi.

Sud buyrug‘ining hamda alimentlar to‘lash to‘g‘risidagi notarial tarzda tasdiqlangan kelishuvning, shuningdek notarius ijro xatining mazmuni qonun hujjatlari bilan belgilanadi. Ijro varaqasi, sud buyrug‘i sudyaning elektron raqamli imzosi bilan tasdiqlangan elektron hujjat tarzida axborot tizimi orqali taqdim etilishi mumkin. Ijro hujjatining asl nusxasi yo‘qolgan taqdirda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda beriladigan uning dublikati undiruv uchun asos bo‘ladi.

## **2-§. Ijro varaqasining mazmuni va uni berish tartibi**

FPKning 447–453-moddalarida ijro varaqasi haqida tushuntirish berilgan bo‘lib, mazkur normalarga binoan sud qarorining majburiy ijrosi qarorni qabul qilgan sud beradigan ijro varaqasi asosida amalga oshiriladi.

Ijro varaqasi sud tomonidan berilgan, undiruvchining sud huj-jatini majburiy ijro etishga bo‘lgan huquqini tasdiqlovchi hujjatdir.

Sudning hal qiluv qarori majburiy tartibda ijro etish uchun, agar qonunda boshqa muddat belgilanmagan bo‘lsa, u qonuniy kuchga kirgan paytdan e’tiboran uch yil ichida taqdim etilishi mumkin.

FPKning 448-moddasida ijro varaqasi berish tartibi ifodalan-gan bo‘lib, unga ko‘ra har bir sud hujjati bo‘yicha bitta ijro varaqasi beriladi. Biroq agar ijro turli joylarda yoki bir nechta undiruvchining foydasiga amalga oshiriladigan bo‘lsa, sud undiruvchilarning iltimosiga binoan ijro joyini yoxud hal qiluv qarori ijrosining har bir ijro varaqasiga tegishli qismini aniq ko‘rsatgan holda bir necha ijro varaqasi beradi.

Bir nechta javobgardan pul summalarini undirish to‘g‘risidagi hal qiluv qarori asosida javobgarlarning soni bo‘yicha bir nechta ijro varaqasi beriladi. Bunda agar solidar javobgarlardan undirish nazarda tutilayotgan bo‘lsa, har bir ijro varaqasida undiruvning umumiy summasi ko‘rsatilishi va solidar javobgar ekanligi ko‘rsatilgan holda javobgarlarning hammasi sanab o‘tilishi kerak. Ijro varaqasi sud hujjatini qabul qilgan sud tomonidan beriladi. Ijro varaqasi undiruvchiga beriladi yoki sud hujjati qonuniy kuchga kirgandan so‘ng besh kun ichida undiruvchining iltimosnomasiga ko‘ra davlat ijrochisiga ijro etish uchun yuboriladi, bundan sud hujjati chiqarilishi bilanoq ijro varaqasi berilib, darhol ijro etiladigan hollar mustasno.

FPKning 449-moddasida sudning ijro varaqasini yuborish tartibi ko‘rsatilgan bo‘lib, jumladan, jinoyat sodir qilish natijasida yetkazilgan zararni undirish, alimentlarni undirish, mayib bo‘lganlik yoki sog‘liqqa boshqacha shikast yetganlik, shuningdek boquvchi vafot etganligi natijasida ko‘rilgan zararning o‘rnini qoplash, xodim bilan mehnat shartnomasini g‘ayriqonuniy ravishda bekor qilish yoxud xodimni g‘ayriqonuniy ravishda boshqa ishga o‘tkazishda yoki sudning ishga tiklash to‘g‘risidagi hal qiluv qarorini bajarmaganlikda aybdor bo‘lgan mansabdor shaxslardan pul summalarini undirish, davlat daromadiga pul mablag‘larini undirish hollarida sud o‘z tashabbusiga ko‘ra ijro varaqasini ijro etish uchun yuboradi. Davlat foydasiga mulkiy undiruvlar bo‘yicha ijro varaqasi hal qiluv qarori qonuniy kuchga kirgandan so‘ng uch ish kuni ichida sud tomonidan qarzdorning joylashgan yeridagi davlat

ijrochisiga yuboriladi. Ijro varaqasi elektron hujjat tarzida yuborilishi mumkin.

Ijro varaqasining yoki sud buyrug‘ining asl nusxasi yo‘qotilgan hollarda sud hujjatini chiqargan sud undiruvchining yoxud davlat ijrochisining arizasiga ko‘ra, ijro varaqasining dublikatini berishi mumkin.

Dublikat berish haqidagi ariza ishtirok etuvchi shaxslar xabardor qilingan holda sud majlisida ko‘riladi, biroq ularning kelmaganligi dublikat berish to‘g‘risidagi masalani hal etish uchun to‘sinqinlik qilmaydi.

Dublikat berish to‘g‘risidagi ariza bunday ariza sudga kelib tushgan paytdan e’tiboran o‘n kun ichida sud majlisida ko‘riladi.

Sudning dublikat berish to‘g‘risidagi masalaga doir ajrimi ustidan xususiy shikoyat (protest) berilishi mumkin.

Xususiy shikoyatda (protestda) xususiy shikoyat (protest) berган shaxsning yoki uning vakilining telefonlari va fakslari raqamlari, elektron pochta manzili ko‘rsatilishi mumkin.

### **3-§. Ijro ishini qo‘zg‘atish to‘g‘risidagi qaror va uni rasmiylashtirish tartibi**

O‘zbekiston Respublikasining “Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to‘g‘risida”gi Qonuning 23-moddasida ijro ishi yuritishni qo‘zg‘atish harakatlari haqida izoh berilgan.

Davlat ijrochisi<sup>1</sup> ijro hujjatini sud yoki boshqa organdan yoxud undiruvchidan (agar ijro hujjatini ijroga topshirish muddati o‘tmanigan va mazkur hujjat ushbu Qonunning 8-moddasida nazarda tu-

---

<sup>1</sup>Normativ-huquqiy hujjatlarga kiritilgan o‘zgartishlarga binoan “Sud ijrochisi” matnda “Davlat ijrochisi” deb beriladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-maydag‘i “Elektr energiyasi va tabiiy gaz yetka zib berish hamda iste’mol qilish sohasida to‘lov intizomini yanada mustahkamlash, shuningdek ijro ishi yuritish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-5059-sون Farmoni; O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-maydag‘i “O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosini faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” PQ-3016-sон qarori; O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosini faoliyatini samaradorligini ta’minlash choratadbirlari to‘g‘risida”gi F-4977-sон Farmoishi; O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosining Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish markazini tashkil qilish to‘g‘risida”gi PQ-3070-sон qarori; O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Majburiy ijro byurosini rivojlantirish jamg‘armasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-3060-sон qarori.

tilgan talablarga muvofiq bo‘lsa) ijro uchun qabul qilib olishi va ijro ishi yuritishni qo‘zg‘atishi shart. Agar qonun hujjatlarida ijro hujjatlarining ayrim turlariga majburiy ilovalar nazarda tutilgan bo‘lsa, ular davlat ijrochisiga ijro hujjati bilan birga taqdim etilishi kerak.

Davlat ijrochisi ijro hujjatini olgan kundan e’tiboran uch kundan kechiktirmay, ijro ishi yuritishni qo‘zg‘atish to‘g‘risida qaror chiqaradi.

Davlat ijrochisi ijro ishi yuritishni qo‘zg‘atish to‘g‘risidagi qarorda ijro hujjatidagi talablarni ixtiyoriy ravishda bajarish uchun ijro ishi yuritish qo‘zg‘atilgan kundan e’tiboran ko‘pi bilan besh kun muddat belgilaydi va qarzdorni mazkur muddat tugaganidan keyin ijro hujjatidagi talablar undan ijro yig‘imi, davlat ijrochisi tomonidan qarzdorga solingan jarimalar, shuningdek ijro xaratatlari undirilgan holda majburiy ijro etilishi to‘g‘risida xabardor qiladi.

Ijro ishi yuritishni qo‘zg‘atish to‘g‘risidagi qaror nusxasi u chiqarilgan kunning ertasidan kechiktirmay undiruvchiga, qarzdorga, shuningdek hujjati ijro etilishi lozim bo‘lgan sud yoki boshqa organga yuboriladi.

Davlat ijrochisi undiruvchining arizasiga binoan yoki o‘z tashabbusi bilan mulkiy undiruv bo‘yicha ijro ishi yuritishni qo‘zg‘atish to‘g‘risida qaror chiqarish bilan bir vaqtida qarzdorning molmulkini ro‘yxatga olib, ularni xatlashga haqli bo‘lib, bu haqda mazkur qarorda ko‘rsatib o‘tadi.

Ijro ishi yuritishni qo‘zg‘atish to‘g‘risidagi qaror ustidan shikoyat qilish yoki protest bildirish mumkin.

### **Ijro ishini yuritishni qo‘zg‘atish to‘g‘risidagi qaror namunasi**

#### **QAROR**

ijro ishi yuritishni qo‘zg‘atish to‘g‘risida

2018-yil 20-aprel

Toshkent shahri

Bosh prokuratura huzuridagi majburiy ijro byurosi Toshkent shahar Yashnobod tuman bo‘limi davlat ijrochisi N.X.Karimov, fuqarolik ishlari bo‘yicha Toshkent shahar Mirobod tumanlararo sudining 25 yanvar 2018 yildagi hal qiluv qaroriga asosan berilgan 1-536-4073/18-sonli ijro varaqasiga asosan qarzdor Eshmatova Xakima Xolboyevnaga nisbatan undiruvchi Qosimov Abdulla Xalilovichning Toshkent shahar, Yash-

nobod tumani, 4 tor Tolariq ko'chasi 13 uyga kiritib qo'yish haqidagi ijro ish yurituvimga 2018-yil 18-aprelda kelib tushgan 11244/10-sonli ijro hujjati bilan tanishib chiqib, quyidagilarni

### **ANIQLADIM:**

Ushbu ijro hujjati "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 8-moddasasi talablariga javob beradi va uni ijroga topshirish muddati o'tmagan. Shunga ko'ra ijro hujjatini ijro ishi yuritishni qo'zg'atmasdan qaytarish uchun asoslar mavjud emas. Bayon etilganlarga asosan hamda O'zbekiston Respublikasi "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida"gi Qonunining 23, 86-moddalarini qo'llab,

### **QAROR QILAMAN:**

Qarzdor Eshmatova Xakima Xolboyevnaga nisbatan undiruvchi Qosimov Abdulla Xalilovichni Toshkent shahar, Yashnobod tumani, 4-tor Tolariq ko'chasi 13-uyga kiritib qo'yish to'g'risida 11244/10-sonli ijro ishi yuritish qo'zgatilsin.

Qarzdorga ijro hujjati talablarini ixtiyoriy bajarishlik uchun ijro ishi yuritishni qo'zgatish to'g'risidagi qaror qarzdorga topshirilgan kundan boshlab, 15 (o'n besh) kunlik muddat berilsin.

Qarzdor ijro hujjati talablarini ixtiyoriy ravishda bajarmagan taqdirda, O'zbekiston Respublikasi "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida"gi Qonunning 82-moddasiga asoslanib, O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 198<sup>1</sup>-moddasiga asosan jismoniy shaxslardan eng kam oylik ish haqining 5 baravaridan 10 baravarigacha, jarima solinishi, mulkiy xarakterga ega bo'l-magan ijro hujjatlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-722-sonli qaroriga asosan jismoniy shaxslardan 5 ba-ravar miqdorida ijro yig'imi undirilishi to'g'risida ogohlantirilsin.

Qaror nusxasi ish bo'yicha taraflar va ijro hujjatini bergen organga ma'lumot uchun yuborilsin.

Qarzdor Eshmatova Xakima Xolboevna sud hujjatini ijro etmagan taqdirda O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 232-moddasiga asosan jinoiy javobgarlikka tortilishi to'g'risida ogohlantirilsin.

Mazkur qarorga nisbatan ish bo'yicha taraflar 10 kun muddat ichida shikoyat berishlari yoki prokuror tomonidan protest keltirilishi mumkin.

Majburiy ijro byurosi Yashnobod tuman  
bo'limi davlat ijrochisi

N.X.Karimov

### **4-§. Sudning va davlat ijrochisining ijro ishi yuritishni to'xtatish va tugatish asoslari**

Davlat ijrochisi sud tomonidan berilgan ijro varaqasi asosida qo‘zg‘atgan ijro ishini yuritishni qonunda nazarda tutilgan hol-larda, undiruvchining, qarzdorning, davlat ijrochisining arizasi bo‘yicha to‘xtatib turishi yoxud tugatishi mumkin.

Sud tomonidan berilgan ijro varaqasi asosida qo‘zg‘atilgan ijro ishini yuritishni to‘xtatib turish va tugatish shu sud tomonidan yoki davlat ijrochisi joylashgan yerdagi sud tomonidan amalga oshiriladi.

Ijro ishini yuritishni to‘xtatib turish yoki tugatish to‘g‘risidagi ariza kelib tushgan kundan e’tiboran o‘n kunlik muddatda taraf-larni chaqirmagan va sud muhokamasi o‘tkazmagan holda sud tomonidan ko‘riladi. Ijro ishini to‘xtatib turish yoki tugatish to‘g‘-risidagi arizani ko‘rib chiqish natijalari yuzasidan ajrim chiqarilib, uning ko‘chirma nusxasi undiruvchiga, qarzdorga, shuningdek davlat ijrochisiga yuboriladi.

Ajrim ustidan FPKda nazarda tutilgan tartibda shikoyat qili-nishi (protest keltirilishi) mumkin. Ijro ishini yuritish nazariyasи va amaliyotida ijro ishi yuritishni to‘xtatish asoslarini ikkiga: maj-buriy va nomajburiy turlarga ajratish mumkin.

---

**Ijro ishi yuritishni to‘xtatib turishning majburiyligi deganda ushbu ish yuritish holatlarida ijro harakatlarini sud va davlat ijrochisi tomonidan to‘xtatib turish shartligi belgilangan.**

---

**Ijro ishi yuritishni to‘xtatib turishning nomajburiy (fakultativ) turida ijro harakatlarini sud va davlat ijrochisi tomonidan to‘xtatib turilishi mumkinligi nazarda tutiladi.**

---

O‘zbekiston Respublikasi “Sud hujjalari va boshqa organlar hujjalarini ijro etish to‘g‘risida”gi Qonuning 34-moddasida ijro ishi yuritishni to‘xtatib turishning majburiyligi asoslari berilib, unga ko‘ra ijro ishi yuritish quyidagi hollarda sud tomonidan to‘xtatib turilishi shart:

- 1) agar sud tomonidan aniqlangan huquqiy munosabat huquqiy vorislikka yo‘l qo‘ysa, qarzdor vafot etganda u vafot etgan deb e’lon qilinganda yoki bedarak yo‘qolgan deb topilganda;
- 2) qarzdor muomalaga layoqatsiz deb topilganda;

- 3) agar qonun hujjatlarida nizolashishga yo‘l qo‘yilgan bo‘lsa, qarzdor ijro hujjati yuzasidan sud tartibida nizolashganda;
- 4) ma’mury huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rib chiqish vakolatiga ega organlarning qarorlari (mansabdor shaxslarning harakatlari) ustidan sudga shikoyat berilganda;
- 5) ijro hujjati bo‘yicha undiruv qaratilgan mol-mulkni ro‘yxatdan chiqarish (xatlashdan ozod qilish) to‘g‘risida sudga da’vo arizasi berilganda;
- 6) qonunda nazarda tutilgan boshqa asoslar vujudga kelganda.

**O‘zbekiston Respublikasi “Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to‘g‘risida”gi Qonunning 35-moddasiga ko‘ra, ijro ishi yuritish quyidagi hollarda sud tomonidan to‘xtatib turilishi mumkin.**



- 1) qarzdor yoki undiruvchi ijro hujjatini bergen tegishli sudga yoki boshqa organga ijro hujjatini kechiktirib yoki bo‘lib-bo‘lib ijro etish, ijro etish usuli va tartibini o‘zgartirish to‘g‘risidagi ariza bilan murojaat qilganda;
- 2) qarzdor uzoq muddatli xizmat safarida bo‘lganda;
- 3) qarzdor statsionar davolash muassasasida davolanayotganda;
- 4) sud ijrochisining harakatlari (qarorlari) ustidan shikoyat berilganda;
- 5) ro‘yxatga olingan mol-mulkni baholash natijalari yuzasidan ni-
- 6) undiruvchi iltimos qilganda.

**O'zbekiston Respublikasining "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida"gi Qonuniga ko'ra, ijro ishi yuritish quyidagi hollarda sud tomonidan tugatiladi:**



1) undiruvchi yoki qarzdar vafot etganda, u vafot etgan deb e'lon qilinganda, bedarak yo'qolgan deb topilganda, agar sud hujjati yoxud boshqa organning hujjatida qo'yilgan talablar yoki majburiyatlar huquqiy vorisga yoki bedarak yo'qolganning mol-mulkini ishonchli boshqarib turgan shaxsga o'tishi mumkin bo'lmasa;



2) muayyan harakatlarni amalga oshirish yoxud bunday harakatlarni amalga oshirishdan o'zini tiyish majburiyatini yuklovchi ijro hujjatini ijro etish imkoniyati yo'qolganda.

**Ijro ishini yuritish quyidagi hollarda davlat ijrochisi tomonidan to'xtatib turilishi shart:**

1) qarzdar muddatli harbiy xizmatda bo'lganda yoki muddatli harbiy xizmatda bo'lgan undiruvchi iltimos qilganda;

2) qarzdorning nochorligi (bankrotligi) to'g'risidagi ish bo'yicha iqtisodiy sudi tomonidan ish yuritish qo'zg'atilganda, shu jumladan, kuzatuvni joriy etish to'g'risida sud sanatsiyasini yoki tashqi boshqaruvni joriy etish va (yoki) ularning muddatini uzaytirish to'g'risida iqtisodiy sud tomonidan ajrim qabul qilinganda, O'zbekiston Respublikasi "Bankrotlik to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq ijro etilishi to'xtatib turilishi mumkin bo'lмаган ijro hujjatlari bundan mustasno;

3) ijro hujjatini berish uchun asos bo'lgan sud hujjati yoki boshqa organ hujjatini ijro etishni to'xtatib turish huquqi qonunda qaysi mansabdor shaxsga berilgan bo'lsa, o'sha mansabdor shaxs tomonidan qaror chiqarilganda.

**Ijro ishi yuritish quyidagi hollarda davlat ijrochisi tomonidan to'xtatib turilishi mumkin:**

1) davlat ijrochisi ijro etilishi lozim bo'lgan sud hujjati yoki boshqa organ hujjatini tushuntirish to'g'risidagi, ijro hujjatini kechiktirib yoki bo'lib-bo'lib ijro etish haqidagi, ijro etish usuli va tartibini o'zgartirish

---

to‘g‘risidagi arizalar bilan ijro hujjatini bergan tegishli sudga yoki boshqa organga murojaat qilganda;

2) qarzdor jismoniy shaxs, uning mol-mulki yoki olib qo‘yilishi lozim bo‘lgan bola qidirilayotganda;

3) davlat ijrochisi tomonidan jarima tariqasidagi jinoiy jazoni boshqa jazo turiga almashtirish to‘g‘risida sudga taqdimnoma kiritilganda.

---

O‘zbekiston Respublikasining Bosh davlat ijrochisi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar bosh davlat ijrochilarini ularga bo‘ysunuvchi davlat ijrochilarining harakatlari (harakatsizligi) va qarorlari ustidan shikoyat kelib tushganda, zarur bo‘lgan hollarda ijro ishi yuritishni to‘xtatib turishga haqli.

---

**O‘zbekiston Respublikasining “Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to‘g‘risida”gi Qonunining 36-moddasida ijro ishi yuritishni quyidagi hollarda to‘xtatib turish muddatları belgilangan:**

1) qarzdor vafot etganda, u vafot etgan deb e’lon qilinganda yoki bedarak yo‘qolgan, muomalaga layoqatsiz deb topilganda qarzdorning huquqiy vorislari aniqlanguniga, bedarak yo‘qolganning mol-mulki sud tomonidan homiylik va vasiylik organlari belgilagan ishonchli bosh-qaruvchiga topshirilguniga yoki muomalaga layoqatsiz qarzdorga homiy tayinlanguniga qadar;

2) qarzdorning nochorligi (bankrotligi) to‘g‘risidagi ish bo‘yicha iqtisodiy sudi tomonidan ish yuritish qo‘zg‘atilganda, kuzatuvni joriy etish to‘g‘risida sud sanatsiyasi yoki tashqi boshqaruv taomilini joriy etish va (yoki) muddatini uzaytirish to‘g‘risida iqtisodiy sudi tomonidan ajrim qabul qilinganda - qarzdorning nochorligi (bankrotligi) to‘g‘-risidagi ish bo‘yicha qaror qabul qilinguniga qadar;

3) undiruvchi yoki qarzdor muddatli harbiy xizmatni o‘tayotganda, qarzdor kasal bo‘lib qolganda, xizmat safarida bo‘lganda yoki qarzdor jismoniy shaxs, uning mol-mulki yoki olib qo‘yilishi lozim bo‘lgan bola qidirilayotganda, muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilguniga yoki stat-sionar davolash muassasasidan chiqquniga, xizmat safaridan qaytguniga yoki qarzdor jismoniy shaxs, uning mol-mulki yoki olib qo‘yilishi lozim bo‘lgan bola qidirib topilguniga qadar;

4) ijro harakatlari, ijro hujjati yoki uni berishga asos bo‘lgan hujjat yuzasidan, shuningdek ro‘yxatga olingan mol-mulkni baholash natijalari yuzasidan nizolashilayotganda masala mazmunan uzil-kesil ko‘rib chiqilguniga qadar;

5) davlat ijrochisining harakatlari (qarorlari) ustidan shikoyat berilganda shikoyat ko‘rib chiqilguniga qadar.

---

Ijro ishi yuritish boshqa hollarda ham ijro ishi yuritishni to‘xtatib turishga asos bo‘lgan holatlar tugaguniga qadar to‘xtatib turilishi mumkin. Ijro ishi yuritishni to‘xtatib turishga sabab bo‘lgan holatlar bartaraf qilinganidan keyin ijro ishi yuritish uni to‘xtatib turgan sud yoki davlat ijrochisi tomonidan undiruvchining arizasiga yoki davlat ijrochisining tashabbusiga ko‘ra tiklanadi. Ijro ishi yuritishni to‘xtatib turishning muddatlari sud tomonidan qisqartirilishi mumkin.

Ijro ishi yuritishdagi taraflarning ijro ishi yuritishni to‘xtatib turish yoki tugatish to‘g‘risidagi arizasi u kelib tushgan kundan e’tiboran o‘n kunlik muddatda davlat ijrochisi tomonidan ko‘rib chiqiladi. Arizani ko‘rib chiqish natijalariga ko‘ra davlat ijrochisi ijro ishi yuritishni to‘xtatib turish yoki tugatish haqida yoxud ijro ishi yuritishni to‘xtatib turishni yoki tugatishni rad qilish to‘g‘-risida qaror chiqaradi.

Ijro ishi yuritishni to‘xtatib turish yoki tugatish haqidagi sud hujjati yoxud boshqa organning hujjati davlat ijrochisi tomonidan olingan paytdan e’tiboran darhol ijro etilishi kerak. Davlat ijro-chisi ijro ishi yuritishni to‘xtatib turish yoki tugatish to‘g‘risida bu haqida unga ma’lum bo‘lgan vaqt dan e’tiboran uch kunlik mud-datda ijro ishi yuritishdagi taraflarga, sudga (agar masala ijro huj-jatini bergen sud tomonidan emas, boshqa sud tomonidan hal qilingan bo‘lsa) yoki ijro hujjatini bergen o‘zga organga ma’lum qiladi.

To‘xtatilgan ijro ishi yuritish bo‘yicha u tiklanguniga qadar majburiy ijro choralar qo‘llanilishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Sud yoki boshqa organning ijro ishi yuritishni to‘xtatib turish yoxud tugatish to‘g‘risidagi hujjati ustidan o‘n kunlik muddatda shikoyat qilinishi yoki protest bildirilishi mumkinligi belgilangan.

### **5-§. Davlat ijrochisining ijro ishi yuritishni tamomlash to‘g‘risidagi qarori va uni rasmiylashtirish tartibi**

O‘zbekiston Respublikasining “Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to‘g‘risida”gi Qonunining 41-moddasiga binoan ijro ishi yuritish quyidagi hollarda tamomlanadi:

- ijro hujjati amalda ijro etilganda;

- yig‘ma ijro ishi yuritishga birlashtirilgan ijro hujjatlaridagi undiruv to‘g‘risidagi talablar bir yoki bir nechta solidar javobgar qarzdor hisobidan amalda ijro etilganda;
- ijro hujjati uni bergen sudning yoki boshqa organning ta-labiga binoan ijro etilmasdan qaytarilganda;
- ijro hujjati qonunda ko‘rsatilgan ko‘rsatilgan asoslar bo‘yicha qaytarilganda;
- ijro hujjati ijro etish uchun qonunga muvofiq boshqa davlat ijrochisiga yuborilganda;
- ijro hujjati ijro etish uchun tugatish komissiyasiga (tuga-tuvchiga, tugatish boshqaruvchisiga) yuborilganda.

Ijro ishi yuritish tamomlanganda davlat ijrochisi bu haqida qaror chiqaradi. Ijro ishi yuritishni tamomlash to‘g‘risidagi qa-rorda qarzdor jismoniy shaxsni, uning mol-mulkini, olib qo‘yilishi lozim bo‘lgan bolani qidirish, shuningdek qarzdor uchun bel-gilangan cheklovlar, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasidan chiqishga oid cheklashlar va qarzdorning o‘z mol-mulkiga bo‘lgan huquqlariga doir cheklovlar bekor qilinadi.

Ijro ishi yuritish Qonunning 25-moddasi asosida boshqa davlat ijrochisiga yuborilishi munosabati bilan tamomlanayotganda qarzdor jismoniy shaxsni, uning mol-mulkini, olib qo‘yilishi lozim bo‘lgan bolani qidirish, shuningdek qarzdor uchun belgilangan cheklovlar bekor qilinmaydi. Mazkur vakolatlar ijro ishi yuritish yuborilgan davlat ijrochisiga o‘tadi.

Davlat ijrochisi qarorining ko‘chirma nusxalari u chiqarilgan kunning ertasidan kechiktirmay, undiruvchiga va qarzdorga, shuningdek ijro hujjatini bergen sudga yoki boshqa organga yuboriladi. Ayni vaqtida davlat ijrochisi qarzdorning hisobvaraqlariga qo‘yilgan inkasso topshiriqnomalarini chaqirib oladi, shuningdek cheklovlarni ijro etayotgan organlarni ushbu cheklovlarining bekor qilinganligi to‘g‘risida yozma shaklda xabardor qiladi.

Ijro ishi yuritish tamomlanganidan so‘ng davlat ijrochisi qarzdordan ijro yig‘imini, davlat ijrochisi tomonidan qarzdorga solingan jarimalarni hamda ijro xarajatlarini undirish to‘g‘risida ilgari chiqarilgan va ijro etilmagan qarorlarning ijrosini davom et-tiradi. Bunda qarzdorga nisbatan ijro ishi yuritish jarayonida bel-gilangan cheklovlar mazkur qarorlar ijrosi uchun zarur bo‘lgan miqdorda saqlab qolinadi. Ijro ishi yuritish tamomlangan taqdirda, ijro

yig‘imi faqat ijro hujjatining majburiy tartibda ijro etilgan qismi bo‘yicha undiriladi, nomulkiy xususiyatdagi ijro hujjatlari bundan mustasno.

Ijro ishi yuritish, qonunning tegishli normalarida nazarda tutilgan asoslarga ko‘ra tamomlanganda, ijro hujjatining asl nusxasi, boshqa hollarda esa ijro hujjatining ko‘chirma nusxasi ijro ishi yuritish materiallarida qoladi.

### **QAROR**

ijro hujjatini undiruvchiga qaytarish va ish yuritishdan tamomlash

2018-yil 10-aprel Yashnobod tumani Majburiy ijro byurosining Yashnobod tuman bo‘limi davlat ijrochisi N.X.Karimov ushbu kuni 6647-48/10-sonli ijro hujjatlari bilan tanishib quyidagilarni

### **ANIQLADIM:**

Fuqarolik ishlari bo‘yicha Toshkent shahar Mirobod tumanlararo sudining 2018 yil 22 fevral kungi S-1-100/18-sonli ijro varaqasiga asosan qarzdor N.Ch.Tuxliyevdan undiruvchi N.S.Sobitova foydasiga ikki nafer farzandining ta’minoti uchun qarzdorning oylik ish haqi va boshqa turdagni daromadlarining 1/3 qismi miqdorida aliment, undirish to‘g‘-risidagi ijro hujjati mavjud. Mazkur ijro hujjati yuzasidan ijro harakatlarini olib borish jarayonida undiruvchi N.S.Sobitova Majburiy ijro byurosining Yashnobod tuman bo‘limiga ariza bilan murojaat qilib, unga ko‘ra qarzdor bilan o‘zora kelishib, birga yashab aliment olib kelayotganligini ma’lum qilib, qarzdordan sudning alimento undirish haqidagi ijro varaqasini ijrosiz qaytarishlikni so‘ragan. Yuqorida bayon etilganlarga asosan hamda O‘zbekiston Respublikasi “Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to‘g‘risida”gi Qonunning 40-mod-dasi, 41-moddasi hamda 86-moddasini qo‘llab,

### **QAROR QILDIM:**

1. Fuqarolik ishlari bo‘yicha Toshkent shahar Mirobod tumanlararo sudining 2018-yil 22-fevral kungi S-1-100/18-sonli ijro varaqasiga asosan qarzdor N.Ch.Tuxliyevdan undiruvchi N.S.Sobitova foydasiga ikki nafer farzandining ta’minoti uchun qarzdorning oylik ish haqi va boshqa turdagni daromadlarining 1/3 qismi miqdorida aliment undirish to‘g‘-risidagi 6647-48/10-sonli ijro hujjati bo‘yicha ish yuritish tamomlansin.

2. Mazkur ijro ishi undiruvchiga ijrosiz qaytarilsin.

3. Ijro ishi yuritish tamomlangan ijro hujjati ko‘chirma nusxasi ijro ishi yuritish materiallarida qoldirilsin.
4. Qaror nusxasi undiruvchiga va ijro hujjatini chiqargan organga ma’lumot uchun yuborilsin.
5. Ijro hujjatining undiruvchiga qaytarilishi mazkur hujjatni O‘zbekiston Respublikasi “Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to‘g‘risida”gi Qonuning 27-moddasiga asosan hisoblab chiqariladigan muddat doirasida yangidan ijroga topshirish uchun to‘sq bo‘lmaydi.
6. Qaror ustidan qaror chiqarilgan kundan e’tiboran o‘n kunlik muddat ichida sudga, bo‘ysunuv tartibida yuqori turuvchi organga, mansabdar shaxsga shikoyat berish yoki qonunda belgilangan tartibda prokuror tomonidan protest keltirilishi mumkin.

Majburiy ijro byurosini Yashnobod tuman  
bo‘limi davlat ijrochisi

N.X.Karimov

## **6-§. Qarzdor jismoniy shaxsning O‘zbekiston Respublikasidan chiqishini vaqtincha cheklash to‘g‘risidagi qaror va uni rasmiylashtirish tartibi**

O‘zbekiston Respublikasi “Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to‘g‘risida”gi Qonuning 42<sup>1</sup>-moddasi 2009-yil 14 yanvardagi O‘RQ-199-son Qonuni tahriridagi modda sanalib, unda qarzdor jismoniy shaxsning O‘zbekiston Respublikasidan chiqishini vaqtincha cheklash holatlari ko‘rsatilgan. Sud hujjati asosida berilgan ijro hujjatidagi yoki ijro hujjati bo‘lgan sud hujjatidagi talablar belgilangan muddatda qarzdor jismoniy shaxs tomonidan uzrsiz sabablarga ko‘ra ijro etilmaganda, davlat ijrochisi, undiruvchining arizasi bo‘yicha yoki o‘z tashabbusi bilan qarzdor jismoniy shaxsning O‘zbekiston Respublikasidan chiqishini vaqtincha cheklash to‘g‘risida qaror chiqarishga haqlidir.

Davlat ijrochisining qarzdor jismoniy shaxsning O‘zbekiston Respublikasidan chiqishini vaqtincha cheklash to‘g‘risidagi qarori majburiy ijro bo‘limi boshlig‘i tomonidan tasdiqlanadi. Mazkur qarorning ko‘chirma nusxalari qarzdor jismoniy shaxsga (agar uning turgan joyi ma’lum bo‘lsa), ichki ishlar organlarining kirish, chiqish va fuqarolik bo‘limiga (boshqarmasiga) hamda davlat chegarasini qo‘riqlash organlariga yuboriladi.

Agar ijro hujjati sud hujjati bo‘lmasa va sud hujjati asosida berilmagan bo‘lsa, undiruvchi qarzdor jismoniy shaxsning O‘zbekiston Respublikasidan chiqishini vaqtincha cheklashni belgilash to‘g‘risidagi ariza bilan sudga murojaat qilishga haqli.

Davlat ijrochisining qarzdor jismoniy shaxsning O‘zbekiston Respublikasidan chiqishini vaqtincha cheklash to‘g‘risidagi qarori ustidan shikoyat qilinishi yoki protest keltirilishi mumkin.

Qarzdor jismoniy shaxsning O‘zbekiston Respublikasidan chiqishini vaqtincha cheklashga asos bo‘lgan ijro hujjatining talablari amalda ijro etilganda yoxud u bo‘yicha ijro ishi yuritish ushbu Qonunda belgilangan asoslarga ko‘ra tugatilganda yoki tamomlanganda, davlat ijrochisi keyingi kundan kechiktirmasdan qarzdor jismoniy shaxsni, ichki ishlar organlarini va davlat chegarasini qo‘riqlash organlarini qarzdor jismoniy shaxsning O‘zbekiston Respublikasidan chiqishini cheklash olib tashlanganligi to‘g‘risida yozma shaklda xabardor qiladi.

Qarzdor jismoniy shaxsning O‘zbekiston Respublikasidan chiqishini vaqtincha cheklashni ta’minlash yuzasidan ijrochilarining, ichki ishlar organlari va Davlat chegarasini qo‘riqlash organlarining hamkorligi tartibi O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, Ichki ishlar vazirligi va Milliy xavfsizlik xizmati tomonidan belgilanadi.

### **Qarzdorning chiqish huquqlarini vaqtincha cheklashni bekor qilish to‘g‘risida qaror namunasi**

“TASDIQLAYMAN”

Majburiy ijro byurosi Yashnobod tuman  
bo‘limi boshlig‘i, adliya maslahatchisi

\_\_\_\_\_ B.Y. Dostonov

27-aprel 2018-yil

#### **Q A R O R**

(qarzdorning chiqish huquqlarini vaqtincha cheklashni bekor qilish  
to‘g‘risida)

2018-yil 27-aprel

Toshkent shahri

Majburiy ijro byurosi Yashnobod tuman bo'limi davlat ijrochisi B.X.Alimardonov, ushbu kuni ish yurituvimdag'i fuqarolik ishlari bo'yicha Toshkent shahar Mirobod tumanlararo sudining 2015-yil 3-noyabrdagi ijro varaqasiga asosan qarzdor Aliyev Salimjon Akromovichdan undiruvchi Aliyeva Shirin Xamidovnaning foydasiga bir nafar farzandining ta'minoti uchun qarzdorning oylik ish haqi va boshqa daromadining 1/4 qismi miqdorida aliment undirish to'g'risidagi 29594/19-sonli ijro hujjati bilan tanishib quyidagilarni

### **ANIQLADIM:**

Ijro harakatlarini olib borish jarayonida ijro hujjati O'zbekiston Respublikasi "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida"gi Qonuning 41-moddasiga asosan ish yuritishdan tamomlanganligi uchun, davlat ijrochisining 2017-yil 14-aprelda Aliyev Salimjon Akromovichga "O'zbekiston Respublikasi hududidan chiqishini vaqtincha cheklash" haqidagi qarori bekor bo'lganligi haqida qaror chiqarilgan. Shu sababli, davlat ijrochisi tomonidan qarzdorning O'zbekiston Respublikasi hududidan chiqishini vaqtincha cheklash to'g'risidagi 2015-yil 11-maydagi qarorini bekor qilishni lozim deb hisoblayman. Yuqorida bayon etilganlarga asosan hamda O'zbekiston Respublikasining "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida"gi Qonuning 421 va 86-moddalarini qo'llab,

### **QAROR QILDIM:**

1. 29594/19-sonli ijro ishi bo'yicha qarzdor Toshkent shahar Yashnobod tumani, Farg'ona yo'li 9 berk ko'chasi, 40 uyda ro'yxatda turib, yashovchi 14.09.1989-yilda tug'ilgan Toshkent shahar, Yashnobod tuman IIBB tomonidan 2014-yil 29 abgustda berilgan pasport seriyasi AA 6678889, Aliyev Salimjon Akromovichga nisbatan O'zbekiston Respublikasidan chiqishini vaqtincha cheklash to'g'risidagi davlat ijrochisining 2017-yil 14 apreldagi qarori bekor qilinsin.

2. Mazkur Qarorning ko'chirma nusxalari ichki ishlar organlarining kirish, chiqish va fuqarolik bo'limiga hamda davlat chegarasini qo'-riqlash organlariga tegishli tartibda rasmiylashtirilgan holda ijro etishlik uchun yuborishlik maqsadida Majburiy ijro byurosining Toshkent shahar boshqarmasiga yuborilsin.

3. Qaror nusxasi qarzdorga va undiruvchiga ma'lumot uchun yuborilsin.

4. Davlat ijrochisining qarzdorning chiqish huquqlarini vaqtincha cheklash to'g'risidagi qarorini ijro etilishi shart va faqat sud yoki davlat ijrochisi tomonidan qonunda belgilangan tartibda to'xtatilishi mumkin.

5. Qaror ustidan qaror chiqarilgan kundan e'tiboran o'n kunlik muddat ichida sudga, bo'ysunuv tartibida yuqori turuvchi organga, man-sabdon shaxsga shikoyat berish yoki qonunda belgilangan tartibda prokuror tomonidan protest keltirilishi mumkin.

Majburiy ijro byurosining Yashnobod tuman  
bo'limi davlat ijrochisi

N.X.Karimov

## **NAZORAT UCHUN SAVOLLAR**

1. Ijro hujjatlarining turlarini aytинг.
2. Ijro ishi yuritishda sud qanday hujjatlar chiqaradi?
3. Davlat ijrochisi qachon ijro ishi yuritishni to'xtatadi?
4. Sud qachon ijro ishi yuritishni to'xtatadi va bu to'g'risidagi ajrimni yozing?
5. Davlat ijrochisi ijro ishi yuritishni tugatish asoslarini aytинг?
6. Sud qachon ijro ishi yuritishni tugatadi va bu to'g'risidagi ajrimni yozing?
7. Davlat ijrochisi ijro ishi yuritishni tamomlash asoslarini aytинг.
8. Qarzdor jismoniy shaxsning O'zbekiston Respublikasidan chiqishini vaqtincha cheklash asoslari va tartibini tushuntiring?

## **II. IQTISODIY SUDDA RASMIYLASHTIRILADIGAN PROTSESSUAL HUJJATLAR**

### **11-MAVZU. IQTISODIY ISHLARNI QO‘ZG‘ATISH VA TAYYORLASH BOSQICHIDA YURITILADIGAN PROTSESSUAL HUJJATLAR**

#### **1-§. Da’vo arizasining mazmuni, shakli va uni protsessual rasmiylashtirish tartibi**

Da’vo arizasi iqtisodiy sudga yozma shaklda beriladi. U da’-  
vogar yoki uning vakili tomonidan imzolanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksining  
(keyingi o‘rinlarda – IPK deb yuritiladi) 149-moddasiga asosan  
da’vo arizasida quyidagilar ko‘rsatilishi kerak:

- 1) ariza berilayotgan sudning nomi;
- 2) ishda ishtirok etuvchi shaxslarning nomi (familiyasi, ismi va  
otasining ismi), joylashgan yeri (pochta manzili) yoki yashash joyi;
- 3) agar da’vo baholanishi lozim bo‘lsa, da’voning bahosi;
- 4) da’vo talablariga asos bo‘lgan holatlar;
- 5) da’vo talablarining asoslarini tasdiqlovchi dalillar;
- 6) undirilayotgan yoki nizolashilayotgan summaning hisob-  
kitobi;
- 7) da’vogarning qonun hujjatlariga asoslab keltirgan talablari,  
da’vo bir nechta javobgarga nisbatan taqdim etilganda esa ular-ning  
har biriga nisbatan talablar;
- 8) javobgar bilan nizoni sudgacha hal qilish (talabnomalar  
tartibiga rioya etilganligi to‘g‘risidagi ma’lumotlar, agar bu  
shu toifadagi nizolar uchun qonunda yoki shartnomada nazarda tu-  
tilgan bo‘lsa;
- 9) ilova qilinayotgan hujjatlarning ro‘yxati.

Da’vo arizasida da’vogarning yoki uning vakilining telefonlari,  
fakslari raqamlari, elektron manzili ko‘rsatilishi mumkin.

Da’vo arizasida, agar nizoni to‘g‘ri hal qilish uchun zarur bo‘lsa,  
boshqa ma’lumotlar, shuningdek da’vogardagi mavjud ilti-  
mosnomalar ko‘rsatiladi.

Da'vogar o'zaro bog'liq bo'lgan bir nechta talabni bitta da'vo arizasiga birlashtirishga haqli.

Da'vogar da'vo taqdim etganda javobgarga va uchinchi shaxslarga da'vo arizasining va unga ilova qilingan, ushbu shaxslarda mavjud bo'limgan hujjatlarning ko'chirma nusxalarini yuborishi shart.

Da'vo arizasiga quyidagilarni tasdiqlovchi hujjatlar ilova qilinadi:

1) belgilangan tartibda va miqdorda davlat boji va pochta xarajatlari to'langanligini;

2) da'vo arizasining ko'chirma nusxasi va unga ilova qilingan hujjatlar javobgarga va uchinchi shaxslarga yuborilganligini;

3) javobgar bilan nizoni sudgacha hal qilish (talabnama yuborish) tartibiga rioya etilganligini, agar bu shu toifadagi nizolar uchun qonunda yoki shartnomada nazarda tutilgan bo'lsa;

4) da'vo talablariga asos bo'lgan holatlarni;

5) da'vogarning yuridik shaxs yoki yakka tartibdagи tadbirkor sifatida davlat ro'yxatidan o'tganligini;

6) da'vo arizasini imzolash vakolatini, agar u vakil tomonidan imzolangan bo'lsa.

Shartnomaga tuzishga majbur etish to'g'risidagi da'vo arizasiga shartnomaga loyihasi ham ilova qilinadi.

BEKOBOD TUMANLARARO IQTISODIY SUDIGA	
<b>Da'vogar:</b>	"BINOKOR QURILISH" MChJ Manzil: Qashqadaryo viloyat Koson tuman Yangi hayot 52A. Tel: 99890-000-0000, INN 00000000 x/r 20205000500103230000 MFO 00000 ATB "Asakabank" Qarshi filiali
<b>Javobgar:</b>	"BARAKA OLAM" MChJ Manzil: Toshkent viloyati Bekobod tuman E.Kovunchi QFY I.Kerimkulova mahallasi. Tel: 99890-000-0000, INN 00000000 x/r 20205000500103230000 MFO 00000

	ATB “Agrobank” Bekobod filiali
<b>Da’vo ariza</b>	
<p>07.07.2017 yilda “BARAKA OLAM” MChJ (etkazib beruvchi, keyingi o’rinlarda – javobgar) va “BINOKOR QURILISH” MChJ (sotib oluvchi, keyingi o’rinlarda – da’vogar) o’rtasida №47-sonli pishgan g‘isht yetkazib berish to‘g‘risidagi shartnoma tuzilgan. Shartnomaning 2.5-bandiga muvofiq, shartnomaning umumiy summasi 60 000 000 (oltmis million) so‘mni tashkil etadi.</p> <p>Shartnomaning 1.1-bandiga asosan Javobgar tomonidan Da’vogarga 60 000 000 so‘m evaziga 420 so‘mdan 142857 dona pishgan g‘isht yetkazib berilishi belgilangan. Da’vogar shartnomaning 2.2-bandiga ko‘ra yuqoridagi summani shartnoma tuzilgan kundan 10 kun kechi-ktirmay, ya’ni 10.07.2017 yilda 100% oldindan to‘lov shaklida to‘lab bergen.</p> <p>Biroq, Javobgar shartnoma shartlarini qo‘pol ravishda buzgan holda, 9 oydan (300 kun) beri mahsulot yetkazib berishdan bosh tortib kelmoqda. Bir necha marotaba mashina borib g‘isht yuklamasdan qaytib keldi. Natijada hozirgi kunda Javobgarning Da’vogar oldida 60 000 000 so‘m debitor qarzi mavjud.</p> <p>O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 454-moddasiga muvofiq, tovarlarni to‘liq yetkazib bermaganlik uchun neustoyka to‘lanishi belgilangan.</p> <p>Tovarlarni to‘liq yetkazib bermaganlik yoki yetkazib berish muddatlarini kechiktirib yuborganlik uchun qonunda yoki shartnomada belgilangan neustoyka, agar neustoykani undirishning boshqacha tartibi qonunda yoki shartnomada belgilanmagan bo‘lsa, mahsulot javob-gardan shartnomaning amal qilish muddatida majburiyat amalda baja-rilgunga qadar undiriladi.</p> <p>“Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuning 25-mod-dasiga asoan, tovarlarni yetkazib berish muddatlari kechiktirib yuborilgan, to‘liq yetkazib berilmagan hollarda, tovar javobgar (pud-ratchi) da’vogarga (buyurtmachiga) kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyat bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to‘laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi yetkazib berilmagan tovarlar, bajarilmagan ishlar yoki ko‘rsatilmagan xizmatlar bahosining 50 foi-zidan oshib ketmasligi lozim.</p> <p>Shartnomaning 6.2-bandiga muvofiq, Javobgar mahsulotni o‘z vaq-tida yetkazib bermaganligi uchun, har bir kechiktirilgan kunga</p>	

0,1 % miqdorida penya, lekin shartnomaga summasining 30 % dan oshib ket-magan miqdorda neustoyka to‘lashi belgilangan.

Shu munosabat bilan, Javobgar tomonidan Da’vogarga 2017 yil 7 may holatiga mahsulot yetkazib berish muddatidan 300 kun o‘tg‘anligi munosabati bilan  $18\ 000\ 000 \text{ so‘m} / 60\ 000\ 000 = 0.1$   $= 60\ 000 * 300 (\text{kun}) = 18\ 000\ 000$ . Shuningdek, Javobgar tomonidan majburiyatlar o‘z vaqtida bajarilmaganligi sababli, Da’vogarga boshqa tashkilotdan qimmat narxda g‘isht sotib olishga majbur bo‘ldi.

Shu sababli, da’vogar tomonidan nizoni sudgacha hal qilish maqsadida 04.04.2018 yilda javobgarga yozma xat orqali murojaat qilib, 60 000 000 so‘m asosiy qarz va 18 000 000 so‘m neustoykani to‘lash lozimligi haqida talabnoma yo‘llandi. Ammo, javobgar “Xo‘jalik yuri-tuvchi sub‘ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to‘g‘ri-sida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 18-moddasida belgi-langan talablarni buzgan holda bir oy muddatda javob bermaganligini ma’lum qilamiz.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 437-456-moddalari, “Xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 19, 25-moddalariga, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksining 149-151-moddalariga asosan,

### **SO‘RAYMAN:**

Javobgar “BARAKA OLAM” MChJdan da’vogar “BINOKOR QURILISH” MChJ foydasiga 60 000 000 so‘m asosiy qarz va 18 000 000 so‘m penya undirilishini;

Ushbu da’vo bo‘yicha to‘langan davlat boji va pochta xarajatlarining javobgardan undirilishini.

Ilova:

- 1) Javobgarga yuborilgan talabnoma nusxasi;
- 2) Da’vo arizasining javobgarga yuborilganligi to‘g‘risida hujjat;
- 3) Davlat boji va pochta xarajatlari to‘langanligini tasdiqlovchi hujjatlar;
- 4) “BINOKOR QURILISH” MChJning kichik tadbirdorlik sub‘ekti ekanligi haqidagi statistika qo‘mitasi saytidan olingan ma’lumotnomasi;
- 5) Da’vogarning yuridik shaxs sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tg‘anligi to‘g‘risida guvohnoma nusxasi;
- 6) 07.07.2017 yilda yilda “BARAKA OLAM” MChJ (javobgar) va “BINOKOR QURILISH” MChJ (da’vogar) o‘rtasida tuzilgan №47-son shartnomaga nusxasi;

7) 07.07.2017 yildagi №47-sod shartnomma bo'yicha amalga oshirilgan to'lov talabnomasi nusxasi;

"BINOKOR QURILISH"

MChJ direktori

F.Sh.Salimov

## **2-§. Da'vo arizasini qaytarish yoki qabul qilishni rad etish asoslari va tartibi**

Da'vo arizasida uni rasmiylashtirish va sudga taqdim etish shakli bilan bog'liq ayrim kamchiliklar mavjud bo'lsa sudya da'vo arizasini qaytarish to'g'risida ajrim chiqaradi.

Sudya da'vo arizasini va unga ilova qilingan hujjatlarni quyidagi hollarda qaytaradi, agar:

1) da'vo arizasining IPK 149-moddasida belgilangan shakli va mazmuniga rioya qilinmagan bo'lsa;

2) da'vo arizasi imzolanmagan bo'lsa yoki uni imzolash huquqiga ega bo'lмаган shaxs yoxud mansab mavqeい yoki familiyasi, ismi, otasining ismi ko'rsatilmagan shaxs tomonidan imzolangan bo'lsa;

3) ish mazkur sudning sudloviga tegishli bo'lmasa;

4) o'zarobog'liq bo'lган bir nechta talab birlashtirilgan bo'lib, ularning ayrimlari fuqarolik ishlari bo'yicha sudga yoki ma'muriy sudga, boshqalari esa iqtisodiy sudga taalluqli bo'lsa;

5) javobgar va uchinchi shaxslarga da'vo arizasining va unga ilova qilingan hujjatlarning ko'chirma nusxalari yuborilganligini tasdiqlovchi dalillar taqdim etilmagan bo'lsa;

6) davlat boji va pochta xarajatlari belgilangan tartibda hamda miqdorda to'langanligini tasdiqlovchi hujjatlar taqdim etilmagan bo'lsa, davlat boji to'lashni kechiktirish, bo'lib-bo'lib to'lash mumkinligi qonunda nazarda utilgan hollarda esa bu haqda iltimos nomalar mavjud bo'lmasa yoxud iltimosnoma rad etilgan bo'lsa;

7) mazkur toifadagi nizolar uchun qonunda yoki shartnomada nazarda utilgan hollarda javobgar bilan nizoni sudgacha hal qilish (talabnomalar yuborish) tartibiga rioya etilganligini tasdiqlovchi hujjatlarni da'vogar taqdim etmagan bo'lsa;

8) bitta da'vo arizasida bir yoki bir nechta javobgarga nisbatan o'zarobog'liq bo'lмаган bir nechta talab birlashtirilgan bo'lsa;

9) qonun hujjatlariga yoki shartnomaga ko'ra qarz bank yoki boshqa kredit tashkiloti orqali olinishi kerak bo'lganda qarzni

javobgardan olish uchun bankka yoxud boshqa kredit tashkilotiga murojaat qilinganligiga doir dalillar taqdim etilmagan bo‘lsa;

10) da’vo arizasini ish yuritishga qabul qilish to‘g‘risida ajrim chiqarilguniga qadar uni qaytarib olish to‘g‘risida ariza kelib tushgan bo‘lsa.

Da’vo arizasini qaytarish to‘g‘risidagi ajrim ustidan shikoyat qilinishi (protest keltirilishi) mumkin. Ajrim bekor qilingan taq-dirda, da’vo arizasi sudga dastlabki murojaat qilingan kunda berilgan hisoblanadi.

*Eslatma!* Da’vo arizasi qaytarilgan taqdirda yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarni bartaraf etib takroran sudga da’vo arizasi shaklida murojaat qilish mumkin.

#### **AJRIM (da’vo arizani qaytarish to‘g‘risida)**

**Bekobod shahri 2019 yil 9 yanvar ish** **4-1109-1906/283-soni**

Bekobod tumanlararo iqtisodiy sudining sudyasi T.Olimov, da’vogar – Xususiy tadbirkor Mamatkulova Matluba Nosirovnaning javobgar – Toshkent viloyati Bekobod shahar hokimligidan 60.354.000 so‘m yetkazilgan zarar undirishni va Bekobod savdo kompleksi MChJ hududidagi buzilayotgan do‘kon o‘rniga boshqa do‘kon berish to‘g‘risidagi da’vo arizasi va unga ilova qilingan hujjatlarni ko‘rib chiqib, quyidagilarni

#### **ANIQLADI :**

Da’vogar – Xususiy tadbirkor Mamatkulova Matluba Nosirovna sudga da’vo arizasi bilan murojaat qilib, javobgar – Bekobod shahar hokimligidan 60.354.000 so‘m yetkazilgan zarar undirishni va Bekobod savdo kompleksi MChJ hududidagi buzilayotgan do‘kon o‘rniga boshqa do‘kon berishni so‘ragan.

Sud da’vo ariza va ilova qilingan hujjatlarni ko‘rib chiqib, quyidagi asoslarga ko‘ra uni qaytarishni lozim deb topdi:

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksining (keyingi o‘rinlarda – IPK deb yuritiladi) 150-moddasiga ko‘ra da’vogar da’vo taqdim etganda javobgarga va uchinchi shaxslarga da’vo arizasining va unga ilova qilingan, ushbu shaxslarda mavjud bo‘lmagan hujjatlarning ko‘chirma nuxxalarini yuborishi shart.

Biroq, sudga taqdim etilgan da’vo arizasida da’vogar tomonidan javobgarga da’vo arizasining va unga ilova qilingan hujjatlarning

ko‘chirma nusxalarini yuborganligi to‘g‘risidagi ma’lumotlar ilova qilinmagan.

Shuningdek, da’vo arizasi Mamatkulova Matluba Nosirovna tomonidan imzolangan bo‘lib, uning mansab mavqeい ko‘rsatilmagan hamda imzo tashkilot muhri bilan tasdiqlanmagan.

IPK 151-moddasi birinchi qismi 1-bandiga asosan da’vo arizasiga belgilangan tartibda va miqdorda davlat boji va pochta xarajatlari to‘langanligi tasdiqlovchi hujjatlar ilova qilinishi lozim.

Lekin da’vogar tomonidan da’voning 60.354.000 so‘m yetkazilgan zarar undirish qismi bo‘yicha 1.200.000 so‘m davlat boji to‘langan bo‘lib, da’vo talabining buzilayotgan do‘kon o‘rniga boshqa do‘kon berish to‘g‘risidagi qismi bo‘yicha davlat boji to‘lanmagan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 3 noyabrdagi “Davlat boji stavkalari haqida”gi 533-son qaroriga asosan mulkka oid bo‘limgan tusdagi da’vo arizalaridan eng kam oylik ish haqining 10 baravari miqdorida davlat boji to‘lanishi lozim.

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksining 155-moddasiga ko‘ra, da’vo arizasining ushbu Kodeks [149-moddasida](#) belgilangan shakli va mazmuniga rioya qilinmagan bo‘lsa, da’vo arizasi imzolamagan bo‘lsa yoki uni imzolash huquqiga ega bo‘limgan shaxs yoxud mansab mavqeи yoki familiyasi, ismi, otasining ismi ko‘rsatilmagan shaxs tomonidan imzolangan bo‘lsa hamda javobgar va uchinchi shaxslarga da’vo arizasining va unga ilova qilingan hujjatlarning ko‘chirma nusxalari yuborilganligini tasdiqlovchi dalillar taqdim etilmagan bo‘lsa, shuningdek, davlat boji va pochta xarajatlari belgilangan tartibda hamda miqdorda to‘langanligini tasdiqlovchi hujjatlar taqdim etilmagan bo‘lsa, sudya da’vo arizasini va unga ilova qilingan hujjatlarni qaytarishi belgilangan.

Yuqoridagilarga asosan, sud da’vogar – Xususiy tadbirkor Mamatkulova Matluba Nosirovnaning javobgar – Bekobod shahar hokimligidan 60.354.000 so‘m yetkazilgan zarar undirish va Bekobod savdo kompleksi MChJ hududidagi buzilayotgan do‘kon o‘rniga boshqa do‘kon berish to‘g‘risidagi da’vo arizasi va unga ilova qilingan hujjatlarni qaytarishni lozim topdi.

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksning 149, 150, 151, 155-moddasi hamda 195-moddalariga asoslanib, sud

#### **AJRIM QILDI :**

Xususiy tadbirkor Mamatkulova Matluba Nosirovnaning da’vo arizasi nusxasi va unga ilova qilingan hujjatlar (jami 39 varaqda hujjatlar hamda 2 ta fotosurat) qaytarilsin.

Da’vo arizaning qaytarilishi belgilangan kamchiliklar bartaraf etilgach umumiy tartibda da’vo taqdim etishga to‘sinqilik qilmaydi.

Mazkur ajrim ustidan shikoyat qilish (protest keltirish) mumkin.

**Sudya**

**T.Olimov**

Shuningdek, sudya tomonidan da'vo arizasini qabul qilishni rad etish to'g'risida ajrim qabul qilinishi mumkin. Ushbu holatda aynan shu da'vo yuzasidan sudga takroran da'vo ariza bilan muro-jaat qilib bo'lmaydi.

Sudya da'vo arizasini ish yuritishga qabul qilishni quyidagi hollarda rad etadi, agar:

1) nizo sudga taalluqli bo'lmasa;

2) ayni bir shaxslar o'rtasidagi, ayni bir predmet to'g'risidagi va ayni bir asoslar bo'yicha nizo yuzasidan iqtisodiy sudning qo-nuniy kuchga kirgan hal qiluv qarori yoki ishni yuritishni tugatish to'g'risida ajrimi yoxud fuqarolik ishlari bo'yicha sudning hal qiluv qarori yoki kelishuv bitimini tasdiqlash to'g'risida ajrimi bo'lsa;

3) iqtisodiy sudning, fuqarolik ishlari bo'yicha sudning, ha-kamlik sudining ish yuritishida ayni bir shaxslar o'rtasida, ayni bir predmet to'g'risida va ayni bir asoslar bo'yicha nizo yuzasidan ish mavjud bo'lsa;

4) ayni bir shaxslar o'rtasidagi, ayni bir predmet to'g'risidagi va ayni bir asoslar bo'yicha nizo yuzasidan hakamlik sudining qo-nuniy kuchga kirgan hal qiluv qarori bo'lsa, bundan iqtisodiy sud hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasini berishni rad etganollar mustasno;

5) ayni bir shaxslar o'rtasidagi, ayni bir predmet to'g'risidagi va ayni bir asoslar bo'yicha nizo yuzasidan hakamlik muhoka-masini tugatish to'g'risida chiqarilgan ajrim bo'lsa, bundan ha-kamlik sudida ushbu nizoni ko'rib chiqish vakolati mavjud emas-ligi sababli hakamlik muhokamasi tugatilganligi holati mustasno.

Da'vo arizasini qabul qilishni rad etish to'g'risidagi ajrim ustidan shikoyat qilinishi (protest keltirilishi) mumkin. Ajrim bekor qilingan taqdirda, da'vo arizasi sudga dastlabki murojaat qilin-gan kunda berilgan deb hisoblanadi.

## AJRIM

(da'vo arizani qabul qilishni rad etish to'g'risida)

Romitan tumanlararo iqtisodiy sudining sudyasi N.Navro'zov, arizachi "Kolfarm" MChJning javobgar Majburiy ijro byurosi Buxoro viloyati Romitan tuman bo'limi davlat ijrochisi tomonidan 07.06.2018 yilda rasmiylashtirilgan mol-mulkni xatlash to'g'risidagi dalolatnomani haqiqiy emas deb topish to'g'risidagi arizasi va unga ilova qilingan hujjatlarni ko'rib chiqib, quyidagilarni

**ANIQLADI:**

Arizachi "Kolfarm" MChJ sudga ariza bilan murojaat qilib javobgar Majburiy ijro byurosi Buxoro viloyati Romitan tuman bo'limining 07.06.2018 yildagi mol-mulkni xatlash to'g'risidagi dalolatnomani haqiqiy emas deb topishni so'ragan.

Sud ariza hamda unga ilova qilingan hujjatlarni ko'rib chiqib, quyidagi asoslarga ko'ra arizani qabul qilishni rad etishni lozim deb topdi.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksining 25-moddasi birinchi qismi, 1-bandiga binoan iqtisodiyot sohasida yuridik shaxslar hamda yuridik shaxs tashkil etmagan holda tadbirdorlik faoliyatini amalga oshirayotgan va yakka tartibdagи tadbirdor maqomini qonunda belgilangan tartibda olgan fuqarolar, shuningdek korporativ nizolar bo'yicha ishlар ko'rileyotganda taraflar bo'lgan fuqarolar (bundan buyon matnda fuqarolar deb yuritiladi) o'rta sidagi fuqaroviylar, ma'muriy va boshqa huquqiy munosabatlardan yuzaga keladigan nizo-larga doir ishlар iqtisodiy sudga tegishliliги belgilangan.

Shuningdek, IPKning 26-moddasida iqtisodiy sud tomonidan hal etiladigan nizolar ro'yxati belgilangan.

Mazkur holatda arizachining arizasida qo'yilgan talab iqtisodiy sudga taalluqli emas. O'zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksining 154-moddasi birinchi qismi 1-bandiga ko'ra nizo sudga taalluqli bo'lmasa da'vo arizasini ish yuritishga qabul qilishni rad etish belgilangan.

Sud yuqorida qayd etilgan qonun talabiga ko'ra nizo sudga taalluqli bo'lmaganligi bois, arizachining da'vo arizasini qabul qilishni rad etishni lozim topdi.

O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy sud ishlарini yuritish to'g'risidagi kodeksining 27-moddasi birinchi qismi 2-bandiga asosan davlat boshqaruvi organlarining, ma'muriy-huquqiy faoliyatni amalga oshirishga vakolatli bo'lgan boshqa organlarning, fuqarolar o'zini o'zi

boshqarish organlarining va ular mansabdon shaxslarining qonun hujjaligiga mos kelmaydigan hamda fuqarolar yoki yuridik shaxslarning huquqlarini va qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini buzadigan qarorlari, harakatlari (harakatsizligi) yuzasidan nizolashish to‘g‘risidagi ishlar ma’muriy sudga taalluqli.

Yuqoridagilarga asosan, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksining 154-moddasining birinchi qismi 1-bandi, 195-mod-dalariga asoslanib, sud

### **AJRIM QILDI:**

Arizachi “Kolfarm” MChJning javobgar Majburiy ijro byurosi Buxoro viloyati Romitan tuman bo‘limiga nisbatan berilgan arizasini qabul qilish rad etilsin.

Arizachining arizasi va unga ilova qilingan 23 varaqdan iborat xujjatlar qaytarilsin.

Ajrimdan norozi taraf Buxoro viloyat iqtisodiy sudiga qonunda belgilangan tartibda shikoyat qilishga haqli.

**Sudya**

**N.Navro‘zov**

### **3-§. Da’vo arizasini ish yuritishga qabul qilish, ish qo‘zg‘atish va ishni sud muhokamasiga tayyorlash**

Da’vo arizasi IPKda belgilangan tartibda hamda mazmunan to‘g‘ri shakllantirilgan taqdirda sud da’vo arizasini ish yuritishga qabul qilish to‘g‘risida ajrim qabul qiladi. Sudya da’vo arizasini ish yuritishga qabul qilish to‘g‘risidagi, qabul qilishni rad etish yoxud qaytarish haqidagi masalani da’vo arizasi sudga kelib tush-gan kundan e’tiboran besh kundan kechiktirmay yakka tartibda hal qiladi.

Da’vo arizasini ish yuritishga qabul qilish, qabul qilishni rad etish yoki qaytarish to‘g‘risida ajrim chiqariladi, uning ko‘chirma nusxalari ishda ishtirok etuvchi shaxslarga u chiqarilganidan keyingi kundan kechiktirmasdan yuboriladi.

Sudya IPKda nazarda tutilgan talablarga rioya etgan holda berilgan da’vo arizasini ish yuritishga qabul qilishi va ish qo‘zg‘a-tishi shart.

Sudya ishni sud muhokamasiga tayyorlash to‘g‘risida ajrim chiqaradi, unda o‘zi hamda ishda ishtirok etuvchi shaxslar tomo-

nidan amalga oshirilishi lozim bo‘lgan harakatlar, ushbu harakat-lar amalga oshirilishi kerak bo‘lgan muddatlar, sud muhokamasini o‘tkazish vaqtiga joyi ko‘rsatiladi.

Ishni sud muhokamasiga tayyorlash bo‘yicha harakatlar da’vo arizasini ish yuritishga qabul qilish va ish qo‘zg‘atish to‘g‘risidagi ajrimda bayon etilishi mumkin.

Sudya da’vo arizasini ish yuritishga qabul qilish, ish qo‘zg‘atish va ishni sud muhokamasiga tayyorlash to‘g‘risidagi masala-larni bir ajrimmi o‘zida bayon etishga haqli.

## AJRIM

*(Da'vo arizasini ish yuritishga qabul qilish, ish qo'zg'atish va  
ishni sud muhokamasiga tayyorlash to'g'risida)*

**Navoiy shahar      2018-yil 26-oktabr      4-2101-1808/0000-sonli  
ish**

Karmana tumanlararo iqtisodiy sudining sudyasi A.Kamolov, da'-vogar "Mirzaxmat saxovati" fermer xo'jaligining javobgar "Aburaxmon agro" fermer xo'jaligi hisobidan 1.103.065 so'm asosiy qarz, 551.532 so'm penya, 500.000 so'm zarar undirish to'g'risidagi da'vo arizasi va unga ilova qilingan hujjatlar bilan tanishib chiqib, da'vo arizasi O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksining 149-mod-dasi talablariga rioya qilingan holda berilgan deb hisoblaydi.

Da'vo arizasini ish yuritishga qabul qilish va nizoni ko'rish uchun yetarli asoslar mavjudligini inobatga olib, nizoni o'z vaqtida va to'g'ri ko'rib chiqilishini ta'minlash maqsadida hamda O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksining 151, 152, 153, 162, 163-moddalarini qo'llab, sudya,

### AJRIM QILDI:

Da'vo arizasi ish yuritishga qabul qilinsin hamda mazkur da'vo yuzasidan

4-2101-1808/0000-sonli ish qo'zg'atilsin.

Ish 2018 yil 13 noyabr kuni soat 15:00 da Navoiy viloyati Navoiy shahri Istiqlol ko'chasi 34-uyda joylashgan Karmana tumanlararo iqtisodiy sudida bo'ladigan ochiq sud majlisi muhokamasida ko'rib chiqish uchun tayinlansin.

Ishni sud muhokamasida ko'rishga tayyorlash uchun:

**Da'vogar zimmasiga** da'vo arizaga ilova qilingan hujjatlarning asl nuxsalarini va da'veoni asoslovchi boshqa hujjatlarni sudga taqdim qilish yuklatilsin.

**Javobgarning** da'vo arizasi yuzasidan o'z e'tirozlarini tasdiqlovi-chi hujjatlarni taqdim etish huquqi mavjudligi tushuntirilsin.

Da'vogar sud majlisiga kelmagan va ishni o'zining ishtirokisiz ko'rib chiqish to'g'risida yozma roziligi bo'limgan holatda O'zbekiston Respublikasi IPKning 107-moddasiga asosan da'veoni ko'rmasdan qoldirish uchun asos bo'ladi.

Tomonlarning vakillari ishonchnoma va shaxsini tasdiqlovchi hujjat bilan qatnashishlari shart!

**Sudya**

**A.Kamolov**

## **NAZORAT UCHUN SAVOLLAR**

1. Iqtisodiy ishni qo‘zg‘atish bosqichida qanday protsessual hujjatlar chiqariladi?
2. Arizani qaytarish asoslarini ayting.
3. Arizaga ilova qilinadigan hujjatlarni tushuntiring.
4. Iqtisodiy ishni sudda ko‘rishga tayyorlash bosqichida sudying protsessual harakatlarini ayting.

## **12-MAVZU. ISHNI SUDDA KO'RISH BOSQICHIDA YURITILADIGAN PROTSESSUAL HUJJATLAR**

### **1-§. Sud muhokamasi paytida rasmiylashtiriladigan hujjatlar**

Sud muhokamasi ishni sud muhokamasiga tayyorlash to‘g‘risidagi ajrim chiqarilgan kundan e’tiboran bir oydan oshmagan muddatda tugallanishi kerak.

Alovida hollarda, sud muhokamasining muddati sud raisi tomonidan bir oydan oshmagan muddatga uzaytirilishi mumkin (IPK 164-modda).

Ish muhokamasi sud majlisida amalga oshiriladi. Sudning majlisi videokonferensaloqa rejimida o’tkazilishi mumkin.

Sud tashabbusiga ko‘ra yoki iqtisodiy sud ishlari ishtirok-chilarining iltimosnomasiga ko‘ra sud majlisining audio yoki video yozuvni amalga oshirilishi mumkin.

Majlisda raislik qiluvchi sudyasi:

- 1) sud majlisini ochadi va qanday ish ko‘rlishini e’lon qiladi;
- 2) iqtisodiy sud ishlarini yuritish ishtirokchilari majlisga kelgan-kelmaganligini, ularning vakolatlarini, majlisga kelmagan shaxslar tegishli ravishda xabardor qilingan-qilinmaganligini hamda ularning kelmaganligi sabablari to‘g‘risida qanday ma’lumotlar borligini tekshiradi;
- 3) sud tarkibini e’lon qiladi, prokuror, ekspert, mutaxassis, sud majlisini kotibi, tarjimon sifatida kimlar ishtirok etayotganligini ma’lum qiladi hamda ishda ishtirok etuvchi shaxslarga ularning rad qilish huquqini tushuntiradi;
- 4) kelgan guvohlarni majlis zalidan so‘roq qilish boshlangu-niga qadar chiqarib yuboradi;
- 5) sud protsessi ishtirokchilariga ularning protsessual huquqlari va majburiyatlarini tushuntiradi;
- 6) tarjimonni bila turib noto‘g‘ri tarjima qilganlik uchun, ekspertni bila turib noto‘g‘ri xulosa bergenlik uchun, guvohni bila turib yolg‘on ko‘rsatuv bergenlik uchun jinoiy javobgarlik to‘g‘-risida ogohlantiradi;
- 7) dalillarni tekshirish tartibini belgilaydi;
- 8) ish uchun ahamiyatli holatlар aniqlanishini ta’minlab, majlisiga rahbarlik qiladi;

9) majlisda tegishli tartibni ta'minlash choralarini ko'radi.

Majlis zalida hozir bo'lganlar yozma qaydnomalar qilish, stenogramma olib borish va ovoz yozib olish huquqiga ega. Sud majlisining fototasviriga, videoyozuviga, shuningdek radio va te-levideniye orqali translyatsiya qilinishiga ishni ko'rayotgan sud-ning ruxsati bilan yo'l qo'yiladi (IPK 165-modda).

Sudyalar majlis zaliga kirib kelganida va undan chiqib keta-yotganida zalda hozir bo'lganlarning barchasi o'rinnlaridan turadi.

Sud jarayoni ishtirokchilari sudga «Hurmatli sud!» degan so'zlar bilan murojaat qiladi. Ular sudga o'z tushuntirishlari va ko'rsatuvarlarini, savollarga javoblarini tik turib beradi. Bu qoida-dan chetga chiqishga faqat raislik qiluvchining ruxsati bilan yo'l qo'yilishi mumkin.

Sud muhokamasi davomida sud ish bo'yicha dalillarni tek-shi-radi: ishda ishtirok etuvchi shaxslarning tushuntirishlarini, guvohlarning ko'rsatuvarlarini, ekspertlarning xulosalarini, mutaxassislarining maslahatlarini (tushuntirishlarini) eshitadi, yozma dalillar bilan tanishadi, ashyoviy dalillarni ko'zdan kechiradi, shuningdek yozma shaklda taqdim etilgan tushuntirishlar, ko'rsatuvarlar va xulosalarini o'qib eshittiradi (IPK 168-modda).

Sud:

tarafning iltimosnomasi bo'yicha, u nizoni kelishuv yo'li bilan hal qilish maqsadida suddan ko'maklashishni so'rab murojaat qilgan taqdirda;

agar sud majlisining vaqtি va joyi haqida tegishli tarzda xa-baridor qilingan ishda ishtirok etuvchi shaxs sud majlisiga kela olmasligi sabablarini asoslagan holda sud muhokamasini keyinga qoldirish to'g'risida iltimosnoma bilan murojaat qilgan bo'lsa va basharti ushbu shaxsning ishtirokisiz ishni ko'rish mumkin bo'lmasa;

ishda ishtirok etuvchi shaxsning o'z vakili sud majlisiga uzrli sababga ko'ra kela olmaganligi munosabati bilan qilgan iltimos-nomasi bo'yicha;

sud protsessi ishtirokchilaridan birortasi, agar sud ishni uning ishtirokisiz ko'rish mumkin emas deb hisoblasa, kelmagan taqdirda;

tarafning qo'shimcha dalillar taqdim etish zarurati bilan bog'liq holda sud muhokamasini keyinga qoldirish to'g'risidagi iltimos-nomasi bo'yicha;

sud majlisi videokonferensaloqa rejimida o'tkazilayotganda video konferens aloqa o'rnatish imkon bo'lmanan taqdirda, sud muhokamasini keyinga qoldirishga haqli.

Sud sudning majlisida ishni ko'rish mumkin bo'lmanan boshqa hollarda ham sud muhokamasini keyinga qoldirishga haqli.

Sud muhokamasi uni keyinga qoldirishga asos bo'lib xizmat qilgan holatlarni bartaraf etish uchun zarur bo'lgan muddatga, ushbu Kodeksda sud muhokamasi uchun belgilangan muddat doirasida qoldirilishi mumkin.

Sud muhokamasini keyinga qoldirish to'g'risida ajrim chiqariladi.

Agar sud majlisida taraflar hozir bo'lsa, sud kelgan guvohlarni sud muhokamasi keyinga qoldirilguniga qadar so'roq qilishga haqlid. Bu guvohlarning ko'rsatuvlari yangi sud majlisida o'qib eshittiriladi. Ushbu guvohlarni yangi sud majlisiga takroran chaqirish faqat zarur hollarda amalga oshiriladi.

Ishda ishtirok etuvchi, ammo sud majlisiga kelmagan shaxslar IPK 127-moddasida belgilangan tartibda yangi sud majlisining vaqt va joyi to'g'risida xabardor qilinadi. Sud majlisiga kelgan ishda ishtirok etuvchi shaxslar ish materiallariga qo'shib qo'-yiladigan tilxat orqali xabardor qilinadi.

Sud muhokamasi keyinga qoldirilganidan so'ng davom etti-rladi.

Zarurat bo'lganda ishning muhokamasi u qoldirilganidan keyin boshidan boshlanadi.

### A J R I M

(ishni ko'rishni keyinga qoldirish to'g'risida)

**Forish tumani      2019-yil 5-fevral      4-1101-1803/3901-sonli ish**

Forish tuman iqtisodiy sudi sudyasi M.Ibragimov raisligida, sudya yordamchisi Z.Abdullayev kotibligida, da'vogar Jizzax viloyat ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish boshqarmasining javobgar "Lipton brands" MChJ hisobidan 24.737.673 so'm asosiy qarz, 5.862.828 so'm penya undirish to'g'risidagi da'vo arizasini, da'vogar vakili D.Xalmuxamedov (23.11.2018 yildagi 11-sonli ishonchnoma) ishtirokida ochiq sud majlisida ko'rib chiqib, quyidagilarni

## **ANIQLADI**

Da'vogar Jizzax viloyat ekoliya va atrof-muhitni muhofaza qilish boshqarmasi sudga murojaat qilib, javobgar "Lipton brands" MChJ hisobidan 24.737.673 so'm asosiy qarz, 5.862.828 so'm penya undirishni so'ragan.

Sud majlisida da'vogar vakili javobgar tomonidan atrof-muhitni ifloslantirganligi sababli hisoblangan 24.737.673 so'm summani 3 oydan beri to'lamasdan kelayotganligi, shu sababli ushbu qarz-dorlikka penya hisoblanganligini ta'kidlab da'veoni to'liq qanoat-lantirishni so'radi.

Sud majlisida javobgar vakili ishtirok etmadni. Javobgarning sud majlisidan xabardor qilinganligi to'g'risida ma'lumotlar ish hujjatla-rida mavjud emas. O'zbekiston Respublikasi IPKning 171-moddasiga asosan, sud protsessi ishtirokchilaridan birortasi, agar sud ishni uning ishtirokisiz ko'rish mumkin emas deb hisoblasa, kelmagan taqdirda sud muxokamasini keyinga qoldirishga haqlidir.

Sud da'vogar vakilining ko'rsatmasini tinglab, ishdagi hujjatlar bilan tanishib chiqib, keyingi sud majlisiga javobgarning ishtirokini ta'minlash maqsadida ish ko'rishni boshqa kunga qoldirishni lozim deb topdi.

Binobarin, O'zbekiston Respublikasining IPK 171, 195-moddalariga amal qilib, sud

## **AJRIM QILDI:**

Sud muhokamasi 2019 yil 14 dekabr kuni soat 16-00da Jizzax viloyati, Forish tumani, "Oxunboboyev" q.f.y., Nurafshon ko'chasida joylashgan Forish tuman iqtisodiy sudi binosining 1-sonli sud majlislar zalida ochiq sud majlisida ko'rib chiqish uchun qoldirilsin.

Da'vogar vakili sud majlisi vaqt va joyi to'g'risida tilxat olib xabardor qilinsin.

Javobgar sud majlisi vaqt va joyi to'g'risida xabardor qilinsin.

Taraflar ularning zimmalariga sud tarafidan yuklatilgan vazifalarni bajarmaganligi, sudga kelishdan bosh tortgan hollarda aybdor shaxs sifatida O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi Kodeksining 180-moddasi bilan javobgarlikka tortilishi ogohlantirilsin.

Taraflar vakillari shaxslarini tasdiqlovchi xujjat (pasport yoki guvohnoma) va tashkilot nomidan ish yuritishlari uchun ishonchnoma bilan qatnashishlari shart!

**Sudya**

**M.Ibragimov**

## **2-§. Sud majlisi bayonnomasini rasmiylashtirish tartibi**

Sud majlisida, shuningdek sud majlisi zalidan tashqarida ayrim protsessual harakatlar bajarilganda bayonnomma yuritiladi.

Sud majlisining bayonnomasida quyidagilar ko'rsatiladi:

- 1) sud majlisi o'tkazilgan yil, oy, sana va joy;
- 2) ishni ko'rayotgan sudning nomi, sud tarkibi va sud majlisining kotibi;
- 3) ishning nomi va raqami;
- 4) ishda ishtirok etuvchi shaxslar va sud protsessining boshqa ishtirokchilari kelganligi to'g'risidagi ma'lumotlar;
- 5) sud tomonidan ishda ishtirok etuvchi shaxslarga va sud protsessining boshqa ishtirokchilariga ularning protsessual huquq va majburiyatlari tushuntirilganligi to'g'risidagi ma'lumotlar;
- 6) sud tomonidan alohida xonaga (maslahatxonaga) kirmasdan joyida chiqarilgan ajrimlar;
- 7) ishda ishtirok etuvchi shaxslarning og'zaki arzlari va iltimosnomalari;
- 8) ishni ko'rishda sudga taqdim etilgan barcha yozma va ash-yoviy dalillar, ekspertlarning yozma xulosalarini haqidagi ma'lumotlar;
- 9) ishda ishtirok etuvchi shaxslarning tushuntirishlari, guvohlarning ko'rsatuvlari, ekspertlarning o'z xulosalarini og'zaki tushuntirishlari, mutaxassislarning fikrlari, ash-yoviy va yozma dalillarning ko'zdan kechirilganligi, olib qo'yilganligi, sxemalar tuzilganligi, video- va fototasvirga olinganligi haqidagi ma'lumotlar;
- 10) alohida protsessual harakatlar bajarilganda olingan ma'lumotlar;
- 11) sud muzokaralarining mazmuni va prokurorning fikri;
- 12) sudning hal qiluv qarori, ajrimi yoki qarori o'qib eshit-tirilganligi haqidagi ma'lumotlar.

Sud majlisi bayonnomasida boshqa ma'lumotlar ham ko'rsatilishi mumkin.

Sud majlisi audio- yoki videoyozuvga olingan taqdirda, sud majlisi bayonnomasida faqat mazkur modda ikkinchi qismining 1—4, 6—8, 11-bandlarida nazarda tutilgan masalalar yuzasidan yozuv kiritiladi, ishda ishtirok etuvchi shaxslar bergen tushunti-rishlarni

ing boshlangan va tugagan vaqtiga, guvohlarning ko'rsa-tuvlari, ekspertlarning o'z xulosalari yuzasidan bergan og'zaki tushuntirishlari, muzokaralar va prokurorning fikrlari aks ettiriladi, shuningdek sud majlisida yozib olish texnik vositalaridan foydalanganligi to'g'risida belgi qo'yiladi. Elektron yoxud boshqa audio yoki videoyozuvlardan jamlangan vositalar sud majlisi bayon-nomasiga qo'shib qo'yiladi.

Sud majlisi videokonferensaloqa rejimida o'tkazilgan taqdirda, sud majlisi bayonnomasida ushbu moddaning ikkinchi qismida nazarda tutilganidan tashqari quyidagi ma'lumotlar ham ko'r-satilishi kerak:

sud majlisi videokonferensaloqa rejimida o'tkazilganligi to'g'-risidagi;

sud majlisini videokonferensaloqa rejimida o'tkazishga ko'-maklashgan sudning nomi haqidagi;

ishda ishtirok etuvchi shaxslar hamda sud majlisini videokonferensaloqa rejimida o'tkazishga ko'maklashgan, ishni ko'rayot-gan sudga kelgan sud protsessining boshqa ishtirokchilari to'g'-risidagi;

sud majlisini videokonferensaloqa rejimida o'tkazishga ko'-maklashgan sudning hamda ishni ko'rayotgan sudning axborot-kommunikatsiya texnologiyalari xodimlari haqidagi.

## **SUD MAJLISI BAYONNOMASI**

**Toshkent shahri 2019-yil 24-yanvar 4-1109-1908/0000-sonli  
ish**

Chirchiq tumanlararo iqtisodiy sudi suda B.Suyunov raisligida, suda yordamchisi H.Zufarova kotibligida, Toshkent viloyat iqtisodiy sudi VKA xodimi A.Sobirov, Xorazm viloyat iqtisodiy sudi VKA xodimi B.Xasanov, da'vogar vakili F.Egamov, Q.Israilov (2018 yil 10 dekabrdagi 87-sonli ishonchnoma asosida), javobgarlar rahbari A.M.Axmedjonov, vakillari O.Risqulov, V.Kamolov (ishonchnomalar asosida) ishtirokida, da'vogar ATB "InFinBank"ning javobgar "ISTENGER PLUS SAVDO" xususiy korxonasi va qo'shimcha javobgarlar "BIZNES GOLD" xususiy korxonasi hisobidan jami 470 664 505,94 so'm kredit qarzini muddatidan oldin undirib berish, undiruvni javobgar "ISTENGER PLUS SAVDO" xususiy korxo-nasining mol mulkiga hamda garovga qo'yilgan qo'shimcha javobgar "BIZNES GOLD" xususiy korxonasining mol-mulklariga qaratish, garovdagagi mulklarning

boshlang‘ich bahosini belgilab berish to‘g‘-risidagi da’vo arizasini Toshkent viloyat iqtisodiy sudi binosida ochiq, sayyor sud majlisida, videokonferensaloqa rejimida ko‘rib chiqmoqda.

Raislik qiluvchi sud majlisini ochiq deb e’lon qildi.

Sud majlisi kotibi sud majlisiga taklif qilingan taraflarning kelgan yoki kelmaganligi to‘g‘risida raislik qiluvchiga axborot berdi.

Sud majlisida:

Toshkent viloyat iqtisodiy sudi VKA xodimi A.Sobirov, Sirdaryo viloyat iqtisodiy sudi VKA xodimi B.Xasanov, da’vogar vakili F.Egamov, Q.Israilov, javobgarlar rahbari A.M.Axmedjonov, vakillari O.Risqulov, V.Kamolov ishtirot etmoqda.

Raislik qiluvchi taraflar vakillaridan raislik qiluvchi va sud majlisi kotibiga nisbatan raddiyalar bor-yo‘qligini so‘radi.

Taraflarda raddiyalar bo‘lmadi.

Raislik qiluvchi ishda ishtirot etuvchi shaxslarga IPKning 42-moddasida belgilangan huquq va majburiyatlarini tushuntirdi.

Taraflar rozili bilan sud majlisini o‘zbek tilida olib borilishiga kelishib olindi.

Raislik qiluvchi taraflar vakillaridan iqtisodiy ish yuzasidan ariza va iltimosnomalar bor-yo‘qligini so‘radi.

Ariza va iltimosnomalar bo‘lmadi.

Raislik qiluvchi sud majlisini olib borish va dalillarni tekshirish tartibini belgiladi.

Raislik qiluvchi da’vogar vakili ko‘rsatmasini tinglashga kirishdi.

Da’vogar vakilining da’vo arizasi yuzasidan tushuntirishi:

2018-yil 25-may kunidagi KD-Yu-01080-18-31-sonli kredit shartnomasiga asosan ATB “InFinBank” tomonidan “ISTENGER PLUS SAVDO” XKga 18 oy muddatga iste’mol maxsulotlari sotib olish uchun pul aylanma mablatini to‘ldirish uchun yillik 22% to‘lash sharti bilan 600 000 000 so‘m miqdorida kredit ajratilgan.

“ISTENGER PLUS SAVDO” XK kredit shartnomaning 4.1, 4.8-bandiga asosan kreditning asosiy qarzi va foizlarini belgilangan muddatda to‘lashi lozim bo‘lsada kredit olingan vakddan buyon to‘lov muddatlarini muntazam ravishda kechiktirib kelgan, 2018-yil noyabr oyidan boshlab esa kredit to‘lovlarini amalga oshirishni to‘xtatgan.

ATB “InFinBank” tomonidan “ISTENGER PLUS SAYDO” XKga kredit karzlarini to‘lash bo‘yicha berilgan bir necha ogohlantirishlar e’tiborsiz qoldirilgan.

Kredit shartnomaning 8.1-bandи b-kichik bandiga asosan bank karzdorni karzni yuzaga kelgan qarzdorlikni to‘lash bo‘yicha ogohlantirgandan so‘ng 10 kun o‘tgan bo‘lsa bank muddatidan oldin undiruv qaratish yuzasidan sudga murojaat kilishi mumkin.

Kredit shartnomaning 8.1-bandи l-kichik bandiga asosan karzdar yuzaga kelgan kredit karzdarlik va uning foizlarini tizimli ravishda 2 va undan ortiq marotaba kechiktirib to'lasa bank muddatidan oldin undiruv qaratish yuzasidan sudga murojaat qilishi mumkin.

Shu sababli, da'vogar ATB "InFinBank" sudga da'vo ariza bilan murojaat qilib, javobgar "ISTENGER PLUS SAVDO" xususiy korxonasi va qo'shimcha javobgar "BIZNES GOLD" xususiy korxonasi hisobidan jami 470 664 505,94 so'm kredit qarzini muddatidan oldin undirib berish, undiruvni garovga qo'yilgan qo'shimcha javobgar "BIZNES GOLD" xususiy korxonasining mol-mulklariga qaratish, garovdagi mulklarning boshlang'ich bag'osini belgilab berishni so'radi.

Sud majlisida da'vogar vakili sudga ma'lumotnoma taqdim qilib, javobgar tomonidan kredit qarzdorligi bo'yicha qisman to'lov amalga oshirilganligini, 2019-yil 24-yanvar holatiga javobgarning jami qoldiq kredit qarzdorligi 389 079 886,96 so'mni tashkil etishini bildirib, da'voni qisman qanoatlantirishni so'radi.

Savollar bo'lmadi.

Shundan so'ng, raislik qiluvchi javobgar vakili ko'rsatmasini tinglashga kirishdi.

Javobgarlar vakillari da'vogarning da'vo talablariga e'tiroz bildirib, kredit to'lovi muddatida uzilishlar bo'lgan bo'lsada, bular shartnoma shartlarini jiddiy ravishda buzish emasligini, shu sababli da'vo talablarini rad etishni so'radi.

Savollar bo'lmadi.

Raislik qiluvchi tarafalar vakillarining sud majlisida bergen ko'rsatmalarini tinglab, ishdagi mavjud hujjatlarni atroflicha o'rganib chiqib, alohida xona (maslahat)da qoldi.

Raislik qiluvchi alohida xona (maslahat)dan chiqib, hal qiluv qarorining xulosa qismini e'lon qildi, shuningdek hal qiluv qarori ustidan shikoyat berish tartibini, hal qiluv qarorining mazmun-mohiyatini tushuntirdi.

Sud majlisi yopiq deb e'lon qilindi.

Bayonnomma O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksining 201, 202-moddasiga muvofiq tuzildi.

Raislik qiluvchi

B.Suyunov

Sud majlisi kotibi

H.Zufarova

## NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

- Ish ko'rishni keyinga qoldirish asoslarini aytинг.

2. Sud majlisi bayonnomasida nimalar aks etishi lozim?
3. Ishni ko‘rishda sudya chiqaradigan hujjatlarni aytинг.

## **13-MAVZU. BUYRUQ TARTIBIDA ISH YURITISHDA RASMIYLASHTIRILADIGAN PROTSESSUAL HUJJATLAR**

### **1-§. Sud buyrug‘i berish to‘g‘risidagi arizaning mazmuni va shakliga qo‘yilgan talablar**

Sud buyrug‘i sudya tomonidan quyidagi hollarda yakka tar-tibda beriladi, agar:

- 1) soliq qarzini undirishni yuridik shaxslarning va fuqaro-larning mol-mulkiga qaratish to‘g‘risida talab bildirilgan bo‘lsa;
- 2) kommunal xizmatlar va aloqa xizmatlari to‘lovi bo‘yicha qarzdorlikni undirish to‘g‘risida tasdiqlovchi hujjatlarga asoslangan talab bildirilgan bo‘lsa;
- 3) hujjatlar asosida tan olingan debtorlik qarzini undirish to‘g‘risida talab bildirilgan bo‘lsa;
- 4) talab to‘lanmagan, akseptlanmagan va akseptga sana qo‘yilmagan veksel notarius tomonidan protest qilinishiga asoslangan bo‘lsa;
- 5) yozma bitim mavjud bo‘lgan taqdirda, undiruvni qarzdorning majburiyatları bajarilishining ta’minoti bo‘lgan mol-mulkka qaratish to‘g‘risida talab bildirilgan bo‘lsa.

<b>Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudiga</b>
<p><b>Kreditor: “KN” MChJ</b> (Toshkent shahar, Chilonzor tumani, Sag‘bon ko‘chasi, tupik 30, 8-uy. H/r 20208000304710883001, ATB “Ipotekabank” Uchtepa filiali, MFO 01036, INN 206963952)</p> <p><b>Qarzdor: “NP” xususiy uy-joy mulkdorlari shirkati</b> (Toshkent shahar, Chilonzor tumani, Sebzor ko‘chasi, 39-uy. H/r 20208000204393305001, ATB “Ipotekabank” Uchtepa filiali, MFO 01036, 205530749)</p>

## ARIZA

**(sud buyrug‘ini berish to‘g‘risida)**

**“KN” MChJ va “NP” xususiy uy-joy mulkdorlari shirkati** o‘rtasida 2018 yil 5 oktabrda tuzilgan mahsulot yetkazib berish shart-nomasiga asosan **“NP” xususiy uy-joy mulkdorlarining shirkatiga** 12.000.000 so‘mlik mahsulot yetkazib berilgan.

Biroq, “NP” xususiy uy-joy mulkdorlari shirkati yetkazib berilgan mahsulot uchun to‘lovni amalga oshirmagan va ushbu qarzdorlik ilova qilinayotgan tan olingan qarzdorlik hujjatlarida aks etgan.

Arizaning bir nusxasi qarzdor tashkilotning rahbariga topshirilgan va topshirilganligini tasdiqlovchi uning imzosi va muhri qo‘yilgan hujjat ilova qilinadi.

Yuqoridagilarga asosan, O‘zbekiston Respublikasi IPKning 135-139-moddalariga ko‘ra, qarzdor – “NP” xususiy uy-joy mulkdorlarining shirkati hisobidan **“KN” MChJ** foydasiga 12.000.000 so‘m qarzdorlik undirilishi to‘g‘risida sud buyrug‘i berishingizni so‘rayman.

Ilova:

1. Shartnomaning tasdiqlangan nusxasi;
2. Mahsulot yetkazib berilganligini tasdiqlovchi hisob-varaq fakturasi;
3. Mahsulotni qabul qilgan shaxsga berilgan ishonch-noma;
4. Qarzdorlikni tan olganligini to‘g‘risidagi o‘zaro solishtirma dalolatnomasi;
5. Ariza nusxasi topshirilganligini tasdiqlovchi hujjat;
6. Sud xarajatlarini to‘langanligi tasdiqlovchi (pochta xarajatlari va davlat boji) to‘lov hujjatlari.

**Direktor**

**imzo**

**F.I.Sh**

Sud buyrug‘ini berish to‘g‘risidagi ariza sudga yozma shaklda, sudlovga tegishlilikning umumiy qoidalari bo‘yicha beriladi.

Kreditor sud buyrug‘ini berish to‘g‘risida ariza berganida qarzdorga shu arizaning ko‘chirma nusxasini topshirishi shart.

Sud buyrug‘ini berish to‘g‘risidagi ariza uchun sudga da’vo bilan umumiy tartibda murojaat qilinganda nizolashilayotgan summadan kelib chiqqan holda hisoblab chiqarilgan stavkaning ellik foizi miqdorida davlat boji to‘lanadi.

Sud buyrug‘ini berish to‘g‘risidagi arizani qabul qilish rad etilgan taqdirda, undiruvchi to‘lagan davlat boji undiruvchi tomonidan qarzdorga umumiy tartibda da’vo taqdim etilganda to‘lanishi lozim bo‘lgan davlat boji hisobiga o‘tkaziladi.

## **2-§. Sud buyrug‘ining mazmuni, shakli va uni protsessual rasmiylashtirish tartibi.**

Sud buyrug‘i sudya tomonidan sud muhokamasisiz, kreditor va qarzdorni chaqirtirmasdan, ularning tushuntirishlarini eshitmasdan yakka tartibda beriladi.

Sud buyrug‘i kreditor tomonidan arizaning ko‘chirma nusxasi qarzdorga topshirilgan kundan e’tiboran o‘n kun o‘tgach beriladi.

Sud buyrug‘i sudya tomonidan ikki nusxada imzolanadi, ulardan biri ishning yig‘ma jildida qoladi, boshqasi sudning gerbli muhri bilan tasdiqlanadi va kreditorga beriladi. Qarzdorga sud buyrug‘ining tegishli tarzda tasdiqlangan ko‘chirma nusxasi yuboriladi.

Sud buyrug‘i elektron hujjat tarzida yuborilishi mumkin.

Sud buyrug‘ida quyidagilar ko‘rsatilgan bo‘lishi kerak:

- 1) sudning nomi, joylashgan yeri va buyruq berilgan sana;
- 2) ishning raqami, sudyaning familiyasi, ism-sharifining bosh harflari, talab nima haqdaligi;

3) kreditorning, qarzdorning nomi (familiyasi, ismi, otasining ismi), ularning joylashgan yeri (pochta manzili) yoki yashash joyi;

4) undirilishi lozim bo‘lgan pul summalarining miqdori yoki undiruv qaratilayotgan, qarzdorning majburiyatlari bajarilishining ta’moti sifatida turgan ko‘char mol-mulk, uning tavsifi va boshisi;

5) undirilayotgan qarz hosil bo‘lgan davr;

6) neustoyka, agar u to‘lanishi lozim bo‘lsa va qarzdor tomonidan tan olingen bo‘lsa;

7) undirilishi lozim bo‘lgan davlat bojining va pochta xarajatlarining summasi.

Sud buyrug‘i u berilganidan so‘ng o‘n kunlik muddat o‘tgach qonuniy kuchga kiradi.

Sud buyrug‘i ijro hujjati kuchiga ega va u sud hujjatlarini ijro etish uchun belgilangan tartibda ijro etilishi lozim.

### **SUD BUYRUG‘I**

#### **(O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksining 145-146-moddalarli talablari tartibida)**

Toshkent sh. 2019-yil 12-fevral \_\_\_\_\_-sonli ish

**Talab mazmuni:** Qarzdor “NP” xususiy uy-joy mulkdorlari shirk 12.000.000 so‘m qarzdorlikni undirish haqida.

**Kreditor:** “KN” MChJ (Toshkent shahar, Chilonzor tumani, Sag‘bon ko‘chasi, tupik 30, 8-uy. H/r 20208000304710883001, ATB “Ipotekabank” Uchtepa filiali, MFO 01036, INN 206963952) foydasiga

**Qarzdor:** “NP” xususiy uy-joy mulkdorlarining shirkati (Toshkent shahar, Chilonzor tumani, Sebzor ko‘chasi, 39-uy. H/r 20208000204393305001, ATB “Ipotekabank” Uchtepa filiali, MFO 01036, 205530749) hisobidan.

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksining 143, 145-146-moddalariga asosan, qarzdor – “NP” xususiy uy-joy mulkdorlari shirkati hisobidan “KN” MChJ foydasiga 12.000.000 so‘m qarzdorlik undirilsin.

Sud buyrug‘i ijro hujjati kuchiga ega.

Sud buyrug‘i bo‘yicha undirish buyruq berilgandan so‘ng o‘n kunlik muddat o‘tgach, sud hujjatlarini ijro etish uchun belgilangan tartib asosida amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksining 15-mod-dasiga ko‘ra qonuniy kuchga kirgan sud hujjatlari barcha davlat organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, boshqa organlar, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar uchun majburiydir hamda ushbu hujjatlar O‘zbekiston Respublikasining butun hududida ijro etilishi lozim.

Iqtisodiy sud qabul qilgan sud hujjatlarini bajarmaslik qonunlarda belgilangan javobgarlikka sabab bo‘ladi.

*muhr o’rni*

*Sudya*

*imzo*

*F.I.Sh.*

### **3-§. Sud buyrug‘ini bekor qilish tartibi**

Agar qarzdor uzrli sabab bilan o‘z vaqtida kreditorning talabiga qarshi e’tiroz bildirish imkoniyatiga ega bo‘lmagan bo‘lsa, sud buyrug‘ining ko‘chirma nusxasi olingan kundan e’tiboran o‘n kunlik muddatda o‘sha sudga sud buyrug‘ini bekor qilish to‘g‘risida ariza berishga haqli. Sud bunday holda buyruqni bekor qilishga haqli, shundan keyin kreditorning talabi da’vo ishini yuritish tar-tibida ko‘rilishi mumkin.

Sud buyrug‘ini bekor qilish to‘g‘risida yoki bekor qilishni rad etish haqida ajrim chiqariladi.

Sud buyrug‘ini bekor qilish haqidagi yoki bekor qilishni rad etish to‘g‘risidagi ajrim ariza kelib tushgan kundan e’tiboran o‘n kundan kechiktirmay sud muhokamasisiz, kreditor va qarzdor chiqirtirilmasdan, ularning tushuntirishlarini eshitmasdan chiqariladi.

Sud buyrug'ini bekor qilishni rad etish to'g'risidagi ajrim ustidan shikoyat qilinishi (protest keltirilishi) mumkin.

AJRIM  
(sud buyrug‘ini bekor qilish haqida)

Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudi sudyalariga, Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudining \_\_\_\_\_-sonligida, ishi bo'yicha kreditor "KN" MChJning qarzdor "NP" xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatidan 12.000.000 so'm undirish haqida 12.02.2019 yilda berilgan sud buyrug'ini bekor qilish haqidagi "NP" xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatining arizasini ish hujjatlari bilan birga ko'rib chiqib, quyidagilarni

## **ANIQLADI:**

“NP” xususiy uy-joy mulkdorlari shirkati Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudiga 20.02.2019 yilda ariza bilan morujaat qilib, 12.02.2019-yildagi sud buyrug‘ini bekor qilishni so‘ragan.

Sud ishda to'plangan hujjatlarni tahlil qilib, quyidagi asoslarga ko'ra qarzdorning arizasini qanoatlantirishni va mazkur ish bo'yicha berilgan sud buyrug'ini bekor qilishni lozim deb hisoblaydi.

Ish hujjatlaridan ko'rinishicha, kreditor "KN" MChJ Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudiga ariza bilan murojaat qilib, qarzdar "NP"

xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatidan 12.000.000 so‘m qarzdorlikni undirish to‘g‘risida sud buyrug‘i berishni so‘ragan.

Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudi tomonidan 12.02.2019-yilda “NP” xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatidan 12.000.000 so‘m undirish haqida \_\_\_\_\_-sonli sud buyrug‘i berilgan.

Biroq, qarzdor “NP” xususiy uy-joy mulkdorlari shirkati Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudiga 20.02.2019 yilda ariza bilan morujaat qilib, 12.02.2019 yildagi sud buyrug‘ini bekor qilishni so‘ragan va qarzdorlik 08.02.2019 yildagi to‘lovga asosan qoplanganligini ma‘lum qilgan.

Shuningdek, qarzdor iltimosnoma bilan murojaat etib, unda qarzdor sudga ariza kiritilganligi va ushbu asosda sud buyrug‘i berilganligini sud ijrochilari tomonidan uning mol-mulkini xatlash haqida dalolat-noma tuzilgandan so‘ng xabar topganligi va ushbu sabab bilan kredi-torning talabiga o‘z vaqtida e’tiroz bildira olmaganligini inobatga olib, e’tiroz bildirish muddati uzurli sabablarga ko‘ra o‘tkazilgan deb topishni va uni tiklashni so‘ragan.

O‘zbekiston Respublikasi IPKning 147-moddasiga asosan agar qarzdor uzrli sabab bilan kreditorning talabiga o‘z vaqtida e’tiroz bildirish imkoniyatiga ega bo‘lmagan bo‘lsa, sud buyrug‘i berilgan kundan e’tiboran o‘n kunlik muddatda o‘scha sudga sud buyrug‘ini bekor qilish to‘g‘risida ariza berishga haqli. Sudya bunday holda buyruqni bekor qiladi, shundan keyin kreditorning talabi umumiyl tartibda ko‘rib chiqilishi mumkin.

Bunday holatda sud, qarzdor tomonidan kreditorning talabiga e’tiroz bildirish muddati uzurli sabablarga ko‘ra o‘tkazib yuborilgan degan xulosaga kelib sud buyrug‘ini bekor qilishni lozim deb hisoblaydi.

Binobarin, O‘zbekiston Respublikasi IPKning 144, 147, 195-moddasiga asosan, sud

#### **AJRIM QILADI:**

Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudining \_\_\_\_\_-sonli iqtisodiy ishi bo‘yicha kreditor “KN” MChJ foydasiga qarzdor “NP” xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatidan 12.000.000 so‘m undirish haqida 12.02.2019 yilda berilgan sud buyrug‘i bekor qilinsin.

Sud buyrug‘ining bekor qilinishi kreditorning talabini sudda umumiyl tartibda ko‘rib chiqilishiga to‘sinqinlik qilmaydi.

**Sudya**

**imzo**

**F.I.Sh.**

## **NAZORAT UCHUN SAVOLLAR**

1. Sud buyrug‘i chiqarish to‘g‘risidagi ariza qanday rasmiy-lashtiriladi?
2. Sud buyrug‘i chiqarish to‘g‘risidagi arizani qabul qilishni rad etish asoslari va bu haqidagi ajrimda nimalar ko‘rsatiladi? Mazkur ajrim loyihasini tayyorlang.
3. Sud buyrug‘ini bekor qilishni tushuntiring?

## **14-MAVZU. IQTISODIY SUD TOMONIDAN ISHNI KO'RISHDA CHIQARILADIGAN AJRIM VA HAL QILUV QARORLARI**

### **1-§. Da'vo arizasini ko'rmasdan qoldirish to'g'risidagi ajrimning mazmuni va shakli**

Sud quyidagi hollarda da'vo arizasini ko'rmasdan qoldiradi, agar:

1) fuqarolik ishlari bo'yicha sud, iqtisodiy sud, hakamlik sudi ish yurituvida ayni bir shaxslar o'rtasidagi, ayni bir predmet to'g'-risidagi va ayni bir asoslar bo'yicha nizo yuzasidan ish mavjud bo'lsa;

2) ishda ishtirok etuvchi shaxslarning ushbu nizoni hakamlik sudiga ko'rish uchun topshirish to'g'risidagi kelishuvi mavjud bo'lib, hakamlik sudiga murojaat qilish imkoniyati boy beril-magan bo'lsa va agar ishning iqtisodiy sudda ko'rilibshiga qarshi bo'lган javobgar nizoning mazmuni bo'yicha o'zining birinchi arizasidan kechiktirmay nizoni hakamlik sudining hal qiluviga o'tkazish to'g'risida iltimosnomasi bersa;

3) da'vo arizasi imzolanmagan bo'lsa yoki uni imzolash huquqiga ega bo'lman shaxs tomonidan yoxud mansab mavqeyi yoki familiyasi, ismi, otasining ismi ko'rsatilmagan shaxs tomonidan imzolangan bo'lsa;

4) qonun hujjatlariga yoki shartnomaga ko'ra qarz bank yoki boshqa kredit tashkiloti orqali undirib olinishi kerak bo'lishiga qaramay, da'vogar javobgardan qarzini undirib olish uchun bankka yoxud boshqa kredit tashkilotiga murojaat etmagan bo'lsa;

5) da'vogar nizoni sudgacha hal qilish (talabnomaga yuborish) tartibiga rioya etmagan bo'lsa, basharti bu shu toifadagi nizolar uchun qonunda yoki taraflar shartnomasida nazarda tutilgan bo'lsa;

5<sup>1</sup>) da'vogar nizoni javobgar bilan mediatsiya tartib-taomilini amalga oshirish orqali hal qilish tartibiga rioya etmagan bo'lsa, basharti bu mazkur toifadagi nizolar uchun qonunda yoki shartnomada nazarda tutilgan bo'lsa;

5<sup>2</sup>) mediatsiya tartib-taomilini amalga oshirish haqida iltimosnomasi bilan arz qilgan taraflar uni amalga oshirish muddati tugaganidan so'ng sud majlisiga uzrli sabablarsiz kelmasa;

- 5<sup>3</sup>) taraflar o‘rtasida mediativ kelishuv tuzilgan bo‘lsa;
- 6) da’vogar bиринчи суд мажлисига келмаган ва ишни о‘зининг исхтирокисиз ко‘рлиши то‘г‘рисида арз qilmagan bo‘lsa;
- 7) yuridik ahamiyatga ega bo‘lgan faktlarni aniqlash to‘g‘risidagi ariza ko‘rilayotganda huquq to‘g‘risiда nizo kelib chiqqanligi aniqlansa;
- 8) da’vogarning manfaatlarini ko‘zlab prokuror, davlat organi va boshqa shaxs tomonidan taqdim etilgan da’vodan da’vogar voz kechgan bo‘lsa;
- 9) javobgarga nisbatan bankrotlik to‘g‘risiда ish qo‘zg‘atilgan bo‘lsa va javobgarga nisbatan taqdim etilgan talab qonunga ko‘ra bankrotlik to‘g‘risidagi ish doirasida ko‘rliishi lozim bo‘lsa.

Da’vo arizasini ko‘rmasdan qoldirish to‘g‘risiда суд ajrim chiqaradi.

Sud ajrimida ishda ishtirok etuvchi shaxslar o‘rtasida sud xaratlarini taqsimlash to‘g‘risidagi, davlat bojini budgetdan qaytarish haqidagi masalalar hal qilinishi mumkin.

Ajrimning ko‘chirma nusxasi ishda ishtirok etuvchi shaxslarga yuboriladi.

Da’vo arizasini ko‘rmasdan qoldirish to‘g‘risidagi ajrim ustidan shikoyat qilinishi (protest keltirilishi) mumkin.

*Eslatma!* Da’vo arizasini ko‘rmasdan qoldirish uchun asos bo‘lib xizmat qilgan holatlар bartaraf etilganidan keyin da’vogar sudga da’vo arizasi bilan umumiy tartibda yangidan murojaat qilishga haqli.

**AJRIM**  
**(da’voni ko‘rmasdan qoldirish to‘g‘risida)**

**Urganch sh. \_\_\_\_\_ 20\_\_ yil \_\_\_\_\_-sonli ish**

Urganch tumanlararo iqtisodiy sudi, sudya \_\_\_\_\_ raisligida, \_\_\_\_\_ ning sud majlisi kotibligida, da’vogarning vakili - huquqshunos \_\_\_\_\_ (2019 yil 1 fevraldagи \_\_\_\_\_-sonli ishonchnoma asosida) va javobgarning vakili - \_\_\_\_\_ lar ishtirokida, “LAZZAT” AJning javobgar “VITAL” MChJ hisobidan 15.600.400 so‘mni undirish to‘g‘risidagi arizasi bo‘yicha qo‘zg‘atilgan iqtisodiy ishni ochiq sud mажlisida ko‘rib chiqib, quyidagilarni

### **ANIQLADI :**

“LAZZAT” AJ iqtisodiy sudga da’vo arizasi bilan murojaat qilib, javobgar “VITAL” MChJ hisobidan 15.600.400 so‘mni undirib berishni so‘ragan.

Bugungi sud majlisida da’vogar vakili da’voni qo‘llab-quvvatlab, uni to‘liq qanoatlantirishni so‘radilar.

Biroq, javobgar vakili da’vo talablari yuzasidan e’tiroz bildirib, da’vogarning da’vo arizasi jamiyat rahbarining o‘rbosari tomonidan imzolangan bo‘lib, uning bunday protsessual harakatlarni amalga oshirishga bo‘lgan huquqini tasdiqlovchi hujjatlar taqdim etilma-ganligini bildirib, da’voni ko‘rmasdan qoldirishni so‘radi.

Sud ish hujjatlarini o‘rganib chiqib, ishda ishtirok etayotgan taraflar vakillarining sud majlisida bergen tushuntirishlarini tinglab, quyidagi assolarga ko‘ra mazkur da’vo arizasini ko‘rmasdan qoldirishni lozim topdi:

Ish hujjatlaridan ma‘lum bo‘lishicha, da’vogar tomonidan 2019-yil 4-yanvar kuni iqtisodiy sudga taqdim etilgan 4-yanvar 2019-yildagi 8/1111-tonli da’vo arizasi haqiqatdan ham da’vogar tashkilotning raisi o‘rbosari A.Turaev tomonidan imzolangan bo‘lib, arizaga ilova qilingan hujjatlar orasida uning imzolash huquqini tasdiqlovchi hujjat ishonchnomaga mavjudligi aniqlanmadи.

O‘zbekiston Respublikasi IPKning 68-moddasiga muvofiq, ishda ishtirok etuvchi har bir shaxs o‘z talab va e’tirozlariga asos qilib keltirayotgan holatlarni isbotlashi kerak.

Biroq, sud muhokamasi davomida, da’vogar vakili tomonidan sudga da’vo arizasini imzolagan shaxsning bunday huquqqa egaligini tasdiqlovchi hujjat taqdim etilmadi, ya’ni ushbu holat isbotlab berilmadi.

O‘zbekiston Respublikasi IPKning 107-moddasi 3-bandiga asosan, ya’ni da’vo arizasi imzolanmagan bo‘lsa yoki uni imzolash huquqiga ega bo‘lmagan shaxs tomonidan yoxud mansab mavqeい yoki familiyasi, ismi, otasining ismi ko‘rsatilmagan shaxs tomonidan imzolangan bo‘lsa iqtisodiy sudi da’vo arizasini ko‘rmasdan qoldiradi.

Shunga ko‘ra, sud “LAZZAT” AJning da’vo arizasini ko‘rmasdan qoldirishni lozim topadi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi Plenumining 18.04.2008 yildagi 180-tonli Qarorining 15-bandiga asosan, iqtisodiy sudsulari shuni nazarda tutishlari kerakki, ishni ko‘rish da’voni (arizani) ko‘rmasdan qoldirish to‘g‘risidagi ajrimni chiqarish bilan yakunlanganida davlat boji qaytarilmaydi, to‘lanmagani davlat boji esa da‘vogardan undiriladi.

Ayni vaqtida, sud xarajatlarini taqsimlash masalasini muhokama qilar ekan, yuqoridagi Plenum qarorini inobatga olgan holda, da'vogar sud xarajatlarini to'langanligini inobatga olib, sud xarajatlarini uning zimmasida qoldirishni lozim deb hisoblaydi.

Bayon etilganlarga asoslanib va O'zbekiston Respublikasi IPKning 107-108, 195-moddalarini qo'llab, sud

**AJRIM QILADI :**

"LAZZAT" AJning javobgar "VITAL" MChJ hisobidan 15.600.400 so'mni undirish haqidagi da'vo arizasi ko'rmasdan qoldirilsin.

Oldindan to'langan 312 008 so'm davlat boji va 16 218 so'm pochta xarajatlari da'vogar zimmasida qoldirilsin.

Ajrim ustidan apellyatsiya yoki kassatsiya tartibida shikoyat qilinishi (protest keltirilishi) mumkin.

**Sudya**

**imzo**

**F.I.Sh**

## **2-§. Iqtisodiy sudda ish yuritishni tugatish asoslari va tartibi**

Sud quyidagi hollarda ish yuritishni tugatadi, agar:

1) ish sudga taalluqli bo'lmasa;

2) fuqarolik ishlari bo'yicha sudning, iqtisodiy sudning yoki chet davlat vakolatli sudining ayni bir shaxslar o'rtasidagi, ayni bir predmet to'g'risidagi va ayni bir asoslar bo'yicha nizo yuzasidan qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarori mavjud bo'lsa, bundan iqtisodiy sud tomonidan chet davlat sudining hal qiluv qarorini tan olish va ijroga qaratish rad etilgan hollar mustasno;

3) hakamlik sudining ayni bir shaxslar o'rtasidagi, ayni bir predmet to'g'risidagi va ayni bir asoslar bo'yicha nizo yuzasidan qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarori mavjud bo'lsa, bundan iqtisodiy sud hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy tarzda ijroga qaratish yuzasidan ijro varaqasini berishni rad etgan hollar mustasno;

4) ishda taraf hisoblangan yuridik shaxs tugatilgan bo'lsa;

5) ishda taraf hisoblangan fuqaroning o'limidan so'ng nizoli huquqiy munosabat huquqiy vorislikka yo'l qo'ymasa;

6) da'vogar da'vosidan voz kechgan va sud uni qabul qilgan bo'lsa;

7) kelishuv bitimi tuzilib, u sud tomonidan tasdiqlangan bo'lsa;

8) da'vogar javobgar bilan nizoni sudgacha hal qilish (ta-lab-noma yuborish) tartibiga rioya etmagan bo'lsa, bunda shu toifadagi nizolar uchun qonunda yoki taraflar shartnomasida nazarda tutilgan va bunday tartibni qo'llash imkoniyati boy berilgan bo'lsa;

9) to'plangan materiallar yo'qotilgan sud ishini yoki ijro ishini yuritishni tiklash uchun yetarli bo'lmasa.

Ish yuritishni tugatish to'g'risida sud ajrim chiqaradi.

Ajrimning ko'chirma nusxalari ishda ishtirok etuvchi shaxslarga yuboriladi.

Ish yuritishni tugatish to'g'risidagi ajrim ustidan shikoyat qilinishi (protest keltirilishi) mumkin.

*Eslatma!* Ish yuritish tugatilgan taqdirda ayni bir shaxslar o'rtaсидаги, ayni bir predmet to'g'risidagi va ayni bir asoslar bo'yicha nizo yuzasidan sudga takroran murojaat qilishga yo'l qo'yilmaydi.

**A J R I M**  
**(ish yuritishni tugatish to'g'risida)**

**Termiz shahri      2019-yil 07-yanvar      4-2201-1908/0000-sonli  
ish**

Termiz tumanlararo iqtisodiy sudi suda S.Allayorov raisligida, suda yordamchisi Z.Toxirov kotibligida, da'vogar «LAZZAT TAOM» QKning javobgar «LAZZAT SUVI» MChJga nisbatan taraflar o'rtaсида 2014-yil 27-noyabrda tuzilgan 1-sonli ko'chmas mulk shartnomasini haqiqiy emas deb topish va bitimni haqiqiy emasligi oqibatini qo'llab Surxonaryo viloyat Termiz tuman Lazzat ko'chasi 1-uy manzilida joylashgan, yer osti qurilish maydoni 2131,44 kv.m., umumiy foydalanish maydoni 5600,37 kv.m.dan iborat bo'lgan, 0004-literdagи ko'chmas mulk bino inshootlarini «LAZZAT TAOM» QKga qaytarish to'g'risidagi da'vo arizasi bo'yicha qo'zg'atilgan iqtisodiy ishni taraflar vakillari ishtirokisiz, sud o'z binosida ochiq sud majlisida ko'rib chiqib, quyidagilarni

**ANIQLADI:**

2014-yil 27-noyabrda «LAZZAT TAOM» QK va «LAZZAT SUVI» MChJ o'rtaсида 1-sonli ko'chmas mulk oldi-sotdi shartnomasi tuzilgan bo'lib, unga ko'ra «LAZZAT TAOM» QK o'ziga mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan Surxonar viloyat Termiz tuman

Lazzat ko'chasi 1-uy manzilida joylashgan, yer osti qurilish maydoni 2131,44 kv.m., umumi yofdalanish maydoni 5600,37 kv.m.dan iborat bo'lgan, 0004-literdag'i ko'chmas mulk bino inshootlarini 3.000.000.000 (uch milliard) so'mga sotgan, xaridor esa uni ushbu qiymatda qabul qilib olgan.

Ushbu ko'chmas mulk oldi-sotdi shartnomasi yirik bitim hisoblanib, da'vogar AJ umumiy yig'ilishining roziligi olinmay turib tuzilgani sababli «LAZZAT TAOM» QK Termiz tumanlararo iqtisodiy sudiga da'vo ariza bilan murojaat qilib javobgar «LAZZAT SUVI» MChJ bilan tuzilgan 1-sonli ko'chmas mulk shartnomasini haqiqiy emas deb topishni va bitimni haqiqiy emasligi oqibatini qo'llashni so'rangan.

Sud majlisida da'vogar vakillari ishtirok etmadi, biroq, «LAZZAT TAOM» QK sud majlisi boshlangunga qadar sudga yozma ravishda iltimosnama bilan murojaat qilib, iqtisodiy ish bo'yicha da'vo ta-lablaridan voz kechishini bildirib, suddan ish yuritishni tugatishni so'rangan.

Sud majlisida javobgar va uchinchi shaxs sifatida jalb etilgan Surxondaryo viloyati Yer tuzish va ko'chmas mulk kadastr davlat korxonasi Termiz shahar filiali vakillari ishtirok etmadi. Sud O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksining 128, 170-moddasiga asosan ishni javobgar va uchinchi shaxslar ishtirokisiz ko'rib chiqdi.

Sud da'vogardan kelib tushgan iltimosnama va ish hujjatlarini o'rganib chiqib, dalillarga huquqiy baho berib quyidagilarga asosan da'vogar tomonidan taqdim etilgan iltimosnomani qabul qilishni va mazkur iqtisodiy ishi bo'yicha ish yuritishni tugatishni lozim topdi.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksining 157-moddasiga asosan da'vogar ishni har qanday instansiya sudida ko'rishda tegishli sud instansiyasida ishni ko'rish yakuni bo'yicha chiqariladigan sud hujjati qabul qilinguniga qadar da'vadan to'liq yoki qisman voz kechishga haqli.

Ushbu holatda, «LAZZAT TAOM» QK sud majlisi boshlangunga qadar sudga iltimosnama bilan murojaat qilib, da'vo talablaridan voz kechishini bildirib, suddan ish yuritishni tugatishni so'rangan.

Da'vogarning da'vadan voz kechishi uchinchi shaxslarning huquq va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini buzmaganligi sababli sud ushbu voz kechish haqidagi arizani qabul qilishni lozim topadi.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksi 110-moddasining 6-bandiga ko'ra da'vogar da'vosidan voz kechgan va iqtisodiy sudi uni qabul qilgan bo'lsa, iqtisodiy sudi ish yuritishni tugatadi.

Shuningdek, ushbu Kodeksning 111-moddasi 4-qismiga ko'ra, ish yuritish tugatilgan taqdirda ayni bir shaxslar o'rtasidagi, ayni bir predmet to'g'risidagi va ayni bir asoslar bo'yicha nizo yuzasidan iqtisodiy sudga ikkinchi bor murojaat qilishga yo'l qo'yilmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 330-moddasi, 1-qismi 32-bandiga ko'ra, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi aksiyadorlik jamiyatlari — ularning huquqlari va qonuniy manfaatlari buzilganligi to'g'risidagi da'volar yuzasidan davlat bojini to'lashdan ozod etilgan.

Yuqoridagilarga asosan, O'zbekiston Respublikasi IPKning 110, 111, 128, 157, 170, 195-199-moddalarini qo'llab, sud,

### **AJRIM QILDI:**

Da'vogar "LAZZAT TAOM" QKning 2018-yil 7-yanvardagi da'vodan voz kechish haqidagi iltimosnomasi ish yurituviga qabul qilinsin.

Termiz tumanlararo iqtisodiy sudining 4-1101-1802/4066-sonli iqtisodiy ishi bo'yicha ish yuritish tugatilsin.

Da'vogar "LAZZAT TAOM" QK tomonidan oldindan to'langan pochta xarajatlari inobatga olinsin.

Ajrim ustidan Termiz tumanlararo iqtisodiy sudi orqali Surxondaryo viloyat iqtisodiy sudiga shikoyat qilish (protest keltirish) mumkin.

**Sudya**

**imzo**

**S.Allayorov**

### **3-§. Hal qiluv qarorining shakli va uni protsessual rasmiylashtirish tartibi**

Sud ishni mazmunan ko'rib chiqish natijalari bo'yicha hal qiluv qarori qabul qiladi.

Sud hal qiluv qarorini O'zbekiston Respublikasi nomidan qabul qiladi.

Hal qiluv qarori sudyalar maslahati sirini saqlash ta'minlana-digan sharoitlarda, sud majlisida ishtirok etayotgan sudyalar tomonidan qabul qilinadi.

Sud hal qiluv qarorini qabul qilayotgan xonada faqat ishni ko'rib chiqayotgan sud tarkibiga kiradigan sudyalar bo'lishi mumkin. Ushbu xonaga boshqa shaxslarning kirishi, shuningdek sud tar-kibiga kirmaydigan shaxslar bilan muloqotda bo'lishning boshqa usullari taqiqlanadi.

Sudning hal qiluv qarori qonuniy va asoslantirilgan bo‘lishi kerak. U sud majlisida tekshirilgan dalillargagina asoslangan bo‘lishi mumkin.

Hal qiluv qarorini qabul qilish chog‘ida sud:

1) ishda ishtirok etuvchi shaxslarning o‘z talablari va e’tirozlarini asoslantirish uchun keltirgan dalillari va vajlariga baho beradi;

2) ish uchun ahamiyatli qaysi holatlar aniqlanganligini va qaysilari aniqlanmaganligini belgilaydi;

3) ishda ishtirok etuvchi shaxslar asos qilib keltirgan qaysi qonun hujjatlarini ushbu ish bo‘yicha qo‘llash mumkin emasligini hal qiladi;

4) ushbu ish bo‘yicha qaysi qonun hujjatlarini qo‘llash zarurligini aniqlaydi;

5) ishda ishtirok etuvchi shaxslarning qanday huquq va majburiyatlari borligini belgilaydi;

6) da’voni qanoatlantirish lozimligini yoki lozim emasligini hal qiladi.

Zarurat bo‘lgan hollarda, sud hal qiluv qarorining ijrosini ta’minlash, hal qiluv qarorini ijro etishning tartibi va muddatini belgilash, ashyoviy dalillarning keyingi taqdirini belgilash, sud xarajatlarini taqsimlash bilan bog‘liq bo‘lgan masalalarni va boshqa masalalarni hal qiladi.

Hal qiluv qarori sudya tomonidan yozma shaklda tuziladi va u tomonidan imzolanadi.

Hal qiluv qarori bir nusxada tuziladi va ishga qo‘sib qo‘yiladi.

Sudning hal qiluv qarori kirish, bayon, asoslantiruvchi va xulosa qismlaridan iborat bo‘ladi.

Hal qiluv qarorining kirish qismida hal qiluv qarorini qabul qilgan sudning nomi; sud tarkibi, sud majlisи kotibi; ish raqami, hal qiluv qarori qabul qilingan sana va joy; nizo predmeti; ishda ishtirok etuvchi shaxslar, shuningdek ularning vakillari va sud protsessining boshqa ishtirokchilari ko‘rsatiladi.

Hal qiluv qarorining bayon qismida ishda ishtirok etuvchi shaxslarning bildirilgan talablari va e’tirozlar, tushuntirishlari, arizalari va iltimosnomalarining qisqacha bayoni bo‘lishi kerak.

Hal qiluv qarorining asoslantiruvchi qismida:

ishning sud tomonidan aniqlangan haqiqiy holatlari;

sudning ish holatlari to‘g‘risidagi xulosalari asoslangan dalil-lar; sudning u yoki bu dalillarni rad qilganligining, ishda ishtirok etuvchi shaxslarning vajlarini qabul qilganligining yoki rad etganligining asoslari;

hal qiluv qarorini qabul qilishda sud amal qilgan qonun hujjatlari hamda sud ishda ishtirok etuvchi shaxslar asos qilib keltirgan qonun hujjatlarini qo‘llamaganligining asoslari ko‘rsatilishi kerak.

Hal qiluv qarorining asoslantiruvchi qismida O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining qarorlariga havolalar ko‘rsatilishi mumkin.

Hal qiluv qarorining xulosa qismida bildirilgan talablardan har birini to‘liq yoki qisman qanoatlanadirish haqidagi yoki qanoatlanadirishni rad etish to‘g‘risidagi xulosalar bo‘lishi kerak.

Agar hal qiluv qarorini ijro etish tartibini sud belgilagan yoki uning ijrosini ta‘minlash choralarini ko‘rgan bo‘lsa, bu haqda hal qiluv qarorining xulosa qismida ko‘rsatiladi.

Hal qiluv qarorining xulosa qismida sud xarajatlarini ishda ishtirok etuvchi shaxslar o‘rtasida taqsimlash, hal qiluv qarori ustidan shikoyat qilish (protest keltirish) muddati va tartibi ko‘r-satiladi.

### **O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI NOMIDAN HAL QILUV QARORI**

**Chirchiq sh. \_\_\_\_\_ 20\_\_yil \_\_\_\_\_-sonli ish**

Chirchiq tumanlararo iqtisodiy sudi, sudya \_\_\_\_\_ raisligida,  
\_\_\_\_\_ ning sud majlisi kotibligida, da‘vogarning vakili –  
huquqshunos \_\_\_\_\_ (2018 yil 1 iyundagi \_\_\_\_-sonli  
ishonchnomalar asosida), javobgarning vakili - advokat  
\_\_\_\_\_(2018 yil 21 iyundagi \_\_\_\_-sonli order asosida)lar  
ishtirokida, da‘vogar “TY” davlat unitar korxonasining javobgar “TU”  
MChJ shakldagi qo‘shma korxonasidan 289.395.710 so‘m undirish  
to‘g‘risidagi da‘vo arizasi bo‘yicha ishni ochiq sud majlisida ko‘rib  
chiqib, quyidagilarni

**ANIQLADI:**

2015-yil 1-avgust va 2016 yil 1 aprel kuni “TY” DUK va “TU” MChJ qo’shma korxonasi o’rtasida uzoq muddatga mo’ljallangan bevosita xo‘jalik aloqlari asosida tabiiy gaz yetkazib berish va qabul qilish yuzasidan 02/06-sonli shartnomalar tuzilgan.

Ushbu shartnomalarda (3.4 va 3.5-bandlari) tabiiy gaz hisoblagichlarining davlat qiyoslashidan o’tish muddatlari o’tib ketganda “Iste’molchi” dan iste’mol qilingan tabiiy gaz sarfi o’rnatilgan gaz jihozlarining ish rejimi asosida loyiha quvvati bo‘yicha olinishi va to‘lov puli hisoblanishi nazarda tutilgan.

Javobgarning ishlab chiqish binosida o’rnatilgan TGS-800 gaz hisoblagichi 2008-yil 19-avgust kuni “Uzstandart” agentligi qoshidagi Metrologiya xizmatlari ko’rsatish markazidan davlat qiyoslovidan o’tgan va bu to‘g‘risida 151/08-sonli guvohnoma berilib, guvohnomaning amal qilish muddati 2010-yil 19- avgust kuni belgilangan.

TGS-800 rusumli hisoblagichning davlat qiyoslovidan o’tkazish muddati 2010-yil 19-avgust kuni o’tgani bois, “KL” filiali o’tgan kundan boshlab, ya’ni 2010-yil 20-avgustdan to 2011-yil 13-aprenga qadar qo’shimcha gaz sarfini quvvat bo‘yicha hisob-kitob qilib, 289 395 710 so‘mni to‘lab berishni, agar ushbu summa to‘lanmagan taqdirda, javobgarga nisbatan da’vo qo‘zg‘atilishi hakida ma’lum qilgan va gaz berish to‘xtatilishi haqida ogohlantiruv xati yuborgan. Bunga javobgar o‘z xatida “KL” filiali tomonidan hisob-kitob qilingan gaz sarfini to‘lashdan bosh tortishini bildirgan va shu sababli da’vogar sudga murojaat qilib, javobgardan 289 395 710 so‘m undirishni so‘ragan.

Sud majlisida da’vogar vakili da’vo talablarini qisman quvvatlab, javobgar tomonidan may-iyun oylari uchun 142 991 549 so‘m to‘langanligini ma’lum qildi.

Javobgar vakili da’vo arizasiga e’tiroz bildirib, “TU” qo’shma korxonasing issiqxonasida 2 ta qozon o’rnatilganligini, biroq 1 ta qozon korxona ishga tushgandan beri ishlatilmaganligini, chunki korxona 10 % quvvatida ishlab kelganligini, bu holat statistika organlariga topshirilgan hisobotlar bilan tasdiqlanganligini ma’lum qilib, 1 ta qozon ishlatilmaganligini aniqlash maqsadida ekspertiza tayinlashni so‘radi.

Guvoh Sifatida ko’rsatma bergen “TU” qo’shma korxonasing bosh energetigi \_\_\_\_\_, issiqxonada 2 ta SV-200 rusumli qozon, shuningdek, korxonada 2 ta quritish kamerasi (sushilnaya kamera, gazopalka) va 6 ta gaz-plitalari o’rnatilganligini, biroq issiqxonadagi 1 ta qozondan korxona ishga tushgandan beri foydanilmaganligini, bu to‘g‘risida “KL” filialiga og‘zaki ma’lum

qilinganligini, 2010 yilning avgust oyida TGS-800 rusumli hisoblagichni qiyoslovdan o'tkazish uchun "Uzstandart" agentligining «KL» shahridagi bo'limiga murojaat qilganligini, biroq ularning bu turdag'i hisoblagichlarni qiyoslovdan o'tkazish uchun vakolati yo'qligini, shu bois bu to'g'risida "KL" filialiga hisoblagichni qiyoslovdan o'tkazishiga yordam berish to'g'risida murojaat qilganligini, lekin gaz yetkazib beruvchi tashkilot tomonidan bu masala bo'yicha yordam berilmaganligini, 2011 yilning may oyida TGS-800 rusumli hisoblagich ELon hisoblagichga almashtirilganligini ma'lum qildi.

Sud, taraflar vakillari va guvohning ko'rsatmalarini tinglab hamda ish hujjatlarini o'rganib-chiqib, quyidagi asoslarga ko'ra, da'vo talabini qisman qanoatlantirishni lozim topdi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi (bundan buyon matnda "FK" deb yuritiladi)ning 234-moddasiga asosan, majburiyatlar shartnomadan, zyon yetkazish natijasida hamda ushbu Kodeksda ko'rsatilgan boshqa asoslardan kelib chiqadi.

Mazkur holatda taraflarning majburiyatları energiya TYi shartnomasidan kelib chiqqan.

FKning 468-moddasiga binoan energiya TYi shartnomasiga muvofiq energiya bilan ta'minlovchi tashkilot tutashtirilgan tarmoq orqali abonentga (iste'molchiga) energiya berib turish majburiyatini oladi, abonent esa qabul qilingan energiya haqini to'lash, shuningdek, shartnomada nazarda tutilgan energiya iste'mol qilish tartibiga rioya etish, tasarrufidagi energetika shoxobchalaridan foydalanish xavfsizligini hamda o'zi foydalanadigan energiya iste'mol qiluvchi asbob va uskunalarining sozligini ta'minlash majburiyatini oladi.

Shuningdek, FK 470-moddasining birinchi qismiga ko'ra, energiya bilan ta'minlovchi tashkilot tutashtirilgan tarmoq orqali abonentga energiya TYi shartnomasida nazarda tutilgan miqdorda va taraflar kelishgan energiya berish tartibiga amal qilgan holda energiya berishi lozim. Energiya bilan ta'minlovchi tashkilot bergen va abonent qabul qilgan energiya miqdori o'Ichov asboblari ko'rsatkichlari bilan aniqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 10-yanvardagi 8-sonli qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi iste'molchilariga gaz yetkazib berish Qoidalari"ning 5.3-bandiga asosan, iste'molchidagi asosiy gazni hisobga olish priborlari nosoz bo'lganda va ular gaz yetkazib beruvchida mavjud bo'lmaganda hududiy gaz TYi korxonasi tomonidan yetkazib berilgan gaz miqdori plombalanmagan uskunalarining loyihadagi quvvati va gaz sarfini hisobga olish priborlari nosoz bo'lgan vaqtida korxona ishlagan soatlar

bo'yicha yoki shart-nomada nazarda tutilgan boshqa usul bilan aniqlanadi.

Ushbu Qoidalarining 5.5 va 5.6-bandlariga ko'ra, gaz sarfini hisobga olish priborlarini o'rnatish, ishlatish va tekshirish amaldagi normalar va qoidalarga muvofiq amalga oshiriladi, gaz sarfini hisobga olish priborlarining texnik holati va ularning tekshirilishi uchun balansida ushbu priborlar bo'lgan tashkilotlar va korxonalar rahbarlari javob beradilar.

Ish hujjatlaridan ko'rinishicha, taraflar o'ttasida tuzilgan 02/06-sonli shartnomalarning 3.4 va 3.5-bandlarida tabiiy gaz hisoblagichlarining davlat qiyoslashidan o'tish muddatlari o'tib ketganda "Iste'molchi"dan iste'mol qilingan tabiiy gaz sarfi o'rnatilgan gaz jihozlarining ish rejimi asosida loyiha quvvati bo'yicha olinishi va to'lov puli hisoblanishi nazarda tutilgan.

"Uzstandart" agentligi qoshidagi Metrologiya xizmatlari ko'rsatish markazi tomonidan berilgan 151/08-sonli guvohnomaga ko'ra, javobgar hududida o'rnatilgan TGS-800 gaz hisoblagichi 2008 yil 19 avgust kuni davlat qiyoslovidan o'tgan va qiyoslovdan o'tganligi haqida berilgan guvohnomaning amal qilish muddati 2010 yil 19 avgust kuni bel-gilangan.

2010-yil 22-may kuni "KL" filiali tomonidan javobgarga 293-sonli xat orqali TGS-800 rusumli hisoblagichga berilgan 151/08-sonli guvohnomaning muddati o'tishi to'g'risida ogohlantirilgan. Shuningdek, javobgarning 2010 yil 8 avgustdagi 1354-sonli xatiga javoban "KL" filiali 2010 yil 10 avgustdagi 409-sonli xat orqali TGS-800 rusumli hisoblagichlar ishlab chiqarishdan olinganligi sababli uni ELon hisob-lagichga almashtirish lozimligini ma'lum qilgan.

Biroq, TGS-800 rusumli hisoblagichning davlat qiyoslovidan o'tkazish muddati o'tishiga qaramasdan, javobgar tomonidan hisoblagich qiyoslovdan o'tkazilmagan yoki yangi ELon hisoblagich bilan almash-tirilmagan.

Shu bois, gaz TYchi tashkiloti "Iste'molchi"da o'rnatilgan gaz jihozlarining ish rejimi asosida loyiha quvvati bo'yicha iste'mol qilingan tabiiy gaz sarfi olinib, 2010 yilning 20 avgustidan 2011 yilning 13 ap-religa qadar 388.733.070 so'm hisoblanib, shu Dgacha javobgar tomonidan to'langan 99.337.360 so'mni chegirib tashlagan holda, javobgarga 289.395.710 so'mni to'lab berishni taklif qilgan.

Biroq, javobgar hisob-kitob qilingan gaz sarfini to'lashdan bosh tortgan va shu sababli da'vogar sudga asosli murojaat qilib, javobgardan 289.395.710 so'm undirishni so'ragan.

Da'vogar sudga murojaat qilgandan keyin javobgar tomonidan da'vogarga 142.991.550 so'm pul mablag'lari o'tkazib berilgan.

Bunday holatda, da'vogarning talabi asosli bo'lib, u qisman qanoatlantirilishi va javobgardan da'vogar foydasiga 146 404 160 so'm (289 395 710 – 142 991 550) undirilishi, sud xarajati esa javobgar zimmasiga yuklanishi lozim.

Javobgarning "1 ta qozon ishlatilmaganligini aniqlash maqsadida ekspertiza tayinlash" to'g'risidagi iltimosnomasi qanoatlantirilmaydi. Chunki, "O'zbekiston Respublikasi iste'molchilariga gaz yetkazib berish Qoidalari"ning 5.3-bandi xamda taraflar o'rtasida tuzilgan shartnomalarda (3.4 va 3.5-bandlari) tabiiy gaz hisoblagichlarining davlat qiyoslashidan o'tish muddatlari o'tib ketganda "Iste'molchi"dan iste'mol qilingan tabiiy gaz sarfi o'rnatilgan gaz jihozlarining ish rejimi asosida loyiha quvvati bo'yicha olinishi va to'lov puli hisoblanishi belgilangan. Shu bois, issiqxonada o'rnatilgan 1 ta qozondan foydalanilishi va foydalanmasligi nizoni mazmunan ko'rib chiqib hal etilishiga sud dahli yo'q deb hisoblaydi.

Guvoohning "2010 yilning avgust oyida TGS-800 rusumli hisoblagichni qiyoslovdan o'tkazish uchun "Uzstandart" agentligining «KL» shahridagi bo'limiga murojaat qilganligi, biroq ularning bu turdagи hisoblagichlarni qiyoslovdan o'tkazish uchun vakolati yo'qligi sababli "KL" filialiga hisoblagichni qiyoslovdan o'tkazishiga yordam berish to'g'risida murojaat qilganligi, lekin gaz yetkazib beruvchi tashkiloti tomonidan bu masala bo'yicha yordam berilmaganligi" haqidagi ko'rsatmasi da'vogarning talabini rad etishga asos bo'lolmaydi. Chunki, FKning 473-moddasiga asosan, abonent ishlatilayotgan energetika tarmoqlari, asbob va uskunalarning zarur texnikaviy holati va xavf-sizligini ta'minlashi, energiya ishlatishning belgilangan tartibiga amal qilishi lozim. Bundan tashqari, "KL" filiali javobgarga 2010 yil 22 may kuni 293-sonli xat orqali TGS-800 rusumli hisoblagichga berilgan 151/08-sonli guvohnomaning muddati o'tishi to'g'risida oglantirilgan, 2010 yil 10 avgustdagi 409-sonli xat orqali esa TGS-800 rusumli hisoblagichlar ishlab chiqarishdan olinganligi sababli uni ELon hi-soblagichga almashtirish lozimligini ma'lum qilgan. Biroq, javobgar bu xatlarga o'z munosabatini bildirmagan va tegishli chora ko'rmagan.

Yuqoridagilarga hamda O'zbekiston Respublikasi FKning 234, 236, 468, 470 va 473-moddalariga, O'zbekiston Respublikasi XPKning 95, 129, 135, 138 va 139-moddalariga asoslanib, sud

### **QAROR QILADI:**

"TY" davlat unitar korxonasining da'vo talabi qisman qanoatlantirilsin.

“TU” qo’shma korxonasidan “TY” davlat unitar korxonasi foydasiga 146.404.160 so‘m miqdordagi asosiy qarz summasi hamda 7.000 so‘m miqdordagi pochta xarajati undirilsin.

Da’voning qolgan qismini qanoatlanfirish rad etilsin.

“TU” qo’shma korxonasidan respublika budgetiga (sud, adliya organlari va muassasalarini rivojlantirish jamg‘armasiga) 2.893.957 so‘m miqdorida davlat boji undirilsin.

Hal qiluv qarori qonuniy kuchga kirgandan keyin ijro varaqasi berilsin.

“TU” qo’shma korxonasining ekspertiza tayinlash to‘g‘risidagi iltimosnomasini qanoatlanfirish rad etilsin.

Mazkur hal qiluv qarori ustidan apellyatsiya tartibida shikoyat berish (protest keltirish) mumkin.

**Sudya**

**imzo**

**F.I.Sh.**

### **NAZORAT UCHUN SAVOLLAR**

1. Birinchi instansiya sudi hal qiluv qarori mazmunini tushuntiring.
2. Hal qiluv qarorini qabul qilish chog‘ida sud qanday masalalarni hal etadi.
3. Sud ajrimlarini tushuntiring.
4. Ishni tugatish va arizani ko‘rmasdan qoldirish asoslarini aytинг.

## **15-MAVZU. ALOHIDA TOIFADAGI ISHLAR BO'YICHA ISH YURITISHDAGI PROTSESSUAL HUJJATLAR**

### **1-§. Yuridik ahamiyatga ega bo'lgan faktlarni aniqlash to'g'risidagi ishlar bo'yicha sudning hal qiluv qarori**

Yuridik ahamiyatga ega bo'lgan faktlarni aniqlash to'g'risidagi ishlar ushbu Kodeksda belgilangan da'vo ishini yuritishning umumiy qoidalari bo'yicha, mazkur bobda nazarda tutilgan xususiyatlar e'tiborga olingan holda sud tomonidan ko'rib chiqiladi.

Sud yuridik shaxslarning va yakka tartibdagi tadbirkorlarning iqtisodiyot sohasidagi huquqlarining yuzaga kelishi, o'zgartirilishi yoki bekor bo'lishi uchun ahamiyatga ega bo'lgan faktlarni aniqlaydi.

Sud:

yuridik shaxsning yoki yakka tartibdagi tadbirkorning ko'chmas mulkka o'z xususiy mulki sifatida egalik qilishi va undan foydalanishi faktini;

yuridik shaxsning yoki yakka tartibdagi tadbirkorning ma'lum vaqtda va ma'lum joyda davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi faktini;

agar yuridik shaxsning hujjatda ko'rsatilgan nomi, yakka tartibdagi tadbirkorning familiyasi, ismi, otasining ismi yuridik shaxsning ta'sis hujjatida ko'rsatilgan nomiga, yakka tartibdagi tadbirkorning pasportida yoki tug'ilganlik to'g'risidagi guvohnomasida ko'rsatilgan familiyasiga, ismiga, otasining ismiga to'g'ri kelmasa, iqtisodiyot sohasida amalda bo'lgan huquqni belgilaydigan hujjatning yuridik shaxsga yoki yakka tartibdagi tadbirkorga tegishliligi faktini aniqlash to'g'risidagi ishlarni ko'radi.

Sud yuridik ahamiyatga ega bo'lgan boshqa faktlarni ham, agar qonun hujjatlarida ularni aniqlashning boshqacha tartibi nazarda tutilmagan bo'lsa, aniqlashi mumkin.

Yuridik shaxs yoki yakka tartibdagi tadbirkor yuridik ahamiyatga ega bo'lgan faktlarni aniqlash to'g'risidagi ariza bilan sudga murojaat qilishga, faqat o'zida ushbu faktlarni tasdiqlaydigan tegishli hujjatlarni olish yoki tiklash imkonи bo'lмаган taqdirda va, agar qonun hujjatlarida tegishli faktlarni aniqlashning boshqacha tartibi nazarda tutilmagan bo'lsa, haqlidir.

Yuridik ahamiyatga ega bo‘lgan faktlarni aniqlash to‘g‘risidagi ariza arizachining joylashgan yeri yoki yashash joyi bo‘yicha sudga beriladi, bundan ko‘chmas mulkka egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etishga oid yuridik ahamiyatga ega bo‘lgan faktlarni aniqlash to‘g‘risidagi arizalar hamda ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqning yuzaga kelishi, o‘zgarishi yoki bekor bo‘lishi uchun yuridik ahamiyatga ega bo‘lgan boshqa faktlar mustasno bo‘lib, ular ko‘chmas mulk joylashgan yerdagi sudga beriladi.

Yuridik ahamiyatga ega bo‘lgan faktlarni aniqlash to‘g‘risidagi ariza ushbu Kodeksning 149-moddasida nazarda tutilgan talab-larga muvofiq bo‘lishi kerak.

Yuridik ahamiyatga ega bo‘lgan faktlarni aniqlash to‘g‘risidagi arizada quyidagilar ham ko‘rsatilgan bo‘lishi kerak:

- 1) aniqlanishi talab qilinayotgan fakt;
- 2) mazkur fakt iqtisodiyot sohasida yuridik oqibatlar keltirib chiqarishi nazarda tutilgan qonun hujjati normalari;
- 3) ushbu faktni aniqlash zarurligining asosi;
- 4) arizachi tomonidan tegishli hujjatlarni olish yoki yo‘qotilgan hujjatlarni tiklash imkonи tasdiqlovchi dalillar.

Yuridik ahamiyatga ega bo‘lgan faktlarni aniqlash to‘g‘risidagi ishlар arizachi va boshqa manfaatdor shaxslar ishtirokida ko‘riladi.

Ishni sud muhokamasiga tayyorlashda suda yuridik ahamiyatga ega bo‘lgan faktni aniqlash to‘g‘risidagi hal qiluv qarori o‘z huquqlariga daxldor bo‘lishi mumkin bo‘lgan manfaatdor shaxslar doirasini aniqlaydi, ish yuritish to‘g‘risida ushbu shaxslarni xabar-dor qiladi, ularni ishda ishtirok etish uchun jalb qilish to‘g‘risidagi masalani ko‘rib chiqadi, sud majlisining vaqtini va joyini to‘g‘risida xabar qiladi.

Yuridik ahamiyatga ega bo‘lgan faktni aniqlash to‘g‘risidagi ishni ko‘rishda sud qonun hujjatlariда ushbu faktni aniqlashning boshqacha tartibi nazarda tutilgan-tutilmaganligini, arizachida zaur hujjatlarni olish yoki tiklash uchun boshqa imkoniyat bo‘lgan-bo‘lmaganligini tekshiradi, arizachi iqtisodiyot sohasida faoliyatni amalga oshirishi munosabati bilan ushbu fakt uning uchun yuridik ahamiyatga ega bo‘lgan oqibatlarni keltirib chiqarishini yoki chiqarmasligini belgilaydi, talab etilayotgan faktning aniqlanishi boshqa shaxslarning huquqlariga ta’sir etishi yoki etmasligini, huquq to‘g‘risida nizo kelib chiqqan-chiqmaganligini aniqlaydi.

Agar yuridik ahamiyatga ega bo‘lgan faktni aniqlash to‘g‘risidagi ish bo‘yicha sud muhokamasida huquq to‘g‘risida nizo kelib chiqqanligi aniqlansa, sud yuridik ahamiyatga ega bo‘lgan faktni aniqlash to‘g‘risidagi arizani ko‘rmasdan qoldiradi va bu haqda ajrim chiqaradi.

Ajrimda arizachiga va ish bo‘yicha boshqa manfaatdor shaxslarga ularning sudga da’vo tartibida murojaat qilish huquqi tu-shuntiriladi.

Sud tomonidan yuridik ahamiyatga ega bo‘lgan faktni aniqlash to‘g‘risidagi ariza qanoatlantirilganda, hal qiluv qarorining xulosa qismida aniqlangan fakt bayon etiladi.

Sudning yuridik ahamiyatga ega bo‘lgan faktni aniqlash to‘g‘-risidagi hal qiluv qarori tegishli organlar tomonidan shunday faktni qayd etish uchun yoki aniqlangan fakt munosabati bilan yuzaga ke-ladigan huquqlarni rasmiylashtirish uchun asos bo‘ladi va ushbu or-ganlar tomonidan beriladigan hujjatlarning o‘rniga o‘tmaydi.

### **O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI NOMIDAN HAL QILUV QARORI**

**Toshkent sh. \_\_\_\_\_ 20\_\_ yil \_\_\_\_\_-sonli ish**

Zangiota tumanlararo iqtisodiy sudi, sudya \_\_\_\_\_ raisligida, \_\_\_\_\_ ning sud majlisi kotibligida, Yangiyo‘l tuman prokurorining yordamchisi \_\_\_\_\_, arizachi vakili - huquqshunos \_\_\_\_\_ (2019 yil 10 yanvardagi \_\_\_\_-sonli ishonchnomaga asosida) ishtirokida, arizachi “TU” xususiy korxonasining yuridik ahamiyatga ega bo‘lgan faktni aniqlash to‘g‘risidagi arizasi bo‘yicha ishni ochiq sud majlisida ko‘rib chiqib, quyidagilarni

#### **ANIQLADI :**

2018-yil 5-mart kuni Yangiyo‘l tumanidagi “N” shirkat xo‘jaligi va “TU” xususiy korxonasi o‘rtasida 6-sonli oldi-sotdi shartnomasi tuzilgan. Ushbu shartnomaga asosan, shirkat xo‘jaligi unga tegishli bo‘lgan “Katta Qozirabod” Q.F.Y. joylashgan isitish qozonxonasini 28.000.000 so‘mga “TU” xususiy korxonasiга sotgan. 2018 yil 3 dekabr kuni taraflar o‘rtasida topshirish-qabul qilish dalolatnomasi tuzilgan va unga ko‘ra fermer xo‘jaligi isitish qozonxonasini topshirgan, “TU” xususiy korxonasi qabul qilib olgan.

Keyinchalik, “TU” xususiy korxonasi iqtisodiy sudiga murojaat qilib, isitish qozonxonasini qayta ta’mirlaganligi, hujjatlarni korxonaning nomiga rasmiylashtirish jarayonida “N” shirkat xo‘jaligi tugatilib ketganligini vaj qilib ko‘rsatib, isitish qozonxonasini unga tegishliligi faktini belgilab berishni so‘ragan.

Sud majlisida arizachi vakili arizada keltirilgan vajlarni qo‘llab-quvvatladi.

Sud, arizachi vakilining tushuntirishlarini tinglab va ish hujjatlarini urganib chikib, quyidagilarga asosan, “TU” xususiy korxonasing talabini rad qilishni lozim topadi:

O‘zbekiston Respublikasi IPKning 206-moddasiga binoan iqtisodiy sud yuridik ahamiyatga ega bo‘lgan faktlarni arizachi bu faktlarni tasdiqlaydigan tegishli hujjatlarni olish yoki tiklash imkonи bo‘lmagan taqdirda va, agar qonun hujjatlarida tegishli faktlarni aniqlashning boshqacha tartibi nazarda tutilmagan bo‘lsa, aniqlaydi.

Arizachi tomonidan taqdim qilingan hujjatlarga ko‘ra, 2018-yil 5-mart kuni Yangiyo‘l tumani “N” shirkat xo‘jaligi va “TU” xususiy korxonasi o‘rtasida tuzilgan 6-sonli shartnomasi tuzilgan. Ushbu shartnomaga asosan, shirkat xo‘jaligi unga tegishli bo‘lgan “Katta Qozirabod” Q.F.Y. joylashgan isitish qozonxonasini 28.000.000 so‘mga “TU” xususiy korxonasiiga sotgan. 2018-yil 3-dekabr kuni taraflar o‘rtasida topshirish-qabul qilish dalolatnomasi tuzilgan va unga ko‘ra fermer xo‘jaligi isitish qozonxonasini topshirgan, “TU” xususiy korxonasi qabul qilib olgan.

Sudning so‘rovnomasiga asosan, “N” nomli shirkat xo‘jaligi tugatish komissiyasidan olingen 2017-yil 8-fevraldagи 11-sonli xatiga ko‘ra, Yangiyo‘l tuman hokiminинг 2017-yil 11-noyabrdagi 111-sonli qaroriga asosan, “N” nomli shirkat xo‘jaligini fermer xo‘jaliklariga qayta tashkil qilish komissiyasi tuzilgan bo‘lib, ushbu komissiya hozirgi paytda o‘z faoliyatini amalga oshirmoqda.

Shuningdek, sudning so‘rovnomasiga asosan, Yangiyo‘l tuman yer tuzish va ko‘chmas mulk kadastr xizmatidan olingen 2017-yil 11-fevraldagи 8-sonli xatiga ko‘ra, “N” shirkat xo‘jaligida joylashgan qozonxona binosi tuman yer tuzish va ko‘chmas mulk kadastr xizmatida ro‘yxatga olinmagan.

Mazkur holatda, O‘zbekiston Respublikasi XPKning 155-moddasida ko‘rsatilgan asoslar, ya‘ni yuridik ahamiyatga ega bo‘lgan faktlarni tasdiqlaydigan tegishli hujjatlarni boshqacha tartibda olish imkoniyati yo‘qligi yoxud yo‘qolganligi yoki yo‘q qilib yuborilgan hujjatlarni tiklash imkoniyati yo‘qligi holatlari, ushbu holatda mavjud emas va arizachi isitish qozonxonaga egalik huquqini tegishli ravishda “N” nomli shirkat xo‘jaligining tugatish komissiyasi bilan rasmiylashtirilgan hujjatlar asosida belgilab olishi mumkin.

Shu bois, sud, arizachining talablarini qanoatlantirishini rad qilishni va sud xarajatlarini arizachi zimmasida qoldirishni lozim topadi.

Yuqoridagilarni inobatga olib, O'zbekiston Respublikasi XPKning 95, 135, 138 va 155-moddalariga asoslanib, sud

### **QAROR QILDI:**

"TU" xususiy korxonasining arizasini qanoatlantirish rad etilsin.

Mazkur hal kiluv qarori ustidan apellyatsiya tartibida shikoyat berish (protest keltirish) mumkin.

Sudya

imzo

F.I.Sh.

### **2-§. Bankrotlik to‘g‘risidagi ishlarni sudda ko‘rishga tayyorlash, qo‘zg‘atish, ko‘rish tartibi va xususiyatlari**

O'zbekiston Respublikasining 2003-yil 24-apreldagi "Bankrotlik to‘g‘risida"gi yangi tahrirdagi Qonuniga asosan (keyingi o'rinnlarda "Qonun" deb yuritiladi) qarzdorni bankrot deb topish to‘g‘risidagi arizani qabul qilish va bankrotlik to‘g‘risidagi ishni qo‘zg‘atish yoki arizani qabul qilishni rad etish yoxud qaytarish to‘g‘risidagi masalani sudya ariza tushgan paytdan e'tiboran besh kundan kechiktirmay hal etadi. Bu holda sud tomonidan da'vo arizasini qabul qilish to‘g‘risida u kelib tushgan kundan e'tiboran besh kundan kechiktirmay ajrim chiqaradi, deb ko'rsatilgan qoida qo'llanmasligi kerak. Binobarin, mazkur ajrim ustidan shikoyat qilib bo'lmaydi. Bunda, mazkur ajrimga rozi bo'lмаган qarzdor ariza yuzasidan yozma fikr berishi mumkin.

Iqtisodiy sudning qarzdorni bankrot deb topish to‘g‘risidagi arizani qabul qilish va bankrotlik to‘g‘risidagi ishni qo‘zg‘atish haqidagi ajrimi iqtisodiy sud tomonidan davlat soliq xizmati organlariga va boshqa vakolatli organlarga, qarzdor joylashgan yerdag'i (yashash joyidagi) sud ijrochisiga yuboriladi. Qarzdor yuridik shaxsning o‘ziga nisbatan bankrotlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqidagi ajrimning nusxasini o‘zining vakolatxonalarini va filiallari joylashgan yerdag'i shunday shaxslarga (organlarga) yuborish majburiyati uning o‘ziga yuklatiladi.

Agar Qonunnining 5-moddasining ikkinchi qismida nazarda tutilgan shart buzilgan bo'lsa, sudya qarzdorni bankrot deb topish to‘g‘risidagi arizani qabul qilishni rad etadi. Shuningdek, sudya

faqat mazkur moddaning beshinchi qismiga asosan, emas, balki IPKnning 154-moddasida ko'rsatilgan asoslarga muvofiq ham arizani qabul qilishni rad etadi.

Agar qarzdorni bankrot deb topish to'g'risidagi ariza Qonunning 37-44-moddalarida nazarda tutilgan talablarga muvofiq bo'lmasa, sudya arizani qaytaradi. Ariza bilan murojaat etish qarzdorning rahbari uchun majburiy bo'lgan va arizaga ushbu Qonunning 38-moddasida nazarda tutilgan hujjatlar ilova qilinmagan hollarda bunday ariza iqtisodiy sudi tomonidan qabul qilinadi, etishmayotgan hujjatlar esa bankrotlik to'g'risidagi ishni sud muhokamasiga tayyorlash tartibida talab qilib olinadi. Bankrotlik to'g'risidagi ishlar bo'yicha davlat organi, shuningdek, davlat soliq xizmati organi va prokurorning qarzdorni bankrot deb topish haqidagi arizalari iqtisodiy sudlar tomonidan davlat boji to'lovisiz ish yuritishga qabul qilinadi. Iqtisodiy sud tomonidan ariza qanoatlanadirilgan taqdirda, davlat boji qarzdordan undiriladi.

Qarz dor, agar uning "Bankrotlik to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 4-moddasida belgilangan muddatda pul majburiyatlarini qondirishga va (yoki) majburiy to'lovlar bo'yicha o'z majburiyatini bajarishga qodir emasligidan dalolat beruvchi holatlar mavjud bo'lsa, pul majburiyatları va (yoki) majburiy to'lovlar bo'yicha majburiyati yuzaga kelgan muddatdan qat'iy nazar, o'zini bankrot deb topish to'g'risidagi ariza bilan iqtisodiy sudga murojaat etishga haqli.

Qonunda boshqacha qoida nazarda tutilgan bo'lmasa, qarz-dorni bankrot deb topish to'g'risidagi arizani qabul qilishda sudya qarzdor yuridik shaxsning eng kam oylik ish haqining besh yuz baravaridan, qarzdor - yakka tartibdagi tadbirkorning esa eng kam oylik ish haqining o'ttiz baravaridan kam bo'lman miqdorda jami qarzi mavjudligini va bu majburiyatlar yuzaga kelgan kundan e'tiboran uch oy davomida bajarilmaganligini tasdiqlovchi hujjatlarni tekshirishi zarur. Sudya bankrotlik to'g'risidagi ishni sud majlisida ko'rishga tayyorlash bilan bir vaqtida kuzatuv taomilini joriy etish masalasini hal qilishi lozim (Qonunning 48 va 62-moddalari). Arizani ish yuritishga qabul qilish va bankrotlik to'g'risida ish qo'zg'atish haqidagi iqtisodiy sudning ajrimida kuzatuv tao-mili joriy etilganligi ko'rsatiladi.

Mol-mulki mavjud bo'lgan qarzdor yuridik shaxsni bankrot deb topish to'g'risidagi ariza bilan iqtisodiy sudiga murojaat qilin-

ganda, unda muvaqqat boshqaruvchining nomzodi ko'rsatiladi. Arizada muvaqqat boshqaruvchining nomzodi ko'rsatilmagan bo'lsa, u holda iqtisodiy sudi arizachidan yoki bankrotlik to'g'-risidagi ishlar bo'yicha davlat organidan tegishli nomzodni taqdim etishni talab qiladi. Bunday holatda kuzatuv taomilini joriy etish va muvaqqat boshqaruvchini tayinlash masalasi Qonun 48-moddasining ikkinchi qismiga muvofiq qarzdorni bankrot deb topish to'g'-risidagi ariza tushgan kundan e'tiboran o'n kundan kechiktirmay hal qilinadi. Kuzatuv taomili qarzdor yuridik shaxsga nisbatan uning mol-mulki but saqlanishini ta'minlash, qarzdorning moliyaviy ahvoli tahvilini o'tkazish maqsadida qarzdorni bankrot deb topish to'g'-risidagi ariza qabul qilingan paytdan e'tiboran keyingi taomilga qadar qo'llaniladi. Ushbu vazifalarning bajarilishi muvaqqat boshqaruvchi zimmasiga yuklanadi.

Bu qoidalar yakka tartibdagi tadbirkorni va soddalashtirilgan taomil bo'yicha qarzdorni bankrot deb topish to'g'-risidagi ishlarga tatbiq etilmaydi.

Qonunning 48-moddasiga muvofiq bankrotlik to'g'-risidagi ishni sud muhokamasiga tayyorlashda suda IPKda nazarda tu-tilgan tartibda va Qonunda belgilangan o'ziga xos xususiyatlarni inobatga olgan holda quyidagi harakatlarni amalga oshiradi:

- bankrotlik to'g'-risidagi ishda ishtirok etayotgan shaxsning arizasiga binoan kreditorlar talablarini ta'minlashga doir choratadbirlarni ko'radi (Qonunning 46-moddasi);

- ekspertiza tayinlash to'g'-risidagi masalani hal etadi (Qonunning 48-moddasi);

- bankrotlik to'g'-risidagi ishda ishtirok etayotgan shaxslarning arizalari va shikoyatlarini ko'rib chiqadi (Qonunning 59-moddasi);

- qarzdorning e'tirozlari (muvaqqat boshqaruvchining iltimosnomasi) mavjudligida arizachining qarzdorga nisbatan talablarning asosliligini tekshirish maqsadida sud majlisini o'tkazadi (Qonunning 70-moddasi).

Bankrotlik to'g'-risidagi ish iqtisodiy sudning majlisida qarzdorni bankrot deb topish haqidagi ariza ish yuritishga qabul qilinligi to'g'-risida ajrim chiqarilgan kundan e'tiboran ikki oydan ortiq bo'limgan muddatda ko'rib chiqilishi lozim.

*Eslatma!* Bankrotlik to'g'-risidagi ishni ko'rish alohida hollarda iqtisodiy sudning raisi tomonidan Qonunning 49-moddasiga muvofiq ikki oydan oshmagan muddatga uzaytirilishi mumkin.

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI NOMIDAN  
HAL QILUV QARORI**

**Qarshi sh. \_\_\_\_\_ 20\_\_ yil \_\_\_\_-sonli ish**

Qarshi tumanlararo iqtisodiy sudi, sudya \_\_\_\_\_ raisligida,  
\_\_\_\_\_ning sud majlisi kotibligida, muvaqqat boshqaruvchi  
A.Yaminov, kreditor vakili \_\_\_\_\_ (2018 yil 1 martdagi \_\_-sonli  
ishonchnomma asosida), qarzdor vakili \_\_\_\_\_ (2018 yil 26  
fevraldagi ishonchnomma asosida)lar ishtirokida, arizachi ATIB  
“IPOTEKA BANK”ning “AKRIL MEDIA” mas’uliyati cheklangan  
jamiyatini bankrot deb topish to‘g‘risidagi arizasi asosida qo‘zg‘atilgan  
iqtisodiy ishni ochiq sud majlisida ko‘rib chiqib, quyidagilarni

**ANIQLADI:**

“IPOTEKA BANK” ATIB Qashqadaryo viloyat filiali amaliyot  
boshqarmasi bilan “AKRIL MEDIA” MChJ o‘rtasida 2014-yil 28-  
martda imzolangan 11-sonli kredit shartnomasi hamda 2014-yil 30-  
iyun kuni ushbu shartnomaga 1-sonli qo‘srimcha kelishuv imzolangan  
bo‘lib, ularga ko‘ra “AKRIL MEDIA” MChJga marmar toshga ishlov  
berish uskunasini sotib olish uchun 589.849 evro kredit ajratilgan.

Taraflar o‘rtasida 2014-yil 15-aprelda tuzilgan 1-sonli garov  
shartnomasi hamda 2014 yil 22 aprelda 11-sonli Ipoteka shartnomasi  
shartlariga asosan, bank tomonidan 298.159,20 evro miqdorida  
baholangan va qabul qilingan marmar toshga ishlov beruvchi  
uskunalar; Qashqadaryo viloyati, Qarshi shahar, Buxoriy ko‘chasi, 1-  
uy manzilida joylashgan jami 236.000 evroga baholangan  
mehmonxona, restoran va 2 ta omborxona binolari kredit garovi  
sifatida garovga qabul qilingan.

Qarzdorning kredit bo‘yicha to‘lov majburiyatlarini vaqtida va  
to‘liq qaytarish choralarini ko‘rmaganligi natijasida 2017-yil 1-dekabr  
holatiga kredit bo‘yicha asosiy qarzdorligi 1.407.658.697 so‘mni,  
kredit foizlari bo‘yicha qarzdorligi 329.041.563 so‘mni, jami  
1.736.700.260 so‘mni tashkil etadi.

Kreditor tomonidan o‘tkazilgan qarzdorning moliya-xo‘jalik  
faoliyati monitoringi natijasida uming bankdan tashqari soliqlar va  
boshqa majburiy to‘lovlar yuzasidan 154.000.000 so‘m, boshqa  
kreditorlar oldida esa 56.000.000 so‘m qarzi borligi aniqlangan.

Qarzdor uch va undan ortiq oy muddatda qarzni to‘lay olish  
imkoniyatiga ega emasligini inobatga olgan holda kreditor uni bankrot

deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash to‘g‘risida ariza bilan murojaat etgan.

Sudning 2013-yil 15-yanvardagi ajrimi bilan kreditoring arizasi ish yuritishga qabul qilingan, qarzdorga nisbatan bankrotlik ishi qo‘zg‘atilgan va kuzatuv taomili joriy etilgan, muvaqqat boshqaruvchisi sifatida A.TuRAV tayinlangan.

Sud majlsida kreditor vakili ariza talablarini qo‘llab-quvvatlab, 2018-yil 1-mart holatiga ko‘ra, muddati o‘tgan qarzdorlik 1.846.700.260 so‘mni tashkil etishini ma’lum qildi.

Muvaqqat boshqaruvchi o‘ziga yuklatilgan vazifalardan kelib chiqib, qarzdorning kreditor va debitorlari aniqlanganligi, kreditorlar talab-larining reestri tuzilganligi, qarzdorning moliya-xo‘jalik faoliyati tahlil qilinganligi, kreditorlarning birinchi yig‘ilishi tashkil etilganligi va o‘tkazilganligi, unda kreditorlar iqtisodiy sudiga qarzdorni bankrot deb topish va unga nisbatan tugatishga doir ish yuritishni boshlash to‘g‘-risida ariza berishga qaror qilinganligi, tugatish boshqaruvchi Sifatida uning nomzodi taklif etilganligini ma’lum qildi.

Qarzdor vakili kreditorlik qarzini tan olishimi ta’kidlab, 68.000.000 so‘mlik tayyor mahsulot, 95.000.000 so‘mlik xom-ashyo, 45.600.000 so‘mlik debitor qarzi mavjudligini bayon etdi.

Sud, muvaqqat boshqaruvchi va taraflarning tushuntirishlarini tinglab, ish materiallari bilan tanishib, quyidagilarga asosan, ariza talablarini qanoatlantirishni lozim topadi:

“Bankrotlik to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 4-moddasiga ko‘ra, qarzdorning pul majburiyatları bo‘yicha kreditorlar talablarini qondirishga va (yoki) majburiy to‘lovlari bo‘yicha o‘z majburiyatini bajarishga qodir emasligi, agar tegishli majburiyatlar va (yoki) to‘lovlari majburiyati yuzaga kelgan kundan e’tiboran uch oy davomida qarzdor tomonidan bajarilmagan bo‘lsa, uning bankrotlik alomatlari deb e’tirof etiladi.

Mazkur Qonunning 5-moddasiga ko‘ra, bankrotlik to‘g‘risidagi ish bankrotlik alomatlari mavjud bo‘lgan taqdirda, agar qarzdor yuridik shaxsga nisbatan jami talablar eng kam ish haqi miqdorining kamida besh yuz karrasini tashkil etadigan bo‘lsa, qarzdor yakka tartibdagи tadbirkorga nisbatan esa eng kam ish haqi miqdorining kamida o‘ttiz karrasini tashkil etadigan bo‘lsa, iqtisodiy sud tomonidan qo‘zg‘atilishi mumkin.

Ish hujjatlaridan aniqlanishicha, “IPOTEKA BANK” ATIB Qash-qadaryo viloyat filiali amaliyot boshqarmasi bilan “AKRIL MEDIA” MChJ o‘rtasida 2014-yil 28-martda imzolangan 11-sonli kredit shartnomasi hamda 2014 yil 30 iyun kuni ushbu shartnomaga 1-sonli qo‘sishma kelishuv imzolangan bo‘lib, ularga ko‘ra “AKRIL MEDIA” MChJa marmar toshga ishlov berish uskunasini sotib olish

uchun 589.849 yevro kredit ajratilgan va uning garov sifatida ko‘chmas mol-mulk va asbob-uskunalar qabul qilingan.

Taraflar o‘rtasida 2014-yil 15-aprelda tuzilgan 1-sonli garov shartnomasi hamda 2014-yil 22-aprelda 11-sonli Ipoteka shartnomasi shartlariga asosan, bank tomonidan 298.159,20 yevro miqdorida baholangan va qabul qilingan marmar toshga ishlov beruvchi uskunalar; Qashqadaryo viloyati, Qarshi shahar, Buxoriy ko‘chasi, 1-uy manzilida joylashgan jami 236.000 evroga baholangan mehmonxona, restoran va 2 ta omborxonalar binolari kredit garov sifatida garovga qabul qilingan.

Qarzdorning kredit bo‘yicha to‘lov majburiyatlarini vaqtida va to‘liq qaytarish choralarini ko‘rmaganligi natijasida 2012-yil 1-dekabr holatiga kredit bo‘yicha asosiy qarzdorligi 1.407.658.697 so‘mni, kredit foizlari bo‘yicha qarzdorligi 329.041.563 so‘mni, jami 1.736.700.260 so‘mni tashkil etadi.

2018-yilning 1-martida kreditni to‘lash bo‘yicha navbatdagi to‘lash muddati ham tugagan, natijada bank oldidagi qarzdorlik 1.736.700.260 so‘mni tashkil etadi.

Bundan tashqari, qarzdorning 2018-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra:  
154.000.000 so‘m – soliq va boshqa majburiy to‘lovlardan  
46.000.000 so‘m – “N” mas’uliyati cheklangan jamiyatidan  
10.000.000 so‘m ish haqi bo‘yicha xodimlardan qarzi mavjud.

2018-yil 16-fevralda kreditorlarning birinchi yig‘ilishi o‘tkazilgan bo‘lib, unda kreditorlar iqtisodiy sudiga qarzdorni bankrot deb topish va unga nisbatan tugutishga doir ish yuritishni boshlash to‘g‘risida ariza berish haqida qaror qabul qilingan.

Tugatish boshqaruvchi sifatida 2-toifali sud boshqaruvchisi attestsatiyasiga ega bo‘lgan A.Yaminovning nomzdi taklif etilgan, unga eng kam oylik ish haqining 25 baravari miqdorida haq to‘lash belgilangan.

Yuqoridagilarga asosan, va qarzdorning pul majburiyatlari bo‘yicha kreditorlar talablarini qondirishga va majburiy to‘lovlar bo‘yicha o‘z majburiyatlarni, ular yuzaga kelgan vaqtidan boshlab uch oy davomida bajariga qodir emasligini inobatga olib, sud arizachining talabini asosli va sud xarajatlarini qarzdor zimmasiga yuklagan holda qanoatlantirish lozim deb hisoblaydi.

Shuningdek, nomzodi taklif etilgan sud boshqaruvchi bankrotlik to‘g‘risidagi qonunchilik talablariga javob berishligini inobatga olib, sud tugatish boshqaruvchisi sifatida A.Yamonivni tayinlash va unga har oy eng kam oylik ish haqining 25 baravari miqdorida qarzdorning mol-mulki hisobidan haq to‘lash lozim deb hisoblaydi.

Yuqoridagilarni inobatga olib, O‘zR FKning 57-moddasiga, “Bankrotlik to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 4, 5, 54,

124, 126-moddalariga hamda O‘zbekiston Respublikasi IPKning 95, 135 va 138-moddalariga asoslanib, sud

### **QAROR QILDI:**

ATIB “IPOTEKA BANK”ning “AKRIL MEDIA” mas’uliyati cheklangan jamiyatini bankrot deb topish haqidagi arizasi qanoat-lantirilsin.

Qarzdor “AKRIL MEDIA” mas’uliyati cheklangan jamiyatini bankrot deb topilsin hamda tugatishga doir ish yuritish boshlansin.

A.Yaminov tugatish boshqaruvchisi etib tayinlansin.

Tugatish boshqaruvchiga har oy eng kam oylik ish haqining 25 barvari miqdorida qarzdorning mol-mulki hisobidan haq to‘lash tas-diqlansin.

Tugatish boshqaruvchisi zimmasiga:

- qarzdor “AKRIL MEDIA” mas’uliyati cheklangan jamiyatini bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash to‘g‘risida o‘n kunlik suddat ichida “Bankrotlik to‘g‘risida”gi Qonunning 52, 53 va 127-moddalarida ko‘rsatilgan qoidaga rioya qilgan holda ma‘lumotlarni rasmiy nashrda e’lon qilish va chop etilganligi to‘g‘risidagi dalilni sudga taqdim etish;

- tugatishga doir ish yuritishni “Bankrotlik to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni talablariga asosan, tashkil etish va o‘tkazish, 2018 yil 1 iyuligacha tugatishga doir ish yuritish natijalari haqida sudga hisobot taqdim qilish yuklatilsin.

“AKRIL MEDIA” mas’uliyati cheklangan jamiyatidan ATIB “IPOTEKA BANK” foydasiga 552.900 so‘m davlat boji undirilsin.

Hal qiluv qarori qonuniga kuchga kirgach ijro varaqasi berilsin.

Mazkur hal qiluv qarori ustidan shikoyat qilish (protest keltirish) mumkin.

**Sudya**

**imzo**

**F.I.Sh.**

### **NAZORAT SAVOLLARI**

1. Yuridik ahamiyatga ega bo‘lgan faktlarni aniqlash to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha sudning hal qiluv qarorida nimalar ko‘rsatiladi.

2. Bankrotlik to‘g‘risidagi ishlarni sudda qo‘zg‘atish tartibibni tushuntiring.

3. Bankrotlik to‘g‘risidagi arizani rasmiylashtiring.

4. Bankrotlik to‘g‘risidagi ishlarni sudda ko‘rishga tayyorlash  
to‘g‘risidagi ajrimni yozing.

## **16-MAVZU. IQTISODIY SUDDA HAKAMLIK SUDINING HAL QILUV QARORI BILAN BOG'LIQ ISHLARNI YURITISH**

### **1-§. Iqtisodiy sudning hakamlik sudi hal qiluv qarorini bekor qilish to‘g‘risidagi yoki hakamlik sudining hal qiluv qarorini bekor qilishni rad etish haqidagi ajrimi va uni rasmiylashtirish tartibi**

Hakamlik sudining hal qiluv qarorini bekor qilish to‘g‘risidagi ariza IPKda nazarda tutilgan qoidalarga binoan suda tomonidan yakka tartibda ko‘rib chiqiladi.

Suda ishni hakamlik muhokamasi tarafining iltimosnomasiga binoan sud muhokamasiga tayyorlayotganda iqtisodiy sudda nizolashilayotgan hal qiluv qaroriga oid ish materiallarini hakamlik sudidan IPKda dalillarni talab qilib olish uchun nazarda tutilgan qoidalarga binoan talab qilib olish mumkin.

Iqtisodiy sud hakamlik muhokamasi taraflarini sud majlisining vaqt va joyi to‘g‘risida xabardor qiladi. Sud majlisining vaqt va joyi haqida tegishli tarzda xabardor qilingan mazkur shaxslarning kelmaganligi ishni ko‘rib chiqish uchun to‘sinqinlik qilmaydi.

Iqtisodiy sud ishni sud majlisida ko‘rib chiqayotganda hakamlik sudining hal qiluv qarorini bekor qilish uchun IPKning 223-moddasida nazarda tutilgan asoslar mavjudligi yoki mavjud emasligini bayon qilingan talablar va e’tirozlarni asoslash uchun sudga taqdim etilgan dalillarni tekshirish yo‘li bilan aniqlaydi.

Iqtisodiy sud ishni sud majlisida ko‘rib chiqayotganda hakamlik sudi aniqlagan holatlarni tekshirishga yoxud hakamlik sudining hal qiluv qarorini mazmunan qayta ko‘rib chiqishga haqli emas.

IPKning 224-moddasida hakamlik sudining hal qiluv qarorini bekor qilish asoslari belgilangan.

Hakamlik sudining hal qiluv qarori, agar hakamlik sudining hal qiluv qarorini bekor qilish to‘g‘risida ariza bergen hakamlik muhokamasi tarafi quyidagilarni isbotlovchi dalillarni taqdim etsa, iqtisodiy sud tomonidan bekor qilinishi kerak:

- 1) hakamlik bitimi qonunda nazarda tutilgan asoslarga ko‘ra haqiqiy emasligini;

2) hakamlik sudining hal qiluv qarori hakamlik bitimida nazarda tutilmagan yoki uning shartlariga to‘g‘ri kelmaydigan nizo bo‘yicha chiqarilganligini yoxud unda hakamlik bitimi doirasidan chetga chiquvchi masalalar bo‘yicha xulosalar mavjudligini. Agar hakamlik sudining hakamlik bitimi bilan qamrab olinadigan masalalar bo‘yicha xulosalarini bunday bitim bilan qamrab olinmaydigan masalalar bo‘yicha xulosalaridan ajratib olish mumkin bo‘lsa, hakamlik sudi hal qiluv qarorining faqat hakamlik bitimi bilan qamrab olinmaydigan masalalar bo‘yicha xulosalari bo‘lgan qismi bekor qilinishi mumkin;

3) hakamlik sudi tarkibi yoki hakamlik muhokamasi “Ha-kamlik sudlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonu-nining [14](#), [15](#), [16](#) va [25-moddalari](#) qoidalariga muvofiq emasligini;

4) hakamlik sudining hal qiluv qarori “Hakamlik sudlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni 10-moddasining [birin-chi](#) va [uchinchchi](#) qismlari talablari buzilgan holda chiqarilganligini;

5) hakamlik sudining hal qiluv qarori hakamlik muhokamasi taraflaridan qaysi biriga qarshi qabul qilingan bo‘lsa, o‘scha taraf hakamlik sudyalarini saylash (tayinlash) to‘g‘risida yoki hakamlik sudi majlisining vaqt va joyi haqida tegishli tarzda xabardor qilinmaganligini hamda shu sababli u hakamlik sudiga o‘z tushuntirishlarini taqdim eta olmaganligini.

Agar hakamlik sudi tomonidan ko‘rib chiqilgan nizo qonunga muvofiq hakamlik muhokamasining predmeti bo‘lmasa, hakamlik sudining hal qiluv qarori iqtisodiy sud tomonidan bekor qilinishi kerak.

Iqtisodiy sud hakamlik sudining hal qiluv qarorini bekor qilish to‘g‘risidagi ishni ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha IPKda hal qiluv qarori qabul qilish uchun nazarda tutilgan qoidalarga binoan ajrim chiqaradi.

Iqtisodiy sudning hakamlik sudi hal qiluv qarorini bekor qilish to‘g‘risidagi yoki hakamlik sudining hal qiluv qarorini bekor qilishni rad etish haqidagi ajrimida quyidagilar ham bo‘lishi kerak:

1) hakamlik sudining nizolashilayotgan hal qiluv qarori to‘g‘risidagi va mazkur qaror qabul qilingan joy to‘g‘risidagi ma’lumotlar;

2) nizolashilayotgan hal qiluv qarorini qabul qilgan hakamlik sudining nomi va tarkibi to‘g‘risidagi ma’lumotlar;

3) hakamlik muhokamasi taraflarining nomi (familiyasi, ismi, otasining ismi);

4) hakamlik sudining hal qiluv qarorini to‘liq yoki qisman bekor qilish yoxud arizachining talabini to‘liq yoki qisman qanoatlantirishni rad etish uchun ko‘rsatma.

Hakamlik sudi hal qiluv qarorining bekor qilinganligi hakamlik muhokamasi taraflarining, agar hakamlik sudiga murojaat etish imkoniyati yo‘qolmagan bo‘lsa, hakamlik bitimiga muvofiq ha-kamlik sudiga yangitdan murojaat etishiga yoki IPKda nazarda tu-tilgan umumiy qoidalarga binoan iqtisodiy sudga murojaat etishiga to‘sinqinlik qilmaydi.

Agar hakamlik sudining hal qiluv qarori hakamlik bitimi haqiqiy emasligi oqibatida yoki hal qiluv qarori hakamlik bitimida nazarda tutilmagan yoki uning shartlariga to‘g‘ri kelmaydigan nizo bo‘yicha chiqarilganligi yoxud unda hakamlik bitimida qa-mrab olinmagan masalalar bo‘yicha xulosalar mavjudligi oqiba-tida iqtisodiy sud tomonidan to‘liq yoxud qisman bekor qilingan bo‘lsa, hakamlik muhokamasi taraflari bunday nizoni hal qilish uchun IPKda nazarda tutilgan umumiy qoidalarga binoan iqtisodiy sudga murojaat etishlari mumkin.

Hakamlik sudining hal qiluv qarorini bekor qilish to‘g‘risidagi ish bo‘yicha iqtisodiy sudning ajrimi ustidan IPKda belgilangan tartibda shikoyat berilishi (protest keltirilishi) mumkin.

**AJRIM**  
**(Hakamlik sudi hal qiluv qarorini  
bekor qilish to‘g‘risida)**

**Toshkent sh. \_\_\_\_\_ 20\_\_ yil \_\_\_\_\_-sonli ish**

Toshkent shahar iqtisodiy sud, sudya \_\_\_\_\_ raisligida,  
\_\_\_\_\_ ning sud majlisi kotibligida, arizachi vakili –  
\_\_\_\_\_, (2014-yil fevraldagи \_\_\_\_-sonli ishonchnoma asosida)  
javobgar vakili – \_\_\_\_\_, (2014-yil fevraldagи \_\_\_\_-sonli ishonchnoma  
asosida)lar ishtirokida, arizachi – “MK” MChJning hakamlik sudining  
2013-yil 5-maydagи 405-sonli hal qiluv qarorini bekor qilish  
to‘g‘risidagi arizasi va unga ilova qilingan hujjatlarni ochiq sud  
majlisida ko‘rib chiqib, quyidagilarni

## **ANIQLADI:**

“VAB” MChJ xuzuridagi doimiy faoliyat ko‘rsatuvchi hakamlik sudining (Toshkent shahri, «Z»-11-18-35, raislik etuvchi – Z.Juraev, sudyalar - A.Juraev, O.Mamatov) 2013-yil 5-maydagi 405-sonli hal qiluv qarori bilan “TU” XFning da’vo talablari qanoatlantirilib, “MK” MChJ hisobidan “TU” XF foydasiga 5.457.445 so‘m asosiy qarz va 10% qo‘sishmcha bilan jami 6.003.189 so‘m pul mablag‘i, 209.236 so‘m hakamlik yig‘imi undirilgan.

Mazkur qabul qilingan hal qiluv qaroridan norozi bo‘lib, “MK” MChJ Toshkent shahar iqtisodiy sudga ariza bilan murojaat qilib, “VAB” MChJ huzuridagi doimiy faoliyat ko‘rsatuvchi hakamlik sudining 2013-yil 5-maydagi 405-sonli ish bo‘yicha chiqargan hal qiluv qarorini bekor qilishni so‘ragan.

Sud majlisida arizachi vakili hakamlik bitimi “MK” MChJning sobiq rahbari tomonidan imzolanganligini, ushbu bitimni imzolash vaqtida u rahbar lavozimida bo‘lмаганligini, hakamlik sudyalarini saylashda arizachi vakillari ishtirot etmaganliklarini, ishni ko‘rish vaqt va joyi to‘g‘risida xabardor bo‘лмаганликларини bildirib, arizani to‘liq qanoat-lantirib berishni so‘radi.

Javobgar vakili arizachi talablariga e’tiroz bildirib, arizani rad etishni so‘radi.

Sud, taraf vakillarining tushuntirishlarini tinglab, ish materiallarini o‘rganib chiqib, quyidagi asoslarga ko‘ra ariza talablarini to‘liq qanoat-lantirishni lozim topdi:

Ish hujjatlaridan aniqlanishicha, 2011-yil 13-iyun kuni “TU” XF va “MK” MChJ o‘rtasida nizoni “VAB” MChJ huzuridagi doimiy faoliyat ko‘rsatuvchi hakamlik sudida ko‘rishga topshirish to‘g‘risida bitim tuzilgan bo‘lib, “MK” MChJ nomidan uni O.Qayumov rahbar Sifatida imzolagan. Vaholanki, 2011-yil 6- iyul kuni jinoyat ishlari bo‘yicha Termiz shahar sudining hukmiga ko‘ra, O.Qayumov O‘zbekiston Respublikasi JKning 257-moddasi 2-qismi “a” bandida ko‘rsatilgan jinoyatni sodir etganlikda aybdor deb topilib, u 1 yilga mansabdorlik va moddiy javobgarlik yuklatilgan lavozimlarda ishslash huquqidан mahrum etilgan. Shunga ko‘ra, “MK” MChJning 2011 yil 7 iyuldagи navbatdan tashqari yig‘ilishining qaroriga asosan, O.Qayumov Direktor lavozimidan ZG qilinib, uning o‘rniga Sh.A.Juraev 2011-yil 7-iyulidan boshlab direktor lavozimiga tayinlangan.

Bundan ko‘rinadiki, hakamlik bitimi tuzilgan vaqtida O.Qayumov “MK” MChJning rahbari bo‘лмаган va u ushbu bitimni imzolash huquqiga ega bo‘лмаган.

Bundan tashqari, hakamlik sudining hal qiluv qaroridan ko‘rinishicha, sud majlisida javobgar vakili Sifatida aynan O.Qayumov ishtirot etib, qarz dorlikni qisman tan olgan.

O'zbekiston Respublikasi "Hakamlik sudlari to'g'risida"gi qonuning 11-moddasiga ko'ra, hakamlik bitimi mavjud bo'lgan taqdirda, nizo Hakamlik sudining hal qiluviga topshirilishi mumkin.

Ushbu qonunning 12-moddasiga ko'ra, hakamlik bitimi yozma shaklda tuziladi. Hakamlik bitimi shartnomaning tarkibiy qismi bo'lgan shartnoma sharti yoki alohida bitim tarzida rasmiylashtirilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 107-moddasiga asosan, yozma shaklda tuzilgan bitimni, agar ish muomalasi odatlaridan boshqacha tartib kelib chiqmasa, taraflar yoki ularning vakillari imzolashi kerak.

O'zbekiston Respublikasi IPKning 223-moddasiga muvofiq, hakamlik sudining hal qiluv qarori, agar Hakamlik bitimi qonunda nazarda tutilgan asoslarga ko'ra haqiqiy emasligini, hakamlik sudining hal qiluv qarorini bekor qilish to'g'risida ariza bergan hakamlik muhokamasi tarafi hakamlik sudi tarkibi yoki hakamlik muhokamasi "Hakamlik sudlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuning 14, 15, 16 va 25-moddalarli qoidalariga muvofiq emasligini, Hakamlik sudining hal qiluv qarori "Hakamlik sudlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni 10-moddasining birinchi va uchinchi qismlari talablari buzilgan holda chiqarilganligini, Hakamlik sudining hal qiluv qarori Hakamlik muhokamasi taraflaridan qaysi biriga «B» qabul qilingan bo'lsa, o'sha taraf Hakamlik sudyalarini saylash (tayinlash) to'g'risida yoki Hakamlik sudi majlisining vaqt va joyi Haqida tegishli tarza xabardor qilin-maganligini hamda shu sababli u Hakamlik sudiga o'z tushuntirishlarini taqdim eta olmaganligini isbotlovchi dalillarni taqdim etsa, iqtisodiy sud tomonidan bekor qilinishi kerak.

O'zbekiston Respublikasi IPKning 224-moddasiga ko'ra, iqtisodiy sud hakamlik sudining hal qiluv qarorini bekor qilish to'g'risidagi ishni ko'rib chiqish natijalari bo'yicha ushbu Kodeksda hal qiluv qarori qabul qilish uchun nazarda tutilgan qoidalarga binoan ajrim chiqaradi.

Sud, O.Qayumovning tegishli vakolatga ega bo'lmasdan hakamlik bitimini imzolaganligini, hakamlik sudida javobgar Sifatida ishtirok etganligini, "MK" MChJning rahbariyati hakamlik bitimi va unga asosan, o'tkazilgan sud majlisidan xabari bo'limgaganligini, sudda ishtirok etmaganligini e'tiborga olib, arizachi "MK" MChJning arizasini qa-noatlantirishni va "VAB" MChJ huzuridagi doimiy faoliyat ko'rsatuvchi hakamlik sudining 2013-yil 5-maydagi hal qiluv qarorini bekor qilishni lozim deb topadi.

O'zbekiston Respublikasi IPKning 195, 223,224-moddalarini, O'zbekiston Respublikasi "Hakamlik sudlari to'g'risida"gi Qonuning 11, 12, 14-16, 25-moddalarini qo'llab sud,

### **AJRIM QILDI:**

Arizachi – “MK” MChJning arizasi qanoatlantirilsin.

“VAB” MChJ xuzuridagi doimiy faoliyat ko‘rsatuvchi hakamlik sudi tomonidan 2013-yil 5-mayda 405-sonli hakamlik ishi bo‘yicha chiqarilgan hal qiluv qarori bekor qilinsin.

“TU” XF hisobidan “MK” MChJ foydasiga 114.400 so‘m davlat boji va 5000 so‘m pochta xarajati undirilsin.

Mazkur ajrim ustidan apellyatsiya tartibida shikoyat qilish (protest keltirish) mumkin.

Sudya

imzo

F.I.Sh.

### **2-§. Iqtisodiy sudning hakamlik sudi hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to‘g‘risidagi ish bo‘yicha ajrimi va uni rasmiylashtirish tartibi**

IPKning 228-moddasiga asosan, hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to‘g‘risidagi ariza IPKda nazarda tutilgan qoidalarga binoan sudya tomonidan yakka tartibda ko‘rib chiqiladi.

Sudya ishni hakamlik muhokamasi tarafining iltimosnomasiga binoan sud muhokamasiga tayyorlayotganda ijro varaqasi so‘ralayotgan ish materiallarini hakamlik sudidan IPKda dalillarni talab qilib olish uchun nazarda tutilgan qoidalarga binoan talab qilib olishi mumkin.

Iqtisodiy sud hakamlik muhokamasi taraflarini sud majlisining vaqt va joyi to‘g‘risida xabardor qiladi. Sud majlisining vaqt va joyi haqida tegishli tarzda xabardor qilingan mazkur shaxslarning kelmaganligi ishni ko‘rib chiqish uchun to‘sinqlik qilmaydi.

Iqtisodiy sud ishni sud majlisida ko‘rib chiqayotganda hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berishni rad etish uchun IPKning 229-moddasida nazarda tutilgan asoslar mavjudligi yoki mavjud emasligini bayon qilingan talablar va e’tirozlarni asoslash uchun sudga taqdim etilgan dalillarni tekshirish yo‘li bilan aniqlaydi.

Iqtisodiy sud ishni sud majlisida ko‘rib chiqayotganda hakamlik sudi aniqlagan holatlarni tekshirishga yoxud hakamlik sudining hal qiluv qarorini mazmunan qayta ko‘rib chiqishga haqli emas.

Agar hakamlik sudining hal qiluv qarorini bekor qilish to‘g‘risidagi ariza IPKning 223-moddasining ikkinci qismida ko‘rsatilgan iqtisodiy sudning ish yurituvida bo‘lsa, mazkur hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to‘g‘risidagi ariza ko‘rib chiqilayotgan iqtisodiy sud hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to‘g‘risidagi arizani ko‘rib chiqishni qarzdorning iltimosnomasiga binoan keyinga qoldirishi mumkin.

IPKning 229-moddasida hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berishni rad etish asoslari keltirilgan.

Iqtisodiy sud hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berishni hakamlik sudining hal qiluv qarori ha-kamlik muhokamasi taraflaridan qaysi biriga qarshi qabul qilingan bo‘lsa, o‘sha taraf quyidagilarni isbotlovchi dalillarni taqdim etgan hollardagina rad etadi:

1) hakamlik bitimi qonunda nazarda tutilgan asoslarga ko‘ra haqiqiy emasligini;

2) hakamlik sudi hal qiluv qarorining hakamlik bitimida nazarda tutilmagan yoki uning shartlariga to‘g‘ri kelmaydigan nizo bo‘yicha chiqarilganligini yoxud unda hakamlik bitimi doirasidan chetga chiquvchi masalalar bo‘yicha xulosalar mavjudligini. Agar hakamlik sudining hal qiluv qarorida hakamlik bitimi bilan qamrab olinadigan masalalar bo‘yicha xulosalarni bunday bitim bilan qamrab olinmay-digan masalalar bo‘yicha xulosalardan ajratib olish mumkin bo‘lsa, iqtisodiy sud hakamlik sudi hal qiluv qarorining faqat hakamlik bitimi bilan qamrab olinadigan masalalar bo‘yicha xulosalar bo‘lgan qismi uchun ijro varaqasi beradi;

3) hakamlik sudi tarkibi yoki hakamlik muhokamasi “Hakamlik sudlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 14, 15, 16 va 25-moddalari qoidalariga muvofiq emasligini;

4) hakamlik sudining hal qiluv qarori “Hakamlik sudlari to‘g‘-risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni 10-moddasining birinchi va uchinchchi qismlari talablari buzilgan holda chiqarilganligini;

5) hakamlik sudining hal qiluv qarori hakamlik muhokamasi taraflaridan qaysi biriga qarshi qabul qilingan bo‘lsa, o‘sha taraf hakamlik sudyalarini saylash (tayinlash) to‘g‘risida yoki hakamlik sudi majlisining vaqtி va joyi haqida tegishli tarzda xabardor qilin-maganligini hamda shu sababli u hakamlik sudiga o‘z tushuntirishlarini taqdim eta olmaganligini;

6) hakamlik sudining hal qiluv qarori hakamlik muhokamasi taraf- lari uchun hali majburiy bo‘limganligini yoki bekor qilinganligini yoxud uning ijrosi iqtisodiy sud yoki fuqarolik ishlari bo‘yicha sud tomonidan to‘xtatib turilganligini.

Agar hakamlik sudi tomonidan ko‘rib chiqilgan nizo qonunga muvofiq hakamlik muhokamasining predmeti bo‘lmasa, iqtisodiy sud hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berishni rad etadi.

Iqtisodiy sud hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to‘g‘risidagi ishni ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha IPKda hal qiluv qarori qabul qilish uchun nazarda tutilgan qoidalarga binoan ajrim chiqaradi.

Iqtisodiy sudning hakamlik sudi hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to‘g‘risidagi yoki hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berishni rad etish haqidagi ajrimida quyidagilar ham bo‘lishi kerak:

- 1) hal qiluv qarorini qabul qilgan hakamlik sudining nomi va tarkibi;
- 2) hakamlik muhokamasi taraflarining nomi (familiyasi, ismi, otasining ismi);
- 3) hakamlik sudining hal qiluv qarori to‘g‘risidagi, arizachi majburiy ijro etilishini iltimos qilayotgan ijro varaqasini berish haqidagi ma’-lumotlar;
- 4) hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish yoki ijro varaqasi berishni rad etish uchun ko‘rsatma.

Hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish rad etilganligi hakamlik muhokamasi taraflarining, agar hakamlik sudiga murojaat etish imkoniyati yo‘qolmagan bo‘lsa, hakamlik bitimiga muvofiq hakamlik sudiga yan-gitdan murojaat etishiga yoki IPKda nazarda tutilgan umumiyoqoidalarga binoan iqtisodiy sudga murojaat etishiga to‘sinqinlik qilmaydi.

Agar hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish hakamlik bitimining haqiqiy emasligi oqibatida yoki hal qiluv qarori hakamlik bitimida nazarda tutil-magan yoki uning shartlariga to‘g‘ri kelmaydigan nizo bo‘yicha chiqarilganligi yoxud unda hakamlik bitimida qamrab olinmagan masalalar bo‘yicha to‘xtamlar mavjudligi yoinki nizo hakamlik

muhokamasining predmeti bo‘lishi mumkin emasligi oqibatida iqtisodiy sud tomonidan to‘liq yoki qisman rad etilgan bo‘lsa, ha-kamlik muhokamasi taraflari bunday nizoni hal qilish uchun IPK-da nazarda tutilgan qoidalarga binoan iqtisodiy sudga murojaat etishlari mumkin.

Iqtisodiy sudning hakamlik sudi hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to‘g‘risidagi ajrimi darhol ijro etilishi kerak.

Iqtisodiy sudning ushbu moddaning birinchi qismiga muvofiq chiqarilgan ajrimi ustidan IPKda belgilangan tartibda shikoyat berilishi (protest keltirilishi) mumkin.

“Hakamlik sudsidi to‘g‘risida”gi Qonunning 13-moddasi birinchi qismiga ko‘ra hakamlik bitimida hakamlik bitimi taraflari o‘rtasida kelib chiqqan yoki kelib chiqishi mumkin bo‘lgan barcha yoxud ayrim nizolar hakamlik sudida ko‘rib chiqilishi kerakligi haqidagi qoida ko‘rsatilishi lozim.

Shu bois, agar hakamlik bitimida taraflar o‘rtasida kelib chiqqan yoki kelib chiqishi mumkin bo‘lgan barcha nizolar hakamlik sudida ko‘rib chiqilishi kerakligi haqidagi qoida ko‘rsatilgan bo‘lsa, hakamlik kelishuvini haqiqiy emasligi haqidagi nizo ham hakamlik sudida ko‘rib chiqiladi.

Agar hakamlik bitimida hakamlik bitimi taraflari o‘rtasida kelib chiqqan yoki kelib chiqishi mumkin bo‘lgan ma’lum bir nizolar hakamlik sudida ko‘rib chiqilishi kerakligi haqidagi qoida ko‘rsatilgan bo‘lib, ularda hakamlik bitimi ustidan nizolashish masalasi ko‘rsatilgan bo‘lmasa, hakamlik kelishuvini haqiqiy emasligi haqidagi nizo iqtisodiy sudda ko‘rilishi lozim.

Qonun 5-moddasining ikkinchi qismiga muvofiq davlat hokimiyyati va boshqaruv organlari hakamlik sudsalarini tashkil etishlari, shuningdek, hakamlik bitimi taraflari bo‘lishi mumkin emas.

Agar nizo ko‘rsatilgan organlar tomonidan tashkil qilingan hakamlik sudi tomonidan ko‘rib chiqilgan bo‘lsa, haqamlik sudsining hal qiluv qarori IPKning 223-moddasi birinchi qismining 3-bandiga mos holda iqtisodiy sud tomonidan bekor qilinadi, hakamlik sudsining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasini berish haqidagi ariza esa IPKning 229-moddasi birinchi qismining

3-bandiga mos holda rad etiladi.

IPKning 28 va 29-boblari hamda Qonunning 7 va 8-boblariga muvofiq sudga hakamlik sudining hal qiluv qarorini bekor qilish to‘g‘risidagi ariza bilan faqat hakamlik muhokamasi taraflari, hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasini berish to‘g‘risidagi ariza bilan esa hal qiluv qarori hakamlik muhokamasi taraflaridan qaysi birining foydasiga chiqarilgan bo‘lsa, o‘sha taraf murojaat qiladi.

Hakamlik sudi ishda ishtirok etishga jalg qilinmagan shaxslarning huquqlari va majburiyatları to‘g‘risida hal qiluv qarori qabul qilgan bo‘lsa, ushbu shaxslar bunday hal qiluv qarori ustidan IPKning 271-moddasi ikkinchi qismining 4-bandiga mos holda hal qiluv qarorini bekor qilish haqida iqtisodiy sudga ariza berishlari mumkin.

Sudlar hakamlik sudining hal qiluv qarorini bekor qilish hamda hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasini berish to‘g‘risidagi arizalar bo‘yicha davlat boji O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 3-no-yabrdagi 533-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Davlat boji stavkalari”ga muvofiq eng kam oylik ish haqining 2 barobari miqdorida to‘lanishi lozim.

Agar qarzdor joylashgan yerdagi yoki yashaydigan joydagи yoxud, agar qarzdor joylashgan yer yoki yashaydigan joy noma’-lum bo‘lsa, uning mol-mulki turgan joydagи iqtisodiy sudning ish yurituvida hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasini berish to‘g‘risidagi ish mavjud bo‘lib, hakamlik sudining hal qiluv qarori qabul qilingan joydagи iqtisodiy sudga hakamlik sudining hal qiluv qarorini bekor qilish to‘g‘risida ariza kelib tushsa, hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasini berish to‘g‘risidagi ish bo‘yicha ish yuritish IPKning 101-moddasi birinchi qismining 1-bandiga asosan, to‘xtatib turilishi yoki ishni ko‘rish IPKning 228-moddasining oltinchi qismiga asosan, qarzdorning iltimos-nomasiga binoan keyinga qoldirilishi mumkin.

Hakamlik sudining hal qiluv qarorini bekor qilish to‘g‘risidagi ariza ish yuritishga qabul qilinganidan keyin manfaatdor shaxs tomonidan shu ish doirasida hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasini berish to‘g‘risida ariza IPKning 229-moddasi hamda Qonunning 51-moddasi talab-

lariga rioya qilingan holda berilgan bo'lsa, u ish yuritishga qabul qilinadi va dastlabki ariza bilan birga ko'rib chiqiladi. Agar hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasini berish to'g'risidagi ariza IPKning 229-moddasi hamda Qonunning 51-moddasi talablarini buzgan holda berilgan bo'lsa, u IPKning 155-moddasiga mos holda qaytariladi.

Agar iqtisodiy sudning ish yurituvida IPKning 223-moddasining ikkinchi qismi va 229-moddasining uchinchi qismida ko'r-satilgan sudlovga tegishlilik qoidalariga rioya qilgan holda hakamlik sudining hal qiluv qarorini bekor qilish hamda hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro va-raqasini berish to'g'risidagi alohida qo'zg'atilgan ishlar mayjud bo'lsa, IPKning 115-moddasining ikkinchi qismiga asosan, bu ish-lar bitta ish yuritishga birlashtirilishi mumkin. Hakamlik sudining hal qiluv qarorini bekor qilish to'g'risidagi arizaning shakli va mazmuni IPKning 225-moddasi talablariga mos kelishi va unga ushbu moddada nazarda tutilgan hujjatlar, shuningdek, pochta xarajatlari to'langanligini tasdiqlovchi hujjat ham ilova qilinishi lozim. Ushbu talablarga rioya qilinmagan taqdirda, hakamlik su-dining hal qiluv qarorini bekor qilish to'g'risidagi ariza IPKning 118-moddasiga mos holda qaytariladi. Arizaning qaytarilishi yo'l qo'yilgan xatolar bartaraf etilgandan keyin takroran iqtisodiy sudga umumiy tartibda bunday ariza bilan murojaat qilishga to's-qinlik qilmaydi.

Manfaatdor shaxs tomonidan hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasini berish to'g'risidagi ariza IPKning 29-bobi talablariga rioya etilgan holda umumiy tartibda berilganda, bunday arizani hakamlik sudining hal qiluv qarorini bekor qilish to'g'risidagi ariza ko'rib chiqilayotganligi asos qilinib qabul qilishni rad etish yoki uni qaytarish mumkin emas. Agar hakamlik sudining hal qiluv qarori u bekor kilingan paytda ijro etilgan bo'lsa, iqtisodiy sudning hakamlik sudi hal qi-luv qarorini to'liq yoki qisman bekor qilish to'g'risidagi ajrimida IPKning 225-moddasining ikkinchi qismida ko'rsatilgan ma'lumotlar va ko'rsatmalardan tashqari, Qonunning 54-moddasiga asosan, hakamlik sudining to'liq yoki qisman bekor qilingan hal qiluv qaroriga muvofiq javobgardan da'vogarning foydasiga undirilgan narsalarning hammasi javobgarga qaytarib berilishi haqidagi ma-

sala hal qilinishi va ijro varaqasi berilishi lozim. Agar bu masala sud ajrimida hal etilmagan bo'lsa, hakamlik sudi hal qiluv qarorining qaytarma ijrosi to'g'risidagi masala IPKning 220-moddasiga mos holda hal etiladi.

Agar hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasini berish to'g'risidagi arizani ko'rish jarayo-nida hakamlik sudining hal qiluv qarori qisman ijro etilganligi aniqlansa va ijro varaqasini berishni rad etish uchun asoslar mav-jud bo'lmasa, ajrim hakamlik sudi hal qiluv qarorining ijro etil-magan qismi bo'yicha chiqariladi. Bunda hakamlik sudi hal qiluv qarorining qisman ijro etilganligini tasdiqlovchi dalillar sudga manfaatdor shaxs tomonidan taqdim etiladi. Iqtisodiy sudning hakamlik sudining hal qiluv qarorini bekor qilish va hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to'g'risidagi arizani ko'rib chiqish natijalari bo'yicha chiqarilgan ajrimi darhol ijro etiladi. Shu bois, ajrim asosida iqtisodiy sud ijro varaqasini beradi.

Hakamlik sudida ko'rib chiqilayotgan da'veoni ta'minlash to'g'risidagi arizani iqtisodiy sud tomonidan ko'rib chiqilishi alohida toifadagi ish hisoblanmaydi. Ammo, bunday ariza iqtisodiy sudga taqdim etilganda, sud uni ish yuritishga qabul qilishi va ishga alohida raqam berishi lozim.

Hakamlik sudida ko'rib chiqilayotgan da'veoni ta'minlash haqidagi ariza hakamlik muhokamasi tarafi tomonidan hakamlik sudi joylashgan yerdagi yoxud javobgar joylashgan yerdagi yoki yashaydigan joydagi yoinki javobgarning mol-mulki turgan joydagi iqtisodiy sudga beriladi va IPKning 76-81-moddalarida nazarida tutilgan tartibda ko'rib chiqiladi. Da'veoni ta'minlash to'g'risidagi arizaga da'veoning hakamlik sudiga taqdim etilganligini isbotlovchi dalillar ilova qilinadi.

Hakamlik sudi tomonidan da'vo talablarini qanoatlantirishni rad etish haqidagi hal qiluv qarori qabul qilingan taqdirda, da'veoni ta'minlash choralarini hakamlik muhokamasi tarafining arizasiga binoan iqtisodiy sud tomonidan IPKning 80-moddasining beshinchisi qismi va Qonun 32-moddasining oltinchi qismiga asosan, sud majlisi o'tkazilmasdan bekor qilinadi.

**(hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun  
ijro varaqasi berish to‘g‘risida)**

**Toshkent sh. \_\_\_\_\_ 20 yil \_\_\_\_\_-sonli ish**

Toshkent shahar iqtisodiy sud, sudyalar \_\_\_\_\_ raisligida,  
\_\_\_\_\_-ning sud majlisi kotibligida, arizachi vakili –  
\_\_\_\_\_, (2014 yil fevraldagi \_\_\_\_-sonli ishonchnoma asosida)  
javobgar vakili – \_\_\_\_\_, (2014-yil fevraldagi \_\_\_\_-sonli ishonchnoma  
asosida)lar ishtirokida arizachi – “S” davolash-tashxis markazi  
MChJning javobgar – “D lizing” LK AJga nisbatan hakamlik sudining  
2013-yil 18-apreldagi 01/11-50-0029-sonli hal qiluv qarorini majburiy  
ijro etish uchun ijro varaqasi berish to‘g‘risidagi arizasi va unga ilova  
qilingan hujjatlarni ochiq sud majlisida ko‘rib chiqib, quyidagilarni

**ANIQLADI:**

O‘zbekiston Hakamlik sudsari assotsiatsiyasi xuzuridagi hakamlik  
sudining (Toshkent shahri, Navoiy ko‘chasi, 30-uy, raislik etuvchi –  
K.Yu.Talipov, sudyalar – D.Mamatkulov, K.N.Raximov) 2013-yil 18-  
apreldagi 01/11-50-0029-sonli hal qiluv qaroriga asosan, da’vogar - “S”  
davolash-tashxis markazi MChJning da’vo talablari qanoatlantirilib, “D  
lizing” LK AJ hisobidan “S” davolash-tashxis markazi MChJ foydasiga

- 54.735.000 so‘m asosiy qarz
- 27.367.500 so‘m penya
- 27.367.500 so‘m boy berilgan foyda
- 2.736.750 so‘m pul majburiyatlarini bajarmaganlik uchun  
foiz
- 561.030 so‘m hakamlik yig‘imi va 7000 so‘m pochta  
xarajatlari undirilgan.

Shuningdek, agar “D lizing” LK AJ sudning hal qiluv qarorini ix-  
tiyoriy ravishda ijro etmasa, undiruv qonunda belgilangan tartibda  
javobgarning “KapitABnk” OATB Toshkent shahar Amaliyot bosh-  
qarmasidagi (MFO 00974, STIR 300751704, h/r 20208000504684  
961009) pul mablag‘i hamda likvidli mol-mulki hisobidan majburiy  
tartibda amalga oshirilishi belgilangan.

Sud majlisida arizachi vakili ariza talablarini qo‘llab-quvvatlab,  
hakamlik sudining hal qiluv qaroriga ijro varaqasi berishni so‘radi.

Javobgar vakili hakamlik sudining asosiy qarz undirish qismiga rozi  
ekanligini bildirib, penya qismiga ijro varaqasi bermaslikni so‘radi.

Sud, taraf vakillarining tushuntirishlarini tinglab, ish materiallarini  
o‘rganib chiqib, quyidagi asoslarga ko‘ra ariza talablarini to‘liq qa-  
noatlantirishni lozim topdi:

O'zbekiston Respublikasi IPKning 230-moddasiga ko'ra, iqtisodiy sud ishni sud majlisida ko'rib chiqayotganda hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berishni rad etish uchun ushbu Kodeksning 231-moddasida nazarda tutilgan asoslar mayjudligi yoki mavjud emasligini bayon qilingan talablar va e'tirozlarni asoslash uchun sudga taqdim etilgan dalillarni tekshirish yo'li bilan aniqlaydi.

Iqtisodiy sud ishni sud majlisida ko'rib chiqayotganda hakamlik sudi aniqlagan holatlarni tekshirishga yoxud hakamlik sudining hal qiluv qarorini mazmunan qayta ko'rib chiqishga haqli emas.

Ish hujjatlaridan aniqlanishicha, mazkur holatda O'zbekiston Respublikasi IPKning 231-moddasida belgilangan hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berishni rad etish asoslari mavjud emas.

Yuqoridaqilarga asosan, shuningdek, arizachi tomonidan O'zbekiston Respublikasi IPKning 229-moddasida nazarda tutilgan barcha hujjatlar arizaga ilova qilinganligini e'tiborga olib, sud arizachining arizasini to'liq qanoatlantirishni lozim topadi.

O'zbekiston Respublikasi IPKning 232-moddasiga asosan, iqtisodiy sudning hakamlik sudi hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to'g'risidagi ajrimi darhol ijro etilishi kerak.

Yuqorida bayon etilganlarga, O'zbekiston Respublikasi IPKning 195, 230-232-moddalarini qo'llab sud,

### **AJRIM QILDI:**

Arizachi – “S” davolash-tashxis markazi MChJning O'zbekiston Hakamlik sudlari assotsiatsiyasi xuzuridagi hakamlik sudining 2013-yil 18-apreldagi 01/11-50-0029-sonli hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to'g'risidagi arizasi qanoatlantirilsin.

Javobgar – “D lizing” LK AJ hisobidan “S” davolash-tashxis markazi MChJ foydasiga 54.735.000 so'm asosiy qarz, 27.367.500 so'm penya, 27.367.500 so'm boy berilgan foya, 2.736.750 so'm pul majburiyatlarimi bajarmaganlik uchun foiz, 561.030 so'm hakamlik yig'imi va 7000 so'm pochta xarajatlarini majburiy tartibda undirish to'g'risida ijro varaqasi berilsin.

Undiruv qonunda belgilangan tartibda “D lizing” LK AJning “KapitABnk” OATB Toshkent shahar Amaliyot boshqarmasidagi (MFO 00974, STIR 300751704, h/r 20208000504684961009) pul mablag'i hamda likvidli mol-mulki hisobidan majburiy tartibda amalga oshirilsin.

“D lizing” LK AJ hisobidan “S” davolash-tashxis markazi MChJ foydasiga 125.840 so‘m davlat boji va 5000 so‘m pochta xarajatlari undirilsin.

Mazkur ajrim ustidan appellatsiya tartibida shikoyat qilish (protest keltirish) mumkin.

**Sudya**

**imzo**

**F.I.Sh.**

## **NAZORAT UCHUN SAVOLLAR**

1. Hakamlik sudining hal qiluv qarorini bekor qilish to‘g‘risidagi arizani ko‘rib chiqishning protsessual tartibi haqida nimalarni bilasiz? Fikringizni asoslaniting?
2. Hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy ijsro etish uchun ijro varaqasi berish to‘g‘risidagi ariza va unga qanday hujjatlar ilova qilinadi.
3. Hakamlik sudsulari tomonidan qanday hujjatlar qabul qilinadi?
4. Hakamlik sudining hal qiluv qarori nechta tarkibiy qismlarga ajratiladi?

## **17-MAVZU. HUQUQIY TA'SIR CHORALARINI QO'LLASH TO'G'RISIDAGI ISHLARNI YURITISHDAGI PROTSESSUAL HUJJATLAR**

### **1-§. Huquqiy ta'sir chorasini qo'llash to'g'risidagi ish bo'yicha iqtisodiy sudning hal qiluv qarori va uni rasmiy lashtirish tartibi**

Huquqiy ta'sir chorasini qo'llash to'g'risidagi ish ishni sudda ko'rishga tayyorlash to'g'risidagi ajrim chiqarilgan kundan boshlab o'n besh kundan ortiq bo'lмаган muddatda ko'rib chiqilishi kerak, ariza iqtisodiy sudga kelib tushganidan keyin kamida bir oydan so'ng ko'rildigan moliyaviy jazo choralarini qo'llash to'g'risidagi ishlar bundan mustasno.

Huquqiy ta'sir chorasini qo'llash to'g'risidagi ish ko'rib chiqilayotganda iqtisodiy sud sud majlisida: huquqbazarlik hodisasi bo'lган-bo'lмаганligini va uning sodir etilganligi faktini; tekshirish uchun va tekshirish natijalari bo'yicha dalolatnama yoki boshqa hujjat tuzish uchun asoslar va nazorat qiluvchi organning vakolatlari bor-yo'qligini; mazkur huquqbazarlikni sodir etganlik uchun qonun hujjatlarida javobgarlik nazarda tutilgan-tutilmaganligini va huquqiy ta'sir chorasini qo'llash uchun asoslar bor-yo'qligini aniqlaydi.

Moliyaviy jazo choralarini qo'llash to'g'risidagi ish ko'rib chiqilayotganda iqtisodiy sud moliyaviy jazo choralari summasining hisob-kitobi qanchalik to'g'rilibi ham tekshiradi.

Huquqiy ta'sir chorasini qo'llash to'g'risidagi ish bo'yicha kelishuv bitimi tuzilishiga yo'l qo'yilmaydi.

**Huquqiy ta'sir chorasini qo'llash to'g'risidagi ish bo'yicha hal qiluv qarori iqtisodiy sud tomonidan IPKning 27-bobida belgilangan qoidalari asosida qabul qilinadi.**

Ishni ko'rib chiqish natijalari bo'yicha iqtisodiy sud huquqiy ta'sir chorasini qo'llash yoki arz qilingan talabni qanoatlantirishni rad etish to'g'risida hal qiluv qarori qabul qiladi.

Huquqiy ta'sir chorasini qo'llash to'g'risidagi arz qilingan talab qanoatlantirilgan taqdirda, iqtisodiy sud hal qiluv qarorining xulosa qismida quyidagilar ko'rsatilishi kerak:

- 1) huquqiy ta'sir chorasi qo'llanilgan shaxsning nomi;
- 2) huquqiy ta'sir chorasini qo'llash uchun asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar;
- 3) qo'llanilgan huquqiy ta'sir chorasining turi, moliyaviy jazo chorasi qo'llanilgan taqdirda, esa uning miqdori; zimmasiga moliyaviy jazo chorasi summasini undirish yuklatilgan nazorat qiluvchi organning nomi;
- 4) faoliyat chekylanadigan, to'xtatib turiladigan va taqiqlanadigan muddat; litsenziyaning (ruxsatnomaning) amal qilishi to'xtatib turiladigan muddat; amal qilishi to'xtatib turilgan yoki tugatilgan litsenziyaning (ruxsatnomaning), shuningdek, bekor qilingan litsenziyaning (ruxsatnomaning) nomi, raqami, berilgan sanasi va boshqa rekvizitlari haqidagi hamda litsenziyani (ruxsatnomanı) bergen organ to'g'risidagi ma'lumotlar; faoliyat qanday shartlar bajarilguniga qadar cheklayotganligi, to'xtatib turilayotganligi va taqiqlanayotganligi; banklardagi hisobvaraqlar bo'yicha operatsiyalar qanday shartlar bajarilguniga qadar to'xtatib qo'yilganligi.

**Iqtisodiy sudning huquqiy ta'sir chorasini qo'llash to'g'risidagi ish bo'yicha hal qiluv qarori, agar apellyatsiya shikoyati (protesti) berilmagan bo'lsa, u qabul qilinganidan keyin o'n kun o'tgach qonuniy kuchga kiradi.**

Apellyatsiya shikoyati (protesti) berilgan taqdirda, iqtisodiy sudning hal qiluv qarori, agar u bekor qilinmagan bo'lsa, apellyatsiya instansiysi sudining qarori qabul qilingan kundan e'tiboran qonuniy kuchga kiradi.

Huquqiy ta'sir chorasini qo'llash to'g'risidagi ish bo'yicha hal qiluv qarorining ko'chirma nusxasi hal qiluv qarori qabul qilinganidan keyin uch ish kuni ichida iqtisodiy sud tomonidan ishda ishtirok etuvchi shaxslarga yuboriladi.

Ish mazmunan ko'rib chiqilganda uning natijalari bo'yicha iqtisodiy sud huquqiy ta'sir chorasini qo'llash to'g'risidagi talabni qanoatlantirish (to'liq, qisman) yoki arz qilingan talabni qanoatlantirishni rad etish to'g'risida hal qiluv qarori qabul qiladi.

Huquqiy ta'sir chorasini qo'llash to'g'risidagi arz qilingan ta-lab qanoatlantirilgan taqdirda, iqtisodiy sud hal qiluv qarorining xulosa qismida huquqiy ta'sir chorasi qo'llanilgan shaxsning nomi, huquqiy ta'sir chorasini qo'llash uchun asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar, qo'llanilgan huquqiy ta'sir chorasining turi ko'rsatilishi kerak.

Faoliyatni tugatish to‘g‘risidagi ish bo‘yicha hal qiluv qarorining xulosa qismida tugatilayotgan faoliyat turi ko‘rsatilishi kerak.

Atrof tabiiy muhitga zararli ta’sir ko‘rsatayotgan ob’yekt faoliyatini tugatish va (yoki) qayta ixtisoslashtirish to‘g‘risidagi ish bo‘yicha hal qiluv qarorining xulosa qismida faoliyatni tugatilayotgan va (yoki) qayta ixtisoslashtirilayotgan ob’yektning nomi ko‘rsatilishi kerak.

Faoliyatni cheklash, to‘xtatib turish va taqiqlash to‘g‘risidagi ish bo‘yicha hal qiluv qarorining xulosa qismida: cheklanadigan, to‘xtatib turiladigan va taqiqlanadigan faoliyatning turi va muddati; faoliyat qanday shartlar bajarilguniga qadar cheklanayotganligi, to‘xtatib turilayotganligi va taqiqlanayotganligi ko‘rsatilishi kerak.

Banklardagi hisobvaraqlar bo‘yicha operatsiyalarni to‘xtatib qo‘yish to‘g‘risidagi ish bo‘yicha hal qiluv qarorining xulosa qismida banklardagi hisobvaraqlar bo‘yicha operatsiyalar qanday shartlar bajarilguniga qadar to‘xtatib qo‘yilganligi ko‘rsatilishi kerak.

Moliyaviy jazo choralarini qo‘llash to‘g‘risidagi ish bo‘yicha hal qiluv qarorining xulosa qismida qo‘llanilgan moliyaviy jazo chorasing turi va uning miqdori, zimmasiga moliyaviy jazo chorasi summasini undirish yuklatilgan nazorat qiluvchi organning nomi ko‘rsatilishi kerak.

Pul mablag‘larini so‘zsiz tartibda undirish huquqiga ega bo‘lmagan nazorat qiluvchi organ moliyaviy jazo chorasingi qo‘llash to‘g‘risidagi arz qilingan talab bilan birga uni undirish to‘g‘ri-sidagi talabni ham qo‘yan bo‘lib, ushbu talablar qanoatlantirilgan taqdirda, hal qiluv qarorining xulosa qismi qo‘llanilgan moliyaviy jazo chorasi, uning miqdori va ushbu summaning undirilishiga oid ko‘rsatmani o‘z ichiga olishi kerak.

Tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bilan shug‘ullanish uchun litsenziyalarning (ruxsatnomalarning) amal qilishini o‘n ish kunidan ko‘p bo‘lgan muddatga to‘xtatib turish yoki ularning amal qilishini tugatish va litsenziyalarni (ruxsatnomalarni) bekor qilish to‘g‘risidagi ish bo‘yicha hal qiluv qarorining xulosa qismida: litsenziyaning (ruxsatnomaning) amal qilishi to‘xtatib turilgan muddat; amal qilishi to‘xtatib turilgan yoki tugatilgan litsenziya-

ning (ruxsatnomaning), shuningdek, bekor qilingan litsenziyaning (ruxsatnomaning) nomi, raqami, berilgan sanasi va boshqa rekvizitlari; litsenziyani (ruxsatnomanı) bergen organ to‘g‘risidagi ma‘lumotlar ko‘rsatilishi kerak.

“Faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni 23-moddasining to‘rtinchi, beshinchı qismlariga muvofiq, iqtisodiy sud hal qiluv qarorining xulosa qismida javobgarga ushbu hal qiluv qarorini olgan kundan e‘tiboran o‘n kun ichida litsenziyani (ruxsatnomanı) litsenziya-lovchi organga qaytarish majburiyatini, litsenziyalovchi organga litsenziyani (ruxsatnomanı) yo‘q qilish, litsenziyaning (ruxsatnomaning) amal qilishini tugatish to‘g‘risidagi ma‘lumotni omma-viy axborot vositalarida e‘lon qilish majburiyatini yuklashi kerak.

Hal qiluv qarorining xulosa qismida ko‘rsatilgan shartlar bajarilganidan keyin banklardagi hisobvaraqlar bo‘yicha to‘xtatib turilgan operatsiyalarni tiklash, litsenziyaning amal qilishini tiklash, shuningdek, cheklangan, to‘xtatib turilgan va taqiqlangan faoliyatni tiklash tegishli nazorat qiluvchi organning qarori asosida amalga oshiriladi. Agar banklardagi hisobvaraqlar bo‘yicha operatsiyalarni tiklashga, litsenziyaning amal qilishini tiklashga yoki faoliyatni tiklashga ruxsat berilmagan bo‘lsa, nazorat qiluvchi organning qarori va (yoki) uning mansabdon shaxslari harakatlari (harakatsizligi) ustidan yuqori turuvchi mansabdon shaxsga yoki sudga shikoyat qilinishi mumkin.

IPKning 222-moddasiga muvofiq, iqtisodiy sudning huquqiy ta’sir chorasini qo‘llash to‘g‘risidagi ish bo‘yicha hal qiluv qarori, agar apellyatsiya shikoyati (protesti) berilmagan bo‘lsa, u qabul qilinganidan keyin o‘n kun o‘tgach qonuniy kuchga kiradi.

IPKning 222-moddasiga muvofiq, apellyatsiya shikoyati (protesti) berilgan taqdirda, iqtisodiy sudning huquqiy ta’sir chorasini qo‘llash to‘g‘risidagi ish bo‘yicha hal qiluv qarori, agar u bekor qilinmagan bo‘lsa, apellyatsiya instansiyasi sudining qarori qabul qilingan kundan e‘tiboran qonuniy kuchga kiradi. Agar sud qo‘llanilgan huquqiy ta’sir chorasi amal qilishining boshlanish muddatini ko‘rsatmagan bo‘lsa, uning amal qilishi hal qiluv qarori qonuniy kuchga kirgan kundan boshlanadi.

IPKning 222-moddasiga muvofiq, iqtisodiy sudning huquqiy ta’sir chorasini qo‘llash to‘g‘risidagi ish bo‘yicha hal qiluv qar-

rining ko‘chirma nusxasi hal qiluv qarori qabul qilinganidan keyin uch ish kuni ichida iqtisodiy sud tomonidan ishda ishtirok etuvchi shaxslarga yuboriladi. Bunda ushbu muddatga ish kuni bo‘lмаган kunlar (dam olish, bayram kunlari) kirmaydi.

IPKning 222-moddasiga muvofiq iqtisodiy sudning huquqiy ta’sir chorasini qo‘llash to‘g‘risidagi ish bo‘yicha hal qiluv qarori ustidan apellyatsiya shikoyati (protesti) hal qiluv qarori qabul qilinganidan keyin o‘n kun ichida beriladi.

Apellyatsiya shikoyatini (protestini) berish muddati uzrli sabablargi ko‘ra o‘tkazib yuborilgan taqdirda, o‘tkazib yuborilgan muddat iltimosnomasi asosida tiklanishi mumkin.

Huquqiy ta’sir chorasini qo‘llash to‘g‘risidagi arz qilingan talab nomulkiy tusdagi talab bo‘lganligi sababli, u bo‘yicha davlat boji eng kam ish haqining o‘n baravari miqdorida undiriladi.

Basharti, moliyaviy jazo chorasini qo‘llash to‘g‘risidagi talab bilan birga uni undirish to‘g‘risidagi talab ham qo‘yilgan bo‘lsa, ikkinchi talab mulkiy tusga ega bo‘lganligi bois, u bo‘yicha davlat bojining miqdori moliyaviy jazo chorasi summasidan kelib chiqib belgilanadi.

Huquqiy ta’sir chorasini qo‘llash to‘g‘risidagi arz qilingan talab bo‘yicha ijro varaqasi berilmaydi, moliyaviy jazo chorasini qo‘llash to‘g‘risidagi talab bilan birga uni undirish to‘g‘risidagi talab ham qo‘yilgan holat bundan mustasno. Bunday holatda qo‘llanilgan moliyaviy jazo chorasi summasini undirish uchun ijro varaqasi beriladi.

IPKning 221-moddasining birinchi qismiga muvofiq: faoliyatni tugatish; atrof tabiiy muhitga zararli ta’sir ko‘rsatayotgan ob‘yektlar faoliyatini tugatish va (yoki) qayta. ixtisoslashtirish; faoliyatni cheklash, to‘xtatib turish va taqiqlash; banklardagi hisobvaraqlar bo‘yicha operatsiyalarni to‘xtatib qo‘yish; tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bilan shug‘ullanish uchun litsenziyalarning (ruxsatnomalarning) amal qilishini o‘n ish kunidan ko‘p bo‘lgan muddatga to‘xtatib turish yoki ularning amal qilishini tugatish va litsenziyalarni (ruxsatnomalarni) bekor qilish haqidagi ishlar ishni sudda ko‘rishga tayyorlash to‘g‘risidagi ajrim chiqarilgan kundan boshlab o‘n besh kundan ortiq bo‘lмаган muddatda ko‘rib chiqilishi kerak.

Moliyaviy jazo choralarini qo‘llash to‘g‘risidagi ishlar ariza iqtisodiy sudga kelib tushganidan keyin kamida bir oydan so‘ng

ko‘riladi. Bunda IPKning <sup>125-m</sup>oddasining birinchi qismida ko‘rsatilgan muddat buzilmasligi lozim.

IPKning 164-moddasining ikkinchi qismida nazarda tutilgan ishni ko‘rib chiqish muddatini uzaytirish haqidagi qoida huquqiy ta’sir chorasi qo‘llash to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rib chiqishda ham tatbiq etiladi.

IPKning 221-moddasining ikkinchi qismiga muvofiq huquqiy ta’sir chorasi qo‘llash to‘g‘risidagi ish ko‘rib chiqilayotganda iqtisodiy sud sud majlisida: huquqbuzarlik hodisasi bo‘lgan-bo‘l-maganligini va uning sodir etilganligi faktini; tekshirish uchun va tekshirish natijalari bo‘yicha dalolatnama yoki boshqa hujjat tu-zish uchun asoslar va nazorat qiluvchi organning vakolatlari bor-yo‘qligini; mazkur huquqbuzarlikni sodir etganlik uchun qonun hujjatlarida javobgarlik nazarda tutilgan-tutilmaganligini va huquqiy ta’sir chorasi qo‘llash uchun asoslar bor-yo‘qligini aniqlaydi.

IPKning 221-moddasining uchinchchi qismiga muvofiq moliyaviy jazo choralarini qo‘llash to‘g‘risidagi ish ko‘rib chiqilayotganda iqtisodiy sud ushbu moddaning ikkinchi qismida ko‘rsatilganlardan tashqari moliyaviy jazo choralari summasining hisobkitobi qanchalik to‘g‘riligini ham tekshiradi.

Huquqiy ta’sir choralarini qo‘llash to‘g‘risidagi ishlar ma’muriy va boshqa ommaviy huquqiy munosabatlardan kelib chiqqanligi, iqtisodiy yurituvchi subyektlarning faoliyatini ustidan nazorat funksiyalarini amalga oshirish huquqi berilgan davlat organlari arizachi bo‘lganligi sababli mazkur ishlar bo‘yicha kelishuv bitimi tuzilishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

IPKning 68-moddasining birinchi qismiga muvofiq, huquqiy ta’sir choralarini qo‘llash to‘g‘risidagi ishlar ko‘rib chiqilayotganda, huquqiy ta’sir choralarini qo‘llash uchun asos bo‘lgan holatlarni isbotlash majburiyati nazorat qiluvchi organ zimmasiga yuklatiladi.

Agar nazorat qiluvchi organ huquqiy ta’sir choralarini qo‘llash uchun asos bo‘lgan holatlarni isbotlay olmasa, arz qilingan talabni qanoatlantirish rad etiladi.

IPKning 222-moddasining birinchi qismiga muvofiq, huquqiy ta’sir chorasi qo‘llash to‘g‘risidagi ish bo‘yicha hal qiluv qarori iqtisodiy sud tomonidan IPKning 18-bobida belgilangan qoidalar asosida qabul qilinadi.

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI NOMIDAN  
HAL QILUV QARORI**

**Toshkent sh.        20 yil        -sonli ish**

Toshkent shahar iqtisodiy sudi, sudya \_\_\_\_\_ raisligida, \_\_\_\_\_ ning sud majlisi kotibligida, Toshkent shahar prokurorining yordamchisi \_\_\_\_\_, arizachi vakili - huquqshunos \_\_\_\_\_ (2013 yil 21 oktabrdagi \_\_\_\_-sonli ishonchnoma asosida) va javobgarning vakili – \_\_\_\_\_(2013 yil 21 oktabrdagi \_\_\_\_-sonli ishonchnoma asosida) lar ishtirokida, Toshkent shahar «Z» tumani Davlat soliq inspeksiyasining javobgar “RP” mas’uliyati cheklangan jamiyat shaklidagi qo’shma korxonasiiga nisbatan moliyaviy jarima qo’llash haqidagi arizasi bo‘yicha iqtisodiy ishini ochiq sud majlisida ko‘rib chiqib, quyidagilarni

**ANIQLADI:**

Nazorat qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi Toshkent shahar hududiy komissiyasining 28.11.2012-yildagi 06/27-454-sonli ruxsatnomasi va Toshkent shahar Davlat soliq boshqarmasining 28.11.2012-yildagi 1571-sonli “Xizmat safariga yuborish haqida”gi buyrug‘iga ko‘ra, javobgar “RP” mas’uliyati cheklangan jamiyat shaklidagi qo’shma korxonasiiga (bundan buyon matnda “arizachi” deb yuritiladi) qarashli ishlab chiqarish tarmog‘ida savdo qoidalariga rioya etilishi va naqd pul tushumlariga taalluqli masalalar yuzasidan qisqa muddatli tekshiruv o’tkazilgan.

Tekshiruvda savdodan tushgan 1.612.000 so‘m naqd pullar tushumi va korxonada yuritilgan ikkilamchi buxgalteriya hisob ko‘rsatkichlariga ko‘ra jami 95.551.300 so‘mlik naqd pul mablag‘lari tushumi NKM xotirasiga kiritilmaganligi hamda bankka topshirilmasdan ishchilarga oylik maosh Sifatida berib yuborilganligi aniqlangan.

Toshkent shahar «Z» tumani Davlat soliq inspeksiyasi (bundan buyon matnda “arizachi” deb yuritiladi) iqtisodiy sudiga ariza bilan murojaat qilib, javobgar “RP” mas’uliyati cheklangan jamiyat shaklidagi qo’shma korxonasiiga nisbatan moliyaviy jarima qo’llashni so‘ragan.

Bugungi sud majlisida arizachi vakillari arizada nazarda tutilgan talablarni quvvatladi va javobgarga nisbatan moliyaviy jarima qo’llashni lozimligini bildirdi.

Javobgar vakili sud majlisining vaqtি va joyi to‘g‘risida tegishli

ravishda xabardor bo'lishiga qaramasdan bugungi sud majlisida ishtirok etmadni, biroq oldingi sud majlisida ishtirok etib, arizani qanoatlanti-rishni rad qilishni so'radi. O'zbekiston Respublikasi IPKning 130-mod-dasiga ko'ra, sud majlisining vaqtini va joyini to'g'risida tegishli ravishda xabardor qilingan javobgar sud majlisiga kelmasa sud ishni uning ishtirokisiz ko'rish mumkin deb hisoblaydi.

Sud, arizachi vakillarining tushuntirishlarini tinglab va muhokama qilib, ishda mavjud hujjatlarni o'rganib chiqqan holda quyidagi asoslarga ko'ra ariza talabini qanoatlantirishni lozim deb topdi.

Ish hujjatlaridan aniqlanishicha, Nazorat qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi Toshkent shahar hududiy komissiyasining 28.11. 2012-yildagi 06/27-454-sonli ruxsatnomasi va Toshkent shahar Davlat soliq boshqarmasining 28.11.2012-yildagi 1571-tonli "Xizmat safariga yuborish haqida"gi buyrug'iiga ko'ra, javobgar "RP" mas'uliyati chek-langan jamiyat shaklidagi qo'shma korxonasiqa qarashli ishlab chiqarish tarmog'ida savdo qoidalariiga rioya etilishi va naqd pul tushumlariga taalluqli masalalar yuzasidan qisqa muddatli tekshiruv o'tkazilgan.

Tekshiruvda savdodan tushgan 1.612.000 so'm naqd pullar tushumi va korxonada yuritilgan ikkilamchi buxgalteriya hisob ko'rsatkichlariga ko'ra jami 95.551.300 so'mlik naqd pul mablag'lari tushumi NKM xotirasiga kiritilmaganligi hamda bankka topshirilmasdan ishchilarga oylik maosh Sifatida berib yuborilganligi aniqlangan.

Ushbu qisqa muddatli tekshiruv natijalari yuzasidan «Z» tuman DSIning 13.12.2012-yilda qarori qabul qilingan.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 114-moddasiga asosan, kirim qilinmagan tovarlarni saqlash, bundan ularning qonuniy kelib chiqishi tasdiqlangan hollar mustasno, yoxud tovarlarni (ishlarni, xiz-matlarni) realizatsiya qilishdan tushgan tushumlarni yashirish (kamay-tirib ko'rsatish) -

kirim qilinmagan tovar qiymati yoki yashirilgan (kamaytirib ko'rsatilgan) tushum summasiga teng miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Yashirilgan (kamaytirib ko'rsatilgan) tushum summasi soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarini hisoblab chiqarish maqsadida hisobga olinmaydi hamda mazkur soliqqa oid huquqbazarlik yuzasidan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha qayta hisob-kitob qilinmaydi.

Ushbu moddani qo'llash maqsadlari uchun tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan tushgan tushumni yashirish (kamaytirib ko'rsatish) deb quyidagilar e'tirof etiladi:

tovarlar (ishlar, xizmatlar) realizatsiya qilinganligi hollari hujjat bilan tasdiqlanganda tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan tushgan tushum summasining hisobga olish registrlarida aks ettirilmaganligi;

tovarlar (ishlar, xizmatlar) realizatsiya qilinganligidan dalolat beruvchi hujjatlarning almashtirilganligi, soxtalashtirilganligi yoki yo‘q qilinganligi;

hisobda realizatsiya qilinmagan deb ko‘rsatilgan tovarlarning omborda yoki realizatsiya qilish joyida mavjud emasligi.

Yuqoridagilarga ko‘ra, arizachining Soliq kodeksining 114-moddasiga asosan, huquqbuzarlikning qiymati hisoblagan holdagi moliyaviy jarima qo‘llash to‘g‘risidagi talabi asosli hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 119-moddasining 1-qismiga asosan, fiskal xotirali nazorat-kassa mashinalarini ishlatish majburiy bo‘lgani holda ularni ishlatmasdan savdoni amalga oshirganlik va xizmatlar ko‘rsatganlik, xuddi shuningdek, sotib oluvchiga kvitansiyalar yozib berish, talonlar, cheklar yoki ularga tenglashtirilgan boshqa hujjatlarni berish majburiy bo‘lgani holda bunday hujjatlarni bermasdan tovarlarni realizatsiya qilganlik va xizmatlar ko‘rsatganlik eng kam ish haqining o‘ttiz baravaridan ellik baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

Shunga ko‘ra, sud arizachining moliyaviy jarima qo‘llash to‘g‘-risidagi talabini asosli deb topib, javobgardan eng kam oylik ish haqining 30 baravari miqdorida 2.170.650 so‘m moliyaviy jarima qo‘llashni lozim deb hisoblaydi.

Keyinchalik, O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokururaturasi huzuridagi soliq, valyutaga oid jinoyatlarga va jinoiy daromadlarni legal-lashtirishga «B» kurashish Departamenti Toshkent shahar boshqarmasining 04.12.2012 yildagi 9/14-2722-12-sonli xati va «Z» tuman bo‘limi tomonidan 46/12-5102-sonli jinoyat ishi doirasida chiqarilgan 03.12.2012 yildagi “Moliyaviy iqtisodiy faoliyati yuzasidan taftish tayinlash haqida”gi Qarori hamda Toshkent shahar Davlat soliq boshqarmasining 12.12.2012 yildagi 1628x/s-sonli buyrug‘i, “Buyruq muddatini uzaytirish haqida”gi 14.01.2013 yildagi 63x/s-sonli, 23.01.2013 yildagi 124 x/s-sonli, 31.01.2013 yildagi 151 x/s-sonli buyruqlariga asosan, “RP” mas’uliyati cheklangan jamiyat shaklidagi qo‘shma korxonasingning 01.10.2009 yildan 01.10.2012 yilgacha bo‘lgan Dda soliq qonunchiligiga rioya qilinishi, soliq va yig‘imlarni Davlat budjetiga va budjetdan tashqari jamg‘armalarga hisoblanishi hamda to‘liq o‘tkazilishi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari talablariga amal qilinishi yuzasidan tekshirish o‘tkazilgan.

Tekshiruv natijalari yuzasidan 05.02.2013 yildagi dalolatnomalarasmiylashtirilgan va uning natijalariga ko‘ra ham qisqa muddatli tekshiruvda aniqlangan soliq huquqburzarliliklari o‘z tasdig‘ini topgan.

Shuningdek, jinoyat ishlari bo‘yicha Toshkent shahar «Z» tuman sudining 15.05.2013 yildagi ajrimi bilan yuqorida qayd etilgan holatlar nazarda tutilgan holda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 05.12.2012 yildagi “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining yigirma yilligi munosabati bilan amnostiya to‘g‘risida”gi Qarorining 2 va 6-bandlariga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 189-moddasi 3-qismi bilan ayblangan “RP” mas’uliyati chek-langan jamiyat shaklidagi qo‘shma korxonasi rahbari Muxamedov Dilshod Vaxabovichga oid jinoyat ishi O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksi 84-moddasi 1-qismiинг 2-bandiga asosan, ayblilik masalasi hal qilinmay harakatdan tugatilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy iqtisodiy sudi Plenumining 15.06.2007 yildagi 161-sonli “Sudning hal qiluv qarori haqida”gi Qarorining 3-bandiga ko‘ra, qaror dalillarga uning daxldorligi va yo‘l qo‘yishliligi, ishonchliligi va etarlik haqidagi IPKning 56-62-moddalari talablarini inobatga olgan holda asoslantirilgan bo‘lishi kerak.

Yuqoridagilarni inobatga olib, sud arizachining talablarini asosli deb hisoblab, uni qanoatlantirishni va sud xarajatlarini javobgar zimmasiga yulashni lozim topadi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi va Oliy iqtisodiy sudi Plenumining 2006 yil 22 dekabrdagi “Tadbirkorlik subyektlarini huquqiy himoya qilish va ularning moliyaviy javobgarligini erkinlash-tirishni takomillashtirishga yo‘naltirilgan O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarini qo‘llash bilan bog‘liq masalalar to‘g‘risida”gi 12/149-sonli Qarorining 22-bandiga ko‘ra, ishlarni ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha bildirilgan talablar qanoatlantirilgan taqdirda, tadbirkorlik subyektlaridan eng kam ish haqining 10 baravari miqdorida davlat boji undirilishi nazarda tutilgan.

Yuqorida bayon etilganlarga asoslanib, O‘zbekiston Respublikasi IPKning 176-179, 222-moddalarini qo‘llagan holda sud

### **QAROR QILDI:**

Arizachining moliyaviy jarima qo‘llash to‘g‘risidagi arizasi qanoatlantirilsin.

“RP” mas’uliyati cheklangan jamiyat shaklidagi qo‘shma korxonasiga nisbatan O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 114-mod-dasi bilan 97.163.300 so‘m, 119-moddasi bilan 2.170.650 so‘m moliya-viy jarima qo‘llanilsin.

“RP” mas’uliyati cheklangan jamiyat shaklidagi qo’shma korxonasi hisobidan respublika budjetiga \_\_\_\_\_ so‘m davlat boji undirilsin.

“RP” mas’uliyati cheklangan jamiyat shaklidagi qo’shma korxonasi hisobidan «Z» tuman Davlat soliq inspeksiyasi foydasiga 7.200 so‘m pochta xarajatlari undirilsin.

Moliyaviy jarima summasini undirish Toshkent shahar «Z» tuman Davlat soliq inspeksiyasi tomonidan amalga oshirilsin.

Mazkur hal qiluv qarori ustidan appellatsiya tartibida shikoyat berilishi (protest keltirilishi) mumkin.

**Sudya**

**imzo**

**F.I.Sh.**

## **NAZORAT SAVOLLARI**

1. Huquqiy ta’sir chorasini qo’llash to‘g‘risida ariza loyihasini tayyorlang.
2. Huquqiy ta’sir chorasini qo’llash to‘g‘risida iqtisodiy suding hal qiluv qarorini rasmiylashtiring.

## **18-MAVZU. IQTISODIY ISHLAR BO'YICHA SUD HUJJATLARINI QAYTA KO'RISHDAGI PROTSESSUAL HUJJATLAR**

Ishda ishtirok etuvchi shaxslar, shuningdek ishda ishtirok etishga jalb qilinmagan, ammo huquqlari va majburiyatlari to‘g‘risida sud hal qiluv qarori qabul qilgan shaxslar birinchi instansiya sudsining qonuniy kuchga kirmagan hal qiluv qarori ustidan apellyatsiya shikoyati, prokuror esa apellyatsiya protesti berishga haqlidir.

IPKning 282-moddasiga asosan, ishda ishtirok etuvchi shaxslar, shuningdek ishda ishtirok etishga jalb qilinmagan, ammo huquqlari va majburiyatlari to‘g‘risida sud hal qiluv qarori qabul qilgan shaxslar birinchi instansiya sudsining qonuniy kuchga kirmagan hal qiluv qarori ustidan kassat-siya shikoyati, prokuror esa kassatsiya protesti berishga haqlidir.

Birinchi instansiya sudsining hal qiluv qarori ustidan to‘liq yoki qisman shikoyat qilinishi (protest keltirilishi) mumkin.

Apellatsiya va kassatsiya shikoyatlari (protestlari):

tegishli tumanlararo, tuman (shahar) iqtisodiy sudlarining hal qiluv qarorlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar iqtisodiy sudlarining hal qiluv qarorlari ustidan berilganda — Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar iqtisodiy sudlari tomonidan ko‘riladi.

Agar qonun hujjatlarida boshqacha muddat belgilanmagan bo‘lsa, apellyatsiya shikoyati (protesti) birinchi instansiya sudi tomonidan shikoyat qilinayotgan (protest keltirilayotgan) hal qiluv qarori qabul qilingan kundan e’tiboran bir oy ichida, kassatsiya shikoyati (protesti) sudsining hal qiluv qarori qonuniy kuchga kir-gandan keyin bir oy ichida berilishi mumkin.

Sud birinchi instansiya sudsining hal qiluv qarori ustidan berilgan apellyatsiya va kassatsiya shikoyati (protesti) apellatsiya va kassatsiya shikoyati (protesti) ish yuritishga qabul qilingan kundan e’tiboran bir oydan ortiq bo‘lmagan muddatda ko‘rib chiqadi.

Alovida hollarda apellatsiya va kassatsiya shikoyatini (protestini) ko‘rib chiqish muddati sud raisi tomonidan ko‘pi bilan bir oyga uzaytirilishi mumkin.

Apellatsiya va kassatsiya instansiyasi sudi apellatsiya shikoyatini (protestini) ko‘rish natijalari bo‘yicha:

- 1) hal qiluv qarorini o'zgarishsiz qoldirishga;
- 2) hal qiluv qarorini to'liq yoki qisman bekor qilishga va yangi qaror qabul qilishga;
- 3) hal qiluv qarorini o'zgartirishga;
- 4) hal qiluv qarorini to'liq yoki qisman bekor qilishga va ish yuritishni tugatishga yoxud da'voni to'liq yoki qisman ko'rmasdan qoldirishga;
- 5) IPKda nazarda tutilgan asos mavjud bo'lган taqdirda hal qiluv qarorini bekor qilishga va ishni yangidan ko'rish uchun yuborishga haqlari.

Birinchi instansiya sudining hal qiluv qarorini o'zgartirish yoki bekor qilish uchun quyidagilar asos bo'ladi:

- 1) ish uchun ahamiyatlari holatlarning to'liq aniqlanmaganligi;
- 2) sud aniqlangan deb hisoblagan, ish uchun ahamiyatlari bo'lган holatlarning isbotlanmaganligi;
- 3) hal qiluv qarorida bayon qilingan xulosalarning ish holatlariiga muvofiq emasligi;
- 4) moddiy va (yoki) protsessual huquq normalarining buzil-ganligi yoxud noto'g'ri qo'llanilganligi.

Apellyatsiya va kassatsiya instansiyasi sudi apellyatsiya va kassatsiya shikoyatini (protestini) ko'rish natijalari bo'yicha qaror qabul qiladi, qaror ishni ko'rgan sudyalar tomonidan imzolanadi.

*Eslatma!* Apellatsiya va kassatsiya instansiyasida xususan: ishga daxildor bo'lмаган javobgarni almashtirish (IPKning 45-moddasi); Da'vening asosini yoki predmetini, da'vo talablarini miqdorini o'z-gartirish, da'vadan voz kechish (IPKning 157-moddasi); uchinchi shaxslarni ishga jalg qilish (IPKning 47, 48-moddalari); bitta da'vo arizasida bir nechta talablarni birlashtirish, bir nechta ishlarni bitta ish yuritishga birlashtirish, talablarni alohida ish yuritishga ajratish (IPKning 158, 159-moddalari); qarshi da'veni taqdim etish (IPKning 160-moddasi) to'g'risidagi qoidalar qo'llanilmaydi.

Apellatsiya va kassatsiya instansiyasi sudining qarori qabul qilingan kundan e'tiboran qonuniy kuchga kiradi.

## QAROR

Toshkent sh. \_\_\_\_\_ 20 \_\_\_\_ yil \_\_\_\_\_ -sonli ish

Birinchi instansiya sudida ish ko'rgan  
sudyasi \_\_\_\_\_

Apellatsiya instansiyasi sudida ma'rur-  
zachi sudyasi \_\_\_\_\_

Toshkent viloyat iqtisodiy sudining appellatsiya instansiyasi \_\_\_\_\_ raisligida, sudyalar \_\_\_\_\_ va \_\_\_\_\_ lardan iborat hay'at tarkibida, \_\_\_\_\_ ning sud majlisi kotibligida, Toshkent viloyat prokurorining yordamchisi \_\_\_\_\_, da'vogarning vakili - huquqshunos \_\_\_\_\_ (2012-yil 1-iyundagi \_\_\_\_-sonli ishonchnoma asosida), javobgarning vakili – advokat \_\_\_\_\_ (2012-yil 18-iyundagi \_\_\_\_-sonli order asosida)lar ishtirokida, da'vogar "TU" MChJning javobgar "«A» tumani MTP" MChJdan 260 035 so'm undirish to'g'risidagi da'vo arizasi bo'yicha Toshkent viloyat iqtisodiy sudining 2012-yil 23-aprel kuni qabul qilingan hal qiluv qarori ustidan "TU" MChJ tomonidan berilgan apellyatsiya shikoyati bo'yicha ishni ochiq sud majlisida ko'rib chiqib, quyidagilarni

#### **ANIQLADI:**

"TU" MChJ bilan "«A» tumani MTP" MChJ o'rtasida 2010-yil 24-dekabr kuni 1-sonli "Qishloq xo'jalik mahsulotlarini etishtiruvchilarga xizmatlar ko'rsatish va mexanizatsiya yordamida ishlar bajarish" yuzasidan shartnomaga tuzilgan bo'lib, unga ko'ra javobgar da'vogar oldida mexanizatsiyalashgan ishlarni bajarish, servis, agrotexnika xizmatlari ko'rsatish va moddiy-texnika resurslarini yetkazib berish majburiyatini, da'vogar esa xizmatlar (ishlar)ni qabul qilib olish va ular uchun belgilangan narxlar bo'yicha haq tulash majburiyatini olgan. Shuningdek, shartnomaning 3.3-bandiga ko'ra da'vogar xizmat ko'rsatish (ish bajarish) uchun yoqilg'i moylash materiallарini ja-vobgarga ta'minlash majburiyatini olgan va shu bois da'vogar ja-vobgarga 1 litr narxi 619,13 so'mdan umumiy bahosi 928 695 so'mlik 1500 l yonilg'i yetkazib bergen.

Ushbu shartnomaga asosan, javobgar o'z majburiyatlarini bajarib, da'vogarga jami 870 390 so'mlik xizmat ko'rsatgan.

Da'vogar sudga murojaat qilib, javobgardan qaytarilmagan 420 litr dizel yonilg'isining umumiy bahosi 260 035 so'mni undirib berishni so'rangan.

Birinchi instansiya sudining 2011-yil 25-dekabrdagi hal qiluv qarori bilan da'voni qanoatlantirish to'liq rad etilgan.

Da'vogar sudning hal qiluv qaroridan norozi bo'lib apellyatsiya shikoyatini bergen va unda birinchi instansiya sudining xulosalari ish holatlariga muvofiq kelmasligini, da'vogar sarflangan yoqilg'ini hisobga olishda 202 km oraliq masofani inobatga olmaganligi haqidagi javobgarning vaji sud tomonidan noto'g'ri asos qilib olinganligini, taraflar o'rtasida tuzilgan shartnoma shartlariga muvofiq oraliq masofaga da'vogar yoqilg'i yetkazib berish majburiyatini olmaganligini vaj qilib ko'rsatib, sudning hal qiluv qarorini bekor qilib, javobgardan 260.035 so'mni undirish haqida yangi qaror chiqarishni so'ragan.

Sud majlisida da'vogar vakili apellyatsiya shikoyatida keltirilgan vajlarni quvvatlab, uni qanoatlantirishni so'radi.

Javobgar vakili apellyatsiya shikoyatiga e'tiroz bildirib, MTP joylashgan garajdan da'vogarning yer maydonlarigacha oraliq masofa 202 km.ni tashkil qilishi va ushbu yer maydonlariga traktorlar etib kelish uchun 420 litr yonilg'i sarf qilinganligini tushuntirib, birinchi instansiya sudining hal qiluv qarorini o'z kuchida qoldirishni so'radi.

Sudlov hay'ati, taraflar vakillarining ko'rgazmalari hamda viloyat prokurori yordamchisining apellyatsiya shikoyatida keltirilgan vajlar asosli degan fikrini tinglab, ish hujjatlarini o'rganib chiqib, quyidagilarga ko'ra apellyatsiya shikoyatini qanoatlantirishni, hal qiluv qarorini bekor qilib, da'vogarning da'vo talabini qanoatlantirish haqida yangi qaror qabul qilishni lozim topdi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqorolik kodeksi (bundan buyon matnda FK deb yuritiladi)ning 234-moddasiga asosan, majburiyatlar shartnomadan, ziyon yetkazish natijasida hamda Kodeksda ko'rsatilgan boshqa asoslardan kelib chiqadi.

Mazkur holda majburiyatlar taraflar o'rtasida 2010-yil 24-dekabr kuni tuzilgan 1-sonli "Qishloq xo'jalik maxsulotlarini etishtiruvchilarga xizmatlar ko'rsatish va mexanizatsiya yordamida ishlar bajarish" to'g'risidagi shartnoma yuzasidan kelib chiqqan.

FKning 236-moddasiga asosan, majburiyat shartlarga va qonun hujjatlari talablariga muvofiq, bunday shartlar va talablar bo'lmaganida esa - ish muomalasi odatlariga yoki odatda qo'yiladigan boshqa talablarga muvofiq lozim darajada bajarilishi kerak.

Ish hujjatlari ko'ra, taraflar o'rtasida tuzilgan shartnomaning 3.3-bandiga asosan, da'vogar javobgarga "Magnum" rusumli traktorlarni yonilg'i bilan ta'minlash uchun jami 1500 litr qiymati 928 695 so'mlik (har bir litri 619,13 so'mdan) dizel yonilg'isi yetkazib bergen.

2011-yil 18-aprel kuni imzolangan 1-sonli bajarilgan ishlar dalolatnomasiga ko'ra "«A» tumani MTP" korxonasi buyurtmachiga

30 moto/soat yer maydonlarini shudgorlash bo'yicha 870 390 so'mlik ishlarni bajargan.

Tuman MTP boshqaruvi raisi va tuman Qishloq va suv xo'jaligi boshqarmasi boshlig'i tomonidan tasdiqlangan me'yoriy hujjatda "Magnum" traktorlari 1 moto/soatda 36 litr dizel yonilg'isi sarflashi belgilangan. Bajarilgan 30 moto/soatlari ish uchun 1080 litr dizel yonilgisi sarflanishi mumkinligidan kelib chiqib, da'vogar javobgar hisobidan ortiqcha yetkazib berilgan 420 litr dizel yonilg'isining qiymati - 260 035 so'mni undirishni so'ragan.

Birinchi instansiya sudi da'vogar sarflangan yonilg'ini hisobga olishda 202 km. oraliq masofani inobatga olmaganligi haqidagi xulosaga kelib, da'voni rad qilgan.

Sudning bu xulosasi asossiz bo'lib, ish holatlariga va taraflar o'r-tasida tuzilgan shartnoma shartlariga muvofiq kelmaydi. Chunki, shartnomaga asosan, oraliq masofaga da'vogar yonilg'i yetkazib berish majburiyatini olmagan.

Yuqoridagilarga asosan, da'vogarning talabi asosli bo'lib, hal qiluv qarori bekor qilinishi va da'vo talabi qanoatlantirilishi lozim bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi XPKning 169-moddasining 1 va 2-bandlariga asosan, ish uchun ahamiyatli holatlarning to'liq aniqlanmaganligi hamda iqtisodiy sudi aniqlangan deb hisoblagan ish uchun ahamiyatli holatlarning isbotlanmaganligi iqtisodiy sudining hal qiluv qarorini o'zgartirish yoki bekor qilish uchun asos bo'ladi.

Bunday holatda, da'vogarning apellyatsiya shikoyatini qanoatlantirilishi, sudning hal qiluv qarori bekor qilinishi va da'vo talablarini qanoatlantirilishi lozim. XPKning 95-moddasiga asosan, sud xarajati javobgar zimmasiga yukланади.

Yuqoridagilarni inobatga olib, XPKning 95, 169, 170 va 171-moddalariga asoslanib, sud

### **QAROR QILADI:**

"TU" MChJning apellyatsiya shikoyati qanoatlantirilsin.

Birinchi instansiya sudining 2012-yil 23-apreldagi hal qiluv qarori bekor qilinsin. Yangi qaror qabul qilinsin.

"TU" MChJning talabi qanoatlantirilsin.

"«A» tumani MTP" MChJdan "TU" MChJ foydasiga 260 035 so'm asosiy qarz va 95 298 so'm miqdordagi sud xarajatlari undirilsin.

Ijro varaqasi berilsin.

Mazkur qaror ustidan Oliy sudga nazorat tartibida shikoyat berish (protest keltirish) mumkin.

**Raislik etuvchi:**

**imzo**

**F.I.Sh**

**hay'at a'zolari:**

**imzo**

**F.I.Sh**

**imzo**

**F.I.Sh**

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining iqtisodiy ishlar bo'yicha sudlov hay'atiga quyidagilar ustidan shikoyat qilinadi:

1) appellatsiya yoki cassatsiya tartibida ko'rilgan ishlar bo'yicha tumanlararo, tuman (shahar) iqtisodiy sudlarining, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar iqtisodiy sudlarining qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarorlari;

2) appellatsiya va cassatsiya instansiyasi sudlarining qarorlari.

Sudlarning qonuniy kuchga kirgan ajrimlari ular ustidan shi-koyat qilinishi (protest keltirilishi) ushbu Kodeksda nazarda tutil-gan hollarda, shuningdek ular ishning bundan buyongi harakatiga to'sqinlik qilgan taqdirda hal qiluv qaroridan alohida nazorat tartibida qayta ko'rib chiqilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining iqtisodiy ishlar bo'yicha sudlov hay'ati tomonidan qabul qilingan qaror ustidan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisi, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va ularning o'rincbosarlari tomonidan, no-muayyan doiradagi shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaat-larini yoki jamiyat va davlat manfaatlarini buzadigan sud hujjati ustidan esa O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisi va O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan protest keltirilishi mumkin.

Nazorat shikoyati (protesti) bevosita O'zbekiston Respublikasi Oliy sudiga beriladi.

Nazorat shikoyati (protesti) sudning hal qiluv qarori ustidan u qonuniy kuchga kirgan kundan e'tiboran bir yil ichida berilishi mumkin.

Sudning hal qiluv qarori qonuniy kuchga kirgan kundan e'tiboran bir yil o'tgandan keyin berilgan nazorat shikoyati ko'rib chiqilmaydi.

Ish nazorat shikoyatini (protestini) ish yuritishga qabul qilish to'g'risida ajrim chiqarilgan yoki protest O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Rayosatining kotibiyatiga kelib tushgan kundan e'tiboran bir oylik muddatdan kechiktirmay ko'rildi.

Ish nazorat tartibida O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining iqtisodiy ishlar bo‘yicha sudlov hay‘atida, nazorat shikoyatini bergen shaxs, shuningdek ishda ishtirok etuvchi shaxslar va (yoki) ularning vakillari ishtirok etishi mumkin bo‘lgan sud majlisida ko‘riladi.

Ish nazorat tartibida O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi sudyasining ma‘ruzasi bo‘yicha ko‘riladi, suda ish holatlari, ish bo‘yicha qabul qilingan sud hujjatlarining mazmuni, nazorat shiko-yatida (protestida) keltirilgan vajlarni bayon etadi.

Sud majlisiga kelgan ishda ishtirok etuvchi shaxslar ish bo‘yicha tushuntirishlar berishga haqli. Nazorat shikoyatini bergen shaxs birinchi bo‘lib tushuntirish beradi, agar ish prokurorning protesti bo‘yicha ko‘rilayotgan bo‘lsa, birinchi bo‘lib prokuror so‘zga chiqadi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining Rayosati tomonidan ishni nazorat tartibida ko‘rishda O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori yoki uning o‘rinbosari ishtirok etib, ish bo‘yicha o‘z fikrini bayon etadi.

Ish nazorat tartibida ko‘rilayotganda barcha masalalar ishni ko‘rib chiqishda ishtirok etayotgan sudyalarning ko‘pchilik ovozi bilan hal etiladi.

Ishni nazorat tartibida ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha qaror qabul qilinadi.

Eslatma! Sud hujjatining noqonuniyligi yoki asossizligi hal qiluv qarorini, qarorni nazorat tartibida o‘zgartirish yoki bekor qilish uchun asos bo‘ladi.

Sudning mazmunan to‘g‘ri bo‘lgan hal qiluv qarori, qarori faqat yuzaki asoslar bo‘yichagina bekor qilinishi mumkin emas.

### **ARIZA**

**(\_\_\_\_\_ -sonli iqtisodiy ishi yuzasidan nazorat  
tartibida protest keltirish haqida)**

“TU” MChJ shaklidagi lizing kompaniyasi bilan “N” mas’uliyati cheklangan jamiyat o‘rtasida 2014 yil 5 iyunda imzolangan 37-sonli lizing shartnomasi va uning 1-ilovasiga ko‘ra “TU-lizing” MChJ shaklidagi lizing kompaniyasi qiymati 38 750 000 so‘m bo‘lgan 10 dona “Midibus Isuzu SAZ NR 37” rusumli avtotransport vositalarini “N” MChJga lizingga berish, “N” MChJ esa “TU-lizing” MChJ

shaklidagi lizing kompaniyasiga Shartnomaning 2-ilovasiga asosan, 58.125.000 so‘m miqdorda 15 foizlik avans, 5 812 500 so‘m miqdorda 1,5 foizlik komissiya to‘lovlarini to‘lashi, 3-ilovaga muvofiq oltmis oy mobaynida 411 718 750 so‘m lizing to‘lovlarini to‘lab borish majburiyatini olgan. Shuningdek, “N” MChJ 23 354 008,23 so‘m sug‘urta mukofotini “TU-lizing” MChJ shaklidagi lizing kompaniyasiga Shartnomaning 4-ilo-vadagi jadvaliga asosan, bo‘lib-bo‘lib to‘lab borish majburiyatini olgan.

“TU-lizing” MChJ shaklidagi lizing kompaniyasi tomonidan lizing obyekti “N” MChJga ular o‘rtasida 2014 yil 29 iyunda tuzilgan dalo-latnomaga asosan, topshirilgan.

“N” MChJ lizing to‘lovlaringin to‘lash muddatini buzishi natijasida vujudga kelgan qarzni so‘ndirish maqsadida “TU-lizing” MChJ shaklidagi lizing kompaniyasi tomonidan taqdim etilgan da’vo ariza asosida Toshkent shahar iqtisodiy sudida qo‘zg‘atilgan 10-1005/11580-sonli iqtisodiy ishi bo‘yicha 2017-yil 18- avgustda chiqarilgan hal qiluv qarori bilan “TU-lizing” MChJ shaklidagi lizing kompaniyasi foydasiga “N” MChJdan 37 793 940 so‘m miqdorda lizing to‘lovlari undirilgan.

So‘ng, 2017-yil 22-oktabrda “TU-lizing” MChJ shaklidagi lizing kompaniyasi, “N” MChJ va “MK” MChJ o‘rtasida Shartnomaga 1-sonli qo‘sishma kelishuv imzolangan bo‘lib, uning shartlariga ko‘ra 10 dona avtotransport vositalaridan 5 tasi bo‘yicha “N” MChJning huquq va majburiyatlari belgilangan tartibda Yangi lizing oluvchiga o‘tgan.

“N” MChJ tomonidan lizing to‘lovlari va sug‘urta mukofotini to‘lash majburiyatlari lozim darajada bajarilmaganligi sababli “TU-lizing” MChJ shaklidagi lizing kompaniyasi sudga da’vo arizasi bilan murojaat qilib, “N” MChJdan 26 595 775,42 so‘m asosiy qarz, uni kechiktirganligi uchun 16 511 266,59 so‘m penya, 3 174 251,95 so‘m sug‘urta mukofoti va uni kechiktirilganligi uchun 634 850,39 so‘m jarima undirishni, shuningdek, Shartnomani bekor qilish va lizing ob‘yektlarini “N” MChJ-dan olib berishni so‘ragan.

Birinchi instansiya sudining 2018-yil 10-martdagi hal qiluv qarori bilan “N” MChJdan “TU-lizing” MChJ shaklidagi lizing kompaniyasi ga 26 595 775,42 so‘m asosiy qarz, 8 255 634 so‘m penya va 3 174 251,95 so‘m sug‘urta mukofoti undirilib, Shartnomani bekor qilingan va 5 ta avtotransport vositalari “TU-lizing” MChJ shaklidagi lizing kompa-niyasiga olib berilgan.

2018-yil 17-iyulda “N” MChJ ishni yangi ochilgan holatlar bo‘yicha qayta ko‘rish haqida ariza bergen. Sudning 2018-yil 9-avgustdagi ajrimi bilan mazkur arizani qanoatlantirish rad etilgan.

Kassatsiya instansiyasi sudining 2018-yil 10-dekabrdagi qarori bilan 2017-yil 10-avgustdagisi hal qiluv qarori o'zgarishsiz qolgan.

Sudlar tomonidan mazkur sud qarorlarini qabul qilishda moddiy va protsessual huquq normalarini buzilishiga yo'l qo'yilgan va "TUlizing" MChJ shaklidagi lizing kompaniyasining barcha talablarini qanoat-lantirish haqida barvaqt xulosaga kelishgan bo'lib, quyidagi asoslarga ko'ra ushbu sud qarorlari bekor qilinishi lozim deb hisoblaymiz:

"Lizing to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni 11-moddasi birinchi qismining beshinchi xatboshisida, lizing beruvchi lizing oluvchi lizing shartnomasini jiddiy tarzda buzgan taqdirda, barcha lizing to'-lovlarini muddatidan ilgari to'lashni yoxud yetkazilgan zararni undirib va (yoki) lizing ob'yektini qaytib olgan tarzda shartnomani bekor qilishni talab etish huquqiga egaligi nazarda tutilgan.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 597-moddasining to'rinchchi qismiga ko'ra, lizing oluvchi o'z majburiyatlarini jiddiy ravishda buzgan taqdirda, agar lizing shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, lizing beruvchi bo'lajak lizing to'lovlarini tezlash-tirishni yoki lizing ob'yektini qaytarib olgan va zararni undirgan holda shartnomani bekor qilishni talab qilish huquqiga ega.

Demak, lizing oluvchi lizing shartnomasi shartlarini jiddiy tarzda buzgan taqdirda, lizing beruvchi yoki barcha lizing to'lovlarini muddatidan ilgari to'lashni yoxud shartnomani muddatdan oldin bekor qilib, lizing ob'yektini qaytargan holda zarar undirishni talab qilishga huquqi bo'lgan.

Shartnomaning 10.2. va 10.4-bandlariga muvofiq, agar lizing oluvchi shartnomada belgilangan muddatlarda ikki va undan ko'p marotaba lizing to'lovlarini kechiktirganda, lizing beruvchi bir tomonlama sudsiz tartibda shartnomani bekor qilishni, shartnoma bekor qilinganligidan xabar topgach, lizing oluvchi 7 kundan kechiktirmasdan lizing ob'yekt-larini qaytarishni, lizing ob'yektlarini qaytargan kuniga qadar hisob-langan barcha lizing to'lovlarni va foizlarni, to'lov kechiktirilgan taq-dirda, neustoykani to'lashni, shuningdek, lizing ob'yekti lizing oluv-chiga topshirilgan holatda qaytmagan taqdirda, TM uchun qilinadigan xarajatlar yoki zararni to'lashni talab qilish huquqi mavjud bo'lsada, ushbu shartlar Fuqarolik kodeksining 597-moddasi va "Lizing to'g'ri-sida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuning 11-moddasi talablariga zid hisoblanadi. Chunki, yuqoridagi qonun normalari talabiga muvofiq lizing oluvchi lizing shartnomasini jiddiy tarzda buzgan taqdirda, agar lizing shartnomasida bo'lajak lizing to'lovlarini tezlashtirish bo'yicha bosh-qacha tartib nazarda tutilmagan

bo‘lsa, lizing beruvchi barcha lizing to‘lovlari muddatidan ilgari to‘lashni yoxud yetkazilgan zararni undirib va lizing ob‘yektni qaytib olgan holda shartnomani bekor qilishni talab etish huquqiga egaligi nazarda tutilgan.

Mazkur holatda “TU-lizing” MChJ shaklidagi lizing kompaniyasi, ham barcha lizing to‘lovlari muddatidan ilgari to‘lashni, ham Shartnomani bekor qilgan holda lizing ob‘yektlarini qaytarishni talab qilgan. Sudlar esa, yuqoridagi qonun normalariga zid ravishda “TU-lizing” MChJ shaklidagi lizing kompaniyasining barcha talablarini qanoatlantirgan.

Qo‘sishimcha kelishuvning 3.1.3-bandiga ko‘ra ham “N” MChJ ham Yangi lizing oluvchi “TU-lizing” MChJ shaklidagi lizing kompaniyasiga 31 777 422,53 so‘mdan to‘lab berishliklari, 3.2-bandga ko‘ra “N” MChJ 24 oy mobaynida “TU-lizing” MChJ shaklidagi lizing kompaniyasiga 3-ilovadagi jadvalga muvofiq 355 867 612,37 so‘m lizing to‘lovlanri va 4-ilovadagi jadvalda belgilangan 19 203 599,11 so‘m sug‘urta muko-fotini (5.2-band), Yangi lizing oluvchi esa Qo‘sishimcha kelishuvning 3.1.1-bandiga ko‘ra 3a-ilovadagi jadvalga muvofiq 55 851 128,63 so‘m lizng to‘lovlari va 5.1-bandga ko‘ra 4a-ilovadagi jadval asosida 4 150 409,12 so‘m sug‘urta mukofotini bo‘lib-bo‘lib to‘lab borishlari lozim bo‘lgan.

Ish hujjatlarida O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi qoshidagi X.Sulaymonova nomli Respublika sud ekspertiza markazi Samarqand bo‘limining 20\_\_ yil \_\_\_.dagi 111/17-son xulosasi mavjud bo‘lib, unga ko‘ra 2016 yil 27 iyunga qadar “N” MChJ tomonidan “TU-lizing” MChJ shaklidagi lizing kompaniyasi ga jami 439 008 720 so‘m lizing to‘lovi to‘lanishi lozim bo‘lib, 2017 yil 27 may holatiga 378 172 789 so‘m to‘langanligi sababli 60 835 931 so‘m qarzdorlik qolgan. Shuningdek, sudning 2017-yil 17-avgustdagisi ajrimi bilan tayinlangan ekspertiza natijasi bo‘yicha X.Sulaymonova nomli Respublika sud ekspertiza markazi tomonidan 2017 yil 1 oktyabrda taqdim etilgan xulosaga ko‘ra, “N” MChJning 2016-yil 1-yanvar holatiga asosiy qarzdorligi 32 261 871,90 so‘mni tashkil qilgan bo‘lib, 15 foizlik avans va 1,5 foizlik komissiya to‘lovlari Shartnomaning umumiyligi qiyamatiga kirmasligi, Shartnomalar va unga kiritilgan qo‘sishchalarga asosan, 2016-yil 27-may holatiga lizing to‘lovlari bo‘yicha qarzdorlikning aniq summasi “N” MChJ foydasiga 29 421 085,16 so‘mni tashkil qilishi bayon qilingan.

Sud instansiyalari yuqorida keltirilgan holatlarga va sud ekspertiza xulosalariga umuman huquqiy baho bermagan holda qaror qabul qilishgan.

“TU-lizing” MChJ shaklidagi lizing kompaniyasi, “N” MChJ, Yangi lizing oluvchi o‘rtasida 2017 yil 22 oktabrda Qo‘srimcha kelishuv tuzilgan bo‘lib, unga ko‘ra Yangi lizing oluvchiga 5 ta avtotransport vositalari bo‘yicha barcha huquq va majburiyatlar o‘tganligi holati sndlarning e’tiboridan chetda qolgan. Natijada, yangi lizing oluvchi ishga jalb qilinmagan holda nizo mazmunan hal qilingan va Shartnomani bekor qilish masalasi ham Yangi lizing oluvchingning ishtirokisiz ko‘rilgan. Vaxolanki, Qo‘srimcha kelishuv sud tomonidan bekor qilingan Shart-nomaning qo‘srimchasi va uning ajralmas qismi hisoblangan, Yangi lizing oluvchi esa uning tarafi hisoblangan.

Shunga ko‘ra, birinchi instansiya sudining hal qiluv qarori Yangi lizing oluvchingning huquq va majburiyatiga ham dahl qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi IPKnning 279, 302-moddasiga ko‘ra sud ishda ishtirok etishga jalb qilinmagan shaxslarning huquqlari va majburiyatları to‘g‘risida hal qiluv qarori qabul qilgan bo‘lsa, bu holat hal qiluv qarorini bekor qilish uchun asos bo‘ladi.

Shuningdek, birinchi instansiya sudi O‘zbekiston Respublikasi IPKnning 118-moddasasi talabini buzgan holda “TU-lizing” MChJ shaklidagi lizing kompaniyasining lizing ob‘yektlarini qaytarish haqidagi talabi bo‘yicha 1 254 670 so‘m davlat boji undirmagan va keyinchalik ushbu kamchilik cassatsiya instansiysi sudi tomonidan ham to‘g‘irlanmagan va undirilmagan boj summasini respublika budjetiga undirish choralarini ko‘rilmagan.

Bundan tashqari, sudlar tomonidan “TU-lizing” MChJ shaklidagi lizing kompaniyasining sug‘urta mukofoti to‘lovini kechiktirilganligi uchun 634 850,39 so‘m jarima undirish haqidagi talabini rad etganliklari holati asoslantirilmagan.

O‘zbekiston Respublikasi IPKnning 322-moddasiga ko‘ra, sud hujjatining noqonuniyligi yoki asossizligi hal qiluv qarorini nazorat tartibida bekor qilish uchun asos bo‘ladi.

Yuqorida qayd etilganlarni inobatga olgan holda O‘zbekiston Respublikasi IPKnning 308, 309-moddalariga asoslanib, mazkur iqtisodiy ishi bo‘yicha birinchi instansiya sudining 2017-yil 10-avgustdagisi hal qiluv qarori va cassatsiya instansiya sudining 2018-yil 10-maydagisi qarori ustidan nazorat tartibida protest keltirishingizni so‘rayman.

**“N” MChJ rahbari**

**imzo**

**F.I.Sh.**

## **NAZORAT UCHUN SAVOLLAR**

1. Apellatsiya va cassatsiya shikoyat berish muddati va tartibini ayting.

2. Apellatsiya shikoyati loyihasini tayyorlang.
3. Kassatsiya protesti loyihasini tayyorlang.
4. Nazorat tartibida shikoyat berish muddati va tartibini aytинг va nazorat shikoyati yozing.

## **19-MAVZU. IQTISODIY SUD HUJJATLARINI IJRO ETISH BOSQICHIDA YURITILADIGAN PROTSESSUAL HUJJATLAR**

Odatda ijro jarayoni undiruvchining arizasiga ko‘ra qo‘zg‘atiladi. Bunda undiruvchi ijro varaqasining aslini yoki uning dublikatini davlat ijrochisiga yuboradi.

Davlat ijrochisi sud hujjatini ijro etishga kirishar ekan, qarzdorga qarorni besh kunlik muddat ichida ixtiyoriy bajarish taklifini topshiradi va agar u tegishli muddatda ixtiyoriy ijro qilmagan taqdirda, majburan ijro etilishi haqida ogohlantiradi.

Amaldagi qonunchilikka muvofiq, iqtisodiy sud undiruvchi, qarzdor yoki davlat ijrochisining arizasiga ko‘ra sud hujjatining ijrosini kechiktirish yoki uni bo‘lib - bo‘lib ijro etishga, ijro etish usulini va tartibini o‘zgartirishga haqlidir. Davlat ijrochisi bu huquqqa iqtisodiy sudning o‘zi ijro jarayonini olib borayotgan sud hujjatlariga nisbatan egadir.

Davlat ijrochisining o‘zi mustaqil tarzda sud hujjatining ijrosini kechiktirish yoki uni bo‘lib-bo‘lib ijro etish, ijro etish usuli va tartibini o‘zgartirish huquqiga ega emas.

Iqtisodiy sud o‘z tashabbusi bilan sud hujjatining ijrosini kechiktirish yoki uni bo‘lib-bo‘lib ijro etish, ijro etish usuli va tartibini o‘zgartirish masalasini hal etishi mumkin emas.

Sud hujjatining ijrosini kechiktirish yoki uni bo‘lib-bo‘lib ijro etish uni ijro etish usulini va tartibini o‘zgartirish masalalari iqtisodiy sudning majlisida, undiruvchi va qarzdor IPKning 128-moddasida nazarda tutilgan tartibda xabardor qilingan holda ko‘riladi. Biroq, ularning hozir bo‘lmasligi arizani ko‘rib chiqishga to‘s-qinlik qilmaydi.

Sud hujjatining ijrosini kechiktirish yoki uni bo‘lib-bo‘lib ijro etish, ijro etish usuli va tartibini o‘zgartirish to‘g‘risidagi ariza u berilgan kundan e’tiboran yigirma kunlik muddat ichida ko‘rib chiqiladi. Arizani ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha ajrim chiqarilib, u undiruvchi hamda qarzdorga, shuningdek, sud hujjatini ijro etish davlat ijrochisining ish yurituvida bo‘lsa, davlat ijrochisiga yuboriladi.

Ajrim ustidan shikoyat qilish (protest keltirish) mumkin.

IPKning 343-moddasida sud hujjatining qaytarma ijrosi to‘g‘-risidagi qoida belgilangan bo‘lib, agar ijro etilgan sud hujjati o‘z-

gartirilib yoki bekor qilinib, da'voni to'la yoki qisman rad etish to'g'risida yangi sud hujjati qabul qilinsa yoxud ish yuritish tugatilsa, yoxud da'vo ko'rmasdan qoldirilsa, bekor qilingan yoki tegishli qismi o'zgartirilgan sud hujjati bo'yicha da'vogar foydasiga undirilgan hamma narsa javobgarga qaytariladi.

Agar ijro etilmagan sud hujjati bekor qilinib yoki o'zgartirilib, da'voni to'la yoki qisman rad etish to'g'risida yangi sud hujjati qabul qilinsa yoxud ish yuritish tugatilsa yoxud da'vo to'la yoki qisman ko'rmasdan qoldirilsa, iqtisodiy sud bekor qilingan yoki tegishli qismi o'zgartirilgan sud hujjati bo'yicha undirishni to'la yoki qisman bekor qilish to'g'risida sud hujjati qabul qiladi.

Sud hujjatining qaytarma ijrosi to'g'risidagi masala yangi sud hujjatini qabul qilgan iqtisodiy sud tomonidan hal qilinadi.

Agar sud hujjatini bekor qilish yoki o'zgartirish to'g'risidagi qarorda uning qaytarma ijrosi to'g'risida ko'rsatma berilmagan bo'lsa, javobgar birinchi instansiya iqtisodiy sudga tegishli ariza berishga haqli. Sud hujjatining qaytarma ijrosi to'g'risidagi javobgarning arizasini ko'rish natijalari bo'yicha ajrim chiqariladi.

Tashkilotning, fuqaroning arizasi bo'yicha iqtisodiy sud undirilgan pul mablag'lari, mol-mulk yoki uning qiymatini qaytarish to'g'risida ijro varaqasini beradi. Arizaga avval qabul qilingan sud hujjatining ijrosini tasdiqlovchi hujjat ilova qilinadi.

O'zbekiston Respublikasining "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida"gi Qonuni 34-moddasi birinchi qismiga muvofiq:

- agar sud tomonidan aniqlangan huquqiy munosabat huquqiy vorislikka yo'l qo'ysa, qarzdor vafot etganda, u vafot etgan deb e'lon qilinganda yoki bedarak yo'qolgan deb topilganda;
- qarzdor muomalaga layoqatsiz deb topilganda;
- qonun hujjatlarida nizolashishga yo'l qo'yilgan bo'lsa, qarzdor ijro hujjati yuzasidan sud tartibida nizolashganda;
- ma'muriy huquqbazarlik to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish vakolatiga ega organlarning qarorlari (mansabdor shaxslarning harakatlari) ushtidan sudga shikoyat berilganda;
- ijro hujjati bo'yicha undiruv qaratilgan mol-mulkni ro'yxatdan chiqarish (xatlashdan ozod qilish) to'g'risida sudga da'vo ariza berilganda ijro ishini yuritish to'xtatib turilishi shart.

Shuni nazarda tutish lozimki, Qonunning 35-moddasi birinchi qis-miga ko'ra:

- qarzdor yoki undiruvchi ijro hujjatini bergen tegishli sudga yoki boshqa organga ijro hujjatini kechiktirib yoki bo'lib - bo'lib ijro etish, ijro etish usuli va tartibini o'zgartirish to'g'risidagi ariza bilan murojaat qilganda;
- qarzdor uzoq muddatli xizmat safarida bo'lganda yoki statsionar dav-olash muassasasida davolanayotganda;
- davlat ijrochisining harakatlari (qarorlari) ustidan shikoyat be-ril-ganda;
- ro'yxatga olingan mol-mulkni baholash natijalari yuzasidan nizo-lashilganda;
- undiruvchi iltimos qilgan hollarda sud tomonidan ijro ishini yuritish to'xtatib turilishi mumkin.

Ijro ishi yuritishni to'xtatib turish haqidagi ariza sud tomonidan ariza tushgan kundan boshlab 10 kunlik muddat ichida taraflar chaqirtirilmasdan va sud muhokamasi o'tkazilmasdan ko'rib chiqiladi.

Ijro ishi yuritishni to'xtatib turish haqida sud ajrim chiqaradi. Ushbu ajrim ustidan IPKda belgilangan tartibda shikoyat yoki protest keltirilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida"gi Qonuninin 36-moddasida ijro ishi yuritishni quyidagi hollarda to'xtatib turish muddatları belgilangan:

1) qarzdor vafot etganda, u vafot etgan deb e'lon qilinganda yoki bedarak yo'qolgan, muomalaga layoqatsiz deb topilganda - qarzdorning huquqiy vorislari aniqlanguniga, bedarak yo'qolganning mol-mulki sud tomonidan homiylik va vasiylik organlari belgilagan ishonchli bosh-qaruvchiga topshirilguniga yoki muomalaga layoqatsiz qarzdorga homiy tayinlanguniga qadar;

2) qarzdorning nochorligi (bankrotligi) to'g'risidagi ish bo'yicha iqtisodiy sud tomonidan ish yuritish qo'zg'atilganda, kuzatuvni joriy etish to'g'risida sud sanatsiyasi yoki tashqi boshqaruv taomilini joriy etish va (yoki) muddatini uzaytirish to'g'risida iqtisodiy sud tomonidan ajrim qabul qilinganda - qarzdorning nochorligi (bankrotligi) to'g'ri-sidagi ish bo'yicha qaror qabul qilinguniga qadar;

3) undiruvchi yoki qarzdor muddatli harbiy xizmatni o'tayotganda, qarzdor kasal bo'lib qolganda, xizmat safarida bo'lganda yoki qarzdor

jismoniy shaxs, uning mol-mulki yoki olib qo‘yilishi lozim bo‘lgan bola qidirilayotganda, - muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilguniga yoki statsionar davolash muassasasidan chiqquniga, xizmat safaridan qaytuniga yoki qarzdor jismoniy shaxs, uning mol-mulki yoki olib qo‘yilishi lozim bo‘lgan bola qidirib topilguniga qadar;

4) ijro harakatlari, ijro hujjati yoki uni berishga asos bo‘lgan huj-jat yuzasidan, shuningdek, ro‘yxatga olingan mol-mulkni baholash natijalari yuzasidan nizolashilayotganda - masala mazmunan uzil-kesil ko‘rib chiqilguniga qadar;

5) davlat ijrochisining harakatlari (qarorlari) ustidan shikoyat berilganda - shikoyat ko‘rib chiqilguniga qadar.

Qonun 36-moddasining uchinchchi qismiga muvofiq, ijro ishi yuritishni to‘xtatib turishga sabab bo‘lgan holatlar bartaraf qilin-ganidan keyin ijro ishi yuritish uni to‘xtatib turgan sud yoki davlat ijrochisi tomonidan undiruvchining arizasiga yoki davlat ijrochisining tashabbusiga ko‘ra tiklanadi.

Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi “Bankrotlik to‘g‘risida”gi Qonunining 63-moddasiga ko‘ra, ijro hujjati ijrosini to‘xtatish uchun iqtisodiy sudning arizani ish yuritishga qabul qilish va qarzdorga nisbatan bankrotlik ishini qo‘zg‘atish to‘g‘risidagi ajrimi ham asos hisoblanishi e’tiborga olinishi lozim.

Qonuniy kuchga kirgan iqtisodiy sudlar hujjatlarining ijrosi, ular u protest keltirilgan taqdirda, gina, ish nazorat tartibida ko‘ril-gunga qadar to‘xtatib turilishi mumkin.

Shuni nazarda tutish lozimki, ijro ishini yuritish quyidagi holatlarda sud hujjatiga asosan, davlat ijrochisi tomonidan tugatiladi:

- undiruvchi undiruvdan voz kechganda, agar voz kechish sud tomonidan qabul qilingan bo‘lsa;

- undiruvchi va qarzdor o‘rtasida sud tomonidan tasdiqlangan kelishuv bitimi tuzilganda;

- jarima tariqasidagi jinoiy jazoni boshqa jazo turiga almashtirish yoxud jarima tariqasidagi jinoiy jazodan amnostiya aktiga asosan, ozod qilish to‘g‘risida sud tomonidan ajrim chiqarilganda;

- ijro hujjatini berishga asos bo‘lgan sud hujjati yoki boshqa organning hujjati bekor qilinganda yoxud qonunga muvofiq ijro hujjati hisoblangan hujjat bekor qilinganda yoki haqiqiy emas deb topilganda.

Ijro ishini yuritish quyidagi hollarda sud tomonidan tugatiladi:

- undiruvchi yoki qarzdor vafot etganda, u vafot etgan deb e'lon qilin-ganda, bedarak yo'qolgan deb topilganda, agar sud hujjati yoxud boshqa organ hujjatida belgilangan talablar yoki majburiyatlar huquqiy vorisga yoki bedarak yo'qolgan shaxs mol-mulkining ishonchli boshqaruvchisiga o'tishi mumkin bo'lmasa;
- muayyan harakatlarni amalga oshirish yoki bunday harakatlarni amalga oshirishdan o'zini tiyish majburiyatini yuklovchi ijro hujjatini ijro etish imkoniyati yo'qolgan bo'lsa.

Ijro ish yurituviga bog'liq munosabatlardan kelib chiqadigan ni-zolarning taalluqliligi masalasini hal etishda har doim ijro hujjati qaysi sud tomonidan berilganligi aniqlanishi lozim.

Qonunning 38-moddasiga ko'ra, iqtisodiy sud tomonidan beril-gan ijro hujjati asosida qo'zg'atilgan ijro ishi yuritishni to'xtatib turish va tugatish o'sha iqtisodiy sud yoki davlat ijrochisi turgan joydagi iqtisodiy sud tomonidan amalga oshiriladi.

Ijro ishi yuritishni to'xtatib turish va tugatish quyidagi hollarda ham iqtisodiy sud tomonidan amalga oshiriladi:

- ijro xatlari ijro etilganda, agar undiruvchi va qarzdor yuridik shaxs yoki yuridik shaxs tashkil etmagan holda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan fuqarolar bo'lsa;
- davlat ijrochisining ijro yig'imini va ijro xarajatlarini undirish to'g'risidagi qarorlari ijro etilganda, agar qarzdor yuridik shaxs yoki yuri-dik shaxs tashkil etmagan holda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshi-rayotgan fuqaro bo'lsa.

Qonunning ushbu moddasi birinchi qismida nazarda tutilmagan ijro hujjatlari bo'yicha ijro ishi yuritishni to'xtatib turish va tuga-tish davlat ijrochisi turgan joydagi umumiy yurisdiksiya sudi to-monidan amalga oshiriladi.

Qonunning 86<sup>1</sup>-moddasiga ko'ra, iqtisodiy sud tomonidan be-rilgan ijro hujjati bo'yicha davlat ijrochisining chiqargan qarori us-tidan undiruvchi yoki qarzdor tomonidan ijro hujjatini bergen iqtisodiy sudga yoki bo'ysunuv tartibida yuqori turuvchi organga, mansabdar shaxsga qaror chiqarilganligi haqida xabar qilingan kundan e'tiboran o'n kunlik muddatda shikoyat berilishi mumkin.

Ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilmagan hol-larda davlat ijrochisining qarori ustidan qaror chiqarilganligi ha-qida xabar qilingan kundan e'tiboran o'n kunlik muddatda davlat ijrochisi joylashgan joydagi umumiy yurisdiksiya sudiga yoki bo'ysunuv tartibida yuqori turuvchi organga, mansabdor shaxsga shikoyat beriladi.

Davlat ijrochisining xatti-harakatlari ustidan beriladigan shikoyatlarning sudga taalluqliligi masalasi ham yuqorida qayd etilgan Qonun normalari talablariga rioya etilgan holda hal etiladi. Agar, iqtisodiy sud va umumiy yurisdiksiya sudi tomonidan be-rilgan ijro varaqalar yagona ijro ishi yurituviga birlashtirilgan bo'lsa, davlat ijrochisining ushbu ijro varaqalarining ijrosi bilan bog'liq xatti-harakatlari ustidan ijro joyidagi umumiy, yurisdiksiya sudiga shikoyat qilinishi mumkin.

### IJRO VARAQASI

Toshkent sh. \_\_\_\_\_ 20\_\_ yil \_\_\_\_\_ -sonli ish

Toshkent shahar iqtisodiy sudining appellatsiya instansiysi sudi tomonidan da'vogar Toshkent shahar adliya boshqarmasining (yakka tartibdagi tadbirkor "T.A.T." manfaatida) javobgar Toshkent shahar bojxona boshqarmasi hisobidan 94.410.732 so'm zarar hamda 3.274.603 so'm miqdordagi TMBni saqlash bojxona omboriga to'langan to'lov (moddiy) zararni undirish to'g'risidagi da'vo arizasi bo'yicha 20\_\_ yil \_\_\_\_ da quyidagicha qaror qabul qilindi:

**qaror qildi:** javobgar Toshkent shahar bojxona boshqarmasining budjetdan tashqari jamg'arma mablag'lari hisobidan da'vogar yakka tartibdagi tadbirkor "T.A.T." foydasiga 93.292.962 (to'qson uch million ikki yuz to'qson ikki ming to'qqiz yuz oltmish ikki) so'm 15 tiyin miqdorda zarar va TMBni saqlash uchun bojxona omboriga to'langan 3.274.603 (uch million ikki yuz etmish to'rt ming olti yuz uch) so'm miqdordagi moddiy zarar undirilsin.

Undiruvchining to'liq nomi va yuridik manzili: Yakka tartibdagi tadbirkor "T.A.T.", 100031, Toshkent shahar, «K» tumani, M.Yakubova ko'chasi, 34-uy; h/r: 2021 8000 6043 9828 8001, ATIB "TB" «K» filiali, MFO: 01017, INN: 423450991.

Qarzdorning to'liq nomi va yuridik manzili: Toshkent shahar bojxona boshqarmasining budjetdan tashqari jamg'armasi, 100033, Toshkent shahar, Bunyodkor shox ko'chasi 35-uy.

**Apellyatsiya qarori 20\_\_ yil \_\_\_\_ dan boshlab qonuniy kuchga kirgan.**

**Ijro varaqasi 20\_\_ yil \_\_\_\_ kuni berildi.**

Ijro varaqasi sud hujjati qonuniy kuchga kirgan kundan, ijroni kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib ijro etishda belgilangan muddat tugagan kundan yohud ijro varaqasini ijroga taqdim etish uchun o‘tkazib yuborilgan muddatini tiklash to‘g‘risida ajrim chiqarilgan kundan boshlab olti oydan kechiktirilmasdan ijroga taqdim etilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi IPKning 14-moddasiga binoan, sudning qonuniy kuchga kirgan hujjatlari barcha davlat organlari, fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari, muassasalar, tashkilotlar, mansabdar shaxslar va fuqarolar uchun majburiy bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasining butun hududida ijro etilishi shart.

O‘zbekiston Respublikasi IPKning 334-moddasiga binoan, qonuniy kuchga kirgan sud hujjatlari O‘zbekiston Respublikasining butun hududida barcha davlat organlari, fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari, tashkilotlar, mansabdar shaxslar va fuqarolar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi IPKning va boshqa qonunlarda belgilangan tartibda ijro etiladi.

Izoh: Undiruvchi ijro varaqasini olgan kundan boshlab undiruvni javobgarning hisob raqamiga qaratish uchun bankka murojaat qilishi, agarda qarzdorning qarzlarini uzish uchun etarli pul mablag‘lari bo‘limsa, undiruvni uning mol-mulkiga qaratish haqidagi ariza bilan O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokururaturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosining hududiy bo‘limlari davlat ijrochilariga murojaat qilishi lozim.

M.O‘. Sudya

imzo

F.I.Sh.

**NAZORAT UCHUN SAVOLLAR**

1. Ijro varaqasida nimalar korsatiladi va uni rasmiylashtiring.
2. Ijro ishi yuritishda sud qanday hujjatlar chiqaradi?
3. Sudni ijro ishi yuritishni to‘xtish to‘g‘risidagi ajrimini yozing?
4. Sudni ijro ishi yuritishni tugatish to‘g‘risidagi ajrimini yozing?

### **III. MA'MURIY SUD ISHLARINI YURITISHDAGI PROTSESSUAL HUJJATLAR**

---

---

#### **20-MAVZU. MA'MURIY SUD ISHLARNI QO‘ZG‘ATISH VA TAYYORLASH BOSQICHIDA YURITILADIGAN PROTSESSUAL HUJJATLAR**

##### **1-§. Ish qo‘zg‘atish asoslari**

Sud:

- 1) manfaatdor shaxslarning;
- 2) prokurorning;
- 3) davlat organlari va boshqa shaxslar yuridik shaxslar va fuqarolarning huquqlari hamda qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilish maqsadi da qonun bo‘yicha sudga murojaat qilish huquqiga ega bo‘lgan hollarda, shu davlat organlarining va boshqa shaxslarning ari zalari bo‘yicha ish qo‘zg‘atadi.

##### **2-§. Arizaning (shikoyatning) shakli va mazmuni**

Ariza (shikoyat) sudga yozma shaklda beriladi. U arizachi yoki uning vakili tomonidan imzolanadi.

Arizada (shikoyatda) quyidagilar ko‘rsatilishi kerak:

- 1) ariza (shikoyat) berilayotgan sudning nomi;
- 2) ishda ishtirok etuvchi shaxslarning nomi (familiyasi, ismi va otasining ismi), joylashgan yeri (pochta manzili) yoki yashash joyi;
- 3) arz qilingan talablarga asos bo‘lgan holatlар (agar ular mavjud bo‘lsa);
- 4) arz qilingan talablarning asoslarini tasdiqlovchi dalillar;
- 5) arizachining qonun hujjatlariiga asoslab keltirgan talablari, talab bir nechta javobgarga nisbatan taqdim etilganda esa ularning har biriga nisbatan talablar;
- 6) ilova qilinayotgan hujjatlarning ro‘yxati.

Arizada (shikoyatda) arizachining yoki uning vakilining telefonlari, fakslari raqamlari, elektron manzili ko‘rsatilishi mumkin.

Arizada (shikoyatda), agar nizoni to‘g‘ri hal qilish uchun zarur bo‘lsa, boshqa ma’lumotlar, shuningdek arizachidagi mavjud bo‘lgan iltimosnomalar ko‘rsatiladi.

Arizachi o‘zaro bog‘liq bo‘lgan bir nechta talabni, agar ular ma’muriy sudga taalluqli bo‘lsa, bitta arizaga (shikoyatga) birlash-tirishga haqlisi.

**Arizaga (shikoyatga) quyidagilarni tasdiqlovchi hujjatlar ilova qilinadi:**

- 1) belgilangan tartibda va miqdorda davlat boji to‘langanligini, agar bu ushbu toifadagi ishlar uchun qonunda nazarda tutilgan bo‘lsa;
- 1-1) belgilangan tartibda va miqdorda pochta xarajatlari to‘langan-ligini;
- 2) arizaning (shikoyatning) va unga ilova qilingan hujjatlarning ko‘chirma nusxalari javobgarga hamda uchinchi shaxslarga yuborilganligini;
- 3) arz qilingan talablarga asos bo‘lgan holatlarni;
- 4) arizani (shikoyatni) imzolash vakolatini, agar u vakil tomonidan imzolangan bo‘lsa.

**Yakkasaroy tuman ma’muriy sudiga**

**Arizachi: Sindorov Sindor Sindorovich  
Yashash joyi:Toshkent shahar, Yakkasaroy  
tumani, Mukanno ko‘chasi, 01-uy  
Tel:22 22 22**

**Shikoyat**

**(Majburiy ijro byurosining Yakkasaroy tuman bo‘limi  
ijrochisi qarori ustidan)**

O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosining Yakkasaroy tuman bo‘limi ijrochisi B.Baxramov 2017-yil 30-mart kuni men, ya’ni Sindorov Sindor Sindorovichning alimentdan bo‘lgan qarzim 2006-yil 01-yanvar kunidan 2017-yil 11-fevral kuniga qadar hozirgi vaqtdagi O‘zbekiston Respublikasidagi o‘rtacha ish haqi 984.516 so‘mning  $\frac{1}{4}$  qismi miqdorida, ya’ni har oyiga 246.129 so‘mdan va qarzdorning oylik ish xaqining  $\frac{1}{4}$  qismi miqdori hisobidan, jami 133 oy va 11 kun uchun, qarzdor tomonidan jami 1.052 100 so‘m to‘langanligini inobatga olgan holda qoldiq qarzi (24.847.584-1.052.100=23.795.484) 23.795.484 so‘m to‘lanishi lozimligi mazmu-nidagi aliment qarzini hisoblash to‘g‘risida qaror chiqardi.

Quyidagi asoslarga ko‘ra, sud ijrochilari Toshkent shahar Yakkasaroy tuman bo‘limi ijrochisi B.Baxramov tomonidan 2017-yil 30-mart kuni chiqarilgan qarorni bekor qilishingizni so‘rayman:

Dastlab 2017-yil 27-fevral kuni Majburiy ijob byurosining Yakkasaroy tuman bo‘limi ijrochisi B.Baxramov yuqoridagi qaror chiqarilishi uchun asos bo‘lgan ijob ishi yuritishni qo‘zg‘atish to‘g‘risida qaror chiqargandi. Ushbu qarorda aytilishicha aliment undirish haqida ijob hujjatlari B.Baxramovga 27.02.2017 yil kelib tushgan bo‘lib, aslida mening farzandim 11.02.2017 yil 18 yoshga to‘lib bo‘igan. Bu qarorga u 12.12.2012 yildagi №2-5214/02-sonli ijob varaqasini asos qilib olgan. 12.12. 2012 yildagi ijob varaqasidan mening umuman xabarim yo‘q va bu yili aliment yuzasidan hech qanday ijob varaqasi chiqmaganiga mening ishonchim komil. Aslida esa 2002 yil 12 dekabrda FIB Yak-kasaroy tumanlararo sudi farzandim 1999-yil 11-fevral kuni tug‘ilgan Sindorov Sardor Sindorovich o‘g‘liga nisbatan u voyaga yetgunga qadar har oylik ish xaqim va daromadalarimdan ¼ qismi miqdorida aliment undirish bo‘yicha hal qiluv qarori chiqargan.

Yuqoridagi ijob ishi qo‘zg‘alishiga sabab, sobiq turmush o‘rtog‘im Ilyasova Dildora Saburmuxammetovnaning O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti virtual qabulxonasiga yozgan arizasi bo‘lib, u 2006 yildan beri farzandimiz uchun aliment olmayotganligini o‘z arizasida bayon etgan. Aslida u 2006 yil farzandimiz uchun aliment olishdan voz kechgan.

Garchand u farzandimiz uchun aliment olishdan voz kechgan bo‘lsada, men 2002-yildan 2008-yil sentabr oyiga qadar har oylik ish haqim va daromadalarimdan farzandim uchun aliment pulini har oyda belgilangan miqdorda pochta orqali muntazam ravishda jo‘natib kel-ganman.

2008-yil avgust oyida men Turkiya davlatining Istanbul shahriga ketayotganligim bois chet elga chiqishimga ta‘qiq bo‘imasligi uchun farzandim 18 yoshga to‘lgunga qadar bo‘igan aliment pulini jami 780 000 so‘mni 2017-yil 11 fevraliga qadar hisob kitob qilib, sobiq turmush o‘rtog‘im Ilyasova Dildora Saburmuxammetovnaga bergenman va alimentdan qarzdorligim mavjud emas va bundan sud ijrochilarining ham xabari bor edi. Shundan so‘nggina men Turkiya davlatiga ket-ganman. Undan keyin ham bir necha bor xorijga chiqib keldim.

2009-yilda sobiq turmush o‘rtog‘im D.S.Ilyasova Ilyasov Avazbek ismli shaxs bilan turmush qurban. Hozirgi kunda ham u bilan birga yashaydi.

2008-yildan shu paytgacha biror marta menga aliment yoki moddiy yordam bo‘yicha murojaat qilmagandi.

Sobiq turmush o‘rtog‘im Ilyasova Dildora Saburmuxammetovna 2017-yil 17-yanvar kuni o‘z o‘zidan menga qo‘ng‘iroq qilib farzandim Sindorov Sardor Sindorovich o‘g‘li D.S.Ilyasovaning turmush o‘rtog‘i Ilyasov Avazbek bilan birga yashashligini, uni otasi sifatida ko‘rishligi sababli farzandimni Ilyasov Avazbek Turgunovich farzandlikka oli-

nishiga notarial tartibda ariza yozishimni aytdi. Men bunga rozi bo'ldim va notariusda ariza ham yozib berdim. 2017-yil 17- yanvar kuni ham u alimentdan qarzim mavjud emasligini, mendan hech qanday moddiy tomondan manfaatdor emasligini ayтиб o'tdi.

Lekin nimagadir 2017-yil oradan bir xafka o'tmay, ya'ni 2017-yil 24-yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi Bosh prokururaturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosining Yakkasaroy tuman bo'limi ijrochilariga mening alimentdan qarzimni hisoblab undirib berish haqida ariza kiritgani meni hayron qoldirdi.

Ijrochi B.Baxramov esa sobiq turmush o'rtog'im kiritgan arizani xolisona yetarlicha o'rganmay, holatni bir tomonlama ko'rib, yuqoridagi qarorlarni chiqargan. U sobiq turmush o'rtog'imning 2006-yili alimentdan aslida voz kechganligini va 2008-yilda men farzandim voyaga yetgunga qadar aliment pulini to'laligicha birato'la berib bo'lganligimni, qarzim umuman qolmaganligini hisobga olmadи. 2008-yil avgust oyida ham aliment jo'natganligimni isbotlovchi kvitansiyalarni taqdim etgan bo'lsam ham, bunga e'tibor bermay mendan 2006-yil 1-yanvardan 2017-yil 11-fevral kuniga qadar alimentni hisoblab chiqib mening vajlarimni eshitmay, kerakli hujjatlarni ko'rmay noqonuniy qaror chiqardi.

Men farzandim uchun agarda alimentni to'lamay yurar ekanman, 9 yil davomida ijro organi bu ishni nega tashlab qo'yadi, axir alimentni o'z vaqtida to'lamaslik jinoiy javobgarlik masalasini keltirib chiqarishi aniq-ku!

Ijrochining axir farzandim 18 yoshga to'lib bo'lganidan keyin, ijro ishini yuritishni qo'zg'atish to'g'risida qaror chiqarishi noto'g'ri-ku! Sud ijrochilar tomonidan ushbu ishga loqaydlik bilan munosabatda bo'linganligi sababli jabr ko'ryapman. Hozirda men turmush qurbanman va qaramog'imda turmush o'rtog'im va ikki nafar farzandlarim bor va hozirda hech qayerda ishlamayman.

Yuqoridagi hamda O'zbekiston Respublikasi O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksining 271-moddasiga ko'ra Yakkasaroy tuman sud ijrochisi B.Baxramovning 2017-yil 30-martdagи qarorini qonunga zid, haqiqiy emas deb topib bekor qilish haqida hal qiluv qarori chiqarishingizni so'rayman.

**Illova:** 1) Yakkasaroy tuman sud ijrochisining 2017-yil 30-martdagи qarori nusxasi;

2) Yakkasaroy tuman sud ijrochisining 2017-yil 27-fevraldagи qarori nusxasi;

3) FIB Yakkasaroy tumanlararo sudining 12.12.2002-yildagi hal qiluv qarori;

4) Kvitansiya nusxalari;

- 5) Pasport nusxasi;  
 6) Advokat orderi;  
 7) Notariusda farzandlikka olish bo'yicha yozilgan ariza nusxasi;  
 8) FIB Yakkasaroy tumanlararo sudining 2011-yil 12-oktabr kungi hal qiluv qaror nusxasi;  
 9) Davlat boji to'langani to'g'risidagi kvitansiya.

**Arizachi**

**S.Sindorov.**

### **3-§. Arizani (shikoyatni) ish yuritishga qabul qilishni rad qilish**

Sudya arizani (shikoyatni) ish yuritishga qabul qilishni quyidagi hollarda rad etadi, agar:

- 1) ish ma'muriy sudga taalluqli bo'lmasa;
- 2) ma'muriy sudning ayni bir shaxslar o'rtasidagi, ayni bir predmet to'g'risidagi va ayni bir asoslar bo'yicha nizo yuzasidan qabul qilingan, qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarori yoki ish yuritishni tugatish haqidagi ajrimi mavjud bo'lsa;
- 3) sudning ish yuritishida ayni bir shaxslar o'rtasidagi, ayni bir predmet to'g'risidagi va ayni bir asoslar bo'yicha nizo yuzasidan ish mavjud bo'lsa.

Arizani (shikoyatni) qabul qilishni rad etish to'g'risidagi ajrim ustidan shikoyat qilinishi (protest keltirilishi) mumkin.

Ajrim bekor qilingan taqdirda, ariza (shikoyat) sudga dastlabki murojaat qilingan kunda berilgan deb hisoblanadi.

### **AJRIM**

*(arizani qabul qilishni rad qilish haqida)*

2018-yil 30-aprel kuni Toshkent shahar ma'muriy sudi sudyasi B.Umarov da'vogar Mansurov Komil Yashnaboyevichning javobgar O'zbekiston Respublikasi MXX, Toshkent shahar OGVP, 1111-tonli Harbiy qismiga nisbatan ishga tiklash haqidagi da'vo arizasini o'rganib chiqib, qo'yidagilarni

### **ANIQLADI:**

K.Mansurov sudga javobgar O'zbekiston Respublikasi MXX, Toshkent shahar OGVP, 1111-tonli Harbiy qismaga nisbatan ishga tiklash

haqidagi da'vo ariza bilan murojaat qilib, unda 2013-yil 12-mart kunidan boshlab avvalgi xizmat joyiga, ya'ni nazoratchi lavozimiga qayta tiklashni so'ragan.

O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'-risidagi kodeksning 5-moddasiga ko'ra sudga murojaat qilish:

fuarolar va yuridik shaxslarning buzilgan yoki nizolashilayotgan huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish to'g'-risidagi ma'muriy ishlar bo'yicha, shuningdek ushbu Kodeksda nazarda tutilgan boshqa hollarda - ariza (shikoyat) va iltimosnama shaklida;

apellyatsiya, kassatsiya va nazorat instansiysi sudlariga murojaat etilganda, shuningdek ushbu Kodeks hamda boshqa qonunlarda nazarda tutilgan hollarda shikoyat (protest) shaklida amalga oshiriladi.

Murojaat va unga ilova qilinadigan hujjatlar sudga elektron hujjat tarzida yuborilishi mumkin.

Aniqlanishicha, shikoyat yuqorida qayd etilgan O'zbekiston Respublikasi ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'-risidagi kodeksning 5-moddasi talablariga rioya qilinmagan holda ya'ni, K.Mansurov buzilgan huquqlarini tiklash bo'yicha sudga ariza (shikoyat) tartibida emas balki, da'vo ariza tartibida taqdim etilgan.

Ushbu holatlardan kelib chiqib, K.Mansurovning shikoyatini sudning ish yurituviga qabul qilishni rad etishni, shuningdek arizachiga huquqlari va erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlar va qarorlar ustidan, davlat organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalari, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari yoki mansabdor shaxslarning g'ayriqonuniy xatti-harakatlari (qarorlari) bilan o'z huquqlari yoki erkinliklari buzilgan deb hisoblasa, shikoyat bilan sudga murojaat qilish huquqini tushuntirishni lozim topadi.

O'zbekiston Respublikasi MSIYutKning 168-169, 5-moddalarini qo'llab,

### **AJRIM QILAMAN:**

Da'vogar Mansurov Komil Yashnaboyevichning javobgar O'zbekiston Respublikasi MXX, Toshkent shahar OGVP, 1111-tonli Harbiy qismiga nisbatan ishga tiklash haqidagi da'vo arizasi sudning ish yurituviga qabul qilish rad etilsin.

Ajrimga nisbatan 10 kunlik muddat ichida Toshkent shahar ma'muriy sudiga xususiy shikoyat, prokuror protest keltirishi mumkin.

**Sudya:**

**B.Umarov**

### **NAZORAT UCHUN SAVOLLAR**

1. Ma'muriy ishini qo'zg'atish bosqichida qanday protsessual

hujjatlar chiqariladi?

2. Arizani qaytarish asoslarini ayting.
3. Arizani mazmunini ayting.
4. Shikoyatni mazmunini ayting.

## **21-MAVZU. MA’MURIY ISHNI SUDDA KO‘RISHDA YURITILADIGAN PROTSESSUAL HUJJATLAR**

### **1-§. Sudyaning ishni sud muhokamasiga tayyorlash bo‘yicha harakatlari**

Sudya ishni sud muhokamasiga tayyorlash chog‘ida quyidagi harakatlarni ariza (shikoyat) kelib tushgan kundan e’tiboran besh kundan kechiktirmay amalga oshiradi:

- 1) ishda ishtirok etish uchun boshqa javobgarni yoki uchinchi shaxsni jalb etish masalasini ko‘rib chiqadi;
- 2) manfaatdor shaxslarni ishni yuritish to‘g‘risida xabardor qiladi;
- 3) ishda ishtirok etuvchi shaxslarni ularning videokonferens-aloqa rejimidagi sud majlisida ishtirok etishga bo‘lgan huquqlari haqida xabardor qiladi;
- 4) ishda ishtirok etuvchi shaxslarga, boshqa tashkilotlarga, ularning mansabdor shaxslariga muayyan harakatlarni amalga oshirishni, shu jumladan nizoni hal qilish uchun ahamiyatga ega bo‘lgan hujjatlar va ma’lumotlarni taqdim etishni taklif etadi;
- 5) guvohlarni chaqirtiradi;
- 6) ekspertiza tayinlash to‘g‘risidagi masalani ko‘rib chiqadi;
- 7) taraflarga zarur dalillarni olishga ko‘maklashadi, taraflarning iltimosnomasi bo‘yicha ularni talab qilib oladi;
- 8) taraflarning iltimosnomasi bo‘yicha dastlabki himoya choralarini ko‘rish va dalillarni ta’minalash to‘g‘risidagi masalalarini hal etadi;
- 9) boshqa shaxslarning ishga kirishishi, ishlarni bitta ish yuritishga birlashtirish yoki arz qilingan talablarini alohida ish yuritishga ajratish, sayyor sud majlisini o‘tkazish to‘g‘risidagi masalalarini ko‘rib chiqadi.

Sudya ishning to‘g‘ri va o‘z vaqtida hal etilishini ta’minalashga qaratilgan boshqa harakatlarni ham amalga oshiradi.

#### **AJRIM**

*(Shikoyatni ish yuritishga qabul qilish va ishni sud muhokamasiga tayyorlash haqida)*

2018-yil may oyining 21-kuni Toshkent shahar mamuriy sudining sudyasi B.Umarov, arizachi Tolipov Toshmat Mansurovichning javobgar O'zbekiston Respublikasi DXX DChXKK 1111-sonli harbiy qism mansabдор shaxslarining xatti-harakatlariga nisbatan keltirgan shikoyati hamda unga ilova qilingan hujjatlar bilan tanishib chiqib, shikoyat ariza O'zbekiston Respublikasi Mamuriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksining 128-moddasi talablariga rioya qilgan holda berilgan va mamuriy sud sudloviga tegishli deb topdi.

Shikoyat arizani ish yuritishga qabul qilish va nizoni ko'rish uchun yetarli asoslar mavjud deb hisoblab, nizo o'z vaqtida va to'g'ri ko'rib chiqilishini ta'minlash maqsadida hamda O'zbekistan Respublikasi Mamuriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksning 132, 139, 140 va 168-moddalariga asoslanib, sud

### **AJRIM QILDI:**

Arizachi Tolipov Toshmat Mansurovichning javobgar O'zbekiston Respublikasi DXX DChXKK 1111-sonli harbiy qism mansabдор shaxslarining xatti-harakatlariga nisbatan keltirgan shikoyati ish yurituviga qabul qilinsin va 3/167-sonli ma'muriy ish qo'zg'atilsin.

Ishin ko'rish 2018-yil 1-iyun kuni soat 11:00ga tayinlansin.

Sud majlisи Toshkent shahar ma'muriy sudi 2-sonli sud zalida sul majlisи muhokamasida o'tkazilsin va bu haqda taraflar xabardor qilinsin.

Ishni sudda ko'rishga tayyorlash jarayonida quyidagi harakatlar amalga oshirilsin:

Arizachi zimmasiga shikoyat arizaga ilova qilingan va arizada keltilrilgan holatlarni asoslantiruvchi hujjatlarning asl nusxasini sudga taqdim etish majburiyati yuklatilsin.

Javobgar zimmasiga shikoyat ariza yuzasidan yozma fikrnoma va o'z e'tirozlarini asoslovchi boshqa hujjatlarni sudga taqdim epish majburiyati yuklatilsin.

Ishda ishtirok etuvchi shaxslar, ularning vakillari sud majlisiga shaxsini tasdiqlovchi hujjat va tegishli tartibda rasmiylashtirilgan ishonchnoma bilan kelishlari shartligi ko'rsatib o'tilsin.

Arizachi birinchi sud majlisiga kelmagan va ishni o'zining ish-tirokisiz ko'riliishi to'g'risida arz qilmagan bo'lsa, O'zbekistan Respublikasi Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksning 105-moddasiga asosan shikoyatni ko'rmaslan qoldirish uchun asos bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlarlik to'g'risidagi Kodeksning 180-moddasiga asosan, guvoh, jabrlanuvchi, da'vogar, javobgar, ishda qatnashuvchi boshqa shaxslarning sudga kelishdan qasddan bo'yin tov lashida yoki mazkur shaxslarning va boshqa fuqarolarning raislik qiluvchi farmoyishiga bo'y sunmasligida yoxud sud majlisи paytida tartibni buzishda o'z ifodasini topgan sudga humatsizlik –

eng kam ish haqining bir baravaridan uch baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

Sudya

B.Qodirov

## 2-§. Dastlabki himoya choralari

Quyidagilar dastlabki himoya choralari bo‘lishi mumkin:

- 1) javobgarga muayyan harakatlarni amalga oshirishni taqilash;
- 2) boshqa shaxslarga nizo predmetiga taalluqli bo‘lgan muayyan harakatlarni amalga oshirishni taqilash;
- 3) mol-mulkni realizatsiya qilishni to‘xtatib turish;
- 4) ma’muriy organning, fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organining nizolashilayotgan hujjati ijrosini to‘liq yoki qisman to‘xtatib turish.

Sud tomonidan bir vaqtning o‘zida bir nechta dastlabki himoya choralari ko‘rilishi mumkin.

### AJRIM

*(Dastlabki himoya chorasini ko‘rish haqida)*

2018 yil iyul oyining 26 kuni Toshkent shaxar ma’muriy sudi binosida, ochiq sud majlisida, sudya B.Toshboltayevning raisligida, sudya katta yordamchisi A.Axrarovning kotibligida, advokat A.Azizovning ishtirokida, arizachi Toirov Zoir Toirovichning javobgar “Toshkent shahar yer tuzish va ko‘chmas mulk kadastri xizmati” Davlat unitar korxonasi, Davlat xizmatlari ko‘rsatish agentligi M.Ulug‘bek tuman bo‘limi, “A’lo” MChJ mansabdor shaxslarining g‘ayriqonuniy xatti harakatlariga nisbatan keltirgan shikoyati bo‘yicha yuzasidan yuritilgan ma’muriy ishni ko‘rib, quyidagilarni

### ANIQLADI:

Sudga Toirov Zoir Toirovich javobgar “Toshkent shahar yer tuzish va ko‘chmas mulk kadastri xizmati” Davlat unitar korxonasi, Davlat xizmatlari ko‘rsatish agentligi M.Ulug‘bek tuman bo‘limi, “A’lo” MChJ mansabdor shaxslarining g‘ayriqonuniy xatti harakatlariga nisbatan shikoyat bilan murojaat qilib, unda “Toshkent shahar yer tuzish va ko‘chmas mulk kadastri xizmati” Davlat unitar korxonasi mansabdor shaxslarining Toshkent shahar M.Ulug‘bek tumani, Arnasoy ko‘chasi, 3-a uyni “A’lo” XKnomiga mulk huquqi asosida 7.04.2010 yilda davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va kadastr hujjatlarini rasmiylashtirishda ifo-

dalangan harakatlarini hamda Davlat xizmatlari ko'rsatish agentligi M.Ulug'bek tuman bo'limini "A'lo" XKni ushbu manzildan ro'yxatdan o'tkazishda ifodalangan harakatlarini g'ayriqonuniy deb topishni so'rigan.

Shuningdek, arizachi shikoyat mazmunan ko'rilguniga qadar dastlabki himoya choralarini ko'rishni, "A'lo" XKrahbari D.Tirovani ushbu ko'chmas mulkdan foydalanishini cheklashni so'rigan.

O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksning 93-moddasiga ko'ra, javobgarga muayyan harakatlarni amalga oshirishni taqiqlash; boshqa shaxslarga nizo predmetiga taalluqli bo'lgan muayyan harakatlarni amalga oshirishni taqiqlash; mol-mulkni realizatsiya qilishni to'xtatib turish; ma'muriy organning, fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organining nizolashilayotgan hujjati ijrosini to'liq yoki qisman to'xtatib turishdastlabki himoya choralarini bo'lishi mumkin.

Aniqlangan holatlardan va yuqorida qayd etilgan qonun normasi talablaridan kelib chiqib, sud mazkur ish yuzasidan arizachi Z.Toirovning arizasi hamda o'z tashabbusiga ko'ra dastlabki himoya cho-ralarini ko'rishni, "A'lo" XKrahbari D.Tirova hamda 4.09.2017 yildagi "A'lo" XKrahbari D.Tirova hamda "UP TO DATE" MChJ o'rtasida tuzilgan ijara shartnomasiga ko'ra, "UP TO DATE" MChJni M.Ulug'bek tumani, Arnasoy ko'chasi, 3-a uydan foydalanishini mazkur shikoyat ko'rib hal etilguniga qadar cheklashni lozim topadi.

Binobarin, sud O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksning 93-moddasini qo'llab, sud

### **AJRIM QILADI:**

Arizachi Z.Tirovni dastlabki himoya chorasini ko'rish haqidagi arizasi qanoatlantirilsin.

"A'lo" XK rahbari D.Tirova hamda "UP TO DATE" MChJni M.Ulug'bek tumani, Arnasoy ko'chasi, 3-a uydan foydalanishi mazkur shikoyat ko'rib hal etilguniga qadar cheklansin.

Ajrim ijob uchun Majburiy ijob byurosini M.Ulug'bek tuman bo'limi, "A'lo" XK rahbari D.Tirova hamda "UP TO DATE" MChJni zimmasiga yuklatilsin.

Ajrimdan norozi tomon 20 kunlik muddat ichida ushbu sud orqali Toshkent shahar ma'muriy sudiga apellyatsiya tartibida shikoyat, prokuror protest keltirishi mumkin.

**Sudya**

**B.Toshboltayev**

**3-§. Arizani (shikoyatni) ko'rmasdan qoldirish asoslari**

Sud quyidagi hollarda arizani (shikoyatni) ko‘rmasdan qoldiradi, agar:

1) fuqarolik ishlari bo‘yicha sud, ma’muriy sud ish yurituvida ayni bir shaxslar o‘rtasidagi, ayni bir predmet to‘g‘risidagi va ayni bir asoslar bo‘yicha nizo yuzasidan ish mavjud bo‘lsa;

2) ariza (shikoyat) imzolanmagan bo‘lsa yoki uni imzolash huquqiga ega bo‘lmasidan shaxs tomonidan yoxud mansab mavqeい yoki familiyasi, ism-sharifining bosh harflari ko‘rsatilmagan shaxs tomonidan imzolangan bo‘lsa;

3) arizachi birinchi sud majlisiga kelmagan va ishni o‘zining ishtirokisiz ko‘rilishi to‘g‘risida arz qilmagan bo‘lsa;

4) arizachining manfaatlarini ko‘zlab prokuror, davlat organi va boshqa shaxs tomonidan arz qilingan talabdan arizachi voz kechgan bo‘lsa.

### AJRIM

2018-yil iyul oyining 26-kuni Toshkent shahar ma’muriy sudi binosida, ochiq sud majlisida, suda S.Mamanazarovning raisligida, suda katta yordamchisi O.Nazarbekovning kotibligida, arizachi “Jarxon” xususiy firmasining javobgar Toshkent shahar hokimiyati va Yakkasaroy tuman hokimiyatiga nisbatan hokim qarorini haqiqiy emas deb topish va Yakkasaroy tuman mansabdar shaxslarining xatti-harakatlarini g‘ayriqonuniy deb topish haqidagi shikoyati yuzasidan yuritilgan ma’muriy ishni ko‘rib chiqib, quyidagilarni

### ANIQLADI:

Sudga “Jarxon” xususiy firmasi javobgar Toshkent shahar hokimiyati va Yakkasaroy tuman hokimiyatiga nisbatan hokim qarorini haqiqiy emas deb topish va Yakkasaroy tuman mansabdar shaxslarining xatti-harakatlarini g‘ayriqonuniy deb topish haqida shikoyat bilan murojaat qilgan.

Arizachi “Jarxon” xususiy firmasi vakili sud majlisiga kelmadи va ishni o‘zining ishtirokisiz ko‘rilishi to‘g‘risida arz qilmadi qilmadi.

O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi kodeksining 105-moddasi, 3-qismiga asosan, arizachi birinchi sud majlisiga kelmagan va ishni o‘zining ishtirokisiz ko‘rilishi to‘g‘risida arz qilmagan bo‘lsa, sud arizani (shikoyatni) ko‘rmasdan qoldiradi.

Shunga ko‘ra, sud arizachi “Jarxon” xususiy firmasining javobgar Toshkent shahar hokimiyati va Yakkasaroy tuman hokimiyatiga nisbatan hokim qarorini haqiqiy emas deb topish va Yakkasaroy tuman man-sabdor

shaxslarining xatti-harakatlarini g‘ayriqonuniy deb topish ha-qidagi shikoyatini ko‘rmasdan qoldirishni lozim topadi.

Yuqoridagilarni inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi kodeksining 105-106 moddalarini qo‘llab, sud

### **AJRIM QILDI:**

Arizachi “Jarxon” xususiy firmasining javobgar Toshkent shahar hokimiyati va Yakkasaroy tuman hokimiyatiga nisbatan hokim qarorini haqiqiy emas deb topish va Yakkasaroy tuman mansabdor shaxslarining xatti-harakatlarini g‘ayriqonuniy deb topish haqidagi shikoyati ko‘rmasdan qoldirilsin.

Arizani (shikoyatni) ko‘rmasdan qoldirish uchun asos bo‘lib xizmat qilgan holatlar bartaraf etilganidan keyin arizachi sudga ariza (shikoyat) bilan umumiy tartibda yangidan murojaat qilishga haqli.

Ajrim ustidan shikoyat qilinishi (protest keltirilishi) mumkin.

**Sudya**

**S.Mamanazarov**

### **NAZORAT UCHUN SAVOLLAR**

1. Ma’muriy sud ish ko‘rishda qanday hujjatlar chiqaradi?.
2. Ish ko‘rishni keyinga qoldirish asoslarini aytинг.
3. Prokuror fikrini tushuntiring.

## **22-MAVZU. MA’MURIY SUD TOMONIDAN KO‘RILADIGAN ISHLAR BO‘YICHA CHIQARILADIGAN AJRIM, QAROR VA HAL QILUV QARORLARI**

### **1-§. Ma’muriy sud hal qiluv qarori**

Sud ishni mazmunan ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha hal qi-luv qarorini qabul qiladi. Sud hal qiluv qarorini O‘zbekiston Respublikasi nomidan qabul qiladi. Sudning hal qiluv qarori sud muhokamasi tugaganidan keyin qabul qilinadi. Sudning hal qiluv qarori qonuniy va asoslantirilgan bo‘lishi kerak. U sud majlisida tekshirilgan dalillargagina asoslangan bo‘lishi mumkin.

Sudning hal qiluv qarori **kirish, bayon, asoslantiruvchi** va **xulosa** qismlaridan iborat bo‘ladi.

Hal qiluv qarorining kirish qismida hal qiluv qarorini qabul qilgan sudning nomi; sud tarkibi, sud majlisi kotibi; ish raqami, hal qiluv qarori qabul qilingan sana va joy; talab predmeti; ishda ishtirok etuvchi shaxslar, shuningdek ularning vakillari va sud protsessining boshqa ishtirokchilari ko‘rsatiladi.

Hal qiluv qarorining bayon qismida ishda ishtirok etuvchi shaxslarning arz qilingan talablari va e’tirozlar, tushuntirishlari, arizalari va iltimosnomalarining qisqacha bayoni bo‘lishi kerak.

Hal qiluv qarorining asoslantiruvchi qismida:

ishning sud tomonidan aniqlangan haqiqiy holatlari;

sudning ish holatlari to‘g‘risidagi xulosalari asoslangan dalil-lar;

sudning u yoki bu dalillarni rad qilganligining, ishda ishtirok etuvchi shaxslarning vajlarini qabul qilganligining yoki rad etganligining asoslari;

hal qiluv qarorini qabul qilishda sud amal qilgan qonun hujjatlari hamda sud ishda ishtirok etuvchi shaxslar asos qilib keltirgan qonun hujjatlarini qo‘llamaganligining asoslari ko‘rsatilishi kerak.

Hal qiluv qarorining asoslantiruvchi qismida O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining qarorlariga havolalar ko‘rsatilishi mumkin.

Hal qiluv qarorining xulosa qismida arz qilingan talablardan har birini to‘liq yoki qisman qanoatlantirish haqidagi yoki qanoat-lantirishni rad etish to‘g‘risidagi xulosalar bo‘lishi kerak.

Agar sud hal qiluv qarorini ijro etish tartibini belgilagan yoki uning ijrosini ta'minlash choralarini qabul qilgan bo'lsa, bu haqda hal qiluv qarorining xulosa qismida ko'rsatiladi.

Hal qiluv qarorining xulosa qismida sud xarajatlarini ishda ishtirok etuvchi shaxslar o'rtasida taqsimlash, hal qiluv qarori ustidan shikoyat qilish (protest keltirish) muddati va tartibi ko'rsatiladi.

## **O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI NOMIDAN HAL QILUV QARORI**

2017 yil dekabr oyining 20 kuni, Toshkent shahar Sirg'ali tumani ma'muriy sudi, jinoyat ishlari bo'yicha Toshkent shahar Sirg'ali tumani sudi binosida, ochiq sud majlisida, Toshkent shahar Sirg'ali tumani ma'muriy sudining raisi Sh.Inagamjanov raisligida, suda yordamchisi Ch.Maxmudova, arizachi Sh.Bekmamatov, manfaatdor shaxs vakili X.Yo'ldoshev va uchinchi shaxs I.S.Tursunova ishtirokida, Bekma-madov Shaxroz Akmalovichning Sirg'ali tumani sud ijrochilar bo'limi mansabdar shaxslarining xatti-harakatlarini g'ayriqonuniy deb topish va mol-mulkni sotish huquqiga qo'yilgan ta'qiq (band)ni bekor qilish to'g'risidagi shikoyat arizasi bo'yicha yuritilgan ma'muriy ishni ko'rib chiqib, quydagiilarni

### **ANIQLADI:**

Arizachi Sh.Bekmamatov sudga shikoyat arizasi bilan murojaat qilib, unda Sergeli tumani sud ijrochilar bo'limi sud ijrochilarining 25.07.2016 yildagi Bekmamatov Shaxroz Akmalovichga nisbatan sud ijrochisining O'zbekiston Respublikasi xududidan chiqish xuquqlarini cheklash va mol-mulkni sotish huquqini cheklash to'g'risidagi qarorini g'ayriqonuniy deb topib, uni bekor qilishni so'ragan.

Sud majlisida arizachi Sh.Bekmamatov shikoyat arizasida keltirgan vajlarni qo'llab-quvvatlab, fuqarolik ishlari bo'yicha Toshkent shahar Yakkasaroy tumanlararo sudining sud buyrug'iga asosan, arizachining ish haqi va boshqa daromadidan 3 nafar farzandi: 2006 yil 09 sentyabrda tug'ilgan Akmalova Jasmina Shaxroz qizi, 2008 yil 08 iyunda tug'ilgan Akmalova Laylo Shaxroz qizi, 2015 yil 30 oktyabrda tug'ilgan Ak-malova Muslima Shaxroz qizining ta'minoti uchun Tursunova Iroda Salioxona foydasiga 2016 yilda 02 maydan boshlab ½ qismda aliment undirish belgilangan. 2016 yil 25 iyul kuni sud ijrochisi U.Nazarovning qaroriga asosan arizachining chet elga chiqish huquqlarini cheklash to'g'risida qaror va 06.06.2016 yildagi №K-01/22 sonli xati bilan mol-mulkni sotish

huquqiga ta'qiq qo'yilgan. Arizachi sud ijrochisining qarorlarini g'ayriqonuniy deb topib, uni bekor qilishni so'radi.

Sud majlisida manfaatdor shaxs vakili X.Yo'ldoshev arizada keltirilgan vajlarni to'g'ri emasligini, 2016-yilda arizachidan ½ qism miqdorida aliment undirish belgilangan. Qarzdorga tegishli 2016-yil 25-iyulda ta'qiq to'g'risida qaror qabul kilingan. Hozirgi kunda ali-mentdan qarz dorlik mavjud emas. 2016-yil 18-may kuni ijro ishi qo'z-g'atilgan. Qonunning 37, 40-moddalariga asoslanib ijro ishini to'x-tatishga asoslar mavjud emas. Arizachining arizasi yuzasidan qonuniy qaror qabul qilishni so'radi.

Sud majlisida uchinchi shaxs Tursunova Iroda Salixovna arizada keltirilgan vajlarga e'tiroz bildirib, 2016-yil 13-oktabrda aliment undirish Fuqarolik ishlari bo'yicha Yakkasaroy tumanlararo sudida bekor qilingan. Hozirgi kunda alimentdan qarz dorlik mavjud emas. 527.000 so'm aliment arizachi tomonidan ixtiyoriy to'lanyapti. Yakkasaroy tumanlararo fuqarolik sudida 527.000 so'm aliment sud buyrug'i bilan bekor qilib qo'yilgan aslida 150.000 so'm aliment bekor qilinishi kerak edi. Hozirda arizachi 527.000 so'm alimentni ixtiyoriy to'lab kelyapti, 150.000 so'm bo'yicha qarz dorlik mavjud. Barcha mol-mulkka qo'yilgan ta'qilarni va arizachining chet elga chiqish huquqlarini cheklovchi ta'qiqni yechib berilishiga qarshi emasman.

Sud, arizachi, manfaatdor shaxs vakili va uchinchi shaxsning ko'r-satuvlarini tinglab, ish hujjatlarini muhokama qilib va to'plangan dalillarga huquqiy baho berib, arizachining talablarini asosli deb hisoblab, quyidagilarga ko'ra uni qanoatlantrishni lozim deb topdi.

Aniqlanishicha, arizachi sud ijrochisining 25.07.2016-yildagi qaroridan norozi bo'lib, sudga murojaat qilgan. Sud majlisida aniqlanishicha, fuqarolik ishlari bo'yicha Yakkasaroy tumanlararo sudining S-1-261/16 sonli sud buyrug'iga asosan I.S.Tursunova foydasiga uch nafar farzandining ta'minoti uchun aliment to'lash majburiyati yuklatilgan. Sud ijrochisining 25.07.2016 yildagi qarori bilan ariza-chining O'zbekiston Respublikasidan chiqish huquqi vaqtincha chek-langan. Lekin sud ijrochisi tomonidan Sirg'ali tumani 1-tonli davlat notarial idorasiga; Toshkent shahar IIBB YXXB boshlig'iga; Toshkent shahar yer tuzish ro'yxatdan o'tkazish va ko'chmas mulk davlat kadastr xizmati boshlig'i nomiga 06.06.016-yil № K-01/22 sonli xati orqali menga tegishli bo'lган mol-mulkka band (ta'qiq) solingan. Arizachining mulki ta'qiq ro'yxatiga kiritilishi vaqtida unda qarz dorlik holati bo'l-magan, u har doim alimentlarni o'z vaqtida undiruvchiga to'lab kelgan va ijrochiga tilxatlarni ko'rsatib kelgan. Arizachi bilan uchinchi Tur-sunova Iroda Salixovna bilan nikoh rasman bekor qilinmaganligi va arizachi bilan uning turmush o'rtog'i o'rtasidagi mulk ularning umumiy mulkiligi ma'lum bo'ldi.

Sergeli tumani sud ijrochilar bo'limi sud ijrochilarining 06.06.2016-yildagi №K-01/22 sonli xati bilan arizachini mol-mulkni sotish huquqiga ta'qiq (band) qo'yilgan.

Sergeli tumani sud ijrochilar bo'limi sud ijrochilarining 25.07.2016-yildagi qarori bilan arizachining chetelga chiqish huquqlariga ta'qiq (band) qo'yilgan.

Bundan ko'rindiki, sud ijrochilarining Sirg'ali tuman bo'limi mansabdon shaxslari tomonidan Sh.Bekmamadovni mol-mulkni sotish huquqi va chetelga chiqish huquqlari asossiz ravishda cheklangan va uning huquq va erkinliklari buzilgan.

O'zbekiston Respublikasi FPKning 271-moddasi 2-qismiga asosan, sud shikoyatning asosli ekanligini aniqlasa, shikoyatga sabab bo'lgan xatti-harakatni (qarorni) g'ayriqonuniy deb topadi, fuqaroning talabini qanoatlantirish vazifasini yuklaydi, unga nisbatan qo'llangan javobgarlik choralarini bekor qiladi yoki uning buzilgan huquqlari va erkinliklarini boshqa yo'llar bilan tiklaydi.

Sud yuqorida qonun talablari hamda ish holatlaridan kelib chiqqan holda shikoyatda keltirilgan talablarni asosli deb hisoblaydi va shikoyatni qanoatlantirishni hamda sud ijrochilarining Sh.Bekmamadovni mol-mulkni sotish huquqiga ta'qiq (band) qo'yish haqidagi 06.06.2016-yildagi №K-01/22 sonli xatini g'ayriqonuniy deb topishni hamda sud ijrochilarining Sirg'ali tuman bo'limi ayni vaqtida uning o'mnida tashkil etilgan majburiy ijro byurosining Sirg'ali tuman bo'limi ijrochisi U.X.Nazarovning 25.07.2016-yildagi qarzdorning chetelga chiqish huquqiga qo'yilgan ta'qiq (band)ni, Sh.Bekmamadovni mol-mulkini sotish huquqiga qo'yilgan ta'qiq (band)ni yechib berish majburiyatini yuklashni lozim deb hisoblaydi.

Sud davlat boji masalasini muhokama qilib, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 120-moddasi hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 3-noyabr-dagi 533-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Davlat boji stavkalari"ning 1-qismi "b" bandiga muvofiq muhokama qilib, 149.775 so'm davlat bojini bevosita Sirg'ali tumanı sud ijrochilar bo'limi, hozirda uning o'mnida tashkil etilgan majburiy ijro byurosining Sirg'ali tuman bo'limidan davlat foydasiga undirish lozim bo'lsa-da, ushbu tashkilot budget tashkiloti bo'lib, davlat boji uchun to'lov bevosita davlat budgetiga amalga oshirilganligi sababli, davlat bojini undirmslikni lozim topadi.

O'zbekiston Respublikasi MSIYKning 154-158 moddalariga amal qilib, sud

### **QAROR QILADI:**

Bekmamadov Shaxroz Akmalovichning arizasi qanoatlantirilsin.

Sirg'ali tumani sud ijrochilar bo'limi sud ijrochilarining 06.06.2016 yildagi Sh.Bekmamadovni mol-mulkni sotish huquqiga ta'qiq (band) qo'yish to'g'risidagi qarori g'ayriqonuniy deb topilib, bekor qilinsin.

Sirg'ali tumani sud ijrochilar bo'limi sud ijrochilarining 25.07.2016 yildagi Sh.Bekmamadovni chetelga chiqish huquqiga ta'qiq (band) qo'yish to'g'risidagi qarori g'ayriqonuniy deb topilib, bekor qilinsin.

Majburiy ijro byurosining Sirg'ali tuman bo'limi zimmasiga Bekmamadov Shaxroz Akmalovichning mol-mulkni sotish huquqi va chet elga chiqish huquqiga qo'yilgan ta'qiq (band)ni yechib berish majbu-riyati yuklatilsin.

Hal qiluv qaroridan norozi taraf qaror nusxasini olgandan so'ng 20 kun muddat ichida shu sud orqali Toshkent shahar ma'muriy sudiga appellatsiya tartibida shikoyat berishi yoki protest bildirishi mumkin.

**Raislik qiluvchi:**

**Sh.Inagamjanov**

## **2-§. Sud ajrimlari tushunchasi va turlari mazmuni**

Sud ajrimi ishni mazmunan hal etmasdan chiqariladi.

MSIYKning 168-moddasi mazmunidan kelib chiqib, birinchi instansiya sudining ajrimlarini quyidagi turlarga ajratish mumkin:

- alohida sud hujjati chiqariladigan ajrimlar;
- murakkab bo'lmaidan masalalar hal etishda o'z joyida chiqariladigan ajrimlar.

Sud ajrimi MSIYKning 169-moddasida belgilangan talablar asosida rasmiylashtirraladi.

## **3-§. Bayonnomaning mazmuni**

Sud majlisi chog'ida, shuningdek sud majlisi zalidan tashqarida ayrim protsessual harakatlar bajarilganda bayonnomaga yuritiladi.

Sud majlisining bayonnomasida quyidagilar ko'rsatiladi:

- 1) sud majlisi o'tkazilgan yil, oy, sana va joy;
- 2) ishni ko'rayotgan sudning nomi, sud tarkibi va sud majlisining kotibi;
- 3) ishning nomi va raqami;
- 4) ishda ishtirok etuvchi shaxslar va sud protsessining boshqa ishtirokchilar kelganligi to'g'risidagi ma'lumotlar;
- 5) ishda ishtirok etuvchi shaxslarga va sud protsessining boshqa ishtirokchilariga sud tomonidan ularning protsessual hu-quq va majburiyatlari tushuntirilganligi to'g'risidagi ma'lumotlar;

- 6) sud tomonidan alohida xonaga (maslahatxonaga) kirmasdan joyida chiqarilgan ajrimlar;
- 7) ishda ishtirok etuvchi shaxslarning og‘zaki arzlari va ilti-mosnomalari;
- 8) ishni ko‘rish chog‘ida sudga taqdim etilgan barcha yozma va ashyoviy dalillar, ekspertlarning yozma xulosalari haqidagi ma’lumotlar;
- 9) ishda ishtirok etuvchi shaxslarning tushuntirishlari, guvohlarning ko‘rsatuvlari, ekspertlarning o‘z xulosalarini og‘zaki tushuntirishlari, mutaxassislarning maslahatlari (tushuntirishlari), ashyoviy va yozma dalillarning ko‘zdan kechirilganligi, olib qo‘yilganligi, sxemalar tuzilganligi, video va fototasvirga olinganligi haqidagi ma’lumotlar;
- 10) alohida protsessual harakatlarni amalga oshirish chog‘ida olingan ma’lumotlar;
- 11) sud muzokaralarining mazmuni va prokurorning fikri;
- 12) sudning hal qiluv qarori, ajrimi yoki qarori o‘qib eshittirilganligi haqidagi ma’lumotlar.

### **SUD MAJLISI BAYONNOMASI**

*2017 yil 12 dekabr kuni Toshkent shahar Sirg‘ali tumani ma’muriy sudi o‘z binosida, ochiq sud majlisida, raislik etuvchi: Sh.Inagamjanov, sudya yordamchisi Ch.Maxmudova ishtirokida, arizachi Bekmamadov Shaxroz Akmalovichning Majburiy ijro byurosi Sirg‘ali tumani bo‘limi mansabdon shaxslarning xatti-harakatlari ustidan keltirilgan shikoyati bo‘yicha ma’muriy ishini ko‘rib chiqadi.*

*Raislik etuvchi sud majlisini oolib, qanday ish ko‘rilishini e’lon qildi. Sudya yordamchisi sud majlisiga taraflar kelganligini ma’lum qildi.*

*Raislik etuvchi taraflar shaxsini aniqlaydi.*

**Arizachi:** Bekmamadov Shaxroz Akmalovich – 05.05.1978 yil Qashqadaryo viloyatida tug‘ilgan, millati: o‘zbek, O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi, ma’lumoti: o‘rta, I/J: vaqtincha ishsiz Ya/J: Sirg‘ali tumani, Uchuvchilar mavzesi, 79-uy, 40-xonodon

*Shaxsi bo‘yicha savollar yo‘q.*

**Manfaatdor shaxs:** Yo‘ldoshev Xojiakbar Erkin o‘g‘li – 1993 yil Toshkent shaxrida tug‘ilgan, millati: o‘zbek, ma’lumoti: o‘rta maxsus, i/j: majburiy idro byurosining Sirg‘ali tumn bo‘limida davlat ijrochisi, ya/j: Yashnobod tumani, 1 proyezd, 1 tor, zamondosh 14-uy.

**Uchinchi shaxs:** Tursunova Iroda Salixovna – 1980 yil Qashqadaryo viloyatida tug'ilgan, millati: o'zbek, ma'lumoti: o'rta, i/j: : vaqtinchalishsiz Ya/J: Sirg'ali tumani, Uchuvchilar mayzesi, 79-uy, 40-xonodon Shaxsi bo'yicha savollar yo'q.

Raislik etuvchi O'zbekiston Respublikasi MSIYuning 143-moddasi tartibida, sud tarkibini e'lon qildi.

**Taraflar:** Sud tarkibiga ishonamiz.

Raislik etuvchi O'zbekiston Respublikasi MSIYu ning 143-moddasi tartibida, tomonlarning protsessual xuquqlarini tushuntirdi.

**Taraflar:** Huquqlarimiz tushunarli.

Raislik etuvchi O'zbekiston Respublikasi MSIYuning 143-moddasi tartibida, da'vo arizani o'qib eshittirdi.

**Arizachi:** Shikoyatni quvvatlayman.

**Arizachi ko'rsatmasi:**

Shikoyat arizasida keltirgan vajlarni qo'llab-quvvatlab, fuqarolik ishlari bo'yicha Toshkent shahar Yakkasaroy tumanlararo sudining sud buyrug'iga asosan, arizachining ish haqi va boshqa daromadidan 3 nafar farzandim 2006 yil 09 sentyabrda tug'ilgan Akmalova Jasmina Shaxroz qizi, 2008 yil 08 iyunda tug'ilgan Akmalova Laylo Shaxroz qizi, 2015 yil 30 oktyabrda tug'ilgan Akmalova Muslima Shaxroz qizining ta'minoti uchun Tursunova Iroda Salixovna foydasiga 2016 yilda 02 maydan boshlab ½ qismda aliment undirish belgilangan. 2016 yil 25 iyul kuni sud ijrochisi U.Nazarovning qaroriga asosan mening chet elga chiqish huquqlarimni cheklash to'g'risida qaror va 06.06.2016 yildagi №K-01/22 sonli xati bilan mol-mulkni sotish huquqimga ta'qiq qo'-ylgan. Sudden sud ijrochisining qarorlarini g'ayriqonuniy deb topib, uni bekor qilishni so'rayman .

-Savollar yo'q-

**Manfaatdor shaxs ko'rsatmasi:**

Arizada keltirgan vajlarga e'tiroz bildiraman, 2017 yil fevral oyidan 2 iyul oyiga qadar arizachi va uchinchi shaxsning birga yashaganligini S.Ochilova tan olmagan, arizachi tomonidan aliment pullari to'langanligi haqida kvitansiyalar taqdim qilinmaganligi sababli ijro harakatlari davomida 3 yoshgacha bo'lgan voyaga yetmagan farzandi uchun aliment undirish belgilangan. Qarzdorlik 3.071.171 so'mni tashkil etgan. Aliment pullari vaqtida to'langaganligi sababli undiruvchi S.Ochilova Sirg'ali tumani Majburiy ijro byurosiga murojaat qilib, arizachiga nisbatan jinoiy ish ochishni so'ragan, undiruvchi S.Ochilova iyun oyi uchun ham aliment olmaganligini ma'lum qilgan shundan so'ng, uning yashash manzili bo'yicha ogohlantirish xati yuborilgan, uchinchi shaxs S.Ochilovaning Sirg'ali tumani majburiy ijro byurosiga yozma ravishda davlat ijrochisining qarorini bekor qilishni so'rab murojaat qilmagan,

*shundan keyin qarzdorning chiqish huquqini vaqtinchalik cheklash to‘g‘-risidagi qaror chiqarilgan, hozirgi vaqtda F.Ochilovni alimentdan qarzi yo‘q, bildirilgan talab bo‘yicha qonuniy qaror qabul qilishni sudga havola qilaman va arizachining arizasi yuzasidan qonuniy qaror qabul qilishni so‘rayman.*

*Savollar yo‘q-*

**Uchinchi shaxs ko‘rsatmasi:**

*Arizada keltirilgan vajlarga e’tiroz bildiraman, 2016 yil 13 oktyabrda aliment undirish Fuqarolik ishlari bo‘yicha Yakkasaroy tumanlararo sudida bekor qilingan. Hozirgi kunda alimentdan qarzdorlik mavjud emas. 527.000 so‘m aliment arizachi tomonidan ixtiyoriy to‘lanyapti. Yakkasaroy tumanlararo fuqarolik sudida 527.000 so‘m aliment sud buyrug‘i bilan bekor qilib qo‘ylgan aslida 150.000 so‘m aliment bekor qilinishi kerak edi. Hozirda arizachi 527.000 so‘m alimentni ixtiyoriy to‘lab kelyapti, 150.000 so‘m bo‘yicha qarzdorlik mavjud. Barcha molmulkka qo‘ylgan ta‘qiqlarni va arizachining chet elga chiqish huquqlarini cheklovchi ta‘qiqni yechib berilishiga qarshi emasman.*

*Raislik qiluvchi o‘z joyida ajrim qildi sud majlisini xar tomonlama to‘g‘ri va aniq hal qilish uchun ishni ko‘rish 14.12.2017 yilga qoldirilsin.*

**14.12.2017 yil.**

*Sud majlisi o‘zgarmagan tarkibda da‘vom etadi.*

*Sudya yordamchisi sud majlisiga arizachi va manfaatdor shaxs vakili kelganligini ma‘lum qildi.*

**Arizachi:** Shikoyatni qanoatlantirishingizni so‘rayman.

**Manfaatdor shaxs:** Shikoyatni qanoatlantirishini sudga xavola qilaman.

**Uchinchi shaxs:** Arizani qanoatlantirishni rad qilishni so‘rayman

*Raislik etuvchi O‘zbekiston Respublikasi protsess ishtirokchilaridan qo‘sishimcha, ariza va iltimoslar bor yo‘qligini so‘radi.*

*Yo‘sishchalar, ariza va iltimoslar bo‘lmadi.*

*Raislik qiluvchi o‘z joyida ajrim qildi sud majlisini xar tomonlama to‘g‘ri va aniq hal qilish uchun ishni ko‘rish 20.12.2017 yilga qoldirilsin.*

**20.12.2017 yil.**

*Sud majlisi o‘zgarmagan tarkibda da‘vom etadi.*

*Sudya yordamchisi sud majlisiga arizachi va manfaatdor shaxs vakili kelganligini ma‘lum qildi.*

**Arizachi:** Shikoyatni qanoatlantirishingizni so‘rayman.

**Manfaatdor shaxs:** Shikoyatni qanoatlantirishini sudga xavola qilaman.

**Uchinchi shaxs:** Arizani qanoatlantirishni rad qilishni so‘rayman

*Sud O‘zbekiston Respublikasi MSIYuning 151-moddasi tartibida tomonlar muzokarasiga o‘tdi.*

*Sud O'zbekiston Respublikasi MSIYuning 151-moddasi tartibida tomonlar muzokarasiga o'tdi.*

*Raislik etuvchi alohida xonada qolib, chiqib sudning hal qiluv qarorini o'qib eshittirdi.*

*Shikoyat qilish tartibi va muhlati tushuntirildi.*

*Sud muxokamasi yakunlandi*

*Sud majlisi yopiq deb e'lon qilindi.*

*Raislik etuvchi: imzo*

*FIO*

*Sudya yordamchisi: imzo*

*FIO*

## NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. Hal qiluv qarori mazmunini ayting?
2. Sud ajrimini tushuntiring.
3. Sud majlisi bayonnamasida nimalar ko'rsatiladi.
4. Sirtdan chiqarilgan hal qiluv qarorining umumiy tartibda chiqarilgan hal qiluv qaroridan farqli va o'xshash jihatlarini ayting.

## **23-MAVZU. MA'MURIY SUD HUJJATLARINI QAYTA KO'RISHDAGI PROTSESSUAL HUJJATLAR**

### **1-§. Apellatsiya shikoyati (protesti) keltirish**

Ishda ishtirok etuvchi shaxslar, shuningdek ishda ishtirok etishga jalb qilinmagan, ammo huquqlari va majburiyatlari to‘g‘risida sud hal qiluv qarori qabul qilgan shaxslar birinchi instansiya sudsining qonuniy kuchga kirmagan hal qiluv qarori ustidan apellyatsiya shikoyati berishga, prokuror esa apellyatsiya protesti keltirishga haqli.

Sudning hal qiluv qarori ustidan to‘liq yoki qisman shikoyat qilinishi (protest keltirilishi) mumkin.

#### **Apellatsiya shikoyati (protesti):**

tuman (shahar) ma’muriy sudsining hal qiluv qarori hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyat, Toshkent shahar ma’muriy sudi tomonidan birinchi instansiyada qabul qilingan hal qiluv qarori ustidan berilganda — Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyat, Toshkent shahar ma’muriy sudi tomonidan;

hududiy harbiy sudning hal qiluv qarori va O‘zbekiston Respublikasi Harbiy sudi tomonidan birinchi instansiyada qabul qilingan hal qiluv qarori ustidan berilganda — O‘zbekiston Respublikasi Harbiy sudi tomonidan;

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi tomonidan birinchi instansiyada qabul qilingan hal qiluv qarori ustidan berilganda — O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudsining ma’muriy ishlar bo‘yicha sudlov hay’ati tomonidan ko‘riladi.

Apellyatsiya shikoyati (protesti) apellyatsiya instansiyasi suda yo‘llanadi, biroq hal qiluv qarorini qabul qilgan sudga beriladi.

Hal qiluv qarorini qabul qilgan sud shikoyat (protest) kelib tushgan kundan e’tiboran besh kunlik muddatda uni apellyatsiya instansiyasi sudiga ish bilan birga yuborishi shart.

Agar qonunda boshqa muddat belgilanmagan bo‘lsa, apellyatsiya shikoyati (protesti) hal qiluv qarori qabul qilingan kundan e’tiboran yigirma kun ichida berilishi mumkin.

Apellatsiya shikoyatini (protestini) berishning o‘tkazib yuborilgan muddati shikoyat (protest) bergen shaxsning iltimosnomasi bo‘yicha apellyatsiya instansiyasi sudi tomonidan, agar iltimosno-

ma hal qiluv qarori qabul qilingan kundan e'tiboran ikki oydan kechiktirmasdan berilgan va appellatsiya shikoyatini (protestini) berish muddati o'tkazib yuborilishining sabablari sud tomonidan uzrli deb topilgan bo'lsa, tiklanishi mumkin.

Appellatsiya shikoyatini (protestini) berishning o'tkazib yuborilgan muddatini tiklash haqida appellatsiya shikoyatini (protestini) ish yuritishga qabul qilish to'g'risidagi ajrimda ko'rsatiladi.

Appellatsiya shikoyatini (protestini) berish muddatini tiklashni rad etish haqida apellyatsiya shikoyatini (protestini) qabul qilishni rad etish to'g'risidagi ajrimda ko'rsatiladi.

Appellatsiya shikoyati (protesti) sudga yozma shaklda beriladi va shikoyatni (protestni) bergan shaxs yoki uning vakili tomo-nidan imzolanadi.

**Apellatsiya shikoyatida (protestida) quyidagilar ko'rsatilishi kerak:**

1) apellyatsiya shikoyati (protesti) yo'llanayotgan sudning nomi;

2) shikoyat (protest) berayotgan shaxsning nomi (familiyasi, ismi, otasining ismi);

3) ustidan shikoyat (protest) berilayotgan hal qiluv qarorini qabul qilgan sudning nomi, ishning raqami va hal qiluv qarori qabul qilingan sana, talabning predmeti;

4) shikoyat (protest) berayotgan shaxsning talablari hamda shikoyat (protest) bergan shaxsning qonunlar va boshqa qonun hujjalariiga, ish holatlariiga va dalillarga havola qilgan holda hal qiluv qarorini noto'g'ri deb hisoblash uchun keltirgan asoslari;

5) shikoyatga (protestga) ilova qilinayotgan hujjalarning ro'y-xati.

Apellatsiya shikoyatida shikoyat berayotgan shaxsning yoki uning vakilining telefon, faks raqamlari, elektron manzili ko'rsatilishi mumkin.

Ma'ruzachi: N.N.Islamova

Sudya: Z.G.Esanova

**A J R I M № 2-54/18**

2018-yil 24-yanvar kuni Toshkent shahar ma'muriy sudi appellatsiya instansiysi sud binosida, ochiq sud majlisida

Raislik etuvchi: sudya D.D.Djurabayev,

hay'at a'zolari: sudyalar I.Yu.Avazmetova va N.B.Usmonovalardan iborat tarkibda, A.Naimovning kotibligida, Toshkent shahar prokuroring yordamchisi I.I.Babayeva, advokat T.Fayziyevning ishtirokida, arizachi Daniyarova Nargiza Madiyarovna, Usmonpo'latov Javoxir Jaxongir o'g'li, Usmonpo'latov Jasur Jaxongir o'g'lining javobgar Toshkent shahar Shayxontohur tumani IIB migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bo'limi mansabdar shaxslarining xatti-harakatlariga nisbatan keltirgan shikoyati bo'yicha yuritilgan ma'muriy ish yuzasidan Shayxontohur tuman ma'muriy sudining 2017-yil 16-oktabrdagi hal qiluv qa-roriga nisbatan arizachilar N.Daniyarova va boshqalar tomonidan be-rilgan apellyatsiya shikoyati, Toshkent shahar prokurori tomonidan keltirilgan appellatsiya protestini ko'rib chiqib, quyidagilarni

### **A N I Q L A D I:**

Arizachi N.Daniyarova va boshqalar sudga javobgar Toshkent shahar Shayxontohur tumanı IIB M va FRB mansabdar shaxslarining xatti-harakatlariga nisbatan shikoyat bilan murojaat qilganlar.

Shayxontohur tuman ma'muriy sudining 2017-yil 16-oktabrdagi hal qiluv qarori bilan shikoyatni qanoatlantirish rad etilgan.

Arizachi Daniyarova Nargiza Madiyarovna, Usmonpo'latov Javoxir Jaxongir o'g'li, Usmonpo'latov Jasur Jaxongir o'g'lidan davlat foydasiga 149.775 so'm davlat boji undirish belgilangan.

Sudning mazkur hal qiluv qaroriga nisbatan arizachi Daniyarova Nilufar Madiyarovna, Usmonpo'latov Javoxir Jaxongir o'g'li, Usmonpo'latov Jasur Jaxongir o'g'li tomonidan apellyatsiya shikoyati berilib, unda hal qiluv qarorini bekor qilish hamda shikoyatni qanoatlantirish haqida yangi hal qiluv qarori qabul qilish so'ralgan.

Shuningdek, Toshkent shahar prokurori tomonidan apellyatsiya protesti keltirilib, unda hal qiluv qarorini bekor qilish, shikoyatni qanoatlantirish haqida yangi hal qiluv qarori qabul qilish so'ralgan.

Sudlov hay'ati mazkur ish bo'yicha ma'ruzachi suda N.Usmonovaning ma'ruzasi, Toshkent shahar prokurori yordamchisi I.I.Babayevanning fikri, taraflarning bayonotlarini tinglab, apellyatsiya shikoyatini o'rganib, ish hujjatlarini tahlil qilib, quyidagi xulosaga keladi.

O'zbekiston Respublikasi FPKning 332-moddasiga asosan, sud ishni apellyatsiya tartibida ko'rayotganida birinchi instansiya sudi hal qiluv qarorining qonuniy, asosli vaadolatli ekanligini tekshiradi. U yangi dallarni o'rganib chiqishi va yangi faktlarni aniqlashi mumkin.

Apellyatsiya instansiyasi sudi birinchi instansiya sudining hal qiluv qarorini to'liq tekshirib chiqishi shart.

Ish hujjatlaridan ko'rinishicha, fuqarolik ishlari bo'yicha Shayxontohur tumanlararo sudining 30.07.2015 yildagi hal qiluv qarori bilan

J.Tursunovning da'vo talabi qanoatlantirilib, Daniyarova Nargiza Madiyarovna, Usmonpo'latov Javoxir Jaxongir o'g'li, Usmonpo'latov Jasur Jaxongir o'g'li Shayxontohur tumani, Guliston mavzesi, 85-uy, 44-xonadondan foydalanish huquqini yo'qotgan deb topilib, doimiy ro'yxatdan chiqarilganlar. Bu haqda 30.09.2015-yilda xonodonning shakl-16 va shakl-17 kartochkalariga ma'lumot kiritilgan.

Shundan so'ng, J.Tursunov 23.10.2015-yildagi oldi-sotdi shartnomasiga asosan Shayxontohur tumani, Guliston mavzesi, 85-uy, 44-xonadondi Sadikov Ilxom Israilovichga sotib yuborganligi sababli, ayni vaqtida u mazkur turar-joy mulkdori hisoblanadi.

Jinoyat ishlari bo'yicha Shayxontohur tuman sudining 13.10.2016 yildagi hukmi bilan J.Tursunov fuqarolik ishini ko'rish jarayonida, N.Daniyarova, Javoxir va Jasur Usmonpo'latovlarning da'vo arizani tan olish haqidagi arizalari hamda undagi imzolarini qalbakilashtirganligi holati bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 228-moddasi 1-qismi va 228-moddasi 3-qismi bilan aybli deb topilgan.

Shunga ko'ra, arizachilarni turar joydan doimiy ro'yxatdan chiqarishga asos bo'lgan sudning 30.07.2015 yildagi hal qiluv qarori yangi ochilgan holat bo'yicha bekor qilinib, keyinchalik fuqarolik ishlari bo'yicha Shayxontohur tumanlararo sudining 17.05.2017 yildagi ajrimi bilan, da'vogar J.Tursunov da'vo talabidan voz kechganligi sababli, ish yuritish tugatilgan.

Arizachi N.Daniyarova, o'zi va farzandlarini Shayxontohur tumanı, Guliston mavzesi, 85-uy, 44-xonadondan doimiy ro'yxatdan chiqarishga asos bo'lgan sud qarori bekor qilingani bois, turar joydagи doimiy ro'yxatlarini tiklashni so'rab Shayxontohur tuman IIB M va FRBga ariza bilan murojaat qilgan.

Toshkent shahar Shayxontohur tuman IIB M va FRB inspektori A.Parmonovning 01.08.2017 yildagi xulosasi bilan, arizachilarni Shayxontohur tumanı, Guliston mavzesi, 85-uy, 44-xonadondagi doimiy ro'yxatini tiklash, uy-joy mulkdori I.Sadikovning roziligi bo'Imagani bois rad etilgan.

Bundan norozi bo'lib, arizachilar sudga ushbu mazmundagi shikoyat bilan murojaat qilganlar.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 266-moddasiga ko'ra, davlat organlari va boshqa organlar, shuningdek mansabdar shaxslarning hay'at tarkibi tomonidan hamda yakka tartibda amalga oshirilgan va pirovard natijada, fuqaroning huquqlari va erkinliklari buzilishiga, fuqaroning o'z huquqlari va erkinliklarini amalga oshirishi yo'lida to'sqinliklar vujudga kelishiga sabab bo'lgan xatti-harakatlari (qarorlari) sudga shikoyat qilinishi mumkin.

Birinchi instansiya sudi, nizoli turar-joy ayni vaqtida I.Sadikovning xususiy mulki ekani, u ushbu manzilga arizachilarni doimiy ro'yxatga

quyilishiga norozi ekani, uning rozilgisiz arizachilarni doimiy ro‘yxatga qo‘yish mulkdorning mulkiy huquqlarini buzilishiga olib kelishini asos qilib, shikoyatni rad etish haqida barvaqt xulosaga kelgan ko‘rinadi.

Apellyatsiya instansiysi sudi, quyidagi asoslarga ko‘ra birinchi ins-tansiya sudining ushbu xulosasi bilan kelishmaydi.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 5-yan-vardagi 4262-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasida pasport tizimi to‘g‘risida”gi Nizomning 47 bandiga ko‘ra, sudning egallab turgan turar joydan ko‘chirib yuborish yoki ushbu turar joydan foydalanish huquqi bekor bo‘lgan deb topish to‘g‘risidagi kuchga kirgan qaroriga binoan ro‘yxatdan o‘tish bekor qilinishi lozim.

Ro‘yxatdan o‘tish qonunda ko‘zda tutilgan boshqa hollarda ham sud qaroriga ko‘ra bekor qilinishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 26.02.1999-yildagi PF-2240-sonli Farmoni va O‘zbekiston Respublikasi Ichki Ishlar vazirligi-gining 29.03.1999-yildagi 55-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Pasport tizimini amalga oshirishni tartibga solish to‘g‘risida”gi Yo‘riqnomaning 48-bandida, fuqarolarni ro‘yxatdan chiqarish, sudning turar joydan foydalanish huquqidan mahrum qilish, shaxsni bedarak yo‘qolgan deb topish, notarial tartibda tasdiqlangan ishonchnoma, prokurorning ma‘muriy tartibda uydan ko‘chirish haqidagi sanksiyasi asosida amalga oshirilishi belgilangan.

Aniqlangan holatlardan ko‘rinadiki, arizachilar sud qarori asosida Shayxontohur tumani, Guliston mavzesi, 85-uy, 44-xonadondan ro‘yxatdan chiqarilganlar. Ayni vaqtda, sudning mazkur qarori yangi ochilgan holat bo‘yicha bekor qilinganligi sababli, qonuniy kuchga ega emas.

Yuqorida qayd etilgan qonun hujjatlari va normativ hujjatlarda, fuqaroning turar joyga nisbatan bo‘lgan doimiy ro‘yxatini tiklashda, mulkdorning roziligi talab etilishi nazarda tutilmagan. Shunga ko‘ra, sudlov hay’ati Shayxontohur tumani IIB M va FRB mansabdon shaxslarining, arizachilarni doimiy ro‘yxatlarini tiklash uchun, turar-joy mulkdori I.Sadikovning roziligi talab etilishi borasidagi vajlarini asossiz deb hisoblaydi.

O‘zbekiston Respublikasi FKning 11-moddasiga ko‘ra, fuqarolik huquqlari davlat organining yoki fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organining hujjatini haqiqiy emas deb topish yo‘li bilan himoya qilinadi.

Shu kodeksning 12-moddasiga ko‘ra, davlat organining yoki fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organining qonun hujjatlariga muvofiq bo‘limgan hamda fuqaroning yoki yuridik shaxsnинг fuqarolik huquqlarini va qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini buzadigan hujjati sud tomonidan haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

Sud hujjatni haqiqiy emas deb topgan taqdirda, buzilgan huquq ushbu Kodeksning 11-moddasida nazarda tutilgan usullarda himoya qilinishi kerak.

Arizachi N.Daniyarova va boshqalar shikoyatda, javobgar Shayxontohur tumani IIB M va FRB mansabдор shaxslarining aynan qaysi harakatlarini g'ayriqonuniy deb topishni va ularni huquqlarini qanday usulda tiklashni so'ramaganlar.

Sudlov hay'ati, arizachilarining shikoyatda keltirgan talablarini muhokama qilib, O'zbekiston Respublikasi FPKning 207-moddasiga asosan, shikoyatda keltirilgan talablar doirasidan chetga chiqishni, Toshkent shahar Shayxontohur tuman IIB M va FRBning arizachilarini turar joyga doimiy ro'yxatini tiklashni rad etishda ifodalangan harakatlarini g'ayriqonuniy deb topib, ularni buzulgan huquqlarini Shayxontohur tumanı IIB M va FRB inspektori A.Parmonovning 01.08.2017 yildagi xulosasini haqiqiy emas deb topish usuli bilan tiklashni, Shayxontohur tumanı IIB M va FRB mansabдор shaxslari zimmasiga arizachi N.Daniyarova, Jaxongir va Jasur Usmonpo'tovlarni Shayxontohur tumanı, Guliston mavzesi, 85-uy, 44-xonadondagi doimiy ro'yxatlarini tiklash majbu-riyatini yuklashni lozim topadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 3-noyabrdagi 533-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Davlat boji stavkalari"da, davlat boshqaruv organlari va mansabдор shaxslarning jismoniy shaxslarning haq-huquqlarini kamsituvchi g'ayriqonuniy xatti-harakatlaridan qilingan shikoyatlardan (sud qarori chiqarilayotgan tomonidan undiriladi), eng kam ish haqining bir baravari miqdorida davlat boji undiri-lishi belgilangan.

Shuningdek, sudlov hay'ati davlat boji undirish masalasini muhokama qilib, shikoyat qanoatlantirilganligini inobatga olib, javobgar Toshkent shahar IIB M va FRB inspektori A.E.Parmonovdan davlat foydasiga 172.240 so'm davlat boji undirishni lozim topadi.

O'zbekiston Respublikasi FPKning 343-moddasi 2-bandiga ko'ra, sud ishni apellyatsiya tartibida ko'rib chiqqach, o'z ajrimi bilan ishni yangidan ko'rish uchun yubormasdan hal qiluv qarorini o'zgartirishga yoxud butunlay yoki qisman bekor qilishga va yangi hal qiluv qarori chiqarishga haqli.

Shunga ko'ra, apellyatsiya instansiysi sudi mazkur ish yuzasidan qabul qilingan hal qiluv qarorini bekor qilishni, ish yuzasidan shikoyatni qanoatlantirish haqida yangi hal qiluv qarori qabul qilishni, keltirilgan apellyatsiya shikoyati va apellyatsiya protestini qanoatlantirishni lozim deb topadi.

Binobarin, O'zbekiston Respublikasi FPKning 343-moddasi 2-bandin qo'llab, apellyatsiya instansiysi sudi

#### AJRIM QILADI:

Toshkent shahar Shayxontohur tuman ma'muriy sudining 2017-yil 16-oktabrdagi mazkur ma'muriy ish yuzasidan qabul qilgan hal qiluv qarori bekor qilinib, ish yuzasidan quyidagi mazmunda yangi hal qiluv qarori qabul qilinsin.

Arizachi Daniyarova Nargiza Madiyarovna, Usmonpo'latov Javoxir Jaxongir o'g'li, Usmonpo'latov Jasur Jaxongir o'g'lining javobgar Toshkent shahar, Shayxontohur tumani IIB M va FRB mansabdar shaxslarining g'ayriqonuniy xatti-harakatlariga nisbatan keltirgan shikoyati qanoatlantirilsin.

Toshkent shahar Shayxontohur tumani IIB M va FRB mansabdar shaxslarining arizachilarni turar joyga doimiy ro'yxatlarini tiklashni rad etishda ifodalangan harakatlari g'ayriqonuniy deb topilsin.

Ularning buzulgan huquqlarini quyidagi usulda tiklansin:

Toshkent shahar Shayxontohur tumani IIB M va FRB inspektori A.Parmonovning 01.08.2017 yildagi Daniyarova Nargiza Madiyarovna, Usmonpo'latov Javoxir Jaxongir o'g'li, Usmonpo'latov Jasur Jaxongir o'g'lini Shayxontohur tumani, Guliston mavzesi, 85-uy, 44-xonadondagi doimiy ro'yxatini tiklashni rad etish haqidagi xulosasi haqiqiy emas deb topilsin.

Shayxontohur tumani IIB M va FRB mansabdar shaxslari zimmasiga arizachi Daniyarova Nargiza Madiyarovna, Usmonpo'latov Javoxir Jaxongir o'g'li, Usmonpo'latov Jasur Jaxongir o'g'lini Shayxontohur tumani, Guliston mavzesi, 85-uy, 44-xonadondagi doimiy ro'yxatlarini tiklash majburiyati yuklatilsin.

Toshkent shahar Shayxontohur tumani IIB M va FRB inspektori A.E.Parmonovdan davlat foydasiga 172.240 so'm davlat boji undirilsin.

Apellatsiya shikoyati va appellatsiya protesti qanoatlantirilsin.

Raislik etuvchi:

hay'at a'zolari: 1.

2.

*Nusxasi asliga to'g'ri, sudya:*

### **Apellatsiya shikoyatiga quyidagilar ilova qilinadi:**

1) davlat boji va pochta xarajatlari to'langanligini tasdiqlovchi hujjat;

2) ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarga apellyatsiya shikoyati va unga ilova qilingan, ushbu shaxslarda mayjud bo'lmagan hujjatlarning ko'chirma nusxalari yuborilganligini yoki topshirilganligini tasdiqlovchi hujjat;

3) apellyatsiya shikoyati vakil tomonidan imzolangan taqdirda, vakilning uni imzolashga doir vakolatini tasdiqlovchi hujjat.

Apellyatsiya protestiga ishtirok etuvchi boshqa shaxslarga protestning va unga ilova qilingan, ushbu shaxslarda mavjud bo‘lmagan hujjatlarning ko‘chirma nusxalari yuborilganligini yoki topshirilganligini tasdiqlovchi hujjat ilova qilinadi.

Arizani (shikoyatni) qaytarish yoki arizani (shikoyatni) qabul qilishni rad etish to‘g‘risidagi ajrim ustidan berilgan apellyatsiya shikoyatiga (protestiga) qaytarilgan ariza (shikoyat) va uni sudga berish chog‘ida unga ilova qilingan hujjatlar ham ilova qilinishi kerak.

## **2-§. Kassatsiya shikoyati berish (protesti keltirish) huquqi**

Ishda ishtirok etuvchi shaxslar, shuningdek ishda ishtirok etishga jalb qilinmagan, ammo huquqlari va majburiyatlari to‘g‘risida sud hal qiluv qarori qabul qilgan shaxslar birinchi instansiya sudining qonuniy kuchga kirgan, apellyatsiya tartibida ko‘rilmagan hal qiluv qarori ustidan kassatsiya shikoyati, prokuror esa kassatsiya protesti berishga haqli.

Birinchi instansiya sudining hal qiluv qarori ustidan to‘liq yoki qisman shikoyat qilinishi (protest keltirilishi) mumkin.

### **Kassatsiya shikoyati (protesti):**

tuman (shahar) ma’muriy sudining hal qiluv qarori hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyat, Toshkent shahar ma’muriy sudi tomonidan birinchi instansiyada qabul qilingan hal qiluv qarori ustidan berilganda — Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyat, Toshkent shahar ma’muriy sudi tomonidan;

hududiy harbiy sudning hal qiluv qarori va O‘zbekiston Respublikasi Harbiy sudi tomonidan birinchi instansiyada qabul qilingan hal qiluv qarori ustidan berilganda — O‘zbekiston Respublikasi Harbiy sudi tomonidan;

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi tomonidan birinchi instansiyada qabul qilingan hal qiluv qarori ustidan berilganda — O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining ma’muriyishlar bo‘yicha sudlov hay’ati tomonidan ko‘riladi.

Kassatsiya shikoyati (protesti) sudga yozma shaklda beriladi va shikoyat (protest) bergen shaxs yoki uning vakili tomonidan imzolanadi.

**Kassatsiya shikoyatida (protestida) quyidagilar ko'rsatilishi kerak:**

- 1) kassatsiya shikoyati (protesti) yo'llanayotgan sudning nomi;
- 2) shikoyat (protest) berayotgan shaxsning nomi (familiyasi, ismi, otasining ismi);
- 3) ustidan shikoyat (protest) berilayotgan hal qiluv qarorini qabul qilgan sudning nomi;
- 4) ishning raqami, hal qiluv qarori qabul qilingan sana, talab predmeti;
- 5) shikoyat (protest) berayotgan shaxsning talablari va shaxs qonunlarga yoki boshqa qonun hujjatlariga, ish holatlariha hamda dalillarga havola qilingan holda sud hujjatini noto'g'ri deb hisoblash uchun keltirgan asoslar;
- 6) shikoyatga (protestga) ilova qilinayotgan hujjatlarning ro'yxati.

Kassatsiya shikoyatida uni berayotgan shaxsning yoki uning vakilining telefon, faks raqamlari, elektron manzili ko'rsatilishi mumkin.

Ma'ruzachi: N.N.Aliyeva

Sudya: Z.Xotamov

**AJRIM № 4-15/18**

2018-yil 24-yanvar kuni Toshkent shahar ma'muriy sudi kassatsiya instansiysi sud binosida, ochiq sud majlisida

Raislik etuvchi: sudya D.B.Djurayev,

hay'at a'zolari: sudyalar I.Yu.Avazmetova va N.B.Usmonovalardan iborat tarkibda, D.Eshmuradovning kotibligida, Toshkent shahar prokuratori yordamchisi I.R.Babayanning ishtirokida, arizachi Shamsiyeva Nodira Erqulovnaning javobgar O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi Toshkent shahar Mirobod tuman bo'limi mansabdor shaxslarining xatti-harakatlariga nisbatan keltirgan shikoyati bo'yicha yuritilgan ma'muriy ish yuzasidan Shayxontohur tuman ma'muriy sudining 2017 yil 28 sentabrdagi hal qiluv qaroriga nisbatan BTPJ Mirobod tuman bo'limi tomonidan berilgan kassatsiya shikoyatini ko'rib chiqib, quyidagilarni

### **ANIQLADI :**

Sudga arizachi Shamsiyeva Nodira Erqulovna javobgar O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi Toshkent shahar Mirobod tuman bo'limi mansabdar shaxslarining xatti-harakatlariga nisbatan shikoyat bilan murojaat qilgan.

Toshkent shahar Shayxontohur tuman ma'muriy sudining 2017-yil 28-sentabrdagi hal qiluv qarori bilan arizachi Shamsiyeva Nodira Erqulovnaning shikoyati qanoatlantirilgan.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi Toshkent shahar Mirobod tuman bo'limining Shamsiyeva Nodira Erqulovnaga nisbatan 1.531.763,58 so'm miqdorida ortiqcha pensiya to'lovini undirish haqidagi qarori bekor qilingan.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi Toshkent shahar Mirobod tuman bo'limi zim-masiga arizachi Shamsiyeva Nodira Erqulovna tomonidan to'langan 1.531.763,58 so'm pul mablag'larini qaytarish majburiyati yuklatilgan.

O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi Toshkent shahar Mirobod tuman bo'limi dan davlat foydasiga 149.775 so'm davlat boji undirish belgilangan.

Sudning mazkur hal qiluv qaroriga nisbatan budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi Toshkent shahar Mirobod tuman bo'limi tomonidan kassatsiya shikoyati berilib, unda hal qiluv qarorini davlat boji undirishga oid qismini bekor qilib, pensiya bo'limini davlat bojidan ozod qilish so'ralgan.

Sudlov hay'ati mazkur fuqarolik ishi bo'yicha ma'ruzachi sudyu N.Usmonovaning ma'ruzasi, Toshkent shahar prokurori yordamchisi I.R.Babayanning fikri, taraflarning bayonotlarini tinglab, kassatsiya shikoyatini o'rganib, ish hujjatlarini tahlil qilib, quyidagi xulosaga keladi.

O'zbekiston Respublikasi FPKning 348-13-moddasiga ko'ra, ishni kassatsiya tartibida ko'rayotganida sud birinchi instansiya sudi hal qiluv qarorining qonuniy, asosli va adolatli ekanligini kassatsiya shikoyati va protestdagi vajlar hamda ular yuzasidan bildirilgan e'tirozlar doirasida tekshiradi. U yangi dalillarni o'rganib chiqishi va yangi faktlarni aniq-lashi mumkin.

Ish hujjatlaridan ko'rinishicha, arizachi Shamsiyeva Nodira Erqulovna 08.07.1998-yilda umumiyl belgilangan yoshni 5 yilga qisqartirgan holda yoshga doir imtiyozli pensiya tayinlangan.

Arizachi 55 yoshga to'lishi munosabati bilan 2002-yil avgust oyidan unga tayinlangan imtiyozli pensiya "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining 12-modda-

siga asosan, umumiy yoshga doir pensiya turiga o'tkazilgan.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2010 yil 29 noyabrdagi "Moliya vazirligi huzuridagi budgetdan tashqari Pensiya jamg'armasining tuman bo'limlarida pensiya va nafaqalar tayinlash bo'yicha rasmiylashtirilgan hujjatlarni qonuniyligi yuzasidan tekshirish ishlarini tashkil etish to'g'risida"gi 165-sonli buyrug'iغا asosan, Pensiya jamg'armasi Mirobod tuman bo'limi tomonidan 2012 yilga qadar tayinlangan pensiyalarni qonuniy ravishda tayinlanish holati yuzasidan tekshirish ishlari amalga oshirilgan.

Natijada, arizachi Shamsiyeva Nodira Erqulovna 2002-yil avgust oyida, unga dastlab tayinlangan imtiyozli pensiyadan hech bir huquqiy asoslarsiz umumiy yoshga doir pensiya turiga o'tkazilib, oqibatda dastlab tayinlangan pensiyasi miqdoriga noqonuniy ravishda qo'shimcha to'lovlar qo'shilgani aniqlangan. Unga 2002 yil avgust oyidan 2015 yilning sentyabr oyiga qadar ortiqcha to'langan pensiya miqdori 1.531.763,63 so'mni tashkil etgan.

Shamsiyeva Nodira Erqulovna 21.07.2016-yilda 9873-tonli to'lov qog'ozni orqali BTPJ Mirobod tuman bo'limiga, 17.06.2016 yildagi ogohlantirish xati asosida 1.531.763,58 so'm ortiqcha to'langan pul mablag'larini ixtiyoriy ravishda qaytarib bergen.

Garchi, arizachi ortiqcha to'langan pul mablag'lari ixtiyoriy ravishda qaytarib bergen bo'lsada, sudga ushbu mazmundagi shikoyat bilan murojaat qilgan.

Birinchi instansiya sudi, shikoyatni qanoatlantirish haqida xulosaga kelgan.

Apellyatsiya instansiyasi quydagilarga ko'ra birinchi instansiya su-dining ushbu xulosasini asosli deb hisoblaydi va hal qiluv qarorini qo'shimcha asoslantirgan holda kelishadi.

Xususan, "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining 49-moddasida, pensiyalarni qayta hisoblash pensioner pensiya miqdoriga ta'sir ko'rsatuvchi (pensiya tayinlanishigacha bo'lgan ish stoji va ish haqi to'g'risidagi hamda boshqa) qo'shimcha hujjatlarni taqdim etgan taqdirda; nogironlik guruhi o'zgarganda;

boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi oladigan oila a'zolari soni o'zgarganda; eng kam oylik ish haqi miqdorlari o'zgargan taqdirda; daromadlar indeksatsiya qilingan taqdirda amalga oshirilishi belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 08.09.2011-yildagi 252-tonli qarori bilan tasdiqlangan "Davlat pensiyalarini tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida"gi Nizomning 202-bandiga ko'ra, pensioner tomonidan sodir etilgan suiste'molliklar (ataylab noto'g'ri ma'lumotlar

bilan hujjatlar taqdim etilishi, boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi tayinlangan oila a'zolari tarkibidagi o'zgarishlar to'g'risida ma'lumotlar taqdim etilmasligi) natijasida unga pensiyalar summasining ortiqcha to'lanishi tufayli davlatga yetkazilgan zararni to'lash majburiyati pensionerga yuklanadi.

Ishni sudda mazmunan ko'rish jarayonida, ortiqcha to'langan pul mablag'lari, pensioner, ya'ni arizachi tomonidan pensiya tayinlashda suiste'molliklarga yo'l qo'yilgani tufayli yuzaga kelganligi holatlari aniqlanmagani.

O'zbekiston Respublikasi FKning 1030-moddasiga ko'ra, ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlari, pensiyalar, nafaqalar, stipendiyalar, hayot yoki sog'liqqa yetkazilgan zarar tovoni, alimentlar va fuqaroga turmush kechirish vositasi sifatida berilgan boshqa pul mablag'lari, uning tomonidan vijdonsizlik qilimmaganda va hisob-kitobda xatolar bo'limganda qaytarib berilmaydi.

O'zbekiston Respublikasi FPKning 271-moddasi 2-qismiga muvofiq, agar sud shikoyatning asosli ekanligini aniqlasa, shikoyatga sabab bo'lgan xatti-harakatni (qarorni) g'ayriqonuniy deb topadi, fuqaroning talabini qanoatlantirish vazifasini yuklaydi, unga nisbatan qo'llangan javobgarlik choralarini bekor qiladi yoki uning buzilgan huquqlari va erkinliklarini boshqa yo'llar bilan tiklaydi.

Aniqlangan holatlardan va yuqorida qayd etilgan qonun normalari talabidan kelib chiqib, sudlov hay'ati birinchi instansiya sudi arizachi Shamsiyeva Nodira Erqulovnaning shikoyatini qanoatlantirish to'g'risida qonuniy to'xtamga kelgan deb hisoblaydi.

Biroq sud, hal qiluv qarorida BTPJ Mirobod tuman bo'limi Pensiya va nafaqalarni tayinlash komissiyasining Shamsiyeva Nodira Erqulovnaga nisbatan chiqarilgan 1.531.763,58 so'm ortiqcha to'langan pensiyani undirish haqidagi qarorini bekor qilgan bo'lsada, ushbu qaror qabul qilingan sana va uni raqamini ko'rsatmagan. Shuningdek, ish hujjatlarida qaror nusxasi mavjud emas.

Ish holatlariiga aniqlik kiritish maqsadida arizachi Shamsiyeva Nodira Erqulovnaga nisbatan yuritilgan pensiya ishi ko'zdan kechirilganida, pensiya ishida ham ushbu mazmundagi qaror nusxasi mavjud emasligi aniqlandi.

Sudlov hay'ati majlisida BTPJ Mirobod tuman bo'limi vakili A. Abdujalalov tomonidan taqdim etilgan Budgetdan tashqari pensiya jamg'armasi Mirobod tuman bo'limi pensiya va nafaqalarni tayinlash komissiyasining 8.09.2016 yildagi 8-sonli qaroridan ko'rinishicha, 1.08.2002 yildan 30.04.2016 yilga qadar Shamsiyeva Nodira Erqulovna pensiya tayinlashda yo'l qo'yilgan xatolik tufayli ortiqcha to'langan

1.531.763,63 so‘m pul mablag‘larini uni pensiyasidan har oyda 50%dan chegirib qolish bilan qaytarish belgilangan. Biroq, yuqorida qayd etilganidek, ushbu pul mablag‘lari Shamsiyeva Nodira Erqulovna tomonidan mazkur qaror qabul qilinguniga qadar, ya’ni 21.07.2016 yilda to‘liq qaytarilgan.

O‘zbekiston Respublikasi FKnning 11-moddasiga ko‘ra, fuqarolik huquqlari davlat organining yoki fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organining hujjatini haqiqiy emas deb topish yo‘li bilan himoya qilinadi.

Shu kodeksning 12-moddasiga ko‘ra, davlat organining yoki fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organining qonun hujjatlariga muvofiq bo‘limgan hamda fuqaroning yoki yuridik shaxsning fuqarolik huquqlarini va qonum bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini buzadigan hujjati sud tomonidan haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

Sud hujjatni haqiqiy emas deb topgan taqdirda, buzilgan huquq ushbu Kodeksning 11-moddasida nazarda tutilgan usullarda himoya qilinishi kerak.

Birinchi instansiya sudi, ushbu qonun normalari talabiga ko‘ra davlat organi qarori haqiqiy emas deb topilishi, ularni bekor qilish yuqori turuvchi davlat organi mansabdor shaxsining vakolatiga kirishini e’tibordan chetda qoldirib, BTPJ Mirobod tuman bo‘limi pensiya va nafaqalarni tayinlash komissiyasining qarorini bekor qilish haqida to‘xtamga kelgan.

Bundan tashqari, BTPJ Mirobod tuman bo‘limi cassatsiya shikoyatida, sudning shikoyatda keltirilgan talablar yuzasidan qabul qilgan xulosasiga e’tiroz bildirmagan bo‘lsada, BTPJ Mirobod tuman bo‘limi davlat budgeti hisobidan moliyalashtirilishini inobatga olib, uni davlat bojidan ozod qilishni so‘ragan.

O‘zbekiston Respublikasi FPKning 117-moddasida, davlat organlari va boshqa organlar, shuningdek mansabdor shaxslarning xatti-harakatlari (hal qiluv qarorlari) ustidan berilgan shikoyat va arizani ko‘rish bilan bog‘liq, chiqimlar sud tomonidan, basharti sud fuqaroning shikoyati yoki arizasini qanoatlantirishni rad etish haqida hal qiluv qarori chiqarsa, ana shu fuqaroning zimmasiga yoki, agar organlar yoki mansabdor shaxs xatti-harakatlarining g‘ayriqonuniyligini aniqlagan bo‘lsa, ana shu organ yoki mansabdor shaxs zimmasiga yuklashi mumkinligi belgi-langan.

Sudlov hay’ati, O‘zbekiston Respublikasi FPKning 110-moddasi talablaridan kelib chiqib, BTPJ Mirobod tuman bo‘limi davlat budgeti hisobidan moliyalashtirilishini inobatga olib, uni davlat bojidan ozod qilish mumkin deb hisoblaydi.

Yuqorida qayd etilganlardan kelib chiqib, sudlov hay’ati birinchi instansiya sudining mazkur ish yuzasidan qabul qilgan hal qiluv qarorini, O‘zbekiston Respublikasi FPKning 207-moddasiga ko‘ra, shikoyatda

keltirilgan talablar doirasidan chetga chiqib, qonunga muvofiqlash- tırgan holda o'zgartirib, quyidagi tahrirda bayon qilishni, ya'ni BTPJ Mirobod tuman bo'limining arizachi Shamsiyeva Nodira Erqulovnadan 1.531.763,58 so'm ortiqcha to'langan pensiya to'lovlarini qaytarishda ifodalangan harakatini g'ayriqonuniy deb topishni, uning huquqlarini Budgetdan tashqari pensiya jamg'armasi Mirobod tuman bo'limi pensiya va nafaqalarni tayinlash komissiyasining 8.09.2016 yildagi 8-sonli qarorini haqiqiy emas deb topish va BTPJ Mirobod tuman bo'limi foydasiga ushbu pul mablag'larini Shamsiyeva Nodira Erqulovnaga qaytarish majburiyatini yuklash usuli bilan tiklashni, BTPJ Mirobod tuman bo'limini davlat bojidan ozod qilishni maqsadga muvofiq deb hisoblaydi.

O'zbekiston Respublikasi FPKning 34815-moddasi 2-bandiga ko'ra, sud ishni kassatsiya tartibida ko'rib chiqqach, o'z ajrimi bilan hal qiluv qarorini ishni yangidan ko'rish uchun yubormasdan hal qiluv qarorini o'zgartirishga yoxud butunlay yoki qisman bekor qilishga va yangi hal qiluv qarori chiqarishga haqli.

Sudlov hay'ati, ushbu qonun normasi talabidan kelib chiqib, birinchi instansiya sudining mazkur ma'muriy ish yuzasidan chiqarilgan hal qiluv qarorini qonunga muvofiqlashtirgan holda o'zgartirishni, kassatsiya shikoyatini qanoatlantirishni lozim deb topadi.

Binobarin, O'zbekiston Respublikasi FPKning 348-15-moddasi 2-bandini qo'llab, kassatsiya instansiyasi sudi,

### **AJRIM QILADI:**

Toshkent shahar Shayxontohur tuman ma'muriy sudining 2017-yil 28-sentabrdagi mazkur ma'muriy ish yuzasidan chiqarilgan hal qiluv qaroring xulosa qismi o'zgartirilib, quyidagi tahrirda bayon etilsin:

Arizachi Shamsiyeva Nodira Erqulovnaning javobgar O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budgetdan tashqari Pensiya jamg'armasi Toshkent shahar Mirobod tuman bo'limi mansabdor shaxslarining xatti-harakatlariga nisbatan keltingan shikoyati qanoatlantirilsin.

Budgetdan tashqari pensiya jamg'armasi Mirobod tuman bo'limining arizachi Shamsiyeva Nodira Erqulovnadan 1.531.763,58 so'm ortiqcha to'langan pensiya to'lovlarini qaytarishda ifodalangan harakati g'ayriqonuniy deb topilsin va uning huquqlari quyidagi usulda tiklansin:

Budgetdan tashqari pensiya jamg'armasi Mirobod tuman bo'limi pensiya va nafaqalarni tayinlash komissiyasining 8.09.2016-yildagi 8-sonli qarori haqiqiy emas deb topilsin.

Budgetdan tashqari pensiya jamg'armasi Mirobod tuman bo'limi zimmasiga 1.531.763,58 so'm pul mablag'larini Shamsiyeva Nodira Erqulovna qaytarish majburiyati yuklatilsin.

Budjetdan tashqari pensiya jamg‘armasi Mirobod tuman bo‘limi davlat bojidan ozod etilsin.

Kassatsiya shikoyati qanoatlantirilsin.

Raislik etuvchi:

Hay’at a’zolari: 1.

2.

*Nusxasi asliga to ‘g ‘ri, sudya:*

Kassatsiya instansiysi sudida: ishlarni bitta ish yuritishga bir-lashtirish to‘g‘risidagi; talabning predmetini yoki asosini o‘zgar-tirish haqidagi; ishda ishtirok etishga uchinchi shaxslarni jalg qiliш haqidagi qoidalar, shuningdek ushbu Kodeksda faqat birinchi instansiya sudida ishni ko‘rish uchun belgilangan boshqa qoidalar qo‘llanilmaydi.

Kassatsiya instansiysi sudining sud majlisiga sud muhokama-sini o‘tkazish vaqt va joyi haqida tegishli tarzda xabardor qilin-gan, kassatsiya shikoyatini (protestini) bergan shaxsning va ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarning kelmaganligi ishni ularning ishtirokisiz ko‘rishga to‘sinqinlik qilmaydi, bundan jamiyat yoki davlat manfaatlarini ko‘zlab qo‘zg‘atilgan ishlar bo‘yicha proku-rorning kelmaganligi mustasno.

Sud ishni kassatsiya instansiyasida ko‘rish chog‘ida birinchi instansiya sudi hal qiluv qarorining qonuniyligi va asoslantiril-ganligini tekshiradi. Sud yangi dalillarni tekshirishi va yangi fakt-larni aniqlashi mumkin.

Kassatsiya instansiyasining sudi birinchi instansiya sudining hal qiluv qarorini to‘liq hajmda tekshirishi shart.

Birinchi instansiya sudida ko‘rib chiqish predmeti bo‘lмаган yangi talablar kassatsiya instansiysi sudi tomonidan qabul qilin-maydi va ko‘rilmaydi.

### **3-§. Nazorat tartibida shikoyat (protest) keltirish huquqi**

Apellatsiya yoki kassatsiya tartibida ko‘rilgan ishlar bo‘yicha sud hujjatlari ishda ishtirok etuvchi shaxslar, shuningdek ishda ishtirok etishga jalg qilinmagan, ammo huquqlari va majburiyat-lari to‘g‘risida sud hal qiluv qarori qabul qilgan shaxslar tomoni-dan nazorat tartibida shikoyat qilinishi mumkin.

Apellatsiya yoki cassatsiya tartibida ko‘rilgan ishlar bo‘yicha sud hujjatlari quyidagilarning protestlariga ko‘ra nazorat tartibida qayta ko‘rilishi mumkin:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisi va O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori — O‘zbekiston Respublikasi har qanday sudining hal qiluv qarorlari, ajrimlari va qarorlari ustidan;

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisining o‘rribbosarlari — O‘zbekiston Respublikasi sudlarining hal qiluv qarorlari, ajrimlari va qarorlari ustidan, bundan O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Rayosatining qarorlari mustasno;

O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining o‘rribbosarlari — O‘zbekiston Respublikasi sudlarining hal qiluv qarorlari, ajrimlari va qarorlari ustidan, bundan O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Rayosatining qarorlari mustasno.

Ishlar nazorat tartibida:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining ma’muriy ishlar bo‘yicha sudlov hay’ati tomonidan — sud hujjatlari ustidan berilgan shikoyatlar (protestlar) bo‘yicha, bundan O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Rayosatining qarorlari mustasno;

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Rayosati tomonidan — ma’muriy sud ishlarini yuritish Kodeksining 249-moddasining ikkinchi qismida ko‘rsatilgan shaxslarning protestlari bo‘yicha ko‘riladi.

Nazorat shikoyati (protest) bevosita O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudiga beriladi. Nazorat shikoyati (protest) hal qiluv qarori qonuniy kuchga kirgan kundan e’tiboran bir yil ichida berilishi mumkin.

Nazorat shikoyatida (protestida) quyidagilar ko‘rsatilishi kerak:

1) nazorat shikoyati (protesti) berilayotgan sudning nomi;

2) shikoyatni (protestni) berayotgan shaxsning nomi (familiya-si, ismi, otasining ismi), uning yashash joyi yoki joylashgan yeri va ishdagi protsessual holati;

3) ishda ishtirok etayotgan boshqa shaxslarning nomi (familiyasi, ismi, otasining ismi), ularning joylashgan yeri (pochta manzili) yoki yashash joyi;

4) ishni birinchi, apellyatsiya yoki cassatsiya instansiyasida ko‘rgan sudlar va ular qabul qilgan qarorlarning mazmuni;

5) ustidan shikoyat qilinayotgan (protest keltirilayotgan) sud hujjati;

6) vajlarni keltirgan holda sud hujjatini nazorat tartibida qayta ko‘rish uchun asoslar;

7) shikoyat (protest) berayotgan shaxsnинг iltimosi.

Ishda ishtirok etmagan shaxsnинг nazorat shikoyatida qonuniy kuchga kirgan sud hujjati bilan uning qanday huquqlari, erkinliklari yoki qonuniy manfaatlari buzilganligi ko‘rsatilishi kerak.

Nazorat shikoyati shikoyat berayotgan shaxs yoki uning vakili tomonidan imzolanishi kerak. Vakil tomonidan berilgan shikoyatga ishonchnoma yoki uning vakolatini tasdiqlovchi boshqa hujjat ilova qilinadi. Protest u keltirilgan mansabdor shaxs tomonidan imzolanishi kerak.

Nazorat shikoyatiga ish bo‘yicha qabul qilingan, sud hujjatlarining ko‘chirma nusxalari va shikoyatning (protestning) ko‘chirma nusxalari ishda ishtirok etuvchi shaxslarga yuborilganligini tasdiqlovchi dalil ilova qilinadi.

## **NAZORAT UCHUN SAVOLLAR**

1. Apellatsiya shikoyat berish muddati va rasmiylashtirish tartibini ayting.

2. Kassatsiya shikoyati berish muddati va rasmiylashtirish tartibini ayting.

3. Nazorat tartibida shikoyat berish muddati va rasmiylashtirish tartibini ayting.

4. Apellatsiya, kassatsiya va nazorat instansiysi sudining farqlarini tushuntiring.

## **24-MAVZU. MA'MURIY SUD HUJJATLARINI IJRO ETISH BOSQICHIDA YURITILADIGAN PROTSESSUAL HUJJATLAR**

Sud hujjatlari qonuniy kuchga kirgach ijroga qaratiladi, bundan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda darhol ijro etish hollari mustasno.

Sud hujjatining ijrosi hal qiluv qarori (qarori) asosida, pul mablag'larini majburiy undirish bo'yicha sud hujjatining ijrosi esa sud tomonidan beriladigan ijro varaqasi asosida amalga oshiriladi.

Sud hujjati bo'yicha bitta ijro varaqasi beriladi, bundan ushbu Kodeksda nazarda tutilgan hollar mustasno. Agar sud hujjatini ijro etish turli joylarda yoxud bir nechta undiruvchi foydasiga amalga oshirilishi kerak bo'lsa, sud undiruvchilarning iltimosiga ko'ra ijro etish joyi yoxud sud hujjatining ushbu ijro varaqasi bo'yicha ijro etilishi lozim bo'lgan qismini ko'rsatgan holda bir nechta ijro varaqasini beradi.

Ijro varaqasi sud hujjatini qabul qilgan sud tomonidan beriladi. Sud hujjati qonuniy kuchga kirganidan so'ng besh kun ichida ijro varaqasi undiruvchiga beriladi yoki uning iltimosnomasiga ko'ra davlat ijrochisiga ijro etish uchun yuboriladi. Budgetga mablag'-larni undirish uchun ijro varaqasi qarzdor turgan joydag'i davlat ijrochisiga sud hujjati qonuniy kuchga kirgandan so'ng besh kun ichida yuboriladi. Ijro varaqasi elektron hujjat tarzida yuborilishi mumkin.

Ijro varaqasida quyidagilar ko'rsatilgan bo'lishi kerak:

- 1) ijro varaqasini bergan sudning nomi;
- 2) ijro varaqasi berilgan ish va uning raqami;
- 3) ijro etilishi lozim bo'lgan sud hujjati qabul qilingan sana;
- 4) undiruvchi va qarzdorning nomi (familiyasi, ismi, otasining ismi), ularning joylashgan yeri (pochta manzili) yoki yashash joyi;
- 5) sud hujjatining xulosa qismi;
- 6) sud hujjati qonuniy kuchga kirgan sana;
- 7) ijro varaqasi berilgan sana va uni ijroga taqdim etish muddati.

Ijro varaqasi suda tomonidan imzolanadi va sudning gerbli muhri bilan tasdiqlanadi.

Xatlangan mol-mulkni sotishga topshirish haqidagi  
DALOLATNOMA

«\_\_\_» 20 y.

\_\_\_ tuman (shahar)

Men, Byuroning \_\_\_\_\_ tuman (shahar) bo‘limi davlat ijrochisi  
\_\_\_\_\_,  
savdo tashkiloti vakili \_\_\_\_\_

(savdo tashkiloti vakilining F.I.O., yashash joyi haqidagi ma’lumotlar)  
ishtirokida

qarzdor

\_\_\_\_\_ ga muvofiq,

(ijro hujjatining nomi)

\_\_\_\_\_ dan undiruvchi

(qarzdorning F.I.O.)

foydasiga

\_\_\_\_\_ (undiruvchining F.I.O.)

(ijro hujjatining mazmuni)

undirish haqidagi «\_\_\_» \_\_\_\_ 20 yilda qo‘zg‘atilgan \_\_\_\_-son ijro  
ish yurituvি bo‘yicha «\_\_\_» \_\_\_\_ 20 \_\_\_\_ yildagi dalolatnomaga muvofiq  
T/r

Mol-mulkning nomi va

tavsifi

Miqdori

Narxi

1.

2.

xatlangan mol-mulkarni mazkur dalolatnomaga muvofiq \_\_\_\_\_

savdo

do‘koniga sotish uchun topshirdim.

(savdo tashkilotining nomi)

Yuqoridagi mulklarni sotish uchun qabul qilib oldm \_\_\_\_\_

(qabul qilib olgan shaxsning F.I.O., lavozimi, uning vakolatligini tasdiqlovchi hujjatlar haqida ma'lumot)

Sotish uchun topshirilgan mulkning jami narxi \_\_\_\_\_ so'm,

(so'z bilan)

bundan komission to'lov \_\_\_\_\_ foizni, ya'ni \_\_\_\_\_ so'mni tashkil etadi.

(so'z bilan) \_\_\_\_\_ so'm \* hisob raqamiga

o'tkazilishi lozim.

(so'z bilan) Yuqoridagi mol-mulklar \_\_\_\_\_ ga topshirilib,

(qabul qilib olayotgan shaxsning F.I.O., lavozimi)

u mol-mulkning saqlanishi uchun tegishli shart-sharoitlarga rioya qiliishi va ularni ta'minlashi shartligi, mol-mulkni qonunga xi洛f ravishda o'zlashtirish, rastrata qilish, yashirish, nobud qilish yoki unga shikast yet-kazganligi uchun javobgar bo'lishi, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 233-moddasiga asosan jinoiy javobgarlikka tortilishi to'g'risida ogohlantirildi.

Imzolar:

Davlat ijrochisi: \_\_\_\_\_

Savdo tashkiloti \_\_\_\_\_

## NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. Ijro ishini qo'zg'atish asoslarini tushuntiring.
2. Ijro varaqasida nimalar ko'rsatiladi.
3. Ijro ishini to'xtatib turish haqida sud chiqaradigan ajrimni yozing.
4. Ijro ishini tugatish haqida sud chiqaradigan ajrimni yozing.

## **IV BOB. JINOYAT ISHLARI BO‘YICHA SUDLARDA YURITILADIGAN PROTSESSUAL HUJJATLAR**

---

### **25-MAVZU. JINOYAT ISHINI SUDDA KO‘RISH UCHUN TAYINLASH VA SUD MAJLISINING TAYYORLOV QISMIDA RASMIYLASHTIRILADIGAN PROTSESSUAL HUJJATLAR**

O‘zbekiston Respublikasi JPKning 395-moddasida jinoyat ishini sudda ko‘rish uchun tayinlash yoxud boshqacha qaror qabul qilish tartibi belgilangan bo‘lib, unga ko‘ra sudya jinoyat ishini ayblov xulosasi bilan yoki ayblov dalolatnomasi yoxud tibbiy yo‘sindagi majburlov choralarini qo‘llash masalasini ko‘rib chiqish uchun ishni sudga yuborish to‘g‘risidagi qaror bilan qabul qilib olgach, quyidagi hal qiluv qarorlaridan birini qabul qilish to‘g‘risida qaror (ajrim) chiqaradi:

- 1) ishni sudda ko‘rish uchun tayinlash to‘g‘risida;
- 2) jinoyat ishi yuzasidan ish yuritishni to‘xtatib turish to‘g‘risida;
- 3) jinoyat ishi yuzasidan ish yuritishni tugatish to‘g‘risida;
- 4) dastlabki tergov yoki surishtiruvning texnik yo‘sindagi kamchiliklarini bartaraf etish uchun ishni ayblov xulosasi yoki ayblov dalolatnomasini tasdiqlagan prokurorga yuborish to‘g‘risida.

Ishni sudda ko‘rish uchun tayinlash to‘g‘risidagi yoxud boshqacha qaror qabul qilish haqidagi masala sudya tomonidan ish sudga kelib tushgan kundan boshlab, yetti sutkadan kechiktirilmay hal qilinishi lozim. Ushbu muddat shu sudning raisi tomonidan ko‘pi bilan uch sutkagacha uzaytirilishi mumkin.

<b>Jinoyat ishini sudda ko‘rish uchun tayinlash to‘g‘risidagi garorda quyidagilar ko‘rsatilishi lozim:</b>
--

- |    |  |
|----|--|
| 1. | qachon va qayerda chiqarilgani;  |
| 2. | sudyaning lavozimi va familiyasi;  |
| 3. | sudlanuvchining familiyasi, ismi, otasining ismi, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining unga nisbatan e’lon qilin-gan aybga doir moddasi; |

4.	ishning sud majlisida ko‘rilishi uchun yetarli asoslar borligi to‘g‘risidagi xulosa;
5.	sudlanuvchilarga nisbatan qo‘llanilgan ehtiyyot chorasi to‘g‘-risidagi qaror;
6.	sud muhokamasida davlat ayblovchisining, shuningdek himoyachining ishtiroki;
7.	sud muhokamasi o‘tkaziladigan joy va vaqt.

**Jinoyat ishini sudda ko‘rish uchun tayinlash  
to‘g‘risidagi qaror namunasi**

**Q A R O R**

**jinoyat ishini sudda ko‘rish uchun tayinlash to‘g‘risida**

2017-yil, 9-avgust kuni jinoyat ishlari bo‘yicha Toshkent shahar Chilonzor tuman sudi sudyasi (F.I.SH.), o‘z binosida, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 266-moddasi 1-qismi bilan ayblangan (F.I.SH.)ga oid jinoyat ishini o‘rganib chiqib, quyidagilarni

**ANIQLADI :**

Mazkur jinoyat ishi jinoyat ishlari bo‘yicha Toshkent shahar Chilonzor tuman sudining sudloviga tegishli bo‘lib, ushbu jinoyat ishini tugatish yoki to‘xtatishga sabab bo‘ladigan holatlar yo‘q.

Jinoyat ishini sud majlisida ko‘rilishi uchun asoslar yetarli, surishtiruv va dastlabki tergov o‘tkazish chog‘ida O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining talablariga rioya qilingan.

Ishni birlashtirishda yoki ajratishda O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 332-moddasi talablariga rioya etilgan. Ayblanuvchi (F.I.SH.)ga nisbatan garov ehtiyyot chorasi to‘g‘ri tanlangan.

Jinoyat oqibatida yyetkazilgan mulkiy zarar qoplanishini ta’minalash choralar ko‘rilgan hamda ayblov xulosasi (ayblov dalolatnomasi) O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining talablariga muvofiq tuzilgan.

Yo‘qoridagilarga asosan hamda O‘zbekiston Respublikasi JPKning 29, 395–397-moddalari qo‘llanilib,

**QAROR QILDI :**

O‘zbekiston Respublikasi JKning 266-moddasi 2-qismi bilan ayblangan (F.I.SH.)ga oid jinoyat ishini sud majlisida ko‘rish 2017 yil 16 avgust kuni soat 14-00 da tayinlansin.

(F.I.SH.)ga oid jinoyat ishi yakka tartibda, ochiq sud majlisida, jinoyat ishlari bo‘yicha Toshkent shahar Chilonzor tuman sudining binosida ko‘rilsin.

(F.I.SH.)ga nisbatan qo‘llanilgan garov ehtiyyot chorasi aslicha qoldirilsin.

Ishda davlat ayblovchisi va himoyachining ishtirokini ta’minlash maqsadida ishni ko‘rish joyi va vaqtida Chilonzor tuman prokurori hamda “Femida” advokatlik firmasi rahbariga xabar berilsin.

Sud majlisiga guvohlar ro‘yxat asosida chaqirilsin.

**Jinoyat ishlari bo‘yicha**

**Chilonzor tuman sudi sudyasi**

**F.I.SH.**

O‘zbekiston Respublikasi JPKning 399-moddasida “Jinoyat ishini sudda ko‘rish uchun tayinlash masalasini hal qilish chog‘ida ayblanuvchining yashiringanligi ma‘lum bo‘lib qolsa, sudya ushbu ayblanuvchiga nisbatan ishni yuritishni to‘xtatish va unga nisbatan qidiruv e’lon qilish to‘g‘risida ajrim chiqaradi, O‘zbekiston Respublikasi JPKning 410 va 418-moddalarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno. Ayni chog‘da ayblanuvchiga nisbatan ehtiyyot chorasi o‘zgartirish masalasi hal etiladi.”, deb ko‘rsatilgan.

Bundan tashqari, ayblanuvchining sud majlisida ishtirok etishini istisno etadigan og‘ir va davomli kasallikka chalinganligi sud-tibbiy ekspertiza xulosasi bilan tasdiqlangan taqdirda, sudya ayblanuvchi sog‘aygunga qadar ishni yuritishni to‘xtatish to‘g‘-risida ajrim chiqaradi.

**Ayblanuvchining kasalligi sababli  
jinoyat ishi yuritishni to‘xtatish  
to‘g‘risidagi ajrim namunasi**

**A J R I M**  
**ayblanuvchining kasalligi sababli jinoyat ishi yuritishni**  
**to‘xtatish to‘g‘risida**

2017-yil, 9-avgust kuni jinoyat ishlari bo'yicha Toshkent shahar Chilonzor tuman sudi sudyasi (F.I.SH.), o'z binosida, jinoyat ishini sudda ko'rish uchun tayinlash masalasini hal qilish chog'ida O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 168-moddasi 1-qismi bilan ayblangan (F.I.SH.)ga oid \_\_\_\_\_ -sonli jinoyat ishini o'rganib chiqib, quyidagilarni

### **ANIQLADI :**

Dastlabki tergov organi tomonidan (F.I.SH.), shu haqda ayblanadiki, aldash yoki ishonchni suiste mol qilish, ya'ni u 2017-yil, 28 iyul kuni Toshkent shahar Chilonzor tumani 6-dahasi 7-uy oldida 1985-yilda tug'ilgan (F.I.SH.)ning ishonchiga kirib unga matiz rusumli avtomashina olib beraman deb undan 19.430.000 so'm olib bergen va'dasini bajarmay pullarni o'z ehtiyojlariga ishlatib yuborgan.

Jinoyat ishini sudda ko'rish uchun tayinlash masalasini hal qilish chog'ida ehtiyyot chorasi sifatida garov qo'llanilgan ayblanuvchi (F.I.SH.) 2017-yil, 8-avgustdagи sud-tibbiy ekspertizasining xulosasiga ko'ra, og'ir va davomli kasallikkha chalinib, hozirda "o'tkir yurak yetishmovchiligi, kichik miokard" tashxisi bilan statsionar davolanishda ekanligi va davolanish uzoq muddatni talab qilishi sababli sud majlisiga qatnasha olmasligi aniqlandi.

O'zbekiston Respublikasi JPKning 399-moddasi 2-qismiga muvofiq, ayblanuvchining sud majlisida ishtirok etishini istisno etadigan og'ir va davomli kasallikkha chalinganligi sud-tibbiy ekspertiza xulosasi bilan tasdiqlangan taqdirda, suda ayblanuvchi sog'aygunga qadar, ishni yuritishni to'xtatish to'g'risida ajrim chiqaradi.

O'zbekiston Respublikasi JPKning 29, 399-moddalari qo'llanilib,

### **AJRIM QILDI :**

O'zbekiston Respublikasi JKNing 168-moddasi 1-qismi bilan ayblangan (F.I.SH.)ga oid \_\_\_\_\_ -sonli jinoyat ishini yuritish (F.I.SH.) sog'aygunga qadar to'xtatilsin.

**Jinoyat ishlari bo'yicha  
Chilonzor tuman sudi sudyasi**

**F.I.SH.**

O'zbekiston Respublikasi JPKning 401-moddasida jinoyat ishini tugatish asoslari belgilangan bo'lib, unga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 83-moddasida hamda 84-moddasining birinchi qismida nazarda tutilgan holatlar mav-

jud bo'lsa, sud jinoyat ishini tugatadi. Shu bilan birga sud qo'llanilgan ehtiyot choralarini, fuqaroviylar da'veoni ta'minlash choralarini bekor qiladi hamda ashyoviy dalillar masalasini hal etadi.

Sud O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 84-moddasi, beshinchi qismida nazarda tutilgan asoslar bo'yicha ishni tugatishga haqlidir. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, ishning tugatilgani to'g'risida ayblanuvchi va jabrlanuvchiga xabar beriladi.

### **Jinoyat ishini tugatish to'g'risidagi qaror namunasi**

#### **QAROR jinoyat ishini tugatish to'g'risida**

2017-yil, 9-avgust kuni jinoyat ishlari bo'yicha Toshkent shahar Chilonzor tuman sudi sudyasi (F.I.SH.), o'z binosida, jinoyat ishini sudda ko'rish uchun tayinlash masalasini hal qilish chog'ida, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 168-moddasi, 1-qismi bilan ayblangan, (F.I.SH.)ga oid \_\_\_\_\_ -sonli jinoyat ishini o'rganib chiqib, quyidagilarni

#### **ANIQLADI :**

Dastlabki tergov organi tomonidan (F.I.SH.), shu haqda ayblanadiki, aldash yoki ishonchni suiste mol qilish, ya'ni u 2017-yil, 28-iyul kuni Toshkent shahar Chilonzor tumani, 6-dahasi, 7-uy oldida 1985-yilda tug'ilgan (F.I.SH.)ning ishchigiga kirib unga matiz rusumli avtomashina olib beraman deb undan 19.430.000 so'm olib bergen va`dasini bajarmay pullarni o'z ehtiyojlariga ishlatib yuborgan.

Jinoyat ishini sudda ko'rish uchun tayinlash masalasini hal qilish chog'ida, ayblanuvchi (F.I.SH.) "o'tkir yurak yetishmovchiligi, kichik miokard" kasalligi tashxisi bilan davolanish jarayonida vafot etganligi aniqlandi.

(F.I.SH.)ning vafot etganligi Toshkent shahar Chilonzor tuman FHDYO bo'limi tomonidan berilgan 2017-yil, 8-avgustdagি \_\_\_\_\_ -sonli o'lim to'g'risidagi guvohnoma bilan tasdiqlangan.

O'zbekiston Respublikasi JPKning 401-moddasiga muvofiq, JPKning 84-moddasi birinchi qismida nazarda tutilgan holatlar mavjud bo'lsa,

sud jinoyat ishini tugatadi. Shu bilan birga, sud qo'llanilgan ehtiyot choralarini bekor qilib, ashyoviy dalillar masalasini hal etadi.

Yo'qoridagilarga asosan hamda O'zbekiston Respublikasi JPKning 29-moddasi, 84-moddasi 1-qismi 3-bandi va 401-moddasi qo'llanilib,

### **AJRIM QILDI:**

(F.I.SH.)ni O'zbekiston Respublikasi JKning 168-moddasi 1-qismi bilan ayblash haqidagi \_\_\_\_\_-sonli jinoyat ishi u vafot etganligi munosabati bilan tugatilsin.

(F.I.SH.)ga nisbatan qo'llanilgan garov ehtiyot chorasi bekor qilinsin.

Jinoyat ishi tugatilanligi to'g'risida ayblanuvchi (F.I.SH.) va jabrlanuvchi (F.I.SH.)ning yaqin qarindoshlariga xabar qilinsin.

**Jinoyat ishlari bo'yicha**

**Chilonzor tuman sudi sudyasi**

**F.I.SH.**

### **NAZORAT UCHUN SAVOLLAR**

1. Jinoyat ishini sudda ko'rish uchun tayinlash to'g'risidagi qaror qismlarini tavsiflab bering.
2. Sud majlisining tayyorlov qismida qanday sud protsessual hujjatlari rasmiylashtirilishini tushuntirib bering.
3. Jinoyat ishini tugatish to'g'risidagi qarorning qismlarini tavsiflab bering.

## **26-MAVZU. SUD MUHOKAMASIDA RASMIYLASHTIRILADIGAN PROTSESSUAL HUJJATLAR**

O'zbekiston Respublikasi JPKning 423-moddasida sud majlisida ajrim chiqarish tartibi belgilangan bo'lib, unga ko'ra sud muhokamasi vaqtida hal qilinadigan barcha masalalar yuzasidan sud ajrim chiqaradi.

Sud ehtiyyot choralarini qo'llash (o'zgartirish, bekor qilish) to'g'risidagi, ayblanuvchini, sudlanuvchini lavozimidan chetlash-tirish haqidagi, shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish to'g'risidagi, ayblanuvchining, sudlanuvchining tibbiy muassasada bo'lishi muddatini uzaytirish haqidagi, pochta-telegraf jo'natmalarini xatlash to'g'risidagi, rad qilishlar haqidagi ajrimlarni, boshqa organlarga ijro etish uchun yuboriladigan o'zga ajrimlarni, shuningdek xususiy ajrimlarni alohida xonada (maslahatxonada) chiqaradi. Bu ajrimlar alohida hujjatlar tarzida rasmiylashtiriladi va sud tomonidan imzolanadi.

Sudlanuvchining boshqa shaxslarga yoki boshqa shaxslarning sudlanuvchiga pochta-telegraf jo'natmalarini xatlash to'g'risidagi sud ajrimida aloqa muassasasi tomonidan sudga pochta-telegraf jo'natmalarini yetkazib berish haqida ko'rsatma bo'lishi lozim.

Boshqa barcha ajrimlar sudning xohishi bilan yo yo'qorida ko'rsatilgan tartibda, yoki o'z joyida chiqarilib, bu ajrim sud majlisining bayonnomasiga yozib qo'yiladi. Sud muhokamasi vaqtida sudning chiqqargan har bir ajrimi darhol e'lon qilinishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi JPKning 497<sup>1</sup>-moddasida appellatsiya tartibida shikoyat beriladigan va protest bildiriladigan qarorlar keltirib o'tilgan bo'lib, ushbu moddaning ikkinchi qismida bi-rinch instansiya sudining sud muhokamasi vaqtida chiqarilgan aj-rimi ustidan appellatsiya tartibida shikoyat berish va protest bildi-rish hukm ustidan shunday harakatlarni sodir etish bilan bir payt-ning o'zida amalga oshirilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi JPKning 497<sup>2</sup>-moddasida birinchi instansiya sudining ajrimi ustidan shikoyat berish va protest bildirish tartibi bayon qilingan va unga ko'ra ish bo'yicha birinchi instansiya sudining ajrimi ustidan u chiqarilgan kundan e'tiboran o'n kunlik muddatda JPKning 497<sup>2</sup>-moddasida nazarda tutilgan

shaxslar tomonidan xususiy shikoyat berilishi yoki xususiy protest bildirilishi mumkin.

Hukm chiqarish bilan yakunlangan sud muhokamasi chog‘ida chiqarilgan ajrim ustidan shikoyat berilgan yoxud protest bildirilgan taqdirda, hukm ustidan shikoyat berish yoki protest bildirish uchun belgilangan muddat tugagandan keyingina ish appellatsiya instansiyasi sudiga yuboriladi.

Sud muhokamasi chog‘ida chiqarilgan va dalillarni tekshirish tartibiga, protsess ishtirokchilarining iltimosnomalariga, ehtiyyot chorasiini tanlash, uni o‘zgartirish yoki bekor qilishga, shuningdek sud majlisi zalida tartib saqlashga oid ajrimlar ustidan mazkur moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan tartibda shikoyatlar berish va protestlar bildirish mumkin emas. Bularga qarshi e’tirozlar appellatsiya shikoyati yoxud appellatsiya protestiga kiritilishi mumkin.

Ushbu ish bo‘yicha taraf hisoblanmagan shaxslar ham sud ajrimi ustidan, basharti ajrim ularning manfaatlariga dahldor bo‘lsa, shikoyat berishga haqlidir.

Sudya tomonidan sudlanuvchini yuridik yordam ko‘rsatilgанинги учун haq to‘lashdan ozod qilish to‘g‘risida ajrim chiqariladi.

O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil, 6-sentyabrdagi O‘RQ – 442-sonli Qonuni qabul qilingan bo‘lib, unga ko‘ra sud ayblovni o‘zgartirishga haqli. Bunda ayblovning bir qismi yoki jinoyatning tavsifi alomatlari chiqarib tashlanadi.

Sud surishtiruvda, dastlabki tergovda e’lon qilingan ayblovni JPKning 416 va 417-moddalarida nazarda tutilgan tartibda o‘zgartirishga yoki to‘ldirishga haqli.

O‘zbekiston Respublikasi JPKning 415<sup>1</sup>-moddasida surish-tiruvning, dastlabki tergovning to‘liq emasligini yoki jinoyat-protsessual qonuni normalarining jiddiy buzilishlarini bartaraf etishi bayon qilingan. Surishtiruv, dastlabki tergovning to‘liq emasligi yoki jinoyat-protsessual qonuni normalarining jiddiy buzilishlari jinoyat ishini ko‘rib chiqish chog‘ida sud tomonidan bartaraf etiladi.

Sudlanuvchiga nisbatan ayblovni og‘irrog‘i bilan yoki haqiqiy ahvolga ko‘ra dastlabki ayblovdan jiddiy farq qiladigan ayblov bilan almashtirish uchun yoki boshqa shaxsni ishda ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilish uchun asoslar aniqlangan

taqdirda, sud surishtiruv, dastlabki tergovning to‘liq emasligini yoki jinoyat-protsessual qonuni normalarining jiddiy buzilishlarini JPKning 416 va 417-moddalariga muvofiq bartaraf etadi.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, O‘zbekiston Respublikasi JPKning 416-moddasida sudlanuvchini yangi ayblov bo‘yicha jinoiy javobgarlikka tortish uchun asoslar aniqlanganda sudning harakatlari bayon qilingan bo‘lib, unga ko‘ra agar sud tergovi vaqtida sudlanuvchining unga ilgari ayblov qo‘yilmagan jinoyatni sodir etganligini ko‘rsatuvchi holatlar aniqlansa, sud yangi ayblov bo‘yicha jinoyat ishini qo‘zg‘atish to‘g‘risidagi masalani hal qilish uchun tegishli materiallarni ilova qilgan holda bu haqda prokurorga xabar qiladi.

Yangi ayblov dastlabki ayblov bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan va ularni alohida-alohida ko‘rish imkoniyati bo‘lmagan hollarda, sudlanuvchini yangi ayblov bo‘yicha jinoiy javobgarlikka tortish asoslarini aniqlash tartibi davlat ayblovini qo‘llab-quvvatlovchi prokurorning yoki jabrlanuvchining, uning vakilining iltimosnomasiga ko‘ra amalga oshiriladi.

Iltimosnomada ayblovni to‘ldirish bilan bog‘liq protsessual harakatlarning o‘tkazilishi zarurati asoslantirilgan bo‘lishi kerak. Sud berilgan iltimosnomasi bo‘yicha uni qanoatlantirish to‘g‘risida yoki qanoatlantirmsandan qoldirish haqida ajrim chiqaradi.

Iltimosnomasi qanoatlantirilgan taqdirda, sud ajrimda ayblovni to‘ldirish to‘g‘risidagi masalani hal qilish uchun qanday holatlarga aniqlik kiritilishi lozimligini ko‘rsatadi va uning ijrosini ayblov dalolatnomasi yoki ayblov xulosasini tasdiqlagan prokurorga ijro muddatini bir oygacha doirada ko‘rsatgan holda topshiradi.

Qo‘sishimcha protsessual harakatlar natijalariga ko‘ra davlat ayblovini qo‘llab-quvvatlovchi prokuror sudga yig‘ilgan dalillarni taqdim etadi, ayblov dalolatnomasi yoki ayblov xulosasiga qo‘sishimchani o‘qib eshittiradi hamda uning ko‘chirma nusxasini sudlanuvchiga va uning himoyachisiga topshiradi.

Sud prokuror tomonidan taqdim etilgan materiallar bo‘yicha taraflarning fikrini aniqlaydi va ularni jinoyat ishiga qo‘sib qo‘yish haqida ajrim chiqaradi.

Sud sudlanuvchining, uning himoyachisining iltimosnomasi bo‘yicha ularning prokuror tomonidan taqdim etilgan qo‘sishimcha dalillar va ayblov dalolatnomasi yoki ayblov xulosasiga qo‘sish-

cha bilan tanishishga, shuningdek ushbu dalillarga va xulosaga e'tirozlar taqdim etishga bo'lgan huquqini ta'minlaydi.

Sud ushbu moddaning sakkizinch qismida ko'rsatilgan masalalarni hal qilishda sudlanuvchi va uning himoyachisi huquqlarini ta'minlash uchun sud majlisida o'n sutkagacha tanaffus e'lon qiladi.

Sudning ajrimi belgilangan muddatda ijro etilmagan yoki dastlabki ayblovni o'zgartirish yoki to'ldirish uchun dalillarni aniqlash imkoniyati mavjud bo'lмаган taqdirda, sud jinoyat ishida mavjud bo'lgan dalillar asosida sud muhokamasini davom etdiradi.

Sudning ajrimini ijro etish natijalari bo'yicha yoki sud muhokamasi jarayonida taqdim etilgan yangi dalillarni baholash va tekshirish JPKning 443-moddasi ikkinchi qismida belgilangan tartibda o'tkaziladi.

To'plangan qo'shimcha dalillar va aniqlangan holatlar asosida prokuror og'irroq ayblovga o'zgartirilgan yoki to'ldirilgan ayblov asosida yoxud haqiqiy ahvolga ko'ra dastlabki ayblovdan jiddiy farq qiladigan ayblov asosida qarorning ta'rifini taraflar muzokalarida sudga taqdim etadi.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi JPKning 417-moddasi "Jinoiy javobgarlikka tortilmagan shaxs tomonidan jinoyat sodir etilganligini ko'rsatuvchi holatlar aniqlanganda sudning harakatlari" deb nomlangan bo'lib, unga ko'ra agar sud tergovi vaqtida javobgarlikka tortilmagan shaxs tomonidan jinoyat sodir etilganligini ko'rsatuvchi holatlar aniqlansa, sud jinoyat ishini qo'zg'atish to'g'risidagi masalani hal qilish uchun tegishli materiallarni ilova qilgan holda bu haqda prokurorga xabar qiladi.

Taxmin qilinayotgan jinoyat ko'rileyotgan ish bilan uzviy bog'liq bo'lgan va bu ishlarni alohida-alohida ko'rish imkoniyati bo'lмаган hollarda, davlat ayblovini qo'llab-quvvatlovchi prokuror yoki jabrlanuvchi, uning vakili iltimosnomasiga ko'ra sud boshqa shaxsni ishda ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilish uchun asoslarni aniqlash yuzasidan tegishli protsessual harakatlarni bir oygacha bo'lgan muddatda o'tkazishni ish bo'yicha ayblov dalolatnomasi yoki ayblov xulosasini tasdiqlagan prokurorga topshirish haqida ajrim chiqaradi.

Iltimosnomada boshqa shaxsni ayblanuvchi tariqasida ishda ishtirok etishga jalb qilish bilan bog'liq protsessual harakatlarni amalga oshirish zarurati asoslantirilgan bo'lishi kerak.

Sud ajrimini ijro etish natijalariga ko‘ra davlat ayblovini qo‘l-lab-quvvatlovchi prokuror sudga yangidan tuzilgan ayblov xulosasi yoki ayblov dalolatnomasi yoxud ularga qo‘srimchani taqdim etadi hamda uning ko‘chirma nusxasini sudlanuvchiga va uning himoyachisiga topshiradi.

Ilgari e’lon qilingan ayblov boshqa shaxs ayblanuvchi tariqasida ishda ishtirok etishga jalg qilinishi munosabati bilan o‘zgartirilgan taqdirda, sud ishni ko‘rishni sud muhokamasining umumiy shartlari bo‘yicha qayta tiklaydi. Bunday hollarda sud muhokamasining muddati o‘zgartirilgan yoki to‘ldirilgan ayblov bo‘yicha ishni sudda ko‘rish qayta tiklangan paytdan e’tiboran hisoblanadi.

Ish bo‘yicha sud tergovi o‘tkazilayotganda sud sudda ishni yuritish to‘xtatib turilguniga qadar o‘tkazilgan protsessual harakatlarni takroran o‘tkazish zarurligi to‘g‘risidagi masalani taraflarning fikrini inobatga olgan holda hal qiladi.

Prokuror tomonidan ayblov dalolatnomasi yoki ayblov xulosasiga qo‘srimchalar taqdim etilganda, sud sudlanuvchiga, uning himoyachisiga prokuror tomonidan taqdim etilgan qo‘srimcha dalillar va ayblov dalolatnomasi yoki ayblov xulosasiga qo‘srimcha bilan tanishishga, shuningdek ushbu dalillarga va dalolatnomasi yoki xulosaga e’tirozlar taqdim etishga bo‘lgan huquqini ta’milaydi.

Sud prokuror tomonidan taqdim etilgan materiallar bo‘yicha taraflarning fikrini aniqlaydi va ularni jinoyat ishiga qo‘sib qo‘yish haqida ajrim chiqaradi.

Sud ushbu moddaning yettingchi qismida ko‘rsatilgan masalalarni hal qilishda sudlanuvchi, uning himoyachisi huquqlarini ta’milash uchun sud majlisida o‘n sutkagacha tanaffus e’lon qiladi.

Qo‘srimcha taqdim etilgan yangi dalillarni baholash va tekshirish JPKning 443-moddasi ikkinchi qismida belgilangan tartibda o‘tkaziladi.

To‘plangan va qo‘srimcha taqdim etilgan dalillar asosida prokuror taraflar muzokaralarida sudga to‘ldirilgan ayblovni inobatga olgan holda qarorning ta’rifini taqdim etadi.

Agar sud tergovi vaqtida bila turib yolg‘on ko‘rsatuv bergan guvoh, jabrlanuvchi yoki bila turib noto‘g‘ri xulosa bergan ekspert yoxud bila turib noto‘g‘ri tarjima qilgan tarjimon tomonidan jinoyat sodir etilganligini ko‘rsatuvchi holatlar aniqlansa, sud hukm chiqarganidan so‘ng jinoyat ishini qo‘zg‘atish to‘g‘risidagi

masalani hal qilish uchun tegishli materiallarni ilova qilgan holda bu haqda prokurorga xabar qiladi.

<b>Sud muhokamasi davomida quyidagi sud hujjatlari chiqa-rilishi mumkin:</b>	
1.	Sudlanuvchini yuridik xizmat haqini to‘lashdan ozod qilish to‘g‘risidagi ajrim;
2.	Sudlanuvchini yuridik xizmat haqini to‘lashdan ozod qilish haqidagi iltimosnomasini rad qilish to‘g‘risidagi ajrim;
3.	Ko‘rsatilgan yuridik yordam uchun to‘lov undirish to‘g‘risidagi ajrim;
4.	Garov ehtiyyot chorasi qamoqqa olish tarzidagi ehtiyyot chorasisiga o‘zgartirish to‘g‘risidagi ajrim;
5.	Qamoqqa olish tarzidagi ehtiyyot chorasi munosib xulq-at-vorda bo‘lish haqida tilxatga o‘zgartirish to‘g‘risidagi ajrim;
6.	Sudlanuvchini lavozimdan chetlashtirish to‘g‘risidagi ajrim;
7.	Sud-tibbiy ekspertizasi tayinlash va shaxsga nisbatan tibbiy muassasaga joylashtirish protsessual majburlov chorasi qo‘llash to‘g‘risidagi ajrim;
8.	Sud majlisida raislik qiluvchi sudyani rad qilish haqidagi arizani qanoatlantirmasdan qoldirish to‘g‘risidagi ajrim;
9.	Sudyani rad qilish haqidagi arizani qanoatlantirmasdan qol-dirish to‘g‘risidagi ajrim;
10.	Sud majlisi kotibini rad qilish haqidagi arizani qanoatlantirish to‘g‘risidagi ajrim;
11.	Jinoyat ishlarini birlashtirish to‘g‘risidagi ajrim;
12.	Xususiy ajrim;
13.	Jinoyat ishining bir qismini alohida ish yurituviga ajratish to‘g‘risidagi ajrim;
14.	Jinoyat ishini muhokama qilish muddatini uzaytirish to‘g‘risidagi ajrim;
15.	Jinoyat ishini ko‘rishni qaytadan boshlash to‘g‘risidagi ajrim;
16.	Sud tergovini yana davom ettirish haqidagi ajrim;

17.	Jinoyat ishining muhokamasini keyinga qoldirish to‘g‘risidagi ajrim;
18.	Jinoyat ishini ko‘rishni to‘xtatish to‘g‘risidagi ajrim va h.k.

**Sudyani rad qilish haqidagi arizani qanoatlantirmasdan  
qoldirish to‘g‘risidagi ajrim namunasi**

**AJRIM**

**sudyani rad qilish haqidagi arizani qanoatlantirmasdan  
qoldirish to‘g‘risida**

Jinoyat ishlari bo‘yicha Toshkent shahar Mirzo Ulug‘bek tuman sudi 2018-yil, iyul oyining 19-kuni, Toshkent shahar Mirzo Ulug‘bek tumani Ravnaq ko‘chasi 171-uyning 6-xonadonida, ochiq sayyor sud majlisida, quyidagi tarkibda:

Raislik etuvchi - suda (F.I.SH.)

(F.I.SH.)ning kotibligida, Toshkent shahar Mirzo Ulug‘bek tuman prokurori o‘ribbosari (F.I.SH.)ning ishtirokida,

(F.I.SH.) 1967-yil, 12-avgust kuni Toshkent tumanida tug‘ilgan, millati o‘zbek, O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi, oilali, 3 nafar farzandi bor, ma’lumoti o‘rtta, vaqtincha ishsiz, partiyasiz, deputatlikka saylan-magan, muqaddam sudlanmagan, Toshkent viloyati Zangiota tumani Choshtepa qishloq fuqarolar yig‘ini, Mevazor ko‘chasi 3-uyda ro‘yxatda turib, Toshkent shahar Mirzo Ulug‘bek tumani Ravnaq ko‘chasi 163-uy 2-xonadonda vaqtincha yashovchi, 2018-yil, 15-iyuldan boshlab «qamoqqa olish» tarzidagi ehtiyyot chorasi qo‘llanilgan, aylov xulosasi nusxasini o‘z vaqtida olgan.

O‘zbekiston Respublikasi JKning 166-moddasi 2-kismining “a, v” bandlari bilan ayblashga oid \_\_\_\_\_-sonli jinoyat ishini ko‘rish jarayonida sudlanuvchining himoyachisi advokat \_\_\_\_\_ ni rad qilish to‘g‘risidagi arizasini ko‘rib chiqib, quyidagilarni

### **ANIQLADI :**

Dastlabki tergov jarayonida to‘plangan hujjatlarga ko‘ra, (F.I.SH.) quyidagilar to‘liq fosh qilinadiki, ya‘ni u o‘zining jinoiy sheriklari (F.I.SH.), (F.I.SH.) va (F.I.SH.)lar bilan til birkirib, bir guruh bo‘lib, 2018 yil 06 may kuni soat 17-00 larda, Toshkent shahar Mirzo Ulug‘bek tumani Axmad Yugnakiy ko‘chasi “Respublika Neyroxirurgiya Ilmiy tekshirish Markazi” binosiga yaqin yo‘lakda bo‘la turib, shu yerda o‘tib ketayotgan, (F.I.SH.)ning qo‘lida bo‘lgan 250.000 so‘mlik «Samsung U800» uyali telefonini va bo‘ynida bo‘lgan 1.800.000 so‘mlik 14 gramm tilla zanjirini yo‘lib noma‘lum tomonga yashiringanlar.

Jinoyat ishlari bo‘yicha Toshkent shahar Mirzo Ulug‘bek tuman sudining 2018-yil, 15-iyuldaggi ajrimi bilan (F.I.SH.)ga nisbatan qamoqqa olish tarzidagi ehtiyyot chorasi qo‘llanilgan.

Sud majlisida sudlanuvchi (F.I.SH.)ning himoyachisi advokat \_\_\_\_\_ sudyu \_\_\_\_\_ sud majlisida ish bo‘yicha sudtibbiy ekspertizasi tayinlash haqida kiritgan iltimosnomasini asossiz qanoatlantirmasdan qoldirganligi, uning xolisligi va beg‘arazligiga shubha tug‘dirishi sababli, sudyu \_\_\_\_\_ ni rad qilish to‘g‘risida ariza bilan muroaat qildi.

Sud arizada keltirilgan vajlarni o‘rganib, davlat ayblovchisi \_\_\_\_\_, fuqaroviylar da‘vogar vakili \_\_\_\_\_ ning arizasini qanoatlantirmasdan qoldirish, sudlanuvchi (F.I.SH.) va uning himoyachisi advokat \_\_\_\_\_ ning arizasini quvvatlab, uni qanoatlantirish haqidagi fikrlarini eshitib, sudyani rad qilish haqidagi arizani asossiz deb hisoblaydi va uni qanoatlantirmasdan qoldirishni lozim topadi.

Sud majlisida advokat \_\_\_\_\_ ning sud-tibbiy ekspertizasi tayinlash haqida kiritgan iltimosnomasini sudyu tomnidan qanoatlantirilmasdan qoldirganlik holati jinoyat ishini sud majlisida ko‘rishda sudyaning xolisliga va beg‘arazliliga shubha tug‘dirmaydi, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi JPKning 76-moddasida ko‘rsatilgan, sudyaning mazkur jinoyat ishida ishtirok etishiga monelik qiladigan holatlar mavjud emas.

O‘zbekiston Respublikasi JPKning 76, 80, 423-moddalari qo‘llanilib, sud

### **AJRIM QILDI :**

Sudlanuvchi (F.I.SH.)ning himoyachisi advokat \_\_\_\_\_ ning ish bo‘yicha raislik qiluvchi sudyu \_\_\_\_\_ ni rad qilish haqidagi arizasi qanoatlantirilmasdan qoldirilsin.

Jinoyat ishini sud majlisida ko‘rish o‘sha tarkibda davom ettirilsin.

**Jinoyat ishini muhokama qilish  
muddatini uzaytirish to'g'risidagi  
ajrim namunusi**

Jinoyat ishini sudda muhokama qilish  
muddatini besh oygacha, ya'ni 2015-yil,  
16-iyulga qadar

**"U Z A Y T I R A M A N"** O'zbekiston  
Respublikasi Oliy sudi raisining  
o'rribosari

\_\_\_\_\_ "\_\_\_\_" iyun 2015-  
yil

**AJRIM**

**Jinoyat ishini muhokama qilish muddatini  
uzaytirish to'g'risida**

Jinoyat ishlari bo'yicha Toshkent shahar Mirzo Ulug'bek tuman  
sudi, 2015-yil, iyun oyining 16-kuni, Toshkent shahar Mirzo Ulug'bek  
tumani Ravnaq ko'chasi 171-uyning 6-xonadonida, ochiq sayyor sud  
majlisida, quyidagi tarkibda:

Raislik etuvchi - suda (F.I.SH.)

(F.I.SH.)ning kotibligida, Toshkent shahar Mirzo Ulug'bek tuman  
prokurori o'rribosari (F.I.SH.)ning ishtirokida, O'zbekiston  
Respublikasi JKning 166-moddasi 2-qismining «a» bandi bilan  
ayblangan (F.I.SH.)ga oid jinoyat ishini o'rganib chiqib, quyidagilarni

**ANIQLADI :**

Dastlabki tergov jarayonida to'plangan hujjatlarga ko'ra, (F.I.SH.)  
20\_\_ yil \_\_\_\_ kuni soat 16:00 larda Toshkent shahri,  
Mirzo Ulug'bek tumani, Yalang'och dahasi 120-uyning 4-yo'lagi  
oldida bo'la turib, o'zgalar mulkin ochiqdan-ochiq talon-taroj qilish  
yo'li bilan boylik orttirish maqsadida voyaga yetmagan 2001-yilda  
tug'ilgan Samatova Madina Xusanovnani to'xtatib, unga nisbatan  
hayoti va sog'lig'i uchun xavfli bo'limgan zo'rlik ishlatiib, egnidagi  
kurtkasining o'ng cho'ntagida bo'lgan narxi 825.000 so'mlik «Nokia-  
5800» rusumli uyali telefon apparatini olib, voqeа joyidan yashiringan.

Dastlabki tergov organi tomonidan ushbu holat O'zbekiston Respublikasi JKning 166-moddasi 2-qismining «a» bandida nazarda tutilgan o'zganing mol-mulkini ochiqdan-ochiq, hayoti va sog'ligi uchun xavfli bo'lмаган zurlik ishlatib talon-taroj qilishda ifodalangan jinoyat belgilariga ko'ra to'g'ri ayb e'lon qilingan.

Jinoyat ishlari bo'yicha Toshkent shahar Mirzo Ulug'bek tuman sudining 2015-yil, 5-fevraldag'i qarori bilan jinoyat ishlari sudda ko'rish 2015-yil, 13-fevral kuniga tayinlangan.

2015-yil, 16-fevral kunidan 24-mart kuniga qadar sudlanuvchi va sud muhokamasiga chaqirtirilgan guvohlar so'roq qilingan.

O'zbekiston Respublikasi JPKning 405-moddasida ko'rsatilgan 2 oylik jinoyat ishlari ko'rish muddati 2015-yilning 16-aprel kuni tugashi inobatga olinib, jinoyat ishlari bo'yicha Toshkent shahar Mirzo Ulug'bek tuman sudining ajrimiga muvoofiқ, jinoyat ishlari bo'yicha Toshkent shahar sudi raisi tomonidan, jinoyat ishlari ko'rish muddati 4 oygacha, ya'ni 2015 yil 16 iyun kuniga qadar uzaytirilgan.

Sud majlisida sudlanuvchi (F.I.SH.), bir necha guvohlar so'roq qilingan va ish hujjatlari o'rganilgan bo'lsa-da, ish bo'yicha qo'shimcha guvohlarni so'roq qilish, ish hujjatlarini o'rganish va baholash uchun mutaxassislar jalb qilish, o'tkazilgan tekshirish va ekspertiza xulosalarini olish, taraflar muzokarasini o'tkazish, sud majlisida aniqlangan dalillarga baho berib, ish bo'yicha qaror qabul qilish uchun ma'lum muddat talab etilmoqda. Biroq, jinoyat ishlari sud majlisida ko'rish muddati 2015-yil, 16-iyun kuni tugaydi.

Shunga ko'ra, sud jinoyat ishining ko'p voqealigi va murakkabligini inobatga olib, ish bo'yicha isbotlanishi lozim bo'lган barcha holatlarni sinchkovlik bilan, har tomonlama, to'la va xolisona tekshirib chiqish uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisining o'rinnbosariga ishlari ko'rish muddatini besh oygacha uzaytirish to'g'risida taqdimgnomaga kiritishni lozim topdi.

O'zbekiston Respublikasi JPKning 405 va 423-moddalari qo'llanilib, sud

#### **AJRIM QILDI :**

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisining o'rinnbosari nomiga O'zbekiston Respublikasi JKning 166-moddasi 2-qismining «a» bandi bilan ayb e'lon qilingan (F.I.SH.)ga nisbatan - \_\_\_\_\_ sonli jinoyat ishlari sudda muhokama qilish muddatini besh oygacha, 2015- yil, 16-iyul kuniga qadar uzaytirish haqida iltimosnama kiritilsin.

Jinoyat ishlari sud majlisida ko'rish o'sha tarkibda davom ettirilsin.

**Jinoyat ishlari bo'yicha**

**Mirzo Ulug'bek tuman sudi sudyasi** (imzo)

**F.I.SH.**

## **NAZORAT UCHUN SAVOLLAR**

1. Sud muhokamasi davomida qanday sud hujjatlari chiqarilishi mumkin?
2. Jinoyat ishini muhokama qilish muddatini uzaytirish to‘g‘risidagi ajrimni tavsiflab bering.
3. Jinoyat ishining muhokamasini keyinga qoldirish to‘g‘risidagi ajrimni tavsiflab bering.

## **27-MAVZU. SUD HUKMI**

O‘zbekiston Respublikasi JPKning 54-bobi hukmga bag‘ishlangan. Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2014-yil, 23-maydagi 07-sonli «Sud hukmi to‘g‘risida»gi qarori qabul qilingan bo‘lib, unda odil sudlovni amalgamoshirishda qonuniylikni mustahkamlash, fuqarolarning huquqlari va manfaatlarini himoya qilish hamda sud hukmlari sifatini oshirish yuzasidan tushuntirishlar berilgan.

Sud hukmi, jinoyat sodir etgan har bir shaxsga adolatli jazo berilishi yoki boshqa ta’sir chorasi qo‘llanilishi hamda aybi bo‘l-magan hech bir shaxs javobgarlikka tortilmasligi va hukm qilin-masligi haqidagi jinoyat sud ish yurituvining asosiy vazifalarini hal etadigan, sud muhokamasiga yakun yasaydigan O‘zbekiston Respublikasi nomidan chiqariladigan odil sudlovning muhim hujjatidir.

Sudlar hukm chiqarishda, O‘zbekiston Respublikasining Konsitutsiyasi va JPKda belgilangan sudning hukmi qonuniy, asosli va adolatli bo‘lishi, faqat sudlar tomonidan, oshkoraliq, jinoyat ishlarini hay’atda va yakka tartibda ko‘rib chiqilishi, sudyalar maslahatlashuvining sir tutilishi, odil sudlovni fuqarolarning qonun va sud oldida tengligi asosida, shaxsnинг sha’ni va qadr-qimmatini hurmat qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini muhofaza qilish, ish yuritilayotgan tilni bilmaydigan yoki yetarli darajada tushunmaydigan protsess ishtirokchilariga o‘z ona tilida yoki o‘zi biladigan boshqa tilda va tarjimon yordamidan foydalanishini ta-minlash, taraflarning o‘zaro tortishuvi, dalillarning bevosita va og‘zaki usulda tekshirilishi, aybsizlik prezumpsiyasi asosida chiqarilishi va ish bo‘yicha haqiqiy holatni aniqlash to‘g‘risidagi jinoyat protsessining muhim prinsiplariga amal qiladilar. Ushbu prinsiplardan har qanday asoslarga ko‘ra cheklanish, hukmni qonuniy emas deb topishga asos bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi JPKning 462-moddasiga muvofiq, sud ayblov yoki oqlov hukmi chiqarishi mumkin. JPKning 23-moddasida nazarda tutilgan aybsizlik prezumpsiyasi prinsipi hukm turini aniqlovchi mezon sifatida e’tirof etilgan.

O‘zbekiston Respublikasi JPKning 465-moddasida hukmni tuzish tartibi bayon qilingan bo‘lib, unga ko‘ra JPKning 457–459-moddalarida nazarda tutilgan masalalar hal etilganidan so‘ng sud hukmni tuzishga kirishadi. Sudda ish qaysi tilda ko‘rilgan bo‘lsa, hukm shu tilda, aniq va tushunarli iboralarda bayon qilinadi va **kirish, tavsfif hamda qaror qismlaridan** iborat bo‘ladi.

Hukm uni chiqarishda qatnashgan sudyalardan biri yoki hukmni yakka o‘zi chiqargan suda tomonidan qo‘lda yoki texnik vositalardan foydalangan holda yozilishi lozim. Hukmga kiritilgan tuzatishlar hukm e’lon qilinishidan oldin izohlanishi va sudyaning (sudyalarning) imzosi bilan tasdiqlanishi lozim.

**O‘zbekiston Respublikasi JPKga ko‘ra, sud quyidagi ayblov hukmi turlarini chiqarishi mumkin:**

1.	jazo tayinlash bilan ayblov hukmi;
2.	jazodan ozod qilish bilan ayblov hukmi;
3.	jazo tayinlamasdan ayblov hukmi.

**Sud quyidagi hollarda jazodan ozod qilib, ayblov hukmini chiqaradi, basharti:**

1) mazkur hukm bilan sudlanuvchiga tayinlangan jazoni qo‘llashdan ozod qiluvchi amnistiya akti e’lon qilingan bo‘lsa;

2) shaxsning hukm chiqquniga qadar qamoqda yoki uy qamog‘ida bo‘lgan vaqtin Jinoyat kodeksining 62-moddasida nazarda tutilgan ushlab turishni, qamoqqa olishni yoki uy qamog‘ini hisobga olish qoidalarini nazarda tutib, sud tomonidan tayinlangan jazo chorasiaga teng yoxud bu choradan ortiq bo‘lsa;

**Sud quyidagi hollarda jazo tayinlamasdan ayblov hukmini chiqaradi, basharti:**

1) mahkum sodir etgan jinoyat uchun jazo tayinlashni istisno etadigan amnistiya akti e’lon qilingan bo‘lsa;

2) mazkur jinoyat uchun ayblanuvchi tariqasida ishda ishtirok etishga jalb qilish muddati o‘tib ketgan bo‘lsa;

3) hukm chiqariladigan vaqtga kelib, qilmish ijtimoiy xavf-lilagini yo‘qotsa yoki uni sodir etgan shaxs ijtimoiy xavfli bo‘lmay qolsa;

- 4) mahkumning tuzalishiga jamoat birlashmalari va jamoalar tomonidan qo'llaniladigan jamoat ta'sir choralari yoki ma'muriy jazo choralari ko'rish yo'li bilan erishish mumkin bo'lsa;
- 5) hukm chiqarish vaqtigacha sudlanuvchi vafot etgan bo'lsa;
- 6) O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 71-moddasiiga muvofiq shaxsni o'z qilmishiga amalda pushaymon bo'lganligi tufayli jazodan ozod qilish uchun asoslar mavjud bo'lsa.

**Jazo tayinlash bilan bog'liq  
ayblov hukmi namunasi**

**HUKM  
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI NOMIDAN**

Jinoyat ishlari bo'yicha Toshkent shahar Mirzo Ulug'bek tuman sudi 2012-yil, oktabr oyining 15-kuni, sud binosida, ochiq sud majlisida, quyidagi tarkibda:

Raislik etuvchi - sudyu \_\_\_\_\_, \_\_\_\_\_ ning kotibligida, \_\_\_\_\_ ning tarjimonligida, Toshkent shahar Mirzo Ulug'bek prokurori o'rinnbosari \_\_\_\_\_ ning ishtirokida, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining 168-moddasi 2-qismining «b» bandi bilan ayblangan

1978-yil, 22-aprel kuni Toshkent shahrida tug'ilgan, millati o'zbek, O'zbekiston Respublikasi fuqarosi, ma'lumoti o'rta, oilali, 2 nafar farzandi bor, partiyasiz, deputat emas, davlat mukofotlari olmagan, harbiy xizmatga majbur, muqaddam: 1). JIB Toshkent shahar Shayxontohur tuman su-dining 08.07.2007 yilgi hukmiga ko'ra O'zR JKning 25,168-moddasining 3-qismi bilan aybli deb topilib, 1 yil muddatga axloq tuzatish ishlari jazosi tayinlangan; 2). JIB Toshkent shahar Olmazor tuman sudining 18.06.2012 yilgi ajrimiga ko'ra O'zR JKning 168-moddasi 2-qismi «b» bandi va 28,211-moddasi 1-qismi bilan ayplash haqidagi jinoyat ishi to'xtatilgan va qidiruv e'lon qilingan, Toshkent shahar, Yunusobod tumani, 17-dahasi, 26-uy, 29-xonadonda yashovchi, ayblov xulosasi

nusxasini o‘z vaqtida olgan ehtiyot chorasi sifatida «garov» qo‘llanilgan (F.I.SH.)ga oid \_\_\_\_\_-sonli jinoyat ishini ko‘rib,

Sud sudlanuvchi va jabrlanuvchining ko‘rgazmalarini eshitib, dastlabki tergov jarayonida to‘plangan dalillarni ko‘zdan kechirib, sud majlisida aniqlangan holatlarni muhokama qilib, taraflarning muzokarasini, sudlanuvchining himoya va oxirgi so‘zlarini tinglab, qo‘yidagilarni

#### **ANIQLADI:**

2011-yil, 20-sentyabr kuni (F.I.SH.), aldash yoki ishonchni suiste mol qilish yo‘li bilan o‘zganing mulkini qo‘lga kiritish maqsadida Mirzo Ulug‘bek tumani Qorasuv-4 dahasi 2-uy 191-xonadonda yashovchi (F.I.SH.)ga o‘zini M.Ulugbek tumangaz foydalanish xizmatida gaz xo‘jaligi nazoratchisi bo‘lib ishlashi to‘g‘risidagi hujjatlarni ko‘rsatib, (F.I.SH.)ga tegishli bo‘lgan narxi 110.000 so‘mlik «gaz» o‘lchagichni 12-15 kun ichida davlat standartdan o‘tkazib berishni va’da qilib, (F.I.SH.)dan xizmat haqi uchun 15.000 so‘m pul olgan, lekin bergen vadasini bajarmagan.

Sud majlisida sudlanuvchi (F.I.SH.) unga e’lon qilingan aybga to‘liq iqror ekanligini bildirib quyidagilarni, ya’ni haqiqatdan ham u 2011-yil, 20-sentyabr kuni Qorasuv-4 daxasi 2-uy 191-xonadonga borib, (F.I.SH.)ga o‘zini M.Ulug‘bek tuman gazda nazoratchi bo‘lib ishslash-ligini aytganligini va gaz o‘lchagichni davlat standartidan o‘tkazib berish uchun gaz o‘lchagichlikni va 15.000 so‘m pullarini olib ketganligini, hozirda qilgan ishidan pushaymonligini, moddiy va ma‘naviy zararni to‘liq qoplaganligini ko‘rsatib, unga yyengilroq jazo tayinlashni so‘radi.

Sud majlisida jabrlanuvchi (F.I.SH.) quyidagilarni, ya’ni 2012-yil, 20-sentyabr kuni soat taxminan 13:00 larda u yashaydigan Mirzo Ulug‘bek tumani Qorasuv-4 dahasi 2-uy 191-xonadonga o‘zini tuman gaz ta‘minoti nazoratchisi deb tanishtirgan (F.I.SH.) uydagi gaz o‘lchagichni davlat standartidan o‘tkazib berishni aytganligini, u anchadan beri gaz o‘lchagichni davlat standartidan o‘tkaza olmayotganligi sababli bu taklifga rozi bo‘lganligini, shundan so‘ng (F.I.SH.) uydagi gaz o‘lchagichni yechib olib, o‘rniga boshqa o‘lchagichni o‘rnatganligini, so‘ngra (F.I.SH.) gaz o‘lchagichni davlat standartidan o‘tkazish uchun undan 15.000 so‘m miqdorida pul so‘raganida, u (F.I.SH.)ga so‘ralgan 15.000 so‘m miqdorida pulni bergenligini, shundan so‘ng (F.I.SH.) har xil baxonalar bilan undan qochib yurganligini, so‘ngra qo‘ng‘iroqlariga javob bermay qo‘yanligini, hozirda sudlanuvchi (F.I.SH.) unga nisbatan yyetkazilgan

moddiy va ma'naviy zararni qoplaganligini ko'rsatib, unga nisbatan yyengilroq jazo tayinlashni so'radi.

Sud majlisida tomonlarning roziligi bilan tergovda bergen ko'r-satmasi o'qib eshittirilgan guvoh (F.I.SH.) jabrlanuvchi (F.I.SH.) bergen ko'rsatmaga o'xshash ko'rsatma berdi.

Sudlanuvchi (F.I.SH.)ning sodir qilgan jinoyatdagi aybi u e'lon qilingan aybga to'liq iqrorlik bildirgan bo'lsada, o'zining va jabrlanuvchining ko'rsatuvarlardan tashqari quyidagilar bilan:

- jabrlanuvchi (F.I.SH.)ning arizasi;
- 4.08.2012-yilda tuzilgan dalolatnomasi;
- voqeja joyining chizmasi;
- voqeja joyini ko'zdan kechirish bayonnomasi;
- narsani o'z ixtiyori bilan qaytarish bayonnomasi;
- narsani ko'zdan kechirish bayonnomasi va unga ilova, fotojadval va ish bo'yicha to'plangan hamda sud tergovida O'zbekiston Respublikasi JPKning 95-moddasiga muvofiq sud tergovida tekshirilgan dalillar bilan ham tasdiqlanadi.

Sud sudlanuvchi va jabrlanuvchining ko'rsatuvarlarini eshitib, ish materiallarini o'rganib chiqib, tergov organi tomonidan (F.I.SH.)ning harakati O'zbekiston Respublikasi JKning 168-moddasi 2-qismining «b» bandi bilan firibgarlik, ya'ni aldash yoki ishonchni suiste'mol qilish yo'li bilan o'zganing mulkini yoki o'zganing mulkiga bo'lgan huquqni tak-roran qo'lga kiritishda ifodalangan jinoyat alomatlari bilan to'g'ri malakalangan deb hisoblaydi. Biroq, sudlanuvchining ayblovidan ortiqcha qo'yilgan «xavfli retsivist tomonidan» jinoyat belgisini olib tashlash lozim. Chunki sodir qilgan oxirgi jinoyati uchun sudlanuvchi jinoi javobgarlikka tortilmagan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2006-yil, 03-fevral kunidagi «Sudlar tomonidan jinoyat uchun jazo tayinlash amaliyoti to'g'risida»gi 1-sonli qarorining 3-bandida «JKning 8, 54-moddalari mazmuniga ko'ra, jazo adolatli bo'lishi - har bir holatda individual tayinlanishi, jinoyatning xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasiga, aybdorning shaxsiga, shuningdek, jazoni yyengillashtiruvchi va og'ir-lashtiruvchi holatlariga muvofiq bo'lishi kerak»ligi ko'rsatilgan.

Sud, yo'qorida qayd etilgan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi Qarorining rahbariy ko'rsatmalarini e'tiborga olib, sudlanuvchi (F.I.SH.)ga nisbatan jazo tayinlashda sodir etilgan jinoyatning xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasini hamda qilmishining sabablarini va shaxsini inobatga olib, sudlanuvchi jinoyatni g'araz niyatlarda sodir qilganligi aybni og'irlashtiruvchi holatlar deb baholab, jabrlanuvchiga yyetkazilgan moddiy va ma'naviy zarar qoplanganligi, ijobiy tav-siflanishi, qaramog'ida 2 nafar

farzandlari borligi aybni yengillash-tiruvchi holatlar deb topib, O'zbekiston Respublikasi JKning 168-moddasi 4-qismi talablariga rioya qilgan xolda ozodlikdan maxrum qilish bilan bog'liq bo'limgan jazoni, ya'ni axloq tuzatish ishlari jazosini tayinlashlikni maqsadga muvofik deb xisoblaydi.

Yo`qoridagilarga asosan va O'zbekiston Respublikasi JPKning 454-457, 460, 463, 465-468, 471, 473, 474 -moddalari qo'llanilib, sud

### **HUKM QILDI :**

(F.I.SH.) O'zbekiston Respublikasi JKning 168-moddasi 2-qismi «b» bandida nazarda tutilgan jinoyatni sodir etganlikda aybli deb topilsin va unga shu moddaga asosan oylik ish haqidan davlat foydasiga 20% ushlab qolish sharti bilan 2 (ikki) yil muddatga axloq tuzatish ishlari jazosi tayinlansin.

Tayinlangan jazo mazkur jazo ijrosini nazorat qiluvchi organlar belgilab beradigan joylarda o'tattirlisin.

Jazoni o'tash muddati hukm ijroga qaratilgan kundan hisoblansin.

Jazoni ijrosini nazorat qilish Toshkent shahar Yunusobod tuman IIBga yuklatilsin.

Hukm qonuniy kuchga kirganidan so'ng (F.I.SH.) nisbatan qo'llanilgan «garov » ehtiyyot chorasi bekor qilinsin va garovga qo'yuvchi (F.I.SH.)ga 3.500.000 so'm qaytarilsin.

O'zbekiston Respublikasi JPKning 497<sup>2</sup>,497<sup>4</sup>-moddalariga asosan hukm ustidan hukm e'lon qilingandan so'ng 10 sutka ichida, mahkum, jabrlanuvchi tomonidan esa ularga hukm topshirilgan kundan e'tiboran shunday muddat ichida jinoyat ishlari bo'yicha Toshkent shahar sudiga tuman sudi orqali appellatsiya tartibida shikoyat, prokuror esa protest keltirishi mumkin. O'zbekiston Respublikasi JPKning 498-moddasiga asosan hukm ustidan appellatsiya tartibida shikoyat yoki protest keltirilmagan taqdirda, kassatsiya tartibida protest yoki shikoyat keltirishlari mumkin.

Hukm raislik etuvchi tomonidan «SAMSUNG» kompyuterida yozildi.

Raislik etuvchi: (imzo)

F.I.SH.

Hukm nusxasi asliga to'g'ri:

**Jazodan ozod qilish bilan  
bog'liq ayblov hukmi namunasi**

**H U K M  
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI NOMIDAN**

Jinoyat ishlari bo'yicha Toshkent shahar Mirzo Ulug'bek tuman sudi 2011-yil, iyul oyining 28-kuni, sayyor sud majlisi va o'z binosida ochiq sud majlisida

Raislik etuvchi sudyasi: \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_ning kotibligida, tomonlardan Toshkent shahar Mirzo Ulug'bek tuman prokurori o'rinnbosari \_\_\_\_\_, tarjimon \_\_\_\_\_ning ishtirokida

O'zbekiston Respublikasi JKning 277-moddasi 2-qismining «a» bandi bilan ayblangan:

22.06.1984 yilda Toshkent shahrida  
tug'ilgan, millati o'zbek, O'zbekiston  
fuqa-rosi, partiyasiz, harbiy xizmatga  
majbur, bo'ydoq, muqaddam  
sudlanmagan, malumoti o'rtta, vaqtinchacha  
ishlamaydi, Toshkent shahar, Mirzo  
Ulug'bek tumani, G'azalkent ko'chasi,  
\_\_\_\_-uya istiqomat qiluvchi, ish bo'yicha  
ehtiyyot chorasi munosib xulq atvorda  
bo'lish haqidagi tilxat orqali ochiqda,  
ayblov xulosasi nusxasini vaqtida olgan  
(F.I.SH.)ga oid \_\_\_\_\_-sonli jinoyat  
ishini ko'rib chiqib, sud

#### **ANIQLADI :**

(F.I.SH.) 2011-yil, 30-may kuni soat 19:30 larda, Toshkent shahar, Mirzo Ulugbek tumani, G'azalkent ko'chasi, 185-uy oldida bo'la turib, jamiyatda yurish-turish qoidalalarini qasddan mensimasdan, bezorilik oqibatida shu yerda bo'lgan o'zining tanishi (F.I.SH.) bilan o'zaro janjal chiqarib, uni urib do'pposlab, tan jarohati etkazgan.

Sud-tibbiyot ekspertizasining 2011-yil, 10-iyun kunidagi №973-Xuj. sonli xulosasiga ko'ra, fuqaro (F.I.SH.)ga og'irlilik darajasi bo'yicha o'rtacha og'irlilikdagi tan jarohati yyetkazilganligi aniqlangan.

Sud majlisida so'roq qilingan sudlanuvchi (F.I.SH.) e'lon qilingan aybga to'liq iqror bo'lib, haqiqatdan ham 2011-yil, 30-may kuni soat 16:00 larda u o'rtoqlari bilan o'tirishga ketganligini, uyda turmush o'rtog'i (F.I.SH.) bir o'zi qolganligi, shu kuni soat 19:30 larda (F.I.SH.) uning o'rtog'ini telefoniga qo'ng'iroq qilganida, o'rtog'i telefonni unga bergenligini, turmush o'rtog'i (F.I.SH.) unga (F.I.SH.) uyga mast holda kelganligini va qo'rqiayotganligini aytib, tezda uyga yetib kelishini so'raganligini, u uyga yetib kelganida, (F.I.SH.) yig'lab o'tirganligini ko'rib, undan (F.I.SH.)ni qayerdaligini so'raganida, uni chiqib ketganligini aytganligi, so'ngra u uydan chiqib, uyning yonidagi

do'konda (F.I.SH.)ni pivo olib turganligini ko'rib, uni oldiga borib unga «nimaga meni xotinimga tegajonlik qilyapsan» deb aytganida, (F.I.SH.) unga «ey patsan, sen menga hali aqil o'rgatadigan bo'lib qoldingmi» deb, uni uyatlisi so'zlar bilan haqarotlab, teskari qarab ketganligini, shunda u jahl ustida (F.I.SH.)ni orqa tamonidan itarib yuborganligini, (F.I.SH.) mast bo'lганligi sababli yuzi bilan yerga yiqilganligi, so'ngra u yana o'rnidan turib, uni yana so'kib, qocha boshlaganligi, u (F.I.SH.)ni ortidan yetib olib, uni badani va yuz qismiga urganligi, shu vaqtida u yerda bo'lган qo'shnilar ularni ajratib qo'yishganligi, qilmishidan o'ta pushaymondaligini ko'rsatib, uni kechirishni so'radi.

Sud majlisida jabrlanuvchi tariqasida so'roq qilingan (F.I.SH.), haqiqatdan ham 2011-yil, 30-may kuni soat 16:30 larda, uni uyiga tanishi «Anvar» kelib, birligida ko'chaga do'kondan sigaret va non olish uchun chiqqanligi, ular «Lunacharskiy» bog'i yaqinidagi do'konga yaqinlashganlarida, (F.I.SH.) unga tashlanib, hech bir sababsiz, uni urib tashlaganligini, u (F.I.SH.)dan nima sababdan uni urayotganini so'-raganida, (F.I.SH.) «kerak, kerak» deb, uni urganligi, so'ngra (F.I.SH.) unga «agarda ariza yozsang, men seni xotinimni nomusiga tegding deyman» deb aytib, uni uyigacha urib borganligi, so'ngra u uyiga kirib ketganligi, ertasi kuni (F.I.SH.) uni oldiga kelib, undan kechirim so'raganligi, (F.I.SH.) uni davolanishi uchun ketgan xarajatlarni to'liq qoplab borganligini, hozirda (F.I.SH.)ga nisbatan hech qanday da'vosiy yo'qligini ko'rsatdi.

Sud majlisida guvoh tariqasida so'roq qilingan (F.I.SH.), haqiqatdan ham 2011-yil, 30-may kuni turmush o'rtog'i (F.I.SH.) o'z ishlari bilan uydan chiqib ketganligi, u kechki ovqat tayyorlayotgan vaqtida, (F.I.SH.)ni ukasi o'g'li bilan aylanish uchun chiqib ketganligi, so'ngra u ko'chani supursh uchun hovliga chiqqanligi, bir ozdan so'ng uyga otasini o'rtog'i (F.I.SH.) kelganligi, otasi avtomashina kuzovini tuzatish bilan shug'ullanishi va (F.I.SH.)ni mashinasini kuzovini qilib berayotganligi, (F.I.SH.) uyga kelib, undan otasi va erini so'raganligi, u uyda hech kim yo'qligini aytganida, (F.I.SH.) o'zini mashinasini aylanib, so'ngra uni oldiga kelganligi, o'sha vaqtida (F.I.SH.)ni yuzi jarohatlangan bo'l-ganligi, (F.I.SH.) uni qo'llidan ushlab «eringni yaxshi ko'rasanmi» deb so'raganligi, u «seni nima ishing bor» deb, uni qo'llidan chiqib ketmoqchi bo'lganligi, lekin (F.I.SH.) uni qattiq ushlab turganligi, bu vaqtida (F.I.SH.)ni qo'llari uning ko'kragida turib, uning tanasini silab ushlab, uni turmush o'rtog'i (F.I.SH.) haqida haqoratli so'zlarni gapirganligi, shu vaqtida u behosdan (F.I.SH.)ni qo'llidan chiqib kyetib, ko'chaga yugurib chiqqanligi, (F.I.SH.) uning ketidan mast holda so'kinib chiqib, do'kon tomon ketganligini, u esa uyga

qaytib kelib, turmush o‘rtog‘i (F.I.SH.)ga qo‘ng‘iroq qilib, unga bo‘lgan voqeani aytib bergenligini ko‘rsatdi.

Sud majlisida guvoh tariqasida so‘roq qilingan (F.I.SH.), haqiqatdan ham 2011-yil, 30-may kuni u uyida o‘tirgan vaqtida, qo‘shnisi (F.I.SH.) mast holda uyidan chiqib ketayotganligini ko‘rganligi, (F.I.SH.) mastligi sababli oyog‘ida zo‘rg‘a turib, yerga yiqilib tushganligi, natijada yuzi jarohatlanganligini, so‘ngra (F.I.SH.) o‘rnidan turib, o‘z yo‘lini davom ettirib ketganligini, (F.I.SH.) yiqilishidan oldin, uning yuzida, ya’ni burun va peshona sohasi qon qotmalari bo‘lganligini, ertasi kuni soat 22:30 larda (F.I.SH.)ni uyiga bir nafar o‘rtog‘i issiq ovqat olib kelganligi va ular soat 03:00 largacha o‘tirganliklari, o‘rtog‘i uyiga ketgach esa, (F.I.SH.) baland ovozda baqirib, boshini kirish eshidigiga urganligini ko‘rsatdi.

Sud majlisida guvoh tariqasida so‘roq qilingan (F.I.SH.), haqiqatdan ham 2011-yil, 30-may kuni soat 15:00-16:00 lar oralig‘ida uni o‘rtog‘i (F.I.SH.) qo‘ng‘iroq qilib chaqirganligi, uni uyiga borganida, u yerda «Anvar» bo‘lganligi, stolda bitta ochilgan aroq bo‘lganligi, shunda ular uchchovi ushbu aroqni ichganliklari, aroq tugagach, u (F.I.SH.) bilan aroq olish uchun do‘konga ketganligi, Anvar esa uyda qolganligi, do‘kondan qo‘ytishda (F.I.SH.) mast bo‘lgani uchun yiqilib tushayot-ganida, u uni qo‘lidan ushlab olib, uni uyga olib ketganligi, (F.I.SH.)ni uyiga borganlarida Anvar uxlab yotganligi, uni turg‘izib, ular yana aroq ichganliklari, aroq tugagach, Anvar yana aroqqa borishini aytganligi, lekin u boshqa ichmasligini, o‘g‘lini chaqirib uyga ketishini aytganligi, shunda (F.I.SH.) Anvar bilan do‘konga chiqib ketganligi, u esa uyda qolib televizor ko‘rib, o‘g‘lini kelishini kutib turganligi, taxminan 40 daqiqalardan so‘ng (F.I.SH.) Anvar bilan birga kelganligi, u (F.I.SH.)ni yuzi jarohatlangan va kaltaklangan holdaligini aynib, undan nima bo‘lganligini so‘raganida, (F.I.SH.) menga «seni Shuxrat o‘g‘ling meni urdi» deb aytganligi, nima sababdan urganligini so‘raganida, (F.I.SH.) «Shuxratni xotiniga bitta shokolad bergandim, u rashk qilib meni urdi» deb aytganligi, u uyga qaytib kelib, o‘g‘li (F.I.SH.)dan nima sababdan (F.I.SH.)ni urganligini so‘raganida, o‘g‘li unga (F.I.SH.) uning xotiniga tegajonlik qilgani uchun urganligini aytganligini ko‘rsatdi.

Sud yo‘qorida keltirgan dalillardan tashqari, sudlanuvchi (F.I.SH.) ning aybi ish materiallari bilan ham to‘liq ravishda tasdiqlanadi. Jumladan:

-2011-yil, 01-iyun kunida tuzilgan voqeja joyini ko‘zdan kechirish bayonnomasi va unga bo‘lgan foto-jadval bilan;

-sud-tibbiyot ekspertizanining 2011-yil, 10-iyun kunidagi №973-Xuj. sonli xulosasi bilan, unga ko‘ra (F.I.SH.)ga og‘irlilik darajasi bo‘yicha

o'rtacha og'irlikdagi tan jarohati yyetkazilganligi aniqlangan va ish materiallarida to'plangan boshqa hujjatlar bilan.

Sud, sudlanuvchi (F.I.SH.)ning qilmishini tavsifini muhokama qilib, uning harakati tergov organi tomonidan O'zbekiston Respublikasi JKning 277-moddasi 2-qismining «a» bandi bilan to‘g‘ri kvalifikatsiya qilingan deb hisoblaydi, bezorilik, ya’ni jamiyatda yurish-turish qoidalarini mensimasdan, urib-do’pposlab, badanga o'rtacha og‘ir tan jarohati etkazgan.

Amaldagi qonunchilik talablariga ko‘ra, aybdorni chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lganligi munosabati bilan jazodan ozod qilinishida aybdor chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lib, jinoyatning ochilishida faol yordam bergen bo‘lishi ko‘rsatilgan. «Chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lish» tu-shunchasi deb, jinoyat sodir etilganidan so‘ng aybdor tomonidan ixtiyoriy ravishda keltirilgan zararni bartaraf qilish, jinoyatni ochilishiga huquqni muxofaza qiluvchi tashkilotlarga faol yordam ko‘rsatish va jinoyatni sodir etgan shaxslarni fosh etish tushuniladi. «Chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lish»ning elementlari deb, aybni tan olish, ixtiyoriy ravishda keltirilgan zararni qoplash va hokazolar tushuniladi. Aybni tan olish va chin ko‘ngilda pushaymon bo‘lish jinoi jazoni maqsadlari amalga oshganligidan xabar beradi.

Sud, sudlanuvchi (F.I.SH.)ga nisbatan jazo turi va miqdorini tayinlashda uni qilmishidan chin ko‘ngildan pushaymondaligini, oilaviy sharoitini, muqaddam sudlanmaganligini, shaxsini, shu bilan bir qatorda (F.I.SH.)ni ching ko‘ngildan pushaymon bo‘lganligini, birinchi marotaba ijtimoiy xavfi katta bo‘limgan jinoyatni sodir etganligini, yetkazilgan zararni bartaraf etganligini, jabrlanuvchi (F.I.SH.)ni unga nisbatan da‘vosi yo‘qligini inobatga olib, unga nisbatan O'zbekiston Respublikasi JKning 71-moddasini qo‘llab, uni jazodan ozod qilishni lozim deb topadi.

Yo`qoridagilarga asosan va O'zbekiston Respublikasi JPKning 454-455, 457-458, 462-463, 465-468, 471-moddalarini qo‘llanib, sud

### **HUKM QILDI :**

(F.I.SH.) O'zbekiston Respublikasi JKning 277-moddasi 2-qismining «a» bandida ko‘rsatilgan jinoyatni sodir etganlikda aybli deb topilsin va O'zbekiston Respublikasi JKning 71-moddasiga asosan jazodan ozod qilinsin.

Ehtiyyot chorasi aslicha qoldirilsin, hukm qonuniy kuchga kirgandan so‘ng bekor qilinsin.

Hukmdan norozi tomon appellatsiya shikoyati va protesti hukm e’lon qilingan kundan e’tiboran o’n sutka ichida, mahkum va jabrlanuvchi

tomonidan esa ularga hukmning nusxasi topshirilgan kundan e'tiboran shunday muddat ichida ushbu sud orqali jinoyat ishlari bo'yicha Toshkent shahar sudiga berilishi mumkin, O'zbekiston Respublikasi JPKning 498-moddasiga asosan, mahkum, uning himoyachisi hamda jabrlanuvchi sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi ustidan, agar ish appellatsiya tartibida ko'rilgan bo'lmasa, kassatsiya tartibida shikoyat berishga, O'zbekiston Respublikasi JPKning 511-moddasida ko'rsatilgan shaxslar esa kassatsiya tartibida protest bildirishga haqlidir.

Hukm raislik etuvchi tomonidan alohida xonasida «SAMSUNGp4» rusumli kompyuterida yozildi.

**Raislik qiluvchi:**

**(imzo)**

**F.I.SH.**

Nusxa asliga to'g'ri:

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2014-yil, 23-maydag'i 07-sonli «Sud hukmi to'g'risida»gi qarori ko'ra, sud-lar oqlov hukmini chiqarishga olib keluvchi, jinoiy hodisaning yoki jinoyat tarkibining bo'lmasligi, jinoyat sodir etilishiga sudla-nuvchi dahldor emasligi to'g'risidagi asoslar ro'yxati O'zbekiston Respublikasi JPKning 464-moddasida to'liq ko'rsatilganligini e'tiborga olishlari lozim.

Oqlov hukmi chiqarilayotganda, uning tavsif qismida O'zbekiston Respublikasi JPKning 469-moddasiga binoan sudlanuvchiga qo'yilgan ayblovning mohiyati; sud aniqlagan ish holatlari, sudlanuvchining aybsizligi to'g'risidagi sud xulosasini tasdiqlovchi dalillar; sudlanuvchining jinoyat sodir etishda aybi bor deb da'vo qilishga asos bo'lgan dalillarni sud nima uchun ishonarli emas yoki yetarli emas deb hisoblashi yoki nima uchun sud jinoiy hodisaning o'zi yuz bermagan yoxud sudlanuvchi sodir etgan qilmishni jinoyat emas deb hisoblashi; fuqaroviylar da'voga oid qarorning asoslari bayon qilinadi.

Oqlov hukmiga oqlanganning aybdor emasligiga shubha tug'diruvchi iboralarning kiritilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Agarda O'zbekiston Respublikasi JKning bir yoki bir necha moddalari (moddalar qismlari, bandlari) bilan tavsiflangan bir necha jinoyatlarni sodir etganlikda ayblangan shaxsga nisbatan oqlov hukmi chiqarilganda, sud hukmning tavsif qismida har bir modda

(moddaning qismi, bandi, ayblov epizodi) bo'yicha oqlashning tegishli asoslarini ko'rsatib, ayblovning asossiz ekanligi to'g'risida asoslar keltirilgan holda xulosani tuzishi lozim.

Hukmnинг qaror qismida O'zbekiston Respublikasi JPKning 470-moddasida sanab o'tilgan barcha ko'rsatmalar to'laligicha yoritilishi lozim.

Jinoiy hodisa yuz bermaganligi sababli oqlov hukmi (JPK 83-modda 1-bandi) agarda sudlanuvchi sodir etganlikda ayblanayotgan qilmish sudlanuvchi tomonidan sodir etilmagan bo'lsa, yoxud nazarda tutilgan oqibat ziyon yetkazilgan shaxs tomonidan yoki kimning xohish istagi va ixtiyorli bo'lishidan qat'iy nazar, masalan, tabiatning ta'sir kuchi natijasida sodir etilsa chiqariladi.

Qilmishda jinoyat tarkibi bo'limganligi sababli (JPK 83-modda 2-bandi) oqlov hukmi chiqariladi, agar:

- jinoyat sifatida nazarda tutilgan qilmishning alomatlari mavjud bo'lsada, o'zining kam ahamiyatliligi tufayli ijtimoiy xavfli bo'lmasa (JK 36-modda);

- qilmish zaruriy mudofaa yoki oxirgi zarurat holatida sodir etilgan bo'lsa (JK 37, 38-modda);

- qilmish sudlanuvchi tomonidan sodir etilgan bo'lsada, biroq Jinoyat qonuni bilan jinoyat deb topilmaydi (zarar ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushslash vaqtida etkazilsa (JK 39-modda), buyruq yoki boshqa vazifani ijro etish (JK 40-modda), kasb yoki iqtisodiy faoliyatiga bog'liq asosli tavakkalchilik (JK 41-modda);

- shaxs jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytganda (JK 26-modda) va h. k.

Agar ijtimoiy xavfli qilmish fakti va oqibatining kelib chiq-qanligi aniqlangan bo'lib, biroq sud muhokamasida taqdim qilin-gan va tekshirilgan dalillar bilan uning sudlanuvchi tomonidan sodir etilganligi inkor etilsa yoki o'z tasdig'ini topmasa, sud shaxsning sodir etilgan jinoyatga daxli bo'limganligi sababli oqlov hukmi chiqaradi (JPK 83-modda 3-bandi).

### **oqlov hukmi namunasi**

<b>HUKM O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI NOMIDAN</b>
--

Jinoyat ishlari bo'yicha Toshkent shahar Chilonzor tuman sudi 2014-yil, iyul oyining 27-kuni, o'z binosida, ochiq sud majlisida

Raislik etuvchi sudyasi: \_\_\_\_\_,

\_\_\_\_\_ning kotibligida, tomonlardan Toshkent shahar Chilonzor tuman prokurori o'rribbosari \_\_\_\_\_, jabrlanuvchi \_\_\_\_\_, sudlanuvchi \_\_\_\_\_ va uning himoyachisi «Femida» advokatlik firmasi advokati \_\_\_\_\_ ishtirokida \_\_\_\_\_ga nisbatan \_\_\_\_-sonli jinoyat ishini ko'rib chiqdi. Ish hujjatlariga ko'ra:

22.06.1984 yilda Toshkent shahrida tug'ilgan, millati o'zbek, O'zbekiston fuqarosi, partiyasiz, harbiy xizmatga majbur, bo'ydoq, muqaddam sudlanmagan, malumoti o'rta, vaqtincha ishlamaydi, Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani, G'azalkent ko'chasi, \_\_\_\_-uyda istiqomat qiluvchi, ish bo'yicha ehtiyyot chorasi munosib xulq atvorda bo'lish haqidagi tilxat orqali ochiqda, ayblov xulosasi nusxasini vaqtida olgan (F.I.SH.)ga,

O'zbekiston Respublikasi JKning 277-moddasi 1-qismi bilan ayblangan.

Sud sudlanuvchi va jabrlanuvchining ko'rsatuvlarini tinglab, jinoyat ishi hujjatlarini o'rganib chiqib va ishda mayjud bo'lган dalillarga baho berib, quyidagilarni

#### **ANIQLADI:**

(F.I.SH.) 2014-yil, 3-oktabr kuni, soat taxminan 8-00 larda, mast holatda bo'la turib, qo'shnisi (F.I.SH.) bilan o'rtaсидаги janjal oqibatida, uni uyatli so'zlar bilan haqorat qilib, (F.I.SH.)ga tegishli bo'lган Toshkent shahar Chilonzor tumani, 6-dahasi, 46/47-uy, 48-xonasining 40.000 so'mlik oynasini sindirgan, shundan so'ng ichki ishlar xodimlari tomonidan ushlangan.

Sudlanuvchi (F.I.SH.) sud majlisida aybiga to'liq iqror bo'lib, 2014-yil, 3-oktabr kuni, soat taxminan 6-00 larda, tuman mehnat birjasiga pul ishlab topish uchun borgani, mijozlarni kutib turib, spirt sotib olib ichgani, birozdan so'ng uning sog'lig'i yomonlashgani va u o'z uyi tomonga ketgani, yo'lida qo'shnisi (F.I.SH.)ni uchratib qolgani, (F.I.SH.) uni "doimiy ravishda mast holatda yuradi" deb haqorat qila boshlagani, bundag jahli chiqib, oynani qo'li bilan urib sindirgani, so'ng o'sha yerdan o'tib ketayotgan ichki ishlar xodimlari uni

ushlashib, Chilonzor IIBga olib borishgani, u yerda bo‘lgan voqeani aytib bergani haqida ko‘rsatuv berib, hozirda qilmishidan pushaymonligini bildirib, suddan unga yengil jazo tayinlashni so‘radi.

Jabrlanuvchi (F.I.SH.) sud majlisida Toshkent shahar Chilonzor tumani 46/47-uy, 50-xonadonda yashab kelishi, 2014-yil, 3-oktabr kuni ertalab o‘z uyida bo‘lganida mast holatda bo‘lgan qo‘schnisi (F.I.SH.) uy oynasini taqillatib, undan qarzga pul so‘ray boshlagani, u unga oynani taqillatishni to‘xtatishni va uyiga ketishni aytgani, ammo (F.I.SH.) jahli chiqib, haqoratlari so‘zlar bilan uni so‘ka boshlagani, oynani qo‘li bilan urib sindirgani, shu yerdan o‘tib ketayotgan ichki ishlar xodimlarini ko‘rib, ularni yordamga chaqirgani, ular (F.I.SH.)ni ushlab, Chilonzor tuman IIBga olib ketishganini, singan oynaning narxi 40.000 so‘mni tashkil etishi haqida ko‘rsatuv berib, sudlanuvchi (F.I.SH.)ga hech qanday da‘vosi yo‘qligini bildirib, unga jazoni yengillashtirishni so‘radi.

Sud davlat ayblovchisining (F.I.SH.)ni aybdor deb topib, unga nisbatan ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq bo‘lmagan jazo tayinlash haqidagi xulosasini, jabrlanuvchi (F.I.SH.) va sudlanuvchi (F.I.SH.)ning ko‘rsatuvlarini, uning himoyachisi advokat \_\_\_\_\_

(F.I.SH.)ning (F.I.SH.)ning harakatlarida jinoyat tarkibi yo‘qligi, jinoyat ishi hujjatlarini o‘rganib chiqib, (F.I.SH.)ni jinoyat sodir etishda aybsiz deb topib, oqlashni lozim topadi.

O‘zbekiston Respublikasi JKning 277-moddasi 1-qismida bezorilik, ya’ni jamiyatda yurish-turish qoidalarni qasddan mensimaslik, urishdo‘pposlash, badanga yengil shikast yetkazish yoki o‘zganing mulkiga shikast yetkazish yoxud nobud qilish ancha zarar yetkazish bilan bog‘liq holda sodir etilgan harakatlar uchun javobgarlik belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2002-yil, 14-iyun-dagi 9-sonli «Bezorilikka oid ishlar bo‘yicha sud amaliyoti haqida»gi qarorining 2-bandida, “Sudlar bezorilik jinoyati bilan ma’muriy huquqbuzarlik hisoblanmish mayda bezorilikni bir-biridan farqlashlari zarur.

Oldingi tahrirga qarang.

Mayda bezorilik tushunchasi O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 183-moddasida berilgan bo‘lib, uning mazmumiga ko‘ra, ushbu huquqbuzarlik jamaot joylarida uyatli so‘zlar aytish, behayo qiliqlar ko‘rsatish, fuqarolarga nisbatan haqoratomuz shilqimlik qilish hamda jamaot tartibi va fuqarolar osoyish-taligini boshqacha tarzda buzish kabi jamiyatda yurish-turish qoidalarni mensimaslikda ifodalanadi. Bunda Jinoyat kodeksi 277-moddasining 1-qismida nazarda tutilgan jinoiy oqibatlar mayjud bo‘lmasligi kerak.” deb tushuntirilgan.

Jinoyat ishi hujjatlariga ko'ra, (F.I.SH.) haqiqatan ham (F.I.SH.) bilan janjal qilgan, uni haqoratlagan, uning xonadonidagi oynani sindirib, 40.000 so'm miqdorida zarar etkazgan. (F.I.SH.)ning harakatlari natijasida yetkazilgan zarar ancha miqdorni tashkil etmasligi sababli, uning harakatlarida boshqa ijtimoiy xavfli harakatlar mavjud emasligini hisobga olgan holda, uning harkatlarini O'zbekiston Respublikasi JKning 277-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan bezorilik deb kvalifikatsiya qilib bo'lmaydi.

Yo`qoridagilarga asosan, sud (F.I.SH.)ning harakatlarida ma'muriy huquqbuzarlik alomatlari mavjudligi sababli, sud jinoyat ishidan (F.I.SH.)ni O'zbekiston Respublikasi MJtKning 183-moddasi bilan ma'muriy huquqbuzarlik haqidagi materiallarni alohida ish yurituvga ajratishni lozim deb topadi.

Yo`qoridagilarga asosan va O'zbekiston Respublikasi JPKning 421, 454-457, 462, 464-466, 469-473-moddalari qo'llanib, sud

### **HUKM QILDI :**

(F.I.SH.) O'zbekiston Respublikasi JKning 277-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan jinoyatni sodir etganlikda aybsiz deb topilsin va uning harakatlarida jinoyat tarkibi bo'lmaganligi sababli oqlansin.

(F.I.SH.)ga nisbatan qo'llanilgan munosib xulq-atvorda bo'lish haqidagi tilxat ehtiyyot chorasi bekor qilinsin.

Oqlangan (F.I.SH.)ga mulkiy, ma'naviy va boshqa ziyonni qoplash masalasida O'zbekiston Respublikasi JPKning 304-313-moddalari tartibida murojaat qilish huquqi tushuntirilsin.

(F.I.SH.)ning harkatlarida ma'muriy huquqbuzarlik alomatlari mavjudligi sababli, sud jinoyat ishi hujjatlaridan (F.I.SH.)ni O'zbekiston Respublikasi MJtKning 183-moddasi bilan ma'muriy javobgarlikka tortish masalasini muhokama qilish uchun ma'muriy huquqbuzarlikka oid materiallar alohida ish yurituviga ajratilsin.

Hukmdan norozi taraflar hukm e'lon qilingan kundan e'tiboran o'n sutka ichida, mahkum va jabrlanuvchi tomonidan esa ularga hukmning nusxasi topshirilgan kundan e'tiboran shunday muddat ichida ushbu sud orqali jinoyat ishlari bo'yicha Toshkent shahar sudiga berilishi mumkin, O'zbekiston Respublikasi JPKning 498-moddasiga asosan, mahkum, uning himoyachisi hamda jabrlanuvchi sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi ustidan, agar ish appellatsiya tartibida ko'rilmagan bo'limasa, kassatsiya tartibida shikoyat berishga, O'zbekiston Respublikasi JPKning 511-moddasida ko'rsatilgan shaxslar esa kassatsiya tartibida protest bildirishga haqlidir.

Hukm raislik etuvchi tomonidan alohida xonasida «SAMSUNGp4» rusumli kompyuterida yozildi.

**Raislik qiluvchi sudy**

**(imzo)**

**F.I.SH.**

Nusxa asliga to‘g‘ri:

### **NAZORAT UCHUN SAVOLLAR**

1. Sud hukmining qismlarini tavsiflab bering.
2. Ayblov hukmining turlarini aytib bering.
3. Qaysi hollarda sud jazo tayinlamasdan ayblov hukmini chiqaradi?

## **28-MAVZU. HUKM, AJRIM VA QARORLARNING QONUNIYLIGI, ASOSLILIGI VA ADOLATLILIGINI TEKSHIRISHDA RASMIYLASHTIRILADIGAN PROTSESSUAL HUJJATLAR**

### **1-§. Apellatsiya instansiysi sudi sud hujjatlari**

Sud hukmi, ajrimi va qarorlarining qonuniyligi, asosliligi va adolatliligi appellatsiya, kassatsiya va nazorat tartibida tekshirilishi mumkin.

Ishni yo`qori sud tomonidan ko`rish:

- 1) appellatsiya tartibida – ushbu Kodeksning 497<sup>2</sup>-moddasida ko`rsatilgan shaxslarning shikoyatlariga va protestlariga binoan;
- 2) kassatsiya tartibida – ushbu Kodeksning 498-moddasida ko`rsatilgan shaxslarning shikoyatlariga va protestlariga binoan;
- 3) nazorat tartibida – O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisi, O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori yoki ularning o‘rinbosarlari protestlariga binoan, yangi ochilgan holatlar munosabati bilan esa O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori yoki uning o‘rinbosari protesti, shuningdek JPKning 498-moddasida ko`rsa-tilgan shaxslarning shikoyatlari bo‘yicha amalga oshiriladi.

### **Hukm ustidan appellatsiya tartibida shikoyat berish va protest bildirish huquqiga ega bo‘lgan shaxslar**

1) Mahkum, uning himoyachisi, qonuniy vakili, shuningdek jabrlanuvchi, uning vakili sudning qonuniy kuchga kirmagan hukmi ustidan shikoyat berishga, prokuror va uning o‘rinbosari esa, protest bildirishga haqli;

2) Fuqaroviylar da’vogar, fuqaroviylar javobgar va ularning vakillari hukmnинг fuqaroviylar da’voga dahldor qismi ustidan shikoyat berishga haqli;

3) Sudda oqlangan shaxs, uning himoyachisi va qonuniy vakili hukmnинг oqlash sabablari va asoslariga doir qismi ustidan shikoyat berishga haqli;

4) Ishda taraf bo‘limgan shaxslar ham sud hukmining o‘z huquqlari va qonuniy manfaatlariga dahldor qismi ustidan shikoyat berishga haqli.

**O‘zbekiston Respublikasi JPKning 497<sup>7</sup>-moddasida appellatsiya shikoyati va protestining mazmuni bayon qilingan. Appellatsiya shikoyati va protestida quyidagilar ko‘rsatilishi lozim:**

1.	shikoyat, protest yo‘llanayotgan sudning nomi;
2.	shikoyat bergen shaxs, uning protsessual mavqeい, yashash joyi yoki turish manzili to‘g‘risidagi ma’lumotlar;
3.	hukmni chiqargan sudning nomi, hukm chiqarilgan sana, shi-koyat berilayotgan va protest bildirilayotgan hukm kimga nisbatan chiqarilgan bo‘lsa, shu shaxs to‘g‘risidagi ma’lu-motlar;
4.	shikoyat, protest bergen shaxsnинг vajlari, uning fikriga ko‘ra hukm yoki boshqa qarorning noto‘g‘riliги nimadan iborat ekanligi hamda iltimosining mohiyati;
5.	arizachi o‘z talablarini asoslayotgan va appellatsiya instansiysi sudi tomonidan tekshirilishi lozim bo‘lgan dalillar, shu jumladan ilgari birinchi instansiya sudida tekshirilmagan da-lillar;
6.	shikoyatga, protestga ilova qilinayotgan materiallar ro‘yxati;
7.	shikoyat, protest berilgan sana hamda shikoyat, protest beruvchi shaxsning imzosi.

Agar appellatsiya shikoyatining, protestining mazmuni mazkur moddaning birinchi qismida ko‘rsatilgan talablarga javob bermasa va bu kelgisida ishni mazmunan ko‘rib chiqishga to‘sqinlik qilsa, sudya appellatsiya shikoyatini, protestini uni bergen shaxsga qaytarish to‘g‘risida appellatsiya shikoyatini yoki protestini qayta tuzish uchun muddatni belgilagan holda uch kunlik muddatda ajrim chiqaradi.

Sudyaning appellatsiya shikoyatini, protestini qaytarish to‘g‘risidagi ajrimi talablari bajarilmagan va appellatsiya shikoyati, protesti belgilangan vaqtida kelib tushmagan hollarda, u berilmagan deb hisoblanadi. Bunday holda hukm qonuniy kuchga kirgan deb hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi JPKning 497<sup>3</sup>-moddasida appellatsiya instansiya sudining vakolatlari bayon qilingan bo‘lib, unga ko‘ra sud ishni appellatsiya tartibida ko‘rib chiqib, o‘z ajrimi bilan:

1) bиринчи инстансиya судининг ҳукмини о‘згаришсиз, шикоятни ўки protestni esa qanoatlantirishsiz qoldirishga;

2) bиринчи инстансиya судининг аyblov ҳукмини bekor qilishga va oqlov ҳукми chiqarishga;

3) bиринчи инстансиya судининг oqlov ҳукмини bekor qilishga va ayblov ҳукми chiqarishga;

4) bиринчи инстансиya судининг ayblov ҳукмини bekor qilishga va ishni tugatishga;

5) bиринчи инстансиya судининг ҳукмини o‘zgartirishga, shu jumladan ayblov hajmini, jinoyatning tavsiflanishini o‘zgartirishga, jazoni yengillashtirishga ўки kuchaytirishga, shuningdek og‘irroq jinoyatga doir qonunni qo‘llashga haqli.

Apellatsiya instansiyasi sudi ishni ko‘rish natijalari bo‘yicha ajrim chiqaradi. Ajrim sudyalarining ko‘pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Ajrim barcha sudyalar tomonidan imzolanadi. Ovoz berishda ozchilikni tashkil etgan sudyha ajrimga imzo qo‘yib, o‘zi-ning alohida fikrini yozma ravishda bayon qilishga haqlidir. Apellatsiya instansiyasi sudining ajrimi ustidan nazorat tartibida shikoyat berilishi va protest bildirilishi mumkin.

### **Jinoyat ishlari bo‘yicha Toshkent shahar sudi apellatsiya instansiyasining ajrimi namunasi**

Apellatsiya instansiyasida  
ma’ruzachi: \_\_\_\_\_  
sudya \_\_\_\_\_

Birinchi instansiya sudining  
sudyasi: \_\_\_\_\_

### **JINOYAT ISHLARI BO‘YICHA TOSHKENT SHAHAR SUDI APPELLATSIYA INSTANSIYASINING AJRIMI**

2018-yil, iyun oyining 26-kuni, jinoyat ishlari bo‘yicha Toshkent shahar sudi appellatsiya instansiyasining ochiq sud majlisida, o‘z binosida,

Raislik qiluvchi \_\_\_\_\_,  
Hay’at a’zolari \_\_\_\_\_ va \_\_\_\_\_ dan iborat  
tarkibda, \_\_\_\_\_ ning kotibligida, tomonlardan Toshkent shahar proko`raturasi bo‘lim prokurori \_\_\_\_\_ va sudlangan

\_\_\_\_\_ning ishtirokida, sudlangan \_\_\_\_\_ning jinoyat ishlari bo'yicha Mirzo Ulug'bek tuman sudining 2018-yil, 25-apreldagi hukmidan norozi bo'lib appellatsiya tartibida keltirgan shikoyati asosida jinoyat ishini appellatsiya instansiyasida ko'rib chiqib, quyidagilarni

### **ANIQLADI :**

(F.I.SH.), 16.06.1990 yilda Toshkent shahrida tug'ilgan, millati o'zbek, O'zbekiston Respublikasi fuqorosi ma'lumoti o'rta, vaqtincha ishsiz, oilali, xarbiy xizmatga majbur emas, davlat mukofotlari olmagan, deputat yetib saylanmagan, muqaddam sudlanmagan, Toshkent shahar Chilonzor tumani, Feruza mahallasi, 4-uyda yashaydi, ayblov xulosa nusxasini o'z vaqtida olgan, ish bo'yicha "munosib xulq-atvorda bo'lish haqida tilxat" ehtiyyot chorasi qo'llanilgan

(F.I.SH.) O'zbekiston Respublikasi JK 277-moddasi 3-qismining "g" bandida nazarda tutilgan jinoyatni sodir etganlikda aybli deb topilgan va unga shu moddaga asosan 4 (to'rt) yil muddatga ozodlikdan mahrum qilish ishlari jazosi tayinlangan.

Tayinlangan jazo manzil tartibli kaloniyalarda o'tash belgilangan.

(F.I.SH.)ga qo'llanilgan munosib xulq-atvorda bo'lish haqida tilxat ehtiyyot chorasi hukm qonuniy kuchga kirgandan so'ng bekor qilingan. Manfaatdor tomonlarga sudlanuvchilar harakatlari natijasida yetkazilgan moddiy va ma'naviy zararni undirish masalasida da'vo arizasi bilan fuqarolik ishlari bo'yicha sudga murojaat qilish huquqlari borligi tushuntirilgan.

Sudlangan (F.I.SH.) appellatsiya shikoyatida, bиринчи instansiya sudi uning aybiga iqrorigi va pushaymonligini, jinoyatlarni fosh etishida faol yordam bergenligini, qonunda nazarda tutilgan jazoni yengillashtiruvchi holatlar mavjudligini inobatga olmay og'ir jazo tayinlaganligi to'g'risida vaj keltirib, O'zbekiston Respublikasi JKning 57-moddasini qo'llab jazoni yengillashtirishni so'ragan.

Sudlov hay'ati, ma'ruzachi viloyat sudi sudyasi (F.I.SH.)ning ma'ruzasini, Toshkent shahar proko'raturasi bo'lim prokurori \_\_\_\_\_ning hukmni o'zgarishsiz qoldirish to'g'risidagi, sudlangan \_\_\_\_\_ning hukmni o'zgartirib, jazoni yengil-

lashtirish haqidagi fikrlarini tinglab, jinoyat ishi hujjatlarini appellatsiya shikoyati bilan birgalikda o‘rganib chiqib, quyidagi asoslarga ko‘ra hukmni o‘zgarishsiz, appellatsiya shikoyatini qanoatlantirmasdan qoldirishni lozim topadi.

Sudlangan (F.I.SH.)ning sud hukmida ko‘rsatilgan jinoyatni sodir etganlikdagi aybi:

- ariza;
- voqeа joyini ko‘zdan kechirish bayonnomasi, ilova foto jadval;
- voqeа joyi chizmasi;
- yuzlashtirish bayonnomasi;
- sud tibbiyot ekspertizasining xulosalari;

Shuningdek, dastlabki tergov va sud majlisi davomida so‘roq qilingan jabrlanuvchilar va guvohlarning ko‘rsatmalari hamda ish bo‘yicha to‘plangan boshqa obyektiv dalillar bilan o‘z tasdig‘ini to‘liq topgan.

Shu sababli sudov hay’ati, U.Raximovning aybi tasdiqlanganligi haqida asosli xulosaga kelib, O‘zbekiston Respublikasi JK 277-moddaci 3-qismining “g” bandi bilan bezorilik, ya’ni jamiyatda yurish-turish qoidalarini qasddan mensimaslik, urish-dupposlash, bezorilik hara-katlarininr oldini olish chorasini kurgan fuqarolarga qarshilik ko‘rsatib, badanga yengil shikast yetkazish jinoyat alomatlari bilan to‘g‘ri malakalangan deb hisoblaydi.

Sudlov hay’ati, (F.I.SH.)ga nisbatan jazo turi va miqdorini belgilashda birinchi instansiya sudi tomonidan uning sodir etgan jinoyatlarining xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasi, mukaddam sudlanmaganligi, aybiga to‘liq iqrorigi, qilmishidan chin ko‘ngildan pushaymonligi, hamda jazoni yengillashtiruvchi va og‘irlashtiruvchi boshqa holatlari inobatga olinib, qonuniylik, insonparvarlik va odillik prinsiplariga asoslangan holda uning kilmishiga yarasha, shaxsiga mos jazo tayinlangan deb hisoblaydi.

Yo‘qoridagilarga asosan va O‘zbekiston Respublikasi JPK ning 490, 496, 497<sup>14</sup>, 497<sup>18</sup>-moddalarini qo‘llab, sudlov hayati ajrim qiladi:

### **AJRIM QILDI:**

Jinoyat ishlari bo‘yicha Mirzo Ulug‘bek tuman sudining 2018-yil 26-apreldagi (F.I.SH.)ga oid hukmi o‘zgarishsiz, appellatsiya shikoyati qanoatlantirilmasdan qoldirilsin.

Raislik qiluvchi :

(F.I.SH.)

Hay’at sudyalari :

(F.I.SH.)

## 2-§. Kassatsiya instansiyasi sudi sud hujjatlari

### **Hukm va ajrim ustidan kassatsiya tartibida shikoyat berish va protest bildirish huquqiga ega bo‘lgan shaxslar**

1) Mahkum, uning himoyachisi, qonuniy vakili, shuningdek jabrlanuvchi, uning vakili sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi va ajrimi ustidan, agar ish appellatsiya tartibida ko‘rilgan bo‘lmasa, kassatsiya tartibida shikoyat berishga haqlidir. O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori, uning o‘rinososarlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi prokurori, viloyatlar va Toshkent shahar prokurorlari hamda ularga tenglashtirilgan prokurorlar qonuniy kuchga kirgan hukm va ajrim (qaror) ustidan, agar ish appellatsiya tartibida ko‘rilgan bo‘lmasa, kassatsiya tartibida protest bildirishga haqli;

2) Fuqaroviy da‘vogar, fuqaroviy javobgar va ularning vakillari hukmnинг fuqaroviy da‘voga dahldor qismi ustidan shikoyat berishga haqli;

3) Sudda oqlangan shaxs, uning himoyachisi va qonuniy vakili hukmnинг oqlash sabablari va asoslariga doir qismi ustidan shikoyat berishga haqli;

4) Ishda taraf bo‘lмаган shaxslar ham sud hukmining o‘z huquqlari va qonuniy manfaatlariga dahldor qismi ustidan kassatsiya tartibida shikoyat berishga haqli.

**O‘zbekiston Respublikasi JPKning 502<sup>1</sup>-moddasida kassat-siya shikoyatining, protestining mazmuni bayon qilingan. Kas-satsiya shikoyatida, protestida quyidagilar ko‘rsatilishi kerak:**

1.	shikoyat, protest yo‘llanayotgan sudning nomi;
2.	shikoyat bergen shaxs, uning protsessual mavqeい, yashash joyi yoki turish manzili to‘g‘risidagi ma’lumotlar;
3.	hukmni chiqargan sudning nomi, hukm chiqarilgan sana, shi-koyat berilayotgan va protest bildirilayotgan hukm kimga nis-batan chiqarilgan bo‘lsa, shu shaxs to‘g‘risidagi ma’lumotlar;
4.	shikoyat, protest bergen shaxsning uning fikriga ko‘ra hukm-ning yoki boshqa qarorning noto‘g‘riliги nimadan

	iborat ekan-ligi borasidagi vajlari va uning iltimosining mohiyati;
5.	arizachi o‘z talablarini asoslayotgan va kassatsiya instansiysi sudi tomonidan tekshirilishi lozim bo‘lgan dalillar, shu juml-adan ilgari birinchi instansiya sudida tekshirilmagan dalillar;
6.	shikoyatga, protestga ilova qilinayotgan materiallar ro‘yxati;
7.	shikoyat, protest berilgan sana hamda shikoyat, protest beruvchi shaxsning imzosi.

Agar kassatsiya shikoyatining, protestining mazmuni ushbu moddaning birinchi qismida ko‘rsatilgan talablarga javob bermasa, sudya kassatsiya shikoyatini, protestini uni bergen shaxsga uch kunlik muddatda qaytarish to‘g‘risida ajrim chiqaradi. Kassatsiya shikoyati, protesti yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar bartaraf etilganidan keyin berilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi JPKning 506<sup>1</sup>-moddasida kassatsiya instansiysi sudining vakolatlari ko‘rsatib o‘tilgan bo‘lib, unga ko‘ra sud ishni kassatsiya tartibida ko‘rib chiqib, o‘z ajrimi bilan:

1) birinchi instansiya sudining hukmini o‘zgarishsiz, shikoyatni yoki protestni esa qanoatlantirishsiz qoldirishga;

2) birinchi instansiya sudining ayblov hukmini bekor qilishga va oqlov hukmi chiqarishga;

3) birinchi instansiya sudining oqlov hukmini bekor qilishga va ayblov hukmi chiqarishga;

4) birinchi instansiya sudining ayblov hukmini bekor qilishga va ishni tugatishga;

5) birinchi instansiya sudining hukmini o‘zgartirishga, shu jumladan ayblov hajmini, jinoyat tavsifini o‘zgartirishga, jazoni yengillashtirishga yoki kuchaytirishga, xuddi shuningdek og‘irroq jinoyat to‘g‘risidagi qonunni qo‘llashga haqlidi.

Kassatsiya instansiysi sudi ishni ko‘rish natijalari bo‘yicha ajrim chiqaradi.

Ajrim sudyalarning ko‘pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Aj-rim barcha sudyalar tomonidan imzolanadi. Ovoz berishda ozchi-likni tashkil etgan sudya ajrimga imzo qo‘yib, o‘zining alohida fikrini yozma ravishda bayon qilishga haqlidir. Kassatsiya ins-tansiyasi

sudining ajrimi ustidan nazorat tartibida shikoyat qili-nishi va protest bildirilishi mumkin.

**Jinoyat ishlari bo'yicha Toshkent shahar sudi  
kassatsiya instansiyasining ajrimi namunasi**

**JINOYAT ISHLARI BO'YICHA TOSHKENT SHAHAR SUDI  
KASSATSIYA INSTANSIYASINING  
AJRIMI**

2018-yil, sentyabr oyining 23-kunida jinoyat ishlari bo'yicha Toshkent shahar sudi kassatsiya instansiyasining ochiq sud majlisida,

Raislik qiluvchi: \_\_\_\_\_

Hay'at sudyalari \_\_\_\_\_ va \_\_\_\_\_ dan iborat tarkibda, \_\_\_\_\_ ning kotibaligida, tomonlardan Toshkent shahar proko'raturasi bo'lim prokurori \_\_\_\_\_ ning ishtirokida, jinoyat ishlari bo'yicha Chilonzor tuman sudining 2017-yil, 14-noyabr kunidagi \_\_\_\_\_ ga oid hukmiga Toshkent shahar prokurori tomonidan keltirilgan kassatsiya protestini jinoyat ishi hujjatlari bilan birga ko'rib chiqib, quyidagilarni

**ANIQLADI :**

Jinoyat ishlari bo'yicha Chilonzor tuman sudining 2017-yil, 14-noyabrdagi hukmiga binoan:

(F.I.SH.), 1985-yil 12-fevralda  
Toshkent shahar, Chilonzor tumanida  
tug'ilgan, o'z-bek, O'zbekiston fuqarosi,  
ma'lumoti o'rta, oilali, ikki nafar farzandi  
bor, vaqtincha ishsiz, deputat emas,  
muqaddam; jinoyat ishlari bo'yicha  
Chilonzor tuman sudining 2011-yil, 01-  
noyabrdagi ajrimi bilan unga nisbatan  
O'zbekiston Respublikasi JKning 105-  
moddasi 1-qismi bilan qo'zg'atilgan  
jinoyat ishi O'zbekiston Respublikasi JK-  
ning 66<sup>1</sup>-moddasiga asosan harakatdan  
tugatilgan, Toshkent shahar Chilonzor tu-  
mani "Qo'riq" MFY "Qo'riq" qishlog'ida  
istiqomat qiladi, ehtiyyot chorasi sifatida  
2013-yil, 17-sentyabr kuni "shaxsiy  
kafililik" qo'llanilgan, ayblov xulosasi va  
hukm nus-xasini muddatida olgan

(F.I.SH.) O‘zbekiston Respublikasi JKning 104-moddasi 1-qismi va 105-moddasi 1-qismida ko‘rsatilgan jinoyatlarni sodir qilganlikda aybli deb topilgan. O‘zbekiston Respublikasi JKning 59-moddasiga asosan uzil-kesil oylik ish haqining 30 foizini davlat daromadiga ushlab qolish sharti bilan 3 (uch) yil muddatga axloq tuzatish ishi jazosi tayinlangan.

Jazoni ijro qilish G‘ijduvon tuman ichki ishlar bo‘limi zimmasiga yuklatilgan. Jazoni o‘tash muddati uning oylik ish haqidan undiruv boshlangan kundan boshlab hisoblanishi belgilangan. Unga nisbatan qo‘llanilgan ehtiyyot chorasi hukm qonuniy kuchga kirkach bekor qilinishi belgilangan.

Jabrlanuvchilar (F.I.SH.) va (F.I.SH.)larga yetkazilgan moddiy va ma‘naviy zarar bo‘yicha fuqarolik tartibida sudga murojaat qilish huquqiga ega ekanliklari tushuntirilgan.

Sud hukmiga ko‘ra, (F.I.SH.), qasddan jinoyat sodir qilish yo‘liga o‘tib, sodir etilayotgan paytda hayot uchun xavfli bo‘lgan qasddan badanga og‘ir shikast yetkazish va sodir etilayotgan vaqtida hayot uchun xavfli bo‘lmagan, lekin sog‘lig‘ining uzoq vaqt ya’ni yigirma bir kundan ortiq ammo to‘rt oydan ko‘p bo‘lmagan muddatga yomonlashuviga sababchi bo‘lgan qasddan badangan o‘rtacha og‘ir shikast yetkazish jinoyatlarini sodir qilgan.

Chunonchi, 2017-yil, 4-avgust kuni soat 15:30 larda, spirtli ichimlik iste‘mol qilgan mast holatda, Chilonzor tumani “Qoraxon” qishloq fuqarolar yig‘ini “Qo‘riq” qishlog‘idagi otasining uyida akasi (F.I.SH.) bilan o‘zaro kelishmovchilik oqibatida janjallashib, janjal vaqtida akasi (F.I.SH.)ning bel sohasiga o‘tkir tig‘li oshxonha pichog‘i bilan bir marotaba qasddan urib, sodir etilayotgan paytda hayot uchun xavfli bo‘lgan og‘ir shikast etkazgan.

Shuningdek, u shu vaqtning o‘zida ya’ni, 2017-yil, 4-avgust kuni soat 15:30 larda spirtli ichimlik iste‘mol qilgan mast holatda, Chilonzor tumani “Qoraxoni” qishloq fuqarolar yig‘ini “Qo‘riq” qishlog‘ida otasining uyida ukasi (F.I.SH.) bilan ham o‘zaro kelishmovchilik oqibatida janjallashib, janjal vaqtida ukasi (F.I.SH.) ning o‘ng quloq orqa sohasi, yo‘qori lab, bo‘yin soxasi, o‘ng qo‘l panjasи 4-barmoq tirnoq falangasi va ko‘krag qafasi orqa yuzasiga qo‘llari, pichoq va oftoba bilan qasddan bir necha marotaba urib, sodir etilayotgan paytda hayoti uchun xavfli bo‘lmagan, lekin sog‘lig‘ining uzoq vaqt, ya’ni kamida yigirma bir kun, ammo to‘rt oydan ko‘p bo‘lmagan davrda yomonlashuviga sabab bo‘lgan, qasddan badaniga o‘rtacha og‘ir shikast yetkazish jinoyatini sodir qilgan.

Protestda, sudlangan (F.I.SH.) akasi (F.I.SH.) va ukasi (F.I.SH.)ga og‘ir tan jarohati yetkazish maqsadi bo‘lganligi, ammo guvoh va jabrlanuvchilarning faol qarshiliklari natijasida jinoiy harakatlarini

oxiriga etkaza olmaganligi, ikki va undan ortiq shaxsning badaniga qasddan yetkazilgan og‘ir, o‘rtacha og‘ir shikast, basharti aybdorning harakatlari yagona qasd bilan qamrab olingen va odatda uzuluksiz bir vaqtning o‘zida yoki juda qisqa vaqt ichida sodir etilgan bo‘lsa, JKning 104-moddasi 3-qismining “a” bandi, 105-moddasi 2-qismining “a” bandi bilan kvalifikatsiya qilinmog‘i lozimligi ko‘rsatilgan bo‘lib, Chilonzor tuman sudi sudlangan (F.I.SH.)ning harakatlarini JK 25, 104-moddasi 3-qismining “a” bandidan JKning 105-moddasining 1-qismiga qayta kvalifikatsiya qilishda Oliy Sud Plenumining yo‘qoridagi ko‘rsatma-sining mazmun mohiyatini noto‘g‘ri asos qilib ko‘rsatib, noqonuniy xulosaga kelib, sudlangan (F.I.SH.)ga sodir etgan jinoyatiga nomutanosib tarzda yengil jazo tayinlaganligi sababli, jinoyat ishlari bo‘yicha Chilonzor tuman sudining 2017-yil, 14-noyabrda (F.I.SH.)ga oid hukmni bekor qilib, jinoyat ishini yangidan boshqa sud tarkibiga ko‘rib chiqish uchun yuborish so‘ralgan.

Jinoyat ishlari bo‘yicha Toshkent shahar sudining kassatsiya sudlov hay’ati, ish yuzasidan viloyat sudi sudyasi (F.I.SH.)ning ma’ruzasini, Toshkent shahar prokurorining yordamchisi (F.I.SH.)ning protestni qanoatlantirib, bиринчи instansiya sudining hukmini bekor qilish haqidagi fikrini tinglab, protestda keltirilgan vajlarni ish hujjatlari bilan solishtirib ko‘rib, bиринчи instansiya sudining hukmini o‘zgarishsiz, kassatsiya protestini qanoatlantirmasdan qoldirishni lozim topadi.

Sudlangan (F.I.SH.)ning sud hukmida ko‘rsatilgan jinoyatni sodir etganlikdagi aybi, o‘z aybiga to‘liq iqrorlik bildirib bergan ko‘rsatmasidan tashqari;

Chilonzor tuman ichki ishlar bo‘limi navbatchilik qismiga berilgan xabar;

(F.I.SH.) ning Chilonzor tuman IIB boshlig‘i nomiga yozgan arizasi;

Hodisa sodir bo‘lgan joyni ko‘zdan kechirish bayonnomasi va unga ilova qilingan fotosuratlar;

№256984-sonli sud tibbiy ekspertizasi fuqaro (F.I.SH.)ning 2-3 darajali shok holati hamda tashqi qon ketishi, qorin parda orti bo‘shlig‘i gematomasi bilan kechgan o‘ng bel sohasidagi yarasi o‘tkir sanchib kesuvchi jism ta’siridan, o‘ng ko‘z yo‘qori qovog‘idagi qontalash esa qattiq o‘tmas jismlar ta’siridan paydo bo‘lgan bo‘lib bu jarohatlar og‘irlilik darajasi bo‘yicha og‘ir tan jarohati toifasiga kirishi haqidagi ekspert xulosasi;

№125489-sonli sud tibbiy ekspertizasi fuqaro (F.I.SH.)ning o‘ng ulloq osti sohasidagi yarasi, yo‘qori labidagi qon quyilish, bo‘yin sohasidagi shilinmasi, o‘ng qo‘l panjasni 4-barmoq tirnoq falangasidagi yorilishi, qattiq o‘tmas jism ta’siridan, ko‘krak qafasi orqa yuzasidagi yarasi o‘tkir sanchib kesuvchi jism ta’siridan yetkazilgan bo‘lib, bu

jarohatlar og‘irlik darajasi bo‘yicha o‘rtacha og‘ir tan jarohati toifasiga kirishi haqidagi ekspert xulosasi hamda jinoyat ishi yuzasidan to‘plangan boshqa barcha dalillar yig‘indisi bilan to‘liq o‘z isbotini topgan.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2007-yil, 27-iyun-dagi 6-sonli qarorida “Jinoyat kodeksi 104-110-moddalarini bo‘yicha javobgarlik aybdorda mazkur moddalar dispozitsiyasida ko‘rsatilgan shikastni boshqa bir odamga huquqqa xilof ravishda yetkazishga nisbatan qasd (to‘g‘ri yoki egri) mavjud bo‘lgandagina kelib chiqishini, agar aybdor o‘z harakati yoki harakatsizligining ijtimoiy xavfli ekanligini anglasa, jabrlanuvchi badaniga muayyan darajada shikast yetkazishi mumkinligiga ko‘zi etsa va shuni xohlasa yoinki xohlamasada, bunga ongli ravishda yo‘l qo‘ysa yoki o‘z qilmishidan kelib chiqadigan oqibatlarga befarq qarasa, barcha qilmish aslida kelib chiqqan oqibatlar bo‘yicha kvalifikatsiya qilinishi lozimligi qayd etilgan.

Mazkur Plenum qarori talabidan kelib chiqib, sudlov hay’ati sudlangan Z.Narzievning aybi tasdiqlanganligi haqida asosli xulosaga kelib, birinchi bosqich sudi tomonidan uning jinoiy harakatlari O‘zbekiston Respublikasi JK 104-moddasining 1-qismi va 105-moddasining 1-qismi bilan to‘g‘ri kvalifikatsiya qilingan deb hisoblaydi.

Birinchi bosqich sudi tomonidan sudlangan (F.I.SH.)ga nisbatan jazo tayinlashda uning shaxsi, muqaddam sudlanmaganligini, oilaviy sharoitini, sodir etilgan jinoyatning xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasini, qaramog‘ida voyaga yetmagan farzandlari borligini, yetkazilgan zararni to‘liq bartaraf qilinganligi va jabrlanuvchilarining unga nisbatan da‘volari yo‘qligini inobatga olinib, modda sanksiyalari doirasida adolatli jazo tayinlangan.

Bayon qilinganlarga asosan, sudlov hay’ati, birinchi instansiya sudining hukmini o‘zgartirish yoki bekor qilish uchun ishda asoslar mavjud emas deb hisoblaydi.

Yo‘qoridagilarga asosan hamda O‘zbekiston Respublikasi JPKning 478, 490-491, 496, 506-509-moddalariga asoslanib, jinoyat ishlari bo‘yicha Toshkent shahar sudi kassatsiya instansiyasi sudlov hay’ati,

#### **AJRIM QILDI :**

Jinoyat ishlari bo‘yicha Chilonzor tuman sudining 2017-yil, 14-noyabr kunidagi (F.I.SH.)ga nisbatan chiqargan hukmi o‘zgarishsiz, kassatsiya protesti qanoatlantirilmasdan qoldirilsin.

Raislik qiluvchi :

(F.I.SH.)

Hay'at sudyalari :

(F.I.SH.)

(F.I.SH.)

### **3-§. Nazorat instansiyasi sudi sud hujjatlari**

**O‘zbekiston Respublikasi JPKning 510-moddasiga asosan quyidagilar hukm va ajrim (qaror) ustidan nazorat tartibida shikoyat berish huquqiga ega bo‘lgan shaxslar hisoblanadi:**

Apellatsiya yoki cassatsiya tartibida ko‘rib chiqilgan ishlar bo‘yicha chiqarilgan hukm va ajrim (qaror) ustidan ushbu Kodeksning 498-moddasida ko‘rsatilgan shaxslar nazorat tartibida shikoyat berishlari mumkin.

Nazorat tartibida berilgan shikoyatning mazmuni ushbu Kodeks 502<sup>1</sup>-moddasining birinchi qismida nazarda tutilgan talab-larga muvofiq bo‘lishi kerak. Nazorat tartibidagi shikoyatga ish bo‘yicha qabul qilingan sud qarorlarining sud tomonidan tasdiqlangan ko‘chirma nusxalari ilova qilinishi kerak.

**O‘zbekiston Respublikasi JPKning 510<sup>1</sup>-moddasida Sud qarorlari ustidan nazorat tartibida shikoyat qilish va protest keltirish tartibi belgilangan. Unga ko‘ra quyidagi sud qarorlari ustidan nazorat tartibida shikoyat qilinishi va protest keltirilishi mumkin:**

viloyat sndlari va ularga tenglashtirilgan sndlар tomonidan appellatsiya yoki cassatsiya tartibida ko‘rib chiqilgan ishlar bo‘yicha – O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudsining jinoyat ishlari bo‘yicha sudlov hay’atiga;

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudsining jinoyat ishlari bo‘yi-cha sudlov hay’ati tomonidan appellatsiya yoki cassatsiya yoxud nazorat tartibida ko‘rib chiqilgan ishlar bo‘yicha – O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudsining Rayosatiga.

O‘zbekiston Respublikasi JPKning 521-moddasida nazorat instansiyasi sudsining vakolatlari bayon qilingan bo‘lib, unga ko‘ra sud ishni nazorat tartibida ko‘rib chiqib, o‘zining ajrimi, qarori bilan:

1) hukmni, ajrimni, qarorni o‘zgarishsiz, shikoyatni yoki protestni esa qanoatlantrishsiz qoldirishga;

2) ajrimni, qarorni bekor qilishga va ishni yangidan appellatsiya yoki cassatsiya tartibida ko‘rib chiqish uchun yuborishga;

- 3) hukmni, ajrimni, qarorni bekor qilishga va ishni tugatishga;
- 4) hukmni, ajrimni, qarorni o'zgartirishga haqlidir.

## **O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining jinoyat ishlari bo'yicha sudlov hay'atining amaliyotidan namuna**

**Nazorat ish № 5-633-17**

### **O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY SUDINING JINOYAT ISHLARI BO'YICHA SUDLOV HAY'ATINING SUD AMALIYOTI**

Jinoyat ishlari bo'yicha Mirobod tuman sudining 2017-yil, 10-martdagi ajrimiga ko'ra, sud majlisi bayonnomasi tasdiqlanib, Jinoyat kodeksining 111-moddasi 1-qismi bilan S.ga nisbatan yuritilgan jinoyat ishi tomonlar yarashganligi munosabati bilan tugatilgan.

Jinoyat ishlari bo'yicha Toshkent shahar sudi cassatsiya instansiyasining 2017-yil, 3-maydagi ajrimi bilan ajrim o'zgarishsiz qoldirilgan.

Sudning ajrimiga ko'ra, S. Toshkent Markaziy temir yo'l vokzalining fuqarolarni kutib olish uchun mo'ljallangan 7-sonli postida xizmat burchimi bajarayotgan vaqtida, «Termiz – Toshkent» yo'nalishi bo'yicha qatnovchini poyezdda kelayotgan ota-onasini kutib olish uchun kelgan fuqaro F.ni haqorat qilganini vaj qilib, uning qo'lidan ushlab, ichkariga olib kirmoqchi bo'ladi. Ammo F. S.ning qo'lidan chiqib kyetib, erga yiqiladi. Buning eqibatida u sud-tibbiyot ekspertizasining xulosasiga ko'ra, «o'rtacha og'ir» tan jarohati oladi.

Oliy sud Plenumining 2002-yil, 25-oktabrdagi «Yarashuv to'g'risidagi ishlari bo'yicha sud amaliyoti haqida» gi 27-sonli qarori 7-bandida, qonunda yarashuv to'g'risidagi ishlari bo'yicha sud majlisida gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi, jabrlanuvchi (fuqaroviy da'vogar), ularning qonuniy vakillari, himoyachilar va prokuror ishtiroy etishi nazarda tutilganligi, biroq bu sudning ish yuzasidan qonuniy, asosli va adolatlari qaror qabul qilishi uchun zarur bo'Igan hollarda yo'qorida ko'rsatilganlardan tashqari o'zga shaxslarni ham ishga jalb etish hamda qonunda nazarda tutilgan boshqa vakolatlardan foydalinish huquqini cheklamasligi, sud ajrim chiqarishda Jinoyat protsessual kodeksining 586-moddasida nazarda tutilgan talablarga qat'iy rioya etishi shartligi;

Oliy sud Plenumining 1997-yil, 22-avgustdagi «Sudlar tomonidan jinoyat ishlarini birinchi bosqich sudida muhokama etish jarayonida protsessualqonunchilikka rioya qilinishi to'g'risida»gi 12-sonli qarori 4-bandida, sudlarning e'tibori har bir ishni ko'rishda dalillarni bevosita

sud majlisida tekshirishga, ya’ni sudlanuvchilarni, jabrlanuvchilarni, guvohlarni so‘roq qilish, ekspert xulosasini tinglash, ashyoviy dalillarni ko‘zdan kechirish, bayonnomalarni va boshqa hujjatlarni e’lon qilishga;

6-bandida, ashyoviy dalillarni, hujjatlarni tekshirish, joyni va binoni ko‘zdan kechirish ish bo‘yicha haqiqatni aniqlash uchun ahamiyatli ekanligini inobatga olib, ashyoviy dalillar va hujjatlar sud majlisida ish bo‘yicha boshqa dalillar qatorida chuqr tekshirilishi (shuningdek, ko‘zdan kechirilishi, e’lon qilinishi) lozimligi haqida tushuntirishlar berilgan.

Jinoyat ishi bo‘yicha qayd etilgan Plenum qarorlari tushuntirishlariga rioya qilinmagan.

Birinchi instansiya sudi gumon qilinuvchi tariqasida ishtirok etishga jalg qilingan S.ga oid jinoyat ishini ko‘rib chiqishda jinoyat yuz bergenligi va u bilan bog‘liq barcha holatlarni aniqlash choralarini ko‘rmagan, shuningdek, gumon qilinuvchi, jabrlanuvchi va guvohlarning ushbu holat yuzasidan tergov davrida bergen ko‘rsatmalariga tegishli baho bermagan va Jinoyat protsessual kodeksining 585-586-moddalariga zid ravishda jinoyat ishini dastlabki tergov yuritish uchun prokurorga yuborish to‘g‘risidagi masalani muhokama qilmasdan ishni yarashil-ganligi munosabati bilan Jinoyat kodeksining 661-moddasiga asosan tugatish haqida barvaqt xulosaga kelgan.

Aytish kerakki, Jinoyat protsessual kodeksining 2-moddasiga ko‘ra, aybi bo‘lmagan hech bir shaxs javobgarlikka tortilmasligi va hukm qilinmasligi uchun aybdorlarni fosh etish hamda qonunning to‘g‘ri tatbiq etilishimi ta‘minlash jinoyat-protcessual qonun hujjatlarining vazifasi hisoblanadi.

Shuningdek, ushbu kodeksning 3-moddasiga muvofiq, jinoyat ishlarini yuritish, jinoyat sodir etilgan joydan qat’i nazar, basharti O‘zbekiston Respublikasining boshqa davlatlar bilan tuzilgan shartnoma va bitimlarida o‘zgacha qoidalar belgilanmagan bo‘lsa, ish yuzasidan surishtiruv, dastlabki tergov va sud muhokamasi yuritilayotgan paytda amalda bo‘lgan qonun hujjatlariga muvofiq olib boriladi.

2017-yil, 1-apreldan kuchga kirgan «Fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini ta‘minlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida»gi qonun bilan Jinoyat protsessual kodeksining 586-moddasi to‘rtinchchi qismi 1-bandi yangi tahrirda bayon etildi, unga ko‘ra, sud ajrimining qaror qismida jinoyat ishini taraflarning yarashganligi munosabati bilan yoki ushbu kodeksning 83 va 84-mod-dalarida belgilangan boshqa asoslar bo‘yicha tugatish

yoxud uni umumiy qoidalar bo'yicha dastlabki tergovni amalga oshirish uchun prokurorga yuborish to'g'risidagi masalalarni hal etadi.

Ishning haqiqiy holatiga hamda jinoyat-protsessual qonunchilikka kiritilgan o'zgartirishlarga ko'ra, S.ga nisbatan chiqarilgan ajrimlar bekor qilinib, ish Jinoyat protsessual kodeksining 83-moddasi 2-qismiga asosan tugatilishi lozim.

Jinoyat kodeksining 111 -moddasi 1-qismida ehtiyyotsizlik orqasida badanga o'rtacha og'ir shikast etkazganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilangan.

Qonun mazmuniga ko'ra, ehtiyyotsizlik orqasida sodir etilgan jinoyatlar yetkazilgan oqibatga qarab, ayrim hollarda esa, bu oqibatlarni vujudga keltirgan usul va vositasiga qarab tavsiflanadi. Bunday turdag'i jinoyatlar uchun javobgarlik masalasi ijtimoiy xavfli oqibat etkazilishi bilan yuzaga keladi. Qilmish (harakat yoki harakatsizlik)ning mavjud bo'imasligi, o'z navbatida, javobgarlikni yuzaga keltirmaydi.

Oliy sud Plenumining 2007-yil, 27-iyundagi «Badanga qasddan shikast yetkazishga oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida»gi 6-sonli qarori 2-bandida, badanga shikast yetkazishga oid ishlar bo'yicha qilmishni to'g'ri kvalifikatsiya qilish uchun ayb shakli, badanga shikast yetkazish motivi, maqsadi va usuli, aybdorning qilmishi bilan kelib chiqqan oqibat o'rtaida sababiy bog'lanish mavjudligi, shuningdek, ishning to'g'ri hal etilishi va aybdorgaadolatli jazo belgilanishi uchun ahamiyatlbo'lgan boshqa holatlar batafsилaniqlanishi, 22-bandida esa, agar aybdor qo'llagan zo'rlik jabrlanuvchini do'pposlash, uning badaniga yengil yoki o'rtacha og'ir shikast yetkazishga sabab bo'lsa, jabrlanuvchi badaniga og'ir shikast (yoki jabrlanuvchining o'limi) aybdorning aybi bilan qamrab olinmagan holatlar bo'yicha (masalan, zarbadan so'ng yiqilish natijasida) kelib chiqqan bo'lsa, aybdor oqibatiga ko'zi yetmagan, biroq ko'zi etishi shart va mumkin bo'ljan yoxud ko'zi etsa-da, yetarli asoslarsiz uning oldini olishni mo'ljallab qilgan harakatlari natijasida kelib chiqqan oqibatlar Jinoyat kodeksining 111 yoki 102-moddalari bilan kvalifikatsiya qilinishi haqida tushuntirishlar berilgan.

Kassatsiya instansiysi sudi jinoyat va jinoyat-protsessual qonun normalari hamda Plenum qarori tushuntirishlariga amal qilmasdan, birinchi instansiya sudi tomonidan ishning haqiqiy holatlari qanchalik to'g'ri aniqlangani, moddiy va protsessual qonun normalari qanchalik to'g'ri qo'llanilganini tekshirmagan.

Jinoyat ishi bo'yicha dastlabki tergov harakatlari yuritgan Toshkent transport proko'raturasi tomonidan ushbu holat bo'yicha F.ga nisbatan 2017-yil, 15-fevralda Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 183-moddasi bilan ma'muriy ish qo'zg'atilgan va ish sudda

ko'rib chiqilib, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 21-moddasiga asosan tugatilib, F. ma'muriy javobgarlikdan ozod etilgan.

Tergov organi ish bo'yicha to'plangan obyektiv dalillar yig'indisiga huquqiy baho bermasdan, S.ni Jinoyat kodeksining 111-moddasi 1-qismi bilan ishda gumon qilinuvchi tariqasida jalg qilib, ishni yarashilganligi munosabati bilan sudga yuborish to'g'risida qaror chiqargan.

Jinoyat ishi materiallariga ko'ra, S. Toshkent tarmoq IIB PPX militsioneri vazifasida ishlab kelib, 2016-yil, 2-noyabrda Toshkent Markaziy temir yo'l vokzalida burchini bajarayotgan paytda fuqaro F. uni haqoratlab, qonuniy talablarini bajarmagan. Shunda S. huquqbuzarlik sodir etgani uchun F.ga nisbatan tegishli tartibda chora ko'rish uchun navbatchilik qismiga olib bormoqchi bo'lganida, F. militsiya xodimlariga nisbatan qarshilik ko'rsatib, ularga bo'ysunmasdan S.ning qo'lidan chiqib ketishga harakat qilgan vaqtida onasi bilan birga erga yiqilib tushishi oqibatida tan jarohati olgan.

S. o'ziga berilgan vakolatlar doirasida xizmat vazifalarini bajargan bo'lib, u tomonidan jabrlanuvchi F.ga nisbatan urish, turtish yoki itarib yuborish kabi harakatlар sodir etilmagan, aksincha, F. IIB xodimlariga qarshilik ko'rsatib, faol harakat bilan orqaga tisarilgan vaqtida S.ning qo'lidan chiqib kyetib, erga yiqilishi oqibatida tan jarohati olgan.

Bunday holda S.ga oid jinoyat ishi bo'yicha chiqarilgan sud qarorlarini qonuniy va asosli deb bo'lmaydi.

Jinoyat protsessual kodeksining 83-moddasi 2-bandida, qilmishda jinoyat tarkibi bo'lmasa, gumon qilinuvchi aybsiz deb topilishi va reabilitatsiya etilishi lozimligi ko'rsatilgan.

Jinoyat protsessual kodeksining 401-moddasiga muvofiq, ushbu kodeksning 83-moddasida nazarda tutilgan holatlar mavjud bo'lsa, sud jinoyat ishini tugatadi. Shu kodeksning 493-moddasida, jinoyat ishini nazorat tartibida ko'rib, sud ushbu kodeksning 83-moddasida nazarda tutilgan asoslar mavjud bo'lgan taqdirda, shuningdek, birinchi instansiya sudida ko'rib chiqilgan dalillar sudlanuvchini aybdor deb topish uchun yetarli bo'lmasa va qo'shimcha dalillar to'plash imkoniyati qolmagan bo'lsa, jinoyat ishini tugatishi ko'rsatilgan.

Oliy sud Plenumining 2008-yil, 15-maydagi «Sudlar tomonidan jinoyat ishlarini nazorat tartibida ko'rish amaliyoti to'g'risida»gi 12-sonli qarori 28-bandida berilgan tushuntirishlarga ko'ra, nazorat instansiysi sudi hukmni, ajrimni, qarorni bekor qilganda, Jinoyat protsessual kodeksining 83, 84-moddalarida nazarda tutilgan asoslar mavjud bo'lganda, ishni to'liq hajmda yoki mustaqil kvalifikatsiya qilingan aylov qismi bo'yicha tugatadi.

Nazorat instansiyasi sudi S.ning qilmishida jinoyat tarkibi mavjud emasligi sababli ish bo'yicha chiqarilgan sud qarorlarini bekor qilib, jinoyat ishini Jinoyat protsessual kodeksining 83-moddasi 2-bandiga asosan tugatdi.

## **NAZORAT UCHUN SAVOLLAR**

1. Hukm ustidan appellatsiya tartibida shikoyat berish va protest bildirish huquqiga ega bo'lgan shaxslar sanab bering.
2. Hukm ustidan kassatsiya tartibida shikoyat berish va protest bildirish huquqiga ega bo'lgan shaxslar sanab bering.
3. Appellatsiya instansiya sudida chiqariladigan sud hujjatlarini sanab bering va ularga tavsif bering.
4. Kassatsiya instansiya sudida chiqariladigan sud hujjatlarini sanab bering va ularga tavsif bering.
5. Nazorat instansiya sudida chiqariladigan sud hujjatlarini sanab bering va ularga tavsif bering.

## **29-MAVZU. HUKM, AJRIM, QARORLARNI IJRO ETISH BOSQICHIDA CHIQARILADIGAN SUD HUJJATLAR**

O‘zbekiston Respublikasi JPKning 528-moddasida hukmning qonuniy kuchga kirishi va uni ijro etish tartibi belgilangan bo‘lib, unga ko‘ra hukm uning ustidan appellatsiya shikoyati berish va protest bildirish muddati o‘tishi bilan qonuniy kuchga kiradi. Apellatsiya shikoyati berilgan yoki protest bildirilgan taqdirda hukm, agar u bekor qilinmagan bo‘lsa, ishni yo‘qori sud ko‘rib chiqqan kuni qonuniy kuchga kiradi.

Mahkumlar ikki va undan ortiq bo‘lgan taqdirda, basharti shulardan loaqlar biriga nisbatan hukm ustidan shikoyat berilgan yoki protest bildirilgan bo‘lsa, yo‘qori sud ishni ko‘rib chiqquniga qadar mahkumlarning hammasiga nisbatan hukm qonuniy kuchga kirmay turadi.

Hukm qonuniy kuchga kirgan yoki ish appellatsiya instansiysi sudidan qaytarilgan kundan boshlab uch kundan kechikmay, hukm chiqargan sud tomonidan ijro ettiriladi. Ish faqat birinchi ins-tansiya sudiga yuborilishi lozim, prokurorga yoki boshqa sudga yuborilishi mumkin emas.

Birinchi instansiya sudining ajrimi shu ajrim ustidan apel-latsiya tartibida xususiy shikoyat berish va xususiy protest bil-dirish muddati o‘tishi bilan yoxud shikoyat yoki protest bildirilgan taqdirda ish yo‘qori sudda ko‘rib chiqilganidan keyin qonuniy kuchga kiradi va ijro etiladi.

Sudning shikoyat berilishi, protest bildirilishi mumkin bo‘l-magan ajrimi shu ajrim chiqarilishi bilanoq darhol kuchga kiradi va ijro etiladi.

Jinoyat ishini tugatish haqidagi sud ajrimining ayblanuvchini, guman qilinuvchini yoki sudlanuvchini qamoqdan yoki uy qamog‘idan ozod qilishga oid qismi darhol ijro etilishi lozim.

Kassatsiya yoki nazorat instansiysi sudining ajrimi (qarori) u e’lon qilingan paytdan e’tiboran qonuniy kuchga kiradi.

Yo‘qori instansiya sudining ajrimi, qarori JPKning 497-moddasida nazarda tutilgan qoidalarga ko‘ra ijroga qaratiladi.

Shuni alohida bayon qilish lozimki, O‘zbekiston Respublikasi JPKning 531-moddasi hukmni, ajrimni va qarorni ijro ettirish tartibi bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga solib, unga ko‘ra hukm, ajrim

va qarorni ijro ettirish ularni qabul qilgan sud zimmasiga yuklatiladi.

Hukmni ijro etish to‘g‘risidagi farmoyish sudya yoki sud raisi tomonidan hukmni ijro etish majburiyati yuklatilgan organga hukmnning nusxasi bilan birgalikda yuboriladi. Ish appellatsiya, kassatsiya yoki nazorat tartibida ko‘rilganda hukm o‘zgartirilgan bo‘lsa, hukm nusxasiga appellatsiya, kassatsiya yoki nazorat instansiysi sudining ajrimi yoxud qarori nusxasi ilova qilinadi.

Hukmni ijro etuvchi organlar uning ijro etilganligi haqida hukmni chiqqargan sudga darhol xabar beradi. Jazoni ijro etish muassasasining ma‘muriyati mahkum jazoni qayerda o‘tayotgani haqida hukmni chiqqargan sudga xabar berishi shart.

Sud qarorini o‘z vaqtida yoki to‘la bajarmaslik qonun hujjaligiga binoan javobgarlikka sabab bo‘ladi.

Qonuniy kuchga kirgan hukmning nusxasi zarur hollarda mahkumning ish, o‘qish yoki yashash joyiga yuboriladi.

Qonuniy kuchga kirgan hukm haqida zarur hollarda matbuot yoki boshqa ommaviy axborot vositalari orqali jamoatchilikka ma’lum qilinadi.

Sud mahkumni harbiy unvonidan yoki maxsus unvonidan mahrum etish to‘g‘risida qaror chiqqargan bo‘lsa, sud hukmnning nusxasini ijro etish uchun ana shu unvонни bergen organga yuboradi. Sud davlat mukofotlari bilan taqdirlangan yoki oliv harbiy yoxud maxsus unvonga ega bo‘lgan shaxsga nisbatan ayblov hukmini chiqarishda uni ana shu mukofotlar yoki unvonlardan mahrum etish to‘g‘risida tegishli organga taqdimnomha kiritishning maq-sadga muvoqiqligi masalasini hal qiladi.

Sud qarorining jarima solishga va boshqa mulkiy undirishlarga taalluqli qismini ijro etish uchun ijro varaqalari yoki ularning dublikatlari sud qarorining nusxasi bilan birga bиринчи instansiya sudi tomonidan sudning qarori qonuniy kuchga kirgan yoki ish appellatsiya instansiysi sudidan qaytarilgan kundan e’tiboran uch kundan kechiktirmay mahkumning yashash joyidagi yoxud jazoni o‘tash joyidagi, shuningdek mahkumning mol-mulki turgan joydagi davlat ijrochilariga yuboriladi.

Qamoqda saqlanayotgan mahkumni ozodlikdan mahrum etish to‘g‘risidagi hukm qonuniy kuchga kirgани va ijro ettirilishi ha-qida sud mahkumning oilasini xabardor qilishi shart.

Qamoqda saqlanayotgan mahkum bilan uchrashuvlarga hukmni ijro ettirishdan avval JPKning 477-moddasi asosida ruxsat etiladi.

Sud tomonidan mahkumning voyaga yetmagan farzandlarini muassasalarning, qarindoshlarining yoki boshqa shaxslarning homiyligiga berish to‘g‘risida qaror qabul qilingan bo‘lsa, sud bu haqda bolalar turgan joydagi vasiylik organiga, shuningdek mahkumga xabar beradi.

Mahkumning qarovsiz qolgan mol-mulki va turar joyini qo‘riqlash choralarini ko‘rish zarurligi to‘g‘risida sud mol-mulk va turar joy joylashgan yerdagi hokimlikka yoki fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organiga xabar qiladi, bu haqda mahkumni xa-bar-dor etadi.

**Hukmni ijro etishda yuzaga kelgan shubha va  
noaniqliklarni bartaraf qilish  
to‘g‘risida ajrimi namunasi**

**AJRIM**

(hukmni ijro etishda yuzaga kelgan shubha va noaniqliklarni  
bartaraf etish to‘g‘risida)

2018-yil, 16-avgust

Toshkent shahri

Jinoyat ishlari bo‘yicha Toshkent shahar Yunusobod tuman sudi,  
ushbu sud binosida, ochiq sud majlisida,

**Raislik etuvchi:** \_\_\_\_\_,  
\_\_\_\_\_ ning kotibligida, tomonlardan Mirzo Ulug‘bek  
tuman prokurorining yordamchisi \_\_\_\_\_ ning ishtirokida,  
(F.I.SH.)ga nisbatan chiqarilgan hukning ijrosiga taalluqli masalalarni  
O‘zbekiston Respublikasi JPKning 541-moddasi tartibida ko‘rib  
chiqib, quydagilarni

**ANIQLADI :**

Jinoyat ishlari bo‘yicha Yunusobod tuman sudining 2018-yil, 12-iyuldagи hukmiga ko‘ra,

Aliev Valijon Baxtiyorovich, 1995-yil,  
06-fevral kuni Toshkent shahrida  
tug‘ilgan, millati o‘zbek, O‘zbekiston  
Respublikasi fuqarosi, oilali, ma’lumoti

o'rta-mahsus, partiyasiz, deputat emas, xarbiy xizmatga majbur, vaqtincha ishsiz, muqaddam sud-lanmagan, Toshkent shahar, Yunusobod tumani, Markaz-7 dahasi, 182-uy, 34-hona-donda istiqomat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi JKnning 168-moddasining 1-qismida nazarda tutilgan jinoyatni sodir qilganlikda aybdor deb topilgan va unga shu moddaga asosan eng kam oylik ish xaqining **50 (ellik)** baravari, ya'ni **6.450.500 (olti million to'rt yuz ellik ming besh yuz)** so'm miqdorida jarima jazosi tayinlansin. (F.I.SH.)ga nisbatan qo'llanilgan garov ehtiyoj chorasi bekor qilingan.

Sud hukmini ijroga yuborish jarayonida hukmnинг qaror qismi keltirilgan uchinchi xatboshisida mahkum Aliev Valijon Baxtiyorovichning familiyasi va ismi "Valiev Alijon Baxtiyorovich" deb yozilib, texnik xatolikka yo'l qo'yilganligi aniqlandi.

Sud ish hujjatlarini o'rganib chiqib, Yunusobod tuman prokurori yordamchisi (F.I.SH.)ning sud hukmidagi mahkum V.B.Alievning familiyasi va ismiga aniqlik kiritish lozimligi haqidagi fikrini eshitib, sud hukmdagi V.B.Alievning familiyasi va ismiga aniqlik kiritishni lozim topadi.

Jinoyat ishida mavjud bo'lgan V.B.Alievga Toshkent shahar, Chilonzor tuman IIB tomonidan berilgan 24.06.2016 yilda berilgan AV 1234567 raqamli pasportda familiyasi, ismi va otasinig ismi "Aliev Valijon Baxtiyorovich" deb yozilgan.

O'zbekiston Respublikasi JPKning 541-moddasiga asosan hukmni ijro etishda yuz beradigan har qanday shubha va noaniqliklarni hukmni chiqargan sud hal qiladi.

Yo'qorida bayon qilinganlarni inobatga olgan holda sud V.B.Alievga nisbatan chiqarilgan hukmga aniqlik kiritib, hukmnинг qaror qismi uchinchi xatboshisida texnik xatolikka yo'l qo'yilib, "Valiev Alijon Baxtiyorovich" yozilgan familiyasi va ismini "Aliev Valijon Baxtiyo-rovich" tartibida tuzatib o'qishni lozim topadi.

O'zbekiston Respublikasi JPKning 541–542-moddalariga amal qilib, sud

#### AJRIM QILDI :

Jinoyat ishlari bo'yicha Yunusobod tuman sudi tomonidan 2018-yil, 12-iyul kuni O'zbekiston Respublikasi JKnning 168-moddasining 1-qismi bilan sudlangan Aliev Valijon Baxtiyorovichga nisbatan chiqarilgan hukmga aniqlik kiritilsin.

Hukning qaror qismi uchinchi xatboshisidagi "Valiev Alijon Baxtiyorovich" ni "Aliev Valijon Baxtiyorovich" tartibida tuzatib o'qilsin.

Ajrim nusxasi Yunusobod tuman prokurori, Yunusobod tuman majburiy ijro byurosi boshlig'i va mahkum V.B.Alievga ma'lumot uchun yuborilsin.

Hukm raislik etuvchi tomonidan alohida xonada «LG» rusumli kompyuterida tuzildi.

**Sudya:**

## **NAZORAT UCHUN SAVOLLAR**

**1.** Hukm, ajrim, qarirlarni ijro etish bosqichida chiqariladigan sud hujjatlarining o'ziga xos xususiyatlarini tushuntirib bering.

**2.** Hukmni ijro etishda yuzaga kelgan shubha va noaniqliklarni bartaraf qilish to'g'risida ajrimini tavsiflab bering.

## **30-MAVZU. ALOHIDA TOIFADAGI JINOYAT ISHLARINI YURITISHDA RASMIYLASHTIRILADIGAN PROTSESSUAL HUJJATLAR**

### **1-§. Voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlarni yuritish**

O‘zbekiston Respublikasi JPKning 60-bobi voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlarni yuritish deb nomlangan bo‘lib, unga ko‘ra “Jinoyat qilgunga qadar o‘n sakkiz yoshga to‘lmagan shaxslarning jinoyatlari haqidagi ishlarni yuritish tartibi umumiy qoidalari, shuningdek JPKning 548–564-moddalari asosida belgila-nadi.”, deb belgilangan.

SHu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2000-yil, 15-sentyabrdagi 21-sonli «Voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlar bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida»gi qarori ham aynan voyaga yyetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlarni yuritish bilan bog‘liq normalarga tushuntirish beril-gan.

Surishtiruv, dastlabki tergov harakatlari va sud muhokamasi davrida voyaga yyetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlar bo‘yicha, JPKning 82 – 84-moddalarida ko‘rsatilgan holatlardan tashqari, quyidagilar isbotlanishi lozim:

- 1) voyaga yetmagan ayblanuvchining aniq yoshi (tug‘ilgan yili, oy, kuni);
- 2) voyaga yyetmaganning shaxsiga xos xususiyatlar va uning salomatligi holati;
- 3) uning turmush va tarbiyalanish sharoitlari;
- 4) katta yoshli dalolatchilar va boshqa ishtirokchilarning bor yoki yo‘qligi.

O‘zbekiston Respublikasi JPKning 549-moddasida voyaga yyetmaganning qonuniy vakili ishda qatnashishi bayon qilingan bo‘lib, unga ko‘ra voyaga yyetmaganning jinoyatlari haqidagi ishni yuritishda qonuniy vakiuning qatnashishi shart.

Qonuniy vakiuning ishda ishtirok etishiga surishtiruvchi yoki tergovchining qarori bo‘yicha voyaga yetmagan shaxsni gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi tariqasida birinchi so‘roq qilish paytidan boshlab yo‘l qo‘yiladi. Qonuniy vakiuning ishda ishtirok etishiga yo‘l qo‘yilganda unga JPKning 61-moddasida nazarda tutilgan huquqlar tushuntiriladi.

Qonuniy vakil o‘z harakati bilan voyaga yetmagan shaxsning manfaatiga zarar etkazadi deb hisoblash uchun asos bo‘lsa, surish-tiruvchining, tergovchining qarori yoki sudning ajrimi bilan voyaga yetmaganning qonuniy vakili ishda qatnashishdan chet-lashtirilishi mumkin. Bunday holda voyaga yetmagan shaxsning manfaatlarini himoya qilish boshqa qonuniy vakilga yoki vasiylik va homiylik organining vakiliga topshiriladi.

Shuni alohida ta’kidlash zarurki, O‘zbekiston Respublikasi JPKning 563-moddasiga ko‘ra, voyaga yetmagan sudlanuvchiga nisbatan hukm chiqarishda sud, ushbu Kodeksning 457-moddasida ko‘rsatilgan masalalardan tashqari, basharti voyaga yetmagan shaxs shartli hukm qilinsa, unga ozodlikdan mahrum etish bilan bog‘liq bo‘lmagan jazo tayinlansa, voyaga yetmagan shaxsga jamoat tarbiyachisi tayinlash zarurligini muhokama qilishga majbur.

Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi JPKning 564-moddasasi asosan voyaga yetmagan shaxsni Jinoyat kodeksi 87-moddasining birinchi qismiga muvofiq javobgarlikdan ozod qilib, materiallarni voyaga yetmaganlar ishi bilan shug‘ullanuvchi komissiyada ko‘rishga topshirishda surishtiruvchi, tergovchi, prokuror qaror, sud esa ajrim chiqaradi.

Voyaga yetmagan shaxsga nisbatan ishni ko‘rishda Jinoyat kodeksi 87-moddasining ikkinchi va uchinchi qismlarida nazarda tutilgan hollarda sud voyaga yetmagan shaxsni jazodan ozod qilish va unga nisbatan majburlov chorasi qo‘llanish to‘g‘risidagi masalani muhokama etishi shart. Sud majburlov chorasi qo‘llanish yoki qo‘llanmaslik to‘g‘risida asoslantirilgan ajrim chiqaradi.

Majburlov chorasi qo‘llanish yoki qo‘llanmaslik to‘g‘risidagi ajrim ustidan umumiy tartibda shikoyat berilishi va protest bildirilishi mumkin.

### **Voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlarni yuritish bilan bog‘liq sud hukmi namunasi**

#### **HUKM O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI NOMIDAN**

2018-yil, 26-avgust

Toshkent shahri

Jinoyat ishlari bo‘yicha Toshkent shahar Mirzo Ulug‘bek tuman sudi, ushbu sud binosida, ochiq sud majlisida,

**Raislik etuvchi:** \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_ ning kotibligida, tomonlardan Mirzo Ulug‘bek tuman prokurori katta yordamchisi \_\_\_\_\_, advokat \_\_\_\_\_, qonuniy vakillar \_\_\_\_\_, \_\_\_\_\_ larning ishtirokida, O‘zbekiston Respublikasi JK 169-moddasi 3-qismining «a» bandi bilan ayblangan:

(F.I.SH.), 2001-yil, 02-mayda Toshkent viloyatida tug‘ilgan, millati tojik, O‘zbekiston fuqarosi, bo‘ydoq, ma’lumoti tugal-lanmagan o‘rta, Toshkent viloyati Bo‘stonliq tumani iqtisodiyot kasb-hunar kolleji 2-kurs o‘quvchisi, muqaddam sudlanmagan, xarbiyga majbur, Toshkent viloyati, Bo‘stonliq tumani, A.Xudaybergenov ko‘chasi, 2-uyda ro‘yxatda turib, Toshkent viloyati, Bo‘s-tonliq tumani, Ozodbosh qishlog‘i, Tutzor ko‘chasi, 4-uyda yashovchi, ayblov xulosasi nusxasini o‘z vaqtida olgan, ehtiyyot chorasi sifatida «shaxsiy kafillik» qo‘llanilgan

va

(F.I.SH.), 10 yanvar 2001-yilda Toshkent shahrida tug‘ilgan, millati qozoq, O‘zbekiston fuqarosi, bo‘ydoq, ma’lumoti tugallanmagan o‘rta, Toshkent viloyati Bo‘stonliq tumani, iqtisodiyot kasb-hunar kolleji 2-kurs o‘quvchisi, muqaddam sudlan-magan, xarbiyga majbur, Toshkent viloyati, Bo‘stonliq tumani, A.Xudaybergenov ko‘chasi, 1-uyda yashovchi, ayblov xulosasi nusxasini o‘z vaqtida olgan, ehtiyyot chorasi sifatida «shaxsiy kafillik» qo‘llanilganlarga nisbatan \_\_\_\_\_-sonli jinoyat ishini ko‘rib chiqdi.

Sud, sudlanuvchi, jabrlanuvchilarning ko‘rsatmalarini tinglab, jinoyat ish materiallarini taxlil qilib, tomonlar muzokarasi, sudlanuvchilarning ximoya va oxirgi so‘zini tinglab, quyidagilarni

**ANIQLADI :**

Sudlanuvchi voyaga yetmagan (F.I.SH.) va (F.I.SH.)lar o‘zganining mulkini yashirin ravishda tolon-taroj qilish maqsadida o‘zaro jinoiy til biriktirib, 2018-yil, 05-iyul kunidan 06-iyul kuniga o‘tar kechasi soat 00-30 larda, Toshkent shahar Mirzo Ulug‘bek tumani TTZ daxasidagi SHirin bozorida bo‘la turib, o‘sha yerdagi «Anvar omad baraka» MCHJga qarashli kiyim-kechak do‘konining tomini buzish yo‘li bilan g‘ayriqonuniy ravishda kirib, mazkur do‘konning umumiy maydonida alohida qismlarga ajratilmagan rastalarda saqlanayotgan (F.I.SH.)ga tegishli bo‘lgan umumiy narxi 715.000 sum bo‘lgan 12 dona erkaklar yozgi oyoq kiyimini, 20 dona erkaklar noskisini, 12 dona erkaklar ichki kiyimini, 7 dona erkaklar futbolkasini 10 dona erkaklar shortigini, (F.I.SH.)ga tegishli bo‘lgan umumiy narxi 950.000 so‘m bo‘lgan 34 dona qo‘l soatini, 40 dona naushniklarini, 10 dona telefon zaryadkalarini, (F.I.SH.)ga tegishli bo‘lgan umumiy narxi 450.000 so‘m bo‘lgan 12 dona «MP-3» kolonkalarini o‘g‘irlab voqeа joyidan yashiringanlar.

Sud majlisida qonuniy vakili ishtirokida sudlanuvchi tariqasida so‘roq qilingan (F.I.SH.) qilmish jinoiy xarakatlariga to‘liq iqrorlik bildirib, xaqiqatdan xam (F.I.SH.) bilan o‘g‘irlilik qilish niyatida 2018-yil, 05-iyul kuni Toshkent shahriga kelishganligi, aylanib yurib, soat taxminan 00-30larda Shirin bozorida joylashgan do‘kon tomiga chiqib, shiferini otvertka va «ploskogubsa» yordamida ochishib, do‘kon ichiga (F.I.SH.) kirganligi va unga 11 dona MP-3 kalonkalari, 18 dona qo‘l soatlari, bir dona paketda bo‘lgan naushniklar, telefon batrareykalar, 3 dona xar xil turdagи Samsung rusumli telefonlari, Nokiya 1202 rusumli telefoni, ikki dona sho‘rtik va ikki dona futbolkalar, 10 dona paypoq, 7 dona erkaklar ichki kiyimini, 4 dona tapochkalarni olib bergenligi, so‘ng o‘g‘irlangan narsalarni olib, uylariga Bo‘stonliq tumaniga qaytib ketishganligi, o‘g‘irlangan narsalardan bir qismimi Chirchiq va Yangiobod bozorlarida sotib, pullarini o‘z extiyojlariga ishlatalishganligi, 2018-yil, 08-iyul kuni Toshkent viloyati G‘azalkent tumanida joylashgan bozorda o‘g‘irlangan narsalarni sotmoqchi bo‘lishganida IIB xodimlari ularni ushlashganligini, so‘ng o‘g‘irlangan narsalarning qolgan qismimi IIB xodimlari bayonnomma tuzib olishganligi, xozirda qilgan ishidan pushaymonligini bildirib, unga nisbatan yengillik berishni so‘radi.

Sud majlisida qonuniy vakili ishtirokida sudlanuvchi tariqasida so‘roq qilingan (F.I.SH.) qilmish jinoiy xarakatlariga to‘liq iqrorlik bildirib, xaqiqatdan xam (F.I.SH.) bilan o‘g‘irlilik qilish niyatida 2018-yil, 05-iyul kuni Toshkent shahriga kelishib, soat taxminan 00-30larda Shirin bozorida joylashgan do‘kon tomiga chiqib, shiferini otvertka va «ploskogubsa» yordamida ochishib, do‘kon ichiga tushib, (F.I.SH.)ga

11 dona MP-3 kalonkaları, 18 dona qo'l soatlari, bir dona paketda bo'lgan naushniklar, telefon batrareykalari, 3 dona xar xil turdagı Samsung rusumli telefonları, Nokiya 1202 rusumli telefoni, ikki dona sho'stik va ikki dona futbolkalar, 10 dona paypoq, 7 dona erkaklar ichki kiyimini, 4 dona tapochkalarni olib bergenligi, so'ng o'g'irlangan narsalarni olib, uylariga Bo'stonliq tumaniga qaytib ketishganligi, o'g'irlangan narsalardan bir qismini Chirchiq va Yangiobod bozorlarida sotib, pullarini o'z extiyojlariga ishlatishganligi, 2018-yil, 08-iyul kuni Toshkent viloyati G'azalkent tumanida joylashgan bozorda o'g'irlangan narsalarni sot-moqchi bo'lishganida IIB xodimlari ushlab, o'g'irlangan narsalarning qolgan qismini IIB xodimlari bayonna ma'muriyatiga tuzib olishganligi, xozirda qilgan ishidan pushaymonligini bildirib, unga nisbatan yengillik berishni so'radi.

Sud majlisida sudlanuvchi (F.I.SH.) va (F.I.SH.)lar ularga e'lon qilingan aybga to'liq iqrorlik bildirib yo'qoridagi ko'rsatmalarni berib o'tgan bo'lsada, ularning xar biri sud tergovi davomida aniqlangan holatlardagi aybi qo'yidagi dalillar majmuasi bilan to'liq tasdiqlanadi.

Xususan, sud majlisida jabrlanuvchi tariqasida so'roq qilingan (F.I.SH.) xaqiqatdan xam Mirzo Ulug'bek tuman TTZ-2 daxasida joylashgan «Anvar omad baraka» MCHJga qarashli do'kon sotuvchi bo'lib ishlashi, do'konning maydoni umumiyligi bo'lib qismlarga ajratilmaganligi, do'kon iichida mavjud bo'lgan bir dona rastada savdo qilishi, 2018-yil, 05-iyuldan 06-iyul kuniga o'tar kechasi mazkur do'konda o'g'irlik sodir qilinib, unga tegishli umumiyligi narxi 715.000 sum bo'lgan 12 dona erkaklar yozgi oyoq kiyimi, 20 dona erkaklar noskisi, 12 dona erkaklar ichki kiyimi, 7 dona erkaklar futbolkasini 10 dona erkaklar shortigi o'g'irlanganligi, tergov vaqtida mazkur jinoyatni (F.I.SH.) va (F.I.SH.)lar sodir qilganligini bilganligi, sud tergovi davomida unga yetkazilgan zarar sudlanuvchilarni qarindoshlari tomonidan to'liq qoplanganligini, sudlanuvchilar (F.I.SH.) va (F.I.SH.)larga nisbatan da'vosi yo'qligini ko'rsatib, ularga yengillik berilishini so'radi.

Sud majlisida jabrlanuvchi tariqasida so'roq qilingan (F.I.SH.) xaqiqatdan xam Mirzo Ulug'bek tuman TTZ-2 daxasida joylashgan «Anvar omad baraka» MCHJga qarashli do'konda sotuvchi bo'lib ishlashi, do'konning maydoni umumiyligi bo'lib qismlarga ajratilmaganligi, do'kon ichida mavjud bo'lgan bir dona rastada savdo qilishi, 2018-yil, 05-iyuldan 06-iyul kuniga o'tar kechasi mazkur do'konda o'g'irlik sodir qilinib, unga tegishli umumiyligi narxi 950.000 so'm bo'lgan 34 dona qo'l soati, 40 dona naushniklari, 10 dona telefon zaryadkalari o'g'irlanganligi, tergov vaqtida mazkur jinoyatni (F.I.SH.) va (F.I.SH.)lar sodir qilganligini bilganligi, sud tergovi davomida unga

yetkazilgan zarar sudlanuvchilarni qarindoshlari tomonidan to‘liq qoplanganligini, sudlanuvchilar (F.I.SH.) va (F.I.SH.)larga nisbatan da’vosi yo‘qligini ko‘rsatib, ularga yengillik berilishini so‘radi.

Sud majlisida jabrlanuvchi tariqasida so‘roq qilingan (F.I.SH.) xaqiqatdan xam Mirzo Ulug‘bek tuman TTZ-2 daxasida joylashgan «Anvar omad baraka» MCHJga qarashli do‘konda ishdan bo‘s vaqtlarida sotuvchilik qilib kelganligi, do‘konning maydoni umumiy bo‘lib qismlarga ajratilmaganligi, do‘kon ichida mavjud bo‘lgan bir dona rastada savdo qilishi, 2018-yil, 05-iyuldan 06-iyul kuniga o‘tar kechasi mazkur do‘konda o‘g‘irlilik sodir qilinib, unga tegishli umumiy narxi 450.000 so‘m bo‘lgan 12 dona «MP-3» kolonkalari o‘g‘irlanganligi, tergov vaqtida mazkur jinoyatni (F.I.SH.) va (F.I.SH.)lar sodir qilganligini bilganligi, sud tergovi davomida unga yetkazilgan zarar sudlanuvchilarni qarindoshlari tomonidan to‘liq qoplanganligini, sudlanuvchilar (F.I.SH.) va (F.I.SH.)larga nisbatan da’vosi yo‘qligini ko‘rsatib, ularga yengillik berilishini so‘radi.

Shuningdek, sudlanuvchilar (F.I.SH.) va (F.I.SH.)larni sodir etilgan jinoyatdagi ayblari ish xujjatlari jabrlanuvchilarning arizalari; voqeа joyini chizmasi; narsani olish bayonnomasi; narsani ko‘zdan kechirish bayonnomasi va fotojadval; narsani daliliy ashyo deb e’tirof etish qarori; hamda jinoyat ishida mavjud bo‘lgan boshqa obyektiv dalillar yig‘indisi bilan tasdiqlanadi.

Sud, sudlanuvchi (F.I.SH.) va (F.I.SH.)larning harakatlarini yuridik kvalifikatsiyasini muxokama yetib, dastlabki tergov organlari tomonidan ularning xarakatlari O‘zbekiston Respublikasi JK 169-moddasining 3-qismi bilan noto‘g‘ri malakalangan deb xisoblaydi.

O‘zbekiston Respublikasi JPK 463-moddasida aylov xukmi taxminlarga asoslangan bo‘lishi mumkin emas va faqat sudlanuvchining jinoyat sodir etishda aybli ekanligi sud muxokamasi davomida isbot qilingan taqdirdagina chiqariladi. Aylov xukmiga jinoyat sodir etilishining ish bo‘yicha barcha mumkin bo‘lgan holatlarini tekshirish, ish materiallarida ma‘lum bo‘lib qolgan barcha kam-ko‘stni to‘ldirish, yuzaga kelgan xamma shubxa va qarama-qarshiliklarga barxam berish natijasida yig‘ilgan ishonchli dalillargina asos qilib olinishi lozimligi ko‘rsatilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining 15.05.2008 yil kungi “Bir necha jinoyat sodir etilganda qilmishni kvalifikatsiya qilishga doir masalalar to‘g‘risida”gi Qarorining 4-bandida jinoyatlar takroranligini bir qator aynan o‘xshash xatti-xarakatlar bilan turli vaqlarda sodir etilgan bo‘lsa-da, biror yagona qasd bilan qamrab olingan, obyekti va sodir etish usuli, oqibatlari bir xilligi jihatidan o‘zaro o‘xshash davomli jinoyatdan farqlash lozim. Bunday hollarda

barcha qilmish Jinoyat kodeksining mazkur jinoyatni sodir etganlik uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi bitta moddasi yoki moddasi qismi bilan kvalifikatsiya qilinishi lozimligi ko'rsatilgan.

Sudda aniqlangan xolatga ko'ra sudlanuvchi (F.I.SH.) va (F.I.SH.)lar «Anvar omad baraka» MCHJga qarashli do'konga g'ayriqonuniy ravishda kirishib, bir vaqtning o'zida va faqat mazkur do'konning umumiylar maydonida qismlarga ajratilmagan alohida rastalarda do'kon sotuvchilari bo'lган jabrlanuvchilar (F.I.SH.), (F.I.SH.) va (F.I.SH.)larga tegishli bo'lган narsalarni o'g'irlashgan. Mazkur holatda sudlanuvchi (F.I.SH.) va (F.I.SH.)lar xatti-harakatlarida yagona qasd bilan qamrab olingen, obyekti va sodir etish usuli, oqibatlari bir xil bo'lган yagona jinoyat alomatlari mavjud.

Yo`qoridagilardan kelib chiqib, sud, sudlanuvchi (F.I.SH.) va (F.I.SH.)larning harakatlarini O'zbekiston Respublikasi JK 169-moddasi 3-qismining «a» bandidan JK 169-moddasi 2-qismining «v,g» bandi bilan o'g'irlik, ya'ni o'zganining mulkini yashirin ravishda talon-toroj qilish, bir gurux shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib, boshqa xonaga g'ayriqonuniy ravishda kirib sodir sodir etish jinoyat alomatlariga qayta malakala什ni lozim topadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining 15.09.2000 yil kungi "Voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi Qaroring 9-bandida sud voyaga yetmaganlarga jazo tayinlash masalasini xal etayotganda, birinchi navbatda, sodir etilgan jinoyatning xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasini, ana shu shaxslarga oid ma'lumotlarni hamda jazoni yengillashtiruvchi va og'irlashtiruvchi holatlarni nazarda tutib, ozodlikdan maxrum qilish bilan bog'liq bo'lмагan jazoni qo'llash imkoniyatini muxokama qilishi lozim. Sud aybdorni jamiyatdan ajratmasdan turib qayta tarbiyalashning imkoniyati bo'lмагan hollardagina ozodlikdan maxrum qilish tarzidagi jazoni tayinlashi mumkin. Ayni vaqtida hukmda sudning bu to'g'risidagi xulosasi asoslanrilishi shartligi ko'rsatilgan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining 03.02.2006 yil kungi "Sudlar tomonidan jinoyat uchun jazo tayinlash amaliyoti to'g'risida"gi Qarorining 3, 5, bandlarida jinoyat kodeksining 8, 54-mod-dalari mazmuniga ko'ra, jazo adolatlari bo'lishi - xar bir holatda individual tayinlanishi, jinoyatning xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasiga, aybdorning shaxsiga, shuningdek, jazoni yengillashtiruvchi va og'irlashtiruvchi holatlarga muvofiq bo'lishi kerakligi, sudlar ijtimoiy xavfi katta bo'lмагan, shuningdek uncha og'ir bo'lмагan jinoyatlarni sodir etishda aybdor deb topilgan va jamiyatdan ajratmagan xolda axloqan tuzatilishi mumkin bo'lган shaxslarga nisbatan

ozodlikdan maxrum qilish bilan bog'liq bo'Imagan jazolar tayinlash uchun qonunda mavjud barcha imkoniyatlardan to'liq foydalanishlari kerakligi ko'rsatilgan.

Mazkur Plenum Qarorining 12-bandida voyaga yetmaganlarga nisbatan jazo tayinlashda sudlar JKning 81-90-moddalarida belgilangan xususiyatlarni inobatga olishlari shartligi, voyaga yetmaganlarga jazo tayinlash paytida JKning 54-moddasida nazarda tutilgan holatlardan tashqari, xar bir muayyan xolda, shuningdek uning rivojlanish darajasi, turmush sharoiti va tarbiyasi, sog'lig'i, jumladan, ruhiy rivojlanish darajasi, jinoyatni sodir etish motivlari, katta yoshdagi shaxslarning uning xulq-atvoriga salbiy ta'siri haqidagi ma'lumotlar, shaxsiga ta'sir qiluvchi boshqa holatlar aniqlanishi va baxolanishi lozimligi, o'n sakkiz yoshga to'lgunga qadar jinoyat sodir etgan shaxs ish sudda ko'rilayotgan vaqtida voyaga etgan bo'lsa xam, unga nisbatan tayinlanayotgan jazo muddati yoki miqdori JKning 82-85-moddalarida belgilangan maksimal muddat va miqdorlardan oshishi mumkin emasligi ko'rsatilgan.

Sud, yo'qorida keltirilgan Plenum qarorlari talablariga rioya qilib, sudlanuvchi (F.I.SH.) va (F.I.SH.)larga jazo tayinlashda jinoyatning xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasini hamda qilmishining sabablarini, sudlanuvchi jinoyatni qasddan g'araz niyatlarda sodir etganligi aybni og'irlashtiruvchi holatlari deb, shu bilan bиргаликда sudlanuvchi aybiga to'liq iqrorligi va qilmishidan pushaymonligi, jabrlanuvchilarga yetkazilgan zarar to'liq qoplanganligi va ularning da'vosи yo'qligini, voyaga yetmaganligini jazoni yengillashtiruvchi holatlar deb baholaydi, va O'zbekiston Respublikasi Jkning 82-moddasini qo'llab, jarima jazosini tayinlashni hamda O'zbekiston Respublikasi JPK 563-moddasiga asosan sudlanuvchilarga jamoat tarbiyachisi tayinlash lozim topadi.

Yo'qoridagilarga va O'zbekiston Respublikasi JPKning 454-457,460, 463,465-468,471-moddalariga asosan sud

### HUKM QILADI :

(F.I.SH.) O'zbekiston Respublikasi JK 169-moddasi 2-qismining «v,g» bandlarida nazarda tutilgan jinoyatni sodir qilganlikda aybdor deb topilsin va unga shu moddaga asosan O'zbekiston Respublikasi JK 82-moddasini qo'llab, eng kam oylik ish xaqining **10** baravari miqdorida, ya'ni **1.843.000 so'm** jarima jazosi tayinlansin.

(F.I.SH.) ning ehtiyyot chorasi xukm qonuniy kuchga kirkach bekor qilinsin.

O‘zbekiston Respublikasi JPKning 563-moddasiga asosan (F.I.SH.)ga Toshkent viloyati Bo‘stonliq tumani iqtisodiyot kasb-hunar kolleji direktori jamoat tarbiyachisi yetib tayinlansin.

(**F.I.SH.**) O‘zbekiston Respublikasi JK 169-moddasi 2-qismining «v,g» bandlarida nazarda tutilgan jinoyatni sodir qilganlikda aybdor deb topilsin va unga shu moddaga asosan O‘zbekiston Respublikasi JK 82-moddasini qo‘llab, eng kam oylik ish xaqining **10** baravari miqdorida, ya’ni **1.843.000 so‘m** jarima jazosi tayinlansin.

(F.I.SH.)ning ehtiyot chorasi xukm qonuniy kuchga kirgach bekor qilinsin.

O‘zbekiston Respublikasi JPK 563-moddasiga asosan (F.I.SH.)ga Toshkent viloyati Bo‘stonliq tumani iqtisodiyot kasb-hunar kolleji direktori jamoat tarbiyachisi yetib tayinlansin.

O‘zbekiston Respublikasi JPKning 497<sup>2</sup>,497<sup>4</sup>-moddalariga asosan xukm ustidan xukm e’lon qilingandan so‘ng 10 sutka ichida, maxkum, jabrlanuvchi tomonidan esa ularga xukm topshirilgan kundan e’tiboran shunday muddat ichida jinoyat ishlari bo‘yicha Toshkent shahar sudiqa tuman sudi orqali appellatsiya tartibida shikoyat, prokuror esa protest keltirishi mumkin. O‘zbekiston Respublikasi JPKning 498-moddasiga asosan xukm ustidan appellatsiya tartibida shikoyat yoki protest keltirilmagan taqdirda, cassatsiya tartibida protest yoki shikoyat keltirishlari mumkin.

**Raislik etuvchi:** \_\_\_\_\_ (imzo)

## **2-§. Tibbiy yo‘sindagi majburlov choralarini qo‘llash to‘g‘risidagi ishlarni yuritish**

Tibbiy yo‘sindagi majburlov choralarini qo‘llash to‘g‘risidagi masalalarni ko‘rish tartibi O‘zbekiston Respublikasi JPKning umumiyligi qoidalari, shuningdek 566 – 581-moddalari asosida belgilanadi. Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2008-yil, 12-dekabrdagi 23-sonli “Ruhiy kasallikka chalingan shaxslarga nisbatan tibbiy yo‘sindagi majburlov choralarini qo‘llash bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi qarori ham mavjud.

Jinoyat qilgandan keyin ruhiy kasallikka duchor bo‘lib qolgan shaxsning jinoyati to‘g‘risidagi ish bo‘yicha shaxsda jinoyat sodir etgandan keyin yuzaga kelgan va jazo qo‘llashni istisno etuvchi ruhiy kasallik borligi isbotlanishi lozim.

Aqli norasoning ijtimoiy xavfli qilmishi to‘g‘risidagi ish yuzasidan quyidagilar isbotlanishi lozim:

1) JPKning 82-moddasi 1, 2 va 5-bandlarida nazarda tutilgan holatlar;

2) shaxs qilmish sodir etgan vaqtida surunkali ruhiy kasal ekanligi, ruhiyati vaqtincha buzilganligi, aqli zaifligi yoki boshqa kasalligi, shuning oqibatida uning aqli noraso holatda bo‘lganligi, ya‘ni o‘z harakatlarini idrok eta olmaganligi yoki o‘z harakatlarini idora qila olmaganligi;

3) mazkur shaxsning surishtiruv, dastlabki tergov yuritish va sud muhokamasi vaqtidagi ruhiy holati.

Shu bilan birgalikda jinoyat sodir etganidan so‘ng ruhiy kasallikka duchor bo‘lib qolgan shaxsning ishi bo‘yicha, shuningdek ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan aqli noraso shaxsning ishi bo‘yicha shaxsning bundan keyingi xatti-harakati o‘zi va atrofdagilar uchun xavf tug‘dirishi mumkinmi-yo‘qmi ekanligi, uning davolanishga muhtojligi yoki muhtoj emasligi, unga nisbatan tibbiy yo‘sindagi majburlov choralar qo‘llanishiga zarurat bor yoki yo‘qligini va qanday choralar qo‘llash lozimligini hal qilish uchun asos bo‘ladigan holatlar ham isbotlanishi lozim.

Keyinchalik ruhiy kasallikka duchor bo‘lib qolgan shaxs sodir etgan jinoyat to‘g‘risidagi yoki aqli noraso shaxsning ijtimoiy xavfli qilmishi haqidagi ish bo‘yicha sud majlisida chiqarilgan sud ajrimi quyidagi qoidalar asosida tuziladi.

Sud ajrimning kirish qismida ishi ko‘rilayotgan shaxsning familyasi, ismi, otasining ismi, tug‘ilgan yili, oyi, kuni va joyi, turar joyi, ish joyi, mashg‘ulot turi, ma’lumotini va shaxsi to‘g‘risidagi ish uchun ahamiyatga molik boshqa ma’lumotlarni ko‘rsatadi.

Ajrimning tavsif-asoslash qismida sud tibbiy yo‘sindagi majburlov choralarini qo‘llash yoki qo‘llamaslik uchun asos bo‘lib xizmat qilgan holatlarni bayon qiladi, shu chorani qo‘llashni taqozo qiladigan, shubha ostiga qo‘yadigan yoki unga monelik qiladigan dallilar keltiradi. Shundan so‘ng ajrimda sud ushbu Kodeksning 576-

moddasida sanab o‘tilgan masalalarga o‘zining javoblarini ifoda-laydi.

Ajrimning xulosa qismida sud quyidagi qarorlardan birini bayon qiladi:

1) shaxsni jinoyat sodir etgan, keyinchalik ruhiy kasal bo‘lib qolgan deb e’tirof etish yoxud uni ijtimoiy xavfli qilmishni aqli noraso holatda sodir etgan deb tan olish to‘g‘risida, shuningdek bu shaxsga nisbatan tibbiy yo‘sindagi majburlov choralarini qo‘llash yoki qo‘llamaslik to‘g‘risida;

2) ishi ko‘rilayotgan shaxs qilgan deb hisoblanayotgan jinoyat hodisasi yoki ijtimoiy xavfli qilmish yo‘qligi sababli ishni tugatish to‘g‘risida;

Oldingi tahrirga qarang.

3) shaxsning dahldor emasligi tufayli tibbiy yo‘sindagi majburlov choralarini qo‘llash to‘g‘risidagi ish yuritishni tugatish haqida va ushbu shaxsni aniqlash hamda uni ayblanuvchi tariqasida ishda ishtirok etishga jalb qilish choralarini ko‘rish uchun ishni prokurorga yuborish to‘g‘risida;

4) tibbiy yo‘sindagi majburlov choralarini qo‘llash to‘g‘risidagi ishni yuritishni tugatish va mazkur shaxsga nisbatan ish bo‘yicha JPKning 579-moddasiga asosan sud ishi yurituvini qo‘zg‘atish haqida.

Keyinchalik ruhiy kasallikka duchor bo‘lgan shaxsning sodir etgan jinoyati yoki aqli noraso shaxsning ijtimoiy xavfli qilmishi tufayli mulkiy ziyon yetkazilgan bo‘lsa, ziyoning o‘rnini qoplash masalasi fuqaroviy sud ishlarini yuritish tartibida hal etiladi.

Ruhiy holati buzilgan va umumiy asosda davolanishga muhtoj bo‘lgan shaxsga nisbatan tibbiy yo‘sindagi majburlov choralarini qo‘llash to‘g‘risidagi ishni yuritish tugatilgan taqdirda, sud bu haqda shaxsning turar joyidagi sog‘liqni saqlash organiga darhol xabar qiladi.

**Tibbiy yo‘sindagi majburlov choralarini qo‘llash  
to‘g‘risidagi ishlarini yuritish bilan  
bog‘liq sud ajrimi namunasi**

**AJRIM**

(tibbiy yo‘nsidagi majburlov chorasi qo‘llashni rad etish to‘g‘risida)

Jinoyat ishlari bo'yicha Toshkent shahar Mirzo Ulug'bek tuman  
sudi 2014-yil,

11-sentyabr kuni, ushbu sud binosida ochiq sud majlisida,

**Raislik etuvchi:** \_\_\_\_\_,

\_\_\_\_\_ ning kotibligidada, tomonlardan Mirzo Ulug'bek tuman prokurorining yordamchisi \_\_\_\_\_ larning ishtirokida, himoyachi \_\_\_\_\_ O'zbekiston Respublikasi JKning 105-moddasining 1-qismida nazarda tutilgan jinoyat sodir qilishda ayblangan,

(F.I.SH.), 1985-yil, 27-iyun kuni Toshkent shahrida tug'ilgan, millati o'zbek, O'zbekiston Respublikasi fuqarosi, turmushga chiqqan, 1 nafar voyaga yetmagan farzandi bor, ma'lumoti o'rta, vaqtinchalik ishsiz, partiyasiz, deputatlilikka saylanmagan, muqaddam sudlanmagan, Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani, Maysara ko'chasi, 131-uy, 111-xonadonda yashaydi

Mirzo Ulug'bek tuman IIB tergovchisi \_\_\_\_\_-sonli jinoyat ishi bo'yicha tibbiy yo'sindagi majburlov chorasini qo'llash to'g'risidagi qarorini ko'rib chiqib,

### **ANIQLANDI :**

Dastlabki tergov organi hujjatlariga ko'ra, (F.I.SH.) 2014-yil, 26-iyul kuni saat 02-00 larda Toshkent shahar Mirzo Ulugbek tumani Oliy Himmat ko'chasi 4-uyning yotoqxonasida mast holdatda bo'la turib, qasddan badanga o'rtacha og'ir tan jarohati yetkazish maqsadida turmush o'rtog'i (F.I.SH.) bilan janjallahib, oyog'i bilan uni tepib tan jarohat etkazgan.

Sud tibbiyot ekspertizasining 2014 -yil, 02-avgustdagи 252-Xuj. sonli xulosasiga ko'ra (F.I.SH.) tanasida "o'ng son suyagining bo'yinchaidan yopiq subkapital sinib siljishi" tan jarohati aniqlanib, bu jarohat "yengil" darajadagi tan jarohati deb baxolangan.

Sud-psixiatriya ekspertizasining 2014-yil, 22-avgust kunidagi 5556-sonli xulosasiga ko'ra, (F.I.SH.) "shizofreniya" kasalligiga chalinganligi, ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan vaqtda o'z harakatlarini idrok eta olmaydigan va o'zini idora qila olmaydigan darajada ruhiy kasallik holatida bo'lanligi sababli, (F.I.SH.) jinoyatni aqli noraso holatda sodir etganligi aniqlangan. Hozirda (F.I.SH.) ruhiy kasallik holatida bo'lib, ish bo'yicha tergov harakatlari va sud majlisida

ishtirok eta olmasligi sababli, tibbiy komissiya tomonidan (F.I.SH.)ni umumiy tiklash maxsus bo‘limiga joylashtirish tavsiya qilingan.

Jabrlanuvchi (F.I.SH.) sud majlisida qilinganda (F.I.SH.) haqiqatdan ham (F.I.SH.)ga turmushga chiqqanidan buyon 18 yil davomida (F.I.SH.) har doim mast holda uyga kelib, u bilan janjallahib kelishini, 2014- yil, 26- iyul kuni soat 02:00 larda (F.I.SH.) uyga mast holda kelib, u bilan janjal chiqqaraganligi, o‘g‘li (F.I.SH.) o‘rtaga tushib ajratganligi, shunda u ularni ajratmoqchi bo‘lgan vaqtida, turmush o‘rtog‘i (F.I.SH.) uni qorin sohasiga tepib kravatdan polga yiqitganligi, shu vaqtida o‘ng oyoq toz sohasida kuchli og‘riq sezganligi, ertalab tez yordam avtomashinasida UZNIITO kasalxonasiga borganligi, u yerda o‘ng oyoq son suyagi singanligi aniqlanib, shifokorlar tomonidan gips o‘rnatilganligi, davolanish uchun 4.000 AQSH dollari qarzga olganligi, lekin davo-lanishga ketgan harajatlarini tasdiqlovchi hujjatlari yo‘qligini, uning oyog‘i suyak ichiga xitoy protezi o‘rnatilganligini, bir umr davolanib yurishi shart ekanligini aytishganligi, oyog‘i singanligi sababli hozirda ishlay olmayotganligini, turmush o‘rtog‘i (F.I.SH.) tomonidan umuman ma’naviy va moddiy yordam ko‘rsatilmaganligini, yarashuvga rozi emasligini ko‘rsatib, (F.I.SH.)ga qonun doirasida chora ko‘rishni so‘radi.

Sud ish bo‘yicha mutxassis va guvohlarning ko‘rsatuvarlarini, Mirzo Ulug‘bek tuman prokurori katta yordamchisi \_\_\_\_\_ ning fikrlarini eshitib, ekspertiza xulosalarini ham ish bo‘yicha to‘plangan boshqa dalillarni o‘rganib chiqib, (F.I.SH.)ga nisbtan tibbiy yo‘sindagi majburlov chorasi qo‘llashni rad etishni va ishni jinoyat hodisasi bo‘lmanligi sababli tugatishni lozim topadi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2008-yil, 12-dekabrdagi 23-sonli “Ruhiy kasallikka chalingan shaxslarga nisbatan tibbiy yo‘sindagi majburlov choralarini qo‘llash bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi qarori 18-bandiga ko‘ra, agar qonunda muayyan qilmish uchun jinoiy javobgarlik ma’muriy jazo qo‘llanilgandan so‘ng kelib chiqishi belgilangan bo‘lib, biroq uni sodir etishda aqli noraso deb topilgan shaxs muqaddam aynan shunday qilmishi uchun ma’muriy javobgarlikka tortilmagan bo‘lsa, tibbiy yo‘sindagi majburlov choralarini qo‘llanilmaydi. Bunday ish jinoyat hodisasi bo‘lmanligi sababli tugatilishi lozim. Qabul qilingan qaror to‘g‘risida sud sog‘liqni saqlash organlariga O‘zbekiston Respublikasining 2000-yil, 31-avgustdagagi “Psixiatriya yordami to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq shaxsga umumiy asoslarda psixiatriya yordami ko‘rsatilishi uchun xabar beradi.

O‘zbekiston Respublikasi JKni 109-moddasining 1-qismida ma‘muriy jazo qo‘llanilganidan keyin sodir etilgan sog‘liqning qisqa muddatga yomonlashuviga yoki mehnat qobiliyatining uncha uzoq

bo‘Imagan muddatga yo‘qolishiga olib kelmagan qasddan bandanga yengil shikast yetkazish uchun jinoiy javobgarlik nazarda tutilgan.

Ish hujjatlaridan ko‘rinib turibdiki, (F.I.SH.) ilgari ma‘muriy javobgarlikka ortilmagan, shu munosabat bilan sud unga nisbatan tibbiy yo‘sindagi majburlov chorasini qo‘llashni rad yetib, ishni tugatishni hamda umumiy asoslarda psixiatriya yordami ko‘rsatilishi uchun doimiy yashash joyidagi sog‘liqni saqlash organiga xabar berishni lozim topadi.

O‘zbekiston Respublikasi JPKning 83-moddasi 1-qismi, 575-577, 581-moddalariga amal qilib, sud

### **AJRIM QILDI :**

(F.I.SH.) nisbatan O‘zbekiston Respublikasi JKning 105-moddas 1-qismi bilan qo‘zg‘atilgan jinoyat ishi ijtimoiy xavfli qilmish yo‘qligi sababli tugatilsin.

(F.I.SH.)ga nisbatan tibbiy yo‘sindagi majburlov chorasini qo‘llash rad etilsin.

Ajrim nusxasi (F.I.SH.)ga nisbatan umumiy asoslarda psixiatriya yordami ko‘rsatish uchun Toshkent shahar Mirzo Ulug‘bek tuman sog‘liqni saqlash bo‘limiga yuborilsin.

Ajrimdan norozi bo‘lgan taraflar o‘n kun ichida Toshkent shahar Mirzo Ulug‘bek tuman sudi orqali jinoyat ishlari bo‘yicha Toshkent shahar sudiga appellatsiya tartibida xususiy shikoyat berilishi yoki protest bildirishi mumkin.

Hukm raislik qiluvchi tomonidan alohida xonada «LG» rusumli kompyuterida tuzildi.

Raislik qiluvchi

(imzo)

### **3-§. Yarashuv to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha ish yuritish**

O‘zbekiston Respublikasi JPKning 582-moddasida yarashilganligi munosabati bilan ko‘rib chiqiladigan jinoyat ishlari ko‘rsatib o‘tilgan bo‘lib, yarashilganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 66<sup>1</sup>-moddasida nazarda tutilgan jinoyatlar to‘g‘risidagi ishlar ko‘rib chiqilishi mumkin.

Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2002-yil, 25-oktabrdagi 27-sonli “Yarashuv to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha sud amaliyoti haqida”gi qarori qabul qilingan.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, sud muhokamasi davomida quyidagilar aniqlanishi lozim:

- yarashuvning ixtiyoriyligi va uning sabablarini;
- gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi o'z aybiga ixtiyoriy iqror bo'lganligini;
- gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi o'zi sodir etgan qilmishning oqibatlarini anglaganligini va yetkazilgan zararni bartaraf etish choralarini ko'rgan-ko'rmaganligini;
- jabrlanuvchiga (fuqaroviylar da'vogarga) yoki gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchiga biron bir tazyiq bo'lgan-bo'lma-ganligini;
- yetkazilgan zararning o'rnini qoplash bilan bog'liq masalalarni;
- gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi, ularning qonuniy vakillari yarashuvga roziliklari.

Sud muhokamasining natijalari bo'yicha sud qonunda belgilangan tartibda ajrim chiqaradi. Sudning ajrimi quyidagi qoidalar bo'yicha tuziladi.

Sud ajrimining kirish qismida:

- 1) ajrim chiqarilgan vaqt va joy;
- 2) ajrim chiqargan sudning nomi, sudyaning, sud majlisi kotibining, taraflarning, tarjimonning ismi, otasining ismi va familiyasi;
- 3) gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining ismi, otasining ismi va familiyasi, tug'ilgan yili, oyi, kuni va joyi, yashash joyi, ishslash joyi, mashg'uloti, ma'lumoti va ish uchun ahamiyatga molik boshqa ma'lumotlar ko'rsatiladi.

Sud ajrimining tavsif qismida yarashuv uchun asos bo'lgan holatlар bayon etiladi, JPKning 585-moddasida sanab o'tilgan masalalarga javoblar ifodalanadi.

Ajrimning qaror qismida sud quyidagi masalalarni hal etadi:

- 1) jinoyat ishini taraflarning yarashganligi munosabati bilan yoki JPKning 83 va 84-moddalarida belgilangan boshqa asoslar bo'yicha tugatish yoxud uni umumiyligi qoidalar bo'yicha surishtiruv yoki dastlabki tergovni amalga oshirish uchun prokurorga yubo-rish to'g'risidagi;

- 2) ehtiyyot chorasi to'g'risidagi;
- 3) ashyoviy dalillar to'g'risidagi;

4) zararni qoplash to‘g‘risidagi.

Sudning ajrimiga gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi, jabrlanuvchi (fuqaroyiv da’vogar), ularning qonuniy vakillari, himoyachi tomonidan xususiy shikoyat berilishi hamda prokuror tomonidan xususiy protest keltirilishi mumkin.

### **Yarashuv to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha ish yuritish bilan bog‘liq sud ajrimi namunasi**

#### **AJRIM**

Jinoyat ishlari bo‘yicha Toshkent shahar Mirzo Ulug‘bek tuman sudi 2014-yil, 11-fevral kuni, ushbu sud binosida ochiq sud majlisida,

**Raislik etuvchi:** \_\_\_\_\_,

\_\_\_\_\_ ning kotibligidada, tomonlardan Mirzo Ulug‘bek tuman prokurorining yordamchisi \_\_\_\_\_ larning ishtirokida, O‘zbekiston Respublikasi Jkning 266-moddasining 1-qismi bilan gumonlanib, jinoyat ishi JKning 66<sup>-1</sup>-moddasiga asosan sudga berilgan

(F.I.SH.), 1968-yil, 28-may kuni

Toshkent shahrida tug‘ilgan, millati o‘zbek, O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi, ma‘lumoti o‘rta, oilali, partiyasiz, davlat mukofotlari olmagan, vaqtincha ishsiz, harbiy xizmatga majbur, muqaddam sudlanmagan, Toshkent shahar, Chilonzor tumani, Tirsakobod ko‘chasi, 74-uyda istiqomat qiluvchi, ehtiyyot chorasi qo‘llanilmaganga oid \_\_\_\_\_-sonli jinoyat ishini ko‘rib chiqdi.

Sud, gumon qilinuvchi va jabrlanuvchini ko‘rsatmalarini hamda tomonlarning fikrini tinglab, ish materiallarini atroflicha taftish qilib, yig‘ilgan dalillarga tegishlicha yuridik baho bergen holda, quyidagilarni

#### **ANIQLADI:**

Dastlabki tergov xujjaligaga ko‘ra, (F.I.SH.) 2013-yil, 14-dekabr kuni soat 07.15 larda ish joyidan biriktirilgan texnik soz holatdagi «SPARK» rusumli davlat paqami 01 A 909 AA bo‘lgan avtomashinasini barcha tegishli hujatlari opqali yo‘lovchilarsiz hamda

yuksiz Toshkent shahap Mirzo Ulyg‘bek tumani hududida joylashgan Toshkent halqa avtomobil yo‘li ko‘chaci bo‘ylab, Do‘pmor yo‘li ko‘chaci tomonidan Temur Malik ko‘chaci tomoniga qapab taxminan 70-75 km.coat tezlik bilan xarakatlanib, Toshkent halqa avtomobil yo‘li ko‘chaci bilan Geofizika ko‘chalari kesishgan choppaxacidagi tartibga solinmagan piyodalar o‘tish joyi qarshisiga yaqinlashgan vaqtida YHQ ning 3.5-bandи 4-qicmi, 12.1-bandи 1-qismi, 16-bandи 1-qismi, 16-bandи 2-qicmi talablariga amal qilmasdan xarakatlanishi oqibatida, tartibga solinmagan piyodalar o‘tish joyidan yo‘lni kesib o‘tayotgan piyoda 10.10.1996 yilda tug‘ilgan (F.I.SH.)ni avtomashinasi oldi chap qismi bilan urib yuborgan. Natijada piyoda (F.I.SH.) olgan tan japohatlari bilan Respublika Travmatologiya kasalxonasiga davolanishga yotqizilgan.

Sud tibbiyot ekspertizasining 27.12.2013 yil kunidagi 6545-X sonli xulosasiga ko‘pa, (F.I.SH.) tanasida bosh miya yopiq japohati, bosh miya chayqalishi, chap son suyagini bo‘yinchasidan yopiq sinib qoniqarli turishi, chap qov suyaklarini yopiq sinib qoniqarli turishi, tanasidagi ko‘plab shilinmalari, chap buyrak lat eyishi, chap tirsagi shilinmasi kabi tan japohatlari aniqlanib, ushbu tan japohatlari og‘iplik darajasi bo‘yicha OFIP tan jarohati deb baholangan.

(F.I.SH.)ning qilmish jinoiy xarakatlari O‘zbekiston Respublikasi Jkning 266-moddasining 1-qismi bilan kvalifikatsiya qilinib, jinoyat ishi JKning 66<sup>1</sup>-moddasi talablariga asosan mazmunan ko‘rib chiqishlik uchun sudga berilgan.

Mazkur jinoyat ishi sud majlisida ko‘rilishida (F.I.SH.) qilmish jinoiy xarakatlariga to‘liq iqrorlik bildirib, haqiqatdan ham 2013-yil, 14-dekabr kuni boshqaruvidagi «Spark» rusumli avtomashinasida piyoda (F.I.SH.)ni urib yuborganligi, natijada (F.I.SH.) tan jarohati olgani, xozirda jabrlanuvchidan kechirim so‘rab, uning qonuniy vakili otasi (F.I.SH.)ga yetkazilgan moddiy va ma‘naviy zararni to‘liq qoplab, dastlabki tergov va sud tergovi davrida u bilan o‘zaro yarashib olishganligi, shu sababli jabrlanuvchi va uning qonuniy vakili uni kechirib, o‘zaro yarashuv haqidagi arizani yozib bergenligini ko‘rsatib o‘tib, jabrlanuvchi va uning qonuniy vakili bilan o‘zaro yarashganliklari haqida sud majlisi bayonnomasini tasdiqlab, uni jinoiy javobgarlikdan ozod qilib, jinoyat ishini tugatishni so‘radi.

Sud majlisida jabrlanuvchi qonuniy vakili tariqasida so‘roq qilingan (F.I.SH.) xaqiqatdan ham 2013-yil, 14-dekabr kuni (F.I.SH.) «Spark» rusumli avtomashinasida uni qizi (F.I.SH.)ni urib yuborganligi, natijada qizi tan jarohati olgani, tergov vaqtida yetkazilgan moddiy zarar to‘liq qoplab bergenligi sababli (F.I.SH.)ga nisbatan moddiy va ma‘naviy da‘vosi yo‘qligini, o‘zaro yarashuv haqidagi arizani o‘z ixtiyori bilan yozib bergenligini, xozirda

(F.I.SH.)ga nisbatan davosi yo'qligi sababli unga nisbatan jinoyat ishini tugatishni, shuningdek, sud tomonidan unga O'zbekiston Respublikasi JPKning 583-moddasining 5-qismi talablari to'liq tushuntirilganligini bayon qildi.

Sud, jinoyat ishi yuzasidan tuman prokurori yordamchisining gumon qilinuvchi (F.I.SH.)ga nisbatan jinoyat ishimi jabrlanuvchi va uning qonuniy vakili bilan o'zaro yarashganligi munosabati bilan tugatish haqidagi fikrini, (F.I.SH.)ning aybiga to'liq iqror bo'lib, qilmish jinoiy xarakatidan qattiq pushaymondaligini, yashash joyidan ijobjiy tavsiflanishini, jabrlanuvchiga yetkazilgan moddiy va ma'naviy zarar to'liq qoplanganligini, jabrlanuvchi va uni qonuniy vakilini (F.I.SH.)ga nisbatan da'vosi yo'q bo'lib, sudda o'zaro yarashuv xaqida o'z ixtiyori bilan ariza yozib berganligini inobatga olib, O'zbekiston Respublikasi JKning 66<sup>1</sup>-moddasi talabiga rioya qilgan holda (F.I.SH.)ni jinoiy javobgarlikdan ozod qilib, unga oid jinoyat ishini tugatishni lozim topadi.

Yo`qoridagilarga asosan va O'zbekiston Respublikasi JPKning 582, 583, 585, 586 -moddalariga asosan, sud

#### **AJRIM QILADI:**

Sud majlisi bayonnomasi tasdiqlansin va O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi 266-moddasining 1-qismi bilan (F.I.SH.)ga oid jinoyat ishi taraflar yarashuvi munosabati bilan tugatilsin.

Ajrimdan norozi tomon, shu tuman sudi orqali jinoyat ishlari bo'-yicha Toshkent shahar sudiga 10 kunlik muddat ichida hususiy tartibda appellatsiya shikoyati yoki xususiy protest keltirishga haqlidir.

Ajrim alohida xonada raislik etuvchi tomonidan «SAMSUNG» kompyuterida yozildi.

**Raislik etuvchi:**

(imzo)

**B.I.Yuldashev**

*Nushasi asliga to 'g'ri-sudyaya:*

#### **4-§. Ishni sudga qadar yuritish bosqichida amnistiya aktini qo'llash**

O'zbekiston Respublikasi JPKning 588-moddasiga ko'ra, amnistiya aktini qo'llash to'g'risidagi ariza tergovga qadar tekshiruv qaysi shaxsga nisbatan o'tkazilayotgan bo'lsa, o'sha shaxs, gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi tomonidan, tegishinchal tergovga qadar o'tkazilgan tekshiruvning, surishtiruvning va dastlabki tergovning istalgan bosqichida berilishi mumkin.

Prokurorning amnistiya aktiga asosan jinoyat ishini qo‘z-g‘atishni rad qilish haqidagi yoki jinoyat ishini tugatish to‘g‘ri-sidagi iltimosnomasi jinoyat sodir qilingan yoxud surishtiruv, dastlabki tergov yuritilayotgan joydagi jinoyat ishlari bo‘yicha tuman (shahar) sudining, hududiy harbiy sudning sudyasi tomonidan, mazkur sudlarning sudyasi bo‘lmagan yoxud iltimosnomani ko‘rib chiqishda uning ishtirokini istisno etuvchi holatlar mavjud bo‘lgan taqdirda esa Qoraqalpog‘iston Respublikasi jinoyat ishlari bo‘yicha sudining raisi, jinoyat ishlari bo‘yicha viloyatlar va Toshkent shahar sudlarining raislari, O‘zbekiston Respublikasi Harbiy sudining raisi belgilaydigan boshqa tegishli sudning sudyasi tomonidan yakka tartibda ko‘rib chiqiladi.

Agar sud majlisi davomida amnistiya aktini qo‘llash uchun asoslar mavjud emasligi aniqlansa, sud tergovga qadar o‘tkazilgan tekshiruv materiallarini yoki jinoyat ishini umumiy qoidalar bo‘yi-cha tegishinchalarga qadar tekshiruv o‘tkazish yoki surishtiruv yoxud dastlabki tergov ishini yuritish uchun prokurorga yuborish to‘g‘risida ajrim chiqaradi.

O‘zbekiston Respublikasi JPKning 591-moddasida sudning ajrimi va uning qismlariga qo‘yilgan talablar bayon qilingan bo‘lib, sud ajrimining kirish qismida:

1) ajrim chiqarilgan vaqt va joy;

2) ajrim chiqargan sudning nomi, sudyaning, sud majlisi kotibining, taraflarning, tarjimonning ismi, otasining ismi va familiyasi;

3) amnistiya aktini qo‘llash haqidagi masala qaysi shaxsga nisbatan qo‘yilayotgan bo‘lsa, o‘sha shaxsning, guman qilinuvching, ayblanuvchining ismi, otasining ismi va familiyasi, tug‘ilgan yili, oyi, kuni va joyi, yashash joyi, ishslash joyi, mashg‘uloti, ma’lumoti, oilaviy ahvoli va ularning shaxsi to‘g‘risidagi, ish uchun ahamiyatli boshqa ma’lumotlar ko‘rsatiladi.

Sud ajrimining tavsif-asoslash qismida iltimosnomani qanoatlantirish yoki qanoatlantirishni rad etish uchun asos bo‘lgan holtalar bayon etiladi.

Ajrimning qaror qismida sud quyidagi masalalarni hal etadi:

amnistiya aktiga asosan jinoyat ishini qo‘zg‘atishni rad qilish haqidagi yoxud jinoyat ishini tugatish to‘g‘risidagi;

prokurorning jinoyat ishini qo‘zg‘atishni rad qilish to‘g‘risidagi yoki jinoyat ishini tugatish haqidagi iltimosnomasini qanoatlan-

tirishni rad etish hamda tergovga qadar o'tkazilgan tekshiruv yoki surishtiruv materiallarini yoxud jinoyat ishini umumiy qoidalar bo'yicha tegishinchalarga qadar tekshiruv o'tkazish yoki surishtiruv yoxud dastlabki tergov ishini yuritish uchun prokurorga yuborish to'g'risidagi;

prokurorning iltimosnomasini qisman qanoatlantirish va JPKning 83 va 84-moddalarida belgilangan boshqa asoslar bo'yicha jinoyat ishini qo'zg'atishni rad etish yoki jinoyat ishini tugatish to'g'risi-dagi;

ehtiyyot chorasi to'g'risidagi;

ashyoviy dalillar to'g'risidagi;

fuqaroviylar da'voni ta'minlash choralari to'g'risidagi.

Sudning ajrimiga amnistiya aktini qo'llash haqidagi masala qaysi shaxsga nisbatan qo'yilgan bo'lsa, o'sha shaxs tomonidan guman qilinuvchi, ayblanuvchi, jabrlanuvchi (fuqaroviylar da'vogar), ularning himoyachilari, qonuniy vakillari tomonidan xususiy shikoyat berilishi va prokuror tomonidan xususiy protest keltirilishi mumkin, bunday shikoyat va protestlar tegishinchalarga appellatsiya, kassatsiya va nazorat tartibida ko'rib chiqilishi lozim.

**Ishni sudga qadar yuritish bosqichida amnistiya  
aktini qo'llash bo'yicha ish yuritish bilan  
bog'liq sud ajrimi namunasi**

### AJRIM

Jinoyat ishlari bo'yicha Toshkent shahar Mirzo Ulug'bek tuman sudi 2014-yil, 10-mart kuni ochiq sud majlisida, ushbu sud binosida,

**Raislik etuvchi:** \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_ning kotibligida, tomonlardan Toshkent shahar Mirzo Ulug'bek tuman prokurorining katta yordamchisi \_\_\_\_\_, advokat \_\_\_\_\_ larning ishtirokida, O'zbekiston Respublikasi JKni 168-moddasining 1-qismi, 168-moddasi 2-qismining «b» bandi bilan ayblangan

**(F.I.SH.),** 1972-yil, 18-aprel kuni Samarqand viloyatida tug'ilgan, millati tojik, O'zbekiston Respublikasi fuqarosi, oilali, muqaddam sudlanmagan, ma'lumoti urta, vaqtincha ishsiz, Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani, Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 2-uy, 144-xonadonda doimiy ruyxatda turib, vaqtincha Rossiya

Federatsiyasi, Moskva shahri, Yelninskaya ko`chasi, 3-uy, 93-xonadonda istiqomat qiluvchi, ish bo`yicha munosib xulq-atvorda bulish haqida tilxat ehtiyyot chorasi qo`llanilganga nisbatan O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati 12.12.2013 yil kunidagi «O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 21 yilligi munosabati bilan amnistiya to`g`risida»gi Qarorining 2,6-bandlariga asosan jinoyat ishini tugatish to`g`risidagi Mirzo Ulugbek tuman prokurori tomonidan kiritilgan iltimosnomasini ko`rib chiqib, sud quydagilarni

### **ANIQLADI:**

Dastlabki tergov organi hujjalariiga ko`ra (F.I.SH.) 2009-yilni oktabr oyining oxirlarida o`zganing mulkini aldash va ishonchni suiste`mol qilish yo`li bilan qo`lga kiritish maqsadida fuqaro 03.02.1965 yilda tug`ilgan (F.I.SH.)ga tegishli bulgan Toshkent shahar Sirg`ali tumani Sirg`ali-7 mavzesi 5-uy 9-xonadonning yonida joylashgan muqaddam oshxona bulgan xonani 1.000 AQSH dollar evaziga uning xonadoni kadastr hujjatiga qo`shib rasmiylashtirib berishni vada qilib, Toshkent shahar Mirzo Ulug`bek tumani Buyuk Ipak yo`li ko`chasida joylashgan metro bekati yaqinida kelishilgan pullarning bir qismi sifatida 200 AQSH dollar pullarni (F.I.SH.)dan olib, o`zining ehtiyojlariga sarflab yuborgan.

O`zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotnomasiga ko`ra 2009-yil, 30-oktabr kuni 1 AQSH dollari 1.502 sumni, 200 AQSH dollar 300.400 sumni tashkil etishi aniqlangan.

Bundan tashqari (F.I.SH.) jinoiy harakatlarini davom ettirib, takroran 2009-yil, 1-dekabr kuni o`zganing mulkini aldash va ishonchni suiste`mol qilish yo`li bilan qulga kiritish maqsadida fuqaro 03.02.1965 yilda tug`ilgan (F.I.SH.)ga tegishli bulgan Toshkent shahar Sirg`ali tumani Sirg`ali-7 mavzesi 5-uy 9-xonadonning yonida joylashgan muqaddam oshxona bulgan xonani 1.000 AQSH dollar evaziga uming xonadoni kadastr hujjatiga qo`shib rasmiylashtirib berishni aytib, mazkur oshxonani rasmiylashtirish ishonchli bulishligi va xonani xujjalashtirish ishlarini uzi qilib berishi uchun Toshkent shahar Sirg`ali tumani Sirg`ali-7 mavzesi 5-uy 9-xonadondan foydalanishda uz nomiga ishonchnoma qildirib, 03.02.1965 yilda tug`ilgan (F.I.SH.)ga

bildirmasdan Toshkent shahar Sirg‘ali tumani Sirg‘ali-7 mavzesi 5-uy 9-xonadonni 10.06.1964 yilda tug‘ilgan (F.I.SH.)ga 12.000.000 sum miqdordagi pullarga sotib yuborib, (F.I.SH.)ga 32.760.000 sum miqdorda moddiy zarar etkazgan.

Bundan tashqari (F.I.SH.) jinoiy harakatlarini davom ettirib, takroran 2010-yil, oktabr oyining oxirlarida o‘zganing mulkini aldash va ishonchni suiste`mol qilish yo`li bilan qulga kiritish maqsadida 03.02.1965 yilda tug‘ilgan (F.I.SH.)ga tegishli bulgan Toshkent shahar Sirg‘ali tumani Sirg‘ali-7 mavzesi 5-uy 9-xonadonni sotib yuborgach, unga xonadonni pullarni qaytarib berishini aytib, pullarni qaytarib berishga ishonishi uchun notarial tartibda qarz shartnomasini rasmiylashtirishini, qarz shartnomasini rasmiylashtirishdan avval pasportining amal qilish muddati tugaganligi hamda doimiy ro`yxatini boshqa manzilga quyish uchun 260.000 sum miqdorda pullar kerakligini aytib, 03.02.1965 yilda tug‘ilgan (F.I.SH.)dan 260.000 sum miqdordagi pullarni firibgarlik yo`li bilan olib, uz ehtiyojlariga ishlatib yuborgan.

Dastlabki tergov organi tomonidan ayblanuvchi 03.02.1965 yilda tug‘ilgan (F.I.SH.)ning harakatlari O‘zbekiston Respublikasi JKni 168-moddasining 1-qismi, 168-moddasi 2-qismining «b» bandi bilan malakalanib, jinoyat ishi O‘zbekiston Respublikasi JPKning 589-moddasi talablariga asosan mazmunan ko`rib chiqishlik uchun sudga berilgan.

Mirzo Ulug‘bek tuman prokurori tomonidan (F.I.SH.)ga O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senatining 12.12.2013 yildagi «O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 21 yilligi munosabati bilan amnistiya tug‘risida»gi qaroriga asosan ayblilik masalasini hal etmasdan turib, jinoyat ishini harakatdan tugatish to`g`risidagi iltimos-noma kiritilgan.

Tergov vaqtida (F.I.SH.) ariza bilan murojaat qilib, aybiga to`liq iqrorligi va qilgan ishidan pushaymonligini ko`rsatib, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 12.12.2013 yilgi «O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 21 yilligi munosabati bilan amnistiya tug‘risida»gi qaroriga asosan unga nisbatan jinoyat ishni ayblilik masalasini hal etmasdan turib, harakatdan tugatishini so‘ragan.

Sud, Mirzo Ulug‘bek tuman prokurorining (F.I.SH.)ga nisbatan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati 12.12.2013 yil kunidagi «O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 21 yilligi munosabati bilan amnistiya to`g`risida»gi Qarorining 2,6-bandlariga asosan jinoyat ishi tugatish to`g`risidagi iltimosnomasini, (F.I.SH.)ning unga nisbatan jinoyat ishini tugatishni so‘rab taqdim

qilgan arizasini urganib chiqib, tuman prokurori yordamchisining yo`qoridagi amnistiya aktiga ko`ra (F.I.SH.)ga nisbatan jinoyat ishini tugatish lozimligi haqidagi xulosasini tinglab, advokatning shu kabi fikrini eshitib, (F.I.SH.)ga nisbatan mazkur qarorni qo`llashlikka mone`lik qiladigan holat va sabablar bo`Imaganligi tufayli unga nisbatan ushbu qarorni 6-moddasini qo`llab, (F.I.SH.)ni jinoyat sodir etilishida aybliligi to`g`risidagi masalani hal qilmay turib, jinoyat ishini harakatdan tugatishni lozim deb hisoblaydi.

Bundan tashqari sud, mazkur amnistiya to`g`risidagi qarorni qo`llash tartibi haqidagi Nizomning 12-moddasi oxirgi bandiga asoslangan holda ushbu jinoyat ish bo`yicha manfaatdor tomonlarga yetkazilgan moddiy va ma`naviy zararlarni undirish masalasi bo`yicha (F.I.SH.)ning yashash joyidagi fuqarolik ishlari bo`yicha sudiga murojaat qilish huquqi borligini tushuntirishni maqsadga muvofiq deb xisoblaydi.

Yo`qoridagilarga asosan va O`zbekiston Respublikasi JPK 84-moddasi 1-qismining 2-bandи va 423-moddasining 2-qismini qo`llab, sud ajrim qiladi

#### AJRIM :

Toshkent shahar Mirzo Ulug`bek tuman prokurorining iltimosnomasi qanoatlantirilsin.

O`zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi 168-moddasining 1-qismi, 168-moddasi 2-qismining «b» bandida nazarda tutilgan jinoyatni sodir qilganlikda ayblangan (**F.I.SH.**)ga nisbatan jinoyat ishi O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisи Senatining 12.12.2013 yil kunidagi «O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 21 yilligi munosabati bilan amnistiya to`g`risida»gi Qarorining 6-bandiga asosan uning ayblilik masalasini hal qilmasdan tugatilsin.

Ajrim qonuniy kuchga kirgandan so`ng (F.I.SH.)ga nisbatan qo`llanilgan ehtiyyot chorasi bekor qilinsin.

Manfaatdor tomonlarga yetkazilgan moddiy va ma`naviy zararlarni undirish masalasi bo`yicha (F.I.SH.)ning yashash joyidagi fuqarolik ishlari bo`yicha sudiga murojaat qilish huquqiga ega ekanligi qayd etilsin.

Ajrimdan norozi tomon 10 kunlik muddat ichida shu tuman sudi orqali jinoyat ishlari bo`yicha Toshkent shahar sudiga appellatsiya tartibida xususiy shikoyat yoki xususiy e'tiroz keltirishga xaqli.

**Raislik etuvchi:** (imzo) \_\_\_\_\_

*Nusxasi asliga to`g`ri, sudya:*

**Yarashuv to`g`risidagi ishlar bo`yicha ish yuritish  
bilan bog`liq sud majlisi bayonnomasi namunasi**

**SUD MAJLISI BAYONNOMASI**

Jinoyat ishlari bo`yicha Toshkent shahar Mirzo Ulug`bek tuman  
sudi

2014-yil,

10-mart kuni, ochiq sud majlisida, sud binosida

Raislik etuvchi: \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_ning kotibligida, Toshkent shahar Mirzo Ulug`bek  
tuman prokurorining katta yordamchisi \_\_\_\_\_, advokat  
\_\_\_\_\_larning ishtirokida O`zbekiston Respublikasi Jinoyat  
Kodeksi 168-moddasining 1-qismi, 168-moddasi 2-qismining «b»  
bandida nazarda tutilgan jinoyatni sodir qilganlikda ayblangan  
**(F.I.SH.)ga** nisbatan O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati  
12.12.2013 yil kunidagi «O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi  
qabul qilinganligining 21 yilligi munosabati bilan amnistiya  
to`g`risida»gi Qarorining 2,6-bandlariga asosan jinoyat ishini tugatish  
to`g`risidagi Mirzo Ulug`bek tuman prokurori tomonidan kiritilgan  
iltimosnomasi kurilmoqda.

**SUD MAJLISI OCHIQ DEB E`LON QILINDI.**

Sud majlisiga X.Kuchimov hozir bo`lmadi.

Raislik etuvchi sud tarkibini e`lon qildi.

Tuman prokurori yordamchisi X.Akramov

- sud tarkibiga e`tirozlarim yuk.

Advokat G.Ermatova

- sud tarkibiga e`tirozim yo`q.

Sud ishtirokchilari tomonidan sud tarkibiga e`tirozlar tushmadi.

Raislik etuvchi ayylanuvchining shaxsini aniklamokda.

(F.I.SH.), 1972-yil, 18-aprel kuni  
Samarqand viloyatida tug`ilgan, millati  
tojik, O`zbekiston Respublikasi fuqarosi,  
oilali, muqaddam sudlanmagan, ma`lumoti  
o`rta, vaqtincha ishsiz, Toshkent shahar,  
Mirzo Ulug`bek tumani, Mirzo Ulug`bek  
ko`chasi, 2-uy, 144-xonadonda doimiy  
ro`yxatda turib, vaqtincha Rossiya  
Federatsiyasi, Moskva shahri, Yelninskaya

ko`chasi, 3-uy, 93-xonadonda istiqomat qiladi.

Shaxsi bo`yicha savollar bo`lmadi.

Mirzo Ulug`bek tuman prokurori iltimosnomasi o`qib eshittirildi.

Tuman prokurorining yordamchisi \_\_\_\_\_ xulosasi jinoyat e`lon qilingan amnistiya aktidan oldin sodir etilganligini inobatga olib, (F.I.SH.)ga nisbatan O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 12.12.2013 yildagi «O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 21 yilligi munosabati bilan amnistiya to`g`risida»gi

Qarorini qo`llab, jinoyat ishini tugatishni so`rayman.

Prokuror yordamchisi xulosasi yozma ravishda sudga ilova qilindi, ish hujjatlariga qo`sib qo`yildi.

Advokat \_\_\_\_\_ fikri

jinoyat e`lon qilingan amnistiya aktidan oldin sodir etilganligini inobatga olib, meni himoyamdag'i (F.I.SH.)ga nisbatan O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 12.12.2013 yildagi «O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 21 yilligi munosabati bilan amnistiya to`g`risida»gi Qarorini qo`llab, jinoyat ishini tugatishni so`rayman.

Advokat fikri yozma ravishda sudga ilova qilinmadı.

Sud alohida xonaga kirib ketdi. Alohidada xonadan chiqgach ajrim o`qib eshittirildi.

Norozi tomonga shikoyat yoki protest keltirish tartibi va muddati tushuntirildi hamda 5 kunlik muddat ichida sud majlisi bayonnomasi bilan tanishish tartibini tushintirdi.

SUD MAJLISI YOPIQ DEB E`LON QILINDI.

Raislik etuvchi:

Kotib:

## **NAZORAT UCHUN SAVOLLAR**

1. Alohidat toifadagi jinoyat ishlarini yuritishda rasmiylash-tiriladigan protsessual hujjatlar o‘ziga xos xususiyatlarini tushuntirib bering.
2. Voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlarni yuri-tishda rasmiylashtiriladigan protsessual hujjatlarni tushuntirib bering.
3. Tibbiy yo‘sindagi majburlov choralarini qo‘llash to‘g‘ri-sidagi ishlarni yuritishda rasmiylashtiriladigan protsessual hujjat-larni tushuntirib bering.
4. Yarashuv to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha ish yuritishda rasmiy-lashtiriladigan protsessual hujjatlarni tushuntirib bering.
5. Ishni sudga qadar yuritish bosqichida amnistiya aktini qo‘llashda rasmiylashtiriladigan protsessual hujjatlarni tushuntirib be-ring.

### **Foydalanishga tavsiya etilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Shoraxmetov Sh.Sh. Fuqarolik ishlarini sudda ko‘rishga oid protsessual hujjat namunalariga sharh. –T.: TDYI, 2008. – 345 b.
2. Fuqarolik ishlari bo‘yicha protsessual hujjatlar. O‘quv qo‘llanma. Mualliflar jamoasi. –T.: TDYU, 2018. – 333 b.
3. X.Yodgorov. Fuqarolik ishlari bo‘yicha sud hujjatlari. – Toshkent: 2016. –360 bet.
4. M.Nazarov. Jinoyat ishlari bo‘yicha sud hujjatlari. – Toshkent: “Adolat” nashriyoti, 2015. – 864 b.

## **SUD PROTSESSUAL HUJJATLARI**

Yuridik texnikum o‘quvchilari uchun  
darslik

Muharrir: X.Yuldasheva

Musahhhil: R.Yunusova

Texnik muharrir: N.Niyazova

Kompyuterda sahifalovchi:



«Azmir Nashr Print» nashriyoti.  
100200, Toshkent shahar, A.Rahmat ko‘chasi, 10-uy.

Bosishga 2020 \_\_-\_\_ ruxsat etildi.

Bichimi 80x108  $\frac{1}{32}$ . Ofset qog‘ozি. Times New Roman  
garniturasi. Shartli bosma tabog‘i 7,25. Nashr tabog‘I \_\_\_\_\_.  
Adadi 1145 nusxa. Buyurtma raqami 193.

«Azmir Nashr Print» MChJ bosmaxonasida chop etildi.  
100200, Toshkent shahri, A.Rahmat ko‘chasi, 10-uy.